

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

---

---

AKADEMIYA

MA'MURIY HUQUQ

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**

---

**A K A D E M I Y A**

# **MA'MURIY HUQUQ**

*O'zbekiston Respublikasi IIV tomonidan Vazirlik olyi  
ta lim muassasalari uchun darslik sifatida  
foydalanishga ruxsat etilgan*

**Prof. X.T. Odilqoriyev va B. E. Qosimovning  
umumiylahri tahriri ostida**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining  
Tahririyat-noshirlilik hay'ati tomonidan ma'qullangan*

**Mualliflar jamoasi:**

**Babakalanov Z.** – XVII bob;

**Babayev D.** – XV, XX boblar;

**Baxramov X.** – XII bob;

**Ziyodullayev M.** – yuridik fanlar nomzodi - VII bob;

**Ismailov I.** – yuridik fanlar doktori, professor – VI bob

**Z. Babakalanov** bilan hammualliflikda;

**Ismailov N.T.** – yuridik fanlar nomzodi, dotsent – IV, IX, X, XI, XIII bob, XXII boblar;

**Muxamadaliev D.** - yuridik fanlar nomzodi, XVIII bob;

**Odilqoriyev X.T.** – yuridik fanlar doktori, professor – II, III boblar;

**Rustamov S.** – XIX bob;

**Saidov B.** – yuridik fanlar nomzodi. dotsent, – XVI bob

**Hakimov G'.** – XIX bob;

**Xojiyev E.** yuridik fanlar nomzodi. dotsent – I, VIII, XIV boblar; V bob

(**Rustamov S.** va **Ismoilov SH.** bilan hammualliflikda).

**Taqrizchilar:**

yuridik fanlar doktori, professor **A. Raxmanov**;

yuridik fanlar doktori, professor **O. Xusanov**;

yuridik fanlar doktori **A.A. Sattarov**



## SO'Z BOSHI

Respublikamiz mustaqil taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari ma'muriy islohotlarning ustuvor yo'naliishlarini belgilab berdi. Ma'muriy islohotlar asosida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarini oqilona qisqartirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini aniq belgilab qo'yish, davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirishda muayyan natijalarga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 20-iyundagi farmoyishi asosida Ma'muriy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni boshqarish tuzilmasini takomillashtirishga oid takliflarni tayyorlash bo'yicha Respublika komissiyasi tuzilishi, shuningdek davlatimiz rahbarining 2003-yil 9-dekabrdagi farmoniga muvofiq, Respublika davlat boshqaruvi organlari ro'yxatining tasdiqlanishi boshqaruvning tashkiliy-huquqiy mexanizmini yanada takomillashtirish hamda ushbu sohadagi modernizatsiyalash jarayonlari izchiligini ta'minlashda muhim asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi negizida 1994-yil 22-sentabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi boshqaruv va ma'muriy faoliyat sohasidagi demokratik o'zgarishlarning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Ayni vaqtda, islohotlarga hamohang tarzda mazkur kodeks ham liberallashtirish tamoyillari asosida takomillashib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to'g'risida»gi 2005-yil 10-mart qarori ma'muriy qonunchilik sohasida ham islohotlarning navbatdagi bosqichini boshlab berdi. Ushbu Dasturning bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishning ustuvor yo'naliishlari konsepsiyasida ma'muriy javobgarlik, ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Ma'lumki, ma'muriy huquq tizimini leberallashtirish, davlat boshqaruvini modernizatsiyalash hamda ma'muriy qonunchilikni yanada takomillashtirishdan iborat mazkur jarayonlar o'zida nazariy g'oyalarni mujassam etadigan konseptual yondashuvni talab etadi.

Ma'muriy huquq O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining yirik, salmoqli, rivoj topgan va murakkab tarmoqlaridan biridir. Uning bu maqomi ma'muriy huquq tartibga soladigan kuchli ijtimoiy munosabatlar mazmuni va ahamiyati bilan belgilanadi. Ma'muriy huquq ommaviy huquqning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, konstitutsiyaviy huquq, mehnat huquqi, moliya huquqi, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi kabi sohalar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois ma'muriy huquq ommaviy huquqning bir turi sifatida avvalo hokimiyat munosabatlari, shu jumladan, davlat boshqaruvi va jamoat tartibini saqlash sohasidagi munosabatlarni, qolaversa, davlat hokimiyati bilan fuqaro o'rtasi yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

Mazkur darslik jamiyatda amal qilayotgan ma'muriy-huquqiy munosabatlar tizimi haqida, ushbu huquq sohasining predmeti, tuzilishi, prinsiplari va usullari to'g'risida umumiyligi ilmiy ma'lumot beradi.

«Ma'muriy huquq» darsligi yuqorida ta'kidlangan davlat boshqaruvi va qonunchilik sohasidagi yangiliklarni, qolaversa, ichki ishlar organlari faoliyatidagi islohotlarni e'tiborga olgan holda tayyorlandi. Shuningdek, darslik huquqni muhofaza qilish organlari, xususan, ichki ishlar organlari xodimlarining ma'muriy-huquqiy sohadagi tasavvurlarini kengaytirishga, ijro etuvchi hokimiyat tizimida davlat organlari faoliyatining huquqiy tartibga solinishiga oid bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

Darslikda turli ijtimoiy sohalarda boshqarishni tashkil etish masalalariga ham alohida e'tibor berilgan, shu jumladan, chegara qo'shnilar, tibbiyot, bojaxona, soliq, inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohalari batafsil tahlil etilgan. Ushbu darslikda O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Respublika Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, ichki ishlar va boshqa ijro etuvchi organlarning amaliy tajribasidan keng foydalilanilgan.

Kitobda ma'muriy huquq fanining bir qator nazariy muammolari ham o'z aksini topgan bo'lib, mualliflar ma'muriy-huquqiy munosabatlar, ma'muriy-huquqiy normalarni amalga oshirish shakllari va usullari to'g'risida muhim ilmiy fikr-mulohazalar bildirganlar.

Kitobxonlar e'tiboriga havola etilayotgan mazkur darslik respublikamizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurish ishiga, fuqarolar va yuridik oliy ta'lim muassasalarining talablari, IIV Akademiyasi tinglovchilarining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

## **UMUMIY QISM**

- Ma'muriy huquq — huquq tarmog'i sifatida
- Ma'muriy huquq subyektlari
- Davlat boshqaruv faoliyatining shakllari va usullari
- Ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy javobgarlik
- Ma'muriy jarayon va ma'muriy huquqbuzarlik  
to'g'risida ishlarni yuritish
- Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizom

*Birinchi bo‘lim*  
**MA’MURIY HUQUQ – HUQUQ TARMOG‘I SIFATIDA**

---

*I bob*  
**MA’MURIY HUQUQ FANINING  
TUSHUNCHASI, PREDMETI VA TIZIMI**

**1-§. Davlat boshqaruvi tushunchasi, funksiyalari  
va prinsiplari**

«Ma’muriy huquq» atamasi lotincha «*administratio*» so‘zidan olingan bo‘lib, «boshqaruv huquqi» ma’nosini anglatadi. Shu sababli, «Ma’muriy huquq» fanining mazmun-mohiyatini ochib berishdan avval «boshqaruv», «davlat boshqaruvi» tushunchalarini anglab olish lozim.

Boshqaruv davlat paydo bo‘lmasdan oldin vujudga kelgan bo‘lib, kimni, nimani yoki qandaydir faoliyatni «yo‘naltirish, unga rahbarlik qilish» ma’nosini anglatadi.

XX asrning 60-yillarida turli sohalardagi boshqaruv jarayonini o‘rganuvchi fan — *kibernetika*<sup>1</sup> vujudga keldi. Matematik apparat, matematik mantiq va funksiya nazariyasidan foydalanib, avtomatik tartibga solish, axborot va ilm-fanning ko‘pgina boshqa sohalaridagi eng muhim tajribalarni (yutuqlarni) birlashtirish imkonini berdi.

Kibernetika — boshqaruv, aloqa, kontrol, tartibga solish, qabul qilish, saqlash va axborotni qayta ishlash kabi masalalarni o‘rganuvchi fan sifatida vujudga keldi. Bunda boshqaruv tushunchasi, jarayonlari, hamda prinsiplariga, yagona tizimni tashkil etuvchi turli elementlarning o‘zaro aloqasiga alohida, e’tibor qaratilgan. Boshqaruv mazmunini ochib beruvchi «tizim» tushunchasi esa quyidagi xususiyatlarning mavjudligi bilan tafsiflanadi:

---

<sup>1</sup> Берг А.И. Кибернетика — наука об оптимальном управлении.— М., 1964; Винер Н. Кибернетика и общество. — М., 1958.

- a) boshqaruvning maqsadi va vazifalari;
- b) boshqaruv subyekti va obyekti;
- d) boshqaruv funksiyalari;
- e) boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi;
- f) tizim elementlarining yagonaligi, mustaqilligi va o'zaro aloqasi;

g) faoliyatning ma'lum bir shakl va uslublari<sup>1</sup>.

Kibernetika fanidan kelib chiqqan holda, boshqaruv to'g'risida quyidagi xulosalarни chiqarish mumkin:

1) boshqaruv — turli xil (biologik, texnik, ijtimoiy) tashkil etilgan tizimning funksiyasi bo'lib, uning yaxlitligini ta'minlaydi, ya'ni tizim oldida turgan vazifalarning amalga oshirilishiga erishiladi, uning tuzilmasi va faoliyatining o'matilgan tartibi saqlab turiladi;

2) boshqaruv u yoki bu tizim elementlarining o'zaro munosabatlari manfaatiga xizmat qiladi;

3) boshqaruv yaxlit tizimning ichki sifatini tashkil etadi, uning asosiy elementlari bo'lib esa, o'zini o'zi tashkil etish (boshqarish)ga asoslanuvchi va doimiy munosabatda bo'luvchi subyekt (boshqaruvchi element) va obyekt (boshqariluvchi element) hisoblanadi;

4) boshqaruv nafaqat tizimni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro ichki munosabatini, balki mavjud turli xil iyerarxik darajadagi tizimlarning xususiyatiga ko'ra ham ichki, ham tashqi boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishni nazarda tutadi;

5) boshqaruv o'z mohiyatiga ko'ra subyektning obyektga nisbatan boshqaruvchilik ta'sirini anglatib, tizimni tartibga solish va faoliyatini ta'minlash uning mazmunini tashkil etadi. Boshqaruv - maqsadga muvofiq tartibga solingan ta'sir etish bo'lib, subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabatda qo'llaniladi va subyekt tomonidan bevosita amalga oshiriladi;

6) boshqaruv obyektining subyektga, ya'ni boshqariluvchi elementning boshqaruvchi elementga bo'ysunganida mavjud bo'lishi mumkin.

---

<sup>1</sup> Кнорринг В.И. Искусство управления: Учебник. – М., 1997. – С. 6.

Huquqshunos olim B.N.Gabrichidze boshqaruvning ikki turini ko'rsatib o'tadi:

a) jamiyatni boshqarish (ijtimoiy boshqaruv) — ijtimoiy hayotga yoki uning bir qancha yoxud ayrim sohalariga ta'sir etish, ijtimoiy ishlarni boshqarish;

b) davlatni boshqarish — davlat hayotini uning olib borayotgan siyosatiga moslashtirish maqsadida davlat yoki uning institutlarining maqsadga muvofiq ta'sir etishidir<sup>1</sup>.

Davlat boshqaruvi - ommaviy ehtiyoj va manfaatlarni anglash, ularni baholash va tarkibiy qismlarga ajratish, aniq maqsadlar qo'yish, ma'lum bir qarorlar ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash uchun mavjuddir. Shu sababli, davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirishning ijtimoiy mexanizmi o'zaro bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisalarining, ya'ni ehtiyoj — manfaat — maqsad — qaror — harakat - natijaning yagona zanjiri sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat boshqaruvi tushunchasiga turlicha yondashish mumkin. Ko'p hollarda, davlat boshqaruvi qonun chiqarish va odil sudlov faoliyati doirasidan tashqarida bo'lgan davlat va davlat-hokimiyat subyektlarining faoliyati sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat boshqaruvi murakkab, harakatchan tizimga ega bo'lib, uning har bir elementi ijtimoiy hayotni tartibga solishga ta'sir ko'rsatadi.

Yuridik adabiyotlarda davlat boshqaruvining tizimlilik xususiyatiga alohida e'tibor beriladi. Chunki bu faoliyatga boshqaruv aktlarini qabul qiluvchi va amalga oshiruvchi boshqaruvchilar (davlat xizmatchilari va mansabdar shaxslar), shuningdek, fuqarolar hamda moliyaviy, tashkiliy va moddiy resurslar jalb qilingan. Davlat boshqaruvining tizimliligi — belgilangan maqsad va vazifalarga erishish hamda boshqaruv funksiyalarini samarali amalga oshirishni ta'minlaydi.

Davlat boshqaruviga berilgan barcha ta'riflarda uning asosiy mazmuni — *davlatning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan maqsadga muvofiq amaliy ta'sir etishi* ko'rsatib o'tilgan.

<sup>1</sup> Габричидзе Б.Н., Черняевский А.Г., Ким-Кимэн А.Н. Административное право: Учебник. — М.: ТК Велби, Изд-во Проспект. — 2004. — С. 7.

Davlat boshqaruvi mazmun-mohiyatini yoritib berishda uning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tish lozim.

1) *davlat boshqaruvi* - ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirishga qaratilgan hamda qonun chiqarish va odil sudlov faoliyatidan shakli, uslublari va mazmuniga ko'ra ajralib turadigan alohida faoliyat turi hisoblanadi. Davlat boshqaruvi — bu qonunlar va boshqa normativ (qonun osti) hujjatlarni qo'llash bo'yicha olib boriladigan ijrochilik va farmoyish berish faoliyatidir;

2) *davlat boshqaruvi* — huquqni qo'llash bilan bir vaqtda ma'muriy huquq ijodkorligi (huquq o'rnatish) faoliyatini amalga oshiradi. Davlat boshqaruvi organlarining huquq ijodkorligi shunda namoyon bo'ladiki, ular vakolatlari doirasida boshqa huquq subyektlari (boshqaruv obyekti) uchun majburiy bo'lgan xulqatvor qoidalalarini ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar, ma'muriy yurisdiksiyaviy (huquqni himoya qilish) faoliyatni yuritadilar;

3) *davlat boshqaruvi* — qonunlarni ijro etish, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish zarurati vujudga kelgan hamma joyda amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi davlat va jamiyat hayotining muhim sohalari — xo'jalik-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy sohalarda amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi nafaqat davlatga qarashli bo'lgan obyektlarni, balki nodavlat notijorat va boshqa tashkilotlarni ham qamrab oladi (bunda davlat boshqaruvi tartibga solish va kontrol-nazorat faoliyati sifatida namoyon bo'лади);

4) *davlat boshqaruvi* — bu ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining obyektiv qonuniyatlariga asoslangan va davlat manfaatlari, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan doimiy va rejali faoliyatdir. Davlat boshqaruvi jarayonida davlat vazifalari va funksiyalari amalga oshiriladi;

5) *davlat boshqaruvi* — davlat tomonidan tuziladigan va yagona davlat boshqaruvi organlari tizimini tashkil etadigan ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat nomidan va davlat ko'rsatmasiga binoan harakat qiladigan ushbu organlar xususiyatiga ko'ra davlat-hokimiyat vakolatiga ega bo'ладilar va shu vakolat doirasida faoliyat yuritadilar;

6) *davlat boshqaruvi* — qonuniylik prinsipiga amal qiladi, ya’ni ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjalarga asoslanadi. Boshqaruv faoliyati davlat organlari tomonidan faqatgina ularga berilgan vakolat doirasidagina amalga oshiriladi;

7) *davlat boshqaruvi* — vertikal (subordinatsiyaviy, iyerarxik) va gorizontal aloqalar va munosabatlar asosida tashkil etiladi. Boshqaruv jarayonida eng ko‘p tarqalgan munosabatlar vertikal bo‘lib, boshqaruv subyektlarining ma’muriy va intizomiy bo‘ysunuvi asosida vujudga keladi. So‘nggi vaqtarda boshqaruv jarayonida boshqaruv subyektlarining tengligiga asoslangan yangi shakldagi gorizontal munosabatlarning vujudga kelishini ham kuzatish mumkin (masalan, ijro etuvchi hokimiyat organlari o‘rtasida vakolatlarni qayta taqsimlash, ommaviy yoki ma’muriy-huquqiy shartnomalar tuzish va hokazo);

8) *davlat boshqaruvi* — tashkil etish prinsipiga asoslanadi, ya’ni unga butun boshqaruv mexanizmining maqsadga muvofiq va doimiy ish jarayonini ta’minlovchi xilma-xil shakllar xosdir. Davlat boshqarushi organlarining tashkilotchilik faoliyati ham tashqi, ham ichki ma’muriy funksiyalarni ijro etishni o‘z ichiga oladi;

9) *davlat boshqaruvi* — yurisdiksiyaviy xususiyatga ega bo‘lgan vakolatlarni ham o‘z ichiga oladi, ya’ni ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan «majburlovga oid» boshqaruvni amalga oshirishning ma’muriy tartibini (suddan tashqari) ta’minlaydi (masalan, ma’muriy jazo yoki ma’muriy ogohlantiruv yoxud ma’muriy cheklov choralarini qo’llash).

Davlat boshqarushi davlat faoliyatining bir ko‘rinishi bo‘lib, davlat funksiyalari unga xos hisoblanadi. Lekin shu bilan birga, boshqaruv xususiyatlaridan kelib chiquvchi funksiyalar ham mavjuddir.

Boshqaruv funksiyalari muammosini o‘rganish — boshqaruvning tuzilishi va tizimini tashkil etish, boshqaruv organlarining obyektiv ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi.

*Boshqaruv funksiyalari* — boshqaruv subyekting boshqaruv obyektiga nisbatan aniq yo‘naltirilgan ta’sir etishi (tashkil etish, tartibga solish, nazorat qilish) hisoblanadi.

Boshqaruv funksiyalari aniq mazmunga ega bo'lib, boshqaruvning uslublari va shakllari yordamida (masalan, majburlov choralari, huquqiy aktlarni qabul qilish, bo'ysunuvchilik ta'siri va hokazo) amalga oshiriladi.

Yuridik adabiyotlarda boshqaruv funksiyalari bilan bir qatorda boshqaruv organlarining funksiyalari (ya'ni, ularning obyektga nisbatan boshqaruv ta'siri)ni ham uchratish mumkin. Lekin hozirgi dolzarb masalalardan biri — boshqaruv funksiyalarining boshqaruv organlari funksiyalaridagi aniq o'rni va huquqiy o'rnatilishini belgilab olish hisoblanadi.

Ko'pgina yuridik adabiyotlarda boshqaruv funksiyalari ijro etuvchi hokimiyat (davlat boshqaruvi) organlarining funksiyasi tariqasida ko'rsatib o'tilgan.

Umuman, davlat va uning organlarining funksiyalari — davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, uning ijtimoiy holatini belgilaydi, inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining amalga oshirilishini, davlat va jamiyatni samarali hamda bir me'yorda boshqarilishini ta'minlaydi.

Davlat boshqaruvi funksiyalari obyektiv qonuniyatlar bilan izohlanadi. Har bir funksianing mazmuni davlat va davlat boshqaruvi oldida turgan maqsad, boshqaruv obyekti xususiyatlari bilan belgilanadi hamda davlat boshqaruvi organlarining obyektlarga tashkiliy-huquqiy ta'sir etish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Davlat boshqaruvining asosiy funksiyalari jumlasiga quyida-gilarni kiritish mumkin:

1) *davlat boshqaruvi organlari faoliyatini axborot bilan ta'minlash funksiyasi*, ya'ni davlat boshqaruvi faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni yig'ish, olish, qayta ishslash va baholash;

2) *davlat boshqaruvi tizimi rivojlanishining istiqbolini belgilash funksiyasi*. Istiqbolni belgilash — bu kasbiy tajriba, amaliyot va ilmiy-nazariy yutuqlarga asoslangan ma'lumotlarga tayanib, davlat boshqaruvi va boshqaruv organlari faoliyati rivojidagi o'zgarishlar, ma'lum hodisa va jarayonlarning natijalarini oldindan ko'ra bilişdir. Istiqbolni belgilash boshqaruv qarorlari qabul qilishda juda muhimdir. Boshqaruvning bu funksiyasisiz ijtimoiy jarayonlarning

natijalari, jamiyatning istiqboldagi holati va davlat organlari faoliyatining samaradorligini aniqlash mumkin emas;

3) *rejalashtirish funksiyasi* — davlat boshqaruvi tizimidagi u yoki bu jarayonlarning yo‘nalishlari, rivojlanishning sifat va miqdor ko‘rsatkichlari, davlat funksiyalarining amalga oshirilishini belgilash hisoblanadi. Bundan tashqari, *rejalashtirish funksiyasi* orqali davlat faoliyati va boshqaruvini takomillashtirish va isloh qilishning maqsad va vazifalari hamda yo‘nalishlari belgilanadi. Mazkur funksiyani amalga oshirish jarayonida davlat boshqaruvi turli sohalaridagi aloqalarning rivojlanish dasturlari, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari faoliyati va tuzilishini o‘zgartirish hamda yaxshilash bo‘yicha dasturlar ishlab chiqiladi;

4) *tashkil etish funksiyasi* — bu o‘rnatilgan tartib va prinsiplarga asoslanib, davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, boshqaruv tizimida boshqaruvchi va boshqariluvchining tuzilishini belgilashdir. Tor ma’noda, *tashkil etish* — davlat organlari, davlat personali (xizmatchisi), davlat boshqaruvi jarayonlari tuzilishini belgilash hisoblanadi. *Tashkil etish* faoliyati — davlat boshqaruvi organlari faoliyatini ta’minlovchi harakatlar va qarorlarni o‘z ichiga oladi;

5) *farmoyish berish funksiyasi*, ya’ni davlat organlari vakolatlari va mansab majburiyatlarini amalga oshirish, davlat faoliyatining belgilangan tartibini ta’minalash bo‘yicha vujudga keladigan boshqaruv munosabatlarini kundalik tartibga solishdir. Farmoyish berish — davlatning rahbar xodimlari (mansabdor shaxslar) tomonidan tegishli ko‘rsatmalar berishdir;

6) *rahbarlik qilish funksiyasi* — davlat organlari (davlat xizmatchilar), boshqariluvchi obyektlari faoliyati va ular ayrim harakatlarining qoidalari va normalarini o‘rnatish hisoblanadi. *Rahbarlik qilish* bilan bir qatorda «umumiylahbarlik» atamasi ham mavjud. Umumiylahbarlik — bu davlat faoliyatining mazmunini belgilashdir;

7) *muvoqqlashtirish funksiyasi* — bu turli davlat boshqaruvi organlari (davlat xizmatchilar) faoliyatini davlat boshqaruvining umumiylahmaqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun yo‘naltirishdir. Muvoqqlashtirish orqali boshqaruv faoliyatining tizimi tashkil etiladi va uning ish jarayoni ta’milanadi. Masalan, bir

necha mustaqil davlat organlari mavjud va ularning har biri o‘zining tashkiliy tuzilmasi, maqsad va vazifalariga ega bo‘lib ma’lum bir muammoni ularning birgalikdagi faoliyati orqali hal etish kerak bo‘lganida, muvofiqlashtirish vakolatiga ega davlat organini tashkil etish ehtiyoji vujudga keladi;

8) *kontrol qilish funksiyasi* — davlat boshqaruvi tizimi va uning tuzilishining o‘rnatilgan standart va normalarga mos kelishi yoki mos kelmasligini, davlat organlari faoliyati va ayrim boshqaruv subyektlari harakatining natijalarini, davlat boshqaruvida belgilangan va amalga oshirilgan holatlarni o‘rganish va baholashdir. Kontrol qilish — boshqaruv faoliyatining sifati ustidan kuzatish, kamchilik va xatolarni hamda boshqaruv harakatlari va qabul qilingan aktlarning qonuniylik va maqsadga muvofiqlik prinsiplariga mos kelishini aniqlashdan iborat. Davlat faoliyatining ma’lum bir sohalarida u yoki bu harakatlarni amalga oshirish ustidan davlat hokimiyati organlari kontrol o‘rnatadilar. Kontrolni amalga oshirish vaqtida ketma-ketlik, asoslantirilganlik, oshkoraliq, obyektivlik, qonuniylik va tezkorlikka amal qilish kerak. Kontrolning keng tarqalgan turlaridan biri — nazorat hisoblanadi. Nazorat, odatda, ma’lum bir harakatlarning (qarorlarning) qonuniyligini tekshirish maqsadidagina amalga oshiriladi (kontrol va nazoratning mazmuni va xususiyatlari ushbu darslikning 17,18-boblarida ko‘rsatib o‘tilgan);

9) *tartibga solish funksiyasi* — bu davlat boshqaruvi tizimi va uning faoliyatini tashkil etish jarayonida boshqaruv uslublari va usullaridan foydalanishdir. Tartibga solish — jamoat tartibi va xavfsizligi, iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligi, demokratik raqobat asoslarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash maqsadida boshqaruv obyektlari hamda turli huquq subyektlari uchun umum majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalarni o‘rnatish hisoblanadi. Tartibga solish funksiyasi bir necha yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, normativ huquqiy akt orqali ma’lum bir sohadagi xulq-atvor qoidalarini belgilash yoki boshqaruvning aniq jarayonlarini (sertifikatlash, litsenziyalash, soliqqa tortish, ro‘yxatga olish va hokazo) o‘rnatish;

10) *hisobga olish funksiyasi* — miqdor shaklida ifodalangan axborotlar, moddiy resurslar harakati, boshqaruv faoliyatining amalga oshirish natijalari, davlat organlari vakolatlari, davlat boshqaruv qarorlari hamda boshqaruv uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlarning mavjudligi va harakatini inobatga olishdir. Hisobga olish funksiyasi - qandaydir predmet, hujjat va faktlarning mavjudligini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

## 2-§. Davlat boshqaruvi prinsiplari

Davlat boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlarini uning prinsiplarida ko‘rish mumkin. Har qanday davlat faoliyati singari davlat boshqaruvi ham ma’lum bir prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Prinsiplarga bo‘ysunish xosdir. Boshqaruv prinsiplari obyektiv qonuniylikni aniqlashning va undan aql-idrok bilan foydalanish shakllaridan biri hisoblanadi.

Prinsiplarga so‘zsiz rioya qilish lozim. Agar boshqaruv prinsiplari buzilsa, u bevosita amaliy vazifalarni hal etishga to‘sqinlik qiladi.

Boshqaruv prinsiplari turli-tumandir. Shu bilan birga, ular o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Prinsiplarning ba’zilariga rioya qilish boshqalarining amalga oshirilishiga ko‘maklashadi, va aksincha, ma’lum bir prinsipga rioya etmaslik boshqalarining buzilishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, davlat boshqaruvining quyidagi asosiy prinsiplarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

***Qonunning ustunligi va hamma uchun majburiyligi prinsipi.***  
Bu prinsipga asosan O‘zbekiston Respublikasining barcha qonunlari va boshqa huquqiy normalari muqaddas bo‘lib, barcha shaxslar ularga amal qilishi shart. Bu prinsip Asosiy qonunimiz → Konstitutsiyaning 15-moddasida o‘z ifodasini topgan. Unga binoan O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar.

Jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquq va erkinliklari qat'iy intizom, ichki uyush-qoqlik va mas'uliyat jihatidan ustuvor bo'lmasa, qonunlar va milliy an'analar, urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlar hurmat qilinmasa, demokratik huquqiy davlatni barpo etib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda u asosda qabul qilingan qonunlar oldida barcha birday mas'uldir. Qaysi bir jamiyatda qonunlar bajarilmay qog'ozda qolib ketsa, unday jamiyat aslo ravnaq topmaydi, adolatga erisha olmaydi. Qonun amalda bo'lishi kerak. Qonun qabul qilindimi, uning ijrosi ham qat'iy bo'lmoq'i lozim. Aynan shu yerda davlat boshqaruving asosiy vazifasini ko'rish mumkin, ya'ni davlat boshqaruvi - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarini ijro etishga xizmat qiladi.

Demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri - barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlashdir. Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi:

*birinchidan*, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iyan hukmronligini, hech kim, hech bir davlat organi, mansabdar shaxs, fuqaro qonunga bo'ysunish majburiyatidan holi bo'lishi mumkin emasligini anglatadi;

*ikkinchidan*, asosiy ijtimoiy, eng avvalo iqtisodiy va siyosiy munosabatlardan faqat qonun yo'li bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganlik uchun huquqiy javobgarlikka tortiladi.

Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat bo'lmoq'i lozim. Zotan ulug' bobokalonimiz Amir Temur ta'kidlaganidek, «Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov O'zbekistonda yangi jamiyat qurish va bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun barcha kishilarning qonunga amal qilishini muhim prinsip ekanligini, o'zining «Qonun va adolat ustuvorligining hayotbaxsh manbai» nutqida: «Qonun, yana bir bor qonun — katta-yu

kichik, jinsidan, millati, e'tiqodi va mansabidan qat'i nazar, - barchamiz uchun ustuvor bo'lmog'i darkor!», — deb ko'rsatadi<sup>1</sup>.

***Qonuniylikning yagonaligi prinsipi.*** Bu prinsip O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlar bir xilda qo'llanilishini, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarini demokratlashtirish yo'liga o'tdi. Jahon tajribasidan ma'lumki, insонning asosiy huquq hamda erkinliklarini qat'iy himoya qilmasdan va uni amalda ta'minlamasdan turib, jamiyatni demokratlashtirish mumkin emas.

Inson huquqlarini tushunib yetish uchun nihoyatda muhim bo'lgan odamlarning tabiiy tengligi g'oyalari qadimgi yunon mutafakkirlari — Protagor, Antifont, Likofron va qadim Xitoy donishmandi Konfutsiyning siyosiy hamda huquqiy ta'limotlarida ilgari surilgan. Huquq subyekti va qonun oldida tenglik tushunchalarini ishlab chiqishdagi xizmatlar qadimgi Rim huquqshunoslariga tegishli. Sitseron «Hamma qonun ta'siri ostida bo'lishi kerak», deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasida qonuniylikning yagonaligi va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi:

*birinchidan*, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari uning barcha hududida amal qilishini hamda boshqa normativ - huquqiy hujjatlar qonun asosida qabul qilinib, ularga zid bo'imasligini talab qiladi;

*ikkinchidan*, O'zbekiston qonunlari uning ijtimoiy va davlat tuzumini, barcha millat va elatlarning manfaatlarini qo'riqlaydi;

*uchinchidan*, O'zbekiston Respublikasining butun hududida qonunlar bir xilda qo'llaniladi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. – Т., 1999. – 252-б.

**Davlat boshqaruvining xalq manfaatlari yo‘lida amalga oshirilishi prinsipi.** Konstitutsianing 7-moddasiga binoan xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalgamashiriladi.

Huquqiy demokratik davlatlar siyosatini xalqning xohish-irodasi belgilab berishi lozim. Mazkur siyosat inson va jamiyat farovonligi, O‘zbekiston barcha fuqarolarining farovon turmushini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Jumladan, Konstitutsianing 14-moddasida davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalgamashiradi, deb ko‘rsatilgan.

**Davlat boshqaruvida xalqning ishtiroki prinsipi.** O‘zbekiston Respublikasida qonuniylikni ta’minlash va huquqiy tartibotni mustahkamlashda keng omma ishtirok etadi. Bu holatni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir necha moddalarida ko‘rshimiz mumkin. Jumladan, Konstitutsianing 9-moddasiga binoan jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini tashkil etish orqali amalgamashiriladi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimini bosqichma-bosqich shakllantirish - mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omilidir. «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan siyosiy konsepsianing asl mohiyati jamiyatni boshqarishda asta-sekin nodavlat tashkilotlari va fuqarolarning ishtirok etishini tobora kengaytirishda ko‘rinadi. Barcha demokratik davatlarda bo‘lgani kabi bizning davlatimizda ham jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tizimlarining mavqeい oshib bormoqda.

Konstitutsiyaning 35-moddasiga binoan esa, har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Demak, fuqarolarning siyosiy faolligi davlat organlariga, ularning mansabdor shaxslariga murojaat qilishi orqali ham amalga oshiriladi.

**Davlat boshqaruvinining aholi madaniy darajasi bilan bog'liqligi prinsipi.** Qonuniylik aholining madaniy darajasi, davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bilan bog'liqdir.

Kishilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati qancha yuqori bo'lsa, qonuniylik va huquq-tartibot shunchalik ta'milanadi, qonun buzilishi kam bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25-iyundagi «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rghanish ishini yaxshilash haqida»gi farmoniga ko'ra huquqiy demokratik davlat qurilishi, qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiy adolat qaror topishini ta'minlash, ma'naviy va madaniy rivojlanishning ustuvor yo'naliishlarini belgilash, amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi mazmun bilan boyitish, aholining huquqiy bilimi va ongini yuksaltirish, jamiyat siyosiy faolligini oshirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va jamoatchilik fikrini o'rghanish borasidagi ishlarni yaxshilash maqsadida:

a) aholining huquqiy madaniyatini oshirish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar - davlat siyosatining asosiy yo'naliishlaridan biri sifatida belgilandi;

b) respublikada huquqiy davlat qurilishi yo'lida olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar va bu borada qabul qilingan qonunlar mohiyatini aholi tomonidan chuqur anglab yetilishiga har tomonlama ko'maklashish - davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish idoralari, o'quv yurtlari hamda huquqshunos olimlarning eng dolzarb vazifasi ekanligi ko'rsatib o'tildi.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Jamiyatda

huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» to‘g‘risidagi 1997-yil 29- avgust qarorida asosiy vazifa sifatida - huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirib, keng xalq o‘rtasida huquqiy tarbiyani mustahkamlab, aholi madaniy darajasini ko‘tarish vazifasi belgilab qo‘yildi.

**Davlat boshqaruvining demokratik jarayonlar bilan bog‘liqligi prinsipi.** Davlat boshqaruvi demokratiya bilan uzviy bog‘liqdir. Xalq davlat hokimiyatini o‘zi ishonch bildirib saylagan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda hokimiyat organlari orqali amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Davlat boshqaruvi - demokratik tartiblarga bo‘ysunishni talab qiladi, demokratik tartiblar, o‘z navbatida, qonuniylikni mustahkamlash va rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

### **3-§. Ma’muriy huquq tushunchasi, predmeti, uslubi, tizimi va manbalari**

Ma’muriy huquq davlat boshqaruvinu tashkil etish va amalga oshirish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni, ya’ni davlat organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyatida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Davlat boshqaruvi o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy hayotning eng muhim tomonlarini qamrab oladi. Bu jarayonda xo‘jalik-tashkilotchilik, ijtimoiy-madaniy ishlar amalga oshiriladi, mamuriy-siyosiy masalalar hal qilinadi.

Davlat boshqaruvinu tashkil etish va boshqaruvinu amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan turli-tuman ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi - ma’muriy huquq tarmog‘ini tashkil etadi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish — munosabatlarning barcha ishtirokchilari uchun majburiy bo‘lgan xulq-atvor qoidalarini ma’muriy huquq normalarida mustahkamlash yo‘li bilan amalgalashdi. Bunday qoidalarni o‘matish orqali, davlat boshqaruvi va u bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarda vujudga keladigan funksiyalarni amalgalashning muayyan huquqiy tartibi yaratildi.

Aniq ijtimoiy munosabat ma’muriy munosabat bo‘lib, birinchidan, unda tegishli davlat organi albatta qatnashadi; ikkinchidan, davlat boshqaruvi organi unga berilgan vakolatlardan foydalanganida ma’muriy huquqning tartibga solish ta’siriga uchraydi.

Davlat boshqaruvi organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning deyarli barchasi ma’muriy huquq normalari yordamida amalgalashdi.

Ma’muriy huquq — huquq tizimining yirik, murakkab va rivojlangan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu uning tartibga solinuvchi predmetining o‘ziga xos xususiyatlaridan, munosabatlarning keng qamrovligidan kelib chiqadi. Ijro etuvchi hokimiyat, boshqaruv faoliyati va boshqaruvning o‘zi davlat va jamiat hayotining barcha sohalarini qamrab olganligi sababli, ma’muriy huquq - huquq tizimida asosiy o‘rinni egallaydi hamda boshqa huquq tarmoqlariga ta’sir ko‘rsatadi, yoki aksincha, ularning ta’siriga uchraydi.

Ma’muriy huquq normalari davlat huquqi normalaridan kelib chiqqan holda, avvalo davlat boshqaruviga xos bo‘lgan xususiyatlarni va uning boshqa davlat faoliyati turlari bilan (konunchilik, sud, prokuror nazorati) o‘zaro munosabatini, shuningdek, davlat boshqaruvi prinsiplarini mustahkamlaydi<sup>1</sup>.

Ma’muriy huquq — davlat huquqi normalarini yanada aniqlashtirib va to‘ldirib, fuqarolarning ko‘pgina huquq va majburiyatlarini, ularning boshqaruv organlari orqali amalgalashish

<sup>1</sup> *Qarang Xudoiberdiev B.Ж., Xojiev Э.Т. Маъмурий хукук. Укув кулланма.* – Т., 2000. – 35-36-б.

mekanizmini hamda ushbu huquqlarni har qanday buzilishlardan himoya qilishni belgilaydi.

Ma'muriy huquq — davlat organlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi, uning vazifa va maqsadlari, vakolatlari hamda huquqiy maqomining boshqa tomonlarini, tuzilishi va faoliyat jarayonini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq — boshqariluvchi obyektlarning aloqalarini tartibga soladi. Ushbu normalar rejalashtirish tartibini, moddiy resurslarni taqsimlash va ish haqini belgilashni mustahkamlaydi.

Ma'muriy huquq — jamoat tashkilotlari va jamoat organlarining huquqiy maqomini o'rnatishtida katta ahamiyatga ega.

Ma'muriy huquq nafaqat boshqaruvni, balki boshqariluvchi faoliyatni ham tartibga soladi.

Ma'muriy huquq ma'lum bir ijtimoiy munosabatlar guruhini tartibga solib, mazkur munosabatlar uning predmetini tashkil etadi.

Ma'muriy huquq fani olimlarining aksariyati<sup>1</sup>, ma'muriy huquqning predmetiga davlat boshqaruvi jarayonida vujudga keladigan quyidagi ijtimoiy munosabatlar guruhini kiritadilar:

1) *tashkiliy jihatdan biri ikkinchisiga bo'y sunadigan davlat boshqaruvi organlari o'rta sidagi munosabatlar* (masalan, vazirlilik va davlat qo'mitalarining ularga bo'y sungan boshqarma va bo'limlari o'rta sida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar);

2) *bir-biriga bo'y sunmaydigan davlat boshqaruvi organlari o'rta sidagi munosabatlar* (masalan, ikki vazirlik, vazirlik va davlat qo'miasi o'rta sida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar);

3) *davlat boshqaruvi organlari va ularga bo'y sunadigan korxona, muassasa va tashkilotlar o'rta sidagi munosabatlar;*

4) *davlat boshqaruvi organlari va jamoat birlashmalari o'rta sidagi munosabatlar;*

5) *davlat boshqaruvi organlari va fuqarolar o'rta sidagi munosabatlar.*

<sup>1</sup> *Qarang: Алексин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. — М., 1998; Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: Х.Р.Алимов, Л.И.Соловьева и др./ - Т., 1999; Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Стариков Ю.Н. Административное право. — М., 2004; Козлов Ю.М. Административное право. — М., 2003; Габричидзе Б.Н., Черняевский А.Г., Ким-Кимэн А.Н. Административное право. — М., 2004.*

Qayd etilgan barcha ijtimoiy munosabatlarda davlat organi ishtirok etadi. Bu qonuniydir, chunki boshqaruv faoliyati davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllaridan biridir.

Davlat boshqaruvi sohasida davlat nomidan harakat qiladigan va uning xohish-irodasini ifodalaydigan organning ishtirokisiz, ma'muriy huquq predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar bo'lishi mumkin emas. Shu sababli, ikki fuqaro o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar — ma'muriy-huquqiy munosabatlar hisoblanmaydi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida shartnomalar asosida vujudga keladigan munosabatlar ham ma'muriy huquq predmetiga kirmaydi, chunki ular fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan shartnoma munosabatlari hisoblanadi.

Huquq tizimida huquqni tarmoqlarga ajratish asoslardan biri — huquqiy tartibga solish uslubidir.

Huquqiy tartibga solish uslubi — jamiyatdagi mavjud munosabatlarga huquq ta'sirida qo'llaniladigan usul, vosita va yo'llar yig'indisidan iborat.

Har qanday huquq tarmog'i singari ma'muriy huquq ham o'zining tartibga solish uslubiga egadir. Ma'muriy huquq tartibga solish funksiyasini amalga oshirib, davlat boshqaruvi jarayonidagi munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvorini tartibga soluvchi huquqiy vositalar yoki uslublarning muayyan majmuidan foydalanadi.

Tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi bo'yicha, ya'ni predmet bo'yicha amaldagi huquq tarmoqlari ko'pincha o'zaro juda yaqin bo'lib, ayrim hollarda hatto shaklan bir-biriga mos ham keladi.

Huquqning har qanday tarmog'i uning tabiatida joylashgan ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etishning uch uslubidan foydalanadi, bular: *yozma buyruq, ko'rsatma; man etish, taqiqlash; ruxsat berish*.

*Yozma buyruq, ko'rsatma* — huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatni amalga oshirish, ya'ni boshqacha emas, balki aynan shunday harakat qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri yuridik majburiyatni zimmaga yuklash.

**Man etish, taqiqlash** — amalda bu ham ko'rsatma, ammo u teskari, ya'ni huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatni amalga oshirmaslik bo'yicha yuridik majburiyatni zimmaga yuklashdir.

**Ruxsat berish** — huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatni o'z xohishi bo'yicha amalga oshirish uchun yuridik ruxsat berilishidir.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning ko'rsatilgan uslublaridan huquq u yoki bu tarmog'inining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalaniladi.

Demak, davlat nomidan harakat qiladigan va ma'muriy munosabatlarda uning manfaatlarini ifoda etadigan, yuqorida ko'rsatilgan organlarning o'z xohish-irodasini bildirishi — bir tomonlama va majburiy bo'lishi yaqqol ko'rindi. Bunda davlat boshqaruvi faoliyati sohasida tomonlarning yuridik jihatdan tengsizligi vujudga keladi.

*Ma'muriy huquqning asosiy uslubi*, ya'ni ma'muriy munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish uslub va vositalari - *davlat-hokimiyat ko'rsatmalari uslubi* hisoblanadi. Ushbu uslubning qo'llanishi jamiyatning muhim ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan boshqaruvni tashkil etish va amalga oshirish zarurati bilan belgilanadi.

Shunday qilib, ma'muriy huquq predmeti bilan ma'muriy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos birlashuvni ma'muriy huquqni huquqning mustaqil tarmog'iga ajratish imkonini beradi.

*Ma'muriy huquq tizimi* deganda, uning davlat boshqaruvi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar bilan obyektiv belgilangan ichki tuzilishi, ma'muriy-huquqiy normalarning muayyan izchillikda birlashishi va joylashishini tushunish lozim<sup>1</sup>.

*Ma'muriy huquq tizimi* — ma'muriy-huquqiy normalar va institutlarni birlashtiradi.

Bundan tashqari, yuridik adabiyotlarda, «*ma'muriy huquq tizimi*» dan «*ma'muriy huquq fani tizimi*» farqlanadi. *Ma'muriy huquq*

<sup>1</sup> Ko'rsatilgan manba.

*fani tizimi* ma'muriy huquq tizimiga qaraganda kengroq tushuncha bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— *ma'muriy-huquqiy normalar* — ma'muriy huquq fani tizimining boshlang'ich elementi bo'lib, davlat tomonidan o'matiladigan yoki tasdiqlanadigan hamda ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvorini (xatti-harakatini) belgilab beradigan qoidalardir;

— *ma'muriy-huquqiy institutlar* — ma'muriy huquq fani tizimining alohida guruhi bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi. Odatda, ma'muriy-huquqiy institutlar — ma'muriy-huquqiy normalarning uncha katta bo'l-magan barqaror guruhi bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir turini tartibga solishga qaratiladi. Ma'muriy huquq tarmog'i o'z ichiga qator institutlarni oladi va ular tarmoqning tarkibiy qismi, bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda ular muayyan mustaqililik xususiyatiga ega. Zero, ma'muriy-huquqiy institutlar ma'lum darajada mustaqil ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi;

— *ma'muriy huquq fani bo'limlari (guruhlari)* — ma'muriy huquq fani tizimining yirik tarkibiy qismi bo'lib, o'zida bir necha ma'muriy-huquqiy institutlarni birlashtiradi. Ma'muriy huquq fani tizimida o'zaro yaqin (o'xhash) ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ma'muriy-huquqiy institutlar birlashib, ma'muriy huquq fanining bo'limlari (guruhlari)ni tashkil etadi (masalan, davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari, davlat boshqaruvi prinsiplari, davlat boshqaruvi funksiyalari singari ma'muriy-huquqiy institutlar o'zining yaqinligiga qarab yagona bo'limga birlashgan).

Har qanday huquq fani singari ma'muriy huquq fani tizimi ham ikki qismga bo'lingan:

*Umumiyl qism* — bunda davlat boshqaruvinin tashkil etish va amalga oshirish jarayonining umumiyl tomonlarini belgilab beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar (ma'muriy-huquqiy institutlar, bo'limlar) nazarda tutilgan. Ma'muriy huquq fani tizimining umumiyl qismi quyidagi institutlardan iborat:

— davlat boshqaruvi tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari va asosiy prinsiplari;

- davlat boshqaruvi subyektlari va ularning huquqiy maqomi;
- davlat boshqaruvi shakllari va uslublari;
- davlat boshqaruvida ma'muriy-huquqiy majburlov choralari;
- ma'muriy huquqbazarlik va ma'muriy javobgarlik;
- ma'muriy jarayon;
- davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlash.

*Maxsus qism* — bunda jamiyatning alohida sohalarida amalgam oshiriladigan davlat boshqaruvining xususiyatlarini belgilab beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar (ma'muriy-huquqiy institutlar, bo'limlar) ko'rsatib o'tilgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *iqtisodiyot sohalarini boshqarish* (sanoat, qishloq va suv xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, yo'l xo'jaligi, xizmat ko'r-satish sohalari);
- *ijtimoiy-madaniy sohalarni boshqarish* (ta'lim, fan, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish);
- *ma'mury-siyosiy faoliyat sohasini boshqarish* (mudofaa, davlat xavfsizligi, ichki ishlari, tashqi ishlari, adliya);
- *tarmoqlararo boshqa sohalarni boshqarish* (tabiatni muhofaza qilish, moliya va kredit tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyat, davlat statistikaasi, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish va hokazo).

Huquq tiziminining ilmiy asoslanganligi, uning obyektiv mavjud munosabatlari asosida tuzilishi ma'muriy-huquqiy normalarning eng to'g'ri qo'llanishi uchun imkon beradi hamda qonunchilikni mustahkamlashga va ma'muriy huquq asosida vazifalarini bajarishga yordam beradi.

Ma'muriy-huquqiy normalar ko'p sonli huquqiy hujjalarda (manbalarda) mustahkamlangan. *Huquq manbalari* — huquqiy normalar ifodasining tashqi shakllari, huquq mavjud bo'lishining shakllari hisoblanadi.

Respublikamizda mulkchilikning xilma-xil shakllarini vujudga keltirish va ularga teng shart-sharoitlar yaratib berish, korxona, muassasa va tashkilotlar o'rtasida raqobatni avj oldirish, boshqa-

rishning oldingi uslubidan (ma'muriy-buyruqbozlik) butunlay voz kechish, iqtisodiy omil va vositalarni keng joriy etish — bozor munosabatlarining tub negizidir. Ushbu jarayonda davlat boshqaruvi faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Bu qonunchilikning asosini - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil etadi.

*Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi* O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 8-dekabrda bo'lib o'tgan o'n ikkinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — ma'muriy huquqning asosiy manbai sifatida, davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirishning boshlang'ich huquqiy asoslarini belgilab bergan.

Konstitutsyaning bir necha moddalari bevosita davlat boshqaruvini huquqiy tartibga solishga qaratilgan. Jumladan, Konstitutsyaning 1-moddasida O'zbekiston — suveren demokratik respublika, deb ko'rsatilgan va o'zbek davlatchiligining tub mohiyati, ya'ni O'zbekiston suveren davlat ekanligi bevosita ta'kidlangan.

Suverenitet — har qanday davlatning eng muhim, ajralmas belgilaridan biridir.

O'zbekiston — demokratik davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, fuqarolarning jinsi, irqi, tili, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeい, siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar, huquq va erkinliklari ta'minlab beriladigan davlatdir.

O'zbekistonda davlatni boshqarish shakli respublikadir. Respublika - xalq hokimiyati demakdir. Respublika — eng asosiy umuminsoniy huquqiy boyliklardan biri. Boshqaruvning respublika shakli davlat organlari vakolatlarini aniq belgilab berishni, qonun chiqaruvchi va ijroiya organlarining saylab qo'yilishini anglatadi.

Konstitutsiyaga binoan, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar (2-m.).

Mazkur konstitutsiyaviy norma orqali fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan.

Davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyatining mavjudligi demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan hisoblanadi. Davlat qonun doirasida insonlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermog'i lozim. Shuning uchun ham, davlat xalq irodasini ifodalamog'i, uning manfaatlari, xohish-istiklariga xizmat qilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

Mazkur konstitutsiyaviy qoidadan kelib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida o'zining davlat hokimiyatini va davlat boshqaruvi organlarining tizimini belgilab beradi. Konstitutsiyaning beshinchi bo'limi aynan shu masalalarni yoritib berishga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarni ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi (7-m.).

Demak O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati, shu jumladan, boshqaruuv faoliyati qonunlarda nazarda tutilgan tartibda tashkil etilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat organlari faqatgina qonunchilik hujjalarda ko'rsatib o'tilgan vakolat doirasida harakat qilishlari mumkin.

Davlat organlarining Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz itoat etishi va shu asosda faoliyat ko'rsatishi huquqiy davlatning muhim belgisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Oliy Majlisiga va Prezidenti ish olib borishi mumkin (10-m.).

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi (11-m.).

Mazkur konstitutsiyaviy norma orqali davlat hokimiyatining tashkil etilishi va faoliyat tartibi — vakolatlarning taqsimlanishi prinsipi asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Hokimiyat tiziminining bo‘linishi prinsipi huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biridir.

Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ko‘rsatib o‘tganidek: «Davlatning faol islohotchilik mavqeida butun diqqat-e‘tiborni iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish muammolarini birinchi navbatda hal etishga, qonuniylik va huquq-tartibotga rioya qilishga, eski iqtisodiy munosabatlarni bozor munosabatlariga aylantirishga qaratish ijtimoiy barqarorlik uchun mustahkam negizni vujudga keltiradi»<sup>1</sup>.

O‘zbekiston ijtimoiy adolat jamiyatidir. Kuchli ijtimoiy siyosat adolatli jamiyat va demokratik davlat barpo etishning asosiy mezonidir.

Ma’muriy huquqning asosiy manbalaridan yana biri — bu 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan kuchga kiritilgan *O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksidir*. Ushbu Kodeksga binoan ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari inson va jamiyat farovonligi yo‘lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta‘minlashni, ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarning o‘z vaqtida va obyektiv ko‘rib chiqilishini, shuningdek, bunday huquqbazarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks — qanday harakat yoki harakatsizlik ma’muriy huquqbazarlik hisoblanishi, ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma’muriy jazo qo‘llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Узбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкур. Т.1. – Т., 1996. 322-6.

Ma'muriy huquqning keng tarqalgan manbalaridan yana biri — bu O'zbekiston Respublikasining qonunlaridir. Bir necha davlat boshqaruvi organlarining huquqiy maqomi joriy qonunlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan:

1) O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan «*Vazirlar Mahkamasi to 'g 'risida»gi qonuni*. Mazkur Qonunga binoan O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi — Hukumati O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir;

2) O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan «*Mahalliy davlat hokimiyati to 'g 'risida»gi qonunga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlariga hokim rahbarlik qiladigan ijroiya apparat va vakillik organlari kiradi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organidir va hokazo.*

Ma'muriy-huquqiy normalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shuningdek, davlat va mahalliy organlarning normativ hujjatlarida ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvini tartibga solishda davlat organlarining huquqiy maqomini belgilab beruvchi nizom va ustavlar ham ma'lum ahamiyatga ega.

**Nizom** — muayyan davlat tuzilmalarini (masalan vazirliklar, davlat qo'mitalarining) tashkil etish tartibi, tuzilishi, vazifasi, funksiyasi va vakolatlarini belgilab beruvchi kompleks tizimlashtirilgan akt (hujjat)dir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari o'z faoliyatlarini qonunlar hamda nizomlar asosida amalga oshiradilar. Nizom - boshqaruv aktlarining eng ko'p tarqalgan turlaridan biridir. Nizom muayyan huquq ijodkorlik organi yoki vakolatli mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlanadi. Eng ahamiyatli sohalarga taalluqli va yuridik

kuchi yuqoriroq bo‘lgan nizomlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

***Ustav*** — boshqaruvning u yoki bu sohasidagi muayyan idora va tashkilotlarning faoliyatini tartibga soluvchi normalarni o‘zida aks ettiruvchi hujjatdir. Boshqaruv sohasida bevosita ishtirok etuvchi ko‘pgina davlat idolarining, korxona, muassasa va tashkilotlarning faoliyati tegishli tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan ustavlar asosida tartibga solinadi. Masalan, «O‘zbekiston havo yo‘llari» Milliy aviakompaniyasining faoliyati ustav asosida tartibga solinadi.

#### **4-§. Ma’muriy huquqning O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o‘rni**

Boshqaruv jarayonida turli xil huquq normalari ta’siri ostida bo‘ladigan va ma’muriy huquq predmeti doirasiga kirmaydigan munosabatlar tartibga solinadi. Shu tariqa, O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimi turli tarmoqlarining o‘zaro munosabati vujudga keladi.

Ma’muriy huquq fani konstitutsiyaviy huquq va moliya huquqi fanlariga juda yaqin turadi. Lekin shu bilan birga bu huquq tarmoqlari o‘zining tartibga solish predmeti (ijtimoiy munosabatlar doirasi) va o‘ziga xos xususiyatlariga qarab bir-biridan farqlanadi.

***Konstitutsiyaviy huquq*** fani huquq tizimida alohida o‘rin egallaydi. Unda davlatning ijtimoiy tuzilishi va davlat siyosatining asoslari, davlat bilan shaxs o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilish, davlat organlari tizimining asoslari, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari ifodalanadi. Konstitutsiyaviy huquq fanining predmeti ma’muriy huquq fanining predmetidan kengdir. Jumladan, konstitutsiyaviy huquq barcha davlat organlari uchun umumiy bo‘lgan tashkil etish va faoliyat ko‘rsatish prinsiplarini belgilab beradi. Ma’muriy huquq normalari esa, yuqoridaqilarga asoslanib, davlat boshqaruvida ularni qo‘llashni tartibga soladi.

Konstitutsiyaviy huquq fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini ma’muriy huquq esa ularni amalga oshirish tartibini

belgilab beradi, yanada aniqlashtiradi; fuqarolarning huquqiy maqomini boshqa huquq va majburiyatlar bilan to'ldiradi; fuqarolar tomonidan huquq, erkinlik va majburiyatlar bajarilishining boshqaruv mexanizmini belgilab beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan fuqarolar davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga egadir. Ushbu jarayon konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solingan. Ma'muriy huquq esa, mana shu shikoyatlarning qaysi organga tegishliligi, shikoyatni ko'rib chiqish muddati va tartibini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq *moliya huquqi* bilan ham bog'liqdir. Moliya huquqi davlatning moliyaviy faoliyati sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni, ya'ni davlat va mahalliy organlar oldida turgan vazifa va funksiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Moliya huquqining asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasi milliy daromadini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Davlatning moliyaviy faoliyati o'z mazmuniga ko'ra davlat boshqaruvining bir ko'rinishi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olganda, moliya huquqining tartibga solish predmeti ma'muriy huquqqa qaraganda torroqdir.

**Moliya huquqida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda to'g'ridan-to'g'ri buyruq berish uslubi** (ma'muriy huquq singari) qo'llaniladi.

Davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining moliya sohasidagi vakolatlarining mazmunini moliya huquqi normalari, ularni amalga oshirish jarayonini esa, ma'muriy huquq normalari tartibga soladi. Demak, davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining vakolat doirasini belgilovchi huquqiy normalar bir vaqtning o'zida ham ma'muriy huquq, ham moliya huquqi normasi hisoblanadi.

Ma'muriy huquq moliya sohasidagi boshqaruv munosabatlarni tartibga salsa, moliya huquqi moliyaviy munosabatlarning o'zini tartibga soladi.

Uzoq vaqt mobaynida bu huquq tarmoqlari (konstitutsiyaviy, ma'muriy va moliya huquqi) yagona tarmoq sifatida o'rganib kelangan. Keyinchalik jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning rivojanishi, yangi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi bilan konstitutsiyaviy huquqdan ma'muriy huquq, ma'muriy huquqdan esa, moliya huquqi ajralib chiqdi. Hozirgi vaqtda moliya huquqi tarmog'inining o'zida ham yangi mustaqil tarmoqlarning (masalan, soliq huquqi, bank huquqi va hokazo) vujudga kelayotganini ko'rish mumkin.

Ma'muriy huquq *fuqarolik huquqi* bilan chambarchas bog'liqdir. Bu ikki huquq tarmog'i ayrim hollarda bir xil ijtimoiy munosabatlarni turli uslublar yordamida tartibga soladi. Masalan, vakolatli davlat organining buyrug'iga binoan bir xo'jalik tashkiloti boshqasiga bino yoki inshootni beradi. Bunda davlat boshqaruvi organi hokimiyat uslubidan foydalanadi, ya'ni ma'muriy huquq yordamida ikki xo'jalik yurituvchi tashkilotning mulkiy munosabati tartibga solinadi. Fuqarolik huquqi esa, mazkur tashkilotlar o'rtasida vujudga keladigan shartnomalarining mazmunini belgilab beradi.

Fuqarolar ishtirokidagi ko'pgina fuqarolik-huquqiy munosabatlari davlat boshqaruvi aktlari orqali vujudga kelishi mumkin. Ba'zi hollarda esa, mulkiy munosabatlar davlat boshqaruvi aktining o'zidan to'g'ridan-to'g'ri (ya'ni shartnomasiz) kelib chiqishi mumkin.

Ayrim hollarda davlat boshqaruvi organlari davlat organi sifatida emas, balki fuqarolik huquqi normalari asosida harakat qiluvchi yuridik shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, jamiyatda vujudga keladigan ayrim ijtimoiy munosabatlar ma'muriy huquqning ham, fuqarolik huquqining ham tartibga solish predmeti tariqasida namoyon bo'lishi mumkin. Lekin bu munosabatlar turli xildagi tartibga solish uslubiga ega. Fuqarolik huquqida ishtirok etuvchi tomonlar teng huquqlarga ega bo'ladi. Ma'muriy huquqda esa, hamma vaqt bir tomonda davlat organi (mansabdor shaxs) ishtirok etganligi sababli, munosabat ishtirokchilarining biri ikkinchisiga nisbatan ustun turadi, ya'ni davlat

manfaatini ko'zlab harakat qilayotgan tomon ikkinchi tomonga majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni beradi.

Ba'zi bir ma'muriy huquq normalari mehnat huquqi normalari bilan o'zaro bog'liq. Ma'muriy huquq normalari mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi davlat boshqaruv organlarining (masalan, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari) vakolatini belgilab beradi. Mehnat munosabatlari sohasidagi boshqaruv aktlarining mazmunini mehnat huquqi, ushbu aktlarni chiqarish tartibini ma'muriy huquq belgilaydi. Masalan, fuqaro korxona bilan mehnat shartnomasini tuzganida mehnat huquqi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlarga kirishadi. Korxona rahbarining xodimni ishga qabul qilish to'g'risida chiqargan **buyrug'i** - ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadi. Davlat apparatidagi xizmat ma'muriy huquq tomonidan ham, mehnat huquqi tomonidan ham tartibga solinadi.

Ma'muriy huquq jinoyat huquqi bilan ham chambarchas bog'liq. Ma'muriy huquq o'zida ko'pgina umummajburiy bo'lgan qoidalarni (masalan, yo'l harakati, pasport tizimi, sanitariya va hokazo) mujassamlashtiradi. Ma'muriy huquq fani qanday huquqbuzarliklar ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ularni ko'rib chiqish tartibini, ma'muriy javobgarlik va jazoni belgilaydi. Jinoyat huquqi esa, qanday xatti-harakatlar jinoyat hisoblanishi va bular uchun qanday jinoiy javobgarlik choralar qo'llanilishini belgilab beradi. Bu ikki huquq tarmog'i bir-birining normalarini **harakatga keltirishi mumkin**. Masalan, takroran ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish jinoiy javobgarlik normalarini, ijtimoiy xavfi uncha katta bo'lмаган qilmishlar esa ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi normalarni harakatga keltiradi<sup>1</sup>.

Demak, ma'muriy huquqning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida, uni huquq tizimining boshqa tarmoqlari bilan o'zaro munosabatini, ya'ni bir-biriga o'xhash hamda o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish lozim.

<sup>1</sup> *Худоийбердиеева В.Ж., Хожинеев Э.Т. Маъмурӣ хукуқ. Ўкув кўлланма. – Т. 2000. – 38-40-б.*

## *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Boshqaruvning umumiy tushunchasini yoritib bering?
2. Davlat boshqaruvi deganda nimalarni tushunasiz?
3. Davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Davlat boshqaruvi funksiyalari haqida so'zlab bering?
5. Davlat boshqaruvining asosiy prinsiplarini nimalar tashkil etadi?
6. Ma'muriy huquq deganda nimani tushunchasiz?
7. Ma'muriy huquqning tartibga solish predmeti (ijtimoiy munosabatlar doirasi) nima?
8. Ma'muriy huquqning tartibga solish uslubi nimalarda ifodalanadi?
9. Ma'muriy huquq tizimi haqida so'zlab bering.
10. Ma'muriy huquq manbalari haqida qanday tushunchaga egasiz?
11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ma'muriy huquq manbai sifatida.
12. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining ma'muriy huquq manbai sifatidagi o'rni haqida fikringiz.
13. Ma'muriy huquqning boshqa manbalari haqida so'zlab bering.
14. Ma'muriy huquqning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o'rni qanday?
15. Ma'muriy huquq va konstitutsiyaviy huquqning o'zaro munosabatlari nimalarda ko'rindi?
16. Ma'muriy huquq va moliya huquqining o'zaro munosabati haqida fikringizni bildiring.
17. Ma'muriy huquq va fuqarolik huquqining o'zaro munosabati haqida so'zlab bering.
18. Ma'muriy huquq va mehnat huquqining o'zaro munosabati haqida fikr bildiring.
19. Ma'muriy huquq va jinoyat huquqining o'zaro munosabati qanday?

*II bob*  
MA'MURIY-HUQUQIY NORMALAR VA  
ULARNING TURLARI

**1-§. Ma'muriy-huquqiy norma tushunchasi  
va xususiyatlari**

Ma'muriy-huquqiy norma davlat tomonidan o'rnatilgan va bajarilishi maxsus davlat vositalari bilan ta'minlanadigan, joiz xulq-atvor me'yordir. Huquq normasi o'z yuridik mazmuniga ko'ra muayyan xulq-atvor qoidasi bo'lib, unga rioya qilinishi turli tashkiliy, ma'rifiy va rag'batlantirish vositalarini, shuningdek ularga rioya qilmagan shaxslarga nisbatan yuridik majburlov (intizomiy, ma'muriy, moddiy, jinoiy javobgarlik) choralarini qo'llashni nazarda tutadi. Ushbu xususiyatlar ma'muriy-huquqiy normalarga ham xosdir. Ular davlat-boshqaruvi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini va mazkur faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi boshqaruvga doir munosabatlarni (masalan, shaxsning, ijro etuvchi hokimiyat subyektlarining huquqiy maqomini) belgilaydi.

Ma'muriy-huquqiy normalarning quyidagi funksiyalarini farqlash mumkin:

- ijro etuvchi hokimiyat tizimi va uning ayrim bo'g'indan tashkiliy faoliyatini tartibga solish hamda ular o'rtasidagi o'zar oqilona aloqani ta'minlash;
- davlat boshqaruvi sohasida fuqarolarning, shuningdek jamoat birlashmalarining huquq va erkinliklari ro'yobga chiqarilishi va himoya qilinishini ta'minlash;
- davlat boshqaruvi sohasida bevosita ish olib boruvchi va muayyan hajmda uning funksiyalarini bajaruvchi (masalan, mahalliy hokimliklar) yoxud o'z harakatlari bilan bu soha (masalan, fuqarolar, jamoat birlashmalarining) manfaatlariga u yoki bu tarzda daxl etuvchi barcha shaxslar va fuqarolarning ijobiy xulq-atvori variantlarini belgilash. Ijobiy yoki lozim darajadagi xulq-atvor qanday harakatlarni bajarish mumkinligini (joizligini),

qanday xatti-harakatlardan o'zini tiyish kerak (taqiqlarni), qanday harakatlarni bajarish zarurligini (ko'rsatmalarni) nazarda tutadi. Aslida ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektlarining xulq-atvoriga boshqaruvning ta'siri xuddi mana shunda namoyon bo'ladi;

— ijro etuvchi hokimiyat mexanizmining konstitutsiyaviy vazifasi samarali amalga oshirilishini, ya'ni qonunlarda belgilangan talablarining bajarilishini ta'minlash va shu tariqa yagona davlat hokimiyati ijroiya tarmog'ining mohiyatini namoyon etish;

— davlat-boshqaruv faoliyatini jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarda mustahkam qonuniylik tartibi va davlat intizomini ta'minlash;

— ma'muriy javobgarlikni nafaqat boshqaruvga doir munosabatlarga, balki huquqning boshqa ko'pgina tarmoqlari (masalan, mehnat, moliya, yer huquqi) normalarini himoya qilish vositasi sifatida tatbiq etish.

Ma'muriy-huquqiy normalar muayyan ichki mutanosiblikka (iyerarxiyaga) ega. Bu ma'muriy-huquqiy normalarning pog'ona-ma-pog'ona bo'ysunishini, ya'ni muayyan iyerarxiyasini: konstitutsiyaviy normalar, qonunlarning normalari va ijro etuvchi hokimiyat subyektlari (masalan, O'zbekiston Respublikasining Hukumati, vazirlik, mahalliy hokimliklar) tomonidan o'matiladigan normalar mayjudligini anglatadi. Yagona yuridik mazmunga ega bo'lgan mazkur huquqiy normalar o'zining yuridik kuchiga ko'ra teng emas. Konstitutsiyaviy va qonun xususiyatiga ega bo'lgan ma'muriy-huquqiy normalar o'z yuridik ahamiyatiga ko'ra *birlamchidir*. Ijro etuvchi hokimiyat subyektlari tomonidan o'matiladigan ma'muriy-huquqiy normalar konstitutsiyaviy qonunchilik normalariga nisbatan *ikkilamchi* xususiyat kasb etadi.

Bundan ijro etuvchi hokimiyat subyektlarining faoliyatigina emas, balki ular yaratadigan ma'muriy-huquqiy normalar ham qonunga mos bo'lishi lozim, degan xulosa kelib chiqadi. Huquqiy normalar iyerarxiyasida ular muayyan o'rin egallaydi.

Ijro etuvchi hokimiyat subyektlari tomonidan yaratiladigan ma'muriy-huquqiy normalar huquq ijodkorligining ikkilamchi (hosila) shakli sifatida, avvalo, Konstitutsiya va qonunchilik normalarining ta'sirchanligini ta'minlaydi. Shu tariqa ular bu

normalarga aniq amal qiluvchi huquqiy qoidalar maqomini baxsh etuvchi muhim yuridik vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi, shuningdek ularda ifodalangan umumiy xulq-atvor qoidalarini aniqlashtiradi va muayyanlashtiradi.

Shu sababli ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan yaratiladigan ma'muriy-huquqiy normalar ushbu hokimiyat faoliyati doirasida qonunlarni amaliyatga tatbiq etish jarayonida aholida o'rinn tutadi.

Ta'kidlash joizki, ijro etuvchi hokimiyat organlarining ma'muriy huquq ijodkorligi *muayyan sharoitlarda* amalga oshirilishi mumkin. Bunday sharoitlarga quyidagilar kiradi:

— tegishli qonunchilik hujjatida mazkur imkoniyat to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunida O'zbekiston Hukumatining suv resurslaridan kompleks foydalanish va ularni muhofaza qilish sxemalarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, davlat ekspertizasidan o'tkazish, tasdiqlash va amalga tatbiq etish tartibini belgilashi nazarda tutilgan;

— ijro etuvchi hokimiyatning mazkur subyekti uchun belgila-adigan vakolatlar majmui uning huquq ijodkorlik borasidagi vakolatlarini oddiy qayd etish tarzida emas, balki aniq ifodalangan ko'rinishda o'z ichiga oladi (masalan, normativ hujjatlar qaysi masalalar bo'yicha qabul qilinishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi). Jumladan, vazirliklar to'g'risidagi nizomlarda ijro etuvchi hokimiyatning mazkur organlarga o'z vakolatlari (belgilangan faoliyat sohasi) doirasida qonunlarga muvofiq ijro etuvchi hokimiyatning o'zga organlari, shuningdek tashkilotlar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqi berilgan;

— ijro etuvchi hokimiyat (ma'muriy) norma ijodkorligidan ba'zan tizim doirasida tartibga solish maqsadida, ya'ni ijro etuvchi hokimiyat (davlat boshqaruvi) mexanizmning ichki tashkiliy manfaatlari yo'lida foydalaniladi.

Muhimi shundaki, to'g'ridan-to'g'ri amal qilmaydigan qonunchilik hujjatlarida ularni kim bajarishi lozimligi aniq ko'rsatilishi va ayni vaqtda, buning uchun zarur bo'lgan qonun osti norma ijodkorligi vakolatlarining hajmi belgilanishi lozim.

Ma'muriy huquq sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning quyidagi guruhlari ma'muriy-huquqiy normalarning tartibga solish predmeti sifatida namoyon bo'ladi:

1) davlat boshqaruvi subyektlari boshqaruv faoliyatini, ya'ni o'z vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini bevosita amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar;

2) tashkilotning ichki munosabatlari — davlat boshqaruvi subyektlari doirasidagi, shuningdek qonun chiqaruvchi va sud organlari tizimidagi ularning faoliyatini tashkil etish (devoni) hamda ularda davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar;

3) ma'muriy sudlov ishlarini yuritishni tashkil etish bilan bog'liq munosabatlar.

Shunday qilib, *ma'muriy-huquqiy normalar* deganda, davlat boshqaruvi sohasidagi hamda boshqaruv xususiyatiga ega bo'lgan munosabatlarni, ijro etuvchi hokimiyat organlarining ichki tashkiliy sohadagi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati organlari apparatlarining faoliyati hamda davlat xizmatini amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy norma tushuniladi.

## **2-§. Ma'muriy-huquqiy normalarning turlari, ularning funksiyalari va tuzilishi**

Ma'muriy-huquqiy normalar o'zining tartibga solish yo'nalishlari va yuridik mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Ma'muriy-huquqiy normalar turli mezonlar, ya'ni tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari, vazifasi, shuningdek funksiyalariga ko'ra turlarga ajratiladi.

1. Ma'muriy-huquqiy normalar *vazifasiga ko'ra* moddiy va protsessual turlarga bo'linadi.

*Moddiy ma'muriy-huquqiy normalar* ma'muriy huquq bilan tartibga solinadigan boshqaruvga oid munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlar majmuini, shuningdek ularning javobgarligi, ya'ni ma'muriy-huquqiy maqomini yuridik jihatdan mustahkamlaydi. Moddiy normalarda ijro etuvchi hokimiyat (davlat

boshqaruvi) tizimi, tartibga solinayotgan boshqaruvga oid munosabat ishtirokchilari faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lgan huquqiy makon (rejim) o'z ifodasini topadi. Bunday ma'muriy-huquqiy normalar ba'zan statik normalar deb ataladi. Ular toifasiga mansabdor shaxslarning fuqarolar shikoyatini qabul qilish va belgilangan muddatda ko'rib chiqish borasidagi majburiyatlari yoki ijro etuvchi hokimiyat muayyan subyektining vakolatlari asosini belgilovchi normalar kiradi. Shunday qilib, moddiy ma'muriy-huquqiy normalar bilan boshqaruvga doir munosabat subyektlarining o'zaro aloqasi asoslari belgilanadi; ma'muriy huquq normalarining bajarilishi, qo'llanilishi va ularga rioya qilinishi zarur hollarda davlat majburlov choralari bilan ta'minlanadi.

*Protsessual ma'muriy-huquqiy normalar* davlat boshqaruvini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan protsessual masalalarni tartibga soladi. Masalan, bu normalar fuqarolarning shikoyat va arizalarini qabul qilish, ko'rib chiqish va hal qilish tartibini; ma'muriy huquqbazarliklarga doir ishlarni yuritish tartibini belgilaydi. Ularning vazifasi moddiy ma'muriy huquq normalari bilan belgilangan yuridik huquqlar va majburiyatlarning tartibga solinayotgan boshqaruvga oid munosabatlar doirasida amalga oshirilish tartib-taomillarini belgilashdan iborat.

Ma'muriy huquq sohasidagi moddiy va protsessual normalarning o'zaro nisbatini quyidagi misolda ko'rish mumkin. «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy protseduralar to'g'risida» 2007-yil 30-iyun qonunida ma'muriy protseduralarning mazmuni, uni amalga oshiruvchi organlarning ro'yxati va vakolatlari, ularning ma'muriy ishlarni ko'rish bilan bog'liq faoliyati ta'riflangan. Shuningdek, ma'muriy protseduralarning umumiy qoidalari, ma'muriy ishlarni ko'rish prinsiplari, bosqichlari, tartib-taomillari, muddatlari, protsessual rasmiylashtirish talablari belgilangan. Bu normalar fuqarolar va yuridik shaxslarning ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish jarayonidagi huquq va imkoniyatlarini aks ettiradi. Bunda ularning yuridik talqindagi statik xususiyati va moddiyligi namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda, Qonunda protsessual (dinamik) normalar to'g'risida so'z yuritiladi.

2. Ma'muriy-huquqiy normalalar *subyektlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish usuliga* ko'ra ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining xulq-atvoriga turlicha ta'sir ko'rsatadi: ular harakatga undashi, muayyan harakatlarni bajarishni buyurishi, u yoki bu harakatlarni bajarish vakolatini berishi, harakatlarni bajarishni man etishi mumkin. Ularda ta'riflangan qoidalarning xususiyatiga qarab vakolat beruvchi, majburiyat yuklovchi va taqiqlovchi ma'muriy-huquqiy normalarga ajratiladi.

3. Ma'muriy-huquqiy normalalar *subyektlari va tartibga solish ko'lamiga* ko'ra: a) davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar faoliyatini; b) fuqarolar xulq-atvorini; v) jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatini; g) davlat xizmati xodimlarining faoliyatini tartibga soluvchi turlarga bo'linadi.

Ma'muriy huquq normalari O'zbekiston Respublikasida bo'lib turgan chet el jismoniy va yuridik shaxslariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

4. Ma'muriy-huquqiy normalalar *majburiyat yuklash shakliga* ko'ra avvalo imperativ (qat'iy) va tavsiyaviy ma'muriy-huquqiy normalarga bo'linadi.

Imperativ normalalar subyektlar xulq-atvorini bevosita belgilovchi qoidalardan iborat bo'lib, ular mazkur huquqiy munosabat ishtirokchilarining kelishuviga binoan boshqa xulq-atvor qoidalari bilan almashtirilishi mumkin emas.

Tavsiyaviy normalalar ma'muriy huquq subyektlariga u yoki bu harakatlarni bajarish maqsadga muvofiqligi xususida beriladigan tavsiyalardan iborat.

Huquqiy munosabat subyektlariga norma doirasida o'z huquqlari va burchlarini mustaqil belgilash imkoniyatini beruvchi dispozitiv normalarga kelsak, ular ma'muriy qonunchilik hujjalarda nisbatan kam uchraydi. Bu hol ma'muriy huquq sohasi — davlat boshqaruvining xususiyati bilan belgilanadi.

5. Ma'muriy-huquqiy normalalar *makonda (hududda) amal qilishiga* ko'ra O'zbekiston Respublikasining butun hududida, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida amal qiladi. Ayrim hollarda ko'rsatilgan normalalar ikki taraflama yoki ko'p taraflama bitimlarga muvofiq bir nechta davlatlarning hududida amal

qiladi. Mazkur amaliyotning kengayishi suveren davlatlar — Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uchun tabiiy bir holga aylandi.

6. Ma'muriy-huquqiy normalalar *vaqt bo'yicha amal qilishiga ko'ra* muddatli, ya'ni amal qilish muddati oldindan belgilangan va muddatsiz, amal qilish muddati oldindan belgilanmagan normalarga bo'linadi.

Odatda, ma'muriy-huquqiy normalarning amal qilish muddatlari cheklanmaydi. Bu ularning rasmiy darajada o'zgartirilgunga yoki bekor qilingunga qadar amal qilishini anglatadi. Ba'zi hollarda ularning amal qilish muddatlari aniq belgilanishi mumkin, masalan, favqulodda yoki harbiy holat muayyan muddatga belgilanadi. Ma'muriy-huquqiy normalalar ular ifodalangan normativ hujjatlar imzolangan sanadan e'tiboran, yoki tegishli normalar kuchga kirishi uchun nazarda tutilgan muddatda qonuniy, yuridik kuchga ega bo'ladi.

Shuningdek, ma'muriy-huquqiy normalalar *uzoq muddatli* va *qisqa muddatli* bo'ladi.

7. Ma'muriy-huquqiy normalalar *tartibga solish hajmiga ko'ra* turlarga bo'linadi:

— *umumiyl*, ya'ni davlat boshqaruving barcha sohalari va tarmoqlariga nisbatan tatbiq etiladigan va ijro etuvchi hokimiyatni ~~amalga~~ oshirish jarayonining eng muhim tomonlarini tartibga *soluvchi* ma'muriy-huquqiy normalalar (bunday normalalar ~~ko'pincha~~ qonunlar, Prezident farmonlari va Hukumat qarorlarida ifodalananadi);

— *tarmoqlararo*, ya'ni davlat boshqaruvi faoliyatining davlat boshqaruvi tarmoqlarining barchasi yoki aksariyati uchun umumiyl yoki chegaradosh sanalgan va ayni vaqtda maxsus xususiyat kasb ~~digan~~ muayyan tomonlarini tartibga soluvchi ma'muriy-huquqiy ~~normalalar~~ (masalan, bunday jihatlar monopoliyaga qarshi, ekologik ~~qomunchilik~~ normalariga, shuningdek ijro etuvchi hokimiyatning tarmoqlararo organlari to'g'risidagi nizomlardan o'rinn olgan (statistika, tariflarga taalluqli bo'lgan) normalarga xos);

— *tarmoq ma'muriy-huquqiy normalari*, ya'ni muayyan tarmoqqa oid boshqaruvi vakolatlariga ega bo'lgan ijro etuvchi

organlar (masalan, vazirliklar)ga biriktirilgan sohalar doirasida yuzaga keluvchi boshqaruvgaga doir munosabatlarning turli tomonlarini tartibga soluvchi normalar.

Ma'muriy-huquqiy normalarning boshqa tasnifiy guruhlari ham mavjud. Masalan, ular yo tizim doirasida amal qiluvchi (ularning yuridik kuchi ijro etuvchi hokimiyat mexanizmining quiyi bo'g'inlariga nisbatan tatbiq etiladi), yoki hamma uchun majburiy (ular tartibga solinayotgan munosabatlarning barcha ishtirokchilariga nisbatan tatbiq etiladi) xususiyat kasb etishi mumkin.

Ma'muriy-huquqiy normalarning *funksiyalari* haqida so'z yuritganda, avvalo shuni qayd etish lozimki, ular **tartibga solish funksiyasini** bajaradi, ya'ni davlat boshqaruvi sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni tashkil etish, tartibga solish va takomillashtirishga qaratilgan. Ma'muriy-huquqiy normalar vositasida davlat boshqaruvi subyektlarining huquqiy holati va vakolatlari belgilanadi, ular faoliyatining shakllari va usullari, fuqarolar hamda tashkilotlarning o'zaro munosabatlari tartibga solinadi. Ma'muriy huquq normalari bilan tashkilotlar va fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi huquqiy holati (maqomi) ham belgilanadi.

Ta'kidlash joizki, ma'muriy huquq normalari **qo'riqlash va himoya qilish funksiyasini** ham bajaradi, ya'ni ma'muriy huquq sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning qo'riqlanishi va himoya qilinishini ta'minlaydi. Bu normalar g'ayriqonuniy qilmishlar sodir etishdan o'zini tiyishni talab etadi, shuningdek ma'muriy huquq bilan qo'riqlanadigan munosabatlarga tajovuz sodir etilganda ma'muriy ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lган munosabatlarni tartibga soladi.

*Ma'muriy-huquqiy normaning tuzilishi* deganda normaning ichki strukturasi, uning tarkibiy qismlari, elementlari o'zaro aloqasining muayyan tartibi, ularning o'zaro aloqadorligi tushuniшади. Ma'muriy-huquqiy norma gipoteza, dispozitsiya va sanksiya singari tarkibiy qismlardan tashkil topadi.

*Gipoteza* ma'muriy-huquqiy normaning bir qismi sifatida uni amalgalatishning haqiqiy shartlarini belgilaydi. Gipotezada

yuridik fakt, normani amalga kiritish, uning dispozitsiyasini hayotga tatbiq etish shart-sharoitlari (masalan, ma'muriy-huquqiy javobgarlikka tortish shartlari) ko'rsatiladi. Gipoteza mutlaq-muayyan yoki nisbiy-muayyan bo'lishi mumkin. Mutlaq-muayyan gipoteza muayyan vaziyatda qo'llaniladigan qoidadir. Masalan, biror xatti-harakat uchun jarima solinsa, bu jarima uch oy ichida undirib olinishi kerak. Agar bu muddat o'tib ketsa, ma'muriy jarimani undirib olish mumkin emas. Nisbiy-muayyan gipotezada biror holatga umumiy tavsif beriladi. Ma'muriy-huquqiy normalar ko'pincha nisbiy-muayyan gipotezadan iborat bo'ladi.

**Dispozitsiya** — yuridik normaning tarkibiy elementi bo'lib, unda norma bilan belgilangan xulq-atvor qoidasi, taraflarning huquqlari va majburiyatlar o'matildi. Ifodalash shakliga ko'ra ma'muriy-huquqiy normalarning majburiyat yuklovchi, vakolat beruvchi yoki taqiqlovchi dispozitsiyalari farqlanadi.

Majburiyat yuklovchi dispozitsiyalar subyektlarga muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklaydi, ularga joiz xulq-atvorning u yoki bu ko'rinishini buyuradi. Masalan, Yo'l harakati qoidalarining tegishli bandiga muvofiq yo'l harakati qatnashchilari harakatlanish vaqtida boshqa qatnashchilarning harakatlanishiga xavf tug'dirmasliklari lozim.

Ma'muriy huquqda vakolat beruvchi dispozitsiyalar, odatda, davlat boshqaruvi subyektlarining funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to's'riida» gi qonun (yangi tahriri)ning 5-moddasiga binoan Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida: iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi, mulkchilikning barcha shakllarini uyg'unlashdirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining huquqiy mexanizmini ishga solish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi; xo'jalik yuritishning yangi shakllari — konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa shunga o'xshash tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga yordamlashadi, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi talab-ehtiyojlarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi; O'zbekiston

Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx siyosatini o'tkazish, mehnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini hamda ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi; O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetini, shuningdek O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbol ko'rsatkichlarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni hamda ularning ijrosini tashkil etadi va hokazo.

Muayyan g'ayriqonuniy qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik) sodir etishni man etuvchi dispozitsiyalar taqilovchi dispozitsiyalar deb ataladi. Taqilovchi dispozitsiya xulq-atvorning qonunga muvofiq huquqbazarlik hisoblanadigan muayyan ko'rinishidan o'zini tiyishni talab qiladi.

Huquqlar va majburiyatlar bir vaqtida ta'riflangan dispozitsiyalar ma'muriy huquq normalarida nisbatan kam uchraydi.

**Sanksiya** ma'muriy-huquqiy normaning elementi sifatida huquqbuzarga nisbatan ko'rildigan ta'sir choralarini aks ettiradi. Bunda har qanday ma'muriy ta'sir emas, balki huquqbazarlik munosabati bilan qo'llanilishi normada belgilangan ta'sirgina nazarda tutiladi. Ma'muriy huquqbazarliklar uchun qo'llaniladigan ma'muriy-huquqiy sanksiyalar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutiladi. Masalan, mazkur Kodeksning 96-moddasiga binoan loyihalarni davlat ekologik (sanitariya-ekologik) ekspertizasining ijobiy xulosasisiz ro'yobga chiqarish uchun sanksiya mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishdan, xuddi shunday huquqbazarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solish bilan jazolanadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalarini buzganlik uchun qo'llaniladigan ma'muriy-huquqiy sanksiyalar uning 23-moddasida sanab o'tilgan. Ma'muriy huquqbazarlik sodir etganlik uchun quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llanilishi

**mumkin:** 1) jarima; 2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish; 3) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyni musodara qilish; 4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish; 5) ma'muriy qamoqqa olish.

### **3-§. Ma'muriy-huquqiy normalarni amalga oshirish**

Ma'muriy-huquqiy normalarni amalga oshirish ushbu normalarda aks ettirilgan talablar, xulq-atvor qoidalarining ma'muriy huquq subyektlari tomonidan hayotga tatbiq etilishidir. Binobarin, ma'muriy-huquqiy normalarni amalga oshirish — ma'muriy huquq subyektlarining ma'muriy huquq normalarida belgilangan talablarga mos keladigan qonuniy xulq-atvori (faoliyati). U normalarda belgilangan huquqlarga ega bo'lish va ulardan foydalanishda hamda ayni shu normalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishda ifodalanadi.

Ma'muriy huquq nazariyasida huquqiy normalarni amalda **joriy etishning to'rt shakli farqlanadi:** a) rioya qilish; b) qo'llash; c) bajarish; d) foydalanish.

Ma'muriy-huquqiy normalarga **rioya qilish** huquq subyekti ma'muriy-huquqly normalarning talablariga ixtiyoriy bo'ysunishi bilan tavsiflanadi. Huquqiy normalarni amalda joriy etishning mazkur shakli subyektning taqiqlangan harakatlarni bajarishdan tylilishini nazarda tutadi.

Ma'muriy-huquqiy normalarni **qo'llash** ijro etuvchi hokimiyatning tegishli subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. U amalda vakolatli organ (mansabdor shaxs) moddiy yoki protsessual normalarning talablariga asoslangan individual yuridik hujatlarni qabul qilishida namoyon bo'ladi. Bu hujatlar muayyan ma'muriy ishlarga tatbiqan qabul qilinadi (masalan, lavozimga tayinlash to'g'risida buyruq, fuqaroning shikoyati yuzasidan chiqarilgan

qaror, jamoat birlashmasini ro'yxatdan o'tkazish va hokazo). Shuni ta'kidlash joizki, ma'muriy huquqda huquqni qo'llash ijroiya hokimiyat mexanizmi faoliyat ko'rsatishi bilan bevosita bog'liq. Fuqarolar ma'muriy-huquqiy normalarni qo'llash vakolatlariga ega emaslar.

Ma'muriy-huquqiy normalarni **bajarish** — tartibga solinayotgan boshqaruvga oid munosabat ishtirokchilarining bu normalarda ifodalangan yuridik qoidalar, taqiqlar yoki ijozatlarga qat'iy rioya qilishidir. Huquqiy normalarni amalga oshirishning bu ko'rinishi universaldir, chunki uning subyektlari sifatida boshqaruvga oid munosabatlarning barcha ishtirokchilari amal qiladi. Ma'muriy-huquqiy normalalar va ular davlat boshqaruvi sohasida o'rnatadigan huquqiy tartibning ta'sirchanligi ularni bajarish sifati, hajmi va darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli, ma'muriy-huquqiy normalarni bajarish ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirish sohasida huquq-tartibot va davlat intizomini yetarli darajada ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Ma'muriy-huquqiy normalardan **foydalanish** huquq subyektlarining boshqaruv sohasida subyektiv huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan qonuniy harakatlarni ixtiyoriy bajarishini nazarda tutadi. Bunda ma'muriy-huquqiy normalarni bajarishdan farqli o'laroq, ulardan foydalanish jarayonida subyektiv huquqlar amalga oshirilishini qayd etib o'tish lozim. Masalan, fuqaro tegishli tartib-taomillarni bajarish (imtihon topshirish, hujjatlarni qo'lga kiritish va hokazo.) yo'li bilan olingan transport vositasini boshqarishga bo'lgan huquqni amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, amaldagi qonunchilik hujjatlarida maxsus nazarda tutilgan hollarda ma'muriy tartibda huquqni qo'llash sudlarga (sudyalarga) yuklatiladi. Jumladan, bunday harakatlarni sud organlari ma'muriy huquqbazarliklar sodir etganlik uchun ma'muriy jazolar tayinlash hamda ayrim ma'muriy nizolarni ko'rib chiqish va hal qilish chog'ida amalga oshiradi.

Shunday qilib, ma'muriy-huquqiy normalarni qo'llash ularga rioya qilish, ularni bajarish va ulardan foydalanishdan ayrim o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

**Birinchidan**, ma'muriy huquq normalarini qo'llash davlat boshqaruvi subyektlarining hokimiyat vakolatini amalga oshirish

**borasidagi faoliyati bo'lib, uning vositasida jamiyat hayoti ijtimoiy munosabatlarning turli subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning aniq tashkiliy asoslarini belgilash yo'li bilan tartibga solinadi.**

**Ikkinchidan**, huquqni qo'llash doim aniq huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi. «Huquqni qo'llashga doir munosabatlar» deb ataladigan bu huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquqiy holati turlicha bo'ladi. Mazkur munosabatlarda huquqni qo'llashning davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan subyekti ayniqsa faol rol o'yaydi.

**Uchinchidan**, huquqni qo'llash borasidagi faoliyat doimo qonun bilan belgilangan alohida shakllarda amalga oshiriladi.

**To'sinchidan**, huquqni qo'llash doim uning subyekti tomonidan amalga oshiriladigan individual-huquqiy hujjat (huquqni qo'llashga doir hujjat) qabul qilish orqali ro'yobga chiqariladi.

**Qonuniylik, adolatlilik va maqsadga muvofiqlik ma'muriy huquq normalarini qo'llashning asosiy talablaridir.**

**Ma'muriy-huquqiy normalarni amalga oshirishda ko'rsatilgan munosabatlarning barcha subyektlari o'z ma'muriy-huquqiy maqomiga muvofiq ishtirok etadi.**

#### **4-6. Ma'muriy huquq manbalari**

**Huquq manbai deganda huquq normalarini ifoda etish, mamiylashtirish va mustahkamlash shakli tushuniladi.** Bu yerda dialektika nuqtai nazaridan huquq normasi—mazmunni, **normativ-huquqiy hujjat** (qonun, farmon, qaror va boshqalar)—**shaklini** aks ettiradi. Yuridik adabiyotlarda huquq shakli bilan huquq **manbai** sinonim tushunchalar sifatida talqin etiladi. Shundan kelib **chiqib**, ma'muriy huquq manbalari deganda ma'muriy-huquqiy **normalarni** aks ettirishning tashqi shakli tushuniladi. Amalda turli **davlat organlarining bunday huquqiy normalarni o'z ichiga olgan yuridik hujjatlari**, ya'ni **normativ-huquqiy hujjatlar** nazarda tutiladi.

**Ma'muriy-huquqiy normalarning rang-barangligi ular aks ettirilgan va ifodalangan manbalarning turli-tumanligini ham**

nazarda tutadi. Ma'muriy huquq manbalari (shakllari) jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Aksariyat normalari to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy-huquqiy yo'nalishga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Bu, masalan, ro'yobga chiqarish asosan davlat boshqaruvi sohasida amalga oshiriladigan fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini mustahkamlovchi (21, 24-25, 27, 30-36-moddalar); davlat organlarining vakolatlarini belgilovchi (68-73, 78-80, 93, 99-105-moddalar) konstitutsiyaviy normalar.

Konstitutsiyaga ijro etuvchi hokimiyat faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalar kiritilgan. Ular jumlasiga, xususan, O'zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat tizimini belgilovchi 98, 99-102-moddalarining normalari, shuningdek ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirish tartibi, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining maqomi, uning funksiyalari va vakolatlarini, ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlari, boshqa davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari tartibini belgilovchi normalari kiradi.

2. O'zbekiston Respublikasining, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunchilik hujjatlari. Bu yerda konstitutsiyaviy qonunlar va qonunlar ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'muriy huquqning mazkur manbalari orasida «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunni, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksni, davlat boshqaruvi masalalariga doir boshqa bir qator qonunlarni qayd etish mumkin.

Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonun O'zbekiston Respublikasi Hukumatining maqomi, tarkibi va uni shakllantirish tartibini, Hukumatning vakolatlarini, uning faoliyatini tashkil etish masalalarini, Hukumat va davlat hokimiyati organlarining o'zaro munosabatlarini, Vazirlar Mahkamasining faoliyatini ta'minlash masalalarini o'z ichiga oladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning vazifalariga inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash, ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv

ko'rib chiqilishi, shuningdek bunday huququzarliklarning oldini olish, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash kiradi. Bu vazifalarni amalgaloshish uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huququzarlik hisoblanishini, ma'muriy huququzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdar shaxs) tomonidan qay tartibda qanday ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

Ma'muriy-huquqiy normalar Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat organlarining qonunchilik hujjatlarida ham o'z ifodasini topishi mumkin.

**3. Ma'muriy huquq manbalari orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ farmonlari ayniqsa muhim rol o'yndaydi. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasida belgilangan.**

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari* qonun osti hujjalarning yuqori choqqisida turadi. Prezident farmonlari normativ va individual xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Farmonlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq va ular ijrosi yuzasidan chiqariladi. Prezidentning davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi figura sifatida davlat mexanizmida tutgan qat'iy o'rni uning farmonlarining normativ-huquqiy hujjatlar tizimida egallaydigan yuksak mavqeい va rolini belgilab beradi.

Prezident farmonlari yuridik kuchi va ahamiyati jihatidan qonundan keyingi o'rinda turadi.

Prezident farmonlari yuksak nufuzliligi tufayli mamlakat iqtisodiyotining, aholi ijtimoiy hayotining hamda davlat boshqa-ruvining qonunlar va hukumat qarorlari bilan qamrab olinmagan talaygina dolzarb masalalarini tez va samarali hal etish imkonini beradi<sup>1</sup>.

Prezident farmonlari strategik va dasturiy xarakterga ega bo'lib, ularda Hukumat, u yoki bu vazirlik, davlat qo'mitasi muayyan

<sup>1</sup> Одиқориев X.T. Узбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни.  
—Т., 1995. — 47-б.

yirik murakkab masalani qanday hal etishi kerakligining aniq rejasiga va yo'l-yo'riqlari belgilab beriladi. Farmonlar Vazirlar Mahkamasi va davlat boshqaruvingin boshqa bo'g'lnlari faoliyatiga rahbarlik qilishning samarali vositasidir. Biroq, farmonlar hukumat qarorlari o'mini egallab olmaydi. Har ikki turdag'i bu hujjatlar Konstitutsiya va qonunda belgilangan vakolatlar doirasida chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublikada davlat nazorati tizimini takomillashtirishning ba'zi chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1994-yil 16-fevral, farmoni, «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 9-dekabr farmoni, shuningdek, vazirliklar va davlat qo'mitalarini tashkil etishga oid hujjatlar, masalan, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi (1997-yil 8-iyul), «O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi (1998-yil 24-iyul) farmonlari va boshqalar ma'muriy huquq manbalari sifatida alohida ahamiyatga molik.

4. Ma'muriy huquq manbalari qatoriga *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari* ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 98-moddasining 1-qismida ta'kidlanganidek, «Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi». Quyidagi qarorlarni misol tarzida keltirish mumkin. Respublika Hukumatining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida»gi (1997-yil 20-may), «Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2004 yil 23-yanvar), «O'zbekiston Respublikasiga iste'mol tovarlarini olib kelishni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to'g'risida»gi (2002-yil 5-dekabr), «Mualliflik haqi va boshqa haq to'lash stavkalarini tasdiqlash to'g'risida»gi (2007-yil 8-yanvar) va boshqa qarorlari shular jumlasidan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

turli nizomlarni tasdiqlaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining normativ qarorlari ham ma'muriy huquqning manbai bo'lib hisoblanadi.

5. Tarmoqlararo va tarmoq miqyosida *respublika vazirliklarining, ijro etuvchi hokimiyat boshqa organlarining, mahalliy hokimlarining normativ hujjatlari* ma'muriy huquq manbalari bo'lib xizmat qiladi.

6. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish vakillik va ijroiya organlarining normativ hujjatlari ham, basharti bu organlarga qonunga muvofiq tegishli davlat vakolatlari berilgan bo'lsa, ma'muriy huquq manbalari hisoblanadi.

7. Ma'muriy-huquqiy normalar *davlat bitimlarida* ham o'z akalni topishi mumkin bo'lib, bunday hollarda mazkur bitimlar ma'muriy huquq manbalari sifatida e'tirof etilishi lozim.

8. Ma'muriy huquq manbalari qatoriga *ichki tashkiliy xususiyat kasb etadigan hujjatlar* — davlat korporatsiyalari, konsernlar, birlashmalar, korxonalar va muassasalar rahbarlarining normativ hujjatlarini (yoki ularning jamoaviy organlari hujjatlarini) ham kiritish mumkin. Bunday hujjatlarning normalari muayyan tuzilma doirasidagina amal qiladi. Ayrim hollarda davlat korporatsiyalari, konsernlarning normativ hujjatlari bir jamoaviy tuzilma chegarasidan chetga chiqishi mumkin (masalan, yonilg'i-energetika majmui sohamida).

**Tavsiyangan ma'muriy huquq manbalari tizimining turlitumanligi** ma'muriy-huquqiy normalarni tizimga solish va kodekslashtirishni takomillashtirish muammosini kun tartibiga qo'yadi.

Ma'muriy huquqni tizimga solishga nisbatan aniq yonda-shuvlar uzoq yillar mobaynida kuzatilmagan. Holbuki, huquqning boshqa ko'pgina tarmoqlari bilan taqqoslaganda, ma'muriy huquq o'zining o'ta harakatchanligi (muttasil o'zgarishi, modifikatsiyalanishi) bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tizimga solish va kodekslashtirish ishlarini amalga oshirish, shu jumladan ijro etuvchi hokimiyat mexanizmi faoliyat ko'rsatishini tashkil etish, turli darajada amal qiluvchi, ba'zan eskirgan va bir-biriga zid bo'lgan ma'muriy-huquqiy normalarning

ulkan majmuini tartibga keltirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

Umuman, hozirgi vaqtida O'zbekistonda ma'muriy huquqning faqat bir instituti kodekslashtirilgan. Bu — moddiy va protsessual ma'muriy huquq normalarini birlashtirgan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdir. Ammo bu qisman kodekslashtirish, xolos. Albatta, umumiy ma'muriy-huquqiy kodekslashtirish haqida so'z yuritish ham mushkul.

Hozirgi vaqtida ma'muriy-huquqiy normalarni tizimga solish, ularni davr talablari, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy islohotlar, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan institutlar bilan muvofiq holga keltirish vazifasi birinchi o'ringa chiqmoqda. Tabiiyki, tegishli ma'muriy-huquqiy normativ materialni sezilarli darajada yangilash, shuningdek boshqaruvga doir ijtimoiy munosabatlarni ma'muriy-huquqiy tartibga solishdagi mavjud ko'plab kamchiliklarni bartaraf etish, ma'muriy huquqni *inkorporatsiya qilish* (uning muhim institutlari bo'yicha normalarni birlashtirish va tizimga solish) zarur.

### ***Nazorat uchun savol va topshiriqlar***

1. Ma'muriy-huquqiy norma deganda nimani tushunasiz?
2. Ma'muriy-huquqiy normaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
3. Ma'muriy-huquqiy normalarning turlarini aniqlang.
4. Ma'muriy-huquqiy normaning gipotezasini ko'rsating.
5. Ma'muriy-huquqiy normaning dispozitsiyasini ko'rsating.
6. Ma'muriy-huquqiy normaning sanksiyasini ko'rsating.
7. Ma'muriy huquq nazariyasida huquqiy normalarni amalda joriy etishning qanday shakllari mavjud?
8. Ma'muriy huquq manbalarini ko'rsating.

### *III bob*

## MA'MURIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR

### **1-§. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning mazmuni**

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar huquqiy munosabatlarning, ya'ni boshqaruv sohasidagi huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning alohida turidir. Har qanday huquqiy munosabat kabi ma'muriy-huquqiy munosabat:

- *birinchidan*, ijtimoiy munosabatga huquq normasining tartibga soluvchi va unga yuridik tus beruvchi ta'siri mahsulidir;
- *ikkinchidan*, huquqiy munosabat tomonlarining harakatlari (xulq-atvori)ni huquq normasi bilan tartibga soladi;
- *uchinchidan*, huquqiy munosabat tomonlarining huquqlari va majburiyatlarini huquqiy norma bilan belgilangan tartibda me'yordi va mutanosiblashtiradi;
- *to'tinchidan*, huquq normasi talablariga javob bermaydigan xulq-atvor uchun tomonlarning yuridik javobgarligini belgilaydi. Shunday qilib, ma'muriy-huquqiy munosabat ikki tomonlama xususiyat kasb etadi, ya'ni, bir subyekt huquqlariga boshqa subyektning majburiyatları mos keladi, yoki aksincha.

Ma'muriy huquq normasi o'z-o'zidan muayyan ma'muriy-huquqiy munosabatni vujudga keltirmaydi. U — bunday munosabat vujudga kelishining asosi bo'lib, tegishli sharoitda va tegishli subyektlar mavjud bo'lganda boshqaruvga oid munosabat ma'muriy-huquqiy shakl-shamoyil kasb etadi. Ma'muriy-huquqiy norma taraflar vakolatlarining hajmini, ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini, shuningdek majburiyatlarni bajarmaganlik yoki huquqlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikni belgilaydi. Ma'muriy-huquqiy norma bir taraf uchun mumkin bo'lgan xulq-atvor turi va me'yorini, boshqa taraf uchun esa — joiz xulq-avor turi va me'yorini belgilaydi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatni davlat boshqaruvi sohasida vujudga keluvchi, ma'muriy-huquqiy norma bilan tartibga solingan boshqaruvga oid ijtimoiy munosabat sifatida tavsiflash mumkin.

Ma'muriy huquq nazariyasida qayd etilishicha, barcha ma'muriy-huquqiy munosabatlar boshqaruvga oid munosabatlarning yuridik shakli bo'lganligi bois, ularga boshqaruvning asosiy xususiyatlari xosdir. Ular davlat boshqaruvi funksiyalarini amalga oshirish jarayonida turli jamoalar o'rtasida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabat shakllaridan biridir. Ular o'z mazmuniga ko'ra *irodaviy munosabatlardir*, chunki ma'muriy-huquqiy munosabatlar o'z ishtirokchilarining xohish-irodasi va ongi bilan belgilanadi. Shuningdek, bunday munosabatlar tashkiliy xususiyatga ega, zero ular davlat boshqaruvining *tashkillashtiruvchi* mohiyatini aks ettiradi. Nihoyat, mazkur munosabatlar ma'muriy xususiyat kasb etadi, ya'ni taraflar o'rtasidagi aloqalar zamirida *hokimiyat-tashkiliy* (boshqarish-bo'y sunish) munosabatlari yotadi. Ushbu muhim umumiy jihatlar doirasida ularning asosiy *xususiyatlarini* yoritish o'rinni bo'ladi.

*Birinchidan*, ma'muriy-huquqiy munosabatlar faqat mazkur munosabatlarni vujudga keltiradigan va ular orqali amalda joriy etiladigan ma'muriy-huquqiy normalarga muvofiq yuzaga keladi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi. Bu huquqiy munosabatlar doirasida taraflarning xulq-atvori, ularning o'zaro huquq va majburiyatlar ma'muriy huquq normalari bilan qat'iy tartibga solinadi.

*Ikkinchidan*, ma'muriy-huquqiy munosabatlar alohida sohada, aniqroq aytganda, davlat boshqaruvi subyektlarining ijroiya-boshqaruv, ya'ni hokimiyat-tashkiliy faoliyati sohasida vujudga keladi. Bu huquqiy munosabat taraflarining huquqlari va majburiyatlar mazkur turdag'i davlat faoliyatining vazifalari bilan uzviy bog'liq. Demak, ma'muriy-huquqiy munosabatlar yuzaga keladigan, o'zgaradigan va bekor qilinadigan sohaning chegarasi ancha aniq namoyon bo'ladi.

*Uchinchidan*, ma'muriy-huquqiy munosabatlarning taraflari subyektiv huquqlar va yuridik majburiyatlar bilan o'zaro bog'liq. Bu bog'lanish natijasida yuzaga keluvchi huquqiy munosabat doirasida bir tarafning (huquqiy munosabat subyektining) huquqiga boshqa tarafning majburiyati mos keladi, yoki aksincha.

*To 'rtinchidan*, ma'muriy-huquqiy munosabatlar irodaviy xususiyat kasb etadi, chunki uning o'z-o'zidan namoyon bo'lishi va ishtirokchilarining yoki hech bo'lmasa, ulardan birining xohish-irodasisiz amal qilishi mumkin emas. Binobarin, huquqiy munosabatga turtki beruvchi irodaviy harakat yuz berishi zarur.

*Beshinchidan*, ma'muriy-huquqiy munosabatlarda subyektning mavjudligi muqarrardir. Bunday subyekt sifatida, odatda, davlat boshqaruvining tegishli organi (yoki mansabdor shaxs) namoyon bo'ladi. Mazkur munosabatlar ijroiya-boshqaruv faoliyatini amalga oshirish bo'yicha majburiyat va huquqlarga ega bo'lgan subyektning ishtirokisiz vujudga kelishi mumkin emas. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ehtimol tutilgan boshqa barcha subyektlari ikkinchi taraf bo'lishi mumkin. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning mazkur xususiyati, avvalo shu bilan izohlanadiki, ijroiya-boshqaruv faoliyatini davlat nomidan amalga oshirishga davlat boshqaruvi organlari va ularning mansabdor shaxslari vakolatli bo'ladi. Aynan shu sababli ularning ishtirokisiz huquqiy shakldagi boshqaruvga oid munosabatning bo'lishi mumkin emas.

*Oltinchidan*, ma'muriy-huquqiy munosabatlar ham huquq kabi davlat tomonidan qo'riqlanadi. Huquqiy munosabatni tashkil etuvchi huquqlar va majburiyatlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik belgilanadi. Bu bilan huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlaridan, xususan axloqiy munosabatlardan farq qiladi.

*Yettinchidan*, ma'muriy-huquqiy munosabatlar yana shunisi bilan ajralib turadiki, ularning muqarrar subyekti doimo yuridik iroda bilan ish ko'radi. Ularning bu xususiyati bundan oldingi xususiyat bilan belgilanadi va bevosita undan kelib chiqadi. Darhaqiqat, ma'muriy-huquqiy munosabatlarda muqarrar subyekt davlat nomidan ish ko'rsa va bu munosabatlarda uning manfaatlarini ifoda etsa, u hokimiyat irodasisiz ish ko'rishi mumkin emas. Hokimiyat vakolatlari hamisha ijroiya-boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi subyekt tomonida bo'ladi.

*Sakkizinchidan*, ma'muriy-huquqiy munosabatlar taraflardan istalgan birining tashabbusi bilan yuzaga kelishi mumkin, lekin ikkinchi tarafning roziligi (istagi) muqarrar shart hisoblanmaydi. Bunday rozilik talab etilgan hollarda u ma'muriy-huquqiy

munosabat yuzaga kelishiga zamin yaratuvchi omil rolini o'taydi. Ammo bu yerda rozilik bevosita huquqni vujudga keltiruvchi ahamiyat kasb etmaydi, ya'ni mustaqil yuridik aktga (masalan, shartnomaga) aylanmaydi. Bu hol, avvalo shu bilan izohlanadiki, davlat boshqaruvi organlari o'z tashabbusi bilan muayyan ma'muriy-huquqiy munosabatlarni yaratishga haqlidirlar.

Binobarin, taraflar tashabbusi bevosita ma'muriy-huquqiy munosabatni u ma'muriy-huquqiy normalarda (huquqiy munosabat yuzaga kelishining yuridik sharti sifatida) nazarda tutilgan hollardagina vujudga keltiradi. Bunday munosabatlarga kirishishning huquqiy imkoniyati davlat boshqaruvi organlari uchun ayni vaqtida majburiyat ham hisoblanadi. Biroq, ma'muriy-huquqiy munosabatning boshqa taraflari bunday imkoniyatga ega bo'lmaydi.

*To'qqizinchidan*, ma'muriy-huquqiy munosabatlarning muhim xususiyati shundaki, ularning ishtirokchilari o'rtasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolar, odatda, ma'muriy tartibda (sudsiz), ya'ni vakolatli davlat boshqaruvi organi (mansabdor shaxs)ning bevosita yuridik ahamiyatga ega bo'lgan va bir taraflama farmoyishi bilan hal qilinadi. Ayni vaqtida, amaldagi qonunchilik hujjatlarida bunday nizolarni sudda ko'rishning ayrim holatlari nazarda tutiladi.

Subyekt, obyekt va yuridik faktlar ma'muriy-huquqiy munosabatlarning *elementlari* hisoblanadi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning *subyektlariga* ma'muriy huquqlar va majburiyatlar yuklatiladi; bular davlat boshqaruvi subyektlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, davlat idoralari xodimlari, fuqarolar, chet elliqlar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslardir.

Davlat boshqaruvi organlari ma'muriy huquq layoqatining mohiyati ularning maxsus ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi. U mazkur organlarning u yoki bu hajmda davlat boshqaruvi vazifaliga ega bo'lish va ularni bajarish, mazkur vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy-huquqiy munosabatlarga kirishish layoqatini anglatadi. Unga davlat boshqaruvi tizimining mazkur bo'g'iniga beriladigan davlat-boshqaruv vakolatlari hajmi mos keladi.

Davlat boshqaruvi organlarning vakolatlari majmui belgilangan tartibda tasdiqlanadigan tegishli nizomlarda, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanadi. Ularda muayyan boshqaruv organi ishtirok etishga haqli bo'lgan huquqiy muno-

sabatlarning turlari, shuningdek unga berilgan vakolatlar va ma'muriy-huquqiy munosabatlarni amalga oshirish jarayonida u foydalanadigan davlat-boshqaruv vakolatlari doirasi belgilanadi.

Davlat boshqaruvi organining umumiy ma'muriy huquq layoqatiga uning tegishli hajmdagi ijroiya-boshqaruv funksiyalarini mustaqil bajarish layoqati xosdir. Bundan tashqari, boshqaruv organi maxsus ma'muriy huquq layoqatiga ega bo'lishi ham mumkin. Bunday huquq layoqatiga muvofiq, boshqaruv organiga unga yuklatilgan vazifalarga mos keluvchi alohida vakolatlar beriladi. Masalan, ma'muriy majburlov choralarini bevosita qo'llashga har qanday boshqaruv organi ham haqli emas. Odatda, maxsus huquq layoqati umumiy huquq layoqatiga qo'shimcha hisoblanadi.

Davlat boshqaruv organlarining ma'muriy huquq layoqati ular tashkil topgan va vakolatlari belgilangan paytdan e'tiboran vujudga keladi; shu bilan bir vaqtida ushbu organlarning ma'muriy muomala layoqati, ya'ni o'z huquq layoqatini amalda ro'yobga chiqarish layoqati (imkoniyati) ham vujudga keladi.

Davlat xizmatchilarining *ma'muriy huquq layoqati* shu bilan belgilanadiki, ular amalda davlat boshqaruvi organlarining xizmat apparatiga uyushgan holda kundalik ijroiya-boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanadi. Tabiiyki, ushbu o'rinda ma'muriy-boshqaruv personal tarkibiga kiruvchi xodimlar nazarda tutiladi.

Davlat xizmatchisining ma'muriy huquq layoqati u boshqaruv apparatida egallagan lavozimi bilan belgilanadi. Umuman olganda, u **mazkur boshqaruv organining vakolatlari**, uning **ma'muriy huquq layoqati bilan belgilanadi**. Davlat xizmatchisining faoliyati — organ faoliyatining tarkibiy qismidir, chunki har qanday boshqaruv organi mazkur organning vazifalari va tashkiliy tuzilmasiga bo'ysundirilgan shaxslar jamoasi (guruhi) hisoblanadi. Davlat xizmatchisining vakolatlari majmui — u muayyan lavozimni egallagan organ vakolatlari majmuining bir qismi. Uning ma'muriy huquq layoqati lavozim yo'riqnomalari bilan, agar ular bo'lmasa, davlat huquqi va ma'muriy huquqning umumiy yoki maxsus normalari bilan belgilanadi.

Davlat xizmatchisi ma'muriy huquq layoqatining hajmi u xodimlarning qaysi toifasiga (rahbariy tarkib, yordamchi xodimlar) kirishi bilan belgilanadi. U mansabdor shaxslar va ma'muriy

hokimiyat vakillarida ayniqsa salmoqlidir, bunda ma'muriy shaxslar umumiy ma'muriy huquq layoqatiga, hokimiyat vakillari esa — maxsus ma'muriy huquq layoqatiga ega bo'ladi. Davlat xizmatchilarining bu ikki toifasi vakillari tegishli davlat boshqaruvi organlarining boshqaruuv vakolatlarini bevosita amalga oshiradilar. Yordamchi tarkib xodimlari, odatda, mansabdor shaxslar tomonidan boshqariladigan shaxslar hisoblanadi.

Jamoat birlashmalarining ma'muriy-huquqiy layoqati ustav normalari bilan emas, balki davlat organlarining hujjatlari bilan belgilanadi. Mazkur hujjatlarda jamoat birlashmalari organlarining davlat boshqaruvi sohasidagi vakolatlari, ular ishtirok etishi mumkin bo'lgan ma'muriy-huquqiy munosabatlarning turlari nazarda tutiladi. Bunday hujjatlar qabul qilingan paytdan e'tiboran ular ma'muriy huquq subyektiga aylanadi.

Jamoat birlashmalari ishtirokidagi ma'muriy-huquqiy munosabatlar ularning o'zida emas, balki ulardan tashqarida, ya'ni ular davlat boshqaruvi organlari, fuqarolar bilan hamkorlik qilishi chog'ida yuzaga keladi.

Fuqarolarning ma'muriy huquq layoqati ular tug'ilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Ularning davlat boshqaruvi sohasidagi muomala layoqati esa, odatda, 16 yoshdan paydo bo'ladi.

Fuqarolarning ma'muriy huquq layoqati hajmi Konstitutsiya, qonunlar, shuningdek ma'muriy-huquqiy normalar mustahkamlangan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Fuqarolar huquqlari va majburiyatlarining muayyan hajmi bir qancha holatlarga, chunonchi: ularning yoshi, ma'lumoti, jinsi, sog'lig'ining holatiga bog'liq bo'ladi. Fuqarolarning ma'muriy huquq layoqati ularda davlat boshqaruvi sohasida subyektiv huquqlar va majburiyatlar mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi munosabatlar ma'muriy-huquqiy munosabatlarning *umumiy obyekti* hisoblanadi. Har bir muayyan ma'muriy-huquqiy munosabatda uning ishtirokchilari huquq va majburiyatları yo'naltirilgan obyekt mazkur munosabat obyekti hisoblanadi. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda boshqaruuv sohasidagi subyektlarning xulq-atvori, harakatlari va ularning natijalari muayyan huquqiy munosabatlar obyekti sifatida namoyon bo'ladi.

## 2-§. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning turlari

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar o'z mazmuniga, ishtirokchilari huquq va majburiyatlarining o'zaro nisbatiga, shuningdek ularni vujudga keltiruvchi yuridik faktlarning xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar *mazmun jihatidan* moddiy va protsessual bo'ladi. Moddiy ma'muriy-huquqiy munosabatlar qatoriga boshqaruv sohasida yuzaga keluvchi va ma'muriy huquqning moddiy normalari bilan tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlar kiradi. Ma'muriy-protsessual munosabatlar—boshqaruv sohasida individual-aniq ishlar hal qilinishi tufayli yuzaga keladigan va ma'muriy-huquqiy normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlardir. Masalan, fuqarolarning arizalari va shikoyatlarini ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan hal qilish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar ma'muriy-protsessual munosabatlar hisoblanadi. Moddiy va protsessual ma'muriy-huquqiy munosabatlarning o'zaro aloqasi shundan iboratki, moddiy munosabatlar protsessual munosabatlar vositasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, protsessual ma'muriy-huquqiy munosabatlar vositasida huquqning boshqa tarmoqlari (moliya, yer, ekologiya va boshqa) huquqiy munosabatlari ham hayotga joriy etiladi.

*Ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari huquq va majburiyatlarining o'zaro nisbatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:* ishtirokchilardan biri boshqasiga bo'ysunuvchi munosabatlar (vertikal huquqiy munosabatlar) va ishtirokchilari bir-biriga bo'ysunmaydigan munosabatlar (gorizontal huquqiy munosabatlar).

*Vertikal ma'muriy-huquqiy munosabatlar* bir munosabat subyektining boshqasiga bo'ysunishi doirasida — ijro etuvchi hokimiyatning yuqori turuvchi va quyi turuvchi organlari o'rtasida, ijro etuvchi hokimiyat organlari va tobe tashkilotlar o'rtasida, ijro etuvchi hokimiyat organlarining biri boshqasiga bo'ysunuvchi tuzilmalari o'rtasida; biri boshqasiga bo'ysunuvchi davlat xizmati xodimlari o'rtasida yuzaga keladi. Bunda ijro etuvchi hokimiyat

organlari va fuqarolar o'rtasida fuqarolarning boshqaruv sohasidagi majburiyatlarini amalga oshirish (jamoat tartibiga rioya qilish, harbiy majburiyatni bajarish va sh.k.) borasidagi huquqiy munosabatlari, odatda, vertikal munosabatlar hisoblanadi, chunki fuqaroga uning majburiyatlarini bajarish qismida ijro etuvchi hokimiyat organining boshqaruv vakolatlari tatbiq etiladi.

Vertikal ma'muriy-huquqiy munosabatlarda ma'muriy-huquqiy tartibga solishning hamda davlat-boshqaruv faoliyatiga xos bo'lgan boshqaruv subyekti va obyekti o'rtasidagi boshqarish—bo'ysunish aloqalarining mohiyati ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar, odatda, hokimiyatga oid munosabatlar deb ataladi. Ular biri boshqasiga bo'ysunuvchi taraflar o'rtasida yuzaga keladi va ayni vaqtda, fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqli o'laroq, taraflar tengligi mavjud emasligidan dalolat beradi. Ammo biri boshqasiga bo'ysunishni aynan tushunmaslik lozim. Amalda vertikallik bir tarafda yuridik boshqaruv vakolatlari bo'lib, ular boshqa tarafda (masalan, fuqaroda) yo'qligini, yoki ularning hajmi unda (masalan, quyi turuvchi boshqaruv organida) kamroq ekanligini anglatadi. Bunda boshqaruvchi taraf sifatida ijro etuvchi hokimiyatning tegishli subyekti (ijro etuvchi organ, davlat boshqaruvi organi) amal qiladi. O'z-o'zidan ravshanki, boshqaruv subyektining tashkiliy jihatdan barcha hollarda ham o'ziga bo'ysunmaydigan muayyan obyektga bevosita boshqaruv mazmunidagi ta'siri aynan vertikal munosabatlarda amalga oshiriladi.

*Horizontal ma'muriy-huquqiy munosabatlar* bir-biriga bo'ysunmaydigan subyektlar o'rtasida vujudga keladi. Bunday munosabatlar ijro etuvchi hokimiyatning bir-biriga bo'ysunmaydigan organlari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar o'rtasida ular boshqaruv sohasidagi o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlari munosabati bilan (masalan, fuqaro ijro etuvchi hokimiyat organiga shikoyat bilan murojaat etganda, jamoat tashkiloti ro'yxatdan o'tkazilganda va sh.k.) vujudga keladi.

Taraflar amalda va yuridik jihatdan teng huquqli bo'lgan munosabatlar *horizontal ma'muriy-huquqiy munosabatlar* deb e'tirof etiladi. Ularda bir tarafning boshqa taraf uchun majburiy sanalgan

hokimiyat amri-irodasi mavjud bo'lmaydi. Albatta, bunday huquqiy munosabatlар davlat boshqaruvi sohasida vertikal huquqiy munosabatlар kabi keng tarqalmagan. Bu tabiiy holdir, zero ular ma'muriy-huquqiy tartibga solishning umumiyligi o'zanidan chetga chiqadi. Shunga qaramay, ularning yuzaga kelish imkoniyati mavjud.

Boshqaruvga oid aloqalarning umumiy majmuida gorizontal munosabatlarni farqlash nisbatan qiyin, chunki ular davlat boshqaruvi sohasiga xos emas va vertikal munosabatlар kabi yaqqol namoyon bo'lmaydi. Shunga qaramay, boshqaruv amaliyotida ular qatoriga quyidagi ma'muriy-huquqiy munosabatlarni kiritish uchun muayyan asoslar mavjud.

*Bevosita boshqaruv ta'siri ko'rsatilishiga sabab bo'lgan munosabatlар.* Ular vertikal munosabatlар uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ya'ni bir taraflama yuridik boshqaruv qarorini qabul qilish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratish uchun mo'ljalangan. Bular — bir huquqiy darajada turgan ijro etuvchi organlar (mansabdor shaxslar) o'rtasida yuzaga keluvchi, masalan, boshqaruvning qo'shma normativ hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish (masalan, ikki vazirlik o'rtasida); bиргалидаги boshqaruv harakatlarini muvofiqlashtirish; qo'shma majlislar (masalan, ikki vazirlik hay'atlarining majlislarini) o'tkazish; idoralararo maslahat yoki muvofiqlashtirish kengashlarini tuzish bilan bog'liq bo'lgan aloqalar; bular ijro etuvchi hokimiyat organlari va, masalan, kasaba uyushmalari o'rtasidagi mazkur uyushmalarning qonuniy manfaatlarini qondirish borasidagi munosabatlardir.

*Bir taraflama tartibda qabul qilingan yuridik boshqaruv qarorini samarali amalgaga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida bevosita boshqaruv ta'siri ko'rsatish amalgaga oshirilganidan so'ng yuzaga keladigan munosabatlар.* Bu munosabatlар jarayoni va natijasida normativ hujjatlarni ijro etish bo'yicha bиргаликда chora-tadbirlar ishlab chiqiladi (idoralararo komissiyalar tuzish, qo'shma taftishlar o'tkazish va sh.k.). Munosabatlarning bu ikki guruhi ma'muriy-protseduraga oid (belgilangan tartib-taomil asosidagi) munosabatlар jumlasiga kiradi.

*Taraflari teng huquqli bo'lgan ma'muriy-protsessual munosabatlар* (masalan, fuqarolarning shikoyatlari bo'yicha, ma'muriy

huquqbuzarliklarga doir ishlar bo'yicha ish yuritish doirasidagi munosabatlar). Bu munosabatlarning mazmuni ma'muriy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish bilan belgilanadi.

*Turli bitimlar ko'rinishidagi ma'muriy-shartnoma munosabatlari* (masalan, u yoki bu lavozimga qabul qilish to'g'risidagi dastlabki bitim). Bitimlar ijro etuvchi hokimiyat subyektlari o'rtasida ham tuzilishi mumkin.

### 3-§. Ma'muriy huquq sohasidagi yuridik faktlar

*Yuridik faktlar* ma'muriy-huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, ularni o'zgartirish yoki bekor qilinishi uchun asos bo'ladi. Yuridik faktlar shaxslar va organlarning *harakatlari* natijasida ham, muayyan *voqealar* natijasida ham yuzaga kelishi mumkin.

**Harakatlar** subyekt o'z xohish-irodasini faol ifoda etishi mahsulidir. Tegishli yuridik faktlar irodaviy yuridik faktlar deb ataladi. Masalan, fuqaroning ijro etuvchi hokimiyat organiga shikoyat berishi uning mansabdor shaxslar tomonidan ko'rib chiqilishi bilan bog'liq bo'lgan huquqiy munosabatni vujudga keltiradi. Bunda muayyan ma'muriy qonunchilikda nazarda tutilgan huquq amalga oshadi va tegishli ma'muriy huquqiy majburiyat ado etiladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda qonuniy va g'ayriqonuniy harakatlar farqlanadi.

Qonuniy harakatlar har doim ma'muriy-huquqiy normalarning talablariiga mos keladi. Fuqarolarning va ma'muriy-huquqiy munosabatlar boshqa ishtirokchilarining qonuniy harakatlari yuridik faktlar sifatida amal qiladi. Masalan, fuqaroning shikoyat berishi u bilan shikoyat berilgan ijro etuvchi organ (mansabdor shaxs) o'rtasida muayyan ma'muriy-huquqiy munosabat yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ma'muriy huquqqa doir yuridik faktlar bo'lib, qonuniy harakatlarning asosiy turi sifatida ijro etuvchi hokimiyat subyektlarining individual xususiyat kasb etuvchi, ya'ni muayyan shaxs va ishga taalluqli huquqiy hujjatlari xizmat qiladi. Ularning bevosita yuridik natijasi — ma'muriy-huquqiy munosabat yuzaga kelishi, uning o'zgartirilishi yoki bekor qilinishidan iborat.

G'ayriqonuniy harakatlar ma'muriy-huquqiy normalarning talablariga mos kelmaydi, aksincha ularni buzadi. Bular — intizomiy va ma'muriy qilmishlar (ular, ayniqsa, ko'proq davlat boshqaruvi sohasiga xosdir). Ular yurisdiksion (vakolatni amalga oshirish bilan bog'liq) huquqiy munosabatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. G'ayriqonuniy harakatlar qatoriga harakatsizlik (masalan, tegishli ichki ishlar organi jamoat tartibini ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rмагани) ham kiradi.

**Vogealar** — huquqiy oqibatlarga sabab bo'luvchi, ammo kishilarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lмаган holda yuz beruvchi yuridik faktlar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 1999- yil 26-fevraldag'i farmoni bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasining 16 yoshga to'lgan va O'zbekiston hududida yashaydigan har bir fuqarosi pasportga ega bo'lishi mumkin. Binobarin, fuqaroning 16 yoshga to'lishi unda pasport olish huquqi va majburiyatini, davlat organlarida esa — fuqaroga bunday pasportni berish huquqi va majburiyatini vujudga keltiruvchi yuridik fakt hisoblanadi.

Shunday qilib, irodaviy va noixtiyoriy yuridik faktlar o'rtasidagi farq shundan iboratki, irodaviy yuridik faktlar vujudga kelishi kishilarning xohish-irodasiga bevosita bog'liq bo'ladi, noixtiyoriy yuridik faktlarning vujudga kelishi esa kishilarning xohish-ixtiyoriga bog'liq bo'lmaydi.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Ma'muriy-huquqiy munosabat deganda nimani tushunasiz?
2. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
3. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning elementlarini ko'rsating.
4. Davlat boshqaruvinin ma'muriy huquq layoqati deganda nimani tushunasiz?
5. Davlat xizmatchisining ma'muriy huquq layoqati deganda nimani tushunasiz?
6. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning turlarini ko'rsating.
7. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, ularni o'zgartirish yoki bekor qilinishi uchun nima asos bo'ladi?

*Ikkinch bo'lim*  
**MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTLARI**

---

*IV bob*  
**IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT ORGANLARI**

**1-§. Ijro etuvchi hokimiyat organlari  
tushunchasi va xususiyatlari**

Ijro etuvchi hokimiyat organlari davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan hamda davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan davlat hokimiyatining mustaqil bir bo'g'inidir. Ma'muriy huquq sohasi olimlarining fikricha, ijro etuvchi hokimiyat subyektlari o'matilgan vakolatlar (kompetensiya) doirasida davlat boshqaruvini amalga oshiradilar, shuningdek ijro etuvchi hokimiyat davlat boshqaruvi organlari tizimidan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Binobarin, ijro etuvchi hokimiyat bu hokimiyat organlari tizimining bir qismi bo'lgan, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjalarni ijro etish va ijrosini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladigan, boshqaruv faoliyatining maxsus shakl va usullaridan foydalanib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradigan, tegishli tuzilishiga, vakolatlar doirasi (kompetensiya)ga, davlat-hokimiyat vakolatlariga va davlat xizmatchilari shtatlariga ega bo'lgan tashkilotdir<sup>1</sup>.

Ijro etuvchi hokimiyat organi shu hokimiyat mexanizmi(tizimi) ning tarkibiy qismi bo'lib, davlat nomidan ish ko'radi, ijro etish va farmoyish berish faoliyatni amalga oshiradi, o'zining qonunchilik hujjalarda belgilangan vakolatlari doirasi hamda tuzilishiga ega, faoliyatining o'ziga xos shakl va usullarini qo'llaydi.

---

<sup>1</sup> *Qarang: Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право. Учебник для вузов. – М.; 2004. – С. 186. Хожиев Э., Хожиев Т. Мамурий хукук. Дарслек. – Т. 2006. – 189-б.*

Ushbu organlar faoliyatining mazmuniga ko'ra davlat boshqaruvini amalga oshiradi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari o'zining davlat-huquqiy tabiatiga ko'ra, o'zini o'zi boshqarish organlaridan, funksional ahamiyatiga ko'ra esa, davlat hokimiyatining boshqa organlaridan farq qiladi. Shu bilan birga, ijro etuvchi hokimiyat organlari davlatning muayyan funksiya va vazifalarini ta'minlashda qonunchilik hamda sud organlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu munosabatlar turli xil kelishuv komissiyalari, vakillik organlarning yig'ilishlarida ijro etuvchi hokimiyat organi rahbarining hisobotini eshitish kabi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarining bir necha xususiyatlarini qayd etish mumkin.

*Birinchidan*, ijro etuvchi hokimiyat organi – qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati singari davlat apparatining mustaqil bug'ini hisoblanadi, u davlatning xo'jalik, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy, tarmoqlararo sohalarida ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshiradi. *Ikkinchidan*, ijro etuvchi hokimiyat organlari huquqiy hujjatlarni qabul qilish, o'rnatilgan talablar va qoidalarga rioxha etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, huquqiy aktlar talablarining buzilishidan turli boshqaruv usullari orqali himoya qilishdan iborat davlat-hokimiyat vakolatlariga ega. *Uchinchidan*, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati qonun osti xususiyatga ega, ya'ni ular o'z faoliyatini qonun asosida va qonunlarni ijro etish maqsadida amalga oshiradi. *To'rtinchidan*, har bir ijro etuvchi hokimiyat organi o'zining funksiyasi va vakolatlari doirasiga ega. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda ijro etuvchi hokimiyat organlarining asosiy funksiyalari va vazifalari belgilab berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 9-dekabr farmonida Respublika davlat boshqaruvi organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari etib quydagilar belgilangan.

– O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hamda boshqa normativ-huquqiy

hujjatlarning amalda ro'yobga chiqarilishini, ular ijrosi ustidan ta'sirchan nazoratning amalga oshirilishini ta'minlash;

— tashqi va ichki siyosatni amalga oshirish, davlatning tashqi va ichki xavfsizligini ta'minlash;

— mamlakatni strategik rivojlantirishning ustuvor yo'naliшlarini belgilash, davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishni tashkil qilish, iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

— insonning konstitutsiyaviy huquqi va erkinliklarini, aholining ta'lim, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy sohada umum davlat boshqaruв tizimi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish;

— tegishli huquqiy muhitni yaratish, litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish;

— soliqlar, bojxona to'lovlarini yig'ish, davlat daromadlarini taqsimlash yo'li bilan xazinaga oid vazifalarni amalga oshirish. *Beshinchidan*, har bir ijro etuvchi hokimiyat organi tashkiliy tuzilishga ega, ya'ni zaruriy moddiy-texnik, moliyaviy, axborot va boshqa resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. *Oltinchidan*, har bir ijro etuvchi hokimiyat organi davlat faoliyatini muayyan hududda amalga oshiradi.

Shunday qilib, ijro etuvchi hokimiyat organi — bu o'z tuzilishiga, vakolat doirasiga, faoliyat ko'rsatish hududiga ega, tegishli qonunchilik hujjatlarida tashkil etiladigan, davlat nomidan ish ko'radigan, ijro etish va farmoyish berish tartibida xo'jalik, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy, tarmoqlararo sohalarga rahbarlikni amalga oshiruvchi, davlat mexanizmining mustaqil tarkibiy bo'g'inidir.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarini quyidagi asoslarga ko'ra tasniflash mumkin:

1. *Ijro etuvchi organlar vakolatinining xususiyatiga ko'ra:* umumiyl; maxsus; sohaviy; sohalara vakolatli organlarga bo'linadi. Umumiyl vakolatli ijro etuvchi organlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar

Kengashi, hokimliklarni kiritish mumkin. Ushbu davlat organlari o‘z vakolatlari doirasida barcha sohalarga taalluqli qarorlar qabul qilishi mumkin.

Maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlariga davlat inspeksiyalari (parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Davlat don inspeksiyasi va b.) va boshqa maxsus davlat organlari kiradi.

Sohaviy ijro etuvchi organlarning vakolatlar doirasi ularning aniq davlat-boshqaruvi faoliyati sohasida belgilab qo‘yilgan. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 9-dekabrdagi «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmoniga asosan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqa markaziy davlat boshqaruvi organlari tasdiqlangan. Ushbu organlarning aksariyati muayyan sohada faoliyat olib boradi.

Sohalararo vakolatli ijro etuvchi organlar davlat organlarining alohida faoliyat yo‘nalishlarida muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi. Masalan, O‘zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi aloqa, axborotlashtirish va radiochastota spektridan foydalanish sohasidagi vazifalarni hal qilish va davlat siyosatini o‘tkazish uchun vakolat berilgan muvofiqlashtiruvchi boshqaruvi organi hisoblanadi.

*2. Ijro etuvchi organlar tashkiliy-huquqiy asoslariga ko‘ra yidagi organlarga bo‘linadi:*

a) Konstitutsiya asosida tashkil etiladigan organlarga (masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi);

b) qonunchilik hujjatlari asosida tashkil etiladigan organlar (vazirliklar, davlat qo‘mitalari).

Bundan tashqari, ijro etuvchi hokimiyat organlari tashkil etish tartibiga ko‘ra Prezident tomonidan tashkil etiladigan organlarga, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etiladigan organlarga, markaziy hamda mahalliy ijro etuvchi organlar tomonidan tashkil etiladigan organlarga bo‘linadi.

*3. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda qarorlar qabul qilish tartibiga ko‘ra ijro etuvchi hokimiyat organlari:*

- kollegial organlarga;
- yakkaboshchilik asosida faoliyat olib boradigan organlarga bo‘linadi.

Kollejial organlar faoliyatining mazmuni boshqaruv qarorlarini organning tegishli a'zolari bilan birgalikda kelishuv asosida qabul qilinishi bilan ifodalanadi. Ijro etuvchi organlar faoliyatida yakkaboshchilik prinsipi, organ rahbari (vazir, boshliq)ning yakka o'zi u yoki bu boshqaruv qarorlarini qabul qilishini anglatadi. Albatta, bunda har bir organ rahbari boshqaruv qarorlarining xususiyatidan kelib chiqib, sohaviy tarkibiy tuzilmalar fikrini inobatga olgan holda, shuningdek har bir vazirlik, davlat qo'mitasi tuzilmasida mavjud maslahat organi-hay'at muhokamasidan so'ng shunday qarorlar qabul qilishi mumkin.

4. *Ijro etuvchi organlarni tashkiliy-huquqiy shakllariga ko'ra* muayyan turlarga ajratish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etib o'tilgan farmonida respublika davlat boshqaruvi organlarining umumiy funksional tavsifi bilan birga tashkiliy - huquqiy shakllari ham belgilab berilgan. Ushbu Farmon asosida ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida bir necha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, davlat boshqaruv organlarining turli tashkiliy-huquqiy shakllari (vazirlik, davlat qo'mitasi, agentlik, markaz, inspeksiya, departament) ijro etuvchi hokimiyat tizimida paydo bo'lishiga asos yaratiladi.

5. *Ijro etuvchi organlar moliyaviy mablag' bilan ta'minlanishiga ko'ra:* budjet organlari va xo'jalik hisobidagi organlarga bo'linadi.

6. *Ijro etuvchi organlar qaysi hududda faoliyat ko'rsatishi bo'yicha:* markaziy va mahalliy organlarga bo'linadi.

## 2-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomi

O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik instituti «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Asosiy qonuniga)ga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 1990-yil 24-mart qonuniga asosan joriy etilgan. «Prezident» tushunchasi konstitutsiyaviy-huquqiy ma'noda davlat boshlig'ini anglatadi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul

qilingan Konstitutsiyasiga muvofiq Prezidentlik instituti – hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiga rioya qilinishida davlat mexanizmi uchun eng muhim institutdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-93-moddalarida hamda «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to‘g‘risida»gi 2003-yil 25-aprel qonuni<sup>2</sup> bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyati yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga asosan Prezident lavozimiga nomzodlarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

*birinchidan*, 35 yoshdan kichik bo‘limgan, faqat O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi Prezident etib saylanishi mumkin;

*ikkinchidan*, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti bo‘lib, faqat O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi saylanishi mumkin;

*uchinchidan*, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Prezidentlikka saylanishi mumkin. Bu muddat — Prezidentlikka nomzodga faqat bilimlar va amaliy tajribalarni emas, balki O‘zbekistondagi hayotning o‘ziga xos sharoitlarini tushunish uahun ham zarur va yetarlidir;

*to‘rtinchedan*, davlat tilini yaxshi biladigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Prezidentlikka saylanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan yetti yil muddatga saylanadi.

Prezident o‘z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo‘lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi. (91-m.) Prezident O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig‘iliishiда, Konstitutsyaning 92-moddasida o‘z ifodasini topgan qasamyodni qabul qilgan paytdan boshlab o‘z lavozimiga kirishgan hisoblanadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 93-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

— fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

— O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

— mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

— muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

— o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

— O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

— O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;

— ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliv hokimiyat va boshqaruvin organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;

— Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

— O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi va lavozimidani ozod qiladi;

— O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

— O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi;

— O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo‘jalik sudi raisi va sudyalari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

— viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo‘jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

— viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o‘z sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

— respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to‘xtatadi, bekor qiladi;

— O‘zbekiston Respublikasining qonunlarni imzolaydi va e’lon qiladi; qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

— O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig‘iga kiritadi;

— favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartib-ziliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan saqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

— O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliv qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliv harbiy unvonlar beradi;

— O‘zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlaydi, O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

— O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

— amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnomalarini kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;

— O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi;

Prezident o‘z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdar shaxslarga topshirishga haqli emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaning 94-moddasiga muvofiq o‘z vazifalari va Konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshirish maqsadida serqirra huquq ijodkorlik faoliyatini yuritadi. Prezident Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Prezident tomonidan qabul qilinadigan mazkur normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarda ko‘zda tutilgan tashkiliy-huquqiy masalalarni davlat boshlig‘i nuqtai nazaridan amalga oshirish mexanizmini belgilab berishi bilan birga ularning mohiyatini aks ettiradi. Prezidentning huquq ijodkorlik faoliyati doirasida qabul qilgan hujjatlarining huquqiy tabiatini o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari huquqni qo‘llash xususiyatiga, normativ mazmunga, individual-tashkiliy xususiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Konstitutsiyaning 95-moddasiga binoan, Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi

hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti betobligi sababli o'z vazifasini bajara olmasligi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qo'shma qaroriga ko'ra tuzilgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda o'n kun muddat ichida palatalarning qo'shma favqulodda yig'ilishida deputatlar, senatorlar orasidan uch oygacha bo'lgan muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu holda uch oy muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumxalq saylovi o'tkazilishi shart (96-m).

Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi(97-m.).

### **3-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2003 yil 29- avgust qonuni bilan tartibga solingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi

hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rribosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining vakolatlarini amalga oshirish yuzasidan uning faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 14-fevraldag'i 62-sonli qaroriga bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti»da o'z ifodasini topgan.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjaligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasini faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariada nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaning 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplariga asoslanadi.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi, mulkchilikning barcha shakllarini uyg'unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining huquqiy mexanizmini ishga solish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi;

xo'jalik yuritishning yangi shakllari — konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa shunga o'xshash tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga yordamlashadi, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi talab-ehtiyojlarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;

O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx siyosatini o'tkazish, mehnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini hamda ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetini, shuningdek O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbol ko'rsatkichlari va eng muhim dasturlarini ishlab chiqish hamda ular ijrosini tashkil etadi;

boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to‘g‘risida takliflar ishlab chiqadi;

fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ularning mehnat qilishga, ijtimoiy va huquqiy himoyalanishga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlash hamda himoya qilish chora-tadbirlarini ko‘radi, ijtimoiy ta‘minot tizimini takomillashtiradi;

sog‘liqni saqlash, xalq ta‘limini rivojlantirish va takomillashirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko‘maklashadi;

O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini, davlat chegaralari qo‘riqlanishini ta‘minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga yordamlashadi;

ijro etuvchi hokimiyat organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o‘tkazish hamda respublika va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi, yirik avariyalarni falokatlarning, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko‘radi;

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta‘minlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi, ularni bajarish chora-tadbirlarini ko‘radi;

tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlari ishini muvofiqlashtirib hamda yo‘naltirib boradi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat boshqaruvining boshqa organlari haqidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan ta‘minlanadigan davlat boshqaruvi boshqa organlarining markaziy

devoni xodimlari sonini va ular ta'minotiga ajratiladigan mablag'lar miqdorini belgilaydi.

Vazirlar va davlat qo'mitalari raislarining o'rinnbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Davlat boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari va ularning o'rinnbosarlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tashkil etiladigan xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbarlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi.

Davlat boshqaruvi organlari hay'atlarining a'zolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tashkil etiladigan xo'jalik boshqaruvi organlari boshqaruvlarining a'zolari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi zarurat bo'lganda o'z vakolatiga kiruvchi davlat boshqaruvining ayrim masalalarini hal etishni, agar bu masalalarning hal etilishi qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining mutlaq vakolatlariga kiritilgan bo'lmasa, vazirliklar, davlat qo'mitalari va o'z bo'yso'nuvidagi davlat boshqaruvi boshqa organlariga berishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va davlat boshqaruvi boshqa organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining hujjatlari amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan hollarda ularni bekor qilish muquqiga ega.

Yangi shakllantirilgan Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko'rib chiqish uchun o'z vakolatlari davridagi faoliyati dasturini taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining asosiy ko'satkichlarini va unga

kiritiladigan o‘zgartishlarni ishlab chiqadi hamda ulami O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ko‘rib chiqishi uchun taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari Vazirlar Mahkamasi muayyan a’zosining o‘zi rahbarlik qilayotgan davlat yoki xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitishlari hamda zarur bo‘lganda uni iste’foga chiqarish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ko‘rib chiqishi uchun taklif kiritishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining a’zolari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari majlislarida, palatalarning qo‘mitalari majlislarida hozir bo‘lish va axborot berishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari tomonidan Vazirlar Mahkamasi yoki uning muayyan a’zolari faoliyatiga taalluqli masalalar qo‘ylgan taqdirda, Bosh vazir shu masalalar yuzasidan zarur tushuntirishlar olish va tushuntirishlar berishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo‘mitalarining O‘zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyati masalalariga doir tavsiyalari va takliflarini ko‘rib chiqadi hamda ular yuzasidan chora-tadbirlar ko‘radi. Tavsiyalar va takliflarni ko‘rib chiqish natijalari haqida hamda ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tegishli qo‘mitalariga kelishilgan muddatda ma’lum qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidan, Qonunchilik palatasi deputatidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatidan, Senat a’zosidan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining yoki unga bo‘ysunuvchi davlat yoxud xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatiga doir parlament so‘rovi olgan Vazirlar Mahkamasi yoxud O‘zbekiston Respublikasi Hukumati a’zosi qonun bilan belgilangan muddatlarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli palatalarining majlislarida og‘zaki yoki yozma javob berishi shart.

Vazirlar Mahkamasi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan o‘zaro hamkorlik qiladi, uning O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining hamda Oliy Majlis

palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish masalalariga doir boshqa hujjatlar qanday bajarilayotganligi haqidagi ma'lumotlarini eshitadi;

Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining takliflarini ko'rib chiqadi;

vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari tomonidan tarmoqlararo va mintaqaviy o'ta muhim kompleks dasturlarni amalga oshirishda Qoraqalpog'iston Respublikasi huquqlariga riousha etilishini ta'minlaydi, bunda chiqib qoladigan bahsli masalalarni hal etadi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlarining ijro etilishini o'z vakolati doirasida to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasini iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlantirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga taalluqli masalalar Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal etilayotganda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining fikri hisobga olinadi.

Vazirlar Mahkamasi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining doimiy vakolatxonasi bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirilishini ta'minlash bilan bog'liq masalalarda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal etilishi talab qilinadigan masalalarga doir takliflarini ko'rib chiqadi, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining bajarilish jarayonini nazorat qiladi, ularning amalga oshirilishi yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarini taklif qilish hamda ularning axborotlarini eshitishga haqli;

vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining viloyatlar va Toshkent shahar

hokimlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlaydi, bunda chiqib qoladigan bahsli masalalarini hal etadi;

hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlarini tasdiqlaydi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat devonining soni va namunaviy tuzilmasini belgilaydi;

viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qonun hujjalariiga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlari ijrosini to'xtatib qo'yish hamda ulami bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi va qonun hujjalariiga muvofiq ularga zarur ko'mak ko'rsatadi.

Davlat boshqaruvining, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning eng muhim masalalari Vazirlar Mahkamasining majlislarida hal etiladi.

Vazirlar Mahkamasining majlislari yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi.

Vazirlar Mahkamasining majlislari Bosh vazir o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining majlislarda raislik qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasining majlislari tayyorlash va o'tkazish tartibi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti bilan belgilanadi.

Quyidagilar faqat Vazirlar Mahkamasining majlislarda ko'rib chiqiladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini ishlab chiqish va ijro etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasarrufidagi aniq maqsadli davlat fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish masalalari;

boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, O'zbekiston Respublikasini va uning ayrim mintaqalarini iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish dasturlari loyihalari;

davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish hajmi hamda O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzi ko'lagini oshirish to'g'risidagi takliflar;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini belgilash hamda o'zgartirish to'g'risidagi takliflar;

davlat mulki obyektlarini xususiy lashtirish dasturlarining loyihalari hamda xususiy lashtirishdan olingan mablag'lardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi takliflar;

belgilab qo'yilgan davlat narxlari qo'llaniladigan mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar ro'yxati;

qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritiladigan qonunlar loyihalari;

davlatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolash to'g'risidagi takliflar.

Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi qonunning 15-moddasida Bosh vazirning huquqiy maqomi belgilangan. Unga asosan Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi hamda uning samarali ishlashi uchun shaxsan javob beradi. Shuningdek Bosh vazir quyidagi vakolatlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazirning o'rribosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

- Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi;

- Vazirlar Mahkamasining qarorlarini imzolaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi hamda hukumatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvining Vazirlar Mahkamasi majlisida ko'rib chiqish talab etilmaydigan masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

- O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bosh vazir o'z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam ravishda axborot berib boradi.

Bosh vazir yo'qligida uning vazifasini Bosh vazir o'rribosarlardan biri bajaradi.

O'zbekiston Bosh vazirini tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi O'zbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yan-

gilash va yanada demokratlashtirish hamda mam'lakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi 2007-yil 11-apreldagi konstitutsiyaviy qonunida belgilangan1.

Ushbu Qonunga asosan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining mansabdir shaxslari saylanganidan va organlari shakllantirilganidan keyin bir oy ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining har biri bilan hamda saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati ko'rib chiqishi hamda tasdiqlashi uchun taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi.

Agar ovoz berish vaqtida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi yoki Senatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti siyosiy partiyalar fraksiyalarini va saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga nomzodlarni yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi yoki Senati taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini uch marta rad etgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri vazifasini bajaruvchini tayinlaydi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini yoki uning palatalaridan birini tarqatib yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda, yangi saylov tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch oy ichida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan quyidagi hollarda lavozimidan ozod etiladi:

a) Bosh vazirning iste'foga chiqish to'g'risidagi arizasiga binoan;

b) Bosh vazir o'z vakolatlarini bajarishi mumkin bo'lmay qolgan taqdirda;

d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibida uning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloslar yuz berganda, shuningdek Vazirlar Mahkamasi bir necha marta O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;

e) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taqdim etgan tashabbusiga binoan. Agar zarur asoslarga ega bo'lgan bunday tashabbusni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar yetakchi fraksiyalarini qo'llab-quvvatlasa hamda mazkur tashabbus O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatida ovozga qo'yilganda tegishinchha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy soni uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozini olsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining lavozimidan ozod etilishi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining iste'foga chiqishiga sabab bo'ladi.

Bosh vazirning o'rinnbosarlari vazifalar taqsimotiga muvofiq ~~o'zlarini~~ rahbarlik qilayotgan tarmoqdagi ishlarning ahvoli uchun javob beradilar, tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni, ularning ishini nazorat qilishni amalga oshiradilar hamda ularga topshiriglar beradilar, Vazirlar Mah-

kamasi muhokamasiga kiritilgan takliflarni hamda qaror va farmoyishlarning loyihibalarini dastlabki tarzda ko'rib chiqadilar.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari:

o'zlariga topshirilgan faoliyat sohasi uchun javob beradilar;

Vazirlar Mahkamasining majlislarida masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadilar;

Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiruvchi masalalarni ko'rib chiqish haqida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining loyihibalarini tayyorlash tashabbusi bilan chiqishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug'ul-anishlari mumkin emas.

Bosh vazir va uning o'rinnbosarlaridan iborat tarkibdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosati Vazirlar Mahkamasining doi-miy organi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bosh vazirning qaroriga binoan Vazirlar Mahkamasi Rayosatining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Hukumatining boshqa a'zolari ham kiritilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi dcimiy komissiyalar tuzadi va ularning vazifalari, vakolatlari hamda faoliyat tartibini belgilaydi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvining ayrim masalalari bo'yicha takliflar tayyorlash, Vazirlar Mahkamasining qarorlari loyihibalarini ishlab chiqish, shuningdek Vazirlar Mahkamasining ayrim topshiriqlarini bajarish uchun Vazirlar Mahkamasining muvaqqat komissiyalari va boshqa ishchi organlari tuzilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi qonun hujjaligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar hamda farmoyishlar qabul qiladi.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi yoki o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjalari Vazirlar Mahkamasining qarorlari shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlari Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Vazirlar Mahkamasi o'zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishi ustidan bevosita yoki vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari orqali nazoratni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi qarorlari O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plamida e'lon qilinadi, keng ommaga darhol yetkazish zarur bo'lganda esa ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinadi.

#### **4-§. Markaziy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ularning maqomi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 8-bandiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi, respublika oliv hokimiyat va boshqaruuv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi, vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi.

O'zbekiston Respublikasida markaziy davlat boshqaruvi organi, davlat mahkamasining muhim qismi sifatida vazirliklar faoliyat ko'rsatadi.

*Vazirlik* — alohida bir sohaga rahbarlik qiladigan ijrochi organ bo'lib, uning asosiy vazifasi iqtisodiyotning muayyan tarmog'iga, ijtimoiy-madaniy qurilish va ma'muriy-siyosiy faoliyatga rahbarlik

qilishdan, o'ziga topshirilgan tarmoqning har jihatdan rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

*Davlat qo'mitalari* — umumdavlat vazifalarini bajaradigan sohalararo markaziy davlat boshqaruvi organidir. Davlat qo'mitalari tegishli tarmoq muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Davlat qo'mitasi tegishli tarmoqdagi ahvol uchun mas'ul hisoblanadi. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunga binoan davlat qo'mitalari faoliyati ustidan nazoratni Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.

*Agentlik* — davlat boshqaruvi sohasida bosh tuzilma yoki markaziy boshqaruvi maqomiga ega bo'lgan maxsus vakolatlari mustaqil organdir.

Jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo'yish, shuningdek respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003 yil 9-dekabr farmoniga asosan, vazirliklar, davlat qo'mitalari, qo'mitalar, agentliklar, shuningdek ular huzurida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari jumlasiga kiritildi.

Ushbu Farmon bilan Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining quyidagi ro'yxati tasdiqlandi.

## I. Vazirliklar

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
3. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.
4. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi.
9. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi.
10. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi.
11. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi.
12. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi.
13. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
14. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi.

## **II. Davlat qo‘mitalari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo‘mitasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi.
9. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bo‘yicha davlat qo‘mitasi.

## **III. Agentliklar**

1. O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi.
2. O‘zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi.
3. O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi.
4. O‘zbekiston «O‘zkommunxizmat» agentligi.
5. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi.
6. O‘zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi Qimmatbaho metallar agentligi.
8. «O‘zarxiv» agentligi.

#### **IV. Qo‘mitalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi.

#### **V. Markazlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Sifat» O‘zbekiston paxta tolasini sertifikatlash markazi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi.

#### **VI. Inspeksiyalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Katta va alohida muhim suv xo‘jaligi obyektlarining tēxnik holatini hamda bexatar ishslashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat don inspeksiyasi.

6. O'zbekiston Respublikasi Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi.

7. O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.

Bozor islohotlarining hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarishni yanada erkinlashtirish, ma'muriy islohotlarni chuqurlashtirish, korporativ boshqaruvin me'yorni va tamoyillarini keng joriy etish, xo'jalik birlashmalarini unifikatsiyalash va ular faoliyatini tashkil qilish samaradorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo'jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 22-dekabr farmoniga asosan xo'jalik boshqaruvi organlarining asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari belgilandi. Unga ko'ra, xo'jalik boshqaruvi organlarining asosiy tashkiliy-huquqiy shakllariga aksiyadorlik kompaniyalari, shu jumladan davlat-aksiyadorlik kompaniyalari, uyushmalar kiritildi.

Shuningdek, Farmonda xo'jalik boshqaruvi organlarining asosiy vazifa va funksiyalari sifatida quyidagilar qayd etilgan.

— tarmoq va iqtisodiyot sohalarini barqaror rivojlantirishning istiqbolli strategiyasini belgilash;

— marketing tadqiqotlarini tashkil etish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni (ishlar, xizmatlarni) o'zlashtirish, ularning jahon bozorlariga kirib borishiga ko'maklashish;

— korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ushbu maqsadlarga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishda yordam berish;

— ular tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarga axborot xizmatlari ko'rsatish;

— kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish.

## **5-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomi**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng, milliy, tarixiy an'analarimiz, qadriyatlarimizga asoslanib, mahalliy davlat hokimiyatini o'ziga xos modeli yaratildi.

«O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi qonunga muvofiq 1992-yil yanvardan boshlab viloyat, tuman va shaharlarda joylardagi vakillik hamda ijroiya-boshqaruv hokimiyatiga rahbarlik qiluvchi hokimlik lavozimi joriy etildi. Hokimliklar mahalliy ahamiyatga molik hamma masalalarni umumdavlat nuqtai nazaridan va hududda yashayotgan fuqarolarning manfaatlariga asoslangan holda hal qilishlari belgilab qo'yildi.

Mahalliy davlat hokimiyatiga oid vazifalarni bajarish uchun hokimlar huzurida ijroiya apparati tuzildi. Bu apparat ilgari xalq deputatlari mahalliy Kengashlari va ijroiya qo'mitalari bajarib kelgan vazifalarni o'z zimmasiga oldi. Shu bilan birga respublika va mahalliy darajada boshqaruv organlarining vazifalari aniq chegaralab qo'yildi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mahalliy davlat hokimiyatining asoslarini belgilab berdi. Konstitutsiyaning XXI bobida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishi, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga kiramagan masalalar, ularning vakolat muddati, hisobdorligi, mansabdar shaxslarning lavozimga qo'yilishi, javobgarligiga oid normalar o'z ifodasini topgan.

Mahalliy davlat hokimiyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatiga ehtiyoj tug'ilganligi bois, 1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini ma'lum bir hududda faoliyat yuritadigan, hokimiyat vakolatlariga, huquqiy, moddiy, moliyaviy, axborot va boshqa resurslarga ega bo'lgan, ijro

etuvchi hokimiyat vazifalarini amalga oshiradigan davlat mexanizmining mustaqil tarkibiy elementi sifatida belgilash mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyat to'g'risida»gi qonuniga asosan viloyat, tuman va shahar hokimlari quyidagi vakolatlarga ega:

— qonunlarning hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlarining, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosini tashkil etadi;

— jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza etish bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tegishli ishlarni tashkil etadi;

— viloyat, tuman va shaharni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlan Tirishning asosiy yo'nalishlarini, viloyat, tuman, shahar budgetining asosiy ko'rsatkichlarini va ularning ijrosiga doir hisobotlarni xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga taqdim etadi;

— o'z o'rinnbosarlari va ijroiya hokimiyati tarkibiy bo'linmalarining rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish to'g'risidagi qarorlarni xalq deputatlari Kengashi tasdig'iga taqdim etadi;

— hokimlik devoni bo'linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

— quyi turuvchi hokimlarning qarorlarini, basharti ular O'zbekiston Respublikasining qonunlariga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlariga, shuningdek yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashi va hokimning qarorlariga zid bo'lsa, bekor qiladi va xalq deputatlari Kengashiga quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashlarining hujjatlarini bekor qilish to'g'risida taqdimnomaga kiritadi;

— rahbarlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan ijroiya hokimiyati tarkibiy bo'linmalarining ishini nazorat qiladi;

— xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlarni bajarmaganliklari uchun mansabdor shaxslarni intizo-

miy javobgarlikka tortish to‘g‘risida qonunda belgilangan tartibda taqdimnomalar kiritadi;

— davlat mukofotlari bilan taqdirlashga doir iltimosnomalarni qarab chiqadi va takliflar kiritadi;

— respublika va xorijda viloyat, tuman hamda shaharning rasmiy vakili sifatida ish ko‘radi;

— aholini qabul qilishni tashkil etadi, fuqarolarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini qarab chiqadi.

Hokim rejalashtirish, budget, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamjihatlik qilish, qishloq xo‘jaligi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, transport, yo‘l xo‘jaligi va aloqa, aholiga kommunal, savdo va ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qonuniylik, huquqtartibot va xavfsizlikni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlarida o‘z vakolatiga berilgan boshqa masalalarni ham hal etadi.

Hokimlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Hukumat hujjatlariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid keladigan hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to‘xtatiladi va bekor qilinadi.

Bundan tashqari, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatiga oid bo‘lgan normalar 50 dan ziyod qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda o‘z aksini topgan.

Ijro etuvchi hokimiyat tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida respublika davlat boshqaruvi organlarining ba’zi vakolatlarini markazdan mahalliy davlat hokimiyati organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish, joylarda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda hokimiyat vakillik organlari, hokimlar vakolatlarini kengaytirish va aniqlashtirish, ular zimmalariga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun mas’uliyatni oshirishni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish vazifasi belgilab berildi.

Shu asoslarda mahalliy bo‘g‘inda davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlarning qo‘yidagi asosiy yo‘nalishlarini qayd etish mumkin:

birinchidan, yuqorida qayd etilgan davlat qurilishi va boshqaruvi, qonun chiqaruvchi hokimiyatning roli va ta’sirini kuchaytirish sohasida islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini amalgalashirish Konsepsiyasi talablari asosida mahalliy davlat boshqaruvida mahalliy davlat hokimiyati ixtiyoriga berilgan masalalarning huquqiy mexanizmlarini ochib berish;

ikkinchidan viloyat, tuman, shahar hokimlari vakolatlarini aniqlashtirish asosida ularning ayrim masalalar bo‘yicha mustaqilligini ta’minlash;

uchinchidan, rivojlangan davlatlar tajribasini qiyosiy tahlil asosida o‘rganish;

to‘rtinchidan, hokimiyatni markazlashtirmaslik masalasini tadrijiy asosda bosqichma-bosqich amalgalashirishini ta’minlash;

beshinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkiliy jihatdan samarali ta’minlashni nazarda tutuvchi ijtimoiy sherikchilik asosida fuqarolik institutlari bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy choralarini ishlab chiqish.

### ***Nazorat uchun savol va topshiriqlar***

1. Ijro etuvchi organlar deganda nimani tushunasiz?
2. Ijro etuvchi organlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Ijro etuvchi organlarni tasniflash asosida tushuntirib bering.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomi qanday?
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning huquqiy tabiatini haqida so‘zlab bering.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquqiy holati haqida so‘zlab bering.
7. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod qilish tartibi qanday?
8. Markaziy davlat boshqaruvi organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari nimalardan iborat?
9. Mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning huquqiy holati haqida tushuntirib bering.
10. Hokimlarning vakolatlari haqida so‘zlab bering.

*V bob*

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XIZMATI

### 1-§. Davlat xizmatining mazmuni va asosiy prinsiplari

Davlat xizmati mohiyatini va uning asosiy xususiyatlarini aniqlashdan oldin, insonlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali faoliyat turlari to'g'risida tushuncha hosil qilish lozim. Bularni quyidagi shakllarga bo'lish mumkin:

- 1) *tovarlar, moddiy boyliklar ishlab chiqarish, ma'lum bir xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish;*
- 2) *nomoddiy (ma'naviy) boyliklar yaratish* (masalan, kitoblar, maqolalar yozish, kino va videofilmlar yaratish, ssenariylar tayyorlash);
- 3) *ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirish* (masalan, ta'lif, sog'liqni saqlash va hokazolar);
- 4) *davlat xizmatini amalga oshirish:*
  - a) *ijtimoiy-madaniy sohalarni* (ta'lif, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish) boshqarish;
  - b) *iqtisodiyot sohalarini* (sanoat, qishloq va suv xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari) boshqarish;
  - d) *ma'muriy-siyosiy sohalarni* (mudofaa, davlat xavfsizligi, adliya, ichki ishlar, tashqi ishlar) boshqarish;
- 5) *nodavlat, jamoat, diniy, xalqaro, xorijiy tashkilotlarda faoliyat ko'rsatish;*
- 6) *jamiatning turli sohalarida ma'lum bir ehtiyojlarni qondirish maqsadida ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish va boshqalar<sup>1</sup>.*

D.N.Baxraxning fikricha, insonlarning, shuningdek, davlat va jamiatning maqsadga muvofiq faoliyat yo'nalishlaridan biri – xizmatdir. Bu tushuncha turli ma'nolarda: insonning faoliyat turi, ijtimoiy-huquqiy institut, davlat organlarining maxsus tizimi

<sup>1</sup> Ахехин А.П., Козлов Ю.М., Кармалицкий А.А. Административное право Российской Федерации. – М., 1996. – С 76-236.

sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Xizmat - boshqaruv, davlat faoliyatini amalga oshirish, boshqaruvni ta'minlash, aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatishdan iborat<sup>1</sup>.

Y.U.M.Kozlovnning fikricha, *davlat xizmati* — davlat organlarida amalga oshiriladigan hamda ishchilarining mehnatidan mazmuni va shakli jihatidan farq qiladigan har qanday faoliyat tushuniladi<sup>2</sup>.

Davlat xizmatiga bunday yondashish mehnat faoliyatining ikki shakliga asoslanadi: *birinchidan*, bevosita moddiy boyliklarni, tovarlarni yaratish (ishlarni bajarish); *ikkinchidan*, boshqaruv, rahbarlik, kontrol va nazoratni amalga oshirish. Bunda ma'naviy boyliklarning yaratilishi yoki davlat organlarining funksiyalarini amalga oshirilishi mumkin.

Davlat va mahalliy organlaridagi xizmatning zaruriyati — davlatning mavjud bo'lishidan, uning vazifa va funksiyalaridan, shuningdek, davlat organlarini (qonunchilik, ijro etish va sud hokimiyati) tashkil etish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Aynan xizmatchilar ko'pgina davlat organlari tuzilmasida, muassasa va tashkilotlarida, boshqaruv hamda boshqaruvchi tizim ichida personal sifatida harakat qiladi; ularning o'z vazifalarini vijdonan bajarishi esa, davlat va jamiyatda huquqiy tartibotni o'matishda xizmat qiladi.

D.N.Baxraxning fikricha, davlat xizmati tushunchasini bir necha ma'nolarda ko'rib chiqish mumkin:

*Ijtimoiy ma'noda* — davlat xizmati ijtimoiy kategoriya bo'lib, davlat tashkilotida ma'lum bir lavozimni egallab turgan shaxs tomonidan davlatning ko'rsatmasiga ko'ra ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirishdan iborat.

*Siyosiy ma'noda* — davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, davlatning maqsad va vazifalariga mavjud siyosiy kuch va vositalar orqali erishish; davlat xizmati jamiyatdagi muvozanatning asosiyo ko'rinishidir.

*Huquqiy ma'noda* — davlat-xizmat munosabatlarni huquqiy o'matish bo'lib, mansab majburiyatlari, xizmatchilarning vako-

<sup>1</sup> Бахрах Д.Н. Административное право. — М., 1993. — С 97.

<sup>2</sup> Административное право / Под.ред. Ю.М.Козлова. — М., 1973. — С. 136-137.

latlari, davlat organlari vakolatli funksiyalarining bajarilishi ta'minlanadi. Davlat xizmati murakkab ijtimoiy-huquqiy institutlardan biri bo'lib, uni o'rganish davlat xizmatining ijtimoiy va huquqiy asoslarini tahlil etishni talab qiladi. Bu institut davlat-xizmat munosabatlarini tartibga soluvchi normalar yig'indisidan iborat bo'lib, u orqali xizmatchilarining huquqlari, majburiyatlar, ularga belgilanadigan cheklovlar, javobgarlik hamda davlat xizmatini o'tash, ya'ni xizmat munosabatlarining vujudga kelishi va bekor bo'lishi tartibga solinadi. Demak, davlat xizmati huquqiy institut bo'lib, turli huquq sohalarining normalaridan tashkil topgan kichik institutlarni o'z ichiga oladi.

*Tashkiliy ma'noda* — davlat xizmati davlat apparatining tashkiliy-funksional elementlari bilan aloqada bo'ladi. U quyidagi elementlardan tashkil topgan tizim sifatida namoyon bo'ladi: davlat apparati faoliyatining tashkiliy va protsessual asoslarini tashkil etish, lavozimlarning qurilishi va ularning huquqiy ko'rinishi, xodimlarni aniqlash, baholash. Davlat xizmati davlatni mustahkamlashning huquqiy asosi bo'lib, davlat hokimiyatini belgilaydi va fuqarolik jamiyatining normal ishlashini ta'minlaydi<sup>1</sup>.

*Davlat xizmati tushunchasi keng ma'noda* davlat organlari tomonidan boshqaruvning kadrlar funksiyasini amalga oshirish, davlat organlari apparatida doimiy yoki vaqtincha mansabni egallab turgan hamda davlat budgetidan mablag' bilan ta'minlanadigan barcha shaxslarning faoliyatidir.

Davlat xizmati davlat apparatini boshqarishni tashkil etish va huquqiy tartibga solish bo'yicha davlat faoliyatining asosiy turlaridan biri bo'lib, davlat oldida turgan vazifalarining samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatining asosiy maqsadi - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan belgilangan prinsiplar va boshqa holatlarga asoslanib, davlat funksiyalarini amalga oshirish, uning vazifalarini bajarish, jamiyat va fuqarolar ehtiyojlarining qondirilishini ta'minlashdan iboratdir.

<sup>1</sup> Бахрах Д.Н. Административное право. – М., 1993. – С 102

Davlat xizmati tushunchasi *funktional ma'noga* ham ega. Unga ko'ra davlat xizmati - davlat faoliyatining, davlat organlarining, ma'muriy-boshqaruv tuzilmalari faoliyatining alohida turi hisoblanadi.

Davlat xizmatining umumiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

*birinchidan*, davlat xizmatchilarining davlat xizmatini davlat organida nazarda tutilgan shtat jadvali asosida olib borishi;

*ikkinchidan*, davlat xizmatchilarining belgilangan pul mukofoti evaziga davlat organi vakolatlarini, mansab majburiyatlarini amalga oshirishi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir necha moddalari bevosita davlat xizmati bilan bog'liq bo'lib, uning asosiy prinsiplarini mustahkamlaydi. Masalan, davlat xizmatida qonuniylik, inson va fuqarolar huquqlari va erkinliklarining ustunligi, davlat xizmati sohasida vakolatlarning taqsimlanganligi, davlat xizmatida ishtirok etuvchi fuqarolarning tengligi va boshqa konstitutsiyaviy prinsiplarni ko'rsatib o'tish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini tashkil etishning asosiy prinsiplaridan biri - bu *davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligidir*. Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Bu holat huquqiy demokratik davlat qurishning asosiy belgisidir. Davlat, uning organlari insonlar uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish beradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaning va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi (15-m.). Davlat xizmatchilari amaldagi qonunchilik hujjatlariga tayanib, faqatgina davlat organining vakolati doirasida o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari, zimmalariga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida bajarishlari, berilgan huquqlardan to'g'ri foydalanishlari, belgilangan tartibga rioya qilishlari lozim. *Qonuniylik principiga* binoan davlat xizmatini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi

<sup>1</sup> *Qarang: Xojsieev Э.Т. Давлат хизмати. Ўкув кўлланма.* – Т., 2004. –17-б.

huquq normalariga asoslanishi hamda jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini ta'minlagan holda amalga oshirilishi lozim.

Davlat xizmati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ko'rsatib o'tilgan davlat hokimiyatining tizimi asosida, ya'ni ***hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi asosida tashkil qilinadi***. Davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. Hokimiyat organlari bir-biridan mustaqil bo'lib, ularning har biri davlat oldida turgan ma'lum bir vazifa va funksiyalarni amalga oshiradilar. Huquqiy demokratik davlat qurishning muhim belgilaridan biri - bu davlat vakolatlarini hokimiyat organlari o'rtasida taqsimlashdir.

Qonunchilikka binoan ***fuqarolar davlat xizmatida bevosita ishtirok etishlari mumkin***. Bunday ishtirok davlat xizmatida ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish yoki davlat organlariga murojaat qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, O'zbekiston Konstitutsiyasining 32-moddasiga binoan fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Konstitutsyaning 35-moddasiga binoan esa har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birqalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif, shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarigina davlat xizmatida bevosita ishtirok etish huquqiga ega bo'lib hisoblanadilar.

***Davlat xizmatida ishtirok etuvchi barcha fuqarolar bir xil huquqqa ega*** bo'lib, millati, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa belgilaridan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Davlat xizmatida fuqarolarning faoliyati uchun mansab yoki vazifasi bo'yicha ish olib borishida davlat tomonidan teng shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Yuridik adabiyotlarda davlat xizmatining asosiy prinsiplaridan tashqari, tashkiliy-funksional prinsiplari ham ko'rsatib o'tilgan. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. ***Yuqori davlat organi (mansabdor shaxs) tomonidan chiqarilgan qarorlarning quyi turuvchi organlar (davlat xizmatchilari) uchun majburiyligi prinsipi***.

Bu prinsip orqali davlat xizmatidagi quyidagi asosiy holatlar belgilab beriladi: *birinchidan*, yuqori davlat organi yoki rahbar tomonidan chiqarilgan qarorlar quyi turuvchi organlar va davlat xizmatchilari tomonidan bajarilishi majburiydir; *ikkinchidan*, chiqariladigan qarorlar qonuniy bo'lishi, ya'ni uni chiqarish vakolatiga ega bo'lган davlat organi (mansabdor shaxs) tomonidan vakolat doirasida amalga oshirilishi lozim; *uchinchidan*, bu qarorlar qonun talablariga zid kelmasligi lozim.

Bu prinsip orqali davlat organlarining normal faoliyat yuritishi ta'minlanadi;

### *2. Davlat xizmatida o'matiladigan asosiy talablarning yagonaligi prinsipi.*

Mazkur prinsipga binoan davlat xizmati va davlat xizmatchilariga o'matiladigan barcha talablar, ya'ni davlat xizmatini tashkil etish, davlat xizmatiga kirish, xizmatchilarga nisbatan malakaviy, mansab majburiyatlarini bajarishga qo'yiladigan talablar, davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish, xizmatchilarga nisbatan intizomiy javobgarlikni qo'llash, malakasini oshirish va boshqa talablar qonunchilikda bir xil belgilanadi.

### *3. Davlat xizmatini amalga oshirishda oshkoraliq prinsipi.*

Davlat xizmatini amalga oshirishda oshkoraliq prinsipi yordamida davlat organlari va davlat xizmatchilarining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni olish ta'minlanadi. Har qanday davlat xizmati **oshkoraliq prinsipi asosida tashkil etilishi** va amalga oshirilishi lozim. Oshkoraliq prinsipi orqali bir tomondan, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishi, ikkinchi tomondan esa, davlat oldida turgan vazifalarni hal etishda fuqarolarning fikrini e'tiborga olish ta'minlanadi.

Davlat xizmatida oshkoraliqni ta'minlash uchun quyidagilar zarur: *birinchidan*, fuqarolar fikrini inobatga olish mexanizmini tashkil etish; *ikkinchidan*, davlat organlari, davlat xizmatchilari faoliyatiga nisbatan fuqarolar bildirgan fikrlar muhofazasining huquqiy sharoitini yaratish; *uchinchidan*, axborot vositalari orqali davlat organlari va davlat xizmatchilarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida oshkoraliqni ta'minlash.

4. Qabul qilinadigan qarorlar, o'z vazifasini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun davlat xizmatchilarining javobgarligi prinsipi.

Mazkur prinsip davlat xizmatchilarining mansab majburiyatlarini vijdonan va to'g'ri bajarishlarini ta'minlaydi.

Davlat xizmatchilari tomonidan qabul qilinadigan har qanday qaror qonuniy, maqsadga muvofiq va boshqaruv aktlariga qo'yiladigan talablarga mos bo'lishi lozim.

Davlat xizmatchisining o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yoxud mansab vakolatlaridan chetga chiqishi, unga nisbatan javobgarlik choralarini qo'llashga olib keladi.

#### *5. Davlat xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilish prinsipi.*

Amaldagi qonunchilikda davlat xizmatchilari uchun quyidagi ijtimoiy himoya vositalari o'rnatilgan: haq to'lanadigan mehnat ta'tili; davlat hisobidan tibbiy xizmatdan foydalanish; davlat xizmatchilari o'z vazifalarini bajarayotganda ularning va oila a'zolarining sha'ni, qadr-qimmati hamda boshqa huquq va manfaatlarini noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilish; transport va boshqa aloqa vositalari bilan ta'minlash va boshqalar.

### **2-§. Davlat xizmatchisi tushunchasi, xususiyatlari va turlari**

*Davlat xizmatchilari* — huquqning individual subyektlaridan iborat bo'lган ijtimoiy guruh bo'lib, ma'lum bir haq evaziga davlat organlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshiradilar.

Tuziladigan har bir tashkilot normal faoliyat ko'rsatishi uchun maxsus tayyorlangan xizmatchilardan iborat ma'lum personaliga ega bo'lishi lozim. Tashkilot turiga qarab huquq obyektlarining quyidagi, ya'ni davlat (davlat organlari), mahalliy organlar, jamoat birlashmalari, nodavlat, tijorat, notijorat, diniy, xususiy, xalqaro tashkilotlarning xizmatchilarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Davlat va mahalliy organlarning xizmatchilari davlat va mahalliy organlar oldida turgan vazifa va funksiyalarini amalga oshiradilar.

Davlat xizmatchisi, keng ma'noda, davlat vazifa va funksiyalarini nafaqat davlat organlarida, balki davlatning boshqa tashkilot, muassasa va korxonalarida amalga oshiradigan huquqning individual subyektidir.

*Davlat xizmatchisi* - bu davlat organlari vakolatlarini bajarishni ta'minlash bo'yicha muayyan kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxsdir. Davlat xizmatchisi va davlat (davlat organi) o'rtasida davlat-xizmat munosabatlari vujudga kelib, ular o'zaro huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Davlat xizmatchisi, tor ma'noda davlat xizmatida davlat lavozimini egallagan, ya'ni davlat ma'muriyatining tuzilmalari tizimida ma'lum bir mansabni egallaydigan, pul mukofoti evaziga mazkur davlat organining funksiyalarini amalga oshiradigan shaxsdir.

Davlat xizmatchilarining aksariyati ijro-farmoyish berish (tashkillashtirish) vakolatlarini va ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirish bilan shug'ullanadilar. Faqatgina ayrim davlat xizmatchilari maxsus davlat lavozimlarini egallaydilar, masalan, odil sudlov va prokuror nazoratini (ya'ni, huquqni muhofaza qilish faoliyatini) amalga oshiradilar.

Ko'pgina yuridik adabiyotlarda davlat xizmatchisiga quyidagicha ta'rif beriladi:

*Davlat xizmatchisi* — bu davlat ma'muriyati apparatida bevosita yoki bilvosita ma'lum bir haq evaziga domiy yoki vaqtincha xizmat majburiyatlarini amalga oshiruvchi shaxsdir<sup>1</sup>. Bunda «xizmatchi tomonidan xizmat majburiyatlarining bajarilishi» asosiy tushuncha sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat xizmatchisi tushunchasini uch ma'noda ko'rib chiqish mumkin:

*birinchidan*, davlat-huquqiy nuqtai nazaridan davlat xizmatchisi — bu davlatning (davlat organlarining) xususiyati va

<sup>1</sup> Qarang. Стариев Ю.Н. Служебное право. — М., БЕК, 1996; Алексин А.П., Кармалицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. — М., 1998; Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Стариев Ю.Н. Административное право. — М., 2004; Козлов Ю.М. Административное право. — М., 2003; Габричидзе Б.Н., Черняевский А.Г., Ким-Кимэн А.Н. Административное право. — М., 2004.

ahamiyati bo'yicha turli vakolatlarga ega bo'lgan «xizmatkori» hisoblanadi. Davlat xizmatchilari davlat ma'muriyatining ichidagi turli ijtimoiy munosabatlarda yoki tashqi aloqalarda davlat nomidan harakat qiladilar. Davlat xizmatchisi – davlat va jamiyat taraqqiyotining mahsuli bo'lib, davlat funksiyalarini amalga oshiradi;

*ikkinchidan*, ma'muriy-huquqiy nuqtai nazardan davlat xizmatchisi - maxsus hokimiyat, tashkil etuvchi-farmoyish beruvchi vakolatlarga ega. Davlat xizmatchisi yurisdiksiyaviy (huquqni muhofaza qiluvchi) choralar va vakolatlarni amalga oshirish hamda ma'muriy-huquqiy sanksiyalarini qo'llash huquqiga ega bo'lgan hokimiyat vakilidir;

*uchinchidan*, jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan davlat xizmatchisi - jinoiy javobgarlikning maxsus subyekti hisoblanadi (davlat xizmatchisi - mansabdor shaxslar - mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlikka tortiladilar).

Har bir davlat xizmatchisi egallab turgan lavozimidan kelib chiquvchi ma'lum bir vazifani bajarishi kerak. Davlat lavozimi - bu davlat xizmatchisining ish (xizmat) joyi hisoblanadi. Har bir davlat lavozimi davlat xizmatining asosiy elementlaridan biri bo'lgan shtat birligiga kiritiladi. Shtat jadvali davlat organi (tashkiloti)da tashkil etilgan lavozimlardan iborat. Davlat tashkilotlarida lavozimlar davlat hokimiyati subyektlari tomonidan farmoyish berish tartibida tashkil etiladi.

Xizmatchi ma'lum bir lavozimni uzoq vaqt davomida (masalan, butun faoliyati davomida) egallashi mumkin. Davlat xizmatchisi davlat organida faoliyat yuritishi jarayonida lavozim bo'yicha harakatlanishi mumkin. Davlat xizmatida malaka darajalari joriy etilgan. Malaka darajalari davlat xizmatchisining bir lavozimdan ikkinchi lavozimga o'tishini (masalan, yuqoriga yoki pastga qarab harakatlanishini) belgilab beradi. Malaka dörájası butun kasbiy faoliyat jarayonida davlat xizmatchisini davlat bilan bog'lab turadi hamda davlat va jamiyatdagi munosabatlarning muvozanatini ta'minlaydi. G'arbiy Yevropa davlatlarining ko'pchiligidagi, agar davlat lavozimi bekor qilinadigan bo'lsa, lavozimni egallagan shaxs ishdan bo'shatilishi mumkin emas, chunki u olgan malaka darajasi

boshqa davlat lavozimini egallash huquqini beradi. Malaka darajasi davlat xizmatchisi uchun himoya hisoblanadi. Aynan mana shu jihatlari bilan malaka darajasi davlat lavozimidan ajralib turadi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchisi tushunchasini quyidagicha belgilash mumkin:

*Birinchidan*, davlat xizmatchisi — 18 yoshga to'lgan, davlat tilini bilgan, muayyan bilimga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi. Davlat xizmatchisi davlat-xizmat munosabatlarining bir tomonini tashkil etadi. Davlat organi hamda xizmatchi o'rtaida mehnat shartnomasi tuzilib, unga ko'ra xizmatchi davlat organining vakolatlarini, davlat funksiyalarini bajaradi; davlat qurilishining ma'lum bir maqsadlariga erishish uchun maxsus vazifalarni hal etadi. Davlat (davlat organi) esa, o'z navbatida, xizmatchining huquq va manfaatlarini o'rnatadi va ta'minlaydi, ijtimoiy-huquqiy kafolatlar, javobgarlik, pul mablag'i bilan ta'minlash kabi majburiyatlarga ega bo'ladi. Davlat xizmatchisi ma'muriyatning vakili, davlat mexanizmining bir qismi hisoblanadi. Davlat xizmatchilarining barcha harakatlari davlat nomidan va uning ko'rsatmasi asosida amalga oshiriladi, davlat esa davlat xizmatchisi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi va tegishli hollarda ularga nisbatan majburlov choralarini qo'llaydi. Davlat xizmatchisi faqatgina davlat organida davlat lavozimini egallashi mumkin.

*Ikkinchidan*, davlat xizmatchisining faoliyati davlat xizmatini tartibda soluvchi qonunchilik hujjatlari talablariga mos kelishi kerak.

*Uchinchidan*, davlat xizmatchisi qonunda o'rnatilgan tartibda davlat xizmatining pul bilan ta'minlanadigan davlat lavozimini egallaydi. Qonunchilikda davlat xizmatchisi faoliyatining mazmuni, uning huquqiy holati, faoliyatining maqsadi, vazifasi va asosiy yo'naliishi, huquqlar, majburiyatlar, javobgarlik, cheklovlari, kafolatlar belgilab beriladi. Davlat lavozimlarini faqatgina davlat xizmatchilari egallashlari mumkin.

*To'ttinchidan*, davlat xizmatchisiga qonunchilikda belgilangan tartibda malaka darajalari beriladi.

<sup>1</sup> *Qarang: Xожиев Э.Т. Давлат хизмати. Ўқув кўлланма. – Т., 2004. – 48-49-6.*

*Beshinchidan*, davlat xizmatchisi davlat funksiyalarini, davlat organlarining vakolatlarini bajaradilar, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'muriy-siyosiy sohalarda (davlatning moliyaviy faoliyati, madaniyatni rivojlantirish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, bojxona, bank ishi, soliqqa tortish, huquqbazarliklarga qarshi kurashish, ichki ishlari, tashqi siyosiy faoliyat va hokazolarda) davlat vazifalarini amalga oshiradilar.

*Oltinchidan*, davlat xizmatchisi aksariyat hollarda yuridik oqibatlarni keltirib chiqaruvchi harakatlarni amalga oshiradi (masalan, boshqaruv qarorlarini qabul qiladi, jazoga tortadi). Bunday harakatlar yuridik fakt sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Davlat xizmatchisining bunday harakatlari davlat va jamiyat hayotida turli ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltirishi, o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin.

*Yettingchidan*, davlat xizmatchilarining faoliyati, odatda ishlab chiqarish xususiyatiga ega emas. Lekin ularning faoliyati umuman ishlab chiqarish bilan bog'liq emas, degan xulosani bermaydi. Chunki, davlat xizmatchilari ishlab chiqarish jarayonini yo'naltirish, boshqarish, loyihamini tayyorlash va boshqa funksiyalar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Davlat xizmatchilari o'z faoliylari orqali kishilar ongiga, iqtisodiy hayotga, ishlab chiqarishning texnologik jarayoniga, mehnat jamoalarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatadi.

Barcha davlat xizmatchilarini turli asoslarga ko'ra guruhlarga bo'lish, ya'ni tasniflash mumkin. O'zbekiston Konstitutsiyasidan kelib chiqqan holda, ya'ni *hokimiyatning uchga bo'linishini* e'tiborga olib, barcha davlat xizmatchilarini uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

*Birinchidan*, qonunchilik hokimiysi organlarining xizmatchilari. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasida qonunchilik hokimiysi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

*Ikkinchidan*, ijro etuvchi hokimiyat organlarining xizmatchilari. Davlat va uning apparatining ish faoliyati ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari tashkiliy-boshqaruv va ijroiya farmoyish berish faoliyatini amalga oshiradi.

*Uchinchidan*, sud hokimiyati organlarining xizmatchilari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi, Qora-qalpog‘iston Respublikasining Oliy sudi va xo‘jalik sudidan, viloyat suldlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va xo‘jalik suldaridan iborat.

Davlat xizmatchilarining tasnifi yuridik adabiyotlarda turlicha berilgan. Jumladan, huquqshunos olim D.M.Ovsyankoning fikricha davlat xizmatchilarini quyidagilarga bo‘lish mumkin:

1) *davlat hokimiyati organlarining faoliyat doirasiga qarab davlat xizmatchilari*: respublika miqyosida harakat qiluvchi xizmatchilar; mahalliy miqyosda harakat qiluvchi xizmatchilar;

2) *davlat xizmatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilari*: fuqarolardan iborat davlat xizmatchilar; kuch tuzilmalariga asoslangan davlat xizmatchilar (masalan, harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari xizmatchilar);

3) *hokimiyatlarning bo‘linishi prinsipidan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilari*; qonunchilik hokimiyati organlarining xizmatchilar; ijro etuvchi hokimiyat organlarining xizmatchilar; sud hokimiyati organlarining xizmatchilar;

4) *mansab vakolatlarining hajmiga ko‘ra davlat xizmatchilari*: mansabdor shaxslar; mansabdor shaxslar tarkibiga kirmaydigan boshqa xizmatchilar;

5) *xizmat muddatining davomiyligiga ko‘ra davlat xizmatchilari*: ma’lum muddatga tayinlanadigan (saylanadigan) xizmatchilar;

belgilanmagan muddatga tayinlangan xizmatchilar; sinov muddati bilan tayinlangan xizmatchilar va boshqalarga bo'linadi<sup>1</sup>.

X.R.Alimov davlat xizmatchilarining quyidagi to'rtta guruhini ko'rsatib o'tadi:

**Birinchisi — rahbarlar.** Rahbarlar mazkur davlat organining, korxona, muassasa va tashkilotning funksiyalarini amalga oshirib, unga bo'ysundirilgan davlat xizmatchilari apparatining ish faoliyatini boshqaradi; ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish, intizomiy javobgarlikka tortish, pul mablag'lari hamda tovar-moddiy boyliklarga egalik qilish, rag'batlantirish, mazkur organ nomidan imzo chekish va boshqa yuridik ahamiyatga molik harakatlarni sodir etish huquqiga ega bo'ladi.

Demak, rahbarlar davlat-hokimiyat vakolatlarini amalga oshirib, o'zлari rahbarlik qilayotgan organ faoliyati uchun shaxsan javobgar hisoblanadilar.

Rahbarlar o'zlariga bo'ysungan organlar, korxona, muassasa va tashkilotlarning operativ (ya'ni kundalik) va xo'jalik faoliyatiga aralashish, ularning ishini yo'naltirish, nazorat qilish, majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega. Rahbarlar tarkibiga vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, boshliqlar, boshqaruvchilar, direktorlar, rektorlar va boshqalarni kiritish mumkin.

Mazkur toifadagi davlat xizmatchilari yuridik adabiyotlarda ko'pincha mansabdor shaxslar sifatida ifoda etiladi. Lekin davlat xizmatchilarining aksariyati davlat tashkilotida ma'lum bir davlat lavozimini egallagani sababli, ularni mansabdor shaxslar jumlasiga kiritish mumkin. Shu sababli har qanday davlat xizmatchisini (mansabdor shaxsni) rahbarlar tarkibiga kiritish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 15-moddasining 2-qismiga binoan mulk shaklidan qat' nazar, korxona, muassasa, tashkilotda muayyan mansabni egallab turgan shaxs, basharti unga rahbarlik, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat vazifalari yoki moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq bo'lgan vazifalar yuklatilgan bo'lsa, mansabdor shaxs deb hisoblanadi.

<sup>1</sup> Qarang: Административное право. — М., 2000. — С 211-216.

Ko‘rinib turibdiki, mansabdar shaxs bo‘lib, rahbarlar ham, nazorat funksiyasini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan boshqa xizmatchilar ham (masalan, ichki ishlar organlarining xodimlari, sanitariya nazorati organlarining xodimlari va hokazolar) hisoblanadi.

*Ikkinchisi — asosiy tarkib* — davlat xizmatchilari tasnifining asosiy va muhim guruhi bo‘lib, mazkur organga yuklatilgan funksiyalarning deyarli barchasini bajaradi. Asosiy tarkibga kiruvchi davlat xizmatchilari rahbarlar tomonidan amalga oshiriladigan yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni sodir etmaydilar (masalan, ishga olish, ishdan bo‘shatish, faoliyatni yo‘naltirish va hokazolar). Bu guruh davlat xizmatchilariga - muhandislar, iqtisodchilar, agronomlar, me’morlar, shifokorlar, o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va boshqalarни kiritish mumkin. Ta’kidlash joizki, ayrim hollarda rahbarlar tomonidan yuridik harakatlarning amalga oshirilishi mutaxassislarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, rahbar xodimni mehnatdan vaqtincha bo‘shatish to‘g‘risidagi buyruqni, shifokorning ma’lumotnomasisiz chiqarishi mumkin emas. Davlat xizmatchilari asosiy tarkibining harakatlari, pirovardida davlat organi, korxona, muassasa va tashkilot faoliyatining sifatini ham belgilab beradi. Asosiy tarkibning ishiga qarab davlat organining faoliyatiga baho beriladi. Shu sababli ham, davlat organida xizmatchilarning asosiy tarkibini shakllantirishda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish masalasiga katta e’tibor beriladi;

*Uchinchisi — yordamchi xizmatchilar.* Davlat xizmatchilarining mazkur guruhini davlat organining normal faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan yordamchi funksiyalarni amalga oshiruvchi xizmatchilar tashkil etadi.

Yordamchi xizmatchilar davlat organining normal faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratib beradi. Yordamchi xizmatchilar tarkibiga - ish yurituvchilar, kuryerlar, kompyuter operatorlari, laborantlar, ekspeditorlar va boshqalarни kiritish mumkin.

Yordamchi xizmatchilarning faoliyat doirasiga: xizmat hujjatlari, statistik ma’lumotlarni tayyorlash; hujjatlarni yuborish va boshqa yordamchi-texnik harakatlarni amalga oshirish kiradi.

Yordamchi xizmatchilarning faoliyati yuridik ahamiyatga ega emas. Masalan, qo‘lda yozilgan xizmat hujjatining operator

tomonidan kompyuterda terilishi, tegishli rahbar tomonidan imzo qo'yilmaguncha yoki muhrlanmaguncha yuridik ahamiyatga ega bo'lmaydi.

*To 'rtinchisi — ma'muriy hokimiyat vakillari* - davlat xizmatchilarining alohida guruhi hisoblanadi. Ma'muriy hokimiyat vakillari - davlat xizmatchilarining shunday guruhiki, ular o'z vakolatlari doirasida boshqa shaxslarga, xizmat bo'ysunuvidan qat'i nazar, bajarilishi majbur bo'lgan ko'rsatmalar berishi mumkin. Hokimiyat vakillariga sudyalar, prokurorlar, deputatlar, Qurolli Kuchlar, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati organlarining boshliqlar tarkibiga kiruvchilar va boshqalarni kiritish mumkin.

Hokimiyat vakillari umumiylashtirishga ega vakolatlarni amalga oshiradilar, masalan, xizmat yuzasidan ularga bo'ysunmagan shaxslarga majburiy farmoyishlar berish, ma'muriy ta'sir choralarini qo'llash va hokazolar. Ma'muriy hokimiyat vakillari davlat-hokimiyat vakolatiga ega bo'lib, muayyan davlat organi nomidan va uning ko'rsatmasiga binoan harakat qiladilar.

Demak, davlat xizmatchilarini qonunchilik hujjalari bilan o'rnatilgan holatlardan kelib chiqqan holda turli asoslarga ko'ra bir necha guruhlarga bo'lish, ya'ni tasniflash mumkin.

### **3-§. Davlat xizmatchisining huquqiy maqomi**

Davlat xizmatchilari uchun davlat xizmatiga kirish, uni o'tash hamda davlat xizmati bekor bo'lishining maxsus shartlari o'rnatilgan. Davlat xizmatchilari o'zlariga berilgan vakolatlar va funksiyalarni davlat ma'muriyati ichida ham, tashqi huquq subyektlariga (fuqarolarga, boshqa tashkilotlarga) nisbatan ham amalga oshiradilar.

Fuqaro davlat xizmatiga kirishi bilan quyidagi to'rt elementdan iborat bo'lgan «organizm»ga birlashadi:

*birinchidan*, egallanadigan davlat lavozimi;

*ikkinchidan*, aniq malaka darajasining mayjudligi;

*uchinchidan*, davlat xizmatchilarining belgilangan shtat birligiga kirishi;

*to 'rtinchidan*, mansab majburiyatlari bilan belgilanadigan davlat xizmatchisining maxsus o'rni, ya'ni rahbar, mansabdar shaxs, hokimiyat vakili va boshqalar<sup>1</sup>.

Davlat xizmati va davlat xizmatchisi bilan bog'liq barcha holatlar huquqiy jihatdan tartibga solingan bo'lishi kerak.

Davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi - bu davlat-xizmat munosabatlарining mazmuni (mohiyati)dir. Xizmatchilarning huquqiy maqomi ularning huquqlari, majburiyatları, javobgarligini o'matish orqali belgilanadi. Davlat-xizmat munosabatlari o'zgarishi bilan davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi ham o'zgaradi, masalan, ishdan bo'shatish, fuqarolikni yo'qotish, pensiyaga chiqish va hokazolar.

*Davlat xizmatchilarining maqomi* — tabaqalashgan kompleks tizim bo'lib, vertikal va gorizontal tuzilishga ega.

Har bir davlat xizmatchisi normativ-huquqiy aktlar bilan belgilangan hamda davlat xizmati huquqiy institutining asosiy elementi hisoblangan huquqiy holatga egadir. Davlat xizmatining boshqa elementlari esa davlat xizmati va xizmatchilariga xizmat qilish maqsadida o'rnatiladi, ya'ni ular davlat xizmatchilari huquqiy maqomini aniqlashtiradi va ularning to'liq amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

*Davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi* qonun bilan o'rnatilgan va davlat tomonidan kafolatlangan huquq, erkinlik, majburiyat, cheklovlari, javobgarliklarning yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining normativ hujjalari, davlat organlarining nizom va ustavlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjalarn bilan belgilanadi. Masalan, Vazirlar Mahkamasida faoliyat ko'rsatuvchi xizmatchilarning huquqlari, majburiyatları, javobgarligi va boshqalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining ish tartibi va boshqa normativ hujjalarn bilan tartibga solinadi.

<sup>1</sup> Старилов Ю.Н. Служебное право. — М., 1996. — С. 318.

Davlat xizmatchilari huquqiy maqomining mazmuni davlat xizmatchilarining kategoriyasiga, davlat xizmati olib boriladigan sharoitlarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Davlat xizmatchisi maqomiga ega bo'lish masalasi juda muhimdir. Amaldagi qonunchilik hujjalardan kelib chiqqanda, fuqaroning davlat xizmatchisi maqomiga ega bo'lishi uning davlat organi bilan mehnat shartnomasi tuzishi va ma'lum bir davlat lavozimiga uni qabul qilish to'g'risida qaror chiqishi vaqtidan vujudga keladi.

Davlat xizmatchisi maqomiga ega bo'lish bilan fuqaro va davlat organi o'rtaida davlat-xizmat munosabatlari vujudga keladi.

Davlat xizmatchisi davlat-xizmat munosabatlari tugashi bilan o'z maqomini yo'qotadi. Davlat-xizmat munosabatlari: ishdan bo'shatish, pensiyaga chiqish va boshqa holatlarda bekor bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda normativ aktlarda davlat xizmati bekor bo'lishining aniq muddatlari ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Davlat xizmatchilari huquqiy maqomining asosiy elementlaridan biri - *davlat xizmatchisining huquqlari* bo'lib, davlat xizmatining oshkorligini, samarali faoliyatini asoslab beradi.

Davlat xizmatchisi – O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida o'matilgan konstitutsiyaviy huquqlarga ega. Lekin davlat-xizmat faoliyati nuqtai nazaridan, davlat xizmatchisi huquqiy maqomining asosiy elementini xizmat huquqlari tashkil etadi. Xizmat huquqlari amalga oshirilishi bilan davlat xizmatining ish faoliyati ta'minlanadi. Xizmat huquqlari mansab majburiyatlarini bajarish bilan bevosita bog'liqdir, ba'zi hollarda xizmat huquqlari qonunchilik aktlari orgali o'matilgan mansab majburiyatlarini bajarish maqsadida amalga oshiriladi.

Amaldagi qonunga asoslanib davlat xizmatchilarining huquqlarini uch guruhga bo'lish mumkin:

*Xizmatchilarning huquqiy maqomi va huquqiy kafolatini ifoda etuvchi huquqlar.* Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

— davlat xizmatchisi egallaydigan davlat lavozimi bo'yicha huquq va majburiyatlarni belgilovchi hujjalarni bilan, masalan, ish sifatini belgilovchi omillar, davlat xizmati bo'yicha harakatlanish, mansab majburiyatlarni bajarish uchun zarur tashkiliy- texnik sharoitlar bilan tanishib chiqish;

— shaxsiy hujjatidagi barcha ma'lumotlar bilan tanishib chiqish;

— uning talabiga ko‘ra xizmat tekshiruvilarini, masalan, xizmat-chining sha’ni, qadr-qimmatiga yetkazilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni rad etish maqsadida o‘tkazish;

— davlat xizmatchisining davlat xizmati bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarni hal etish maqsadida tegishli davlat organlariga yoki sudga murojaat qilish huquqi va boshqalar.

*Xizmat majburiyatlarini bevosita bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqlar.* Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

— belgilangan tartibda, mansab majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborot va materiallarni olish;

— belgilangan tartibda, mansab majburiyatlarini bajarish uchun korxona, muassasa va tashkilotlarda bo‘lish;

— mansab majburiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qarorlar qabul qilish va tayyorlashda ishtirok etish;

— tegishli budget mablag‘lari hisobidan malakasini oshirish, qayta tayyorlanish;

— davlat xizmatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish.

*Davlat xizmatchisining lavozim bo‘yicha faolligini yuksaltirish, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirish va ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlashga qaratilgan huquqlari:*

— vakant (vaqtincha bo‘sh) lavozimni egallash bo‘yicha tanlovda o‘z xohishiga ko‘ra ishtirok etish;

— ish faoliyatining natijalari va ish staji, malakasining darajasiga ko‘ra lavozim bo‘yicha yuqoriga qarab harakatlanish, mablag‘ bilan ta‘minlanishini oshirish;

— davlat xizmatidagi ish stajiga qarab pensiya ta‘minoti olish;

— o‘zining huquqlarini, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida kasaba iuyushmalariga birlashish;

— mansab okladidan kelib chiqqan holda pul bilan ta‘minlanish, malaka darajasidan kelib chiqqan holda esa qo‘sishma mablag‘lar olish, ish faoliyatining natijalariga ko‘ra mukofotlar olish;

— har yili haq to‘lanadigan mehnat ta‘tiliga chiqish (mehnat ta‘tilining muddati davlat tashkilotining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi);

— davlat xizmati stajiga davlat xizmatchisining boshqa davrdagi mehnat faoliyatining qo‘shilishini talab etish (masalan bu holat xizmatchining pensiyaga chiqishiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin);

— davlat xizmatchisi va uning oila a'zolarining tibbiy xizmatdan foydalanishi;

— davlat lavozimlarini bajarish bilan bog'liq holda sog'liqqa yoki mulkka yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar bo'yicha majburiy davlat sug'urtasi;

— davlat xizmatini o'tash vaqtida sog'lig'i yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi sababli, davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug'urtalanish va boshqa huquqlarga egadir.

Davlat xizmatchisiga davlat xizmatini o'tash xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qonunchilikda belgilangan tartibda, xizmat uylari, xizmat avtotransporti berilishi mumkin.

**Davlat xizmatchilarining majburiyatları** ular xizmat faoliyatining mohiyatini tavsiflaydi, chunki davlat (davlat organi) fuqaroni unga ma'lum bir mansab majburiyatlarini yuklash maqsadida ishga qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchilarining majburiyatları turli qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi. Majburiyatlarining mazmuni va turlari davlat tashkilotining o'z oldiga qo'ygan maqsadi, vazifasi va funksiyalariga qarab belgilanadi.

Amaldagi qonunchilikni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatchilariga *umumiyl bo'lgan majburiyatlar* - konstitutsiyaviy tuzumni qo'llab-quvvatlash va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga, shuningdek, ularning vakolatlarini tartibga soluvchi boshqa normativ hujjatlarga riosa etilishini ta'minlashdan iborat.

Davlat xizmatchilarini egallab turgan lavozimlaridan kelib chiqqan holda belgilangan huquq va majburiyatlarni bajarishga majburdir.

Davlat xizmatchilarini majburiyatlarining asosiy xususiyati shundaki, ular nafaqat davlat xizmati sha'niga dog' tushiruvchi yoki davlat organiga zarar yetkazuvchi harakatlardan, balki davlat xizmatchilariga nisbatan «davlat va jamiyat manfaatlariga zid harakatlarni sodir etmoqda», degan fikrlarning paydo bo'lishidan saqlanishi lozim.

Davlat xizmatchisi xizmat majburiyatlaridan sha'niga dog' tushirish, davlat organlari yoki mansabdar shaxslarning faoliyatini qoralashda foydalanishi mumkin emas.

Davlat xizmatchilarining asosiy majburiyatlaridan biri — bu mansab majburiyatlarini vijdanan bajarishidir. Qonunchilik va boshqa normativ hujjatlarda davlat xizmatchilarining funksiyalari va vakolatlari aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular xizmatchilar tomonidan to'g'ri va aniq bajarilishi lozim. Mansab majburiyatlarini bajar-maganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik - nojo'ya harakat, huquqbuzarlik, ba'zi hollarda esa jinoyat hisoblanishi mumkin.

Davlat xizmatchilarining o'z vakolatlarini amalga oshirish majburiyati davlat organida o'matilgan xizmat tartibiga rioxay qilish bilan bevosita bog'liqidir.

Davlat xizmatchilarining mansab majburiyatlari avvalo fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlарини та'minlash va ularni muhofaza etishdan kelib chiqadi.

Shu bois fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat xizmatchilari uchun muhim kategoriyalardir. Davlat xizmatchilari tomonidan mazkur majburiyatning bajarilishi ijtimoiy munosabat-larning muvozanatini, qonuniylik tartibiga rioxay qilinishini ta'minlaydi, umumiy huquq tartibotni kafolatlaydi. Fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilingan taqdirda davlatning asosiy vazifalaridan biri bajarilgan hisoblanadi.

*Davlat xizmatchilari yuqori turuvchi davlat organining* (davlat xizmatchisining) farmoyishlari, buyruqlari va boshqa ko'rsatmalari ijro etishga majburdirlar. Davlat xizmati bo'y sunishga asoslangan iyerarxiya prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi va davlat xizmatchilari o'zlaridan yuqori turuvchi rahbarlarning vakolat doirasida berilgan buyruqlari, farmoyishlari, ko'rsatmalari va boshqa qonuniy qarorlarini ijro etishni shaxsiy javobgarlik asosida amalga oshiradilar. Shuning uchun ham ijro etish uchun olingan farmoyish davlat xizmatchisi tomonidan qonuniylik va davlat manfaatlariiga mos kelish nuqtai nazaridan baholanishi lozim.

Davlat xizmatchilari mansab majburiyatlarini bajarib borish maqsadida o'z malaka darajasini saqlashi va oshirib borishi shart. U xizmat funksiyalari va mansab majburiyatlarini sifatli bajarishga tayyor bo'lishi, ishchanlik xususiyatlariga ko'ra egallanadigan davlat lavozimi talablariga mos kelishi kerak.

Nazariy va amaliy ta'lif olish barcha davlat xizmatchilarining xizmat majburiyati hisoblanadi va odatda kasbiy tayyorgarlik

mahorati malaka darajasini berish, maxsus unvon olishda talab qilinadi.

Davlat xizmatchilari o‘zlarining xizmat faoliyatlarini olib borish jarayonida bir davlat organi doirasida ahamiyatiga ko‘ra turlicha funksiyalarni amalga oshiradilar. Davlat xizmatchisi lavozimi bo‘yicha yuqori ko‘tarilganida, uning yanada murakkabroq majburiyatlarni bajarishiga to‘g‘ri keladi. Boshqa tomonidan, kasblarning evolutsiyasi sodir bo‘lishi, masalan, ba’zilari tugashi, boshqasi paydo bo‘lishi yoki uning mazmuni o‘zgarishi mumkin.

Davlat xizmatchisi *xizmat etikasi normalariga rioya qilishi* lozim.

U *davlat siri hamda qonunchilik hujjatlari bilan himoya qilindigan boshqa sirlarni saqlash* majburiyatiga ega. Ayniqsa, davlat xizmatchisi mansab vakolatlarini ijro etish vaqtida o‘ziga ma’lum bo‘lgan tegishli ma’lumotlarni sir saqlashi shart. Ma’lumki, Asosiy qonunimiz - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasiga binoan har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga egadir. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart. Shu munosabat bilan, davlat xizmatchilari vakolat doirasiga kiradigan turli murojaatlarni (fuqarolarning, korxona, muassasa va tashkilotlarning ariza, shikoyat va takliflarini) o‘z vaqtida ko‘rib chiqishga majbur. Jumladan O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrda qabul qilingan «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonunning 12-moddasiga binoan fuqarolarning murojaatlari albatta qabul qilinishi va ko‘rib chiqilishi kerak\_.

*Davlat xizmatchilari o‘zlarining mansab majburiyatlарини va funksiyalarini amalga oshirishda:*

1) davlat xizmatining maqsadlariga va vazifalariga qat’iy *rioya qilish*;

2) qonunlarga, davlat manfaatlariiga, mansab ko‘rsatmalariga asoslanib faoliyat ko‘rsatish, vakolat doirasiga kiruvchi davlat organlari va yuqori turuvchi mansabdor shaxslarning qarorlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

3) o‘z faoliyatini doimo takomillashtirish va kasbiy malakasini oshirib borish;

- 4) davlat va xizmat sirlarini saqlash;
- 5) fuqarolarning qadr-qimmatini va shaxsini hurmat qilish, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish va himoya qilish;
- 6) ma'muriy hokimiyat sohasida qonuniylikni ta'minlash;
- 7) xizmat etikasiga rioya qilish;
- 8) boshqaruv madaniyati darajasini oshirib borish, boshqaruv ishiga yangi zamонави uslub va shakllarni tatbiq qilish;
- 9) qonun bilan o'rnatilgan ish kuni vaqtida xizmatda bo'lish;
- 10) qonunchilik hujjatlariga tayangan holda murojaatlarni (ariza, shikoyat va takliflarni) o'z vaqtida va xolis ko'rib chiqish;
- 11) davlat xizmatchilarining maqomi va tegishli davlat mansabi bilan o'rnatilgan boshqa majburiyatlarini bajarishlari lozim\_.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasiga binoan davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi. Mazkur konstitutsiyaviy normadan kelib chiqqan holda, davlat xizmatini amalga oshiruvchi fuqarolarning ham qonunchilik hujjatlari bilan o'rnatilgan huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan ta'milanadi.

Shuningdek Konstitutsiyaga binoan har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi(44-m.).

Davlat xizmatchilar o'zlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilishda qonunchilikda o'rnatilgan barcha vositalardan foydalanadilar.

Ular uchun o'rnatilgan kafolatlar O'zbekiston Konstitutsiyasidan tashqari, amaldagi qonunchilik hujjatlarda ham o'z ifodasini topgan va ularning bajaradigan xizmat majburiyatlarini bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Davlat xizmatchilar uchun kafolat - davlat xizmatchilar maqomining qonun orqali o'rnatilgan ijtimoiy-huquqiy tomonini tavsiflovchi asosiy holatlardir.

Amaldagi qonunchilikni tahlil qilish orqali **davlat xizmatchilariga o'rnatilgan quyidagi kafolatlarni** ko'rsatib o'tish mumkin:

*birinchidan*, mansab majburiyatlarining bajarilishini ta'minlovchi ish sharoitlarining joriy etilishi;

*ikkinchidan*, qonunlar va boshqa normativ hujjalarda nazarda tutilgan pul ta'minoti va boshqa xil to'lovlar (masalan, ijtimoiy, kompensatsiya to'lovleri va hokazo);

*uchinchidan*, pul bilan ta'minlanadigan har yilgi mehnat ta'tili;

*to'rtinchidan*, davlat xizmatchisi va uning oila a'zolarining tibbiy xizmatdan foydalanishi;

*beshinchidan*, qayta tayyorlash va malaka oshirish (pul ta'minoti saqlangan holda);

*oltinchidan*, majburiy ijtimoiy davlat sug'urtasi va hokazo.

#### **4-§. Davlat xizmatchilarini rag'batlantirish va javobgarlikka tortish asoslari**

Davlat xizmati sohasida davlat xizmatchilarini rag'batlantirish va javobgarlikka tortish alohida ahamiyatga ega.

Davlat xizmati huquqiy institutini ko'rib chiqish vaqtida, rag'batlantirish masalasiga to'xtalib o'tmaslik mumkin emas, chunki aksariyat davlat xizmati to'g'risidagi normalarni o'z ichiga olgan qonunchilik hujjalarda aynan shu atamadan foydalaniladi.

**Rag'batlantirish** — davlat organining mansabdor shaxs yoki boshqa subyektning xizmatchi ehtiyojlariga, manfaatlariga, irodasiga, amaliy maqomiga, shuningdek, uning davlat-xizmat faoliyatiga ta'sir ko'rsatishidir.

Rag'batlantirish — intizomning, mehnat sifatining yaxshilanshiga ko'maklashadi, xizmatchilarni tashabbuskorlik va javobgarlik ruhida tarbiyalaydi.

Rag'batlantirish hamma vaqt ma'lum bir huquqiy asosga tayanadi. U — o'z vaqtida, obyektiv va ahamiyatli bo'lishi kerak. Rag'batlantirishning qo'llanilishi boshqaruv ishining yuqori natijalariga erishish vositasiga aylanishi lozim. Bu ma'noda rag'batlantirish muvozanatga keltirishning turi (shakli) sifatida namoyon bo'ladi.

Rag'batlantirish individual yoki jamoa (kollektiv) tarzida, mazmuniga ko'ra esa — moddiy, ma'naviy yoki aralash bo'lishi mumkin.

Davlat xizmatchilariga nisbatan rag'batlantirish choralarini qo'llash bunday chorani qo'llash huquqiga ega bo'lgan organ yoki rahbar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ular qonunchilikda belgilangan tartibda va vakolat doirasida rag'batlantirish choralarini qo'llashlari mumkin.

Amaldagi qonunchilikda davlat xizmatchilarining ma'naviy va moddiy shakldagi turli rag'batlantirish choralarini nazarda tutilgan.

*Rag'batlantirish uchun davlat xizmatchisining:*

- o'z oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi;
- vazifa va ko'rsatmalarni muddatidan oldin bajarishi;
- tashabbuskorligi;
- vazifalarni vijdonan bajarishi va intizomliligi *asos bo'lib xizmat qiladi*.

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabr qonuni bilan tasdiqlangan Mehnat kodeksining 180-moddasiga binoan ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan rag'batlantirish choralarini qo'llanilishi mumkin. Rag'batlantirish turlari, ularni qo'llash tartibi, afzallik va imtiyozlar berish jamoa shartnomalari, ichki mehnat tartibi qoidalari va boshqa mahalliy hujjatlarda, jamoa kelishuvlarida, intizom to'g'risidagi ustav va nizomlarda belgilab qo'yildi. Xodimlar mehnat sohasida davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga binoan ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar** rag'batlantirish turlariga kirmaydi.

Amaldagi qonunchilikda davlat xizmatchilarini nafaqat rag'batlantirish, balki yuridik javobgarlikka: intizomiy, ma'muriy, moddiy va jinoiy javobgarlikka tortish ham nazarda tutilgan.

Davlat xizmatchilarining yuridik javobgarligi deganda ularning qonunga xilof qilmishiga nisbatan qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan u yoki bu turdagisi jazo choralarini qo'llash tushuniladi.

Yuridik adabiyotlardan kelib chiqqan holda, qonunga xilof qilmishni, ikkiga: ya'ni huquqbuzarlik va jinoyatga bo'lish mumkin.

Davlat xizmatchilarining yuridik javobgarligi ularning qonun talablarini bajarmasligi, mansab majburiyatlariga befarq qarashi,

davlatga, jamoat birlashmalariga moddiy zarar yetkazishi, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzishi oqibatida vujudga kelishi mumkin.

Davlat xizmatchilari javobgarligining asoslaridan biri - fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga olib keladigan harakat yoki harakatsizlikdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlardan ustidan sudga shikoyat qilish to'g'-risida»gi 1995-yil 30-avgust qonunining 1-moddasiga binoan har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki mansabdar shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Davlat xizmatchilarining javobgarligi ularning qonuniylik yoki xizmat intizomini buzgan taqdirda, mansab majburiyatlari bajarilmaganida yoki lozim darajada bajarilmaganida vujudga kelishi mumkin.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Davlat xizmati deganda nima tushuniladi?
2. Davlat xizmatining o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
3. Davlat xizmati prinsiplarini sanab bering.
4. Davlat xizmatining maqsadi nimalardan iborat?
5. Davlat xizmatining asosiy vazifalarini nimalar tashkil etadi?
6. Davlat xizmatchilari deganda kimlar tushuniladi?
7. Davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi qanday?
8. Davlat xizmatchilarining huquqlari nimalarda o'z ifodasini topgan?
9. Davlat xizmatchilarining majburiyatlari nimalardan iborat?
10. Davlat xizmatchilariga o'rnatilgan kafolatlar qanday huquq manbalaridan joy olgan?
11. Davlat xizmatchilarini tasniflab bering.
12. Davlat xizmatchilarini rag'batlantirish turlari haqida so'zlab bering.
13. Davlat xizmatchilarining yuridik javobgarligi haqida tushuntirib bering.

## NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI

### 1-§. Nodavlat notijorat tashkilotlari — ma'muriy huquq subyekti sifatida

Nodavlat notijorat tashkiloti (jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixтиориylк asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari o'zining faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi 1999-yil 14-aprel qonuni, boshqa qonunlar va qonun osti normativ-huquqiy hujjalari asosida olib boradilar. Siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar hamda boshqa ayrim nodavlat notijorat tashkilotlarini tuzish, ularning faoliyatini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjalarda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko'mak ko'rsatishi mumkin.

Davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek

nodavlat notijorat tashkilotining davlat organlari hamda ular mansabdon shaxslarining faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Nodavlat notijorat tashkiloti qonunchilik hujjatlariga muvofiq xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlariga kirishi, ular bilan to'g'-ridan to'g'ri xalqaro aloqalar o'rnatishi, hamkorlik to'g'risida tegishli bitimlar tuzishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti yuridik shaxs bo'ladi va u, agar uning ta'sis hujjatlarida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, faoliyat muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

Qonunchilik hujjatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarga quyidagi huquqlar berilgan:

- o'z a'zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;

- ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirot etish;

- o'z faoliyati to'g'risida axborot tarqatish;

- ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

- ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;

- o'z ramziy belgilarini ta'sis etish;

- o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig'ilishlar, konferensiylar o'tkazish;

- qonunchilik hujjatlariga muvofiq vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish hamda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

Shu bilan birga, qonunchilik hujjatlarida nodavlat notijorat tashkilotlariga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

- qonunchilik hujjatlariga rioya etish;

- o'z mol-mulki va pul mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta'minlash;

- nodavlat notijorat tashkilotini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga o'zi o'tkazayotgan tadbirlarga erkin kirish imkonini berish;

- soliq va statistika organlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobotlar taqdim etish va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

Nodavlat notijorat tashkilotining vakolatxonasi u turgan yerdan tashqarida joylashgan alohida bo'linma bo'lib, mazkur tashkilotning manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi. Nodavlat notijorat tashkilotining filiali u turgan yerdan tashqarida joylashgan alohida bo'linma bo'lib, uning barcha vazifalari yoki vazifalarining bir qismini, shu jumladan vakolatxona vazifalarini amalgga oshiradi.

Nodavlat notijorat tashkilotining vakolatxonalarini va filiallari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi mumkin.ip

Qonunlarga muvofiq nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tuzilgan deb hisoblanadi.

Mustaqillik yillari O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator ishlar amalgga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va Senati Kengashining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2008-yil 10-iyul Qo'shma qarorida mustaqil nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish hamda ularning mamlakatda demokratik o'zgarishlarni amalgga oshirish jamiyatni erkinlashtirishda faol ishtirok etishiga ko'maklashish, ularni moliyalashtirish manbalarini shakllantirish uchun mustaqil tizim va obyektiv sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu Qo'shma qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzurida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va Fond mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi tuzildi hamda ularning asosiy vazifalari belgilab berildi.

## **2-§. Nodavlat notijorat tashkilotlarining turlari va huquqiy maqomi**

Nodavlat notijorat tashkilotlari jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond, muassasa shaklida, shuningdek qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shaklda tashkil etilishi mumkin:

**Jamoat birlashmasi** (o'z huquqlari, erkinliklarini xamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya

va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birlashtirishda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilmadir.

Jamoat birlashmalari maqsadi, tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra jamoat tashkilotlari, jamoat fondlari, jamoat harakatlari, jamoat o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lishi mumkin.

**Ijtimoiy fond** ( jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar asosida ta'sis etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoligi bo'lmasagan tashkilot deb e'tirof etiladi.

Ijtimoiy fondga uning muassislari tomonidan berilgan mol-mulk fondning mulki bo'ladi. Muassislardan o'zlarini tuzgan fond majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar, fond esa o'z muassislarning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

Ijtimoiy fond mol-mulkdan o'z ustavida belgilangan maqsadlar uchun foydalanadi hamda har yili bu to'g'rida hisobotlar e'lon qiladi.

**Muassasa** ( ijtimoiy, madaniy va boshqa notijorat tusdagiga vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi.

O'z ustaviga va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjalari muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida hamda bitta yoki undan ko'proq chet el davlati hududida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan xalqaro tashkilot xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti deb hisoblanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlarining faoliyatini muvofiq-lashtirib borish, shuningdek umumiyligi manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) shaklida birlashmalar tuzishi mumkin. Mazkur uyushmalar kamida ikkita nodavlat notijorat tashkiloti tashabbusi bilan tuzilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarining huquqiy holati Konstitutsiya va boshqa qonunlarda, Prezident farmonlarida, Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan maxsus ustav va nizomlarda qayd etiladi.

Konstitutsianing 56-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalar, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatları, xotinqizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, om-maviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmaları jamoat birlashmaları sifatida e'tirof etiladi.

Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarini, maxfiy jamiyat va uyushmalarni hamda harbiylashtirilgan yoki jamoat birlashmalarini tuzish taqiqlanadi.

Davlat jamoat birlashmalarining huquqi va qonuniy manfaatlari kafolatlaydi, ijtimoiy hayotda ishtirot etish uchun ularga huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamoat birlashmalarining faoliyatiga aralashishlari mumkin emas, shuningdek, jamoat birlashmalari ham davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishlari mumkin emas.

Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydi va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirot etadi. Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan bo'lib, ular qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi, lekin 1992-yil martda Prezident farmoni asosida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mita zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan: respublika hududida davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning bahamjihat harakati va hamkorligini o'matish; viloyat shahar va tuman hokimlari bilan o'zaro hamkorlikda diniy masalalarni hal qilish bo'yicha yagona siyosat yurgizish; qonunda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan diniy tashkilotlarning manfaatlarini davlat siyosatida ifoda etish.

Jamoat birlashmalarining ma'muriy huquqqa ega bo'lish qobiliyati, ma'muriy-huquqiy munosabatlarda qatnashish qoidalari, ularning davlat boshqaruvidagi umumiyligi huquq va burchlaridan kelib chiqadi. Bu huquq va burchlarini ularning o'zlarini belgilamaydi, balki davlat organlari ishlab chiqadi.

Jamoat birlashmalarining davlat boshqaruvida qatnashish shakllari asosan quyidagilardan iborat:

- 1) davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikda qaror qabul qilish;
- 2) davlat organlariga yuklangan vazifalarni bajarishda qatnashish;
- 3) davlat boshqaruuv organlarining faoliyatini yaxshilash to'g'-risida takliflar kiritish;

4) davlat boshqaruv organlarining faoliyati ustidan nazorat o'rnatish va fuqarolarning huquqiy normalarni qanday bajarayotganini tekshirish;

5) o'z tarkibida bo'lgan korxonalarining faoliyatini boshqarish.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliylari kafolatlari to'g'risida»gi\_ 1992-yil 2-iyul qonuniga ko'ra kasaba uyushmalariga davlat boshqaruvi sohasida quyidagi huquqlar berilgan:

1) o'z a'zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqi hamda manfaatlarini himoya qilish;

2) mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqishda qatnashish;

3) mehnatga va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid normativ hujjatlar qabul qilish to'g'risidagi takliflarni tegishli davlat boshqaruvi, xo'jalik va kooperativ idoralariga taqdim etish;

4) aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqishda qatnashish;

5) ma'muriyat, mulkdor yoki ular vakil qilgan boshqaruv idorasi bilan muzokaralar olib borishda va jamoa shartnomalari, bitimlari tuzishda faol qatnashishi, ularning bajarilishini nazorat qilishi;

6) ularning mehnat sharoiti va mehnatga haq to'lash, mehnatni muhofaza qilish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlashga oid, uy-joy sharoitiga, ijtimoiy sug'urtaga, sog'liqni saqlash va madaniyatga taalluqli manfaatlarini himoya qilish.

Ular ma'muriyatdan mehnat hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq masalalar yuzasidan belgilab qo'yilgan statistika hisoboti doirasida bepul ma'lumotlar olishga haqlidirlar.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi, 1991-yil 21-noyabr qonunining 19-moddasiga asosan, Respublika yoshlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq hamda erkinliklarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish, shuningdek, ularning faoliyati va tashabbuskorligini rivojlantirishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri deb bilgan fuqarolarning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan, ko'ngilli uyushmasi— O'zbekiston Respublikasi yoshlarining jamoat birlashmasi tashkil etilgan.

Yoshlar jamoat birlashmasining Ustavida a'zo bo'lувchining yoki qatnashchisining yoshi chegaralab qo'yilgan (30 yoshgacha)

**bo'lishi kerak.** yoshlar jamoat birlashmasiga 30 yoshga to'lganlar Jami sonining 10 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Yoshlarning jamoat birlashmalari yoshlarga oid siyosatni amalgal oshirish bo'yicha davlatning kompleks va aniq maqsadli dasturini ishlab chiqishda qatnashadilar.

Jamoat komissiyalari eng tajribali va xolis tadbirkorlar, fermeler va savdo-sanoat doiralarining boshqa vakillaridan tuzilgan; komissiyalarning raislari va a'zolari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Nazorat inspeksiysi hamda uning respublika hududidagi bo'linma, tizimi rahbarlari va xodimlari uchun berilgan barcha vakolatlar va huquqlarga ega. Respublika komissiyasining raisi ayni vaqtida Nazorat inspeksiysi raisining jamoatchilik asosidagi o'rinnbosaridir va Prezidentning farmoni bilan lavozimga tayinlanadi. Viloyat, shahar va tuman komissiyalarining raislari ham Respublika Nazorat inspeksiysi hududiy organlari rahbarining jamoatchilik asosidagi o'rinnbosarlaridir.

Komissiya faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1) iqtisodiy islohot masalalariga doir normativ hujatlarning bajarilishi bo'yicha idoralararo nazorat qilish organlari ishini muvofiqlashtirish;

2) korxonalar va xo'jaliklarning mustaqilligini kengaytirish, bozor tuzilmalari va tarkibiy qismlarini vujudga keltirish, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni shakllantirish, tashqi iqtisodiy tadbirkorlikni kuchaytirishga qaratilgan Prezident farmonlari va hukumat qaroriarini vazirliklar va idoralar, konsernlar, assotsiatsiyalar, korxonalar va xo'jaliklar, Koraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari qanday bajarayotganlarini tekshirishni yo'lga qo'yish;

3) joylarda ijro intizomi holatini o'rganish, bozor iqtisodiyotiga izchil o'tishni ta'minlashga qaratilgan normativ hujatlarning dastlabki loyihalalarini tayyorlashda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, turli iqtisodiy tuzilmalar bilan hamkorlik qilish;

4) respublikaning muayyan korxonalar, muassasa, tashkilot va xo'jaliklarida iqtisodiy islohotlar qanday amalgal oshirilayotganini tahlil qilish va bundan O'zbekiston hukumatini xabardor etish;

5) amaldagi normativ hujatlarning moliyaviy va xo'jalik mexanizmlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, respublikada

iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishni kuchaytirish va jadallash-tirishga qaratilgan boshqaruvgaga oid qabul qilinayotgan qaror va qonunchilik hujjatlarining huquqiy asosini yanada takomillashtirishga doir tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish.

Bugungi kunda ijtimoiy hayotni jamoat tashkilotlarining faoliyatasisiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, har bir tuman, shaharlar hududida faoliyat olib borayotgan Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, Jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus komissiyalar huquqi-tartibotni ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar mustaqillik yillari mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy mehnatga jalgan etish, tarbiyalash, ular o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olishga mutasaddi bo'lgan o'zini o'zi boshqarish organlari, o'quv muassasalari va boshqa idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida mahalliy hokimliklar huzurida tashkil etilgan.

**Voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiya** - bolalarning nazoratsiz, qarovsiz qolishlari, huquqbazarliklari va jamiyat uchun zararli xatti-harakatlarining oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan reabilitatsiya qilish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiruvchi yuqorida ta'kidlanganidek, mahalliy hokimliklar huzurida jamoatchilik asosida ish olib boruvchi tuzilmadir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000-yil 21-sentabrdagi «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida»gi 360-sonli qarorining qabul qilinishi esa mazkur komissiyalarning faoliyatini zamon talablari asosida tashkil etishga, takomillashtirishga xizmat qildi. Shuningdek, mazkur qaror asosida komissiyalar faoliyati izchil amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida ularning tarkibida mahalliy budget hisobidan alohida mas'ul kotib lavozimi joriy etildi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

— voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning nazoratsiz, qarovsiz qolishi hamda ular o'rtasida sodir etilayotgan huquqbazarlik va jinoyatlarning kelib

**chiqishi sabablari, shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini amalga oshirish;**

— davlat idoralari, o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlarining voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishi va ular huquqbazarliklarining oldini olish masalalari yuzasidan faoliyatini muvofiqlashtirish;

— Oliy va o'rtalik maxsus vazirligi, Xalq ta'limi vazirligining ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini va Ichki ishlar vazirligining muassasalarida voyaga yetmaganlarning saqlanishi, ularni o'qitish, tarbiyalash shart-sharoitlari ustidan nazoratni tashkil etish;

— voyaga yetmagan yoshlarning ongi, tafakkurini shakllantirish, yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida ma'naviyat va ma'rifat ishlarini jonlantirish;

— jazoni ijro etish joylaridan bo'shatilgan yoki maxsus o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytgan voyaga yetmaganlarni turar joy va ish bilan ta'minlashda yordam berish, shuningdek, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha qonunda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Sir emas, sobiq Ittifoq davrida jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar, hatto amnistiya orqali jazodan ozod etilgan bo'lsa ham, yashash joyiga qaytgach, jamiyatda «ijtimoiy pillapoya»ning eng quyi pog'onasidan joy olishardi<sup>1</sup>. Mustaqillikdan keyin Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan jazoni o'tash joylaridan qaytib kelgan shaxslarni ish va turar joy bilan ta'minlash, ularni hayotga qayta ko'niktirish ishlari yetarli tashkil qilinmaganligi tanqid ostiga olingach<sup>2</sup>, bu boradagi ishlar takomillashtirilib, huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi «Jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklar huzuridagi Maxsus komissiyalar, «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari

<sup>1</sup> Кристи Нильс. Борьба с преступностью как индустрия. Вперед, к Гулагу западного образца / Пер. с англ. — М., 2001. — С.74–75.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. – Т., 1997. – 273–274-б.

huzuridagi yarashtirish komissiyalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi 180-sonli Qarorining qabul qilinishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qarorning qabul qilinishi bilan jazoni o‘tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tuman va shahar hokimliklari huzurida Maxsus komissiyalarning faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

**Jazo o‘tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashtirishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus komissiya** — mahalliy davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda jamoat tuzilmalarining jazoni o‘tash joylaridan ozod qilingan shaxslarni ishga joylashtirishda va ularning ijtimoiy-maishiy ta‘minotida yordam ko‘rsatish jarayonida qatnashishini ta‘minlovchi mahalliy hokimliklar huzurida jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatuvchi tuzilmadir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari huzuridagi jazoni o‘tash joylaridan ozod qilingan va maxsus komendatura hisobidan chiqarilgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi markazlari jazoni o‘tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha Maxsus komissiyalarning ishchi organi hisoblanadi.

Maxsus komissiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, hokimliklar, jazoni o‘tash joylaridan ozod qilingan shaxslar uchun ijtimoiy moslashuv markazlari, huquqni muhofaza qilish organlari, mehnat birjalari, ijtimoiy ta‘minot, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakillari, kasaba uyushmalari, yoshlar va boshqa jamoat birlashmalari hamda mehnat jamoalari vakillaridan rais (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi o‘rinbosari, tegishli hokimliklar hokimi o‘rinbosari), rais o‘rinbosari, mas’ul kotib (Ichki ishlar vazirligining joylardagi jazoni o‘tash joylaridan ozod qilingan shaxslar bilan ishslash bo‘linmalarining boshlig‘i) va komissiya a‘zolaridan kamida olti kishidan iborat tarkibda tuziladi.

Maxsus komissiyalar tuman markazidan ancha olisda joylashgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzurida ham tuzilishi mumkin.

**Maxsus komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

— ishga joylashtirish, ijtimoiy ta'minot, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish va huquqni muhofaza qilish organlari, jazoni ijob etish muassasalari, jamoat birlashmalarining, jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarni, shuningdek ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'limgan jazoga hukm qilingan shaxslarni ishga joylashtirish va ularga ijtimoiy-maishiy jihatdan zarur yordam ko'rsatish bo'yicha korxonalar ma'muriyati bilan ularning o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish va ta'minlash;

— jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslar uchun ijtimoiy moslashuv markazlari ishini bevosita tashkil etish va ularning faoliyati ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish;

— ushbu shaxslarni ishga qabul qilishni rad etishning qonuniyligi va asosliligini tekshirish; ularning qonuniy huquq va manfaatlari kamsitilishining oldini olish; tegishli davlat organlari tomonidan ilgari sudlangan shaxslarning shikoyatlari, arizalari va xatlari o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini nazorat qilish;

— korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda axloq tuzatish ishlariiga hukm etilgan, shuningdek, jazoni o'tash joylaridan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilingan shaxslar bilan tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishi va olib borilishi ustidan nazorat o'matish.

**Ma'lumki, 2001-yil 25-aprelda O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda yoshlarning yangi ijtimoiy harakati tuzildi.**

Jamoat birlashmalarini bir qancha guruhlarga bo'lish mumkin:

1) ommaviy jamoat birlashmalari (siyosiy partiylar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmasi);

2) kooperativlar (iste'mol qiluvchi kooperatsiya, uy-joy shirkatlari uyushmalari);

3) Ixtiyoriy (ko'ngilli) jamoalar va ularning ittifoqlari (mahalla posabonlari, tibbiyot xodimlarining ilmiy jamoalari, sport jamoalari, Qizil yarim oy jamiyatini va boshqalar);

4) ijodiy ittifoqlar, birlashmalar (jurnalistlar, kinochilar, kompozitorlar, yozuvchilar, rassomlar va boshqalar);

5) xalq tomonidan tashkil qilingan jamoat birlashmalari (mahalla qo'mitalari, ota-onalar qo'mitalari, o'rtoqlik sudlari va hokazo).

Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab kuyish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi.

*Siyosiy partiyalarning huquqiy holati.* O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi 1996-yil 26-dekabr qonuni O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning huquqiy maqomini belgilab beradi.

Siyosiy partiyalar o'z faoliyatini Konstitutsiyaga, undan kelib chiquvchi qonunga, boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq, shuningdek, o'z ustavlari asosida amalga oshiradilar.

Siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoraliq asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Sudyalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilar, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar.

Siyosiy partiyalarning davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi. Xususiy ish beruvchilar o'z xodimlaridan ular mehnat vazifalarini bajarayotgan paytda partiya nimalar asosida siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishini talab qilishlari man etiladi.

Siyosiy partiyani tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi.

Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida ellik kishidan iborat bo'lishi, ular partiya ta'sis hujjatlarini tayyorlash, a'zolar tarkibini shakilantirish hamda ta'sis syezdi yoki konferensiyasini chaqirish bo'yicha tashkiliy qo'mitani tuzishlari lozim.

Tashkiliy qo'mita o'zi tuzilgan kundan boshlab yetti kunlik muddatdan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga o'z tashabbusi bilan qo'mitaning tarkibi, rahbari (yetakchisi), joylashgan manzili hamda ta'sis syezdi yoki konferensiyasi chaqiriladigan sanani yozma ravishda xabar qilishi lozim. Tashkiliy qo'mita tuzilgan kundan boshlab uzog'i bilan uch oy faoliyat ko'rsatish huquqiga egadir.

Siyosiy partiya ta'sis syezdi yoki konferensiyasida tuziladi va u yerda partiya ustavi va dasturi qabul qilinadi; shuningdek uning saylab qo'yiladigan organlari tuziladi.

Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olinadi. Partiyani ro'yxatdan o'tkazish uchun partiya rahbar organining kamida uch a'zosi imzolagan ariza, ustav, dastur, ta'sis syezdi yoki konferensiyasining bayoni, ro'yxatdan o'tish badali to'langanlikni tasdiqlovchi bank hujjati va qonunda ko'rsatilgan boshqa hujjatlar taqdim etiladi. Partiya ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran yuridik shaxs maqomini oladi va o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Agar siyosiy partyaning ustavi maqsad, vazifalari va faoliyat uslubi Konstitutsiyaga, respublika qonunlariga zid bo'lsa yoki oldinroq xuddi shunday nomdagi siyosiy partiya yoki jamoatchilik harakati ro'yxatga olingan bo'lsa, bu partiya ro'yxatga olinmaydi.

Siyosiy partiya Konstitutsiyani va respublika qonunchilik hujjatlarini yoki o'z ustavini, buzgan taqdirda Adliya vazirligi partiya rahbar organlariga qaysi normalar buzilganini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar qiladi va bunday buzishlarni bartaraf etish uchun muddat belgilaydi. Agar ular belgilangan muddat davomida bartaraf etilmasa, Adliya vazirligi yoki respublika Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan respublika Oliy sudi siyosiy partyaning faoliyatini olti oygacha muddatga to'xtatib turishi mumkin. Agar bir yil ichida o'sha xatti-harakatlar takror sodir etilsa, respublika Oliy sudining qarori bilan siyosiy partyaning faoliyati tugatiladi.

#### **Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:**

- o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib etish;
- saylab qo'yiladigan davlat organlarida o'z vakillari orqali tegishli qarorlar tayyorlashda ishtirok etish;
- qonunda belgilab qo'yilgan tartibda respublika Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish, partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiylar va boshqa tadbirlar o'tkazish;
- qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalidan foydalanish;

— respublikaning boshqa siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o'rnatisht.

Siyosiy partiyalar respublikaning boshqa qonunlarida nazarda tutilgan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Siyosiy partiyalar respublika Oliy Majlisida o'z fraksiyalarini tuzish huquqiga ega. Qonunchilik palatasining kamida to'qqiz nafar deputati fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish huquqiga ega. Fraksiyalar va deputatlar guruhlari ro'yxatdan o'tishi kerak.

Qonunchilik palatasining majlisida fraksiya va deputatlar guruhining rahbari yoki boshqa vakili tegishincha fraksiya yoki deputatlar guruhi tuzilgani haqida palataga axborot beradi, bu Qonunchilik palatasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Qonunchilik palatasi fraksiya va deputatlar guruhi tuzilgani to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bunday fraksiyalar: sessiya kun tartibini tuzishda ishtirok etish; sessiya kun tartibidagi har bir masala bo'yicha muzokaralarda qatnashish; O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish to'g'risidagi tashabbus bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilish; Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibidagi har bir masala bo'yicha muzokaralarda fraksiya vakiliga kafolatlangan so'z berilishi; tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeriga va O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, vazirlarga, shuningdek boshqa davlat organlarining rahbarlariga so'rov bilan murojaat etish; Qonunchilik palatasining Spiker o'rinnbosarligiga, qo'mitalari va komissiyalari raisligiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish; Qonunchilik palatasining majlisida muhokama qilinayotgan masala bo'yicha fraksiya fikrini deputatlar orasida tarqatish va qonun hujjalarda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

O'zbekiston ekologik harakati mamlakatimiz ekolog olimlari va shu sohada ish olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda faol jamoatchilikning tashabbusi bilan 2008-yil 2-avgustda tashkil etilgan bo'lib, 2008-yil 20-sentabr kuni jamoat birlashmasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ro'yxatidan o'tkazilgan.

O'zbekiston ekologik harakati — O'zbekiston fuqarolarining bugungi va kelajak avlodning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish, sog'liqni saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy

**boyliklardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish va ularga so'zsiz rioya etilishiga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda bevosita faol ishtirok etishga hamda bu borada jamiyatning barcha sa'y-harakatlarini safarbar etishga intiluvchi mamlakat fuqarolari va tashkilotlarni ixtiyoriylik asosida birlashtiruvchi ommaviy jamoat harakatidir.**

Ekoharakat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonunlari, boshqa qonunlari va qonun osti hujjatlari **hamda** o'zining ustaviga muvofiq ravishda amalga oshiradi.

Ekoharakatning faoliyati qonuniylik, o'zini o'zi boshqarishi va oshkorlik principlariga asoslanadi hamda Respublikaning barcha hududlarida amalga oshiriladi.

Ekoharakatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lib, ular:

— jamoatchilikning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va **ekologik** vaziyatni sog'lomlashtirish ishidagi faolligini oshirish;

— atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha qonunchilikni yanada takomillashtirish va rivojlantirishga ko'maklashish;

— atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va shu maqsadlarga yo'naltirilgan mablag'lardan oqilona foydalanish bo'yicha qonunlar **va boshqa davlat qarorlarining** so'zsiz ijro etilishi ustidan jamoatchilik **rasoratini** amalga oshirish;

— **aholining ekologik madaniyatini** yuksaltirish, ekologik ta'lim **va tarbya tizimini** rivojlantirish;

— atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro **hamkorlikni** rivojlantirish;

— harakatning jamoaviy ishtirokchilari bo'lgan nodavlat **notijorat tashkilotlari** faoliyatini muvofiqlashtirish;

— qonunda belgilangan tartibda davlat hokimiyati vakillik **organlariga** bo'ladigan saylovlarda qatnashish

#### Xususan Ekoharakat:

— fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqini himoya qilishga hamda tabiatdan foydalanish sohasida iqtisodiy mexanizmlarni joriy qilishga qaratilgan ekologik xavfsizlikni kompleks tarzda ta'minlash bo'yicha qonun hujjatlarini qabul qilish va ularni amalga oshirishga;

— mamlakatda ekologik huquqbuzarliklar va tabiatga boshqacha tarzda zarar yetkazganlik uchun korxona va tashkilotlarning, mansabdar shaxslar va alohida fuqarolarning javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga;

— ekologik huquqbuzarliklar va tabiatga zararli bo'lgan boshqa ta'sirlar oqibatlarini bartaraf etish, shu jumladan transchegaraviy ahamiyatga ega bo'lagan holatlarda ham, ular tomonidan atrof-muhitga va inson salomatligiga yetkazilgan zararni qoplashni huquqiy jihatdan tartibga solish hamda huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga intiladi.

*Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy holati.* O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonuniga asosan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z faoliyatida demokratizm, oshkoraliq, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam kabi asosiy prinsipga tayanadi.

Fuqarolar yig'ini o'zini o'zi boshqarish organi sifatida quyidagi vakolatlarga ega:

— ushbu organning faoliyati, dasturi, xarajatlar smetasini, aholi punktlarini obodonlashtirish va sanitariya holatini yaxshilashga doir tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;

— rais (oqsoqol) va uning maslahatchilari ishining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, har yili ularning hisobotlarini tinglaydi;

— o'z hududidagi ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish uchun aholining, mulkchilik barcha shakllaridagi korxona, tashkilot va muassasalarning mablag'larini ixtiyoriylik asosida birlashtirish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi;

— pul mablag'lari sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi, zarur bo'lganida, taftish komissiyasi tuzadi va ushbu komissiya to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi;

— qonunlarda belgilangan tartibda o'z hududidan kichik korxonalar, kooperativlar, ustaxonalar, xalq hunarmandchilik sexlarini tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi;

— yig'in ma'muriy-hududiy tuzilmalarning chegaralarini o'zgartirishga, ko'cha, maydon va boshqa joylarning nomini o'zgartirishga doir masalalarni ko'rib chiqadi hamda tegishli davlat organlariga takliflar tayyorlaydi.

Fuqarolar yig‘ini respublikaning qonunlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Yig‘in davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan kelishgan holda savdo, umumiy ovqatlanish hamda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarining aholi uchun kulay soatlarda ishlashini belgilaydi.

Fuqarolar yig‘ini respublika qonunlariga muvofiq yer munosabatlari sohasidagi masalalarni ham hal etadi.

Fuqarolar yig‘iniga rais (oqsoqol) boshchilik qiladi. Fuqarolar yig‘inining raisi:

respublika qonunlari, Prezidentning farmonlarini, respublika hukumati va mahalliy hokimiyat organlarining qarorlarini bajarishga doir ishlarni tashkil etadi;

fuqarolarning moddiy va uy-joy, maishiy sharoitlarini yaxshilash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi;

qonunlarda ko‘zda tutilgan hollarda davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, sud idoralarida, korxona, muassasa va tashkilotlar bilan bo‘ladigan munosabatlarda fuqarolar manfaatlarini himoya qila oladi;

— fuqarolarning hududni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishda, ommaviy-siyosiy tadbirlarda qatnashishini tashkil etadi; aholiga savdo va kommunal-maishiy xizmat ko‘rsatilishini yaxshilashga ko‘maklashadi, bu maqsadlarda tegishli hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlar taqdim etadigan moddiy va boshqa mablag‘lardan foydalanadi hamda do‘konlar, oshxonalar, choyxonalar, bozorlar ishi, savdo qoidalariga rioya etilishi, fuqarolarga madaniy xizmat ko‘rsatishning ta’milanishi ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etadi;

— aholi punktlari, suv ta’minti manbalari, uy-joylar, maktablar va boshqa muassasalarning sanitariya holati ustidan nazorat qilinishiga ko‘maklashadi;

— qabristonlar, qardoshlik qabrlari va boshqa mozorlarni saranjom-sarishta saqlash yuzasidan jamoatchilik ishlarini tashkil qiladi;

— aloqa organlariga mahalliy telefon va pochta aloqasini rivojlantirish, radiolashtirish borasida, mahalliy aloqa inshootlarini muhofaza qilishda yordam beradi;

— egasiz mol-mulkni, shuningdek, davlatga meros tarzida o‘tgan mol-mulkni saqlash va tasarruf etish choralarini ko‘radi;

- dehqon xo'jaliklarining oilaviy mulk taqsimotlarini ro'yxatga oladi, o'z hududi doirasida yashovchilarning hisobini olib boradi;
- o'z hududidagi yerlarning ishlatilishi va muhofaza etilishi ustidan nazorat qiladi, fuqarolar yig'ini muhokamasiga yer munosabatlarini tartibga solish masalalarini kiritadi;
- imorat qurish qoidalariga rioya etish, xonadonlarga tutash joylarning orasta bo'lishi, jonivorlarni saqlashga oid veterinariya qoidalarini bajarish ustidan jamoat nazoratini tashkil etadi;
- aholidan soliq, sug'urta va boshqa xil to'lovlarning o'z vaqtida tushishiga ko'maklashadi;
- aholi punktlarida yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazishni tashkil etadi, zarur bo'lganida esa tabiiy ofatlarga qarshi kurash va ularning oqibatini tugatishga fuqarolarni jalg' etadi;
- tegishli hududda jamoat tartibini ta'minlashda huquqni muhofaza qilish organlariga ko'maklashadi;
- harbiy xizmatga majbur shaxslar va chaqiriluvchilarni mahalliy mudofaa organlariga chaqirilayotganlardan xabardor qilishni tashkil qiladi, aholini fuqaro mudofaasiga doir tadbirlar o'tkazishga jalg' etadi;
- davlat va jamoat organlariga nogironlar, boquvchisidan mahrum bo'lgan oilalar, ko'p bolali oilalar, yolg'iz onalar, shuningdek, tabiiy ofatlardan jabr ko'rigan fuqarolarning moddiy va uy-joy, maishiy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida takliflar kiritadi;
- voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishining oldini olishga doir jamoatchilik ishlarini tashkil etadi, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tegishli davlat muassasalariga joylashtirishga, shuningdek, yoshlarni ishga joylashtirishga ko'maklashadi;
- aholi orasida ma'ruza va suhbatlar o'tkazishni tashkil etadi, fuqarolarga muntazam ravishda madaniy xizmat ko'rsatishga, kitob savdosini rivojlantirishga, gazeta va jurnallarning tarqatilishiga yordamlashadi, mehnatkashlar ommaviy ravishda dam oladigan hududlarni tashkil etish, sport inshootlari tarmog'ini rivojlantirishga ko'maklashadi;
- tegishli hududda bayram kunlari va shonli sanalar munosabati bilan ommaviy tadbirlar o'tkazishni tashkil qiladi;
- davlat organlariga fuqarolar yig'inining ko'cha va maydonlar, aholi punktlari tarkibiy qismining nomini o'zgartirish, uylarni raqamlab chiqish xususida takliflar kiritadi;

- fuqarolarni qabul qiladi, ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqadi, ular yuzasidan zarus choralar ko'radi;
- fuqarolarga ularning shaxsini, oilaviy va mulkiy ahvolini tasdiqllovchi ma'lumotnomalar hamda respublika qonunlarida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar beradi;
- fuqarolik holati aktlarini ro'yxatga oladi, ayrim notarial harakatlarni amalga oshiradi.

Respublika qonunlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zini o'zi boshqarish organlari o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qiladilar. Bu qarorlarni tegishli hududda yashaydigan barcha fuqarolar ado etishlari shart. O'zini o'zi boshqarish organlarning qonunlarga zid hujjatlarini xalq deputatlari tuman, shahar kengashlari yoki tegishli hokimlar bekor qiladilar.

O'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlari, shuningdek, rais (oqsoqol)ning xatti-harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini boshqarish organlari qoshida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-aprel qaroriga asosan tashkil etilgan «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari ham faoliyat ko'rsatadi.

«Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalarda fuqarolarning o'zaro hamjihatligini oshirish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat hokimiyati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga ko'maklashishga jalb etish hamda ular bilan hamkorlik qilish maqsadida tuziladi.

«Mahalla posboni» jamoat tuzilmasiga fuqarolar yig'ini kengashining qaroriga binoan ongli ravishda vatan, xalq manfaatlari yo'lida sadoqat bilan xizmat qilishga tayyor, jismoniy va ma'naviy sog'lom, pok, iymon-e'tiqodli, yuksak insoniy va axloqiy fazilarlarga ega bo'lgan, jinoyatchilikning oldini olish va jamoat tartibini saqlashda huquq-tartibot organlariga ko'ngilli ravishda yordam berish istagini bildirgan, tegishli mahallada istiqomat qiluvchi 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadilar.

«Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qarorlarining ijrosini ta'minlash maqsadida bevosita quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

- davlat hokimiyat organlari, hududda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa jamoat tuzilmalari, korxona, muassasa, tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;
  - mahallalarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish yuzasidan turli hasharlar va tadbirlarni amalga oshirish;
  - shaharcha, qishloq, ovul va mahalla miyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar, to'y va boshqa marosimlarda tartibni saqlash;
  - qariyalar, nogironlar, boquvchisini yo'qotgan oilalarga xo'jalik yuritishda yordam berish;
  - jinoyat va huquqbazarliklardan, yo'l transport, yong'in, tabiiy, texnogen va boshqa hodisalardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish;
  - jinoyat va jamiyatga zid boshqa g'ayriijtimoiy qilmishlarning oldini olish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;
  - hududda faoliyat olib borayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish.
- «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari, shuningdek hududiy ichki ishlar organlarining quyidagi yo'naliishlardagi faoliyatida bevosita ishtirok etib, yordam ko'rsatadilar:
- jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash;
  - mulkni qo'riqlash;
  - huquqbazarliklarning oldini olish;
  - sodir etilgan jinoyatlarni ochish;
  - yong'in va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash;
  - pasport tizimi, sanitariya, ekologiya qoidalariga riosa etilishini nazorat qilish;
  - bolalar qarovsizligi va nazoratsizligining oldini olish;
  - voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtlanini mazmunli tashkil etish;
  - aholining huquqiy madaniyatini oshirish.
- «Mahalla posboni» tuzilmasi a'zolari orasidan o'zining ishchanlik va boshqaruvchilik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi, o'z safdoshlariga har tomonlama o'rnatko'la oladigan shaxslar mahalla fuqarolar yig'ini kengashining qarori bilan rahbar etib tayinlanadi hamda unga mahalliy budjet hisobidan tegishli fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisining maoshiga teng miqdorda oylik ish haqi belgilanadi.

Bundan tashqari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzurida fuqarolarning oilada va mahallada tinch-osoyishta hamda hamjihatlikda yashashlarini ta'minlash, oilaviy kelishmov-

**chiliklarni tinch yo'l bilan hal etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib-tashviq qilish maqsadida tuziladigan yarashtirish komissiyalari ham faoliyat ko'rsatadi.**

**Yarashtirish komissiyasi** — sog'lom avlodni tarbiyalash, fuqarolaming oilada va mahallalarda tinch-osoyishta hamda hamjihatlikda yashashlarini ta'minlash, oilaviy kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etish, milliy qadriyatlar asosida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib-tashviq qilish bilan shug'ullanuvchi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi huzuridagi jamoat tuzilmasi hisoblanadi.

Yarashtirish komissiyalari tarkibiga xotin-qizlar qo'mitasi raisi, miliitsiya profilaktika inspektorlari, hududdagi maktab direktorlari yoki ularning tarbiyaviy ishlari bo'yicha o'rinosbosarlari, shuningdek mahallada ~~hujjat~~ qiluvchi namunali oilalarning boshliqlari, imom-xatiblar, fioriyalar va nuroniyalar kiritiladi. Yarashtirish komissiyalariga fuqarolar yig'ini oqsoqollari yoki ularning o'rinosbosarlari raislik qiladilar.

Yarashtirish komissiyalari qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- hududda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib-tashviq qilish;
- hududdagi namunali oilalar, ularda farzandlar tarbiyasi, er-xotinlar hamda farzandlar orasidagi munosabatlar bo'yicha ommalashtirishga arzulik masalalar to'g'risida mahalliy matbuotda maqolalar va televideniyeda turkum ko'rsatuvlar tashkil etish;
- to'y va boshqa tadbirlarni ortiqcha dabdabalarsiz o'tkazish choralarini ko'rish, ortiqcha sarf-xarajatlar oila turmushida salbiy iz ~~oldirishi~~, ~~o'llalaridagi ijtimoiy-~~ ruhiy muhitning buzilishiga olib kelishi ~~mumalakatligi~~ to'g'risida aholi orasida tushuntirish ishlari olib borish;
- mahallalar, ko'chalar va boshqa jamoat joylarida spirtli ichimliklar, giyohvandlik moddalari iste'mol qilish hollarining oldini olish, inson qadr-qimmatini tahqirlab ko'chalarda mast holda yuruvchi shaxslarga jamoatchilik ta'sirini o'tkazish maqsadida ularni oila a'zolari, ~~mahalla~~ faollari ishtirokida muhokama qilish choralarini ko'rish;
- spirtli ichimliklarga ashaddiy ruju qo'yan va giyohvandlik kasaliga ~~mubtalo~~ bo'lgan shaxslarni aniqlab, zarur xollarda ularni belgilangan tartibda majburiy davolanishga yuborish choralarini ko'rish;
- ichki ishlar organlari hisobida turgan, ayniqsa ilgari sudlangan, oilada va turmushda muntazam ravishda huquqbazarliklarga yo'l qo'yuvchi shaxslar bilan profilaktik ish olib borishda ishtirok etish;

— jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning ijtimoiy hayotga qayta moslashuvini ta'minlash;

— notinch, janjalkash oilalarni aniqlash, ular bilan tegishli chora-tadbirlar olib borish, oilaviy janjallar oqibatida yaqin qarindoshlar va qo'ni-qo'shnilar o'rtasida buzilgan munosabatlarni qayta tiklash choralarini ko'rish;

— hududdagi kam ta'minlangan oilalarni aniqlab, ularga o'z daromadlarini oshirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, qo'shimcha vaqtbay yoki ishbay, shuningdek uy sharoitida ishlash, hunar o'rganish, kasanachilik bilan shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratish;

— xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotda, oilada ma'naviy-axloqiy, shuningdek ruhiy muhitni shakllantirishdagi, yosh avlodni tarbiyalash ishidagi mavqeini oshirishga qaratilgan keng qamrovli ishlarni amalga oshirish;

— milliy qadriyatlarimizga zid holda axloq-odob doirasida nojo'ya xatti-harakatlarga yo'l qo'yayotgan shaxslarni, ayniqsa ayollarni aniqlash va ularga nisbatan tegishli chora-tadbirlar ko'rishda fuqarolar yig'inlariga faol ko'maklashish va boshqalar.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2004-yil 25-may farmoni\_ bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari negizida faoliyati yo'lga qo'yilgan diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi jamoat tuzilmalari ham jamiyatda ayollar va voyaga yetmaganlar jinoyatlarining oldini olish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishda o'z o'mniga egadir.

**Diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi** (xotin-qizlarni kasbiy, jismoniy, ma'naviy va intellektual jihatdan o'stirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, oilalar, mahallalar, mehnat jamoalari, ta'lim muassasalarida milliy-diniy an'analarni tushuntirish va ularga rioya qilish, xotin-qizlarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish, buzg'unchi kuchlarning xotin-qizlar ongiga ta'sir o'tkazishining, ularni diniy ekstremistik va terrorchilik faoliyatiga jalb etishining oldini olish bo'yicha ishlarni tashkil etuvchi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining mas'ul xodimi hisoblanadi.

Hududda kamida 500 ta oila yashaydigan mahallalarda, tarkibida mahallalar tashkil qilinmagan posyolka, qishloq va ovullarda faoliyati yo'nga qo'yilgan diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar quyidagi vazifalarni bajaradilar:

— xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin-qizlarning kasbiy, jismoniy, ma'naviy va intellektual jihatdan o'stirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat qurilishida faol qatnashishlari sohasidagi umummiliy siyosatni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq qilish;

— xotin-qizlarning sog'lig'ini saqlash, sog'lom oilani shakllantirish, ayollar va oila sportini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha chora-tadbirlar majmuuni ishlab chiqish va amalga oshirish;

— xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini hal etish, ayniqsa qishloq joylarida ularning mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash, ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga qaratilgan dasturlarni tayyorlash va amalga oshirish;

— joylarda (oila, mahallalar, mehnat jamoalari, ta'lim muassasalarida) milliy-diniy an'analarni tushuntirish va ularga rioya qilish, xotin-qizlarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish, buzg'unchi kuchlarning xotin-qizlar ongiga ta'sir o'tkazish, ularni diniy ekstremistik va terrorchilik oqimlari faoliyatiga jalb etish yo'lidagi urinishlariga qarshi qaratilgan ishlarni samarali tashkil qilish;

xotin-qizlarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan samarali hamkorlikni ta'minlash, tashkilotlarning sa'y-harakatlarini jamiyatni modernizatsiyalash demokratik yangilash jarayonlarida, O'zbekistonda jamiyat va davlat qurilishida xotin-qizlarning rollini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi ishlarga yo'naltirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi ayollarni ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish borasidagi yo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2004-yil 7-dekabr farmoni bilan ushbu lavozimlarda ishlovchi ayollarni ijtimoiy

muhofaza qilishni kuchaytirish, bu ishga boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan obro'li, eng malakali va faol xotin-qizlarni jaib qilish maqsadida ushbu lavozimlarda ishlovchi pensioner ayollarga yoshga oid pensiyalar to'liq miqdorda to'lanishi belgilandi.

2008-yilning mamlakatimizda «Yoshlar yili» deb e'lon qilinishi jamiyatda yoshlarning o'zlarini ko'rsatishiga yanada keng imkoniyatlar yaratib berdi. Natijada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari negizida yana bir jamoat tuzilmasi yoshlар bilan ishslash komissiyalari faoliyati yo'iga qo'yildi.

**Yoshlар bilan ishslash komissiyasi** — yoshlар orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib-tashviq qilish, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari, yoshlар qatlamlarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, shuningdek, milliy tarkibini hisobga olgan holda ular o'rtaida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy, ijtimoiy, ekologik ishlarni olib boruvchi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi huzuridagi yoshlар jamoat tuzilmasi hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjalarda belgilanganidek, yoshlар bilan ishslash komissiyalari quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- mahallalarda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ongini, ma'naviy-ma'rifiy bilim doirasini kengaytirish, ularni vatanparvarlik, inson-parvarlik, mehr-oqibat, el-yurt sha'nini ardoqlash kabi milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash;

- har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini, yoshlар qatlamlarining talab va ehtiyojlarini, milliy tarkibini hisobga olgan holda ular o'rtaida madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

- mahallalarda sportni ommalashtirish uchun zarur sharoit yaratishda bevosita ishtirok etish, bunyod etilgan sport inshootlari, bolalar sport maydonchalaridan samarali foydalanish, yoshlarni sog'lom turmush tarzi talablari asosida tarbiyalash maqsadida jismoniy tarbiya, sportning ommaviy va milliy turlari bo'yicha musobaqa va turnirlar o'tkazish;

- yoshlarning ijtimoiy bandligi masalalariga alohida e'tibor qaratib, band bo'lmanan yoshlар qatlamlarini ijobiy mehnat faoliyatiga jaib etish, Yoshlar ijtimoiy xizmatlari markazlarida o'qitib, kasb-hunarga o'rgatishda yaqindan yordam ko'rsatish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan bolalar, imkoniyati cheklangan nogiron yoshlarga qobiliyatlariga yarasha hunar o'rgatish, ish bilan ta'minlashda ko'maklashish;

— yoshlar o'rtasida diniy ekstremizm, aqidaparastlik ko'ri-nishlarining oldini olish va turli nosog'lom diniy oqimlar ta'siriga tushib qolgan yoshlar bilan yakka tartibda ishlash, individual suhbatlar o'tkazishda mahallada istiqomat qiluvchi ko'p yillik hayotiy tajribaga ega obro'-e'tiborli insonlar bilan hamkorlik qilish;

— yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash maqsadida mahalla o'smir yoshlari o'rtasida tanlovlari, musobaqalar, ona Vatanni himoya qilish muqaddas burch ekanligini yoshlar ongiga singdirish maqsadida targ'ibot ishlari olib borish, shuningdek hududlardagi harbiy qismlar rahbariyati bilan kelishgan holda yoshlar ekskursiyalarini tashkil etish;

— yoshlarning tibbiy madaniyati va bilimini oshirish, ularni kelajak hayotga tayyorlash maqsadida mutaxassislar va shifokorlar ishtirokida turli davra suhbatlari va tushuntirish ishlari olib borish;

— hududda sog'lom turmush tarzini targ'ib-tashviq qilish maqsadida yoshlarning ish, o'qish, yashash tarzi va boshqa yoshlar hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirdarda ishtirok etish, yoshlar orasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik, jinoyatchilik, ichkililikbozlik, OITS va giyohvandlik kabi illatlarning asosiy sabablarini o'rganish va ularning oldini olish bo'yicha takliflar berish;

— farzandlari tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi notinch oilalarda tarbiyalanayotgan yoshlarni o'rganish, ularning o'qishdan orqada qolmasliklariga yordam berish maqsadida mahalladagi faol yoshlarni biriktirib, jamoat ishlariiga jaib etish;

— nosog'lom muhit yuzaga kelgan yosh oilalarni aniqlab, zarur hollarda ularning oila a'zolari, mahalla faollari ishtirokida muhokama qilish va shu orqali keng jamoatchilik ta'sirini kuchaytirish;

— ichki ishlar organlari hisobida turgan, ilgari tartibbuzarlik sodir etgan, oilada va jamoada muntazam ravishda huquqbuzarliklarga yo'l qo'yuvchi yoshlar bilan profilaktik ish olib borishda ishtirok etish va bu **boroda** mahalla profilaktika noziri, «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi bilan hamkorlik qilish hamda zarur hollarda ularning xulq-atvori, turmush-tarzini o'z majlislarida muhokama qilish;

— **mahalladagi** kam ta'minlangan yosh oila farzandlariga hunar o'rgatish, ularni mahallada istiqomat qiladigan hunarmandlarga

«Ustoz-shogird» an'anasi bo'yicha shogirdlikka jalg etish, foydali hunar bilan shug'ullanishiga ko'maklashish;

— odob-axloqda milliy qadriyatlarimizga zid, nojo'ya xatti-harakatlarga yo'l qo'yayotgan yoshlarni aniqlash va ularga nisbatan tegishli chora-tadbirlar ko'rishda amaliy yordam ko'rsatish;

— «Oila-mahalla-maktab» konsepsiysi tamoyillarini hayotga joriy qilishda fuqarolar yig'iniga doimiy yordam ko'rsatib borish.

**Ma'muriy komissiyalar** — amaldagi qonunlarda berilgan vakolatlar doirasida ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni fuqarolar yig'ini tomonidan saylanadigan komissiyalar ko'rib chiqadi. Ushbu komissiyalar tuman markazidan olisda va borish qiyin bo'lgan yerdagi shaharcha, qishloq va ovullardagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qoshida tuziladi.

Ma'muriy komissiyalar giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan noqonuniy muornala qilish, ekinzorlarni payhon qilish, spirtili ichimliklarni sotish maqsadida xonaki usulda tayyorlash va sotish, o'qotar qurollardan foydalanish, ularni ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbazarliklarni aniqlash, ko'rib chiqish va huquqbazarlarga nisbatan ma'muriy jazo tayinlash, shuningdek ularni keltirib chiqaruvchi sabab-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish vazifalarini ham bajaradi.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Nodavlat tashkilotlar tushunchasi va huquqiy holatini yoritib bering.
2. Nodavlat tashkilotlarning turlarini sanab o'ting.
3. Nodavlat notijorat tashkilotlarni tuzish asoslari va tartibi, qanday?
4. Jamoat birlashmalari tushunchasi va turlarini ko'rsating.
5. Siyosiy partiyalar tushunchasi va turlari haqida so'zlab bering.
6. Kasaba uyushmalarining vazifalari nimalardan iborat?
7. Voyaga yetmaganlar ishlar bilan shug'ullanuvchi komissiyalar va qanday vazifalarni bajaradi?
8. «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalarini huquqiy holati qanday?
9. Yarashtirish komissiyalarining vazifalari qanday tashkil etilgan?
10. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari haqida so'zlab bering.

*VII bob*  
FUQAROLAR – MA’MURIY HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA

### 1-§. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ma’muriy-huquqiy maqomi

Ma’muriy huquqning asosiy subyektlaridan biri - bu fuqarolardir. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar - ma’muriy-huquqiy munosabatlarga kirishib, ma’lum bir subyektiv huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishlari mumkin.

Fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi (ma’muriy-huquqiy munosabatlardagi) huquqlari, erkinliklari, majburiyatlar, javobgarligining yig‘indisi — *fugarolarning ma’muriy-huquqiy holatini tashkil* etadi. Bu munosabatlar fuqarolarning ma’muriy huquqning boshqa subyektlari bilan, masalan, davlat hokimiyati organlari, davlat va nodavlat tashkilotlari, korxona, muassasa va jamoat birlashmalari hamda ularning mansabdon shaxslari bilan o‘zaro aloqasi natijasida vujudga keladi.

Fuqarolarning huquq va majburiyatları qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan asoslardan, qonunchilik hujjatlarining umumiy negizlari va mazmuniga ko‘ra ularning fuqarolik huquq hamda majburiyatlarini keltirib chiqaradigan harakatlaridan vujudga keladi. Jumladan, fuqarolik huquq va majburiyatları:

- a) qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan;
- b) qonunda huquq va majburiyatlar vujudga kelishining asosi sifatida nazarda tutilgan davlat organlari yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hujjatlaridan;
- c) qonunda yo‘l qo‘yilgan asoslар bo‘yicha mol-mulk olish natijasida;
- d) fan, adabiyot, san’at asarlarini yaratish, ixtiolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida;

g) boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida;

h) fuqarolarning boshqa harakatlari natijasida vujudga kelishi mumkin.

Fuqarolarning ma'muriy-huquqiy holati konstitutsiyaviy va ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solingan – *fuqaro huquqiy* holatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Fuqarolarning ma'muriy-huquqiy munosabatlardagi huquq va majburiyatlari ularning konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadi hamda ma'muriy-huquqiy aktlarda o'z ifodasini topadi.

Fuqarolar o'zlariga tegishli bo'lgan huquqlarini, shu jumladan ularni himoya qilish huquqini ham o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etadilar.

Fuqarolarning o'z huquqlarini amalga oshirishdan voz kechishi bu huquqlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Fuqarolar o'z huquqlarini amalga oshirishi bilan boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasliklari shart.

Fuqarolar o'z huquqlarini amalga oshirishda jamiyatning ma'naviy-axloqiy prinsiplari va normalarini hurmat qilishlari lozim.

Fuqarolarning boshqa shaxsga zarar yetkazishiga, boshqacha shakkarda huquqni suiiste'mol qilishiga, shuningdek, huquqni uning maqsadiga zid tarzda amalga oshirishga qaratilgan harakatlariga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning ma'muriy-huquqiy holatini amalga oshirishda ma'muriy huquq layoqati va ma'muriy muomala layoqatiga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega.

*Fuqarolarning ma'muriy huquq layoqati* inson tug'ilishi bilan vujudga keladi va tug'ilgandanoq qonunchilikda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishni anglatadi.

Huquq layoqati inson shaxsi bilan bevosita bog'liq bo'lib, uni cheklash yoki undan mahrum etish mumkin emas. Amaldagi qonunchilikka binoan ma'muriy huquq layoqati - qonunda belgilangan tartibda faqatgina sud tomonidan cheklanishi mumkin.

Fuqarolarning ma'muriy huquq layoqati uning *Vafot* etishi bilan bekor bo'lishi mumkin.

*Fuqarolarning ma'muriy muomala layoqati* ma'muriy huquq layoqatidan farq qilgan holda, ma'lum bir yoshdan vujudga keladi. **Fuqarolarning ma'muriy muomala layoqati** — bu fuqarolarning o'z xatti-harakatlari bilan davlat boshqaruvi sohasida huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlari va uni amalga oshirishlari tushuniladi.

Amaldagi qonunchilik hujjalariiga binoan fuqarolarning ma'muriy muomala layoqati *qisman 16 yoshdan* vujudga keladi. Masalan, 16 yoshga to'lgan fuqarolar pasport olishga majburdirlar yoki ma'muriy huquqbuzarliklarning subyekti 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxslar bo'lishi mumkin. Bu huquqbuzarliklar asosan davlat boshqaruvi jarayonida sodir etiladi.

Fuqarolar *18 yoshga to'lganda to'la* ma'muriy muomala layoqatiga ega bo'ladilar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'rsatib o'tilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirishlari mumkin. Masalan, Vatanni himoya qilish burchi yoki saylash huquqi 18 yoshdan vujudga keladi.

Ba'zi hollarda fuqarolarning ma'muriy muomala layoqati, ya'ni o'zlarining harakatlari bilan davlat boshqaruvi sohasidagi huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlari, masalan: 21 yoshdan (xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylanish huquqi); 25 yoshdan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylanish huquqi); 35 yoshdan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylanish huquqi) vujudga kelishi mumkin.

Fuqarolarning ma'muriy muomala layoqati sud organlari tomonidan cheklanishi mumkin. Masalan, fuqaro jinoyat sodir etib ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan bo'lsa, bunday shaxslar ularga tegishli bo'lgan ayrim huquq va majburiyatlarni (misol uchun saylash va saylanish huquqi, umumiy harbiy majburiyat) amalga oshira olmaydilar.

4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga binoan ruhiy ~~kesalligi~~ yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjalariida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga hayoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi. Fuqaroning muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab

bo‘lgan asoslar bekor bo‘lsa, sud uni muomalaga layoqatli deb topadi va unga belgilangan vasiylikni bekor qiladi.

Spiriti ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiiste’ mol qilish natijasida o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolga solib qo‘yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonun hujjalarda belgilangan tartibda cheklab qo‘yilishi mumkin. Unga homiylik belgilanadi. Bunday fuqaro mayda maishiy bitimlarni mustaqil tuzish huquqiga ega. U boshqa bitimlarni homiyning roziligi bilangina tuzishi, shuningdek, ish haqi, pensiya va boshqa daromadlar olishi hamda ularni tasarruf etishi mumkin. Biroq, bunday fuqaro o‘zi tuzgan bitimlar bo‘yicha va yetkazgan zarari uchun mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo‘ladi. Fuqaroning muomala layoqati cheklanishiga sabab bo‘lgan asoslar bekor bo‘lsa, sud uning muomala layoqatini cheklashni bekor qiladi. Fuqaroga belgilangan homiylik sud qarori asosida bekor qilinadi.

Vasiylik va homiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to‘liq layoqatli bo‘lмаган fuqarolarning huquq va manfaatlarni himoya qilish uchun belgilanadi.

Vasiylar va homiylar o‘z himoyalariдagi shaxslarning huquq va manfaatlarni har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan, sudlarda ham maxsus vakolatsiz himoya qiladilar.

Demak, fuqarolar o‘zlarining ma’muriy-huquqiy holatini, faqatgina ma’muriy huquq layoqati va ma’muriy muomala layoqati mavjud bo‘lganida, amalga oshirishlari mumkin.

Fuqarolar ma’muriy-huquqiy holatining tarkibiy qismini — fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi huquqlari va erkinliklari, majburiyatlar, javobgarligi tashkil etadi.

Chunki Konstitutsiyaga binoan O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsiy, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar(18-m.).

Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

*Fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi huquqlari va erkinliklari, birinchi galda, O‘zbekiston Respublikasining Konsti-*

**tutsiyasi bilan belgilangan bo'lib, bularga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- 1) yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson **hayotiga** suiqasd qilish eng og 'ir jinoyatdir;
- 2) har kim erkinlik va shaxsiy daxsizlik huquqiga ega;
- 3) hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki **qamoqda** saqlanishi mumkin emas;
- 4) jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi **aniqlanmaguncha** u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan **shaxsga** o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Hech kim qynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas;
- 5) har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, **shaxsiy** hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxsizligi **huquqiga** ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan **tashqari** birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni **ko'zdan** kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini **oshkor** qilishi mumkin emas;
- 6) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga **kelish** va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan **cheplashlar** bundan mustasnodir;
- 7) har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish **huquqiga** ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan **axborot** va qonun bilan belgilangan boshqa cheplashlar bundan **mustasnodir**;
- 8) hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson **xohlegan** dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik **huquqiga** ega;
- 9) O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat **ishlarini** boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish **huquqiga** egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi **boshqarish**, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi;

10) fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar;

11) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar;

12) har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega;

13) har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir;

14) har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qtganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega;

15) har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega;

16) har kim bilim olish huquqiga ega;

17) har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Fuqarolar ma’muriy-huquqiy holatining ikkinchi asosiy tarkibiy qismi — bu fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi burchlari va majburiyatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi *fuqarolari quyidagi burchlarni bajaradilar*:

1) fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar;

2) fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar;

3) fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar;

4) fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar;

5) O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish — O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda

**belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.**

Fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi huquqlari va majburiyatlari Konstitutsiyadan tashqari, amaldagi qonunchilik hujjatlarida ham belgilanadi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlaridan kelib chiqib fuqarolarning ma'muriy-huquqiy holati tarkibiga kiruvchi huquqlar va majburiyatlarni to'rtta guruhga birlashtirish mumkin:

*birinchi guruhni* fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillari orqali ishtirot etishi, davlat xizmatida bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan huquqlar va majburiyatlar tashkil etadi. Davlat ishlarini boshqarishda ishtirot etish keng qamrovli tushuncha bo'lib, mohiyatiga ko'ra, mamlakat hayotining barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Fuqarolarning huquq va majburiyatlarini **bu guruhining o'ziga xosligi shundaki, ularni amalga oshirish fuqarolarning faolligi, hohish-irodasini ifoda etishini talab etadi.**

Fuqarolarning *ikkinchi guruhni* tashkil etuvchi huquq va majburiyatlarini amalga oshirish nafaqat ularning faolligini, balki **davlat organlari** va mansabdor shaxslarning aralashuvini ham talab qiladi. Jumladan, davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning **yordami** yoki qo'llab-quvvatlashisiz fuqarolar mitinglar, namoyishlar o'tkazish, o'z manfaatlarini himoya qilish uchun **birlashish**, davlat organlariga yakka tartibda yoki jamoa bo'lib murojaat qilish, davlat organlari (mansabdor shaxslar)ning qonunga zid xatti-harakatlari (qarorlari) oqibatida yetkazilgan zararni qoplash huquqlarini amalga oshira olmaydilar.

Fuqarolarning *uchinchi guruhni* tashkil etuvchi huquq va majburiyatlarini amalga oshirish - davlat organlari va mansabdor shaxslardan bu huquqlarni himoya qilish, davlat tomonidan **kafolatlash**, ularni bajarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha funksional faoliyatni amalga oshirishni talab qiladi.

**Davlat boshqaruvi** sohasida fuqarolarning to'rtinchi guruh **huquq** va majburiyatları - davlat organlari faoliyatida fuqarolar **ishtiroti** bilan bog'liqidir. Masalan, bunga - fuqarolarning davlat organlari faoliyatida ilmiy-texnik xodim, ekspert, maslahatchi, **sohaviy yoki ishchi komissiyalarining a'zosi sifatida** ishtirot etishi **bilan bog'liq** huquq va majburiyatları kiradi.

Fuqarolar davlat boshqaruvi sohasida o‘zlarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish orqali turli ma’muriy-huquqiy munosabatlarga kirishadilar. Bu munosabatlar quyidagilar asosida vujudga kelishi, *o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishi* mumkin:

- fuqarolarning o‘z huquqlarini amalga oshirishlari (masalan, davlat organiga murojaat qilish, oliy o‘quv yurtlariga kirish);
- fuqarolarning o‘z majburiyatlarini bajarishlari (masalan, fuqaroning 16 yoshga to‘lganda pasport olishi);
- davlat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishi (masalan, asossiz ravishda shikoyatni ko‘rib chiqishni rad etish);
- fuqarolar tomonidan majburiyatlarning bajarilmaganligi (masalan, belgilangan tartibda harbiy xizmatni o‘tamaganlik).

«O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi qonunga binoan *O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi* - shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqa ularning o‘zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqaro bo‘lish huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o‘zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolar oldida, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi esa, davlat oldida mas’uldir.

O‘zbekiston Respublikasi – O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida o‘z fuqarolaringin huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi – fuqarolikni olish asoslaridan qat’i nazar, barcha uchun teng hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy turmushning barcha sohalarida ta’milnadi.

## **2-§. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning huquqiy holati**

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari va xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan hollardan

**tashqari**, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari bir xil huquq va majburiyatlarga egadir.

**Xorijiy fuqaro** O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmagan va xorijiy davlat fuqaroligi mavjud bo'lgan jismoniy shaxs.

«O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonunning 11-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lman va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lman shaxslar — **fuqaroligi bo'lman shaxslar** deb hisoblanadi.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lman shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ba'zi bir huquqlaridan, jumladan, saylash va saylanish huquqidan, davlat boshqaruvida bevosita va bilvosita (masalan, o'zini o'zi boshqarish organlari, referendum) ishtirok etish huquqidan, jamoat birlashmalariga (masalan, siyosiy partiyalarga, kasaba uyushmalariga) uyushish huquqidan foydalananmaydilar. Ularning huquqlari va erkinliklari O'zbekiston Respublikasining maxsus hujjatlari asosida belgilanadi.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lman shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan bir xil majburiyatlarga egadir. Ularga nisbatan Vatanni himoya qilish burchi, ya'ni umumiy harbiy majburiyatni o'tash yuklatilishi mumkin emas.

**Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lman shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lshi**. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lman shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lislari qoidalari» bilan tartibga solinadi1. Ushbu Qoidalarga binoan xorijiy fuqarolar, shu jumladan, MDH qatnashchilari bo'lgan davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lman shaxslar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashashlari yoki vaqtincha bo'lislari mumkin. Mazkur Qoidalari:

a) O'zbekiston Respublikasida bo'luchchi xorijiy fuqarolar **halish vizasining amal qilish muddatini vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish**;

b) xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash uchun ruxsatnomalar berish;

d) xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida yurishlari;

e) qonunchilikni va mazkur Qoidalarni buzganliklari uchun xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishlari muddatini qisqartirish va bu yerdan chiqarib yuborish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida vaqtincha bo'lувчи xorijiy fuqarolar o'zlarini qabul qiluvchi tashkilotlar (vazirliklar, idoralar, mulkchilik shakllari va faoliyat turidan qat'i nazar, korxonalar va tashkilotlar, xorijiy davlatlarning doimiy vakolatxonalari, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlarning hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo'limgan) notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari)ni, shuningdek, xususiy ishlar bo'yicha ularni O'zbekiston Respublikasiga taklif qilgan shaxslami xabardor qilgan holda xohishlariga ko'ra mehmonxonalarda yoki boshqa turar joylarda yashaydilar.

O'zbekiston Respublikasidagi xorijiy fuqarolar pasportlari yoki ularning o'mini bosuvchi hujjatlarni o'zlar bilan olib yurishga va ularni vakolatli organlar vakillarining talabiga ko'ra ko'rsatishga majburdirlar.

Qabul qiluvchi tashkilotlar xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida va mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan ularning huquqlari va majburiyatlarini o'z vaqtida tushuntirib qo'yishni, xorijiy fuqarolar bilan munosabatlarda belgilab qo'yilgan huquqiy normalarning aniq bajarilishini ta'minlaydilar, xorijiy fuqarolarning tegishli hisobini yuritadilar, shuningdek, ularning O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli ichki ishlar bo'limlarida o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlash, ularning respublika hududida yurishlari va ularga belgilangan bo'lish muddatlari tugashi bilan O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketishlari uchun javobgar bo'ladilar.

Xorijiy fuqarolarni xususiy ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga taklif qilgan va ularga turar joy bergen shaxslar bu fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining,

**Ichki ishlar boshqarmasining tegishli bo'limlarida o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rishga va ularga belgilangan bo'lish muddatlari tugashi bilan O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketishlarida ko'maklashishga majburdirlar.**

O'zbekiston Respublikasida turgan xorijiy fuqarolar shu mamlakat qonunchiligiga va mazkur Qoidalarga rioya qilishga majburdirlar.

Xorijiy fuqarolar, shuningdek, mansabdor shaxslar va O'zbekiston Respublikasining boshqa fuqarolari tomonidan mazkur qoidalar talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni o'z vakolatlari doirasida ichki ishlar organlari va Tashqi ishlar vazirligi joylardagi hokimiyat organlari va O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda amalga oshiradilar.

Xorijiy fuqarolarni vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish, ularga doimiy yashash va O'zbekiston Respublikasi hududida yurishlari uchun ruxsatnomalar berish tartibi O'zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlariga mosan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda Tashqi ishlar vazirligi va Ichki ishlar vazirligi tomonidan tenglik asosida o'zgartirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida vaqtincha bo'luvchi fuqarolar O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha ro'yxatdan o'tish asosida yashaydilar.

**Xorijiy fuqarolarni vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.**

Mehmonxonalar, davolash muassasalari, sanatoriylar, dam olish uylarining mas'ul shaxslari tomonidan kelib joylashgan shaxslarning hisobi yuritiladi.

Xorijiy fuqarolar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan akkreditatsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasiga olti oygacha muddatga kelgan xorijiy fuqarolarning shaxsiy va xizmat avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida hisobga olinishi kerak. Xorijiy fuqarolar o'z transport vositalarini O'zbekiston Respublikasiga olti oydan ortiq muddatga olib kelishlari mumkin, bu transport vositalari Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlarida milliy raqam belgilarini almashtirgan holda ro'yxatga olinadi.

Xalqaro haydovchilik guvohnomalari O'zbekiston Respublikasi hududida avtotransport vositalarini boshqarish uchun haqiqiy hisoblanadi. Yo'l harakati to'g'risidagi konvensiyaning tegishli talablariga javob beradigan milliy haydovchilik guvohnomalari O'zbekiston Respublikasi hududida ularning tasdiqlangan tarjimasi mavjud bo'lganda haqiqiy hisoblanadi.

Xorijiy fuqarolar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashashlari mumkin. Buning uchun ularda ruxsatnoma va yashash guvohnomalari bo'lishi kerak.

Xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash uchun ruxsatnoma qonunchilik hujjalalarida belgilangan tartibda ularning taqdim etgan ariza-anketalari asosida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi xorijiy fuqarolar doimiy turar joylari yoki vaqtincha yashab turgan joylaridagi ichki ishlar organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasida pasport tizimi to'g'risidagi nizomga muvofiq ro'yxatdan (vaqtincha ro'yxatdan) o'tkaziladilar.

Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida yurishlari tartibi, agar O'zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo'lgan xalqaro bitimlarda bosh-qacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ikki tomonlama shartnomalar va tenglik asosida belgilanadi.

Mazkur qoidalarni buzganlik uchun xorijiy fuqarolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Mazkur qoidalarning talablariga rioya qilishga majbur bo'lgan shaxslar (shu jumladan xorijiy fuqarolarni respublikaga xususiy ishlar bo'yicha taklif qilgan yoki ularga xizmat ko'rsatayotgan shaxslar) tomonidan ularning buzilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini yoki mazkur qoidalarni buzgan xorijiy fuqaroning O'zbekiston Respublikasida belgilangan bo'lish muddati qisqartirilishi mumkin.

Qonunchilikda belgilangan hollarda xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lмаган shaxslar O'zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborilishi mumkin.

Xorijiy fuqaro o'zining O'zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborilishi va O'zbekiston Respublikasida bo'lishi muddatini qisqartirish to'g'risidagi qaror ustidan O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda va asosda shikoyat qilishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari deyarli bir xildir. Ular qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda o'zlarining huquqlari va erkinliklarini sud yoki ma'muriy tartibda himoya qilishlari mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonunga binoan, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va bitimlarida o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, chet elliq fuqarolar qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat bilan murojaat qilishga haqlidirlar1.

Fuqaroligi bo'limgan shaxslar mazkur qonunga muvofiq sudga shikoyat bilan murojaat qilish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi qonuniga binoan esa xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi davlat organlariga qonunga muvofiq murojaat etish huquqiga ega.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'z zimmlaridagi majburiyatlarni bajarmaganida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha yuridik javobgarlikka tortilishi mumkin.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklarning aksariyati umummajburiy qoidalarni buzishda ifodalanishi mumkinligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ularga nisbatan odatda ma'muriy-huquqiy majburlov choralarini qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 17-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslar umumiylasosda ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim.

Immunitetga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan ushbu Kodeksning O‘zbekiston Respublikasi qatnashchi bo‘lgan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo‘lmanan qismi qo‘llaniladi.

So‘nggi yillarda fuqarolarning yangi toifasi, ya’ni xorijiy fuqaro yoki fuqaroligi bo‘lmanan shaxs bo‘lgan - «qochoqlar» toifasi ham paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasida qochoqlarning huquqiy holati xalqaro shartnomalar va maxsus qonunchilik hujjalari bilan tartibga solinadi.

Qochoqlarning huquqiy holati Birlashgan Millatlar Tashkilotining rezolyutsiyasi bilan 1950-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Qochoqlar holati haqida»gi Konvensiya, 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan «Qochoqlar holati haqida»gi Bayonnoma asosida tartibga solinadi.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Fuqarolarning ma’muriy-huquqiy holati deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolar huquq va majburiyatlarining vujudga kelish asoslari qanday?
3. Fuqarolarning ma’muriy huquq layoqati nimani bildiradi?
4. Fuqarolarning ma’muriy muomala layoqati haqida so‘zlab bering.
5. Fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi huquqlari va erkinliklari nimalardan iborat?
6. Fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi majburiyatları nimalarda aks etadi?
7. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmanan shaxslarning ma’muriy-huquqiy holati haqida tushuntirib bering.
8. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmanan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishi haqida so‘zlab bering.

*Uchinchchi bo'lim*  
**DAVLAT BOSHQARUVI FAOLIYATINING  
SHAKLLARI VA USULLARI**

---

*VIII bob*  
**DAVLAT BOSHQARUVI FAOLIYATINING  
SHAKLLARI**

**1-§. Davlat boshqaruvi faoliyatining shakllari  
tushunchasi va turlari**

***Shakl*** – bu ma'lum bir hodisa yoki harakat mazmunining tashqi ko'rinishidir. Masalan, ta'lim jarayoni – ma'ruzalar yoki amaliy mashg'ulotlarni olib borish (ya'ni ta'lim shakllari) orqali namoyon bo'ladi.

Har qanday faoliyat singari davlat boshqaruvi faoliyati ham, ma'lum bir shakllarda ifodalanadi. Davlat boshqaruvi shunday jarayonki, unda ko'pgina shaxslar, tashkilot va organlar ishtirok etadi. Bu jarayonda ijro etuvchi hokimiyat organlarining (boshqaruv faoliyati asosiy subyektining) vazifalari, funksiyalari va vakolatlari amalga oshirilganligi sababli, birinchi navbatda, mazkur hokimiyat subyektlari faoliyati shakllari muammosi vujudga keladi. Ushbu faoliyatning shakllarini aniqlash orqali davlat – boshqaruv faoliyatining mazmunini chuqurroq anglash mumkin.

Ma'lumki, davlat hokimiyati qanday ko'rinishda bo'lmasin o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi. Balki davlatning o'zini namoyon qiliш maqsadida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud sohasida harakat qilishi lozim bo'ladi. Aynan davlat tegishli subyektlarining aniq harakatlarida mazkur hokimiyatning mazmuni va yo'nalishlari namoyon bo'ladi.

Boshqaruv organlari (mansabdor shaxslar) o'zlarining kundalik amaliy faoliyatlarida turli xil harakatlarni amalga oshiradilar. Bunda davlat organi yoki uning vakili (mansabdor shaxs)ning kompetensiyasi – boshqaruv sohasidagi u yoki bu harakatni amalga

oshirish imkonini belgilab beradi. Jumladan, ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlari qonun osti huquqiy normalarini, ya'ni davlat boshqaruvi jarayoni yoki uning ayrim sohalarida xulq-atvor qoidalarini o'rnatish vakolatiga; boshqalari esa boshqaruv munosabatlarining u yoki bu subyektiga qaratilgan aniq yuridik hokimiyat ko'rsatmalarini berish vakolatiga; uchinchisi esa, kontrol-nazorat funksiyalarini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lishi mumkin. Ularning barchasi o'z faoliyati yoki bo'ysunuvchi subyektlarining faoliyatini tashkil etish maqsadida ma'lum bir harakatlarni amalga oshiradilar; turli xil fuqarolar va jamoat birlashmalarining ehtiyojlarini qondiradilar.

Ijro etuvchi hokimiyat subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan turli xil harakatlar davlat boshqaruvining mazmun-mohiyatini ifoda etadi, boshqaruv vazifalari va funksiyalari, ya'ni davlat-boshqaruv faoliyati qanday amalga oshirilishi to'g'risida tasavvur hosil qilishga olib keladi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari o'z funksiyalarini bevosita davlat nomidan amalga oshirar ekan, ular faoliyatining tashqi ko'rinishi (shakli) huquq normalari bilan tartibga solingan bo'lishi kerak. U yoki bu davlat organining huquqiy maqomini belgilab beruvchi ma'muriy-huquqiy normalar, ular faoliyatining tashqi ko'rinishi (shakllari)ni ham belgilab beradi.

Boshqaruv shakllarining mazmun-mohiyatini ochib berishda «boshqaruvning maqsadi», «boshqaruv funksiyalari», «boshqaruv vazifalari», «vakolat», «kompetensiya» singari terminlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Mazkur tushunchalar aniq bir boshqaruv sohasida *boshqaruv uslubini* tanlashda ham xizmat qiladi. Boshqaruv funksiyalari - boshqaruv faoliyatining mazmunini belgilab beradi. *Boshqaruv maqsadiga* - boshqaruv subyektlari tomonidan foydalaniladigan barcha boshqaruv shakllari bo'ysundirilgan. Boshqaruv organlari boshqaruv shakllari orqali o'zlarining vakolatlarini amalga oshiradilar.

Boshqaruvning maqsadiga erishish uchun boshqaruv shakllari – boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, boshqaruv jarayonining mazmuni boshqaruv funksiyalari, boshqaruv uslublari va boshqaruv shakllari orqali

yoritib beriladi. Boshqaruv nazariyasi aynan mana shu kategoriyalarga asoslanadi. Boshqaruv amaliyoti esa, mazkur kategoriyalarning rivojlanishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Boshqaruv shakllari boshqa hokimiyat organlari faoliyatining shakllaridan, ya’ni qonun ijodkorligi (qonunchilik faoliyati) va odil sudlov (sud faoliyati)dan farq qiladi. Boshqaruv shakllari davlat va jamiyat hayotining, boshqaruvning barcha sohalarida davlat funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Boshqaruv organlari va mansabdor shaxslar har bir holatda aniq boshqaruv shaklini qo‘llaydilar. Boshqaruv harakatlarining u yoki bu shaklini tanlash esa, ma’lum bir qoidalar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, ular mazkur organ (mansabdor shaxs) kompetensiyasiga, yo‘nalishiga (ahamiyatiga), boshqaruv faoliyatining funksiyalarini va uslublariga, hal qilinadigan masalalar xususiyatiga, boshqaruv ta’siri maqsadlariga, aniq obyekt xususiyatlariga mos kelishi kerak. Boshqaruv shakllari tegishli boshqaruv organi (mansabdor shaxs) faoliyati doirasiga kiruvchi obyektlar-gagina qo‘llanilishi mumkin.

Boshqaruv organlari o‘z vazifa va funksiyalarini amalga oshirish jarayonida turli xil ma’muriy-huquqiy shakllardan foydalanadilar. Boshqaruv faoliyati shakllari boshqaruv faoliyati mazmuniga mos kelishi kerak, ya’ni boshqaruvning u yoki bu funksiyasini amalga oshirishda maqsadga muvofiq va kam vaqt talab etadigan kuch va vositalardan foydalanish lozim.

Davlat boshqaruvi jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar (ustavlar, nizomlar, yo‘riqnomalar) bilan o‘rnatilgan boshqaruv shakllaridan foydalaniladi. Boshqacha aytganda, boshqaruv jarayonida davlatning u yoki bu vazifasini hal etish, u yoki bu funksiyasini amalga oshirishning ruxsat berilgan (ya’ni normativ hujjatlar bilan belgilangan) shakllaridan foydalaniladi. Aks holda, boshqaruv harakatlari va ularning mazmuni shubha ostiga olinishi, normativ hujjatlar talabiga mos kelmasligi mumkin. Lekin bu boshqaruv subyektining o‘z xohishiga ko‘ra harakatlanish imkoniyatidan mahrum etilganligini anglatmaydi. Boshqaruv subyekti har bir holat bo‘yicha boshqaruv vazifalarini hal etish jarayonida u yoki bu shaklini tanlashga ijodiy yondashishi mumkin.

Davlat boshqaruvi faoliyatining tashqi ko'rinishlari turli xil bo'lganligi sababli, uni har xil asoslarga ko'ra tasniflash mumkin.

Boshqaruv shakllari turli yuridik ahamiyatga ega bo'lgan ma'muriy-huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Ularning ba'zilari konstitutsiyaviy normalar (masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyishlari) va qonunlar bilan (masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari), boshqalari esa qonun osti aktlari bilan (masalan, vazirlik, davlat qo'mitasining buyruqlari, ko'rsatmalari va hokazo) tartibga solinadi. Davlat organlarining ichki tashkiliy faoliyati shakllari ham ma'lum bir normalar bilan tartibga solingan bo'lib, tashkilot ichidagi u yoki bu organning faoliyati doirasida bo'ladi (masalan, yo'riqnomalar).

Davlat boshqaruvi shakllari bo'yicha keng doirada ilmiy tadqiqotlar YE.Starossyak tomonidan olib borilgan bo'lib, uning monografiyasida boshqaruv shakllarining quyidagi turlari ko'rsatib o'tilgan:

*birinchidan*, umummajburiy normalarni o'matish;

*ikkinchidan*, ma'muriy aktlar qabul qilish;

*uchinchidan*, shartnomalar tuzish;

*to'rtinchidan*, ijtimoiy-tashkiliy faoliyatni amalga oshirish;

*beshinchidan*, moddiy-teknik harakatlarni bajarish<sup>1</sup>.

Yu.M. Kozlov boshqaruv shakllariga to'xtalib, ularni ikki guruhga ajratadi:

Birinchisi – *huquqiy shakllar*. Hamma vaqt ma'lum bir yuridik oqibatlarni vujudga keltiradigan harakatlar. Bu ijro etuvchi hokimiyat subyektlarining bevosita huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi har qanday harakatlari hisoblanadi. Bunday harakatlar da yuridik hokimiyat vakolatlari o'z ifodasini topadi. Mazkur guruhga kiruvchi harakatlarning xususiyatlari – boshqaruvning huquqiy aktlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan – *nohnuquqiy shakllar*. Ushbu shakllar boshqaruvning huquqiy aktlarini qabul qilishni nazarda tutmaganligi

<sup>1</sup> Старостьяк Е. Правовые формы административной деятельности. – М., 1959. – 47-б.

sababli, yuridik oqibatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri vujudga keltirmaydi. Ular huquqiy shakllarga xos bo‘lgan ma’muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi. Nohuquqiy shakllar huquqiy shakllarni qo‘llashga yoki ularni keyinchalik amalga oshirilishiga ko‘maklashuvchi turli xil tashkiliy harakatlar hisoblanadi<sup>1</sup>.

Boshqaruvin shakllarining huquqiy va nohuquqiy shakllarga bo‘linishi, ularning boshqa turlarga ham tasniflanishini inkor etmaydi. Boshqaruvin jarayonidagi barcha harakatlarni boshqaruvin huquqiy aktlari jumlasiga kiritish mumkin emas. Ijro etuvchi hokimiyat organlari o‘z faoliyatlarida boshqa yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni ham amalga oshirishlari mumkin.

X.R.Alimovning fikricha, boshqaruvin faoliyati shakllari quyida  
ticha

#### *Huquqiy shakllar:*

a) huquq normalalarini o‘rnatish (boshqaruvin aktlarini qabul qilish);

b) huquq normalalarini qo‘llash (amaldagi huquq normalari asosida yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni amalga oshirish).

#### *Nohuquqiy shakllar:*

a) tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish;

b) moddiy-texnik operatsiyalarni amalga oshirish<sup>2</sup>.

## **2-6. Davlat boshqaruvi aktlarining mazmuni va xususiyatlari**

Ma’muriy huquq nazariyasida *boshqaruvning huquqiy akti instituti* alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning doirasida davlat boshqaruvining eng muhim funksiyalari amalga oshiriladi. Tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslarning qarorlari va harakatlari, qoida bo‘yicha, normativ yoki normativ bo‘lmagan huquqiy aktlar shaklida rasmiylashtiriladi.

<sup>1</sup> Козлов Ю.М. Административное право. Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М., 2003. – 142-б.

<sup>2</sup> Административное право Республики Узбекистан // Авт. коллектив: X.R.Алимов, Л.И.Соловьева и др. – Т., 1999. – С. 173-174.

Boshqaruvning huquqiy aktlari ijtimoiy boshqaruv oldida turgan maqsad va vazifalarga erishish uchun uning harakatlarini amalga oshirishning muhim huquqiy shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqaruvning huquqiy aktlari muammosiga oid huquqshunos olimlarning ko'pdan-ko'p ilmiy ishlari mavjud bo'lib ularning aksariyati o'quv yurtlarida boshqaruv huquqiy aktlari (ma'muriy huquqiy aktlar)ni o'rganishga qaratilgan maxsus fanni kiritish tarafdiridir<sup>1</sup>.

Boshqaruvning huquqiy aktlari, hozirgi vaqtida, keng normativ asosga egadir, ya'ni bunday aktlarni qabul qilish va uning tartibi — O'zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

Boshqaruv huquqiy aktlarini qabul qilish — ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Huquqiy aktlar orqali mazkur subyektlarning vazifalari, funksiyalari va vakolatlari, ya'ni kompetensiyasi bevosita amalga oshiriladi.

**Boshqaruvning huquqiy aktlari** deganda — ijro etuvchi hokimiyat subyektlarining bir tomonlama hokimiyat ko'rsatmalarini ifodalash, yuridik oqibatlarni vujudga keltirish va bajarilishi majburiy bo'lgan aktlar tushuniladi.

Huquqiy aktlar — boshqaruv qarorlarining yuridik shakli bo'lib hisoblanadi. Ijro etuvchi hokimiyat organi (mansabdor shaxs) vakolati doirasida huquqiy akt qabul qilish orqali umumiy (normativ) yoki individual (yakka, ma'muriy) ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni hal etadi.

Huquqiy akt — ijro etuvchi hokimiyat subyektining bir tomonlama yuridik hokimiyati irodasini namoyon etib, *birinchidan*, davlat-boshqaruv faoliyatining hokimiyat tabiatini ifodalaydi; *ikkinchidan*, uning yordamida ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifa va funksiyalari amalga oshiriladi.

<sup>1</sup> Qarang: Тихомиров Ю.А., Котелевская И.В. Правовые акты: Учеб. практик. и справ. Пособие. – М., 1999. – С. 3.; Костенников М.В. Прововые акты органов исполнительной власти. Их разработка и принятие. – М., 2000; Князев С.Д. Административное право: Учеб. пособие. – Владивосток. 1997. – С. 51-56.

Boshqaruvning huquqiy akti — *imperativ* xususiyatga ega bo'lib, uning talablari qaysi subyektga qaratilgan bo'lsa, uning uchun majburiy hisoblanadi.

Huquqiy aktlarning jirosi, uning talablarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxslarni yuridik javobgarlikka tortish tahdidi bilan ta'minlanadi.

Boshqaruvning huquqiy aktlari:

*birinchidan*, davlat boshqaruvi sohasida xulq-atvor qoidalarini o'rnatadi;

*ikkinchidan*, aniq bir ma'muriy-huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi yuridik fakt sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, vazir o'z buyrug'i bilan tegishli sohada faoliyat yurituvchi barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, korxona va muassasalar uchun majburiy bo'lgan qoidalar o'rnatishi mumkin. Shuningdek, uning shaxsni ma'lum bir lavozimga tayinlash to'g'risidagi buyrug'i bilan, aniq davlat-xizmat munosabatlari vujudga kelishi mumkin.

Boshqaruvning har qanday shakldagi huquqiy akti qonun osti xususiyatiga ega bo'ladi, ya'ni ular vakolatli davlat organlari tomonidan Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib va ularni ijro etish maqsadida qabui qilinadi.

A. G. Chernyavskiyning fikricha, davlat boshqaruv aktlari ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining boshqa shakllaridan farq qilgan holda quyidagi *o'ziga xos xususiyatlarga egadir*:

1) boshqaruv aktlari — ijro etuvchi hokimiyat subyektlarining, ya'mi ma'muriy huquq subyekti hisoblangan ijro etuvchi hokimiyat organlari yoki korxona va muassasa ma'muriyatining yuridik hokimiyatni irodasini ifodalashdir. Bu aktlar — ma'muriy hokimiyatning maqsad va funksiyalarini amalga oshirishning muhim vositalaridan biri bo'lib, ijro etish va farmoyish berish faoliyatining asosiy shakli hisoblanadi. Boshqaruv aktlari - boshqaruv subyektlari tomonidan mamlakatning xo'jalik, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy sohalariga kundalik hamda bevosita rahbarlik qilish jarayonida qabul qilinadigan qarorlardir. Boshqaruv aktlari o'rtasida ijro etuvchi hokimiyat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan qabul qilinadigan aktlar alohida ahamiyatga egadir;

2) boshqaruv aktlari — ijro etuvchi hokimiyat yoki ma'muriy huquqning vakolatli boshqa subyekti tomonidan qabul qilinishi

mumkin. Bu aktlar – boshqaruv qarorlarining huquqiy shakllaridan biri hisoblanadi;

3) boshqaruv aktlari – adresatga (ya’ni qaysi shaxsga qaratilgan bo’lsa), imperativlik, majburiylik xususiyatiga ega, unda bir tomon (ma’muriy huquq subyekti)ning tegishli irodasi ifodalangan bo’ladi;

4) boshqaruv aktlari – xulq-atvorni, ma’lum bir qoidani o’rnatish va tartibga solish xususiyatiga egadir;

5) boshqaruv aktlari – ma’muriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o’zgarishi va bekor bo’lishida huquqiy asos bo’lib xizmat qiladi.

Demak, boshqaruv akti – boshqaruv qarorlarining huquqiy shakli bo’lib, ma’muriy huquqning tegishli subyekti (ijro etuvchi hokimiyat organi, korxona va muassasa ma’muriyati, mansabdor shaxs) tomonidan bir tomonlama tartibda irodani ifodalash aktidir; qonunchilikda ko’rsatilgan shaklga ega bo’lgan va ijro etuvchi hokimiyat sohasidagi vazifa va funksiyalarning amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida ma’muriy-huquqiy normalarni o’rnatish hamda ma’muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o’zgartirish va bekor qilishga qaratilgan aktadir<sup>1</sup>.

Yu.N.Starilovning fikricha, boshqaruvning huquqiy aktlariga quyidagi xususiyatlar xosdir:

1. Huquqiy akt – boshqaruv vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun boshqaruv jarayonining o’rnatilgan qoidalari asosida tayyorlangan va qabul qilingan boshqaruv qarorining bir shaklidir. Boshqaruv qarori o’z mohiyatiga ko’ra boshqaruv subyektlarining rejalashtirilgan va nazarda tutilgan harakatlari natijasi hisoblanadi.

2. Huquqiy akt – kompetensiya doirasida vakolatli boshqaruv subyekti (davlat organi, mansabdor shaxs) tomonidan qabul qilinadi.

3. Huquqiy akt – bir tomonlama tartibda, ya’ni ommaviy boshqaruvning maxsus organi yoki mansabdor shaxs tomonidan qabul qilinadi. Boshqaruv akti qaratilgan subyektlar hokimiyat irodasini ifodalovchi subyektning harakatiga ta’sir ko’rsata olmaydi.

<sup>1</sup> Габриэлзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимэн А.Н. Административное право – М., 2004. – С. 208-209.

Shu bilan birga, boshqaruv akti qaratilgan shaxslar yoki tashkilotlar huquqiy aktning amal qilishi jarayonida uning asoslanganligi va qonuniyligini aniqlashga (masalan, sudda ishni ko'rib chiqish orqali) harakat qilishlari mumkin. Huquqiy akt sud tartibida yoki ma'muriy tartibda ko'rib chiqilishi va qonunga zid deb topilishi mumkin.

4. Huquqiy akt — boshqaruv organining yuridik hokimiyati ifodasini ifodalash bo'lib, unda davlat-hokimiyat vakolatlari o'z ifodasini topadi. Huquqiy aktning namoyon bo'lishi davlat va jamiyat manfaatlari bilan izohlanadi va u aniq munosabatlarni tartibga solishga, umummajburiy qoidalarni o'rnatishga, shuningdek, boshqaruv jarayonida vujudga keladigan nizolarni hal etishga qaratilgan bo'ladi.

5. Huquqiy akt — boshqaruv sohasidagi xulq-atvor (yurish-turish)ning majburiy qoidalarni, huquq normalarini belgilab beradi yoki aniq bir boshqaruv munosabatlarini tartibga soladi.

6. Huquqiy akt — davlat boshqaruvi sohasida subyektlarning namunali xulq-atvor doirasini belgilab beradi. U ma'muriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun huquqiy asosni yaratadi yoxud bunday munosabatlarning bevosita vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishida yuridik fakt silatida xizmat qiladi.

7. Huquqiy aktlar qonuniy, ya'ni huquqqa mos keladi yoki qonuni osti xususiyatiga ega bo'ladi.

8. Huquqiy akt — boshqaruv organlari (mansabdor shaxslar) faoliyati janiyomida foydalaniладigan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarning bir ko'rinishi hisoblanib, bir tomonlama hokimiyat ifodasini ifodalashni nazarda tutmagan va yuridik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotnomma, xulosa, bayonnomma, taftish dalolatnomasi, inventarizatsiya, tekshirish hujjatlari orqali namoyon bo'ladi.

9. Huquqiy akt — maxsus shaklga hamda qabul qilish (tasdiqlash)ning alohida tartibiga egadir. Odatda ular muayyan qoidalarga, ya'ni loyihami tayyorlash, kelishish, muhokama qilish, ekspertizadan o'ztakzish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va e'lon qilish tartibiga rioya qilgan holda yozma shaklda qabul qilinadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Бахрах Д.Н., Российский Б.В., Стариков Ю.Н. Административное право М., 2004. – С. 321-323.

Boshqaruv huquqiy aktlari faqatgina boshqaruv sohasi bilan chegaralanmaydi. Huquqiy aktlar orqali boshqa huquq tarmoqlari predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy (masalan, moliyaviy, mehnat, ekologik) munosabatlardan ham tartibga solinadi.

Boshqaruvning huquqiy aktlari qonunchilik hujjatlarini yanada aniqlashtirish maqsadida ko‘pgina masalalarini hal etadi.

Boshqaruv aktlarining asosiy xususiyatlaridan yana biri – bu ularning *yuridik ahamiyatga ega* ekanligidir, ya’ni:

*birinchidan*, boshqaruv huquqiy aktlari – yuridik faktlar sifatida namoyon bo‘ladi, huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishida. huquq subyektlari huquqiy maqomiga yangicha tus berishda faktik asos bo‘lib xizmat qiladi (masalan, lavozimga tayinlash to‘g‘risidagi buyruq – davlat xizmatchisi huquqiy maqomini vujudga keltiradi);

*ikkinchidan*, boshqaruv huquqiy aktlari – huquq normalarini o‘rnatadi, o‘zgartiradi va bekor qiladi; keng doiradagi shaxslar ishtirok etgan munosabatlarni bir xil tartibga soladi; boshqaruv tartibini, ma’muriy majburlov choralarini qo‘llash imkoniyatini belgilab beradi.

Boshqaruvning normativ yoki individual aktlari u yoki bu subyektning xulq-atvorini, unga huquqlar berish yoki aniq majburiyatlar yuklash orqali yoxud har ikkisini ham o‘rnatish orqali tartibga soladi;

*uchinchidan*, boshqaruv aktlari boshqa huquqiy aktlarning qabul qilinishida xizmat qiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni asosida Vazirlar Mahkamasining qarori, Vazirlar Mahkamasining qarori asosida vazirliklar, davlat qo‘mitalari yoki boshqa organlarning normativ hujjatlari qabul qilinadi;

*to‘rtinchidan*, boshqaruv huquqiy aktlari ma’lum bir yuridik jarayonda (masalan, sudlar tomonidan fuqarolik, ma’muriy yoki jinoiy ishlarni ko‘rib chiqishda) dalil sifatida namoyon bo‘ladi;

*beshinchidan*, boshqaruv huquqiy aktlari u yoki bu harakatlarni amalga oshirishda, shuningdek, boshqa huquqiy aktlarning amal qilishida yoki jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari amalga oshirilishida xizmat qiladi. Masalan, yuridik shaxsni davlat ro‘yxatiga olganlik to‘g‘risidagi qaror mazkur

shaxsning turli fuqarolik-huquqiy yoki ma'muriy-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishga imkoniyat beradi;

*oltinchidan*, boshqaruv aktlari huquqiy vositalar, jumladan: ma'muriy huquq sohasida davlat siyosatini o'z vaqtida ainalga oshirish; ma'muriy islohotlarni elib borish; davlat boshqaruvi maqsadlariga erishish; ijro etuvchi hokimiyat organlari, mansabdar shaxslar, davlat va mahalliy xizmatchilarning ish faoliyatini tashkil etish; fuqarolar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqaruv huquqiy aktlarining xususiyatlari uning mohiyati va yuridik tabiatini, shuningdek, uning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

### **3-§. Davlat boshqaruvi faoliyatining boshqa shakllari**

Boshqaruv faoliyatini (harakatlarini) amalga oshirishning huquqiy shakllaridan biri — ma'muriy-huquqiy shartnomalar tuzish hisoblanadi. Hozirgi sharoitda ma'muriy-huquqiy shartnomalarning ahamiyati — ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ommaviy huquqning, shuningdek, ommaviy-huquqiy munosabatlarda shartnomalar rolining o'sib borishi bilan izohlanadi.

Ommaviy huquqiy normalarning o'rnatilishi nafaqat ijro etuvchi hokimiyat sohasida intizom va javobgarlikni kuchaytirishga, balki shartnoma vositalarini qo'llash orqali boshqaruv vazifalarini hal etishning huquqiy mexanizmlarini yaratishga yo'naltirilgan.

Ma'lumki, xususiy huquq sohasida shartnoma subyektlar o'rtaсидаги муносабатларни тартибга солувчи одатија висита сифатида намоён бо'ladi. Бу муносабатлар, qoida bo'yicha, fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi hamda uning ishtirokchilari teng huquqlarga ega bo'ladi.

Ommaviy-huquqiy tartibga solish esa, normativ va imperativ xususiyatga ega bo'lgan ko'rsatmalar vositasida amalga oshiriladi. Ummumiyl maqsadlarga erishish va ommaviy manfaatlarni qondirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning irodasi va xulq-atvoriga hokimiyat-boshqaruv ta'sirini ko'rsatadi.

Ommaviy huquqda huquqiy tartibga solishning alohida usuli hisoblangan — shartnomalardan ham foydalaniladi. Ommaviy-huquqiy sohada shartnomalar, ommaviy manfaatlarni qondirish maqsadida, boshqaruv funksiyalarini (masalan, muvofiqlash-tirish, bo'ysunuv, tashkil etish, taqsimlashni) o'z zimmasiga oladi.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar muammosiga nafaqat moddiy ma'muriy-huquqiy normalar, ya'ni munosabat ishtirok-chilari, ularning huquqlari, majburiyatlar va javobgarligini, ijro etish tartibini o'rnatuvchi normalar orqali, balki unga ma'muriy-protsessual huquq nuqtai nazaridan ham yondashish lozim bo'ladi.

*Ma'muriy-huquqiy shartnomalar jarayoni* — boshqaruvning ma'lum bir turi sifatida, ma'muriy jarayon tarkibga kiradi.

Demak, *ma'muriy-huquqiy shartnoma* — bu ma'muriy-protsessual jarayonning bir turi bo'lib, o'zining moddiy qismi (mazmuni)ga ega. Amaldagi qonunchilikda uning aynan protsessual qismini rivojlantirish, dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar muammosiga bag'ishlangan adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat mualliflar vakolatlarning taqsimlanishi va yuqorida quyiga berilishi, ma'lum sohalarda turli subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, resurslar-dan foydalanish maqsadida ularni birlashtirish bilan bog'liq gorizontal munosabatlarda ifodalanishini ko'rsatib o'tadilar.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalarning mazmuni ularning xususiyatlarida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Yuridik adabiyotlarda berilgan tushunchalarga tayanib, ***ma'muriy-huquqiy shartnomalar va ularning o'ziga xos xususiyatlariga*** quyidagilarni kiritish mumkin:

*Ma'muriy-huquqiy shartnomalarga* maxsus majburiyatlar (shartlar)ni nazarda tutadigan va oddiy fuqarolik-huquqiy shartnomalar doirasidan tashqari chiqadigan shartnomalarni kiritish mumkin.

Mazkur shartnomalarda davlat va jamiyat mansaatlarni qondirishni nazarda tutgan davlat vazifalarini amalga oshirish ifodalanadi.

Bugungi kunda, ijro etuvchi hokimiyat organlarining ma'lum bir majburiatlarni o'z zimmasiga olish to'g'risida qabul qilgan qarorlarini — *huquqiy akti* sifatida tan olish hamda uning majburiyligini qonunchilikda o'rnatish zarurati vujudga keldi.

Bunday qarorlar majburiy ijro etilishi, davlat budgeti mablag'-laridan tegishli organlar orqali ta'minlanishi kerak.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalarning majburiy shartlari ikkinch'i ishtirokchi tomonidan bajarilmaganligi -- mazkur shartnomalarda ko'rsatib o'tilgan iqtisodiy sanksiyalarini harakatga keltirishi, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan shartnomaning bir tomonlama tartibda bekor qilinishiga olib kelishi lozim.

*Ma'muriy-huquqiy shartnomalarga* — davlat xizmati bo'yicha tuzilgan shartnomalarni kiritish darkor.

Davlat xizmati to'g'risidagi shartnomalarda ijtimoiy ehtiyojlarni va fuqarolarning manfaatlarini qondirish, jamoat tartibini saqlashni ta'minlash bo'yicha vakolatlar va funksiyalarining ijro etuvchi hokimiyat organlaridan xo'jalik birlashmalariga va boshqa shaxslarga o'tkazilishi nazarda tutiladi.

*Ma'muriy-huquqiy shartnomalar* ijro etuvchi hokimiyat organlarining kontrol-nazorat vakolatlarini, shuningdek, shartnoma munosabatlariaga kiruvchi ikkinchi tomonga nisbatan iqtisodiy sanksiyalarini qo'llash mumkinligini nazarda tutadi.

*Ma'muriy-huquqiy shartnomalarga* ijro etuvchi hokimiyat organlarining turli xil mahsulotlar yetkazib beruvchi korxonalar bilan tuzgan shartnomalarini ham kiritish mumkin. Lekin bunda korxonalarning soliq sohasida, kredit olishda, ma'lum bir budget mablag'-laridan foydalanishda imtiyozlarga ega bo'lishi nazarda tutilishi lozim.

Ijro etuvchi hokimiyat sohasida vakolatlarni taqsimlash va quyiga berish bo'yicha tuzilgan hamda o'z vakolatlarini beruvchi ijro etuvchi hokimiyat yuqori organining bevosita nazorati ostida va shartnoma shartlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan tomonning javobgarligi nazarda tutilgan shartnomalarni *ma'muriy-huquqiy shartnomalarga* kiritish mumkin.

*Ma'muriy-huquqiy shartnomalarni* huquqiy tartibga solishda quyidagilarni inobatga olish kerak:

a) ma'muriy-huquqiy shartnomalar kompetensiya doirasida ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan yoki bunday shartnomalarni tuzish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs

(boshqaruv organi rahbari yoki maxsus ishonchnoma asosida boshqa mansabdar shaxs) tomonidan tuzilishi mumkin. agar, shartnomaning ishtirokchisi sifatida kollegial organ namoyen bo'lsa, shartnomasi tuzilganidan so'ng, u vakolatli organ mansabdar shaxsi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim;

b) shartnoma munosabatlari ishtirokchilarining biri tomonidan majburiyatlar bajarilmagan yoki yetarli darajada bajarilmaganida, ijro etuvchi hokimiyat organi shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishi va aybdor tomonga nisbatan mazkur shartnomada nazarda tutilgan iqtisodiy va boshqa sanksiyalarini qo'llash vakolatiga ega bo'lishi kerak;

d) ijro etuvchi hokimiyat organi shartnoma munosabatlariga kirishganida, uning ijro etilishini nazorat qilish, barcha hujjatlar bilan tanishib chiqish, shartnoma subyektlarining faoliyatini tekshirish vakolatiga ega bo'lishi kerak. Nazoratni amalga oshirish tartibi va uslublari shartnomaning o'zida nazarda tutilishi lozim;

e) ijro etuvchi hokimiyat organi nazarda tutilmagan holatlarining vujudga kelishi bilan shartnomani bir tomonlama tartibda, uning moliyaviy va boshqa muhim shartlarini buzmagan holda, o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Mazkur shartnoma bo'yicha vujudga keladigan barcha nizolar ma'muriy va sud tartibida hal qilinishi darkor;

f) shartnoma munosabatlari subyektlari ustidan shikoyat qilish va prokurorning mazkur shartnoma va uning ijrosi ustidan protesti — ma'muriy sudlar tomonidan, ularning tashkil etilishiga qadar esa, tegishli sudlar (masalan, xo'jalik sudlari) tomonidan ko'trib chiqilishi lozim.

Shartnomalarni tuzish va ijro etishda, belgilangan doirada, fuqarolik qonunchiligi bilan o'rnatilgan shartnomalarning umumiy talablaridan foydalanish kerak. Masalan, shartnoma shakli; shartnomalarda o'rnatiladigan muddatlar; shartnoma ishtirokchilarini va ularning ma'muriy-huquqiy holati; shartnomalarni ijro etish; shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash; shartnoma shartlarini buzganlik uchun javobgarlik; shartnoma shartlarini o'zgartirish va uni bekor qilish va hokazo.

Boshqaruv faoliyatida ijro etuvchi hokimiyat organlari yoki mansabdar shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan barcha

harakatlarni ham huquqiy aktlarni qabul qilish yoki ma'muriy-huquqiy shartnomalarni tuzishga (ya'ni huquqiy shakllarga) kiritish mumkin emas. Boshqaruv faoliyatida amalga oshiriladigan ko'pdan-ko'p harakatlar (nohuquqiy shakllar) mavjudki, ular huquqiy shakllarning amalga oshirilishida xizmat qiladi.

Boshqaruv faoliyatining nohuquqiy shakllari — ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat-hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq emas. Bunday shakllarni qo'llash yuridik oqibatlarni keltirib chiqarmaydi, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi yoki ularni o'zgartirmaydi. Shu sababli ham, bu shakllar «nohuquqiy» deb ataladi. Nohuquqiy shakl — huquqqa (qonunga) xilof shakl degani emas, balki biron-bir huquqiy oqibatni keltirib chiqarmaydigan shakldir.

Deyarli barcha adabiyotlarda, nohuquqiy shakllarga bir xil ta'rif berilgan, ya'ni *nohuquqiy shakllar* — davlat organlarining hokimiyat vakolatini amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lma-gan va yuridik oqibatlarni vujudga keltirmaydigan boshqaruv faoliyatining shakli hisoblanadi. Boshqaruv faoliyatining nohuquqiy shakllari ikkiga: tashkiliy va moddiy-texnik harakatlarga bo'linadi.

*Boshqaruv faoliyati (harakatlari)ning nohuquqiy shakllari:*

*Tashkiliy harakatlar yoki tadbirlarni amalga oshirish* (masalan, majlislar o'tkazish, ilg'or va namunali tajribani, boshqaruvning salbiy holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish); *uslubiy ko'rsatmalarni tayyorlash; joylarda ijrochilarga ko'maklashish* va boshqalardan iborat.

Tashkiliy harakatlar yoki tadbirlar boshqaruv faoliyati jarayonida qo'llanilib, huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi, o'zgartirmaydi yoki bekor qilmaydi. Ular boshqaruv funksiyalarini amalga oshirmaydi.

*Moddiy-texnik harakatlar*, ya'ni davlat-xizmat faoliyati samaradorligini ta'minlashga qaratilgan va ish yuritish, ro'yxatga olish, rasmiylashtirish, hujjatlar, ma'lumotlar, materiallarni ko'paytirish va yuborish, axborotlar bilan ishslash, analistik hisob yuritish, moddiy-texnik ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv faoliyatining shakllari.

Boshqaruv faoliyatining bu shaklini amalga oshirish nafaqat xodimlarning yuqori tayyorgarlikka ega bo'lishiga, balki davlat

boshqaruvi organlarining ma'lum bir texnika bilan jihozlanganligiga ham bog'liqdir.

Moddiy-texnik harakatlar boshqaruv tizimini samarali tashkil etish va moddiy ta'minlashga, boshqaruv harakatlarini shakllantirishga, maxsus texnikani qo'llashga xizmat qiladi.

Moddiy-texnik operatsiyalar ko'p qirrali bo'lib, boshqaruv jarayonini tayyorlash va amalga oshirishning muhim xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bu nafaqat ijro etuvchi hokimiyat organlari vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish jarayonini ta'minlovchi tayyorlov-texnik faoliyat hisoblanadi, balki ular huquqiy va maqsadga muvofiq yo'naltirilgan xususiyatga ham egadir.

Ba'zi yuridik adabiyotlarda, moddiy-texnik operatsiyalar tashkiliy harakatlardan farq qilgan holda, boshqaruv faoliyatining shakli sifatida ko'rib chiqilishi mumkin emasligi eslatib o'tilgan. Chunki ular ko'maklashish (yordam berish) xususiyatiga egadir. Bundan tashqari, ular ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirishni ifoda etmaydi; bu harakatlarni boshqaruv xodimlari emas, balki xizmat ko'rsatuvchi xodim amalga oshiradi<sup>1</sup>.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Boshqaruv shakli deganda nimani tushunasiz?
2. Boshqaruv shakllarining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Ma'muriy-huquqiy shakllarni tasniflab bering.
4. Boshqaruvning huquqiy shakllari haqida so'zlab bering.
5. Boshqaruv huquqiy aktlari deganda nimani tushunasiz?
6. Boshqaruv huquqiy aktlarining o'ziga xos xususiyatlari aytib bering.
7. Boshqaruv huquqiy aktlarining yuridik ahamiyati haqida so'zlab bering.
8. Normativ-huquqiy aktlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ifodalanadi?
9. Individual (yakka) huquqiy aktlar deganda nimani tushunasiz?
10. Ma'muriy-huquqiy shartnomalar qanday xususiyatlarga ega?
11. Boshqaruv nohuquqiy shakllarining huquqiy shakllardan farqini aytib bering.
12. Tashkiliy harakatlar nima?
13. Moddiy-texnik harakatlar deganda nimani tushunasiz?

<sup>1</sup> Алексин А.П., Кармаликкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. Учебник. – М., 1998. – С. 237.

## DAVLAT BOSHQARUVI FAOLIYATINING USULLARI

### 1-§. Davlat boshqaruvi faoliyatining usullari tushunchasi va turlari

Boshqaruv jarayonida ijro etuvchi organlar oldida turgan vazifalarni muayyan vositalar va usullar orqali amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi usullari ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan boshqariluvchi obyektlarga va shaxslarga ma'muriy ta'sir ko'rsatish maqsadida, qonunchiliikda ruxsat etilgan doirada qo'llaniladigan usul va vositalardir.

Boshqaruv usuli huquqiy vosita sifatida davlat boshqaruvi faoliyatining maqsadlariga erishish, vazifalarini bajarish va funksiyalarini amalga oshirish uchun qo'llaniladi. O'z navbatida, boshqaruv usullari boshqaruv shaklari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki muayyan boshqaruv harakatlari natijasida yuzaga kelgan huquqiy oqibat (huquqiy akt) asosidagina boshqaruv usullari qo'llanilishi mumkin. Aniqrog'i, boshqaruvning huquqiy shakli bo'lgan boshqaruv hujjatining qabul qilinishi u yoki bu usulning qo'llanilishiga asos bo'ladi.

Boshqaruv usullari — ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan boshqaruv maqsadlari, vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish hamda vakolatlarini ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga boshqaruv usullari muayyan ijro etuvchi organlarning boshqaruv maqsadlariga qanday usul va vositalar bilan erishishini belgilab beradi. Boshqaruv usuli boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiiga nisbatan maqsadga muvofiq yo'naltirilgan ta'sir etish vositasi hamdir.

Boshqaruv usullarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

a) boshqaruv usulidan foydalanishdan asosiy maqsad ijro etuvchi hokimiyat organlarining boshqaruv faoliyatida davlat boshqaruvini ta'minlashdan iborat;

- b) boshqaruv usullari boshqaruv faoliyatida qo'llaniladi;
- d) davlat boshqaruv subyektlari o'rtasida maxsus huquqiy munosabatlarni yuzaga keltiradi;
- e) boshqaruv usullarini qo'llash tartibi asosan huquqiy aktlarda belgilanadi;
- f) davlat boshqaruv usullari boshqaruv subyektlarining vakolatlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi;
- g) boshqaruv usullarining qo'llanilishini nazarda tutuvchi har qanday aniq holatda boshqaruv obyektining xususiyati (jismoniy shaxs, tashkilot, vertikal bo'ysunuvning mavjudligi va hokazo.) inobatga olinadi.

Shunday qilib, *davlat boshqaruvi usuli deganda* davlat boshqaruvini amalga oshirish maqsadida boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga hokimiyat ta'sirini tushunish mumkin.

Davlat boshqaruv faoliyatida boshqaruv obyektlariga ta'sir ko'rsatishning ikki asosiy usuli: *ishontirish* va *majburlash* usullari qayd etilgan.

*Ishontirish* — boshqaruv usuli sifatida shaxsning xulq-atvori, ongiga ta'sir etish uchun turli xil tushuntirish, tarbiyaviy va rag'batlantirish choralaridan foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu usul maqsadiga shaxsdan o'matilgan tartib-qoidalarga ixtiyoriy ravishda rioya etishni talab etgan holda uning xulqiga axloqiy ta'sir etish orqali erishiladi.

*Ishontirish* usulining tushuntirish, tarbiyaviy va rag'batlantirish choralarini qo'llash natijasida maqsadga erishilmagan taqdirda boshqaruvning maqsad va vazifalari majburlash choralar bilan ta'minlanishi mumkin.

*Majburlash* choralarini intizomiy, moddiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik choralarini sifatida namoyon bo'ladi. *Majburlash* choralar muayyan shaxsning huquqqa xilof xatti-harakati uchun ta'sir chorasini qo'llashni nazarda tutishi yoki ayrim hollarda huquqiy-tartibot, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Boshqaruv usullari ma'muriy va iqtisodiy usullarga ham bo'linadi. Ma'muriy usullar boshqaruv subyektining obyektiga (fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat xizmatchilari) bir tomonlama

davlat-hokimiyat ta'siri ko'rsatish orqali ifodalanadi. Bunda ushbu usulni qo'llayotgan boshqaruv subyekti tegishli boshqariluvchilar uchun majburiy bo'lgan va yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan huquqiy aktlarni qabul qiladi. Qabul qilingan qaror, buyruq yoki farmoyishning bajarilmaganligi intizomning buzilishi hisoblanib, aybdorga nisbatan qonunda belgilangan majburlov choralari qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Ma'muriy usullar boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatish usuli sifatida boshqariluvchining irodasini boshqaruvchining irodasiga bo'ysundirishda, ya'ni «hokimiyatga bo'ysundirishda» namoyon bo'ladi. Boshqaruv subyekti o'ziga berilgan vakolatlar doirasida bir tomonlama ravishda tegishli shakllar (hujjatlar) orqali o'zining hukmron irodasini ifodalaydi, boshqariluvchilar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar, topshiriqlar beradi. Ushbu topshiriqlarning mazmunini boshqariluvchilar uchun beriladigan qaysi harakatlarni qanday usulda va qaysi muddatda bajarish kerakligi yoki qaysi harakatlardan tiyilish lozimligiga doir ko'rsatmalar tashkil qiladi. Bunday usullar muayyan boshqaruv harakatlarini muvofiqlashtirish, boshqaruv maqsadlariga erishish, tartib va intizomni saqlash uchun nihoyatda zarurdir.

Boshqaruv obyektlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etish (ma'muriy usul)dan foydalanmay turib davlat boshqaruvining maqsad va vazifalariga erishib bo'lmaydi. To'g'ridan-to'g'ri ta'sir etish – boshqariluvchining irodasiga bevosita ta'sirni, buyruq xususiyatiga ega ekanligini, berilgan ko'rsatmalarning bajarilishini rag'batlantirishni o'zida ifoda etadi.

Ma'muriy usullarni quyidagi asoslarga ko'ra tasniflash mumkin:

a)ma'muriy usullar ifodalash shakliga ko'ra: huquqiy (normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan, huquqiy mazmunga ega), tashkiliy (boshqaruv subyekti tomonidan tashkiliy-boshqaruv harakatlarini amalga oshirish) usullarga bo'linadi.

b)ma'muriy usullar ma'muriy-huquqiy xususiyatlariga asoslanib: normativ va individual usullarga bo'linadi.

d)ma'muriy usullar boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra: imperativ, ya'ni taqiplarni, to'g'ridan-to'g'ri

ma'muriy buyruqlarni, davlat-hokimiyat ko'rsatmalarlarini nazarda tutuvchi, shuningdek, tegishli harakatlarni sodir etish yoki tegishli xulq-atvorni amalga oshirishga majburlovchi usullar; vakolat beruvchi, ya'ni ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish yoki boshqaruvning tegishli aktini qabul qilishga ruxsat beruvchi usullar; rag'batlantiruvchi va tavsiya beruvchi, ya'ni rag'batlantirish yoki ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beruvchi usullarga bo'linadi.

Davlat boshqaruvining maqsad va vazifalariga bilvosita ta'sir etish, ya'ni iqtisodiy usullar orqali ham erishiladi. Iqtisodiy usullar boshqariluvchilarga ularning manfaatlarini qondirish, turli imtiyozli shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutuvchi bilvosita ta'sir usulidir.

Iqtisodiy usullarning qo'llanilishi natijasida:

boshqaruv natijalariga erishish uchun boshqariluvchi shaxslarning ongi va irodasiga ta'sir ko'rsatishga;

boshqariluvchi subyektlarning manfaatlariga, ehtiyojlariga ta'sir ko'rsatish orqali, ularning namunali xulq-atvorda bo'lishini ta'minlashga;

ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish va qarorlar qabul qilishni belgilovchi boshqaruv aktlari chiqarishga erishiladi.

Iqtisodiy usullarning qo'llanilishi ma'muriy yoki boshqa usullar bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiy usullar orqali muayyan imtiyozlarning, shart-sharoitlarning o'rnatilishi natijasida boshqaruvning samaradorligiga ma'muriy usullar yoki boshqa ta'sir choralar qo'llanilishi oqibatida erishish mumkin (masalan, soliq-larni o'z vaqtida to'lash huquq subyektlarining majburiyati yoki ular majburiy choralar bilan ta'minlangan bo'lsa-da, iqtisodiy usul sifatida soliq imtiyozi o'rnatish usulining qo'llanilishi natijasida boshqaruv jarayonida muayyan samarali natijaga olib kelishi mumkin).

Iqtisodiy usullarga mehnat jamoalarini ham, alohida xodimlarni ham moddiy rag'batlantirishda foydalaniladigan usullarning barchasi kiradi. Iqtisodiy usullar tizimi foyda, ish haqi, mukofotlar, kredit, baho kabilarni o'z ichiga oladi. Birlamchi davlat yoki mahalliy ishlab chiqarish tashkiloti (korxona, birlashma) darajasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda iqtisodiy rag'batlantirish,

xo'jalik mustaqilligi, soliqqa tortish siyosati kabilar alohida o'rinishda tutadi.

Iqtisodiy rag'batlantirish boshqaruv usuli sifatida rejali ravishda ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan hamda mehnat jamoalari va har bir xodimning ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish hamda uning samaradorligini oshirishdan manfaatdorligini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir.

Iqtisodiy rag'batlantirish ijtimoiy (mehnat jamoalarining manfaatlari) va shaxsiy manfaatlarning; xodimlarning yuksak ongliligiga asoslangan iqtisodiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning; mehnat jamoalari va mansabdar shaxslarning belgilangan topshiriqlar va majburiyatlarni bajarmaganligi hamda ishdagi xatolari uchun moddiy javobgarligini nazarda tutuvchi iqtisodiy jazolarning uyg'unligiga asoslanadi.

Mehnatni moddiy rag'batlantirish ham alohida ahamiyatga ega. U mehnatga ishning miqdori va sifatiga qarab haq to'lash prinsipining qo'llanishini, mehnat natijalarining to'g'ri baholanishini, ish haqining korxona, birlashma, tashkilot foydasi bilan aloqadorligini bildiradi. Moddiy rag'batlantirish turlaridan birini organ, korxona, muassasa va tashkilotlar xodimlarini ish haqi fondidan mukofotlash, yil natijalari bo'yicha mukofotlash hamda moddiy rag'batlantirish fondidan beriladigan bir martalik to'lovlar tashkil qiladi. Rag'batlantirish fondlarining hajmi rentabellik darajasiga, shuningdek mehnat unumdorligining o'sishi, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatining yaxshilanishi kabilarga bog'liqdir.

Mehnat jamoasi (korxona, birlashma) xo'jalik mustaqilligi asosida faoliyat ko'rsatib, ishlab chiqarish faoliyatidan olingan daromadlar hisobidan mahsulot ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot hamda loyiha va konstrukturlik ishlari, mahsulot va texnikaning yangi turlarini o'zlashtirish, boshqaruv apparatini saqlash uchun sarflanadigan xarajatlarni to'liq qoplaydi.

Olinadigan foyda budget, banklar bilan hisob-kitob qilish, ishlab chiqarishni texnikaviy jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish, iqtisodiy rag'batlantirish fondlari va zaxiralarini tashkil qilish uchun ishlatiladi. Daromadlarning xarajatlardan ko'pligi ishning rentabelli ekanidan dalolat beradi. Moddiy manfaatdorlik ikki

tarkibiy qismdan iborat: moddiy rag‘batlantirish va moddiy javobgarlik. Moddiy rag‘batlantirish choralari xodimlarga samarali mehnati uchun mukofotlar ko‘rinishida beriladigan moddiy ne‘matlarning ko‘payib borishini nazarda tutadi. Moddiy javobgarlik choralari esa xodimlarning faoliyati zarar keltirgan hollarda ular oladigan moddiy ne‘matlar miqdorining kamaytirilishini nazarda tutadi.

Boshqaruvning iqtisodiy usullariga kredit kiradi. Kredit yordamida qo‘srimcha kapital sarflashni talab etadigan ishlab chiqarish vazifalari hal qilinadi. Kreditdan foydalanish evaziga ishlab chiqarish va tovarlar shaklidagi fondlarning pul shaklidagi fondlarga aylanish jarayoni tezlashadi, ishlab chiqarish va muomala vaqt qisqaradi, pul mablag‘larining aylanishi tezlashadi. Kredit ishlab chiqarishni kengaytirish hamda fan-texnika taraqqiyotini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larining yirik manbaidir.

Boshqaruvda boshqa iqtisodiy usullar, chunonchi, soliqqa tortish siyosati ham muhim o‘rin tutadi. Ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun soliqning maqbul foizini belgilash ushbu tashkilotning mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishdan manfaatdor bo‘lishiga yordam beradi va aksincha, soliqni asossiz ravishda ko‘paytirish ishlab chiqarish faoliyatini rag‘batlantirmaydi. Jamiyat uchun muhim bo‘lgan ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish maqsadlarida davlat imtiyozli soliqlar belgilaydi.

Boshqaruvning iqtisodiy usullaridan foydalanish ularning samaradorligini nazorat qilishining amaliy tizimi bo‘lishini talab etadi. Ma’lumki, moddiy mukofot, ayniqsa individual mukofot miqdorini oshirish, agar u to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, odatda kutilgan natijaga erishilishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, iqtisodiy usullarni noto‘g‘ri qo‘llash moddiy mukofotlashning kutilgan samara bermasligiga olib kelishi mumkin. Masalan, asossiz ravishda moddiy mukofot berish ko‘p hollarda saibiy oqibatlarga olib keladi, moddiy rag‘batlantirishning ta’sir kuchini kamaytiradi. Mukofot miqdorining haddan tashqari kamligi odatda rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatmaydi.

Ichki ishlar organlarida xodimlarni xizmatda erishgan katta yutuqlari uchun pul mukofotlari, qimmatbaho sovg‘alar bilan mukofotlash, lavozim maoshini oshirish kabi moddiy rag‘batlantirish shakllari keng qo‘llaniladi.

Boshqa iqtisodiy choralar cheklangan sohalarda qo'llaniladi, chunki ichki ishlar organlari ishlab chiqarish faoliyati bilan ularning ishlashi uchun zarur sharoitlarni ta'minlashga kerak bo'lgan darajadagina shug'ullanadilar. Ular davlat budgeti hisobidan molliyalashtiriladilar, shu sababli kredit, soliqqa tortish, foyda, baho kabi usullarni joriy etishning obyektiy sharoitlariga ega emaslar.

Shu bilan birga, boshqaruvning iqtisodiy usullari O'zbekiston Respublikasi IIV tizimiga kiruvchi ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalarining faoliyatida to'liq hajmda qo'llaniladi.

Boshqaruvning ma'muriy va iqtisodiy usullari bilan bir qatorda, insonga ma'naviy, ruhiy ta'sir ko'rsatish usullari keng qo'llaniladi. Shu sababli boshqaruv ta'siri ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik usullari mustaqil guruh sifatida ajratiladi.

Boshqaruvning ma'muriy, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik usullari boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiiga ta'sir ko'rsatishining turli usullarini ifodalaydi hamda o'zaro bog'liqdir. Ushbu usullarning har biri irodaviy yo'nalishga, iqtisodiy mazmunga ega bo'lishi hamda ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatishi mumkin. Boshqaruv amaliyotida usullar bir-biridan ajratilgan holda qo'llanilmaydi. Barcha usullar yagona vazifaga ega, ya'ni boshqaruv maqsadlariga erishishga xizmat qiladi. Ularni muayyan boshqarish subyektlari qo'llaydilar hamda shu boshqarish obyektlarining xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadilar. Bir boshqaruv subyektiga bir vaqtning o'zida bir necha usullar qo'llanishi mumkin. Boshqaruvning barcha usullari mazmuni, aniq maqsadga yo'naltirilganligi va tashkiliy shakliga ko'ra amaldagi qonunchilik hujjalariiga mos kelishi kerak.

Turli xil boshqaruv vaziyatlari, tarmoqlari va sohalarida u yoki bu usullardan ko'proq foydalinish mumkin. Masalan, ishlab chiqarishni boshqarish sohasida iqtisodiy usullar afzal deb topiladi, boshqaruvning ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash sohalarida ijtimoiy-psixologik usullar keng qo'llaniladi; mudofaa, ichki ishlar, milliy xavfsizlik sohalarida ma'muriy usullar ustunlik qiladi.

Boshqaruvning muayyan usullarini tanlash va ularni amalda qo'llash subyektiy va obyektiy xususiyatga ega bo'lgan bir qator omillar bilan bog'liq.

Subyektiv omil boshqaruv ta'siri ko'rsatish usullaridan foydalanishda alohida ahamiyatga ega. Yetarlicha malakaga ega bo'lmanan xodimning boshqaruv usullaridan foydalanishga avtoritar yondashuvi salbiy oqibatlarga, boshqaruv maqsadlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli rahbarlar tayyorgarligining sifati va darajasi, ularning bilimdonligi, shuningdek rahbarlarning qabul qilayotgan boshqaruv qarorlari, ularni amalga oshirish usullarini tanlashi uchun mas'uliyatini oshirish katta ahamiyatga ega.

Boshqaruv usullari boshqaruvning real jarayonida qo'llaniladi. Bunda boshqaruv tizimi oldida turgan maqsad va vazifalar, boshqaruv subyekti va obyektining xususiyatlari, muayyan hayotiy vaziyatning tabiatini va o'ziga xos jihatlari, mavjud usullardan foydalanish samaradorligi, boshqaruv tizimining amal qilishidagi ichki va tashqi holatlar hamda boshqaruv subyektining ixtiyoriga bog'liq bo'lmanan boshqa obyektiv omillar inobatga olinishi lozim.

Shu sababli boshqaruv usullaridan foydalanishning subyektiv omillari obyektiv shart-sharoitdan kelib chiqishi kerak. U ijtimoiy boshqaruvning obyektiv qonuniyatlarini va ehtiyojlariga bo'ysun-dirilishi lozim. Har qanday qaror amaliy tajriba va ishni har tomonlama o'rGANISHGA asoslanishi zarur.

Ichki ishlar organlarining boshqaruv tajribasida, boshqaruvning boshqa tizimlarida bo'lgani kabi, boshqaruv usullarini tanlash va qo'llashda quyidagi vazifalar hal qilinadi: boshqaruv ishini hal qilish uchun eng samarali usullarni yoki ularning eng maqbul majmuuni aniqlash; boshqaruv jarayonida tanlangan usullardan mohirlik bilan foydalanish.

Boshqaruv usullaridan o'zgarib borayotgan obyektiv sharoitlarni va ichki ishlar organlari faoliyatida yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga olmay turib foydalanish boshqaruv usullarini qo'llashda bir xillikka, binobarin, ularning amaliylik xususiyati pasayishiga olib keladi. Aksincha, ulardan boshqaruv jarayonidagi o'zgarishlarni, to'plangan tajribani inobatga olgan holda foydala-nilsa, samarali bo'ladi. Bularning barchasi, pirovardida, ijtimoiy boshqaruv mexanizmi hamda uning tarkibiy qismi bo'lgan boshqaruv usullarini takomillashtirish bilan bog'liqidir.

## **2-§. Ishontirish – davlat boshqaruvinning faoliyatining usuli sifatida**

Yuqorida qayd etilganidek, davlat boshqaruvinning eng asosiy usu'llaridan biri hisoblangan ishontirish usuli – boshqariluvchilarning amaldagi qonunchilik va o'rnatilgan tartib-qoidalarning talablarini ixtiyoriy bajarishlarini nazarda tutadigan ta'sir usulidir. Ishontirish usuli yordamida kishilarning ongi va irodasiga muayyan ta'sir ko'rsatiladi, boshqaruvinning subyektlarining harakatlari maqsadga muvofiqligi hamda ularga bo'lgan e'tiborni shakllantirishga erishiladi. Fuqarolarning qonunlarga, huquqiy tartibotga rioxaya etish hamda bo'ysunish ruhida tarbiyalash bir necha qonunchilik hujjatlarining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 2, 22-moddalariga asosan, shaxsni qonunlarga rioxaya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining eng asosiy vazifalariga kiradi.

Ishontirish usuli quyidagi xususiyatlarga ega:

- a) bu usul fuqarolarga nisbatan doimiy qo'llaniladi;
- b) o'rnatilgan talablarning ixtiyoriy bajarilishiga olib keladi, kishilarni qonunlarga rioxaya etish ruhida tarbiyalashni ta'minlaydi;
- c) ishontirish usulini qo'llash davlat majburlash usulini qo'llashga qaraganda moddiy jihatdan ancha qulay usul hisoblanadi;
- d) bu usul barcha subyektlar tomonidan qo'llaniladi, boshqa usullar (masalan majburlash usuli) maxsus vakolatga ega davlat organlari va jamoa: tuzilmalari tomonidan qo'llaniladi.

Ishontirish boshqaruvinning usuli sifatida boshqaruvinning subyektining boshqariluvchilar ongi va irodasiga, kishilarning xulqiga axloqiy, psixologik, moddiy ta'sir ko'rsatishini bildiradi. Bunday ta'sir boshqaruvinning maqsad va vazifalariga muvofiq keluvchi onglilikni yuzaga keltiradi, mustahkamlaydi va rivojlantiradi, boshqaruvinning subyektining topshiriqlarini anglagan holda bajarishga undaydi.

Ishontirish usuli e'tibor, ichki ishonch, shaxsning ongiga ta'sir etish, shaxs manfaatlarini shakllantirish kabi elementlarga ega. Shu bilan birga ishontirish usuli o'qitish, tashviqot, targ'ibot, tushuntirish ishlari, tanqid, jamiyatga zid xatti-harakatlarni

muhokama qilish, tajriba almashish kabi vositalar (choralar) orqali amalga oshiriladi.

Boshqaruvida rag'batlantirish alohida o'rinni tutadi. Rag'batlantirish deganda, shaxs o'z faoliyatida yoki ijtimoiy birlashini bajarishida erishgan muvaffaqiyatlari uchun uning xizmatlarini ommaviy ravishda e'tirof etish, mukofotlash, jamoada sharaflash kabilar tushuniladi. Rag'batlantirish choralari axloqiy, moddiy hamda axloqiy-moddiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin.

Rag'batlantirish choralariga belgilangan tartibda ta'sis etilgan eng yaxshi ilmiy ishlar, tasviriylar san'at asarlari, sportdagi yutuqlar, maktabda a'llo o'qish kabilalar uchun beriladigan faxrli belgilar, oltin medallar ham kiradi.

Korxona, muassasa va tashkilotlarning ishchi va xizmatchilari uchun belgilangan ichki mehnat tartibi qoidalarida, shuningdek boshqaruvning bir qator tarmoqlarida amal qiladigan intizomiy ustavlar va nizomlarda xodimlarni mehnatdagi yutuqlari uchun rag'batlantirishning bir qator choralari nazarda tutilgan. Masalan, ichki ishlar organlarining intizomiy ustavida xizmat faoliyatida erishilgan muvaffaqiyatlar uchun rag'batlantirishning quyidagi turlari nazarda tutilgan: tashakkur e'lon qilish; pul mukofoti berish, qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlash, Faxriy yorliq bilan mukofotlash, navbatdagi maxsus unvonni muddatidan avval berish, shtat lavozimida belgilangan unvondan bir pog'ona yuqori bo'lgan maxsus unvon berish va hokazo. Xizmat vazifasini bajarish chog'ida ko'rsatgan jasorati va mardligi uchun xodimlar O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

### **3-§. Davlat boshqaruvida ma'muriy majburlash va uning xususiyatlari**

Ma'muriy majburlash davlat majburlovining muhim tarkibiy qismi sifatida ma'muriy huquq normalariga muvofiq qo'llaniladigan huquqiy majbulov turidir.

Yuridik adabiyotlarda «ma'muriy majburlash» atamasining talqiniga oid bir necha yondashuvlarni uchratish mumkin. Ma'muriy majburlashga, eng avvalo, ma'muriy-huquqiy normalar bilan

mustahkamlangan huquqiy majburloving sohaviy turi sifatida qaraladi. Huquqiy tizimning alohida tarmog'i sifatida ma'muriy huquqning tartibga solish predmeti nuqtai nazaridan ma'muriy majburlash davlat boshqaruvi amalga oshirishda joriy etiladi. Ma'muriy majburlov choralarini ma'muriy qonunchilikda mustahkamlanganligini inobatga olgan holda, ushbu majburlov turini tartibga soluvchi normalar ma'muriy huquqning mustaqil huquqiy instituti ma'muriy-huquqiy majburlov instituti sifatida ham e'tirof etiladi. Shu o'rinda ma'muriy-huquqiy majburlash bilan ma'muriy majburlash tushunchalarini bir-biridan farqlash mumkin. Bu tushunchalar o'rtasidagi farqlarning yuzaga kelishiga, «ma'muriy majburlash» atamasining huquqiy asoslari, qo'llash tartibi va subyektlari nuqtai nazaridan taqin qilinishida turli yondashuvlarning mavjudligi sabab bo'lmoqda.

Bu borada ma'muriy huquq lug'atida ma'muriy majburlashni «jamiatning hayotiy faoliyatida (jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligi, ruxsat berish tizimi, sanitariya, yong'in xavfsizligi va b.) ijtimoiy normalar va qoidalarni bajarish maqsadida ijro etuvchi hokimiyat sohasida jismoniy va yuridik shaxslarning munosib xulq-atvorda bo'lishini majburiy ta'minlash usuli» deb ta'rif berilgan<sup>2</sup>. Ushbu tushunchadan ko'riniib turibdiki, ma'muriy majburlashning alohida belgilaridan biri uni ijro etuvchi hokimiyat sohasida qo'llanishidir. Shu bilan birga ma'muriy huquq fanida ijro etuvchi hokimiyat davlat hokimiyat organlarining tizimi sifatida ifodalanadi. Shu bois, ma'muriy majburlashni ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining turli sohalarida qo'llanishini qayd etish mumkin.

Ma'muriy majburlash – qonunchilik hujjatlari bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatiarni muhofaza qilish maqsadida, ma'muriy huquq normalarida belgilangan tartibda davlat boshqaruvi organlari tomonidan, qonunda nazarda tutilgan alohida hollarda sudlar tomonidan qo'llaniladigan davlat majburloving alohida turidir. Mazkur tushunchada ma'muriy majburlashning maxsus belgilari sifatida uni qo'llovchi subyektlar hamda majburiy choralarni qo'llash tartibini belgilovchi normalarni qayd etish mumkin.

Ma'muriy majburlash bilan ma'muriy-huquqiy majburlash o'rtasidagi farq xususida rus olimi Baxrax D.N. fikr yuritib. Ma'muriy-huquqiy majburlash — huquqqa xilof xatti-harakat sodir etilishi munosabati bilan ma'muriy huquq normalarida belgilangan majburlash choralarini funksional hokimiyat subyektlari tomonidan qo'llaniladigan davlat majburloving alohida turidiroq deb qayd etadi. Ushbu tushunchada u ma'muriy-huquqiy majburlov subyekti sifatida «funksional hokimiyat»ni ko'rsatib, faqat davlat organlarigina ma'muriy majburlash subyekti bo'la olishi mumkin degan fikrni ilgari surgan.

Ma'muriy majburlash muammolari xususida juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borgan yana bir rus olimi M.I.Yeropkin ma'muriy majburlash «jamoat xavfsizligini ta'minlash yoki ma'muriy xatti-harakat uchun javobgarlikka tortish, huquqqa xilof xatti-harakatlarni to'xtatish maqsadida fuqarolar, mansabdor shaxslardan yuridik majburiyatlarini bajarishga majbur etishdan iborat qonunda nazarda tutilgan choralarini davlat boshqaruvi organlari, sudlar, ayrim davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo'lган jamoat tashkilotlari tomonidan qo'llanilishi» deb ta'rif beradi. Ushbu tushunchada ma'muriy majburlashning «huquqqa xilof xatti-harakatlarni to'xtatish» maqsadida qo'llanilishi bilan birga uni «jamoat xavfsizligini ta'minlash yoki ma'muriy xatti-harakat uchun javobgarlikka tortish» maqsadida ham qo'llanilishini nazarda tutuvchi maxsus belgilari sifatida qayd etilgan. Bunda muallif ma'muriy majburlashni qo'llash fuqarolar va mansabdor shaxslarning yuridik majburiyatları bajarilishini ta'minlash vazifasini o'taydi deb ta'kidlaydi.

Huquqshunos olim H.R.Alimov esa, ma'muriy majburlashga «davlat boshqaruvi jarayonida ma'muriy huquqbazarlikning oldini olish va aybdorlarni ma'muriy javobgarlikka tortish maqsadida kishilarning ongiga va xulqiga ruhiy, moddiy yoki jismoniy ta'sir ko'rsatish» deb tushuncha bergan.

Yu.I. Starilov va V.G. Rozenfeldlar ma'muriy majburlashga ta'rif berib, uning qonunchilikda nazarda tutilgan ma'muriy sanksiyalarni qo'llash tahdidi bilan subyektlar ongi va xulq-atvoriga ta'sir etish hamda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish maqsadida

qo'llanilishini ifodalovchi belgilarini ko'rsatib o'tadi. Ma'muriy majburlashni qo'llovchi subyektlar doirasiga vakolatli organlar va mansabdar shaxslar qatorida jamoatchilik vakillarini ham kiritadi.

Shunday qilib, ma'muriy majburlash tushunchasiga oid keltirilgan fikrlarni umumlashtirib, davlat majbulovining tarkibiy qismi hisoblagan ma'muriy majburlashning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Ma'muriy majburlash davlat boshqaruvi sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilish maqsadiga ega davlat majbulovining alohida turidir. Ma'muriy-huquqiy normalarda davlat organlari tomonidan huquq-tartibotni ta'minlashda qo'llaniladigan keng doiradagi majburiy ta'sir etish choralar belgilagan. Ta'kidlash joizki, ushbu majburlov turi nafaqat ma'muriy-huquqiy normalar va munosabatlarni, balki boshqa huquq sohasi (mehnat, fuqarolik, yer va b.) normalarini ham qo'riqlaydi.

2. Ma'muriy majburlash davlat boshqaruvi sohasida ijtimoiy munosabatlarni huquqqa xilof xatti-harakatlardan himoya qilish, shuningdek jamoat xavfsizligini ta'minlash vositasi va kafolati hisoblanadi.

3. Ma'muriy majburlash xizmat bo'ysunuvi doirasidan tashqarida funksional hokimiyat subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu munosabatlar tashkiliy bo'ysunuv bo'limganida amalga oshiriladi.,

4. Ma'muriy majburlash subyektlari faqat vakolatli davlat organlari yoki ularning mansabdar shaxslari hisoblanadi. Shuning uchun ham ma'muriy majburlashga xos xususiyatdan biri – sudlov tashqi tartibining qo'llanilishidir.

5. Ma'muriy majburiy ta'sir etish nafaqat alohida shaxslarga balki, tashkilotlar, jamoa subyektlariga ham qo'llaniladi.

6. Ma'muriy majburlash ma'muriy-huquqiy va ma'muriy-protsessual huquq normalari bilan tartibga solinadi, ularda ma'muriy majburlash choralarini qo'llash tartibi va asoslari aniq belgilanadi. Ayrim hollarda alohida choralarini (masalan, maxsus ma'muriy cheklash choralarini) qo'llashning normativ-huquqiy tartibga solinishi tarmoqlararo xususiyatga ega (masalan, pul mablag'larini xatlash fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadi).

7. Ma'muriy majburlash choralari jamoat xavfsizligiga yoki shaxs hayotiga tahdid soladigan holatlarning yuzaga kelishi, ma'muriy huquqbazarliklarning sodir etilishi (yoki sodir etilishi arafasida), shuningdek jinoyatlarning oldini olishda qo'llaniladi.

8. Ma'muriy majburlash choralarini qo'llash tartibi nisbatan oddiyligi bilan farqlanadi. Masalan, ma'muriy-protsessual majburlovda jinoyat-protsessual majburlovga qaraganda huquqiy cheklovlardan hajmi kamroq.

Yuqoridagilarni inobatga olib, ma'muriy-huquqiy majburlovning jismoniy va yuridik shaxslarga yuklatilgan yuridik majburiyatlarlarni og'ishmay bajarishini ta'minlashga qaratilgan, ma'muriy huquq normalarida belgilangan majburiy choralarni vakolatli subyektlar tomonidan qo'llanilishini nazarda tutuvchi huquqiy majburlovning sohaviy turi deb qarash mumkin.

O'z navbatida, ma'muriy majburlash — huquqiy majburlovning sohaviy turi sifatida huquqqa xilof xatti-harakatlarning sodir etilishi yoki jamoat xavfsizligiga yoxud shaxsning xavfsizligiga tahdid soladigan holatlar yuzaga kelishi munosabati bilan aybdor shaxslarning yuridik majburiyatlarini og'ishmay bajarishini ta'minlashga qaratilgan ma'muriy va ma'muriy — protsessual huquq normalarida belgilangan majburiy ta'sir choralarining funksional hokimiyat subyektlari tomonidan qo'llanilishida ifodalangan davlat boshqaruvi usulidir.

Ma'muriy majburlash choralarini tasniflash ma'muriy huquqda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, alohida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Aytish joizki, bugungi kunga qadar ma'muriy-huquqiy fanda ma'muriy majburlash choralariga nisbatan umume'tirof etilgan yagona fikr, qarash yo'q. Shu bilan birga, soha olimlarining ko'pchiligi ma'muriy majburlash choralarini tasniflashda asosiy mezon sifatida huquq-tartibotni ta'minlash usuli va ushbu choralarni qo'llash maqsadini asos qilib oladilar.

Ma'lumki, dastlab rus olimi M.I. Yeropkin ham ma'muriy majburlash choralarini tasniflashda huquq-tartibotni ta'minlash usulidan kelib chiqib, ma'muriy majburlash choralarini uch guruhga taqsimlagan:

- 1) ma'muriy oldini olish choralari;

- 2) ma'muriy cheklash choralari;
- 3) ma'muriy jazo.

Ma'muriy-huquqiy majburlov choralarini ta'sir etish usuliga ko'ra oldini olish, cheklash, jazo turlariga ajratish haqidagi fikrni yana bir necha olimlar qo'llab-quvvatladi.

Yuridik adabiyotlarda ma'muriy majburlash choralarining ushbu tasnifidan tashqari boshqa tasniflari ham mavjud. Jumladan, D.N.Baxrax ma'muriy majburlashning uch turini, ya'ni ma'muriy jazo, ma'muriy cheklash, tiklovchi choralarini qayd etadi. A.P.Korenev esa, ma'muriy majburlash choralarini ma'muriy oldini olish, ma'muriy cheklash, ma'muriy jazc, ma'muriy-protsessual ta'minlash choralariga ajratadi.

Ushbu tasnifda keltirilgan ma'muriy-protsessual ta'minlash choralari O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 285-moddasida sanab o'tilgan. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risida ishlarni yuritishni ta'minlash choralar ma'muriy oldini olish (shaxsni ko'rikdan o'tkazish, ashyolarni ko'zdan kechirish), ma'muriy cheklash (ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, transport vositasini boshqarishdan chetlatish) choralarida o'z ifodasini topgan.

**Ma'muriy oldini olish choralari** ma'muriy huquqbazarlikka yo'l qo'ymaslik niyatida qo'llaniladi. Xususan, bu guruhda odamlar yoki hayvonlar o'rtasida yuqumli kasalliklar paydo bo'lganda shu hududda karantin e'lon qilinishi; davlat chegaralarini yopish; yo'l harakatini cheklash va to'xtatish; transport ustidan texnik nazorat o'tkazish; sanitariya nazorati; yong'inning oldini olish nazorati; hujjatlarni tekshirish; olib ketilayotgan yoki olib kelinayotgan mollarni tekshirish; ichki ishlar organlariga fuqarolarni olib kelish, ro'yxatdan o'tkazish va rasmiy ogohlantirish (agar fuqaroning huquqbazarlik yo'liga kirmoqchi bo'lgani to'g'risida axborot bo'lsa); jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish va hokazolar kiradi.

*Shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish.* O'zbekiston Respublikasi MJKning 289-moddasiga asosan, shaxsni ko'rikdan o'tkazish ichki ishlar organlarining, harbiy soqchilik, havo transportining, bojxona organlari va chegara

qo'shinlarining vakolatli shaxslari, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida bevosita nazarda tutilgan hollarda esa, shunga vakolati bo'lган boshqa organlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsni ko'rikdan o'tkazish ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs bilan bir jinsda bo'lган shaxslar tomonidan va shu jinsdag'i ikki nafar xolis ishtirok etgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Ashyolarni ko'zdan kechirish ichki ishlar organlarining, harbiy soqchilik, havo transportining, bojxona organlarining, chegara qo'shinlarining, soliq organlarining, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalarining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlarining, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan hollarda esa, tegishli vakolati bo'lган organlarning boshqa vakolatli shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

Ashyolarni, ov qilish va baliq tutish qurollarini, qo'lga kiritilgan mahsulotlar va boshqa buyumlarni ko'zdan kechirish, odatda, shu ashyo va buyumlar kimning mulki yoki egaligida bo'lsa, o'sha shaxs ishtirokida amalga oshiriladi. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda, mazkur ashylar, buyumlarni mulkdorsiz (egasisiz) ikki nafar xolis ham ko'zdan kechirib chiqilishi mumkin.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazish va ashylarni ko'zdan kechirish to'g'risida bayonnomaga tuziladi yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga yoxud ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risidagi bayonnomaga tegishinchcha yozib qo'yiladi.

Bojxona muassasalarida shaxsiy ko'rikdan o'tkazish va ashylarni ko'zdan kechirish bojxonaga doir qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sanitariya nazorati. O'zbekiston Respublikasining «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi 1992-yil 3-iyul qonuniga asosan, davlat sanitariya nazorati sanitariya qonunlarining buzilishini oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yishga qaratilgan sanitariya-epidemiologiya xizmatining faoliyatidir. O'zbekiston Respublikasining davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati qaysi idoraga bo'ysunishidan va mulkchilikning shakllaridan qat'i nazar, O'zbe-

**kiston Respublikasi hududida joylashgan davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, biriashmalar sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga rioya etishlari ustidan davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi.**

Sanitariya-epidemiologiya stansiyasi ushbu Qonunga hamda ular to'g'risidagi nizomga muvofiq ish ko'rvuchi tibbiy profilaktik muassasa hisoblanib, sanitariyaga doir va epidemiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari majmui uyushtirilishini va o'tkazilishini te'minlaydi hamda davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar vazirliklari ning, Milliy xavfsizlik xizmatining va Markaziy Osiyo temir yo'llining ishlatilayotgan va qurilayotgan obyektlarida idoraviy sanitariya nazoratini tegishli vazirliklar va idoralarning sanitariya-epidemiologiya stansiyalari amalga oshiradilar.

Sanitariya militsiyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlagan Nizomga muvofiq sanitariya tekshiruvini amalga oshiradi.

Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati idoralari, muassasalarini va mansabdor shaxslari qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'i nazat, sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatiga yo'l-vo'riq ko'rsatib rahbarlik qiladilar, uni uyg'unlashtirib va tekshirib boradilar.

#### **4-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida ma'muriy majburlov**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25- oktabrdagi 270-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to'g'risida»gi Nizomga asosan Ichki ishlar vazirligi huquqi doirasida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamoat tartibini, jamoat xavfsizligini muhofaza qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashni ta'minlash Vazirlikning eng asosiy vazifasi sifatida belgilab qo'yilgan. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy funksiya va vazifalarining mazmuni uning ma'muriy, tezkor-qidiruv, jinoyat-protsessual kabi asosiy faoliyat yo'nalişlarini belgilaydi.

Ichki ishlar organlarning ushbu faoliyat yo'nalishlaridan, ular tomonidan amalga oshiriladigan majburlash choralarini qo'llash tartibi, asoslari va maqsadidan kelib chiqib, quyidagi xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

1. Ichki ishlar organiari faoliyatida ma'muriy majburlash choralarining qo'llanilishi tegishli sohaviy xizmatlarning asosiy funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bularga asosan, huquqbuzarliklarning oldini olish, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligi, yeng'in xavfsizligi, xorijga chiqish, kirish va fuqarolikni rasmiylashtirish kabi xizmatlar kiradi.

2. Ichki ishlari organlar tomonidan majburlash choralarini qo'llashning huquqiy asoslarini qonunchilik hujjatlari va idoraviy-normativ hujjatlari (nizom, yo'riqnomalar) tashkil qiladi.

3. Maxsus ma'muriy majburlash choralarini hisoblangan jismoniy kuch ishlatish (qo'l jangi, sambo usuli), maxsus vositalar (qo'i kishenlari, rezina tayog'i), zarur hollarda quroi ishlatish kabi ta'sir choralarini qo'llash alohida tartibi mavjud.

4. Ma'muriy majburlash choralarini qo'llash vakolatiga ega bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlari o'z hokimiyyat vakolatlarini amalga oshirishda qonunchilik hujjatlari bilan alohida huquqiy muhofazalangan. Masalan, ichki ishlar organlari xodimlarining g'ayrihuquqiy harakatlarni to'xtatish to'g'risidagi farmoyishini bajarmaslik ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb hisoblanadi yoki ichi ishlar organi xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy oldini choralariga: hujjatlarni tekshirish, ma'muriy nazorat, transport vositalari va yo'lovchilarning harakatlanishini taqilash (cheklash), shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish (MJTK 289-m.), ashyolar va hujjatlarni olib qo'yish (MJTK 290-m.) kiradi.

*Hujjatlarni tekshirish* vaqtida fuqarolarning kimligi, tekshirilayotgan hujjatlarning haqiqatan shu shaxsga tegishliliqi hamda hujjatlarning haqiqiyligi aniqlanadi. Ichki ishlar organlari xodimlari bir shaxsni jinoyat sodir etganlikda gumon qilsa, fuqarolardan

o'z shaxsini tasdiqllovchi hujjat ko'rsatishni talab qilishlari mumkin. Yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari transport haydovchilarning haydovchilik guvohnomalarini, texnik pasporti yoki yo'l varnqasini tekshirishlari mumkin.

Ichki ishlar organlari tomonidan ma'muriy nazoratni shartli ravishda umumiy va maxsus turlarga ajratish mumkin. Ichki ishlar organlarining umumiy nazorati deb, - ichki ishlar organlarining kundalik ma'muriy faoliyatida davlat-hokimiyat vakolatlari doirasida o'matilgan qoidalarga rioya qilinishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi. Bunday nazoratga pasport tizimi qoidalari, nazorat-litsenziya, yong'in xavfsizligi, yo'l harakati havfsizligi qoidalariiga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat kiradi.

Ma'muriy nazorat quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

a) ma'muriy nazorat qonun va qonun osti hujjatlarining talablarini amaliyotga joriy etish bo'yicha ichki ishlar organlari ma'muriy faoliyatining shakllaridan biri;

b) ma'muriy nazorat xuquqbazarliklarning oldini olish, uni to'xtatish maqsadida amalga oshiriladi;

d) ma'muriy nazorat qonun talablarini jamoat ta'siri yoki davlat majburlov choralarini vositasi yordamida huquqbazarliklardan muhofaza etadi.

*Jinoiy jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat* (maxsus ma'muriy nazorat). O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati to'g'risida»gi 1992-yil 9-dekabr qonuniga asosan tashkil qilinadi.

Ma'muriy nazoratning asosiy maqsadi ilgari sudlanganlar tomonidan takror jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, ularning ijobiy yo'lga kirishiga yordamlashishdan iborat. Ma'muriy nazorat vaqtida nazorat ostidagi shaxsning boshqa huquq va qonuniy manfaatlariga putur yetkazilmasligi, kamsitilmasligi va ish, o'qish va istiqomat joyida obro'si to'kilmasligi lozim.

Ma'muriy nazorat voyaga yetgan quyidagi shaxslarga nisbatan o'rnatiladi:

a) og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki

yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ularning jazoni o'tash davridagi xulq-atvori tuzalish va halol mehnat qilib kun kechirish yo'liga o'tishni asio istamaganliklaridan dalolat bersa;

b) og'ir jinoyatlari uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlari uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ular jazo muddatini o'tab bo'lganlaridan so'ng ichki ishlar organlarining jamiyat uchun zararli kun kechirishni to'xtatish to'g'risidagi ogohlantirishiga qaramay jamoat tartibini muntazam buzayotgan va fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazayotgan bo'lsa;

d) o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan.

Ma'muriy nazoratga olingan shaxslarga nisbatan quyidagi taqiqlovchi ma'muriy oldini olish choralar qo'llanilishi mumkin:

a) ichki ishlar organlari belgilab kuygan vaqtida uy (kvartira) dan chiqib ketish;

b) tuman (shahar)ning muayyan joylarida bo'lish;

d) ichki ishlar organlarining ruxsatsiz tuman (shahar)dan tashqari chiqib ketish;

f) ro'yxatdan o'tish uchun har oyda bir martadan to'rt martagacha militsiyaga kelib uchrashish zarurligi.

Yuqorida ko'rsatilgan choralar to'la hajmda yoki ayrim-ayrim yo'sinda qo'llaniladi. Cheklashlar ro'yxati uzil-kesil hisoblanadi, unga qo'shimchalar qilish yoki kengaytirib baholash mumkin emas.

Sudyaning qarori ma'muriy nazorat o'rnatish uchun asos hisoblanadi. Ma'muriy nazorat olti oydan bir yilgacha belgilanadi. Bu muddat ichki ishlar organlarining taqdimnomasiga binoan har safar yana olti oyga uzaytirilishi mumkin, lekin uzaytirilgan nazorat muddati mazkur jinoyat uchun belgilangan sudlanganlik muhlatining tugashi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi uchun qonunda nazarda tutilgan muddatlardan oshmasligi lozim. Cheklashlar ro'yxati nazorat ostidagi kishining shaxsi, uning turmush tarzi va xulq-atvoriga qarab, «Jinoiy jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar organlarining

ma'muriy nazorati to'g'risida»gi qonunning 5-moddasida nazarda tutilgan choralar doirasida sudya tomonidan qisqartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

Ma'muriy nazorat quyidagi hollarda to'xtatiladi:

a) ma'muriy nazorat olib borish uchun belgilangan muddat lugangandan keyin uni uzaytirishga asos bo'lmasa;

b) basharti nazorat ostida bo'lgan shaxs muddatidan ilgari, tuzalish yo'liga qat'iyan o'iganligi, ishda va turmushda o'zining yuxshi tomonlarini ko'rsatganligi aniqlangan bo'lsa;

d) nazorat ostida bo'lgan shaxsning sudlanganlik muddati lugagan yoki sudlanganligi olib tashlangan hollarda.

***Ichki ishlar organlari tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy cheklash choralar.*** Bu choralarga ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, transport vositasini boshcarishdan chetlatish, transport vositasini ushlab turish, majburiy davolash kabi choralar kiradi.

*Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish* — huquqbuzarning shaxsiy erkinligini vaqtincha cheklab qo'yishdir. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risida bayonnaoma tuzilishi kerak. Ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko'ra, u ushlab turilgan joy haqida uning qarindosh-urug'lariga ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyatga xabar beriladi. Voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslar albatta xabardor qillindi.

Ma'muriy ushlab turish ichki ishlar organlari, chegara qo'shnilar, harbiy soqchilikning katta mansabdor shaxsi, harbiy avtomobil nazoratining mansabdor shaxsi, harbiy avtomobil nazoratining mansabdor shaxslari tomonidan qo'llanishi mumkin.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish uch soatdan oshmasligi kerak. Mayda bezorilik qilgan shaxslar ularning ishi sudya yoki ichki ishlar organi boshlig'i (boshliq o'rinnbosari) tomonidan ko'rib chiqilgunga qadar ushlab turilishi mumkin.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati huquqbuzar bayonnaoma tuzish uchun olib kelgingan paytdan boshlanadi, mast holdagi shaxslar uchun esa bu muddat ular hushyor tortgandan boshlab hisoblanadi.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddatlari O'zbekiston Respublikasi MTKning 288-moddasida ko'rsatilgan. Unga asosan,

Ma'muriy yo'1 bilan ushlab turish uch soatdan ortiq davom etishi mumkin emas. Ayrim hollarda alohida zarurat munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida ma'muriy yo'1 bilan ushlab turishning boshqacha muddatlari belgilanishi mumkin.

Chegara tartibini yoki O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o'tish punktlaridagi tartibni buzgan shaxslar bayonnomalar tuzish uchun uch soatgacha ushlab turilishi mumkin, huquqbuzarning shaxsini va huquqbazarlik holatlarini aniqlash uchun zarur hollarda esa - ushslash paytidan boshlab yigirma to'rt soat ichida prokurorga yozma tarzda ma'lum qilib, uch sutkagacha yoki huquqbuzarda o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo'limasa, prokuroring sanksiyasi bilan o'n sutkagacha ushlab turilishi mumkin.

MJTKning 56–58, 61, 90-moddalarida, 164-moddasining 3-qismida, 170, 18Z, 184, 184I, 184i, 191, 194, 195, 201, 204–206, 210-moddalarida, 225-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan yoxud o'zining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirgan shaxslarning huquqbazarlik to'g'risidagi ishi ma'muriy ishlar bo'yicha sudya yoki ichki ishlar organi boshlig'i (boshliq o'rinnbosari) tomonidan ko'rib chiqilgunga qadar, lekin uzog'i bilan 24 soatgacha ushlab turilishi mumkin.

Transport vositalarini ushlab turish O'zbekiston Respublikasi MJTKning 291-moddasiga asosan transport vositalarini haydovchilar tomonidan MJTKning 125-moddasining 4 va 5-qismlarida, 126, 131, 135, 1351, 136, 1Z7, 1763-moddalarida, 194-moddasida (militsiya xodimining transport vositasini to'xtatish to'g'risidagi qonuniy talabini bajarmaslik hususidagi qismi) nazarda tutilgan huquqbazarlik sodir etilganda, shuningdek qonunchilik hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan boshqa hollarda – ichki ishlar organlari tomonidan ushlab turiladi.

Majburiy davolash. O'zbekiston Respublikasining «Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka mubtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida»gi 1992-yil 9-dekabr qonuniga asosan surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka mubtalo bo'lgan bemorlarni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining maxsus davolash-oldini olish

muassasalarida mehnatga muqarrar jalb etish orqali majburiy davolash belgilab qo'yilgan. Jamoat tartibini, boshqa shaxslarning huquqlarini buzayotgan, yoxud aholining osoyishtaligiga, salomatligiga va ma'naviyatiga xavf tug'dirayotgan surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka mubtalo bo'lgan bemorlarga nisbatan majburiy davolash qo'llaniladi.

Shaxsni surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka mubtalo bo'lgan bemor deb topish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda tegishli davolash muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxs majburiy davolashga jo'natish uchun tibbiy ko'rikdan o'tishdan bosh tortgan hollarda, u ichki ishlar idoralarining ko'magida o'n kun mudat ichida narkologiya muassasasida majburiy turzda tekshirilishi kerak.

Mazkur toifadagi shaxslarni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi materiallar tibbiy xulosa bo'lgan taqdirda ichki ishlar organlari tomonidan ularning o'z tashabbusiga ko'ra, yoki bemorning oila a'zolari yoxud qarindoshlarining, mehnat jamoalarining, sog'liqni saqlash muassasalarining iltimosnomalari asosida tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi.

Sudning shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi qarori ichki ishlar organlari tomonidan bu qaror qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab kechi bilan o'n kun muddat ichida ijro etiladi.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Davlat boshqaruvi faoliyatining usullari deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat boshqaruvi usullarining turlarini sanab bering.
3. Boshqaruuv usullarining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ifodalanadi?
4. Ishontirish usuli haqida tushuncha bering.
5. Ma'muriy majburlash usuli tushunchasi, turlari haqida so'zlab bering.
6. Ma'muriy majburlash usulining o'ziga xos xususiyatlari qanday?
7. Ma'muriy majburlash choralarini tasniflab bering.
8. Ichki ishlar organlari tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy majburlash choralar haqida tushuntirib bering.
9. Ma'muriy nazoratni amalga oshirish tartibi qanday?
10. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish tartibi va muddatlari haqida so'zlab bering.

*To 'rtinchi bo 'lim*  
**MA'MURIY HUQUQBUZARLIK VA**  
**MA'MURIY JAVOBGARLIK**

---

*X bob*  
**MA'MURIY HUQUQBUZARLIK**

**1-§. Ma'muriy huquqbazarlik tushunchasi  
va yuridik xususiyatlari**

Yuridik adabiyotlarda ma'muriy javobgarlikni qo'llashning ikki asosi ko'rsatib o'tilgan: *birinchisi*, qonunning huquqiy (normativ) asosi sifatida; *ikkinchisi* — ma'muriy nojo'ya xatti-harakatning (huquqbazarlik) faktik asosi sifatida1.

Har ikki asos ham O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining (keyingi o'rnlarda MJTK) 1-moddasida ma'muriy javobgarlikning huquqiy (normativ) asosi mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 10-moddasiga binoan esa, ma'muriy huquqbazarlik deganda (faktik asos) qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayri-huquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Huquq nazariyasiga ko'ra, har qanday yuridik javobgarlikning asosini qonunga xilof, aybli qilmish (harakat yoki harakatsizlik), ya'ni huquqbazarlik tashkil etadi. Huquqbazarliklar o'zining mazmuni, yuridik xususiyatlari va tarkibiga ega bo'lib, turli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Huquqbazarlik *ijtimoiy ma'noda*, fuqarolar, jamiyat huquqlari va qonuniy manfaatlariga xavfni vujudga keltiruvchi xulq-atvor bo'lib, u goktimoiy munosabatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va ularning buzilishiga olib keladi. Huquqbazarlik qasddan yoki

chtiyotsizlik orqasidan sodir etiladigan xulq-atvor bo'lib, uning mutiyasida jamiyat, davlat va fuqarolar manfaatlariga moddiy yoki ma'naviy zarar yetkaziladi.

Huquqbazarlik o'matilgan xulq-atvor qoidalarining buzilishida hisoblanadi. Ma'muriy huquqbazarlik uch xil alomatni o'z ichiga oladi:

- 1) g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik;
- 2) aybdorlik;
- 3) javobgarlikka tortish.

Ma'muriy qonunchilik tomonidan taqiqlangan g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik g'ayrihuquqiy ma'muriy huquqbazarlik deb hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi sohasida sodir etiladigan va ko'p uchraydigan huquqbazarlik ko'rinishlaridan biri - *ma'muriy huquqbazarlikdir*.

Ma'muriy huquqbazarlikning mazmuni amaldagi qonunchilikda aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lib, quyidagi *umumiyy xususiyatlarga ega*.

*Birinchidan*, ma'muriy huquqbazarlik — *ijtimoiy zasarli* hisoblanadi, ya'ni uning sodir etilishi jamiyat va fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga moddiy va ma'naviy zarar yetkazadi.

*Ikkinchidan*, ma'muriy huquqbazarlik — *ma'muriy huquqqa xilof* hisoblanadi, ya'ni bunday xatti-harakatlarni sodir etish qonunchilik hujjatlarda to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan.

Ayrim hollarda, ma'muriy huquqbazarlik ma'muriy-huquqiy normalarni buzish ma'nosida talqin qilinadi. Lekin ma'muriy-huquqiy normalar turli ko'rinishga ega, masalan, namunali xulq-atvor qoidalarini o'matuvchi, tartibga soluvchi ma'muriy-huquqiy normalar va bu qoidalarning buzilishi uchun javobgarlik o'matuvchi, muhofaza etuvchi ma'muriy-huquqiy normalar.

Huquqbazarliklarga qarshi kurashda, odatda, uch ko'rinish-dagi: intizomiy, ma'muriy va jinoiy jazo sanksiyalaridan foydalaniadi. Mazkur sanksiyalar barcha huquq tarmoqlarida muhofaza qilish vazifasini bajaradi. Masalan, konstitutsiyaviy, moliya, mehnat, fuqarolik, yer va boshqa huquq tarmoqlari ma'muriy javobgarlikning tartibga soluvchi normalari orqali muhofaza qilinadi.

Shu sababli, ma'muriy huquqbuzarlik umumiylar ma'muriy-huquqiy normalar buzilishi sifatida emas, balki aniq tartibga soluvchi normalar buzilishi sifatida talqin qilinishi lozim.

*Uchinchidan*, ma'muriy huquqbuzarlik *qilmishdir*. Ma'muriy huquqbuzarlik - bir yoki bir necha insonlarning ongli va irodali harakati yoki harakatsizligida ifodalanadi.

*To 'rtinchidan*, ma'muriy huquqbuzarlik - jismoniy shaxs tomonidan sodir etiladigan qilmishdir. O'zbekiston Respublikasi ning MTKga binoan ma'muriy huquqbuzarlikning subyekti sifatida faqatgina jismoniy shaxslar namoyon bo'lishi mumkin.

*Beshinchidan*, ma'muriy huquqbuzarlikda aybning mavjudligi, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etiladigan ongli, irodali qilmish hisoblanadi.

*Oltinchidan*, ma'muriy huquqbuzarlik *jazoga sazovor* qilmishdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi MTK 10-moddasining 1-qismiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonunchilik hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan qilmish tushuniladi.

Shunday qilib, *ma'muriy huquqbuzarlik deganda* — qonun hujjatlariga binoan, ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, fuqaroning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Huquqbuzarlikning barcha xususiyatlari hisobga olinib, shaxsnini amaldagi qonunlarga binoan jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas, deb hisoblangan taqdirda, bu huquqbuzarlikka nisbatan ma'muriy javobgarlik amalga oshiriladi. Javobgarlikka tortish - huquqbuzarlikning asosiy xususiyatlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi MTK 10-moddasining 2-qismiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik uchun, agar bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmasa, ma'muriy javobgarlik kelib chiqadi. Lekin jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladigan holatlar mazkur Kodeksda nazarda tutilmagan. Faqatgina, MTK 271-moddasining 8-bandida ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs xususida shu fakt

yuzasidan *jinoyat* *ish qo'zgatilgan bo'sa*, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risida ish yuritishni boshlash mumkin emasligi, boshlangan ishning esa tugatilishi lozimligi belgilangan.

Bundan tashqari, yuridik adabiyotlarda «*huquqbazarlik*» va «*nijo'ya xatti-harakat*» terminlari ko'rsatib o'tilgan. Bu terminlar mazmuni va xususiyatlari jihatidan o'xshab ketadi. Lekin huquqbazarlik keng tushuncha bo'lib, huquq nazariyasiga binoan, barcha huquqbazarliklar jinoyat yoki nojo'ya xatti-harakat sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ma'muriy, intizomiy huquqbazarliklar ma'muriy, intizomiy nojo'ya xatti-harakat sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'muriy huquqbazarlik o'z nomi ham g'ayrihuquqiy xatti-harakatdir. Bu qilinishi taqiqlangan narsani sodir etish yoki huquqiy norma bilan buyurilgan narsani qilmaslikdir. Kodeksning ba'zi moddalarini muayyan turdag'i huquqbazarliklarga ta'rif berishda gipotezani (dispozitsiyani) va huquqiy norma sanksiyasini o'z ichiga oladi, lekin ko'pincha u «qoidalarni buzish...» degan havola qiluvchi ifodani qo'llaydi (so'ngra aynan qanday qoidalar haqida gap borayotgani ko'rsatiladi va sanksiya qo'llaniladi).

O'zbekiston Respublikasi MJKda *ma'muriy huquqbazarliklar tajovuz qiladigan ijtimoiy munosabatlar* doirasi atroflicha tavsiflab berilgan. Ularga aholining sog'lig'iga, mulkiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi, sanoat, qurilish, issiqlik va elektr energiyasidan foydalanishdagi, savdo va moliya kabi sohalardagi ma'muriy huquqbazarliklar kiradi.

Qonun chiqaruvchi ma'muriy huquqbazarliklarga umumiyligi berishda ularni jinoyatlardan farqli o'laroq ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar deb atamagan. Bu bilan huquqbazarliklarning mazkur ikki turi o'rtasidagi farktlar qayd etilgan. Ama oldagi qonunchilik hujjatlarida esa javobgarlikning sodir etilgan aybga muvofiqligini tu'minlash va davlat majburloving haddan tashqari kengayishiga barham berilishi nazarda tutilgan. Ma'lumki, sodir etilgan jinoyatlar uchun sanksiyalar jinoyatga oid qonunchilik hujjatlarida «jazolash» deb atalgan, xususan, «jazo» sifatida tavsiflangan. Ma'muriy huquqda esa «jazolash» va «jazo» atamalari yo'q va jinoyatlar bilan ma'muriy huquqbazarliklar uchun beriladigan sanksiyalar shu bilan sifat jihatidan farq qilishi ta'kidlangan.

Ma'muriy huquqbazarliklar uchun ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxslarning qonunlarga rioya qilish, umumiy yashash qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, huquqbazarlarning ham, boshqa shaxslarning ham yangi huquqbazarliklar sodir etishining oldini olish maqsadida faqat «javobgarlik me'yori» tatbiq etiladi. Binobarin, qonun chiqaruvchi ma'muriy jazo qo'llash maqsadini aniqlash vaqtida jinoiy jazo maqsadidan farqli o'laroq, «tuzatish va qayta tarbiyalash» ko'rsatib o'tilmaydi, bu ham jinoyat sodir etgan shaxslarga qo'llaniladigan choralar bilan ma'muriy huquqbazarlikka yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan (bular, odatda, tuzatish va qayta tarbiyalashga muhtoj emas) qo'llaniladigan choralar o'rtasidagi farqni bildiradi. Biroq, ma'muriy huquqbazarliklar orasida jinoyatlarga tutashib ketadiganlari va ularga yaqinlari ham bo'ladi. Ana shu «chegara mintaqasi»ga nisbatan huquqbazarliklarni to'g'ri tasniflash muammosi juda muhim va ayni vaqtida murakkabdir.

MJTK Maxsus qismining ko'pgina moddalaridagi ma'muriy huquqbazarliklar bilan ularga yaqin jinoyatlar o'rtasida aniq chegara mavjud emas. Bunday chegara hamisha ham ko'zga tashlanavermaydi va ular faqat Jinoyat kodeksi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalari qiyoslangandagina ko'zga tashlanadi. Qonun chiqaruvchi chegara chiziqlari sifatida quyidagi belgilardan foydalanadi: og'ir oqibatlarning mavjudligi, ana shunday oqibatlarning ro'y berishi mumkinligi; huquqbazarlik yetkazgan zararning miqdori; ma'muriy jazo qo'llanilgan taqdirda huquqbazarlikning takrorlanishi yoki bir necha marta sodir bo'lishi, qasddan yoki ehtiyoitsizlik oqibatida sodir etilishi, ya'ni qasddan ayb ekanini bila turib sodir etilishi jinoyat hisoblanadi (jinoyat belgilari orasida kamdan-kam hollarda foydalaniladi). MJTKning 10-moddasiga ko'ra ma'muriy hukuqbazarlik sodir qilganlik uchun qonunchilik hujjalarda javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, bu javobgarlik boshqa jinoiy, intizomiy, moddiy va boshqa javobgarlikdan farqli bo'lgan ma'muriy javobgarlikdir. Chunki hamma uchun majburiy bo'lgan qoidalarning barchasi ham ma'muriy javobgarlik orqali muhofaza qilinavemasligini hisobga olish kerak.

Qonunda ma'muriy huquqbazarlik belgilari ifodalangan harakat yoki harakatsizlikning subyektiv tomoniga katta e'tibor beriladi va shuni hisobga olgan holda ma'muriy huquqbazarlikni u bilan tashqi tomonidan o'xhash obyektiv g'ayrihuquqiy xulq-atvordan, u bilan rasman o'xhash bo'lgan harakatlardan farq qilinadi. Masalan, oxirgi zarurat, zaruriy mudofaa va g'ayrihuquqiy holatda, qonunga ko'ra, ma'muriy huquqbazarlik yo'q va shu sababli ma'muriy javobgarlik istisno qilinadi.

Ma'muriy javobgarlik ommaviy huquqiy xususiyatga ega. Bu davlat va uning vakolatli organlari oldidagi javobgarlikdir. Agar ma'muriy huquqbazarlik sodir etish bilan biron-bir kishiga mulkiy zarar yetkazilgan bo'lsa, u holda bu zaramni qoplash masalasi alohida (zaramning miqdori va ishni hal qiladigan organga qarab) hal etiladi yoki ma'muriy tartibda huquqbazarlik haqidagi ishni ko'rib chiqish bilan bir vaqtida sud tomonidan umumiylar da'vo bildirish tartibida hal qilinadi. Birinchi holda biz yangi huquqiy hodisani, ma'muriy ishdagi fuqarolik da'vosini bildirishga o'xhash bir holatni ko'ramiz. Zararni bunday qoplash ma'muriy javobgarlik hisoblanmaydi.

Qonunchilik hujjalarda huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish mumkinligi ham nazarda tutilgan. Ma'muriy huquqbazarlik kam ahamiyatli bo'lgan taqdirda organ, mansabdor umuman ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin, bu esa ma'muriy jazo hisoblanmaydi. Bu o'rinda ma'muriy huquqbazarlik yuqqol ko'rinish tursa ham uning uchun javobgarlik belgilanmagan. Mazkur xatti-harakat uchun qonunchilik hujjalarda aynan ma'muriy javobgarlik ko'zda tutilganligi va uning o'zi shu sababli ma'muriy huquqbazarlik hisoblanishi fakti bunday xatti-harakat uchun javobgarlikning boshqa turi bo'lgan intizomiy javobgarlikning qo'llanishini aslo istisno qilmaydi. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi qonunchilik hujjalari bunday huquqbazarlik sodir etganimda ayrim toifadagi xodimlar uchun ma'muriy javobgarlik emas, balki bevosita intizomiy javobgarlik qo'llanishini nazarda tutadi, bu esa huquqqa zid xatti-harakatlarga bir vaqtning o'zida ma'muriy hamda intizomiy xatti-harakat sifatida ikki tomonlama baho berish bilan bog'liqdir. Masalan, harbiy xizmatchilar hamda

ichki ishlar organlarining oddiy askar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar ma'muriy huquqbazarliklar uchun ma'muriy emas, balki intizomiy javobgar bo'ladilar. Qonunchilik hujjatlarida yuridik jihatdan ikki tomonlama baho beriladigan, ya'ni ham intizomiy, ham ma'muriy jazo beriladigan ayni bitta xatti-harakatga nisbatan taqiqlash mavjud emas.

*Ma'muriy huquqbazarlikning o'ziga xos xususiyatlari.* Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, davlatning huquqiy tizimi, odatda jinoiy, ma'muriy va intizomiy jazo sanksiyalari bilan muhofaza qilinadi. Jumladan, aniq holatlarga qarab saylov huquqini, mulkchilikni, mehnat, sanitariya, ekologiya qoidalarini buzganlik uchun jinoiy, ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik qo'llanilishi mumkin. Ushbu javobgarliklarning *birinchi* o'xhash tomoni shundaki, ular huquq-tartibotni muhofaza qiladi; *ikkinchidan*, bu javobgarlik sanksiyalari qonunlar bilan o'matilgan; *uchinchidan*, ular huquqqa xilof aybli qilmish (huquqbazarliklar) uchun qo'llaniladi; *to'rtinchidan*, qonunchilik hujjatlarida javobgarlikni qo'llash jarayoni va uni qo'llovchi organlarning vakolatlari ko'rsatib o'tilgan; *beshinchidan*, ularni qo'llash avbdor shaxsga nisbatan «noxush» oqibatlarga, shuningdek, ma'lum muddatga javobgarlikka tortilganlikka (masalan, jinoyatda sudlanganlik, ma'muriy va intizomiy javobgarlikka tortig'anlikka) olib keladi.

Demak, jinoiy, ma'muriy va intizomiy javobgarlik ko'pgina o'xhash tomonlarga ega. Lekin qonuniylik tartibini ta'minlashda huquqbazarlikni tasniflash, avbdor shaxsni qonuniy va asoslan-tirilgan jazoga tortish maqsadida, huquqbazarlik ko'rinishlарini farqlash lozim.

*Jinoyat* nojo'ya (ma'muriy, intizomiy) xatti-harakatdan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu birinchi navbatda, huquqqa xilof qilmishning ijtimoiy xavfi va turiga tegishli. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasiga binoan ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan *jinoyat* deb topiladi. Ushbu Kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfni keltirib chiqaradigan qilmish – *ijtimoiy xavfli qilmish* deb topiladi.

Ma'lumki, har qanday huquqqa xilof qilmishdan kelib chiqadigan moddiy, ya'ni jamiyatga yetkaziladigan zarar darajasi birlinchi o'rinda turadi. Aynan unga qarab huquqqa xilof qilmishning turi: jinoiy, ma'muriy yoki intizomiy huquqbuzarlik ekanligi masalasi hal qilinadi. Ikkinchidan, mazkur javobgarliklarni farqlashda ularning turli protsessual normalar orqali tartibga solinganligi, shuningdek, sudlanganlik, ma'muriy yoki intizomiy javobgarlikka tortilganlik masalasi e'tiborga olinadi.

Yuridik adabiyotlarda, huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfliligi masalasi bo'yicha ikki xil yondashuv mavjud. Ko'pgina huquqshunos olimlar, huquqbuzarliklarning barchasi ijtimoiy xavfli, ya'ni ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan xatti-harakatlar jinoyat, nojo'ya xatti-harakatlar esa, kam ahamiyatli huquqbuzarlik, deb ko'rsatadilar.

Ba'zi huquqshunos olimlarning ko'rsatishicha, huquqbuzarliklar o'rtasida miqdoriy daraja (ijtimoiy xavfning yuqori yoki kam ahamiyatlili) emas, balki aniq sifat darajasida farqlar mavjud. Jinoyat — ijtimoiy xavfli, nojo'ya xatti-harakatlar esa, ijtimoiy xavfli emas.

Huquqbuzarlikda ijtimoiy xavfning mavjudligi yoki yo'qligi masalasi tegishli davlat organlari vakolatiga mansub va huquqbuzarlik tarkibining xususiyatlarini aniqlash orqali hal qilinadi.

Nojo'ya xatti-harakatlarning ijtimoiy xavfli qilmishga kirishi yoki kirmasligi masalasi ancha vaqtidan buyon munozarali bo'lib kelmoqda. Ijtimoiy xavfli qilmishning aniq darajalari o'matilmas ekan, yagona qarorga kelish mushkuldir. Masalan, belgilanmagan joydan ko'chani kesib o'tish, transportda chiptasiz yurish, harbiy ro'yxatda turish majburiyatini bajarmaganlik va boshqa shunga o'xhash xatti-harakatlar ijtimoiy xavfli deb topilsa, «ijtimoiy xavfli» degan ibora tushunchasi nima, bu tushunchaning chegarasi qiyerda, degan savol vujudga keladi.

*Ijtimoiy xavfli qilmish* — ijtimoiy munosabatlarga ma'lum bir zurna keltiradigan yoki keltirishi mumkin bo'lgan qilmishdir. Bunday xatti-harakatlar yig'indisi muayyan sharoitda, jinoyat yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, barcha huquqbuzarlikni (shuningdek, ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlarni) ijtimoiy xavfli qilmish deb topish mumkin emas.

Ba'zi huquqshunos olimlar, ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlarda ijtimoiy xavfning bo'lishini, butunlay inkor etadilar. Lekin umumiy qoidaga to'g'ri kelmasa ham, ba'zi bir nojo'ya xatti-harakatlar ijtimoiy xavfni vujudga keltirishi mumkin.

Nojo'ya xatti-harakatlar, odatda, ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ega bo'lmay, *ijtimoiy zararli qilmish* hisoblanadi.

Demak, jinoyatning nojo'ya xatti-harakatdan asosiy farqi shundaki, unda qilmish ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Masalan, aynan bitta ko'rinishga ega bo'lgan, lekin ikki xil javobgarlikni vujudga keltiradigan huquqbuzarlikni, ya'ni jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik o'rtasidagi farqni, ijtimoiy xavflilik darajasida ko'rish mumkin. Jumladan, *O'zbekiston Respublikasi MJTKning 41-moddasiga binoan haqorat qilish*, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi. *O'zbekiston Respublikasi JKning 140-moddasiga binoan esa, haqorat qilish*, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodobiik bilan qasddan tahqirlash, basharti, shunday harakatlar ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoyat hisoblanadi. Bunda, haqorat qilish harakati ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng, qayta sodir etilishi ijtimoiy xavfni (jinoiy qilmishni) vujudga keltiradi.

Qonun chiqaruvchi ma'muriy huquqbuzarliklarga tavsif berar ekan, jinoyatlardan farqli o'laroq, ularni ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar deb atamagan (Qarang, O'zbekiston Respublikasi MJTK 10-moddasining 1-qismi). Bu bilan mazkur huquqbuzarliklar ikki turining sifat jihatdan farqlari qayd etilgan.

Masalan, ma'muriy huquqbuzarlik bilan jinoyat o'rtasidagi farqlovchi xususiyatlar (chegara chiziqlari) sifatida: birinchidan, og'ir oqibatlarning mavjudligi, ularning ro'y berishi mumkinligi; ikkinchidan, huquqbuzarlik oqibatida yetkazilgan zararning miqdori; uchinchidan, ma'muriy jazo qo'llanilgandan so'ng takroran huquqbuzarlik sodir etish va boshqalar ko'rsatib o'tiladi.

Qilmish jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tasniflangandan so'ng, javobgarlikka tortish tartibi, jazo chorasi va boshqalarda namoyon bo'luvchi ikkinchi darajali xususiyatlar vujudga keladi.

Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga binoan 16 yoshga to'lgan fuqarolar, Jinoyat kodeksiga binoan esa, ayrim Jinoyatlar uchun 13 yoshga to'lgan fuqarolar javobgarlikka tortiladi.

Ma'muriy javobgarlikda uni qo'llash jarayoni soddalashtirilgan (masalan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga bayonnomani tuzish orqali ma'muriy jazoni qo'llash mumkin), jinoyacla esa, jinoyat-protsessual qonunchiligidagi nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshirish lozim; ma'muriy Javobgarlik sud va boshqa davlat organlari tomonidan, jinoiy javobgarlik esa, faqatgina sud organlari tomonidan qo'llanishi mumkin va hokazo.

Ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlar bilan intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarni taqqoslaganda, ularning ikkalasi ham ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanmasligini e'tiborga olish lozim. Lekin ularning formal xususiyati - huquqqa xilosligi nuqtai nazaridan kelib chiqqanda, ma'lum farqli tomonlar mavjud. Ma'muriy huquqbuzarlik bilan bog'liq barcha holatlar: uning tarkibi, sanksiyalar tizimi va boshqalar ma'muriy huquq bilan tartibga solinadi. *Intizomiy nojo'ya hatti-harakatlarga qarshi kurash - mehnat qonunchiligi bilan*, harbiy xizmatchilarining, yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar hamda ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslarning intizomiy javobgarligi - *ma'muriy qonunchilik (intizom ustavlari)* bilan, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning jazoni o'tash qoidalari *Jinoyat ijroiya qonunchiligi* bilan tartibga solinadi. Bunda intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarning tarkibi umumiylashtirilgan, ya'ni aniqlashtirilmagan.

Intizomiy javobgarlik odatda, xizmat vazifalarini bajarmaganlikdan yoki lozim darajada bajarmaganlikdan vujudga keladi. Ma'muriy javobgarlik esa, umumiy qoidaga binoan, davlat boshqaruvi sohasidagi umummajburiy qoidalar bajarilmagandan yoki lozim darajada bajarilmagandan kelib chiqadi. Demak, ma'muriy javobgarlik orqali muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar doirasasi, intizomiy javobgarlikka qaraganda kengroqdir.

Intizomiy nojo'ya xatti-harakatlar uchun intizomiy javobgarlik vakolatli rahbar (yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxs)

tomonidan o'ziga bo'ysungan shaxsga nisbatan, ma'muriy javobgarlikda esa vakolatli davlat organlari yoki mansabdar shaxslar tomonidan xizmat bo'yicha bo'ysunuv mavjud bo'limgan hoiatlarda qo'llaniladi. Demak, ma'muriy huquqbuzarlik (nojo'ya xatti-harakat) tushunchasi jinoyat va intizomiy nojo'ya xatti-harakat tushunchalariga yaqin turishi bilan bir vaqtida, turli asoslarga ko'ra farq qiluvchi va o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir.

## **2-§. Ma'muriy huquqbuzarlikning tarkibi**

Har qanday huquqbuzarlik tarkibi singari, ma'muriy huquqbuzarlik ham: *huquqbuzarlikning obyekti va obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni kabi xususiyatlar yig'indisidan iborat bo'ladi.*

*Ma'muriy huquqbuzarlikning obyekti* — bu ma'muriy huquq normalari bilan o'rnatilgan va muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda davlat boshqaruvi sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida nafaqat ma'muriy huquq normalari bilan, balki ma'muriy-huquqiy vositalar bilan muhofaza etiladigan boshqa huquq tarmoqlari (konstitutsiyaviy, moliya, yer, mehnat va h.k.lar) normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ham vujudga keladi. Shu sababli, ma'muriy huquqbuzarlik obyektiga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalari bilan himoya qilinadigan har qanday munosabatlarni kiritish mumkin.

Ma'muriy huquq nazariyasida huquqbuzarlik obyekti, odatda uch guruhga bo'linadi:

*Birinchidan*, ma'muriy huquqbuzarlikning *umumiy obyekti* — davlat boshqaruvi jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi MJTK 10-moddasining 1-qismida ma'muriy huquqbuzarlik obyekti umumiy holda — «*shaxs, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, mulkchilik, davlat va jamoat tartibi, tabiiy muhit*» ko'rsatib o'tilgan.

*Ikkinchidan*, ma'muriy huquqbuzarlikning *turdosh obyekti* — mazmuni va o'zaro yaqin xususiyatlariga qarab yagona tizimga

keltirilgan obyektlardir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi MTKning Maxsus qismida ma'muriy huquqbuzarliklar quyidagi guruhlarga birlashtirilgan:

- 1) fuqarolarning huquq va erkinlikdariga tajovuz qiladigan huquqbuzarliklar;
- 2) aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar;
- 3) mulkka tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar;
- 4) tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalananish sohasidagi huquqbuzarliklar;
- 5) sanoatdagi, qurilishdagi va issiqlik hamda elektr ener-giyasidan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar;
- 6) qishloq xo'jaligidagi huquqbuzarlik, veterinariya-sanitariya qoidalarini buzish;
- 7) transportdagi, yo'l xo'jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklar;
- 8) fuqarolarning turar joy huquqlariga taalluqli, kommunal xizmat va obodonlashtirish sohasidagi huquqbuzarliklar;
- 9) savdo, tadbirkorlik va moliya sohalaridagi huquqbuzarliklar;
- 10) odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar;
- 11) jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar;
- 12) boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar.

*Uchinchidan*, ma'muriy huquqbuzarlikning *bevosita obyekti* - huquqbuzarlik oqibatida bevosita zarar yetkazilgan aniq obyekt hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi MTKning 40-moddasida mustahkamlangan tuhmat huquqbuzarligining bevosita obyekti - fuqaroning sha'ni va qadr-qimmati hisoblanadi yoki 237-moddasiga binoan harbiy xizmatga yoki muqobil xizmatga chaqirilishdan bosh tortishda ifodalangan huquqbuzarlikning bevosita obyekti bo'lib boshqaruv jarayonida o'rnatilgan tartib, ya'ni fuqarolarning harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash majbu-riyati hisoblanadi.

*Ma'muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni* — huquqqa xilof qilmish, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik obyektiga qaratilgan harakat yoki harakatsizlik, uning xususiyatlari, shuningdek, uni sodir etish (yoki sodir etmaganlik) sharoitlari hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik obyektiv tomonidan ikki ko'rinishga ega:

*Birinchidan*, ma'muriy huquqbuzarlikni *harakat* natijasida sodir etish. Harakat - insonning faol xulq-atvori hisoblanadi. Aksariyat ma'muriy huquqbuzarliklar, obyektiv tomonidan shaxslarning harakati orqali sodir etiladi. Masalan, tuhmat, haqorat qilish, yengil tan jarohati yetkazish, o'matilgan turli umummajburiy qoidalarini buzishda ifodalangan huquqbuzarliklar - harakatlar natijasida sodir etiladi.

*Ikkinchidan*, ma'muriy nuquqbuzarlikning *harakatsizlik* natijasida kelib chiqishi. Harakatsizlik - insonning belgilangan vazifa, majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlikda ifodalanadigan passiv xulq-atvori. Masalan, mansabdar shaxslar tomonidan fuqarolarning murajaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqmaganlik, ota-onalarning bolalarni tarbiyalash va ularga ta'llim berish bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganligi, hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaganlikda ifodalangan huquqbuzarliklar - harakatsizlik natijasida kelib chiqadi.

*Xuquqbuzarlikni sodir etish sharoitlari*, ma'muriy huquqbuzarlik obyektiv tomonining elementi sifatida, uni sodir etish vaqt va uslubini nazarda tutadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi MJSK 90-moddasining 2-qismida ov qilish qoidalarini buzishning shartlari, ya'ni tegishli ruxsati bo'lmay turib yoki taqiqlangan joylarda yoxud taqiqlangan muddatlarda, taqiqlangan qurollar yoki uslublar bilan ov qilish yoki baliq tutish ko'rsatib c'tilgan.

Ma'muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni — huquq normalari bilan nazarda tutilgan, mazkur huquqbuzarlikning tashqi ko'rinishini ifodalaydigan xususiyatlar yig'indisidir. Obyektiv tomon - qilmishni huquqbuzar xulq-atvorining tashqi ko'rinishi sifatida ifodalaydi. Obyektiv tomon xususiyatlariga: huquqqa xi洛f harakat yoki harakatsizlik va ularning sodir etilishi bilan vujudga kelgan zararli oqibat kiradi. Masalan, transport vositalari haydovchilari tomonidan yo'l harakati qoidalarini buzish — harakat tezligini oshirish (*harakat*), yo'l belgilariga rioya etmaslik (*harakatsizlik*)da ifodalanuvchi turli xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Bunday qilmishlar yo'l harakati xavfsizligiga tahdid solishi,

boshqa yo'l harakati ishtirokchilarining harakatlanishiga halaqit berishi, avariya holatini vujudga keltirishi yoki yo'l-transport hodisalarining sodir etilishiga olib kelishi mumkin.

Ma'muriy huquqbazarlik obyektiv tomonining tarkibiy qismlariga, huquqqa xilof qilmish (harakat yoki harakatsizlik) va vujudga kelgan zararli oqibatdan tashqari, *sodir etilgan qilmish va undan kelib chiqadigan zararli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish* ham kiradi. Bunday bog'lanishni aniqlash - zararli oqibatlarning kelib chiqishi sharoitlarini, zararli oqibatlarning aynan mana shu yoki boshqa qilmish oqibatida vujudga kelganligini, qilmishning vujudga kelgan oqibatlarga qay darajada ta'sir etganligi va boshqalarni aniqlashga xizmat qiladi. Lekin ma'muriy huquqbazarlikda sababiy bog'lanishni aniqlashga hojat vo'q, chunki qoida bo'yicha vujudga kelgan zararli oqibatlar nomoddiy va odatda ijtimoiy zarar yoki ijtimoiy xavfli ko'rinishda bo'ladi. Shu sababli, huquqqa xilof qilmish bilan uning oqibati o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjudligiga shubha tug'ilmaydi.

Ma'muriy huquqbazarliklar ikki ko'rinishga: *formal yoki moddiy tarkibli huquqbazarliklarga* bo'linadi.

Moddiy zarar kelib chiqishini nazarda tutmaydigan ma'muriy huquqbazarlik tarkibi – *formal* tarkibli ma'muriy huquqbazarlik deb ataladi. Ma'muriy huquqbazarliklar, jinoyatlardan farqli ravishda, aksariyat hollarda formal tarkibda bo'lib, uni sodir etish natijasida moddiy zarar kelib chiqishi yoki kelib chiqmasligidan qat'i nazar, javobgarlik nazarda tutiladi. Masalan, transport vositasi haydovchisi tomonidan harakat tezligini oshirish natijasida hech qanday moddiy zarar kelib chiqmagan bo'lishi mumkin, lekin bu harakatni sodir etish ma'muriy huquqbazarlik hisoblanib, unga nisbatan ma'muriy javobgarlik qo'llaniladi.

Formal tarkibli ma'muriy huquqbazarliklardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi MTKda bir necha *moddiy tarkibli huquqbazarliklar* ham nazarda tutilgan. Bunday hucuqbazarliklarni sodir etish natijasida moddiy zarar kelib chiqqan bo'lishi kerak. Masalan, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li

bilan oz miqdorda talon-toroj qilish - moddiy tarkibli huquq-buzarlik hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbazarlikning sodir etilganligini aniqlashda qonun chiqaruvchi, huquqbazarlik obyektiv tomonining boshqa xususiyatlarini ham nazarda tutishi mumkin. Jumladan, sodir etilgan qilmishni ma'muriy huquqbazarlik sifatida tasniflashda, *ushbu qilmishning qaysi vaqtida sodir etilganligi* muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi MTKning 192-moddasida tungi vaqtida — soat 23.00 dan 06.00 gacha - fuqarolarning osoyishtaligi va normal dam olishini buzish, ya'ni baland ovoz bilan qo'shiq aytish, musiqa chalish, tovush signallari berish, xonadonlarda, turar joylarning yo'laklari va eshiklarida, ko'chalarda ovozi baland qilib qo'yilgan televizorlar, radiopriyomniklar, magnitofonlar va ovoz chiqaruvchi boshqa apparaturalardan foydalanish, turar joy binolari va ulardan tashqarida juda zarur bo'lmagani holda shovqin chiqaruvchi ishlar qilish, shuningdek, maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzuvchi boshqa harakatlarni sodir etish uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan. Agar, mazkur xatti-harakatlar boshqa vaqtida (soat 06.00 dan 23.00 gacha) sodir etilgan bo'lsa, ushbu huquqbazarlikning tarkibini vujudga keltirmaydi.

Ayrim hollarda, ma'muriy huquqbazarlik uchun javobgarlik belgilashda, *huquqbazarlikni sodir etish joyini* aniqlash zarur bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi MTKning 187-moddasida ko'chalarda, stadionlarda, xiyobonlarda, bog'larda, barcha turdag'i jamoat transportida hamda spirtli ichimliklarni quyib sotishga ruxsat etilgan savdo va umumiyligiga ovqatlanish korxonalaridan boshqa jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichganlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur moddada ko'rsatib o'tilgan joylardan tashqari, uyda yoki mehmonda spirtli ichimliklarni iste'mol qilish ushbu modda bo'yicha javobgarlikni vujudga keltirmaydi.

*Huquqbazarlikning qanday uslubda sodir etilganligi* ham ma'muriy huquqbazarlikning tarkibini vujudga keltiruvchi xususiyatlardan biridir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi MTKning 183-moddasida mayda bezorilik, ya'ni jamoat joylarida uyatli so'zlar

bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jumoaat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, qonun chiqaruvchi, qilmishning jamiyatga nisbatan yaqqol mensimaslik uslubida sodir etilishini ko'rsatib o'tadi.

*Ma'muriy huquqbazarlikni takroran sodir etish — huquqbazarlik obyektiv tomoni xususiyatlardan biri bo'lib, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikning ko'pgina moddalarida nazarda tutilgan.* Lekin amaldagi O'zbekiston Respublikasining MTKda ma'muriy huquqbazarlikni takroran sodir etish tushunchasi berilmagan. Ma'muriy huquqbazarlikni takroran sodir etish deganda, ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan bir yil davomida turdosh (bir xil yoki o'xshash) ma'muriy huquqbazarlik sodir etishni tushunish lozim. Huquqbazarlikni takroran sodir etish aybdor shaxsga nisbatan javobgarlik sanksiyalarida nazarda tutilgan og'irroq jazo chorasi qo'llashga sabab bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi MTKning 190-moddasiga binoan fohishalik bilan shug'ullanish, - eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbazarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, eng kam ish haqining uch baravaridan besh barvarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

*Ma'muriy huquqbazarlik obyektiv tomonining yuqorida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlari (qilmshini sodir etish vagti, joyi, uslubi, takroran sodir etshi va hokazo) barcha huquqbazarliklarga ham xos emas, balki ular ma'muriy huquqbuzaplik tarkibining fakultativ belgilari hisoblanadi.*

Huquqbazarlik tarkibining fakultativ beigilaridan farqli ravishda, *huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik*, ularni sodir etishdan kelib chiqadigan zararli oqibat hamda zararli oqibat bilan qilmish o'rta sidagi sababiy bog'lanish - ma'muriy huquqbazarlik tarkibining majburiy xususiyatlari hisoblanadi.

*Huquqbazarlik sodir etgan shaxs — ma'muriy huquqbazarlikning subyekti hisoblanadi.* Bularga 16 yoshga to'lgan aoli raso

shaxs, mansabdor shaxs, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar, harbiy xizmatchilar va intizom ustavi tatbiq etiladigan boshqa shaxslar kiradi<sup>1</sup>.

Huquqbuzarning huquqqa xilof qilmishni sodir etishda aybi mavjud bo‘lganida, uni javobgarlikka tortish mumkin. Ayb - sodir etilgan qilmishga nisbatan shaxsning ruhiy munosabatidir. Ayb ikki shaklda: qasd va ehtiyyotsizlikda ifodalangan bo‘lishi mumkin. Ayb - ma’muriy huquqbazarlik subyektiv tomonining *majburiy xususiyati* hisoblanadi.

*Ma’muriy huquqbazarlikning subyektiv tomoni* — bu huquqbazarlik subyekti (jismoni shaxs)ning huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hamda uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabati hisoblanadi.

Ma’muriy huquqbazarlik aybning ikki shaklida ham, ya’ni qasddan va ehtiyyotsizlikdan sodir etilishi mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi MJTKning 11-moddasiga binoan ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs o‘z harakati yoki harakatsizligi g‘ayrihuquqiy ekanligini bilgan bo‘lsa, uning zararli oqibatlariga ko‘zi yetgan, yuz berishini istagan bo‘lsa yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yan bo‘lsa, bunday ma’muriy huquqbazarlik qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi MJTKning 61-moddasida mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o‘g‘irlash, o‘zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste’mol qilish yoki firibgarlik yo‘li bilan oz miqdorda talon-toroj qilish uchun ma’muriy javobgarlik belgilangan. Ushbu qilmish qasddan sodir etiladi. Huquqbazar mol-mulkini o‘g‘irlash, o‘zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suvisite’mol qilish yoki firibgarlik yo‘li bilan oz miqdorda talon-toroj qilish kabi harakatlarning huquqqa xi!of ekanligini biladi, uni sodir etish orqali korxonaga zarar yetkazilishiga ko‘zi yetadi va uning yuz berishini istaydi.

<sup>1</sup> “Ma’muriy javobgarlik subyektlari” darslikning 11-bobida batafsil yori-tilgan.

**Ma'muriy huquqbuzarlikni qasddan sodir etish ikki ko'ri-nishdi bo'lishi mumkin:**

**1) to'g'ri qasd, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi g'ayrihuquqiy ekanligini biladi, uning zararli oqibatlariga ko'zi yetadi va uning yuz berishini intaydi;**

**b) egri qasd, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi g'ayrihuquqiy ekanligini biladi, uning zararli oqibatlariga ko'zi yetadi va bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi.**

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 12-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga oldindan ko'zi yetsa-da, lekin kaltabinlik bilan uning oldini olish mumkin deb o'yagan bo'lsa, yoxud bunday oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lgani holda oldindan ko'zi yetmagan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan deb hisoblanadi.

Huquqbuzarlik faqat qasddan sodir etilishi mumkin. MJTK Maxsus qismining ayrim moddalarida aybning qasddan sodir qilingan shakli to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tiladi. Bular ma'muriy huquqbuzarliklarning harbiy biletni, harbiy hisob hujjatlarini qasddan yaroqsizlantirish (236-m.), muhrlar (plombalar)ni qasddan buzish yoki yulib olish (228-m.) kabi tarkiblaridir. Biroq ko'pchilik hollarda huquqbuzarlik tarkibining subyektiv tomoni to'g'risida Maxsus qismning tegishli moddasida keltirilgan barcha belgilarni tahlil qilish asosidagina xulosa chiqarish mumkin. Qasddan sodir etilgan ayb, xususan, albatta g'arazli niyat bilan bog'liq bo'lib, maqsad belgisi guvohlik beradigan, masalan, militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik, mayda bezorilik qilgan vaqtida jamiyatdagi xulq-atvor qoidalarini qasddan mensimaslik, transport vositasi haydovchisining mastlik holati to'g'risida ko'rikdan o'tishdan bosh tortishi va hokazolar shular jumlasiga kiradi. Ham qasddan, ham ehtiyyotsizlik oqibatida sodir etilishi mumkin bo'lgan ma'muriy huquqbuzarliklar tarkibida qasddan sodir etilgan aybning mavjudligi aybdorga yanada qattiqroq jazo qo'llash uchun usos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlarning moddiy tarkiblarida qasddan socir etilgan ayb narakat yoki harakatsizlikning g'ayri-huquqiy ekanligini anglab yetishdan tashqari, huquqbuzarning kelib chiqqan zararli oqibatlarga munosabatini ham o'z ichiga oladi. Shaxsning bu oqibatlarga oldindan ko'zi yetadi va shuni xohiyadi yoki ularning sodir bo'lishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi. Aytish mumkinki, oqibatlarga oldindan ko'zi yetish g'arazli niyatning aqliy jihatini ifodalaydi, zararli oqibatlarning boshlanishini istash yoki unga yo'l qo'ymaslik ixtiyoriy jihatni anglatadi. Ixtiyoriy jihatga bog'liq ravisnda bevosita g'arazli niyat va bavosita g'arazli niyat farqianaci. Bevosita g'arazi niyatda shaxs oqibatlarning kelib chiqishini istaydi, bavosita g'arazli niyatda esa u faqat oqibatlarning boshlanishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi. Muayyan ma'muriy huquqbezarlik tarkibiga (shaxs bu huquqbezarlikni sodir etgani uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi) kiradigan oqibatlarga oldindan ko'zi yetish bilan ham, shuningdek, istash yoki yo'l qo'yish bilan ham qamrab olinishi lozim. Masalan, shaxs mayda o'g'rilik qilganda o'zining ozroq miqdordagi mulk, ya'ni eng kam ish haqining bir miqdoridagi mulkni bepul, g'arazli maqsad bilan egallab olayotganini anglab yetadi, buning natijasida mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, korxonaga, muassasaga, tashkilotga shunday zarar yetayotganiga oldindan ko'zi yetadi va shuni xohlaydi.

Ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan aybning ikki shakli: *ortiq darajada o'ziga ishonish*, ya'ni shaxsning o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga oldindan ko'zi yetgan bo'lsa ham, lekin yengiltaklik bilan ularning oldini cish mumkin deb o'ylashi va beparvoligi, uning qonunda ko'rsatilgan oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligiga oldindan ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lgani holda ularga oldindan ko'zi yetmagani bilan farqianadi.

O'ziga ortiq darajada ishonganda shaxs o'z harakati yoki harakatsizligining zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga ko'zi yetmagan bo'lsa ham ularning oldini olish mumkin deb o'laydi. Bunda u muayyan real imkoniyatlardan kelib chiqadi. Shunday holatga umid qiladi, ya'ni shaxs o'zining va boshqalarning kuchi, bilimi va tajribasiga, tabiat kuchlariga va shu kabilarga ishonadi.

**M**usulmān, u shunday vaziyatda, chunonchi, transport vositasini boshqarishni uni boshqarish huquqiga ega bo‘limgan shaxsga berar o‘kan. O‘zining katta tajribasi va harakatning unchalik tez emasligi bilan u avariya holatining oldini olish mumkin, deb hisoblaydi. Boshharti, bunday avariya holati kelib chiqadigan bo‘lsa, haydovchi o‘ziga ortiq darajada ishonishidan vujudga kelgan zararli oqibat uchun javobgar bo‘ladi.

**H**eparvolikda huquqbuzarning zararli oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligiga oldindan ko‘zi yetmaydi. Ko‘pincha bu hol shu narsa bilan bog‘liq bo‘ladiki, huquqbuzar o‘zi amalga oshirgan harakat nimalarga olib kelishi mumkinligini o‘ylab ko‘rmaydi. Shaxsning o‘z harakati yoki harakatsizligining zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga oldindan ko‘zi yetishi lozimligini aniqlab olish uchun u mavjud obvektiv shart-sharoitlarni bilishi zarur bo‘ladi. Zararli oqibatlarga oldindan ko‘zi yetishiga shaxsning bajaradigan xizmat vazifalari xususiyatlari va yashash qoidalari, masalan, olov bilan ehtiyoitsizlarcha munosabatda bo‘lishi natijasida o‘rmonning yo‘q bo‘lishi yoki shikastlanishi vaqtidagi xizmat vazifalari va xususiyatlari hamda yashash qoidalari talablari bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shaxsning kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlarga oldindan ko‘zi yetishi lozim emasligi ma’lum bo‘lgan hollarda, uning ma’muriy javobgarligi haqidagi masalaga o‘rin qolmaydi va shaxsning bu oqibatlarga oldindan ko‘zi yetishi lozimmi yoki lozim emasligini aniqlashga ehtiyoj bo‘lmaydi. Agar shaxsning zararli oqibatlar kelib chiqishiga oldindan ko‘zi yetishi lozim bo‘lsa, uning bu ishni qila olishini aniqlash talab etiladi. Bu haqda to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun huquqbuzar shaxsning muayyan o‘ziga xos xususiyatlarini: uning hayotiy tajribasi, ma’lumoti, kasbi, ish stagi, ko‘nikmalari, salomatligi hollari, ruhiyati, shaxs harakat qilgan vaziyat va hokazolarni hisobga olish kerak bo‘ladi.

Ehtiyoitsizlik bilan qilingan aybdan shaxs javobgar bo‘lmaydigan chigal ish yoki hodisani farqlash kerak. Bu keyingi holat uchun, ya’ni shaxs amalga oshirgan harakat natijasida kelib chiqqan zararli oqibatlarga oldindan ko‘zi yetishi lozim va mumkin emasligi xosdir. Bu holatlarga transportdagи ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vaqtida duch kelish mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlikni ehtiyoitsizlik natijasida sodir etishdan *aybsiz zarar keltirishni* farqlash lozim. Aybsiz zarar keltirish javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

O'zbekiston Respublikasi MJKning aksariyat moddalarida ayb shakllari to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tilmagan hamda ma'muriy javobgarlik ayb shaklidan qat'i nazar vujudga keladi. Masalan, MJK 88-moddasiga binoan qurilish ishlarni va boshqa ishlarni bajarish chog'ida yonilg'i moddalar va binokorlik materiallarini toplash, maxsus texnik qurilmalarsiz ochiq alanga oldirib ularni yoqish, bitum eritishda atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik qasddan sodir etilganmi yoki ehtiyoitsizlik orqasida sodir etilganmi, ma'muriy javobgarlikka asos bo'ladi.

MJKning ayrim moddalarida qasd to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tilmagan bo'lsa ham, uning qasddan sodir etilganligi qilmishning xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, 188-moddaga binoan voyaga yetmagan shaxsni tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga, irodasiga ta'sir qiladigan moddalar yoki vositalarni iste'mol etishga jalb qilish faqat qasddan sodir etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi MJKning ayrim moddalarida esa ayb shakllari aniq ko'rsatib o'tiladi. Masalan, 52-moddaning birinchi qismida ehtiyoitsizlik orqasida badanga yengil shikast yetkazish, ikkinchi qismida esa, badanga qasddan yengil shikast yetkazish uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

MJKda ma'muriy huquqbuzarlikning *maqsad* va *motiv* singari fakultativ belgilari ham nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Masalan, 141-moddaga binoan haydovchilarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalaridan shaxsiy boylik orttirish *maqsadida* foydalanishi, ma'muriy javobgarlikni vujudga keltiradi. Bunday maqsadning bo'Imaganligi esa, javobgarlikka olib kelmaydi. Va aksincha, masalan, MJKning 56-moddasiga binoan giyoxvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish *maqsadini ko'zlamay* oz miqdorda g'ayriqonuniy tarzda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish — ma'muriy javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Shunday qilib, shaxsning sodir etgan qilmishini ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tasniflash uchun *birinchidan*, ma'muriy huquqbuzarlikning yuridik xususiyatlari — huquqqa xiloflilik, *aybning* mavjudligi, jazoga sazovorligi va *ikkinchidan*, yuridik tarkibi — ma'muriy huquqbuzarlikning obvekti va obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni mavjud bo'lishi kerak.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Ma'muriy huquqbuzarlik deganda nimani tushunasiz?
2. Ma'muriy huquqbuzarlikning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Ma'muriy huquqbuzarlikni qasddan sodir etish qanday oqibatlar keltirib chiqaradi?
4. Ma'muriy huquqbuzarlikni ehtiysizlik orqasida sodir etishning uni qasddan sodir etishdan qanday farqli tomonlari bor?
5. Ma'muriy huquqbuzarlikning qanday turlari mavjud?
6. Ma'muriy huquqbuzarlikning tarkibi haqida so'zlab bering.
7. Ma'muriy huquqbuzarlik obyektiv tomoni beigilari nimalardan iborat?
8. Ma'muriy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni belgilarini ta'riflab bering.
9. Ma'muriy huquqbuzarlik subyektini kimlar tashkil etadi?

*XI bob*  
**MA'MURIY JAVOBGARLIK**

### **1-§. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi, subyektlari**

Ma'muriy javobgariik — yuridik javobgarlikning alohida turi hisoblanib, bir vaqtning o'zida ma'muriy majburlashning bir turi hamoir. Ma'muriy javobgarlik - ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solingan bo'sib, aybdor shaxsga nisbatan vakolati davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy-protsessual tartibda ma'muriy jazoni qo'llashdir.

Ma'muriy javobgarlik quyidagi xususiyatlarga ega:

— bu davlat majburlovi bo'lib, davlat faoliyatining har xil sohalarida sodir etilgan ma'muriy huquqbazarliklar uchun qo'llaniladi;

— aybdor shaxslar qonuniar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida vakolatli organlar, mansabdor shaxslar tomonidan javobgarlikka tortiladi;

— ma'muriy javobgarlikka tortilganlar sudlangan hisoblanmaydi;

— yengil jazo beriladi va jazo muddati qisqa belgilanadi;

— moddiy javobgarlik moddiy zarar yetkazilgandagina qo'llaniladi, ma'muriy javobgarlikka moddiy zarar yetkazilmagan bo'lsa ham tortish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 13-moddasiga binoan ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan shaxsiar ma'muriy javobgarlikka tortiladilar.

Ayrim turdag'i jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni 14 yoshdan oq jinoiy javobgarlikka tortishga yo'l qo'yadigan jinoyatga oid qonunchilik hujjatlaridan farqli o'laroq, ma'muriy huquqda shaxs faqat 16 yoshga to'lgan taqdirdagina ma'muriy javobgarlikka tortiladi, bunda ishni ko'rib chiqish yoki ish bo'yicha qarorni bajarishning boshlanish paytida emas, balki ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan paytga kelib mazkur yoshga to'lgan shaxslar

shu javobgarlikka tortiladi. 16 yoshga to‘lgan shaxslar ma’muriy huquqbazarlik nimadan iborat ekanligini to‘la anglab yetishga, ularni sodir etishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini tushunishga va ularni sodir etganlik uchun shaxsan javob berishga qodir bo‘ladilar.

Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan o‘n olti yoshdan o‘n nikkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyalar to‘g‘risidagi nizomda nuzarda tutilgan choralar qo‘llaniladi. Ana shu shaxslar MJTKning 61, 125—136, 138, 183—185, 194, 218, 220, 221-moddalarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarliklarni sodir etgan tuqdirda, ular umumiy asoslarda ma’muriy javobgarlikka tortiladilar. Sodir etilgan huquqbazarlik xususiyatini va huquqbuzarning shaxsini hisobga olgan holda mazkur shaxslarga nisbatan (MJTKning 194-moddasida nazarda tutilgan huquqbazarlikni sodir etgan shaxslar bundan mustasno) ishlar Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi shahar, tuman, shaharlardagi tuman komissiyalari ixtiyoriga berilishi mumkin, O‘zbekiston Respubliksi MJTKning 61-moddasida nazarda tutilgan huquqbazarlikni sodir etgan shaxslarning ishlari esa shu komissiyalarga berilishi lozim.

Keltirilgan ro‘yxat tugallangan ro‘yxat bo‘lib, uni kengayti-  
rilgan holda talqin qilishga ehtiyoj yo‘q. U faqat qonunchilik hujjalariada bevosita nazarda tutilgan hollarda o‘zgartirilishi mumkin, shu bilan birga, bu masalalarni hal qilish O‘zbekiston Respublikasining maxsus vakolatlariga kiritilgan. Nojo‘ya xatti-harakatlar sodir qilgan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi MJTK 14-moddasining 2-qismi voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlik hollarini katta yoshdagilar bilan umumiy asoslarda belgilar ekan, bunday hollarda ham ishlarni Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyalarga berish imkoniyatini (194-moddadan tashqari) istisno qilmaydi. Oz miqdorda talon-toroj to‘g‘risidagi ishlar (61-modda), odatda, voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyalarga ko‘rib chiqish uchun berilishi kerak. Ishlarni komissiyalarga yuborish haqidagi masalalar hal qilinayotganda huquqbazarlikning xususiyati va huquqbuzarning shaxsi, ya’ni huquqbazarlikning

ijtimoiy zarariilik darjasи, aybning angilab yetilganligi, jazolash chorasidan ko'ra tarbiyalash chorasi qo'llashning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, huquqbuzarning xulq-atvori, ishi yoki o'qishi ustidan, bo'sh vaqtini qanday o'tkazishi ustidan doimiy nazorat o'matilishi zarurligi hisobga olinadi. Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiya, o'z navbatida, o'smirning tur mush sharoiti haqidagi; cta-onalarining uni tarbiyalash sohasidagi burchlarni bajarishlari to'g'risidagi; oilaning moddiy-maishiy sharoiti, balog'atga yetmaganlarning xulq-atvori, ularning yaqin kishilari va boshqa ishtirokchilar haqidagi ma'lumotlarni; o'smir ilgari huquqbazarliklar sodir etgan ni uchun javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligi; tarbiyaviy ishda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi va shu kabilar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashi lozim. Basharti, huquqbazarlik alkogolli ichimliklarga qarshi qonunchilik hujjatlari talablarinin buzish bilan bog'liq bo'lsa, u holda spirtli ichimliklarni xarid qilish manbalari, ularni iste'mol qilish shart-sharoitlari aniqlanadi.

Mansabdor shaxslar boshqaruv, davlat va jamoat tartibini saqlash, tabiiy muhitni, aholi sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida belgilangan qoidalarga va bajarilishini ta'minlash o'z xizmat vazifalariga kiradigan boshqa qoidalarga riosa etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbazarlik sodir etganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim. Mulk shaklidan qat'i nazar, korxona, muassasa, tashkilotda muayyan mansabni egallab turgan shaxs, basharti unga rahbarlik, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat vazifalari yoki moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq bo'lgan vazifalar yuklatilgan bo'lsa, mansabdor shaxs deb hisoblanadi.

Mansabdor shaxslar ma'muriy javobgarlikning maxsus subyektlari hisoblanadi. Moddaning mohiyatidan kelib chiqib, mansabdor shaxslarning ma'muriy nojo'ya xatti-harakatlari bir nechta turda bo'lishi mumkin. Mansabdor shaxslarning, birinchidan, o'z harakatlari bilan belgilangan qoidalarni buzishlari; ikkinchidan, o'z qo'l ostidagilarga ana shu qoidalarga zid keladigan ko'rsatmalar berishlari; uchinchidan, o'zlariga bo'ysunuvchi shaxslarning tegishli qoidalarga riosa qilishini ta'minlash yuzasidan

(~~shaxslar~~ bu qoidalarga rioxaliga qilishni ta'minlash muayyan mansabdar shaxsning xizmat vazifalariga kirsa) choralar ko'riqanligi bilan g'ayrihuquqiy bo'lib javobgarlikka tortishga sabab bo'indi. Mansabdar shaxslar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning ko'pgina muddalarida javobgarlikning ehtimol tutilgan shubyeqtari sifatida tilga olinadi. Biroq mazkur shaxslarning ro'yxati keltirilmaydi. Mansabdar shaxsga MJTK 15-moddasining 2-qismida quyidungicha ta'rif berilgan:

- ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs korxona, muassasa va tashkilotda biror lavozimni egallab turgan bo'lishi;
- unga rahbarlik, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat qilish vazifalari yuklatilgan bo'lishi;
- unga moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq vazifalar yuklatilgan bo'lishi zarur.

Amaldagi qonunchilik hujjalari muvofiq, mansabdar shaxs-larga nisbatan ma'muriy jazoning faqat bitta turi — jarima tatbiq etilishi mumkin. Mansabdar shaxslarning g'ayrihuquqiy xatti-harakati, basharti ularda davlat-hokimiyat vakolatlari bo'lsa, boshqa shaxslarning ma'muriy huquqbazarliklariga nisbatan ko'proq zarar yetkazishi mumkin, shu bois ma'muriy nojo'ya xatti-harakat uchun mansabdar shaxslarga jarima solish tarzidagi oshirilgan javobgarlik belgilanadi. Jarimaning ehtimoi tutilgan miqdorlari MJTKning 25-moddasida keltirilgan.

Mansabdar shaxslar aybli bo'lgan taqdirdagina ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Ma'muriy huquqbazarlik, odatda, ehtiyyot-sizlik orqasida sodir etiladi: mansabdar shaxslar o'z harakatlarining zararli oqibatlarga olib kelishiga oldindan ko'zlarini yetsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylaydilar yoki bunday oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga oldindan ko'zlarini yetmaydi, holbuki bularga ko'zlarini yetishi lozim va mumkin edi.

Mansabdar shaxsning ma'muriy nojo'ya xatti-harakati, ayni vaqtida, uning xizmat qoidalari buzish, ya'ni intizomiy xatti-harakat hisoblanadi. Aybdor shaxsga birdaniga ikkita jazo — ma'muriy va intizomiy jazo berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Mansabdar shaxslarning ma'muriy huquqbazarligi natijasida qandaydir moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa, ularning ma'muriy va moddiy

javobgarligini birga qo'shish to'g'risidagi masala boshqachasiga hal qilinishi lozim. Huquqbuzarga moddiy zarar ham yetkazilgan takdirda bir vaqtning o'zida ayni bitta xatti-harakat uchun ham ma'muriy, ham moddiy javobgarlik tatbiq etilishi mumkin. Moddiy javobgarlik ma'muriy javobgarlikdan farq qilib, faqat huquqni tiklash vazifasini bajaradi.

Harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va bosnliqlar tarkibiga mansub shaxslar ma'muriy huquqbuzarlik uchun intizom ustavlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Mazkur shaxslar yo'l harakati qoidalarini, ov qilish, baliq tutish va baliq zaxiralarini saqlash qoidalarini, bojxona qoidalarini buzganliklari uchun umumiy asoslarda ma'muriy javobgar bo'ladilar. Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan ma'muriy qamoqqa olish choralar qo'llanilishi mumkin emas. MJTK 16-moddasiga binoan muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarga jarima solinishi mumkin emas. Ushbu moddaning 1-qismida ko'rsatilgan shaxslar jumlasiga kirmaydigan, intizom ustavlari yoki intizom to'g'risidagi maxsus qoidalari tatbiq etiladigan boshqa shaxslar, ana shu ustav yoki qoidalarda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun intizomi, boshqa hollarda esa umumiy asoslarda ma'muriy javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslar umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim. Daxlsizlik huquqiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJTKning O'zbekiston Respublikasi qatnashchi bo'lgan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo'limgan qismi qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 20-moddasiga binoan esa, g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan vaqtida aqli norasolik holatida bo'lgan shaxs, ya'ni surunkali ruhiy kasallik, ruhiy faoliyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoxud boshqa xil kasallik oqibatida o'z harakatining (harakatsizligining) ahamiyatini idrok qila olmagan yoki boshqara olmagan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Demak, umumiy qoidaga ko'ra, *ma'muriy huquqbuzarlikning subyekti* — bu 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir.

**Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjalarda ma'muriy javobgarlikning subyektlari uch guruhga bo'lingan:**

***Umumiy subyekt* — har qanday 16 yoshga to'lgan jismoniy shaxs.** Jumladan, O'zbekiston Respublikasi MJTKning 13-moddasida ma'muriy javobgarlik subyekti umumiy holda ko'rsatib o'tilgan.

***Maxsus subyekt* — umumiy subyektga qaraganda o'ziga xos xususiyatlarga (*ko'shimcha belgilarga*) ega bo'lgan subyektlardir.** Ma'muriy huquqbazarlikning maxsus subyektiga - mansabdon shaxslar, haydovchilar, voyaga yetmaganlar va boshqalarni kiritish mumkin. Mazkur shaxslar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar va ularga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, mansabdon shaxslar tomonidan sodir etiladigan ma'muriy huquqbazarliklar ularning egallab turgan lavozimi yoki mansabi bilan yoxud ular zimmasiga yuklangan vazifalar (majburiyatlar)ning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi bilan bog'liq holda sodir etiladi. Mansabdon shaxslarning ma'muriy javobgarligi fuqarolarga (umumiy subyekt) qaraganda yuqori bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 175<sup>4</sup>-moddasiga binoan ish haqini taqiqlangan shakllarda to'lash uchun faqatgina mansabdon shaxslargina javobgarlikka tortilishi mumkin. Chunki xodimlarga ish haqini berish majburiyati korxona, muassasa va tashkilotning mansabdon shaxsi zimmasiga yuklangan.

O'zbekiston Respublikasi MJTKniga 125-moddasiga binoan foydalanish man etiladigan daraja da nosoz transport vositalarini boshqarish uchun faqatgina haydovchilar javobgarlikka tortilishi mumkin. Chunki, faqat haydovchi transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik 16 yoshga to'lgan fuqarolarga nisbatan qo'llanilishi belgilangan. Lekin 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan fuqarolar - voyaga yetmaganlar toifasiga kirishini ham unutmaslik kerak. Ularning ma'muriy javobgarligi, odaida, maxsus qoidalar bilan tartibga solinadi.

Alchida subyekt - intizom ustavlari yoki xizmat to'g'risidagi nizomlar tatbiq qilinadigan shaxslar, masalan, harbiy xizmatchilar

va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, ichki ishlar organlarining oddiy safdorlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar. Ma'muriy huquqbuzarlikning alohida subyektlari - maxsus subyektlarning alohida guruhini tashkil etadi. Alohida subyektlar ham, maxsus subyektlar singari o'ziga xos xususiyat-larga ega.

Qonunchilik hujjatlarida ma'muriy huquqbuzarlikning u yoki bu subyektlari doirasiga qaratilgan javobgarlikning qo'shimcha asoslari yoki uning yuqori hajmi, boshqalariga nisbatan esa ma'muriy javobgarlikni qo'llashda cheklanishlar ko'rsatib o'tiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi MTKning 53-moddasiga binoan sanitariya qonunchilik hujjatlarini, sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlarini buzish, fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida *xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning* ma'muriy javobgarligi ham nazarda tutilgan. Bu toifadagi shaxslar ma'muriy huquqbuzarlik subyektlarining qaysi guruhiga kiradi, degan savol tug'ilishi mumkin. Agar, xorijiy fuqarolar diplomatik immunitet, ya'ni daxlsizlik huquqidan foydalansama, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladi. Agar, bunday huquqqa ega bo'lsa, ularning javobgarligi masalasi xalqaro shartnomalarda (yoki davlatlar o'rtaida tuzilgan xalqaro bitimlarda) nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi. Demak, ular ma'muriy huquqbuzarlikning ham umumiy subyekti, ham maxsus subyekti sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi MTKda xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning javobgarligi nazarda tutiladi. Masalan, MTKning 225-moddasida O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarni buzish, ya'ni O'zbekistonda yashash huquqini beradigan hujjatlarsiz yoki haqiqiy bo'limgan hujjatlar bilan yashashi, vaqtincha yoki doimiy ro'yxatga turish, ko'chish yoki turar joy tanlash yuzasidan belgilangan tartibga rioya etmasligi, bo'lish

muddati tugagach chiqib ketishdan bo‘yin tovashi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining hududi orqali tranzit tarzda o‘tish tarihibiga riosa qilmasligi uchun xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar ham ma’muriy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, O‘zbekiston Respublikasi MTKga binoan, faqatgina jismoniy shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ayrim davlatlar, masalan Rossiya Federasiyasida, yuridik shaxslar ham ma’muriy javobgalikka tortiladilar.

O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy huquqbuzarlikning subjekti sifatida yuridik shaxslarning namoyon bo‘lishi holati ham mavjud.

Ma’muriy huquq ma’muriy javobgarlikni qo’llashni nazarda tutgan holda ayrim sabablarga ko‘ra *ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini* belgilaydi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 18, 19, 20-moddalariga ko‘ra biror shaxs ma’muriy xatti-harakat sodir etgan bo‘lib, bu harakatni o‘ta zarurat yuzasidan, ya’ni davlat yoki jamoat tarihibiga, mulkka, fuqarolarning huquq va erkinliklariga va boshqaruv yuzasidan belgilangan tartibga tahdid qiluvchi xavfni bartaraf etish uchun sodir etgan bo‘lsa, basharti bu xavfni mavjud boshqa vositalar bilan bartaraf etishning iloji bo‘limgan taqdirda va yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan ancha kam bo‘lsa, bunday shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Shaxs ma’muriy normalarda taqiqlangan xatti-harakatni sodir etgan bo‘lsa, lekin u bu harakatni zaruriy mudofaa holatida, ya’ni davlat yoki jamoat tartibini, mulkni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, boshqaruv yuzasidan belgilangan tartibni g‘ayriqonuniy tajovuzlardan, shunday tajovuz qilmoqchi bo‘lgan shaxsga zarar yetkazib bo‘lsa ham himoya qilish vaqtida zaruriy mudofaa chogurusidan chetga chiqmagan holda sodir etgan bo‘lsa, bunday shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Sodir etilgan huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo‘lgan taqdirda shu ishni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan organ (mansabdar shaxs) huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod etib uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin (MTK 21-m.).

## **2-§. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari va uning prinsiplari**

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga MJTK, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashining qarorlari, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari kiradi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ijtimoiyadolat va qonuniylikni ta'minlash, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishi ni, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruvida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun MJTK qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanday ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- qonuniylik;
- fuqarolarning qonun oldida tengligi;
- demokratizm;
- insonparvarlik;
- odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi.

*Qonuniylik* — davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya qilishidir. O'zbekiston Respublikasi MJTKning bir necha normalarida bevosita ushbu

prinsipning talablari belgilab qo'yilgan. Jumaladan, MJTKning 8-moddasiga ko'ra ma'muriy huquqbazarlik uchun hech kim qonunchilik hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibdan boshqacha turzda ta'sir ko'rsatish chorasiqa tortilishi mumkin emas. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish qonuniylikka rioya qilish asosida olib boriladi. Tegishli vakolat berilgan organlar va mansabdar shaxslar ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralarini o'z vakolatlari doirasida qo'llaydilar. Ma'muriy huquqbazarlik uchun ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llanish chog'ida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi yuqori turuvchi vakolatli organlar va mansabdar shaxslar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib turilishi bilan, prokuror nazorati bilan, shikoyat berish huquqi bilan ta'minlanadi.

*Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi.* O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. MJTKning 272-moddasiga asosan, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish barcha fuqarolarning jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, irqi, millati, tili, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida va shu ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdar shaxs) oldida tengligi asosida ko'rib chiqiladi.

*Demokratizm prinsipi.* Ushbu prinsipning mazmuni shundan iboratki, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish ochiq ko'rildi. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishning tarbiyaviy va ogohlantiruvchi rolini oshirish maqsadida bunday ishlar huquqbuzarning ish, o'qish joyidagi jamoalarida yoki yashash joyida ko'rib chiqilishi mumkin.

*Insonparvarlik prinsipi.* Vakolatli organ (mansabdar shaxs) ma'muriy jazo choralarini qo'llashda javobgarlikning yengillashtiruvchi holatlariga, huquqbuzarning moddiy ahvoliga e'tibor bergen holda ayrim huquqbazarliklar uchun belgilangan sanksiyadan ham yengilrog'ini qo'llaydi yoki ogohlantirish bilan kifoyalanadi. Ma'muriy huquqbazarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatlar orqaga qaytish kuchiga egadir, ya'ni ushbu hujjatlar chiqqunga qadar sodir etilgan huquqbazarlik hollariga ham taalluqlidir. Ma'muriy huquqbazarlik uchun

javobgarlikni belgilovchi yoki kuchaytiruvchi hujjatlar esa orqaga qaytish kuchiga ega bo'lmaydi.

*Odillik prinsipi.* Ushbu prinsip vakolatli organlar (mansabdar shaxs) har bir ishni har tomonlama, to'la va obyektiv ravishda aniqlab chiqishi, ishni qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etishi, ma'muriy ta'sir choralarini qo'llashda qonunda belgilangan qoidalarga amal qilgan holda huquqbuzarlikning xususiyati, huquqbuzarning shaxsi va boshqa holatlarni to'la o'rganib jazo qo'llashini anglatadi.

Sodir etilgan huquqqa xilof xatti-harakat uchun qonunda belgilangan muddatlarda, inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhiitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash maqsadida ma'muriy ta'sir choralarining qo'llanilishi *ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi* prinsipini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga asosan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari sohasida *O'zbekiston Respublikasining vakolatlariga quyidagilar kiradi:* ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining prinsiplarini aniqlash va umumiy qoidalarini belgilab berish; ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan harakat yoki harakatsizlikni, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organlar tizimini (mansabdar shaxslarni), mazkur ishlarni yuritish va chiqarilgan qarorlarning ijrosi tartibini belgilash; ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasining vakolatlarini belgilash; viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyat vakillik organlari hamda hokimlari ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan qaror qabul qilishlari mumkin bo'lgan masalalar doirasini belgilash.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari sohasida *Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlariga* quyidagi vakolatlar belgilangan:

a) jamoat tartibini saqlash masalalari bo'yicha, basharti bu masalalar O'zbekiston Respublikasi MJTK bilan tartibga solinmagan bo'lsa, shuningdek tabiiy ofatlar va epidemiyalarga qarshi kurash masalalari bo'yicha ma'muriy javobgarlik belgilash;

**b) O'zbekiston Respublikasi MJTKning 90, 109, 110, 161, 162-moddalariga, 164-moddasining 2-qismiga, 168-moddasiga binoan buzilishi ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan qoidalarni belgilash.** Ushbu huquqbuzarliklar bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan belgilanadigan jarimaning eng ko'p miqdori fuqarolarga — eng kam ish haqining uch baravaridan, munsabdar shaxslarga esa — besh baravaridan oshmasligi kerak.

### **3-§. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlikni liberallashtirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida liberallashtirish konsepsiyasini ilgari surib, rivojlangan demokratik mamlakatlarda qo'llanib kelinayotgan tamoyillar va talablarga javob beradigan mezonlar asosida huquqbuzarlik va jazo tizimini qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlab o'tdi<sup>1</sup>. Ushbu tarixiy sanada O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy jazolarni liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risdagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 2001-yil 29-avgust qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun asosida O'zbekiston Respublikasi MJTKning 61, 164, 174, 176-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, MJTKning 61-moddasida belgilagan talon-toroj qilingan mulkning qiymati eng kam ish haqining besh baravaridan oshgandagina Jinoyat kodeksining 167-moddasiga muvofiq javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, bir necha jinoiy xatti-harakatlarning birinchi marotaba sodir etilishi uchun ma'muriy javobgarlik (ma'muriy preyuditsiya) belgilandi.

Ma'muriy qonunchilikning takomillashuvi respublikamizda amalga oshirilayotgan sud-huquq schasidagi islohotlarning muhim bosqichlarini belgilab beribgina qolmay, balki milliy qonunchiligidizning rivojlanishida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Aytish joizki, mustaqillik yillarda ma'muriy qonunchilik tizimining

<sup>1</sup> *Qarang: Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмок керак. Т. 10. –Т., 2002. – 26-б.*

shakllanishi va takomillashuvida muayyan natijalarga erishildi. Bu sohadagi islohotlarning muhim bosqichi sanalgan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining tasdiqlanishi va amalga kiritilishi, ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi ma'muriy qonunchilikning takomillashuvida katta ahamiyat kasb etdi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari monitoringi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi MJTKga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar natijasida u yoki bu huquqqa xilof xatti-harakat (harakatsizlik) uchun ma'muriy javobgarlikni yoki kuchaytirilgan sanksiyalarni nazarda tutuvchi normalar yuzaga keldi. Sud-huquq sohasini isloh qilishning muhim tarkibiy qismi hisoblangan mavjud jazo tizimini liberallashtirish konsepsiyasining tatbiq etilishi natijasida bir necha jinoiy xatti-harakatlar uchun jinoiy javobgarlik bekor qilinib, faqat ma'muriy jazo qo'llanilgandan (ma'muriy preyuditsiya) keyin jinoiy javobgarlik belgilab qo'yildi. Ayrim turdag'i ma'muriy huquqbazarliklarning (O'zbekiston Respublikasi MJTKning 40, 41, 176<sup>2</sup>, 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 189, 201, 202<sup>1</sup>, 225, 240, 239, 293<sup>1</sup>-moddalarida) ijtimoiy xavflilik darajasi, xususiyati inobatga olinib, ma'muriy jarimalar miqdori oshirildi. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organlar (mansabdor shaxslar) tizimida adliya organlariga, xo'jalik sudlariga, soliq departamentiga, Moliya vazirligi nazorat-taftish bosh boshqarmasi organlariga, qishloq xo'jaligi ekinlarini nazorat qilish davlat markazi organlariga ma'muriy yurisdiksiya vakolatlari berildi.

Yuqorida qayd etilgan qonun respublikamizda liberallashtirish konsepsiysi dastlabki bosqichini huquqiy jihatdan asoslab berdi. Sud-huquq sohasidagi islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan liberallashtirish konsepsiysi davomli, uzoq muddatga mo'ljallangan izchil rivojlantirishni talab etadigan jarayondir.

Davlatimiz rahbarining «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish dasturi to'g'risida»gi 2005-yil 10-mart qaroriga muvofiq amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan bir necha tadbirlar qatorida: a)

ma'muriy jazo qo'llaydigan organlar ro'yxatini qisqartirish; b) Javobgarlikning ayrim turlarini xo'jalik yurituvchi subyektlardan mansabdar shaxslarga o'tkazish; d) eskirgan va asossiz, og'ir ma'muriy huquqbuzarlik turlarini kamaytirish; e) ma'muriy sanksiya miqdorlarini kamaytirish va ularni qo'llash tartibini takomillashtirish; f) xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga noqonuniy aralashganlik uchun davlat organlari mansabdar shaxslarining javobgarligini o'zida ifoda etuvchi yangi tahrirdagi O'zbekiston *Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi* loyihasini ishlab chiqilishi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining takomillashuvida muhim bosqich bo'ldi.

Shu bilan birga ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini liberallashtirish asosida uni takomillashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini belgilash mumkin:

- 1) ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish;
- 2) ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining muntazam monitoringini olib borish;
- 3) ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini unifikatsiyalash;
- 4) ma'muriy qonunchilik institutlarini rivojlantirish;
- 5) ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida liberallashtirish konsepsiysi negizida yuzaga kelgan yarashuv, jamoatchilik nazorati kabi institutlarning tatbiq etish mexanizmini ishlab chiqish.

### ***Nazorat uchun savol va topshiriqlar***

1. Ma'muriy javobgarlik deganda nimani tushunasiz?
2. Ma'muriy javobgarlik subyektlarini aniqlang.
3. Ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish asoslari deganda nimani tushunasiz?
4. Mansabdar shaxslar ma'muriy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Voyaga yetmaganlar ma'muriy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
6. Ma'muriy javobgarlikni liberallashtirish asoslari haqida so'zlab bering.

*XII bob*  
MA'MURIY JAZO

## 1-§. Ma'muriy jazo maqsadi va vazifalari

Uzoq tarixdan ma'lumki, har qanday ijtimoiy munosabatni qo'riqlash zaruriyati har doim, har zamonda bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Shu bois, huquq hamisha ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etish vositasi bo'lib kelgan. Huquqiy ta'sirning bu yo'nalishi huquqning qo'riqlovchi funksiyasini tashkil etadi.

Huquqning *qo'riqlovchi* funksiyasi — uning ijtimoiy vazifasi bilan belgilangan huquqiy ta'sir etish yo'nalishi bo'lib, u umumiy ahamiyatga molik, o'ta muhim iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etishga, ularning daxsizligini ta'minlashga yo'naltiriladi va shu bilan birga jamiyatga yot, zararli munosabatlarni siqib chiqarishga qaratiladi<sup>1</sup>.

Huquqshunoslik fanida qo'riqlovchi funksiyaning xususiyatlari quyidagilardan iborat ekanligi e'tirof etilgan:

*birinchidan*, u huquqni kishilar xulq-atvoriga ta'sir etishning alohida vositasi sifatida ta'riflaydi. Huquq bu vazifani *jazo qo'llash, taqiqlar o'rnatish va yuridik javobgarlikni amalga oshirish* bilan ogohlantirib, insonlar irodasiga ta'sir o'tkazish orqali bajaradi;

*ikkinchidan*, unda davlat, huquqiy qoidalar vositasida qanday ijtimoiy qadriyatlarni o'z himoyasiga olganligi to'g'risida ijtimoiy munosabat subyektlariga axborot yetkaziladi;

*uchinchidan*, u jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyati darajasining, huquqdagi insonparvarlik asoslarining ko'rsatkichidir.

Huquqning qo'riqlovchi funksiyasiga xos xususiyatlar uni davlatning huquqni muhofaza etish faoliyati bilan qiyoslaganda, yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Tegishli davlat idoralari huquq subyektlari tomonidan qonun talablarini so'zsiz qat'iy bajarishini ta'minlaydi, jamiyatda qonuniylik muhitini vujudga keltiradi.

<sup>1</sup> Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарсллик/проф. Ҳ.Б.Бобоев ва проф. Ҳ.И.Одил Қориевларнинг умумий таҳрири остида. – Т, 2000. – 528-б.

Bu huquq buzilishi faktini aniqlash, ularni ko'rib chiqish va aybdorlarni yuridik javobgarlikka tortish bilan ta'minlanadi. Bundan tushqari, eng muhimi, huquqning qo'riqlovchi funksiyasi ijtimoiy munosabatlarni himoyalashga yo'naltirilgandir.

Turli huquq tarmoqlarida tartibga solinadigan va qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni aybdor shaxs tomonidan buzganlik uchun yuridik javobgarlik nazarda tutiladi. Yuridik javobgarlik aybdor shaxsga nisbatan muayyan jazo qo'llashda namoyon bo'ladi. Masalan, mehnat intizomi buzilganda — intizomiy jazo, ma'muriy huquqbazarlik sodir etilganda — ma'muriy jazo, jinoyat sodir etilganda — jinoiy jazo qo'llaniladi.

Ma'muriy jazo — maqsadiga ko'ra ma'muriy majburlov choralarining bir turi bo'lib hisoblanadi. Ma'muriy jazo — ma'muriy majburlovning boshqa choralaridan farqli ravishda huquqbazar tomonidan ma'muriy qonunchilik hujjatlari bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinganda, ya'ni, ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgandagina qo'llaniladigan o'ziga xos maqsadga ega jazo sanksiyalari bo'lib, ma'muriy-protsessual tartibda amalga oshiriladi.

Ma'muriy jazo — O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bilan, ma'muriy majburlovning boshqa choralar esa, turli normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Huquqshunos olim Yu.M.Kozlovnинг fikricha, ma'muriy jazo choralar — ma'muriy huquqbazarlik oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash maqsadida qo'llanilmaydi. Agar ma'muriy huquqbazarlik orqali jismoniy yoki yuridik shaxsga moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa, huquqbazarlik ishini ko'rib chiquvchi davlat organi ma'muriy jazoni tayinlash bilan bir vaqtda, mulkiy zararni undirish bo'yicha masalani ham hal etishi mumkin. Mulkiy zararni undirish fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish tartibida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 22-moddasida ma'muriy jazoning maqsadi to'liq o'z ifodasini topgan va unga ko'ra ma'muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi bo'lib, u ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash,

shuningdek ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbazarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Shu bois jazolash — ma'muriy jazoning asosiy maqsadi emas, balki huquqbazarlik sodir etgan shaxsni Konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, huquq-tartibotni ta'minlash, ushbu shaxsning o'zi va boshqa shaxslar tomonidan yangi huquqqa xilof qilmishlar sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Shu bilan birga ma'muriy jazo, ma'lum bir ma'noda, jinoyat-larning oldini olishga ham xizmat qiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilami alohida ta'kidlab o'tadilar: «Jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurash samaradorligi jazoning og'irligi va shafqatsizligiga emas, balki bиринчи navbatda, qonunni buzgan shaxsning jazoning muqarrarligini nechog'lik anglashiga bog'liq. Jazoning muqarrarligi jinoyatchilikni oldini olishda samarali ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi»<sup>1</sup>.

Ma'muriy jazo — ma'muriy qonunchilikka asosan, huquqbazarlik sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan vakolatli organ mansabdor shaxs tomonidan qo'llaniladigan va huquqbuzarni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni vaqtincha cheklashdan iborat majburlov chorasi bo'lsa-da, huquqbuzarni qiyonoqqa solish, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etish maqsadini ko'zlamaydi. Buning isboti Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 8-moddasining qoidasida o'z aksini topgan, ya'ni, ma'muriy huquqbazarlik uchun hech kim mamlakatimiz Konstitutsiyasidan kelib chiquvchi qonunchilik hujjalarda belgilangan asoslar va tartibdan boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatish chorasiga tortilishi mumkin emas. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish qonuniyligka rioya qilish asosida olib boriladi.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ӯзбекистон: миллӣ истиқол, итисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – 15-6.

Tegishli vakolat berilgan organlar va mansabdar shaxslar ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralarini o'z vakolatlari doirasida qo'llaydilar hamda ma'muriy huquqbazarlik uchun ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llanish chog'ida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi vakolatli yuqori turuvchi organlar va mansabdar shaxslar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib turilishi bilan, prokuror nazorati bilan, shikoyat berish huquqi bilan ta'minlanadi.

Ma'muriy jazoning maqsadi va vazifalari o'zaro uyg'un holda bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'muriy jazoning vazifalari inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ijtimoiyadolat va qonuniylikni ta'minlash, ma'muriy huquqbazarlik uchun adolatli jazoning muqarrarligi, shuningdek huquqbazarliklarning oldini olish, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbazarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdar shaxs) tomonidan qay tartibda qanday ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

## 2-§. Ma'muriy jazoni qo'llash asoslari

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinganda, ya'ni huquqbazar tomonidan ma'muriy huquqbazarlik sodir etganlik uchun ma'muriy jazo — O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va boshqa normativ hujjatlarda belgilab qo'yilgan doirada va tartibda qo'llaniladi.

Ma'muriy jazoni qo'llash asoslari yana quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- 1) ma'muriy huquqbazarlik hodisasi yoki alomatining mavjudligi;

- 2) ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish paytida shaxs javobgarlikka tortish yoshiga yetgan bo'lsa;
- 3) g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikni sodir etgan shaxs aqli raso bo'lsa;
- 4) shaxs harakatni zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqib sodir etsa;

5) ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish paytida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 36-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o'tib ketmagan bo'lsa.

Sodir etilgan ma'muriy huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi sanksiyalarda – jazo chorasi va uning ruxsat etilgan me'yori (hajmi, miqdori)ning eng kami va eng yuqorisi ko'rsatilgan bo'ladi.

Ma'muriy jazoni qo'llashda vakolatli organ (mansabdar shaxs) ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjalarning, ya'ni, qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariiga asoslanishi shartdir.

O'zbekiston Respublikasi MTKda ma'muriy jazoning qo'llanilishiga bag'ishlangan alohida 4-bob ajratilgan bo'lib, uning 30-moddasida ma'muriy jazo qo'llanilishining umumiy qoidalari o'z aksini topgan. Mazkur ma'muriy-huquqiy normaga muvofiq ma'muriy huquqbazarlik uchun jazo Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va boshqa normativ hujjalardá belgilab qo'yilgan doirada va tartibda qo'llaniladi.

Vakolatli organlar va mansabdar shaxslar tomonidan ma'muriy jazoni qo'llanish chog'ida:

- sodir etilgan huquqbazarlik xususiyati;
- huquqbuzarning shaxsi;
- uning aybdorlik darajasi;
- mulkiy ahvoli;

javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar;

javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar hisobga olinadi.

Ma'muriy jazo qo'llanishining mazkur umumiy qoidalariiga barcha vakolatli organlar va mansabdar shaxslar riosa qilishlari shart.

Bundan tashqari ma'muriy jazoni qo'llashda jazoni individuallashtirish ham katta ahamiyat kasb etadi, ya'ni ma'muriy huquqda sodir etilgan qilmishning xususiyati, huquqbuzarning aybdorlik darajasi, shaxsi hamda qonunda nazarda tutilgan javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan sanksiyalar chegarasida unga jazo tayinlashdir.

Vakolatli organ (mansabdor shaxs) jazoni individuallashtirib, avvalo sodir etilgan qilmishning xususiyati, darajasi va huquqbuzarning shaxsini hisobga oladi. Bunda qilmishni qanday usulda, kim bilan birgalikda sodir qilinganligi, qaysi bosqichgacha olib borilgan — tayyorgarlik yoki tugallanganligi, huquqbazar shaxsning voyaga yetmagan yoki yetganligi, huquqbazarlikni bиринчи bor yoki takroran sodir etishi, huquqbazarlikni qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasida sodir etishi va hokazolar e'tiborga olinadi.

Jazoni individuallashtirishda aybdor shaxsning barcha ijobjiy va salbiy xususiyatlari, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlari hisobga olinishi lozim, chunki jazo asosan shaxsiy xususiyatga ega va aybdor shaxsga qo'llaniladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 31-moddasiga ko'ra, ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) aybdorning o'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi;

2) aybdorning huquqbazarlik zararli oqibatlarining oldini olishi, yetkazilgan ziyonni ixtiyoriy ravishda qoplashi yoki keltirilgan zararni bartaraf qilishi;

3) huquqbazarlikning kuchli ruhiy hayajon ta'siri ostida yoki og'ir shaxsiy, oilaviy yoxud boshqa sharoitlar yuzaga kelganligi oqibatida sodir etilishi;

4) huquqbazarlikning tahdid yoki majburlov ta'sirida yoxud xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqa jihatdan qaramligi ta'siri ostida sodir etilishi;

5) huquqbazarlikning voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi;

6) huquqbuzarlikning homilador aycil yoki o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxs tomonidan sodir etilishi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdar shaxs) boshqa holatlarni ham javobgarlikni yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 242-moddasida belgilangan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar kodeksning 33-moddasiga asosan ma'muriy jazo chorasi qo'llayotganda ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda sababini albatta ko'rsatib, kodeksning maxsus qismidagi muddalarning jazo belgilash qismida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham yengilroq jazo chorasi qo'llashi mumkin. Ushbu holatni, ma'muriy jarima jazosi misolida ko'rish mumkin. Bunda fuqarolarga solinadigan jarimaning eng kam miqdori – eng kam ish haqining ellikdan bir qismidan, mansabdar shaxslarga esa – eng kam ish haqining o'ndan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Huquqbuzar shaxs tomonidan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo'lgan taqdirda, shu ishni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organ, mansabdar shaxs huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin. Mazkur ma'muriy-huquqiy normalar o'zida insonparvarlik prinsipini to'la ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 32-moddasida esa ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarga quyidagilar kiritilgan:

1) g'ayrihuquqiy harakatlarni to'xtatish vakolati bor shaxslar tomonidan qo'yilgan talabga qaramay, bunday harakatlarni davom ettirish;

2) ma'muriy jazo chorasi tortilgan shaxsning bir yil mobaynida yana o'sha xildagi huquqbuzarlikni sodir etishi, xuddi shuningdek huquqbuzarlikni ilgari sudlangan shaxs tomonidan sodir etilishi;

3) voyaga yetmagan shaxsni huquqbuzarlikka tortish (jalb qilish);

4) huquqbazarlikning bit guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi;

5) huquqbazarlikning tabiiy ofat sharoitida yoki boshga favqulodda holatlarda sodir etilishi;

6) huquqbazarlikning mast holda sodir etilishi.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdar shaxs) larga bulardan tashqari boshqa holatlarni ham javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb topish vakolati berilmagan. Ular, huquqbazarlikning mast holda sodir etilishi holatini faqat uning xususiyatiga qarab aybni og'irlashtiruvchi holat deb topmasligi mumkin.

Ma'muriy qonunchilik hujjatlarida bir necha ma'muriy huquqbazarlik sodir etilganligi uchun ma'muriy jazo oo'llash qoidalari ham belgilangan.

Bir shaxs ikki yoki undan ortiq ma'muriy huquqbazarlik xatti-harakat(harakatsizlik)larini sodir etgan bo'lsa, ma'muriy jazo har bir huquqbazarlik uchun alohida-alohida qo'llaniladi.

Basharti shaxs bir necha ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan bo'lib, shu haqdagi ishlar bir vaqtning o'zida ayni bir organ (mansabdar shaxs) tomonidan ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, bu shaxsga nisbatan uzil-kesil jazo og'irroq ma'muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo'llaniladi. Bu holda asosiy jazoga sodir etilgan huquqbazarliklardan istalgan bittasi uchun ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi moddalarda nazarda tutilgan qo'shimcha jazo choralaridan biri qo'shilishi mumkin.

Basharti shaxs MTKning Maxsus qismidagi bir necha modda bilan ma'muriy javobgarlik belgilangan va ular to'g'risidagi ishlarni har xil organ (mansabdar shaxs) ko'radigan harakat (harakatsizlik) sodir etgan bo'lsa, unga nisbatan jazo og'irroq ma'muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo'llaniladi. Bu holda asosiy jazoga sodir etilgan huquqbazarliklardan istalgan bittasi uchun ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi moddalarda nazarda tutilgan qo'shimcha jazo choralaridan biri qo'shilishi mumkin\_.

Agar shaxs Kodeksning Maxsus qismidagi tegishli modda bilan ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan harakat (harakatsizlik)ni voyaga yetmagan shaxsni ma'muriy huquqbazarlik sodir etishga

jalb qilgan holda (1881-modda) sodir etgan bo'lsa, ish materiallari ko'rib chiqish uchun sudga topshiriladi. Bu holda ham, asosiy jazoga sodir etilgan huquqbuzarliklardan istalgan bittasi uchun ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi moddalarda nazarda tutilgan qo'shimcha jazo choralaridan biri qo'shilishi mumkin.

Ma'muriy qamoq va maxsus huquqdan mahrum etish kabi ma'muriy jazo choralarini qo'llash uchun muddatlarni hisoblash quyidagicha belgilangan. Ma'muriy qamoq muddati sutkalar bilan, eng ko'pi 30 sutka, maxsus huquqdan mahrum etish muddati esa – kunlar, oylar, yillar bilan hisoblanadi va ko'pi bilan 3 yilgacha qo'llaniladi.

Ma'muriy jazo – ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa, huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab ikki oydan kechiktirmay qo'llanishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay co'llanishi mumkin.

Mazkur muddatlar ashyolarni bojxonaga doir qonunchilik hujatlari asosida musodara qilish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 37-moddasiga muvofiq, ma'muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida yangi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo'lsa, mazkur shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi. Mazkur bir yillik muddat o'tgach ushbu shaxs tomonidan xuddi shunday ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda uning huquqbuzarlikni takroran sodir etgan deb kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi shart.

Basharti ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish oqibatida jismoniy shaxsga, korxona, muassasa, tashkilotga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoki davlatga yetkazilgan mulkiy

**zarar belgilab qo'yilgan eng kam ish haqidan ko'p bo'lmasa, organ (mansabdor shaxs) jazo qo'llanishi paytida aybdor bu zararni qoplashi to'g'risidagi masalani ham hal etishga haqlidir, ma'muriy ishlar bo'yicha sudya esa bu masalani yetkazilgan zarar miqdoridan qat'i nazar hal qilaveradi.**

Boshqa hollarda ma'muriy huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan mulkiy zararni qoplash fuqarolik-huquqiy tartibida hal qilinadi.

Ma'muriy jazoni qo'llash - ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni bajarilmaganligi uchun ma'muriy jazo qo'llanilgan vazifani bajarishdan ozod etmaydi.

### **3-§. Ma'muriy jazo choralari**

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 23-moddasiga muvofiq, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

- 1) jarima;
- 2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish;
- 3) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyni musodara qilish;
- 4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish;
- 5) ma'muriy qamoqqa olish.

Ma'muriy jarimadan tashqari barcha ma'muriy jazo choralari, faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanishi mumkin.

Qonunchilik hujjatlarida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo'lman shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish nazarda tutilishi mumkin.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, ma'muriy jazo — asosiy va qo'shimcha ma'muriy jazo choralariga bo'linadi.

*Asosiy ma'muriy jazo choralari* bu — ma'muriy jazo choralari boshqa ma'muriy jazo choralarining turlariga qo'shimcha bo'lib, ayni vaqtida tayinlanishi mumkin bo'lмаган jazo choralaridir. Masalan, jarima, muayyan shaxsni maxsus huquqdan mahrum qilish, ma'muriy qamoq kabi choralar faqat asosiy ma'muriy jazo choralari sifatida qo'llanilishi mumkin.

*Qo'shimcha ma'muriy jazo choralari* bu — ma'muriy jazo chorasiqa qo'shimcha ravishda tayinlanishi mumkin bo'lgan ma'muriy jazo choralaridir. Masalan, ashyolarni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish yoki musodara qilish, O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish qo'shimcha jazo choralaridir. Biroq, ular ham asosiy, ham qo'shimcha ma'muriy jazo tariqasida qo'llanilishi mumkin. Qo'shimcha ma'muriy jazo choralarining yana bir o'ziga xos xususiyati bu ularning sodir etilgan ma'muriy huquqbazarlik uchun alohida, mustaqil ravishda qo'llanilishining mumkin emasligi, ya'ni ular faqat asosiy ma'muriy jazo choralariga qo'shimcha jazo chorasi sifatida tayinlanishi mumkin.

Demak, bir ma'muriy huquqbazarlik uchun yo asosiy, yoki ham asosiy, ham qo'shimcha jazo chorasi qo'llanilishi mumkin. Lekin, bir vaqtning o'zida ikkita asosiy yoki ikkita qo'shimcha jazo choralarining qo'llanilishi mumkin emas.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'muriy jazo choralarni alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

**Jarima** — ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan ma'muriy huquqbazarliklar uchun qo'llaniladi. Boshqacha aytganda, jarima — ma'muriy huquqbazarliklar uchun MJTKning Maxsus qismi moddalarining sanksiyalarida belgilangan hollarda qo'llaniladi.

Jarima — ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan aybdor shaxslardan davlat hisobiga pul undirishdir.

Jarima — moddiy xususiyatga ega bo'lgan ma'muriy jazo chorasi bo'lib, aybdor shaxslardan davlat hisobiga undirib olinadigan muayyan bir pul miqdorida ifodalanadi. Jarima tarzidagi ma'muriy jazo chorasi huquqbuzarning ongiga ta'sir ko'rsatib, avvalo, uning moddiy manfaatlariga zarar yetkazadi. Shu bois ma'muriy jarima samarali jazo choralaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Jarima ma'muriy jazo chorasingning asosiy turi hisoblanadi. U boshqa jazo choralarining o'rniga tatbiq etilishi mumkin emas. Qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda jarima qo'shimcha ma'muriy jazo chorasi bilan birgalikda solinishi mumkin (masalan, ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish yoki musodara qilish).

Jarimaning miqdori — ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbazarlik uchun esa u aniqlangan vaqtdagi belgilab qo'yilgan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jarima, solish obyektlariga ko'ra 2 turga bo'linadi: fuqarolarga, (ya'ni jismoniy shaxslarga) va mansabdor shaxslarga solinadigan jarimalar, ular miqdoriga ko'ra farqlanadi.

Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng kam miqdori — eng kam oylik ish haqining ellikdan bir qismidan, mansabdor shaxslarga esa — o'ndan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng ko'p miqdori — eng kam oylik ish haqining besh baravaridan, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan oshmasligi kerak. Qonunlarda nazarda tutilgan ayrim hollarda ba'zi huquqbazarliklar uchun fuqarolarga — eng kam oylik ish haqining yuz baravarigacha va mansabdor shaxslarga — yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyyati organlarining qarorlari bilan belgilanadigan jarimaning eng ko'p miqdori Kodeksning 6-moddasiga binoan fuqarolarga — eng kam ish haqining uch baravaridan, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan oshmasligi kerak.

Jarima — ma'muriy javobgarlikning samarali choralaridan biri sifatida, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli barcha organ (mansabdor shaxs)lar tomonidan o'rnatilgan ma'muriy-protsessual tartibda qo'llaniladi.

Ma'muriy huquqbazarliklarning muayyan turlari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi ma'muriy-huquqiy normalar sanksiyalarida jarimaning miqdorlari huquqbazarliklarning darajasidan kelib chiqib aniqlashtiriladi. Bunda jarima miqdorlari ma'muriy jazo chorasingning ushbu turi uchun belgilangan eng ko'p va eng

kam miqdorlar chegarasidan chiqib ketmasligi shart. O'zbekiston Respublikasi MJTKning Maxsus qismida nazarda tutilgan ma'muriy-huquqiy normalar sanksiyalarining ko'pchiligidagi ma'muriy jarimaning eng ko'p miqdori, ayrim sanksiyalarida esa, jarimaning eng ko'p va eng kam miqdori ko'rsatiladi. Bu hol vakolatli organ (mansabdar shaxs)ga jarima miqdorini belgilashda scdir etilgan huquqbazarlikni va aybdorning shaxsini tavsiflovchi barcha holatlarni hisobga olish hamda adolatli jazo qo'llash imkonini beradi.

Jarima solish to'g'risida organ (mansabdar shaxs)ning qarori chiqariladi. Faqat Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 283-moddasida nazarda tutilgan hollarda ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan joyning o'zida bayonnomasidan jarima solinadi.

Ma'muriy jarima jazo chorasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning Maxsus qismida o'z aksini topgan deyarli barcha ma'muriy huquqbazarliklar uchun qo'llaniladi.

*Ma'muriy jarimaning solinadigan miqdori, ijro etish muddatlari va tartibiga ko'ra tasniflash mumkin.*

Jarimaning solinadigan miqdoriga ko'ra — joyning o'zida solinadigan jarimaga, ya'ni fuqaro o'zi sodir etgan huquqbazarlik faktiga e'tiroz bildirmasa va jarimaning miqdori eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan, yo'l harakati qoidabuzarliklari to'g'risidagi ishlar yuzasidan esa —bir baravaridan oshmasa va aybdor shaxs jarimani darnol to'lasa, bu joyning o'zida undirib olinadigan jarima deb e'tirof etiladi. Bunda huquqbuzarga qat'iy moliyaviy hisobot hujjati hisoblangan belgilangan nusxadagi kvitansiya beriladi.

Jarimani ijro etish muddatlariga ko'ra — agarda jarima ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan joyning o'zida to'lanmasa, yoki jarimaning miqdori eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan, yo'l harakati qoidabuzarliklari to'g'risidagi ishlar yuzasidan esa —bir baravaridan oshadigan bo'lsa, ishni ko'rib chiqish va qarorni ijro etish uchun O'zbekiston Respublikasi MJTKning 332-moddasida nazarda tutilgan tartibda, ya'ni huquqbazar tomonidan unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirmay, bunday qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda — shikoyat yoki protest qanoatlantirilmaganligi to'g'risida xabar berilgan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirmay to'lanishi lozim.

Jarima, o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning mustaqil ish haqi bo'lmanan taqdirda, ularning ottonalari yoki ular o'mini bosuvchi shaxslardan undirib olinadi.

Ma'muriy huquqbazarlik sodir etganlik uchun solingan jarima huquqbazar tomonidan tegishli bank muassasasiga to'lanadi, huquqbazarlik sodir etilgan joyning o'zida undirib olinadigan jarima bundan mustasno.

Jarima ijro etish tartibiga ko'ra — ixtiyoriy to'lanadigan (o'n besh kunlik muddat ichida)jarimaga va majburiy tartibda (o'n besh kunlik muddat ichida ixtiyoriy to'lanmaganda) undirib olinadigan jarimaga bo'linadi.

Bunda huquqbazar jarimani unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab ***o'n besh*** kundan kechiktirmay, bunday qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda — shikoyat yoki protest qanoatlantirilmaganligi to'g'risida xabar berilgan kundan boshlab ***o'n besh*** kunlik belgilangan muddat ichida to'lamagan taqdirda, jarima solish to'g'risidagi qaror sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilgan qoidalarga muvofiq jarimani uning ish haqi yoki boshqa mablag'idan, nafaqasidan yoki stipendiyasidan majburiy tartibda undirib olish uchun yuboriladi.

Basharti jarima solingan shaxs ishlamayotgan bo'lsa yoxud jarimani huquqbuzarning ish haqi yoki boshqa daromadidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan boshqa sabablarga ko'ra undirib olishning iloji bo'lmasa, uni undirib olish sud ijrochisi tomonidan jarima solish to'g'risida tegishli organ (mansabdor shaxs) chiqargan qaror asosida huquqbuzarning mulkidan, shuningdek umumiy mulkdagi uning hissasidan undirib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Jarima O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ijro hujjatlari bo'yicha undirib olinishi mumkin bo'lmanan mol-mulkdan undirib olinishi mumkin emas.

Jarima solish to'g'risidagi qarorga muvofiq jarima to'la-to'kis undirib olingach, uning ijro etilganligi haqida belgi qo'yilib, shu qarorni chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki sudga qaytariladi.

*Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish* — ma'muriy jazoning turi sifatida faqat ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyolar uchungina tatbiq etiladi. Mazkur jazo chorasi mulkiy xususiyatga ega bo'lgan ma'muriy jazo chorasi bo'lib, faqat ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa sifatida foydalanilgan ashyolar egasiga nisbatangina qo'llanilishi mumkin. Lekin, huquqbuzarga tegishli bo'lman ashylarni (masalan, g'ayriqonuniy ov qilish, baliq turish natijasida qo'lga kiritilgan mahsulotlar: yovvoyi hayvonlar, baliqlar) haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish ma'muriy jazo chorasi hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 26-moddasiga muvofiq, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish — shu ashyoni majburiy tarzda tortib olib, uni keyinchalik sotib yuborish hamda sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga tortib olingan ashyoni sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda topshirishdan iboratdir.

O'qotar qurollar va o'q-dorilarni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish asosiy tirikchilik manbai ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish chorasini qo'llash tartibi va tortib olinadigan ashylarning turlari O'zbekiston Respublikasi MJTK va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

Ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish ma'muriy jazo chorasi mazmuniga ko'ra ketma-ketlikda o'zaro bog'langan quyidagi uch harakatni amalga oshirishdan iborat:

1) huquqbuzar shaxsdan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni majburiy tarzda olib qo'yish;

2) majburiy tarzda olib qo'yilgan ashyoni sotish;

3) ashyoni sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga ashyoni sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda topshirish.

Ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish ham asosiy, ham qo'shimcha ma'muriy jazo chorasi sifatida qo'llanilishi mumkin. U asosiy jazo chorasi sifatida faqat MJTK 220-moddasining 1-qismida o'qotar qurollar va o'q-dorilarni saqlash yoki tashish qoidalarini buzganlik uchun jarima bilan muqobil tarzda nazarda tutilgan. Qo'shimcha jazo chorasi sifatida haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish, xavfli moddalar va ashyolarni transportda tashish qoidalarini buzganlik uchun (MJTK 142-m. 2-q.) va o'qotar ov qurollari va o'q-dorilarni sotishdan bo'yin tovlaganlik uchun (222-m.) belgilangan. Shu bilan birga, basharti birinchi huquqbuzarlik uchun qonun chiqaruvchi ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yishni qo'shimcha jazo chorasi sifatida nazarda tutsa, ikkinchi huquqbuzarlik uchun mazkur jazo chorasini albatta asosiy jazo chorasi bo'lgan jarima bilan to'ldiradi.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 142, 222-moddalariga muvofiq bunday ashyolar portlovchi, tez alangalanuvchi, zaharli va zaharlovchi moddalar hamda ashyolar, shuningdek, o'qotar qurol va o'q-dorilardir.

Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish to'g'risidagi qaror asosida olib qo'yilgan narsalar belgilangan tartibda shartnomavositachilik asosida yoxud auksion shaklidagi kim oshdi savdosida realizatsiya qilinadi.

O'qotar qurollar va o'q-dorilarning haqini to'lab olib qo'yish to'g'risidagi qaror ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi.

***Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish*** — ma'muriy jazoning turi sifatida faqat ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyolar uchungina tatbiq etiladi. Mazkur ma'muriy jazo chorasi MJTKning 27-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish — shu ashyoning haqini to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazishdan iborat.

Mazkur musodara qilish chorasi:

1) tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan;

2) bojxona organlari tomonidan – aksiz markalari qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda, transportirovka (xalqaro tranzit bundan mustasno) qilinganda va saqlanganda, shuningdek eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga olib chiqib ketilayotgan hollarda;

3) soliq organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratorasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari tomonidan – aksiz markalari qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar saqlangannda, realizatsiya qilinganda, shuningdek yashirin ravishda ishlab chiqarilganda qo'llaniladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, faqat huquqbuzarning shaxsiy mulki bo'lgan ashycogina musodara qilinishi mumkin. Kontrabanda ashylari egasi kim bo'lishidan qatyi nazar, musodara qilinadi.

Musodara qilish chorasining qo'llanish tartibi, musodara qilish mumkin bo'limgan buyumlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va boshqa qonunlari bilan belgilanadi.

O'qotar qurollar va o'q-dorilarni, boshqa ov qurollarini musodara qilish asosiy tirikchilik manbai ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjalari bilan musodara qilish jazo chorasi quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkinitigi belgilangan:

Asosiy ma'muriy jazo chorasi sifatida.

Qoshimcha ma'muriy jazo chorasi sifatida:

a) musodara qilinishi shart bo'lgan holatlar;

b) ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan vakoliati doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan holatlar;

v) ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan vakoliati doirasida haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish jazosining orniga muqobil ravishda musodara jazo chorasini qo'llashi mumkin bo'lgan holatlar (MJTK 142-m. 2-q.);

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 337-339-moddalariga muvofiq, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashyo bo'lgan narsani musodara qilish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti organlari sud ijrochilarini tomonidan ijro etiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashyo bo'lgan musodara qilingan narsani sotish va yo'q qilib tashlash amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan narsani yoki bevosita ma'muriy huquqbuzarlik narsasini musodara qilish to'g'risidagi qaror ijro etilganidan so'ng sud ijrochisi ijro ishi yuritishni tamomlash to'g'risida qaror chiqaradi va uning bir nusxasi quyidagilarga yuboriladi.

uni chiqargan ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaga;

O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilayotgan, eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulotlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan, transportirovka (xalqaro tranzit bundan mustasno) qilinayotgan va saqlanayotgan, aksiz markalari qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni musodara qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilgan bojxona organining mansabdor shaxsiga;

saqlanayotgan, realizatsiya qilinayotgan, yashirin ravishda ishlab chiqarilayotgan, aksiz markalari qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni musodara qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilgan soliq organining mansabdor shaxsiga.

***Muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan mahrum qilish*** (*transport vositalarini boshqarish huquqidani, ov qilish huquqidani*) ***mahrum etish*** — huquqbuzarning belgilangan faoliyat bilan shug'ullanishini, maxsus huquqlardan foydalanish huquqini vaqtinchalik cheklashdan iborat ma'muriy jazo turidir. Qonun chiqaruvchi bu jazo chorasini qo'llashni faqat transport vositalarini boshqarish huquqidani va ov qilish huquqidani mahrum etish hollari bilangina cheklaydi.

Turli transport vositalarini boshqarish hamda ovchilik bilan shug‘ullanish — belgilangan yoshga to‘lgan shaxsda **maxsus huquq** (tegishli transport vositasini boshqarish uchun haydovchilik guvohnomasi, taloni shuningdek ovchilik biletiga)ning mavjud bo‘lishini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi MJTKda maxsus huquqdan mahrum qilishning eng ko‘p va eng oz muddatlari hamda mazkur jazoni qo‘lllovchi organ(mansabdor shaxs) belgilangan bo‘lib, maxsus huquqdan mahrum etishni tuman (shahar) sudining ma’muriy ishlar bo‘yicha sudyasi tomonidangina aybdor shaxs o‘ziga berilgan maxsus huquq (transport vositalarini boshqarish, ov qilish huquqi)dan foydalanish tartibini qo‘pol buzsa, yoki muntazam buzib kelsa, shu huquqdan o‘n besh kundan uch yilgacha muddatga mahrum qilish jazo chorasi qo‘llanishi mumkin.

Mazkur jazo chorasini ayrim shaxslarga nisbatan qo‘llashda cheklovlar mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

— nogironligi sababli ana shunday transport vositalaridan foydalanadigan shaxslarga nisbatan transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilish chorasi qo‘llanilmaydi;

— ov qilish asosiy tirikchilik manbai bo‘lgan shaxslarga nisbatan ov qilish huquqidan mahrum etish chorasi qo‘llanilmaydi.

Biroq, MJTKning 28-moddasida belgilangan hollarda, ya’ni transport vositalarini alkogolli ichimlikdan, giyovandlik vositasi ta’siridan mast bo‘lgan holda yoki o‘zgacha tarzda mast bo‘lgan holda boshqarish hollari, mastlik darajasini belgilangan tartibda aniqlashdan bo‘yin tovlash, shuningdek o‘zları ishtirokchi bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari sodir etilgan joydan ketib qolish holalarida nogironlarga ham mazkur jazo chorasi qo‘llaniladi.

Maxsus huquqdan mahrum etish ko‘pincha yo‘l harakati qoidalarini va transportdan foydalanish qoidalarini qo‘pol ravishda buzganliklari uchun transport vositalarining haydovchilariga nisbatan qo‘llaniladi. Harakat xavfsizligini ta’minlashning ta’sirchan vositasi bo‘lgan transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etish — mazkur huquqlarni ma’lum darajada cheklash bilan bog‘liq jazo chorasi hisoblanadi. Bunday ma’muriy jazo chorasini qo‘llash asosiy kasbi haydovchilik bo‘lgan shaxslar

uchun muayyan muddatga mutaxassisligi bo'yicha ishlash, havaskor haydovchilar, shaxsiy avto-mototransport sohiblari uchun – belgilangan muddat davomida o'ziga tegishli transport vositasini boshqarishni taqiqlashga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, mazkur jazo chorasingin amal qilishi avtomobil, traktor va boshqa o'ziyurar mashinalar, tramvay va trolleybuslar, mototsikllar va boshqa mexanik transport vositalari, kichik hajmli kemalar haydovchilari sodir etgan qo'pol huquqbuzarliklar uchun ham tatbiq etiladi.

Mazkur jazo chorasi asosan, quyidagi huquqbuzarliklar uchun qo'llanilishi nazarda tutiladi: kichik hajmli kemalardan va ular turadigan bazalardan (inshootlardan) foydalanish qoidalarini buzish (MJTK 119-m., 2-q); transport vositalari haydovchilarining harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi guruh bo'lib harakat qilishda qatnashganlik (129-m., 2-q.); transport vositalarini mast holda boshqarish (131-m., 1, 3-q.); kema haydovchilarining kichik hajmli kemalarni mast holda boshqarishi (132-m.); transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi (133-m.); haydovchilarning yo'l harakati qoidalarini buzishi transport vositalarining yoki boshqa molmulkning shikastlanishiga olib kelishi (134-m.); yo'l-transport hodisasi yuz bergan joydan ketib qolish (137-m.).

Ov qilish huquqidan mahrum etish asosan quyidagi huquqbuzarliklar uchun nazarda tutiladi: ov qilishga tegishli ruxsati bo'limgan holda yoki taqiqlangan joylarda yoxud taqiqlangan muddatlarda, taqiqlangan qurollar yoki usullar bilan ov qilish, shuningdek, ov qilish va baliq tutishning boshqa qoidalarini muntazam ravishda buzganlik uchun nazarda tutilgan.

Maxsus huquqdan mahrum etish to'g'risida qaror chiqariladi. Ushbu qarorni quyidagi organ (mansabdor shaxs)lar ijro etadi:

— transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etish to'g'risidagi qaror ichki ishlar organlarining mansabdor shaxslari tomonidan ijro etiladi;

— kema haydovchilarini kichik hajmli kemalarni boshqarish huquqidan mahrum etish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respub-

likasi kichik hajmii kemalar davlat inspeksiyasi organlarining mansabдор shaxslari tomonidan ijro etiladi;

— ov qilish huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi qaror ov qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati olib boruvchi organlarning mansabдор shaxslari tomonidan ijro etiladi.

Transport vositalarini yoki kichik hajmli kemalarni boshqarish huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi qaror haydovchilik guvohnomasini, shuningdek uning talonini olib qo‘yish yo‘li bilan ijro etiladi.

Basharti haydovchi yoki kema haydovchisi transport vositalarining yoki kichik hajmli kemalarning ayrim turlarini boshqarish huquqidangina mahrum etilgan bo‘lsa, haydovchilik guvohnomasiga va uning taloniga transport vositalarining yoki kichik hajmli kemalarning qaysi turlarini boshqarish huquqidan mahrum etilganligi yozib qo‘yiladi.

Ov qilish huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi qaror ovchilik biletini olib qo‘yish yo‘li bilan ijro etiladi.

Ov qilish huquqidan mahrum etilgan shaxs ovchilik biletini topshirishdan bo‘yin tovlagan taqdirda ov qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar ovchilik biletini belgilangan tartibda olib qo‘yadilar.

Transport vositalarining haydovchilarini va ov qilish qoidalarini buzgan shaxslar maxsus huquqdan mahrum etish to‘g‘risida qaror chiqarilgan kundan boshlab shunday huquqdan mahrum etilgan deb hisoblanadilar.

Maxsus huquqdan mahrum qilish muddati o‘tgach, shuningdek bu muddat o‘matilgan tartibda qisqartirilgan taqdirda, shunday ma’muriy jazo chorasiqa tortilgan shaxsga undan olib qo‘yilgan hujjatlar belgilangan tartibda qaytarib beriladi.

***Ma’muriy qamoqqa olish*** — huquqbazar shaxsga nisbatan uning shaxsiy erkinligini ma’lum bir muddat (uch sutkadan o‘n besh sutkagacha, favqulorra holat tartibi sharoitida esa, jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun — o‘ttiz sutkagacha)ga vaqtinchalik cheklash va jamiyatdan ajratib qo‘yishdan iborat bo‘lgan qattiq ma’muriy jazo turidir.

***Ma’muriy qamoqqa olish tarzidagi ma’muriy jazo chorasi*** faqat ayrim ma’muriy huquqbazarliklar uchun belgilangan bo‘lib, ular o‘zining darajasi jihatidan jinoiy qilmishlarga yaqin bo‘lgan quyidagi huquqbazarliklar uchun qo‘llaniladi:

- a) giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni oz miqdorda g'ayriqonuniy tarzda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish (56-m.);
  - b) tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish (60-m.);
  - c) mayda bezorilik (183-m.);
  - f) jamoat tartibiga va fuqarolarning xavfsizligiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish (184-m.);
  - g) jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish, xuddi shunday huquqbazarlikni ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish (187-m., 2-q.);
  - h) miliitsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik, uni takror sodir etish (194-m., 2-q.);
  - i) miliitsiya xodimlarining o'z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish (195-m.);
  - j) chegara qo'shnlari harbiy xizmatchilarning qonuniy talablarini bajarmaslik va ularning qonuniy faoliyatiga qarshilik ko'rsatish (196<sup>1</sup>-m., 3-q.);
  - k) yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish (201-m.);
  - l) g'ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalarning faoliyatida qatnashishga undash (202<sup>1</sup>-m.);
  - m) favqulodda holat tartibining talablarini buzish (204-m.);
  - n) favqulodda holat tartibi sharoitida jamoat tartibiga tajovuz qilish (205-m.). Mazkur huquqbazarlik uchun o'ttiz sutkagacha ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasi qo'llaniladi;
  - o) nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatni amalga oshirish tartibini buzishi (239-m.);
  - p) diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini buzish (240-m.);
  - q) diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish (241-m.).
- Mazkur ma'muriy-huquqiy normalarning sanksiyalarida asosan ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasining faqat eng ko'p muddati keltiriladi. Bunday hollarda ma'muriy qamoqqa olish uch sutkadan muayyan moddaning sanksiyasida ko'rsatib o'tilgan muddatgacha tayinlanishi mumkin.

Ma'muriy qamoqqa olish faqat tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan, favqulodda holat

tartibi sharoitida esa, harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 29-moddasining 2-qismida ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasi qo'llab bo'lmaydigan shaxslar ro'yxati belgilangan bo'lib, ushbu ma'muriy-huquqiy normaga asosan homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarziyalayotgan shaxslarga, o'n sakkiz yoshga to'lмаган shaxslarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga hamda MJT Kning 16-moddasida ko'rsatilgan harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek ichki ishlar organlarining safdorlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslarga nisbatan ma'muriy qamoqqa olish jazo chorasi qo'llanilishi mumkin emas.

Ma'muriy qamoqqa olish to'g'risidagi qaror boshqa ayrim ma'muriy jazo choralarini qo'llash to'g'risidagi qarorlardan, qaror chiqarilgandan keyin darhol ijro etilishi bilan farqlanadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjalarda ma'muriy qamoq jazosini o'tash tartibi belgilangan bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi. Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar ichki ishlar organlari belgilab qo'yan joylarda qamoqda saqlanadilar. Ma'muriy qamoqqa olish to'g'risidagi qarorni ijro etish chog'ida qamoqqa olinganlar o'rnatilgan tartibda shaxsiy ko'rikdan o'tkaziladilar. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati ma'muriy qamoq muddatiga qo'shib hisoblanadi.

Shuningdek, ma'muriy qamoqni o'tash O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi. Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslardan jismoniy isnlarda foydalaniлади. Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar mehnatidan foydalananishni tashkil etish tuman (shahar) hokimliklariga yuklandi.

Ma'muriy qamoqqa olingan doimiy ish joyiga ega bo'lgan shaxslarga qamoqda bo'lgan vaqtvari uchun doimiy ish joylaridan ish haqi to'lanmaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy qamoqqa olingan shaxsiyini saqlash xarajatlarini undirish to'g'risida»gi qonuniga

**muvosiq**, ma'muriy qamoqqa olingan shaxslardan ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning qaroriga binoan ularni saqlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar sutkasiga eng kam ish haqining 15 foizi miqdorida undirib olinadi.

Shaxs ma'muriy qamoqda bo'lgan vaqtida ishlab, o'zini saqlash xarajatlarini qopagan hollarda undan xarajatlar undirib olinmaydi. Agarda ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar mehnatga qobiliyatsiz bo'lsalar, ular ham bu xarajatlarni undirishdan ozod qilinadilar. Shu bilan birga, ayrim hollarda suda aniq holatlarni va huquqbuzarning shaxsini hisobga olib, uni mazkur xarajatlarni to'lashdan ozod qilishi mumkin.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Ma'muriy jazo va uning maqsadi nimalardan iborat?
2. Ma'muriy jazoning qanday vazifalari mavjud?
3. Ma'muriy jazoni qo'llash asoslari qanday?
4. Ma'muriy jazo qo'llanishining umumiy qoidalari haqida so'zlab bering.
5. Ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni tushuntiring.
6. Ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarni tushuntiring.
7. Qanday hollarda yengilroq ma'muriy jazo chorasi qo'llaniladi?
8. Bir necha huquqbazarlik sodir etganlik uchun qanday ma'muriy jazo qo'llaniladi?
9. Ma'muriy jazoning qo'llanish muddatlari haqida so'zlab bering.
10. Ma'muriy jazo choralari haqida tushuntiring.
11. Asosiy ma'muriy jazo deganda nimani tushunasiz?
12. Qo'shimcha ma'muriy jazo deganda nimani tushunasiz?
13. Ma'muriy jarima qanday tartib va asoslarda undiriladi?
14. Ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish nima degani?
15. Ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish deganda nimani tushunasiz?
16. Muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish qanday hollarda yuz beradi?
17. Ma'muriy qamoq jazo chorasi qo'llashning asoslari va tartiblari haqida so'zlab bering.

*XIII bob*  
AYRIM TURDAGI HUQUQBUZARLIKLER UCHUN  
MA'MURIY JAVOBGARLIK

**I-§. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz  
giladigan huquqbuzarliklar uchun  
ma'muriy javobgarlik**

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra, har bir inson erkinlik huquqiga hamda o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishlardan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi MJKning 40—51-moddalarida ham fuqarolarning ana shu erkinliklari va daxlsizliklarini himoya qiluvchi normalar mustahkamlangan. Ushbu normalarda huquqbuzarliklarining ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

**Tuhmat (40-m.).** Tuhmat, ya'ni bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish, eng kam ish haqining yigirma baravaridan oltmisht baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tuhmat ma'muriy huquqbuzarlik bo'lib, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilishdan iboratdir. Undan himoyalanish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida bayon etilgan.

*Uydirmalar tarqatish* deganda go'yo ro'y bergan ma'lumotlar, faktlarni hech bo'lmaganda bitta shaxsga ma'lum qilish tushuniladi. Bunda ma'lum qilish og'zaki, yozma yoki boshqa bir shaklda bayon etilganligining ahamiyati yo'q.

Bila turib yolg'on gapirish shundan iboratki, tegishli ma'lumotlarni tarqatuvchi shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelmasligini biladi. Ma'lumotlarning yolg'onligini anglaç yetmaslik (masalan, ma'lumotlarning rasmiy shaxsdan olinishi, hujjatlar bilan tanishish) javobgarlikni istisno qiladi. Haqiqatda sodir bo'lmagan faktlarning ma'lum qilinishi, lekin ularning mazmuniga noto'g'ri

ba'ho berilishi tuhmat hisoblanmaydi (masalan, agar texnik-slesar haqiqatan ham nohaq yig'imlar bilan shug'ullanadigan bo'lsa, uning aholidan pora olishi haqidagi xabar).

Tegishli ma'lumotlarni tarqatuvchi shaxsning mazkur ma'lumotlar to'g'ri bo'lishi mumkin, deb taxmin qilishi tuhmat uchun ma'muriy javobgarlikni istisno qilmaydi.

Boshqa shaxslarni sharmanda qilsa ham, lekin haqiqatga to'g'ri keladigan ma'lumotlarni tarqatish tuhmat tarkibini hosil qilmaydi.

Boshqa shaxsni sharmanda qiluvchi ma'lumotlarni tarqatish uydurma hisoblanadimi, degan masala axloq va ma'naviylik normalari maxsida hal etiladi. «Boshqa shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalar» Jumlasiga qonun, axloq va ma'naviylik normalariga rioya qilish nuqtai nazaridan jamoatchilik yoki ayrim fuqarolar fikrida fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini yerga uruvchi uydirmalarni ham kiritish mumkin.

Tuhmat to'g'ridan-to'g'ri g'arazli niyat bilan, odatda o'ch olish, ko'rolmaslik kabi bahonalar bilan sodir etiladigan huquqbuzarlikdir.

**16** yoshga yetgan shaxslar huquqbuzarlik subyektlari hisoblanadi.

Tuhmat qilinib, ma'muriy jazo chorasi qo'llanilgandan keyin sodir etiladigan xuddi shunday xatti-harakatlar JK 139-moddasining 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

MJTKning 245-moddasiga muvofiqlik, aytib o'tilgan huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar ma'muriy ishlar bo'yicha sudya tomonidan ko'rib chiqiladi.

**Haqorat qilish (41-m.).** Haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish, eng kam ish haqining yillima baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Haqorat qilish — fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi ma'muriy huquqbuzarlik. Bunday tajovuz salbiy borishdan iborat bo'lib, shaxsning ma'naviy nufuziga atrofda-nilar ko'z o'ngida putur yetkazadi, jabrlanuvchining o'ziga bo'lgan hummatga zarar yetkazadi.

Bu huquqbuzarlik obyektiv tomonining xususiyati shundan himmatki, u og'zaki, yozma (xat, rasm va shu kabilar) tarzda yoxud

fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini yerga uradigan harakat (tarsaki, tupurmoq, beadab imo-ishora singari)lar bilan sodir etilishi mumkin. Tuhmatdan farqli o'laroq, haqorat qilishda jabrlanuvchining ma'naviy qiyofasini salbiy tasvirlovchi qandaydir faktlar ko'rsatilmaydi, balki shaxsga baho beriladi, bu baho kishining xulq-atvoriga, qiyofasi kabilarga tegishli bo'lishi mumkin.

Bu salbiy baho haqiqatga to'g'ri kelish-keimasligi mazkur tarkib uchun ahamiyatsizdir. Basharti, masalan, shaxs jabrlanuvchini ahmoq deb atasa-yu, haqiqatan ham u ko'pchilik boshqa shaxslarning fikricha aqlsiz bo'lsa, u holda haqorat yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Subyektiv tomondan mazkur huquqbazarlik to'g'ridan-to'g'ri qasddan iborat qilib tavsiflanadi, ya'ni shaxs o'zining xatti-harakatlari g'ayrihuquqiy ekanligini anglab yetadi va ularni sodir qilishni istaydi. Bundan tashqari, huquqbuzarning aniq ifodalangan maqsadi shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini yerga urish.

Haqorat ko'pchilik o'rtasida — aybdorga ham, jabrlanuvchiga ham tanish yoki notanish kishilar ishtirokida, hatto jabrlanuvchi yo'q bo'lgan vaqtida ham qilinishi mumkin. Bu keyingi holatda aybdorning niyati haqoratning jabrlanuvchiga ma'lum bo'lishidan iboratdir.

16 yoshga yetgan aqli raso shaxslar huquqbazarlik subyektiari hisoblanadi.

Haqorat qilish xuddi shunday xatti-harakat uchun ma'muriy jazo chorasi qo'llangandan keyin nomaqbul shaklda sodir etilgan taqdirda unga JK 140-moddasining 1-qismi bo'yicha baho beriladi.

Bu huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

**Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lif berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik (47-m.).** Ota-onalar yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lif berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan, voyaga yetmagan bolalarning ma'muriy huquqbazarlik sodir etishiga olib kelishi, — eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bolalarni tarbiyalash O'zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy burchidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida ota-onalar o'z bolalarini vcyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanliklari mustahkamlangan. Bu vazifani amalga oshirish uchun ota-onalarga ota-onalik huquqlari, ya'ni o'z farzandlarini shaxsan tarbiyalash huquqi berilgan. Ota-onalik huquqlari, ayni vaqtda, ota-onalarning bolalarini tarbiyalash sohasidagi vazifasini ham belgilab bergan. Oila to'g'risidagi qonunda bu vazifaning mazmuni: bolalarni tarbiyalash, ularning jismoniy kamolotga yetishi va ta'lif olishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish olib berilgan.

Ushbu normada ota-onalar yoki ular o'mini bosuvchi shaxslarning ma'muriy jazolanadigan huquqbazarliklarining quyidagi turlari nazarda tutilgan, ya'ni: a) bu shaxslarning voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va o'qitish sohasidagi vazifalarini bajarmasligi; b) ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning voyaga yetmaganlarni tarbiyalash va o'qitish sohasidagi vazifalarini bajarmasligi oqibatida voyaga yetmaganlarning ma'muriy huquqbazarliklar sodir etishi ifodalangan. Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lif berish vazifalarini bajarmaslik deganda harakatsizlikning turli shakllarini, ya'ni harakatsizlik natijasida voyaga yetmaganlarni tarbiyalash yoki ularga ta'lif berish to'g'risida yetarli g'amxo'rlik qilinmayotganligini tushunmoq kerak. Ota-onalar yoki ular o'mini bosuvchi shaxslarning o'z vazifalarini bajarishdan bo'yin tovashi shu narsada ifodalanadi, ular bolalarning ma'naviy tarbiyasi, jismoniy kamolga yetishi va sog'lig'ini mustahkamlash, ularning o'z vaqtida umumiyligi o'rta yoki kasb-hunar ta'limi olishlari, muvaffaqiyatlari o'qishlari to'g'risida zarur shart-sharoitlar yaratish berish borasida g'amxo'rlik qilmaydilar. Bolalar tarbiyasi ota-onalarning turli harakatlaridan tashkil topadi, ulardan biri bolalarning xulq-atvorini nazorat qilib borishdir.

Shu sababi ota-onalar yoki ular o'mini bosuvchi shaxslarning bolalar xulq-atvoriga yengiltaklik yoki befarqlik bilan munosabatda bo'lishi, ular xulq-atvorigining jamiyat hayoti normalariga muvofiq kelishini yetarli darajada kuzatib bormasliklari ko'pincha bolalarning huquqbazarlik sodir etishiga olib keladi. Bolalar ma'muriy va boshqa

xil huquqbazarlik sodir etgan taqdirda ota-onalarning tarbiya sohasidagi vazifalarini yetarli darajada bajarmasliklari javobgarlik subyekti bo'lib hisoblanadi. Barcha hollarda ota-onalar o'z harakatsizliklari uchun javobgardirlar, bu harakatsizlik natijasida bolalarning lozim darajada tarbiyalanmasligi yoki ta'limga olmasligi ularning huquqbazarliklar sodir etishiga sabab bo'ladi. Ota-onalar va ular o'rnini bosuvchi shaxslarning ma'muriy javobgarligi 47-moddaga muvofiq, mustaqil asosga ega bo'lib, o'smirlarning huquqbazarlik qilishidan keyin emas, balki u bilan birga sodir bo'ladi (bunda voyaga yetmaganlarning o'ziga nisbatan ham qonunda ko'zda tutilgan choraiar qo'llaniladi).

Basharti aybdor bolalarni tarbiyalash va ularga ta'limga berish sohasidagi vazifalarini qasddan bajarmagan taqdirda javobgarlikka tortiladi. Vazifalarni bajarmaslikning qasddan sodir etilgan yoki etilmaganligi masalasi har bir muayyan holda bolalarni tarbiyalash va ularga ta'limga berishning davomiyligi va sabablarini, ularga o'z vaqtida samarali ta'limga berish uchun sharoitning yo'qligi, bolaning xulq-atvori va o'qishi ustidan nazoratning yo'qligi qancha davom etganligi va ishga doir boshqa barcha holatlarni hisobga olgan holda hal etiladi. Huquqbazarlikning qasddan sodir etiladigan, xususan, voyaga yetmaganlarning huquqiy normalarni takroran (bir necha marta) buzganligi, bu huquqbazarliklarning xususiyati, ota-onalar, turli organlar, voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar, ichki ishlar organlari, muktablar, hunar-texnika bilim yurtlari ma'muriyati va boshqalarning e'tiborsizligi, loqaydligi hamda hokazolardan dalolat berishi mumkin.

Ushbu modda bo'yicha faqat ota-onalar, ya'ni bolaning otasi yoki onasi emas, balki voyaga yetmaganlarni tarbiyalash sohasidagi vazifalarni bajarishda ularga tenglashtirilgan boshqa shaxsiar ham javobgarlikka tortiladi. Bular — bolani asrab olgan, unga nisbatan qonuniy ota-onalari o'rnini bosuvchi shaxslar, vasiylar va tarbiya-chilar bo'lishi mumkin. Ota-onalik huquqididan mahrum etilgan shaxslar mazkur modda bo'yicha ma'muriy javobgarlikka tortilmaydi. Ota-onalar bolalarni tegishli davlat muassasalariga (masalan, internatlarga) yoki ayrim fuqarolarga tarbiyalash uchun berishga haqlidirlar, biroq bunday holda ularni tarbiyalash vazifasi ota-

onalarda qoladi va ular tarbiyaning lozim darajada amalga oshirilmagani uchun javobgar bo'ladilar.

Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolalarni voyaga yetguncha tarbiyalaydilar. Bu yoshga yetgandan keyin fuqaro to'liq voyaga yetgan hisoblanadi va ota-onalarning bolani tarbiyalash sohasidagi huquqiy vazifasiga ehtiyoj qolmaydi. Shunga muvofiq, mazkur huquqbuzarlikning tarkibi faqat voyaga yetmaganlarni tarbiyalash va ularga ta'lif berish sohasidagi vazifalarni bajarishni qamrab oladi.

Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar 47-modda bo'yicha faqat aybli xulq-atvordagini javobgar bo'lishlari mumkin. Shuning uchun bolalarni tarbiyalash sohasidagi ota-onalik vazifalarini ruhiy kasallik, aqliy zaiflik yoki boshqa surunkali kasallik sababli va o'zlariga bog'liq bo'limgan boshqa sabablarga ko'ra bajarmagan shaxslarga jazo chorasi qo'llanilmaydi.

Voyaga yetmaganlarning ota-onalariga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga doir ishlar ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar va voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi MTKning ushbu bobi «Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjalari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 16-aprel qonuniga muvofiq «47<sup>1</sup>-modda. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaslik» hamda «47<sup>2</sup>-modda. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda qonun hujjalari talablarini buzish» nomli moddalar bilan to'ldirildi. Ushbu moddalarga asosan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni shunday bolalar turgan muassasa rahbari yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsi tomonidan vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaslik, shuningdek ular tomonidan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqida atayin noto'g'ri ma'lumotlar berish hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga

tarbiyaga (patronat), farzandlikka berishda, ularga vasiylik (homiylik) belgilashda yoxud ularni yetim bolalar yoki ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tayiniangan tegishli davlat muassasasiga joylashtirishda qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilab qo'yildi.

## **2-§. Aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik**

Bu turdag'i huquqbuzarliklar uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi MJTKning 52—59-moddalarida nazarda tutilgan. Shulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

**Yengil tan jarohati yetkazish (52-m.).** Ehtiyyotsizlik orqasida yengil tan jarohati yetkazish, — eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Qasddan yengil tan jarohati yetkazish, bu harakat sog'liqning qisqa muddatli yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatini uncha ko'p davom etmaydigan turg'un tarzda yo'qtishga olib kelmagan bo'lsa, — eng kam ish haqining ikki baravaridan to'rt baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ehtiyyotsizlik orqasida yengil tan jarohati yetkazish quyidagi hollarda sodir bo'ladi:

a) harakat ehtiyyotsizlik bilan sodir etilganligi va jabrlanuvchining sog'lig'iga zarar yetkazganligi, bunga huquqbuzarning oldindan ko'zi yetmagan, holbuki, u zarar yetkazilishi mumkinligiga oldindan ko'zi yetishi lozim va mumkin edi, lekin u zarar yetkazilishiga oldindan ko'zi yetgan bo'lsa ham yengiltaklik bilan uni bartaraf etish mumkinligiga ishongan bo'lsa;

b) huquqbuzar o'z xatti-harakati bilan yetkazilgan zarar ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan bo'lsa.

Qasddan yengil tan jarohati yetkazish — bu harakat sog'liqning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatini uncha ko'p davom etmaydigan turg'un tarzda yo'qtishga olib kelmagan huquqbuzarlikdir.

Badanga yetkaziigan tan jarohatini yengil jarohat deb topish uchun uning yetkazilgan vaqtida hayot uchun xavfli bo'limgani va

sog'liqning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha ko'p davom etmaydigan tarzda yo'qotishga olib kelmaganini aniqlash lozim.

Sog'liqning yomenlashuvi muddati va mehnat qobiliyatining qay darajada yo'qotilganligi masalasini tibbiy guvohlik berish xulosasini hisobga olgan holda ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar hal qiladi.

Sog'liqning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatini uncha ko'p davom etmaydigan turg'un tarzda yo'qotishga olib kelmagan qasddan yengil tan jarohati yetkazishga birmuncha tez o'tib ketadigan shikastlanishlar kiradi.

Yengil tan jarohati yetkazgan huquqbuzarning harakatlari zarur mudofaa chegaralaridan chetga chiqqan taqdirda ma'muriy javobgarlikka sabab bo'lmaydi, chunki ular himoyalanuvchining zarur mudofaa chorasi qo'llanishi oqibati sifatida qonunda ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan holat tarzida nazarda tutilmagan.

Qasddan yengil tan jarohati yetkazish, bashari bu harakatlar jamoat tartibini buzishga olib kelmagan yoki jamiyatni hurmat qilmaslikni ifodalamagan bo'lsa, bezorilik deb baholanishi mumkin emas.

Mazkur huquqbazarlik obyekti fuqarolarning sog'lig'idir.

Huquqbazarlik tarkibining *obyektiv tomoni* yengil tan jarohati yetkazish harakatini nazarda tutadi.

Huquqbazarlikning subyektiv tomoni ham ehtiyoitsizlik orqasida, ham qasddan yengil tan jarohati yetkazilganligidir.

Huquqbazarlikning subyekti huquqbazarlik sodir etilgan paytda 16 yoshga to'lgan shaxs hisoblanadi.

Xuddi shunday xatti-harakatlar uchun ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin sodir etilgan qasddan yengil tan jarohati yetkazilishi JK 109-moddasining 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Kodeks 52-moddasining 1 va 2-qismlarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ishlar tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari tomonidan ko'rib chiqiladi.

**Sanitariya qonun hujjatlarini buzish (53-m.).** Sanitariya qonunchilik hujjatlarini, sanitariya normalarini, qoidalarni va gigiyena normativlarini buzish, — fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ldi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huquqbuzarliklar jamoat xavfsizligiga, tabiiy muhit obyektlariga (atmosfera havosidan tashqari), aholining sog'lig'iga, mehnat va dam olish sharoitlariga tajovuz qiladi.

Shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortish uchun qanday sanitariya-gigiyena qoidalari buzilganligini aniqlab olish zarur. O'zbekiston Respublikasining «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi qonuniga muvofiq davlat sanitariya-gigiyena normalari va qoidalarni ishlab chiqish hamda tasdiqlash Sog'liqni saqlash vazirligi zimmasiga yuklangan. Boshqa qoidalalar va normalar manfaatdor vazirliklar, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan sanitariya-gigiyena xizmati organlari va muassasalari bilan birgalikda ishlab chiqiladi. Bu qoidalalar sanoatning ayrim tarmoqlariga, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga ham tatbiq etiladi.

Ko'rsatib o'tilgan qoidalarga rioya etilishini nazorat qilishni sanitariya-gigiyena xizmati organlari, temir yo'l, fuqaro aviatsiyasi kompaniyalari, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi obyektlarida, Mudofaa vazirligining harbiy shaharchalari va o'quv markazlari hududida joylashgan obyektlarda ko'rsatib o'tilgan vazirliklar va idoralar tibbiy xizmatlari amalga oshiradi.

Mazkur modda bo'yicha javobgarlik sanitariya-gigiyena qoidalarning buzilishi atmosfera havosini saqlash qoidalarning buzilishiga sabab bo'lmagan paytda boshlanadi. Aks holda MJTKning 85—88-moddalari bo'yicha javobgarlik boshlanadi.

Obyektiv tomondan qaraganda huquqbuzarlik yo faol harakatlarda yoki harakatsizlikda ifodalanadi, bunda shaxs belgilangan qoidalarni bajarish lozim bo'lgani holda, ularni bajarishdan bila turib bosh tortgan bo'ldi.

Xatti-harakatning subyektiv tomoni shaxsnинг ko'rsatib o'tilgan qoidalarni bila turib buzishida va qandaydir oqibatlarning boshlanishiga nisbatan ehtiyyotsizlik bilan qaraganligida ifodalanadi.

Huquqbuzarlikning subyekti sanitariya-gigiyena qoidalari va normalariga rioya qilinishiga javobgar bo'lgan mansabdar shaxslar ham, shuningdek, bu qoidalarni buzgan fuqarolar ham bo'lismi mumkin.

Ushbu moddada nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni zimmasiga davlat sanitariya nazorati yuklangan organlar ko'rib chiqadilar ( MTKning 250–252, 257, 258-moddalar).

**Giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni oz miqdorda g'ayriqonuniy tarzda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish** (56-n.). Giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay, oz miqdorda g'ayriqonuniy tarzda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish, — giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni musodara qilib, eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga yoxud giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni musodara qilib, o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoq jazosiga sabab bo'ladi.

Mazkur xatti-harakatning obyektiv tomoni turli harakatlarni — giyohvandlik vositalarini va shu kabilarni tayyorlash, olish, sakdash, tashish, jo'natishni yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomaiada bo'lishi O'zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi qonunida belgilangan. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

a) giyohvandlik (narkotik) vositalari — giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar;

b) psixotrop moddalar — psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

d) prekursorlar — prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tayyorlash uchun foydalaniadigan mod-

dalar. Giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarini oz yoki ko'p miqdorga kiritish to'g'risidagi masalani hal qilish tergov va sud organlari vakolatiga kiradi, ular bunda O'zbekiston Respublikasining Giyohvandlik vositalarini razorat qilish davlat komissiyasining 1995-yil 1-apreldagi tavsiyalariga va giyohvandlik vositalarining ro'yxatiga amal qilishlari lozim. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarini setish maqsadisiz oz miqdorda tavyorlash, saqlash, tashish yoki jo'natish ma'muriy huquqbuzarlik bo'lib, buning uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi MTKning 56-moddasida nazarda tutilgan.

Mazkur xatti-harakat subyekti 16 yoshga to'lgan shaxsdir.

Subyektiv tomondan qaraganda mazkur xatti-harakat faqat qasddan sodir etilishi mumkin. Ayodor o'zining g'ayrihuquqiy harakatlar sodir etayotganini anglab yetadi, ularning zarafii oqibatlariga oldindan ko'zi yetadi yoki bunga bila turib yo'l qo'yadi.

Mazkur harakatlarni sotish maqsadida sodir etish JKning 273-moddasining, 1-qismi bo'yicha baholanadi.

MTKning 56-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudvasi va ushbu kodeksning 246-moddasida ko'rsatib o'tilgan hollarda ma'muriy komissiyalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

### **3-§. Mulkka tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarliklar**

Mulkka tajovuz qiluvchi ma'muriy huquqbuzariiklar uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi MTKning 60–64-moddalarida ko'zda tutilgan.

**Oz miqdorda talon-toroj qilish (61-m.).** Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxona, muassasa, tashkilotlarning mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suviste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorda talon-toroj qilish, — eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik

ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'laci. Bashani talon-toroj qilingan mulkning qiymati belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan oshmasa, bunday talon-toroj oz miqdorda talon-toroj qilish deb hisoblanadi.

Mulkni oz miqdorda talon-toroj qilish mulkka tajovuz qilishning keng tarqalgan turlaridan biridir. Bu huquqbuzarlik yetkazadigan moddiy zarar juda katta bo'lib, bundan ko'rila'digan ma'naviy ziyon ham ozmuncha emas.

Mulkni o'g'irlash, shu jumladan, oz miqdorda taion-toroj qilish qasddan qilinadigan, haqini to'lamasdan sodir etiladigan g'ayriqonuniy xatti-harakat bo'lib, bu mulkni g'arazli maqsadda o'zining mulki qilib olish yoki boshqa shaxsning mulki qilib berish uchun amalga oshiriladi. Aybdor mehnat sarflamasdan boy bo'lib qoladi, talon-toroj qilingan mulkni o'z mulki sifatida tasarruf qiladi, uni ishlata di, in'om etadi, sotadi va hokazo.

Basharti talon-toroj qilingan mulk eng kam ish haqining belgilangan miqdoridan oshib ketmasa, qilingan oz miqdordagi talon-toroj hisoblanadi. «Mulk» deganda sanoat, xo'jalik yoki hunarmandlik, ishlab chiqarishi buyumlari, xom ashyo, pul, haq to'langan hujjalalar tushuniladi, ular bevosita moddiy boylik olish huquqini beradi.

Talon-toroj qilingan mulkning qiymati belgilangan chakana narxlar bilan aniqlanadi. Agar talon-toroj umumiyligi ovqatlanish korxonasida (ishlab chiqarishda, bufetda) yoki komission savdoda ro'y bergan bo'lsa, qiymat ana shu mahsulotni va molni sotish uchur belgilangan narxlar asosida aniqlanadi. Basharti talon-toroj qilingan mulkning chakana narxi bo'lmasa, u holda qiymat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Moddiy boyliklarni talon-toroj qilishda, rastrata qilishda, qasddan yo'q qilish yoki qasddan shikast yetkazishda ularning chakana narxi bo'lmanган taqqirda yetkazilgan zararni belgilash uchun narxlarni hisoblab chiqish taribi to'g'risidagi ko'rsatmalariga muvofiq aniqlanishi kerak. Basharti talon-toroj qilingan mulkning, boylikning chakana narxi bo'lmasa va ularning qiymatini Moliya vazirligi ko'rsatmalarida

nazarda tutilgan tartibda aniqlash imkonи bo'lmasa, u holda o'g'irlangan mulk qiymatи ekspert xulosasi asosida aniqlanadi.

Sodir etilgan talon-toroj oz miqdordagi talon-toroj ekanligini hal etishda talon-toroj qilingan mulkning qiyamatidan tashqari, shuningdek, bu buyumlarning tabiiy miqdori (vazni, hajmi) va ularning xalq xo'jaligi uchun ahamiyati ham hisobga olinishi lozim. Talon-toroj qilingan mulkning, masalan, muayyan binokorlik materialining o'ta taqchilligi ham nazarda tutilishi kerak.

Oz miqdordagi talon-toroj basharti u mazkur moddada ko'rsatib o'tilgan shakllarda, ya'ni o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab mavqeini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarlikning tarkibini tashkil etadi. O'g'irlash yashirin ravishda talon-toroj qilishdir. O'zlashtirish huquqbuzar ixtiyorida bo'lgan, masalan, omborchiga saqlash uchun berilgan yoki ekspeditorga yetkazib berish uchun ishonib topshirilgan mulkni o'ziniki qilib olish yoki boshqa shaxsning mulkiga aylantirish bilan bog'liqdir. Rastrata qilish aybdorning ixtiyorida bo'lgan mulkning g'arazli maqsadda uchinchi shaxs tomonidan sotilishi, ishlatilishi, hadya qilinishi, begonalashtirilishini bildiradi. Xizmat mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan talon-toroj qilishda mulk mansabdor shaxsning ixtiyorida bo'lmaydi, u g'ayriqonuniy farmoyish berib, soxta hujjatiardan foydalangan holda, mulkni egallab oladi va hokazo. Masalan, mansabdor shaxs qo'l ostidagi shaxsga muassasaga qarashli benzin solingan idishni haq to'lamasdan o'z qarindoshiga topshirishni buyuradi. Mulkni firibgarlik yo'li bilan egallab olish uchun bu mulk kimda saqlanayotgan bo'lsa, uni chalg'itish, mulkni aybdorga berishga undash maqsadida yolg'ondan foydalanish, haqiqatni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish xosdir. Bir qator talon-torojni baholashga ta'sir qiladigan holatlar jinoiy xatti-harakat bo'lsa ham ular oz miqdordagi talon-toroj qilish uchun ahamiyatsiz bo'ladi. Bir guruh shaxslarning oz miqdorda talon-toroj sodir qilish uchun oldindan kelishib olishi, uni alohida xavfli, takroran jinoyat sodir qilgan shaxs tomonidan amalga oshirilishi shuningdek, jinoyatni ijro etish usuli (binoga kirish yoki boshqa omborxonaga kirish yo'li bilan) oz miqdordagi talon-torojni

(bunday jinoyat uchun g‘arazli niyat mavjud bo‘lmagan taqdirda) jinoiy jazoga tortiladigan talon-toroj deb baho berishga asos bo‘lib xizmat qiladigan holatlar hisoblanmaydi. Biroq bunday holatlar aybdorga jazo chorasi belgilashda hisobga olinishi lozim.

Ko‘rib chiqilayotgan huquqbuzarlik subyektiv tomondan to‘g‘ridan-to‘g‘ri g‘arazli niyat va maqsadning mavjudligini nazarda tutadi. Har qanday shakldagi oz miqdordagi talon-torojni mulkka tajovuz qilgan holda sodir etishda o‘g‘irlövchi g‘ayrihuquqiy xatti-harakat sodir etayotganini anglab yetadi, uning moddiy zarar tarzidagi zararii oqibatlariga oldindan ko‘zi yetadi. O‘g‘irlik qiluvchining maqsadi g‘ayriqonuniy bo‘lib, u g‘arazli maqsad bilan mulkni o‘z mulkiga yoki boshqa shaxsning mulkiga aylantirishni istaydi. Aybdorning g‘arazli niyati katta miqdordagi mulkni o‘g‘irlashdan iborat bo‘lib, talon-toroj qilingan mulk belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan ko‘p bo‘lsa, u holda jinoiy javobgarlik kelib chiqadi, chunki katta miqdordagi mulkni o‘g‘irlash yaqqol ko‘rinib turibdi. Bunday holatda talon-toroj qilish JKning 167- va 168-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Oz miqdordagi talon-toroj uchun javobgarlik 16 yoshdan boshlanadi. Mansab mavqeini suiiste’mol qilgan holda oz miqdorda talon-toroj qilishni faqat mansabdar shaxslar amalga oshirishlari mumkin.

MJTKning 61-moddasida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar tuman (shahar) sudining ma’muriy ishlar bo‘yicha sudyalari va voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi komissiya tomonidan ko‘rib chiqiladi (245, 247-m.).

#### **4-§. Tabiiy mahitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik**

Bunday huquqbuzarliklar uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi MJTKning 65—96-moddalarida nazarda tutilgan. Usbu huquqbuzarliklarning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

**Yerlardai xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish (65-m.).** Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish, obyektlar qurish paytida unumdar qatlamni olmaslik, yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish, yerlami foydalanishdan chiqarishga, hosildorlik pasayishiga, tuproqning buzilishi yoki yo'q bo'lib ketishiga olib keladigan boshqa harakatlarni sodir etish, shuningdek, tanazzulga yuz tutgan qishloq xo'jaligi yerlarini konservatsiyalashning belgilangan tartibini buzish, — fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Qishloq xo'jaligi va boshqa yerlarni yaroqsiz holga tushirish, ularni ishlab chiqarish chiqitlari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqava suvlar bilan ifoslantirish, — fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish *birinchidan*, ulardan oqilona foydalanish qoidalarini buzishda ifodalanadi va yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ularni ijaraga oluvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 39, 40, 48, 79-moddalarida nazarda tutilgan majburiyatlarning amalga oshirilmasligida namoyon bo'ladi. Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yerlarni ijaraga oluvchilarning yerlardan oqilona foydalanish sohasidagi vazifalari quyidagilardan iborat: yer uchastkasidan belgilangan maqsadga muvofiq ocilona foydalanish; tuproq unumdarligini oshirish; ishlab chiqarishda tabiatni muhofaza qilish texnologiyasini tatbiq etish, o'z xo'jalik faoliyati natijasida hudduda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik; yerlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish (dehqonchilikning eng samarali tizimlarini, o'tloqlarni suv bilan ta'minlash va pichan o'rimini yaxshilash, yerlar sho'rланishining oldini olish, sug'oriladigan yerlarning botqoqlashuvni va ifoslanishi, tuproq tarkibining shamol, suv eroziyasi natijasida buzilishining oldini olish, qishloq xo'jalik ekinlari ekiladigan yerlarni butalar va mayda o'rmonlar, begona o'tlar va hokazolar bosib ketishidan himoya qilish).

*Ikkinchidan*, yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yerlardan foydalanmaslikda yoki maqsadsiz foydalanishda, ya'ni yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni beruvchi hujjatlarda, shu jumladan, yerga doimiy egalik qilish yoki doimiy foydalanish Davlat aktida, shuningdek, ijara shartnomasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarga muvofiq foydalanmaslikda ifodalanishi mumkin.

Yerlarni foydalanishdan chiqarishga, ularning hosildorligi pasayishiga, tuproqning buzilishi yoki yo'q bo'lib ketishiga olib keladigan boshqa harakatlar deganda, mineral o'g'itlarni noto'g'ri ishlatish yoki yerlarni belgilangan normalarni buzgan holda sug'orishni tushunish kerak. Xo'jalik faoliyati tufayli buzilgan qishloq xo'jalik yerlari konservatsiyalanishi, ya'ni muayyan vaqt foydalanilmasligi va ularda tuproqni tiklash yuzasidan agromelioratsiva ishlari o'tkazilishi lozim.

Mazkur huquqbazarlik obyekti egalik qilish uchun, foydalanishga, shu jumladan, ijaraga berilgan yer uchastkaiari hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbazarlik *subyektlari* korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning mansabdar shaxslari, shuningdek, yerga egalik qilayotgan, undan foydalanayotgan va yer uchastkalarini ijaraga olgan fuqarolar hisoblanadi. Masalan, fetmer xo'jaliklarining boshliqlari MJTK 15-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq mansabdar shaxslar hisoblanadi.

*Subyektiv tomondan* mazkur huquqbazarlik qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasida sodir etilishi mumkin. *Obyektiv tomondan* huquqbazarlik harakat yoki harakatsizlik bilan amalga oshirilishi mumkin. Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarlik tuproqning sifat jihatdan o'zgarishiga olib keladigan, undan maqsadli foydalanishni yo'qqa chiqaradigan harakat yoki harakatsizlik bilan sodir etilishi mumkin. Yerlarning ishlab chiqarish chiqitlari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishi MJTKning 91-moddasida obyekt bo'yicha ko'rsatiб o'tilgan huquqbazarlikdardan farq qiladi. ya'ni mazkur huquqbazarlikda obyekt yer hisoblanadi. Tuproqning ishlab chiqarish chiqitlari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radicaktiv moddalar bilan ifloslanishi «Tabiatni muhofaza cilish

to‘g‘risida»gi qonunning 22, 42, 45-moddalari va Yer kodeksining 79, 90-moddalari bilan taqilanganadi.

Mazkur huquqbazarliklarning subyektlari mansabdar shaxslar va fuqarolardir.

Yerlardan foydaianish shartlarining buzilishi og‘ir oqibatiarga olib kelsa, bu jinoyat deb topiladi va JKning 197-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ushbu moddada nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlar tabiatni muhofaza qilish organlari (MJTK 261-m.) va ma‘muriy komissiyalar tomonidan ko‘rib chiqiladi ( MJTK 246-m.).

**Yer berish tartibini buzish (66-m.).** Yer berishning tartibini buzish, xuddi shuningdek, fermer yoki dehqon xo‘jaligi yuritish uchun, yakka tartibda uy-joy qurish va turarjoy binosiga xizmat ko‘rsatish, jamoa bog‘dorchiligi va polizchiligi uchun fuqarolarga yer berilishiga to‘sinqinlik qilish, — mansabdar shaxslarga eng kamish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yer berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 18, 23, 24-25, 27, 53, 55-moddalarida, «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonunning 10-11-moddalarida, «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonunning 8-moddasida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagagi 300-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini fuqarolarga uzoq muddatlari ijara berish tartibi»da belgilab berilgan. Yer berish tartibi yer uchastkalarini ajratib berish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonda bajariladigan harakatlarda namoyon bo‘lib, unga quyidagi masalalar kiradi: yer berish masalasi ushbu organning vakolatiga kirishi, yerni berish to‘g‘risidagi arizalarni ko‘rib chiqish muddatlari, yer uchastkalari ajratib berishga doir materiallar xususida tegishli davlat organlari bilan kelishish, yer uchastkasi chegaralarini joyida aniq belgilash, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish, yer qaytarib olinadigan bo‘lsa, yer egasiga va yerdan foydalanuvchiga yetkazilgan zararni to‘g‘ri aniqlash va hokazoiar.

Fuqarolarga fermer yoki dehqon xo‘jaligi yuritish, yakka tartibda uy-joy qurish va turarjoy binosiga xizmat ko‘rsatish, jamoa

bog'dorchiligi va polizchiligi uchun yer berishga to'sqinlik qilish deganda asossiz ravishda rad qilish yoxud fuqarolarning yuqorida ko'rsatib o'tilgan maqsadlar uchun yer berish to'g'risidagi arizalarini ko'rib chiqmaslik, shuningdek, yer uchastkalari berishning zarurligi (ehtiyojligi)ni aniqlash uchun bu ariza beruvchilarning uy-joy sharoitlarini noto'g'ri tekshirish yo'li bilan fuqarolarga yer berishga to'sqinlik qilish tushuniladi.

Mazkur hukuqbuzarlikning *obyekti* egalik qilish yoki foydalanish uchun yer uchastkalari berishning (shu jumladan, ijaraga berishning) belgilangan tartibi hisoblanadi. Huquqbuzarlikning subyekti yer berish masalasi vakolatiga kiradigan davlat organining, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalarining mansabdor shaxslaridir.

Subyektiv tomondan mazkur huquqbuzarlik qasddan yoki ehtiyyotsizlik orqasida sodir etiladi.

Cbyektiv tomondan bu huquqbuzarlik harakat yoki harakatsizlik bilan sodir etiladi.

Usbu moddada nazarda tutilgan huquqbuzariiklar to'g'risidagi ishlar tuman (shahar) sudsari ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari tomonidan ko'rib chiqiladi (245-m.).

**Suvdan foydalanish qoidalarini buzish (74-m.).** Tabiiy suv manbalaridan (daryo, soy, ko'l, buloq, yer osti suvlaridan) suv elish qoidalari va limitlarini buzish, shuningdek, loyihada nazarda tutilgan baliqlarni muhofaza qilish inshootlari va qurilmalari bo'limgan tabiiy suv manbalaridan suv olishni amalga oshirish, — fuqarolarga eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Irrigatsiya tarmoqlaridan suv olish qoidalarini buzish tarzida suvdan xo'jasizlarcha foydalanish, gidrotexnika ishlarini o'zboshimchalik bilan bajarish, suvdan foydalanishning belgilangan limitlari va rejalarini buzish, - fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan ikkidan bir qismigacha, mansabdor shaxslarga esa - ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning 1 va 2-qismida nazarda tutilgan huquq-buzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgen bo'lsa, — fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansab dor shaxslarga esa - uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Moddaning 1-qismi bo'yicha ma'muriy javobgarlik tabiiy suv manbalaridan suvdan foydalanish qoidalari buzilgan takdirda vujudga keladi. Ushbu qoidalarni buzish manbalardan suvni olish muddatlari, normalari, shu jumladan, limitlarini buzish, ya'ni belgilangan me'yordan ortiqcha hajmda suv olish, suvdan xo'jasizlarcha foydalanish orqali nameyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunining 35-moddasiga muvofiq suvdan foydalanuvchilar suvdan foydalanishning belgilangan limitiga rioya qilishi zarur. Limitlar deganda suv obyektlaridan suv olish rejalarini tushunish kerak Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida suvdan limitlashtirilgen holda foydalanish to'g'risida»gi 1993-yil 3-avgust qarori, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 35-moddasida suvdan foydalanuvchilarning tabiiy obyektlarga, shu jumladan, baliq zaxiralariga zarar yetkazmaslikka doir vazifalari ham nazarda tutilgan. Shu munosabat bilan Qonunning 61-moddasida baliq zaxiralarini muhofaza qilish va takror ishlab chiqarish sohasidagi tadbiriar, shu jumladan, sanoat maqsadlari, sug'orish va boshqa ehtiyojlar uchun baliq xo'jaligi suv havzalaridan suv olishga faqat tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishilgan holda baliklarning suv inshootlariga tushib qolishi mumkinligiga barham beradigan maxsus mosiamaiar o'rnatgan sharoitdagina amalga oshirish mumkinligi qoidalari belgilab berilgan.

Moddaning 2-qismiga muvofiq, iqtisadiya tarmoqlarida suvdan foydalanish qoidalari buzilgan taqdirda ma'muriy javobgarlik qo'llaniladi.

Suvdan xo'jasizlarcha foydalanish deganda shunday foydalanshi tushunmoq kerakki, bunda olinadigan yoki quyiladigan suvdan texnologik normadan ortiqcha, maqsadsiz foydalaniladi. Gidrotexnika ishlarini o'zboshimchalik bilan bajarish deganda shu

jumiadan, suv chiqarish uchun qurilgan qurilmani tartibga solish, to'g'onlar, suv to'sqichlar, nasos stansiyalari va hokazolar qurish tushuniladi. Irrigatsiya tarmoqlarida suvdan foydalanishda «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi sonuning 30-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 3-avgust qazotiga muvofig belgilangan liitlarga rioya etilmasa, MTK 74-moddasining 2-qismi bo'yicha javobgariik choralar qo'llaniladi.

Mazkur huquqbuzarliklarning obyekti suvdan foydalanish tartibidir. Huquqbuzarliklarning subyekti fuqarolar yoki mansabdor shaxslar bo'lishi mumkin. Moddada ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklar qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasida qilingan harakatlar yoki harakatsizliklar bilan sodir etilishi mumkin.

Moddaning 3-qismi MTK 74-moddasining 1, 2-qismlarida ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklar uchun ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Moddada nazarda tutilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlari tabiatni muhofaza qilish organlarining mansabdor shaxsiari tomonidan (261-m.), 74-moddarining 2 va 3-qismlari uchun esa — Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining respublika suv nazorati — «O'zsvvnazorat» organlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

**Atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik (88-m.).** Qurilish ishlari va boshqa ishlarni bajarish chog'ida yonilg'i moddalar va binokorlik materiallarini toplash, maxsus texnik qurilmasiz ochiq alanga oldirib ularni yoqish, bitum eritishda atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik, — fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarimà solishga sabab bo'ladi.

Dala va aholi punktlarida ang‘iz, xazon va shox-shabbalarni yoki o’simliklarning boshqa qoldiqlarini yoqib yuborish, atmosfera havosini zararli moddalar bilan ifloslantirishga olib kelsa, -

fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa - besh baravaridan o’n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Mazkur modda binokorlik materiallari tayyorlash va boshqa ishlarni bajarish chog‘ida atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi talablarni buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikni belgilaydi. Atmosfera havosini muhofaza qilishga doir qoidalarni buzish texnik qurilmalarsiz ochiq alangada bitumni, boshqa binokorlik materiallari va hokazo materiallarni yoqishda ifodalanadi. Masalan, bitumni yopiq idishlarda eritish lozim, bu hol bitumning o’zi yonishiga va tutashiga yo’ll qo’ymaydi. Ushbu talablarni buzganlik uchun javobgarlik «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g’risida»gi qonunning 20, 21-moddalariga muvofiq belgilangan1.

Bu huquqbazarlikning obyekti qurilish va boshqa ishlarni bajarishda atmosfera havosini muhofaza qilishning o’rnatilgan tartibidir.

Ko’rsatib o’tilgan huquqbazarliklarning subyekti fuqarolar yoki mansabdar shaxslar bo’lishi mumkin.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huquqbazarliklar qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasida sodir etilishi mumkin.

Moddaning 2-qismida ko’rsatib o’tilgan huquqbazarlikning ma’muriy jazo chorasi qo’llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganligi uchun ma’muriy javobgarlik nazarda tutiladi.

Moddaning 3-qismida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarlik IIO profilaktika inspektorlari tomonidan aniqlanishi mumkin.

Ushbu moddada nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarlik to‘g’risidagi ishlar tabiatni muhofaza qilish organlari (261-m.) va atmosfera havosiga zararli fizik ta’sir ko’rsatish sohasida sanitariya nazorati davlat organiarining mansabdar shaxslari tomonidan (257-m.) ko’rib chiqiladi.

**Ov qilish yoki baliq tutish qoidalarini, shuningdek, hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini amalga oshirish**

**qoidalarini buzish (90-m.).** Ov qilish, baliq tutish yoki baliq zaxiralarini muhofaza etish qoidalarini, shuningdek, hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini amalga oshirish qoidalarini buzish, — fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — ikki baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Tegishli ruxsati bo‘lmay turib yoki taqiqlangan joylarda yoxud taqiqlangan muddatlarda, taqiqlangan qurollar yoki usullar bilan ov qilish yoki baliq tutish, shuningdek, ov qilish yoki baliq tutishning boshqa qoidalarini muntazam ravishda buzish, — shu huquqbuzarliklarni sodir etish quroli va ashyolarini musodara qilib yoki musodara qilinay, fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravaridan uch baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga, yoxud shu huquqbuzarliklarni sodir etish quroli va ashyolarini musodara qilib yoki musodara qilmay, uch yilgacha muddatga ov qilish huquqidan mahrum etishga sabab bo‘ladi.

Ov qilish va baliq tutish qoidalari O‘zbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 10-aprel qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududida ov qilish va ovchilik-baliqchilik xo‘jaligini yuritish to‘g‘risidagi nizomi bilan belgilab berilgan.

«Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 18 va 19-moddalariga muvofiq, tabiiy erkinlikda yashaydigan yovvoyi hayvonlarni ov qilish, tutish maqsadida izlash, iziga tushish va quvlab borish, tutishga intilish yoki tutish (otish, tutib olish) shaklida amalga oshirilishi mumkin. Respublika hududida ov qilish va ovchilik-baliqchilik xo‘jaligini yuritish to‘g‘risidagi nizomning 14-moddasiga muvofiq, tabiiy erkinlik holatidagi yovvoyi hayvonlar ov qilishning obyekti bo‘lib hisoblanadi.

Ov qilish hayvonot dunyosidan maxsus foydalanish hisoblanib, faqat maxsus ruxsatnoma — hayvonlar, qushlarni otish yoki

tutishga litsenziya yoxud yo'llanma asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ov qilish uchun shaxs ovchilik jamiyatining a'zosi bo'lishi talab etiladi. Baliqlarni qayta ishlash, sotish maqsadida baliq tutish faqat maxsus ruxsatnomalar — litsenziyalar asosida amalga oshiriladi, sport yoki havaskorlik tarzida baliq tutish tabiatdan umumiy foydalanish tartibida, ya'ni biron-bir ruxsatsiz, lekin taqiqlanmagan muddatlarda, belgilangan miqdorda va taqiqlangan qurollar, kimyeviy dorilar, to'r va hokazoiar ishlatmasdan amalga oshiriladi.

Ov qilishga litsenziyalar berilishi, ov qilishga ruxsat etilishi (ovchilik mavsumining boshlanishi) yoxud baliq tutishni taqiqlash muddatlarini belgilashni O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari amalga oshiradi. Bundan tashqari, ov qilish uchun litsenziyalar o'rmon xo'jaligi organlari va ovchilik xo'jaliklari tomonidan ham berilishi mumkin. Baliqchilik xo'jaliklarga biriktirib qo'yilgan suv havzalarida sport yoki havaskorlik tarzidagi baliq tutishni faqat shu xo'jaliklarning ruxsati bilan, ro'yxatga olingan suv havzalarida esa, — jamiyatning yo'llanmalari bilan amalga oshirish mumkin.

90-moddada nazarda tutilgan huquqbazarliklarning obyekti tabiiy erkinchlik holatida bo'lgan hayvonot dunyosidan foydalanishning belgilangan tartibi hisoblanadi. Moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbazarliklar qonun talablarini buzgan holda amalga oshiriladigan ov qilish yoki baliq tutish vaqtida sodir etiladi. Masalan, umumiy tarzda foydalaniadigan suv havzalarida besh kilogrammdan ortiq baliq tutish shunday huquqbazarlikka kiradi.

Foydalanishning boshqa turlarini buzishlarga yovvoyi hayvonlarning qismlarini (shoxini, junini va hokazo), tuxumini, uvuldirig'ini va shu kabilarni ovlash qoidalarini buzish kiradi.

90-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqbazarliklar yuqorida sanab o'tilgan huquqbazarliklardan farqli o'laroq, ov qilish va baliq tutish qoidalarini qo'pol ravishda buzish bilan sodir etiladi. Ovchilik jamiyatining a'zosi bo'limgan shaxsning ov qilishi yoki litsenziyasiz ov qilishi va baliq tutishi (garchi litsenziyaning bo'lishi shart hisoblansa-da) tegishli ruxsatnomasiz ov qilish yoki baliq tutish hisoblanadi. Davlat qo'riqxonalarida,

milliy tabiiy bog'larning qo'riqxona zonalarida, shaharlar va posyolkalardan bir kilometrdan yaqinroqda, boshqa aholi punktlaridan 300 metr, avtobuslar qatnaydigan yo'ldan 150 metrden yaqinroqda va boshqa taqiqlangan joylarda ov qilish taqiqiangan joylarda ov qilish hisoblanadi.

Taqiqlangan muddatlarda ov qilish O'zbekiston hududida ov qilish va baliq tutish qoidalarining 6-bandida nazarda tutilgan muddatlarni buzgan holda ov qilish hisoblaradi. Shu qoidalarning 11-bandida nazarda tutilgan muddatlarda (baliqlarning ko'payish mavsumlarida) baliq tutish taqiqlangan muddatlarda baliq tutish deb e'tirof qilinadi. Taqiqlangan qurollar va usullar bilan ov qilish yoki baliq tutishga falokatga yo'lliqsan yevvoyi hayvonlarni ov qilish (suvdan suzib o'tish vaqtida, yong'indan himoya qilish vaqtida, boqilmay qolgan vaqtida va hokazo vaotlarda ov qilish) hayvonlarni muzlikka, o'rmon ichkarisiga, suvga haydash, ya'ni mazkur muhit turiga xos bo'limgan muhitga, yovvoyi hayvonlarni umumxavfli va qiruvchi qurollar hamda usullar bilan ovlash (miltiqlarni, qo'ndoqli kamoniarni tayyor holda saqlash, ovlanadigan chucurlar qazish, ilgaklar, qarmoqlar, juft tuyoqlilarga qopqonlar qo'yish, portlovchi, kimyoviy va biologik zaharlovchi va behush qiluvchi moddalar ishlatish, elektr toki, to'rlar va hokazolarni qo'llanish), hayvonlarni jalb qilish uchun ovoz chiqaruvchi apparaturalarni ishlatish, jonivorlarni tunda yoritish asboblari bilan, mexanizatsiyalashgan transport vositalarini qo'llangan holda ovlash va hokazolar kiradi.

Ov qilish va baliq tutishning boshqa qoidalarini muntazam ravishda buzishlarga moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbazarliklarni ko'p marta sodir etish yoxud ov qilish va baliq tutishning boshqa qoidalarini buzishlar kiradi.

Huquqbazarliklar fuqarolar va mansabdor shaxslar tomonidan qasddan sodir etilishi mumkin.

Hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini (ov qilish va baliq tutishdan tashqari) o'zboshimchalik bilan amalga oshirish MTKning 60-moddasida nazarda tutilgan huquqbazarlik sifatida baholanishi kerak.

## **5-§. Sanoatdagi, qurilishdagi va issiqlik namda elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik**

Ushou turdag'i ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi MTKning 97-103-moddalarida nazarda tutilgan.

**O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi organlari nazorati ostidagi boshqa obyektlarda ishlarni bexatar olib borishga oid qoidalar, normalar va yo'riqnomalarni buzish (97-m.).** O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi organlari nazorati ostidagi boshqa obyektlarda ishlarni bexatar olib borishga oid qoidalar, normalar va yo'riqnomalarni buzish – fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa - bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa - uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi organlari nazorati ostidagi sanoat tarmoqlarida va obyektlarda har xil ish turlarini bajarishda odamlarning xavfsizligi huquqbuzarlik obyekti hisoblanadi.

Bu xatti-harakatning obyektiv tomoni ishlarni bexatar olib borish sohasidagi chora-tadbirlarni tartibga solishga qaratilgan zarur qoidalar, normalar va yo'riqnomalarning buzilishidan iborat.

Mazkur moddaning 1-qismi O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi organlari tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda kasaba uyushmlarining markaziy qo'mitalari bilan kelishgan holda tasdiqlaydigan

qoidalar, normalar va yo‘riqnomalarni buzganlik uchun javobgarlikni belgilaydi. Xuddi shunday tartibda ishlarni bexatar olib borish va jihozlarni o‘rnatishga doir tarmoq qoidalari va normalari O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsivasi Kengashi tomonidan, tegishli vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan holda esa tarmoqlararo qoidalar va normalar tasdiqlanadi.

Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi organlari ko‘mir, kon — ruda, kon — kimyo, metallurgiya, neft va gaz qazib chiqaruvchi sanoat, mineral o‘g‘itlar sanoatida ishlarning bexatar olib borilishi ahvolini, geologik-qidiruv va ushbu organ nazorati ostidagi boshqa kon ishlarini olib borishdagi, shaharlar, shahar tipidagi posyolkalar va qishloq joylarida gaz bilan ta’minalash tizimlari qurilishi va ulardan foydalanishdagi, shuningdek, tabiiy va suyultirilgan (propan-butan) gazlarni tashish, saqlash va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarda (qaysi idoraga bo‘ysunishidan qat‘i nazar) va barcha portlash va yong‘in chiqish xavfi bo‘lgan kimyoviy va neft — kimyoviy ishlab chiqarishlarda ishlarni olib borish, sanoatdagi portlovchi materiallarni sakdash, ulardan foydalanish va hisobga olish, foydali qazilma konlarini topishda yer osti boyliklaridan oqilona foydalanishni va saqlashni ta’minalash ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi va hokazo.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huququzarliklar to‘g‘risidagi ishlar Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi organlari tomonidan ko‘rib chiqiladi (260-m.).

**Elektr, issiqlik energiyasi yoki gazdan foydalanish qoidalariini buzish (101-m.).** Elektr, issiqlik energiyasi yoki gazdan foydalanish qoidalariini buzish, elektr, issiqlik energiyasi yoxud gaz tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ulanish yoki elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gazni hisobga olish asboblariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek bunday hisobga olish asboblarining ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish — fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Elektr, issiqlik energiyasi yoki gazda foydalanish qoidalari huquqbuzarlikning obyekti hisoblanadi.

Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari hamda Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 27-yanvardagi 32-sonli qarori bilan tasdiqlanganl.

Ko'rsatib o'tilgan qoidalarda elektr va issiqlik energiyasi hamda gazdan o'zboshimchilik bilan foydalanish taqiqlanadi. O'zboshimchilik bilan foydalanish deganda energiya va gazdan tegishli ravishda energiya, issiqlik yoki gaz bilan ta'minlovchi tashkilclarning ruxsatsiz foydalanish tushuniladi. Turar joylarda yoki ayrim fuqarolarga shaxsiy mulk huquqi assosida qarashli bo'lgan uylarda, bog' uchastkalarida, shaxsiy mashinalar uchun qurilgan garajlar va hokazolarda iste'moichi yangi elektr simini ularash uchun elektr bilan ta'minlovchi tashkilotga ariza-majburiyat berishi va ruxsat olishi shart.

Issiqlik energiyasi va gazdan foydalanish qoidalari fuqarolarga ular (xonadonlariga) o'zboshimchilik bilan issiqlik energiyasi o'matish va gazlashtirish taqiqlangan.

Energiya va gazdan o'zeshimchallik bilan foydalanish fakti aniqlangan taqdirda insonni huquqbuzarlik sodir etishga majbur etgan sao'oni hisobga olish zarur. G'arazli maqsad shaxsning bcyishga intilishini, ya'ni huquqbuzarlik sodir etish yo'lli bilan mehnatsiz daromad etishga intilishini bildiradi.

Makaziy boshqaruv organlari tomonidan energiyaning har xil tundaridan va gazdan foydalanish bo'yicha belgilab berilgan qoldalar o'zboshimchilik bilan foydalanishdan tashqari, elektr va gaz uskulalarning o'zini ismatish talablarini, energiya va gazni hisobga olish asbobalarini o'matish, shuningdek, energiya va gaz uchun hisob-kitob qilish talablarini buzishni ham o'z ichiga oladi.

G'arazli maqsadlarda energiyadan, issiqlik, elektr, gazdan o'zboshimchilik bilan foydalanish faqat qasddan qilingan harakat bo'lsini mumkin.

Faqat fuqarolar javobgarlikka torilishi mumkin. Agar bu xilcagi huquqbuzarliklarni mansabdar shaxslar o'zlarining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida sodir etgan bo'isalar, bunday

shaxslar tegishli ravishda Kodeksning 97, 100, 102, 103-moddalari bo'yicha javobgar bo'ladilar.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar tuman (shahar) sudlarining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin (245-m.).

## **6-§. Qishloq xo'jaligidagi huquqbuzarlik, veterinariya-sanitariya qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik**

Bunday xatti-harakatlar uchun ma'muriy javobgarlik Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 104—112-moddalarida nazarda tutilgan.

Ekinzorlarni payhon qilish, qishloq xo'jalik ekinlarining dalada to'plab qo'yilgan hosiliga zarar yetkazish yoki uni yo'q qilib yuborish, ko'chatlarga shikast yetkazish (104-m.). Chorva mollar yoki parrandalarning xo'jalik ekinzorlarini payhon qilishi, qishloq xo'jalik ekinlarining dalada to'plab qo'yilgan hosiliga zarar yetkazishi yoki uni yo'q qilib yuborishi, ko'chatlarga shikast yetkazishi, — fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ekinzorlarni yoki ko'chatzorlarni hamma turdag'i harakatlanuvchi texnika vositalarida bosib o'tish, — eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha mikdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi qonuning amal qilishini hisobga olib, mazkur modda faqat to'plab qo'yilgan qishloq xo'jalik ekinlari hosilinigina emas, shu bilan birga, butalarning ko'chatlarini ham himoya qilishga mo'ijallangan. Huquqbuzarliklarga baho berganda ko'chatlarning barcha turlari,

qishloq xo'jaligidagi ham texnika ekinlari, ham oziq-ovqat va ozuqa ekinlarining to'planadigan va to'plangan hosili shikastlanganligini hisobga olish kerak bo'ladi.

Moddada nazarda tutilgan tajovuzkorlikning obyekti Mulkchilik to'g'risida»gi qonunda nazarda tutilgan barcha turdag'i mulkning saklanishi xususidagi ijtimoiy munosabatlardir. Normada qamrab olingan xatti-harakatlarning mavzulari, avvalo, ekinlarning (g'alla, texnika, ozuqa, poliz va hokazolar) ko'chatlari, daraxtlar, o'simliklarning ko'chatlari, shuningdek, ko'kalamzorlashtiruvchi va boshqa daraxtlar hamda o'simliklarning ko'chatlaridir. Taqiqlangan daraxtlar va o'simliklarning ko'chatlari bundan mustasno. Biroq sanab o'tilgan ashyolar mulk egasiga tegishli bo'lishi lozim, chunki u bunga mehnat sarflagan va foydalanilgan maydonдан tabiiy ozuqalar olishni istaydi.

Huquqbazarlikning obyektiv tomoni ekinlarni payhon qilishdan, ko'chatlarga shikast yetkazish yoki ekinlar va ko'chatlarning chorva mollari va parrandalar (uy parrandalari) tomonidan yo'q qilinishi (shikastlanishi) bilan bog'liq harakat yoki harakatsizlikdan iboratdir. Subyekt xonaki, idoralarga qarashli chorva mollari va parrandalarning egalaridir.

Birinchi qismda nazarda tutilgan xatti-harakatlar ham qasddan (chorva mollari va parrandalarni ekinzorga qo'yib yuborish yo'li bilan), ham ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilishi mumkin. Vakolatli mansabdar shaxs huquqbazarlik sodir etilganligini aniqlaganda, MJKning 280-moddasiga muvofiq yetkazilgan zararni hisobga olgan holda bayonnaoma tuzadi va ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni (38, 285-m.) ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaga ko'rib chiqish uchun topshiradi (245-m.), 246-moddada ko'rsatib o'tilgan hollarda — ma'muriy komissiyaga taqdim etadi.

**Qishloq xo'jalik ekinlarining navini yangilash va nav joylashtirish tartibini buzish (104<sup>1</sup>-m.).** Qishloq xo'jalik ekinlarining navini yangilash va nav joylashtirish tartibini buzish, — mansabdar shaxslarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Mazkur moddada belgilangan tartib O'zbekiston Respublikasining «Urug'chilik to'g'risida»gi 1996-yil 29-avgust qonunida o'z

ifodasini topgan 1. Ushbu Qonunga ko'ra, urug'chilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jaligi ekinlarining o'z urug'chilik bazasini yaratish;
- navni yangilash va nav almashtirish jarayonida urug'lik navlari va duragaylarining biologik hamda xo'jalik jihatidan qimmatli xususiyatlarini saqlab qolish;
- qishloq xo'jaligini serhosil va yuqori sifatli urug'liklar bilan ta'minlash;
- urug'liklarning sifati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

Ekish uchun ishlataladigan urug'liklar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sertifikatlanishi lozim. Urug'liklarni sertifikatlash O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jalik ekinlari urug'inining sifatini sertifikatlash va nazorat qilish davlat markazi tomonidan hamda uning joylardagi bo'linmalarini tomonidan amalga oshiriladi. Standart urug'liklarga sertifikat, nostonstandart urug'liklarga esa ularning sifati to'g'risida talon beriladi.

Urug'liklarni sertifikatlash va ularning sifatini nazorat qilish davlat markazi: barcha qishloq xo'jalik ekinlarining urug'liklari sifatini nazorat qilishni tashkil etish bo'yicha joylardagi bo'linmalarining ishiga rahbarlik qiladi: xo'jaliklar, korporatsiyalar, boshqa korxonalar va muassasalarda urug'liklar va ekiladigan ko'chatlarning navi hamda ekinboplik xususiyatlarini aniqlaydi; urug'liklarning sifatini aniqlash uslublarini ishlab chiqadi, takomillashtiradi va tasdiqlaydi; qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni bajaradi.

Huquqbazarlikning obyektiv tomoni harakat yoki harakatsizlikdan iborat. Huquqbazarlikning subyekti faqat mansabdor shaxslardir. Huquqbazarlik subyektiv tomonidan qasddan sodir etiladi.

Ushbu moddada ko'zda tutilgan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini sertifikatsiyalash va ularning sifatini nazorat qilish davlat markazi organlari tomonidan ko'rib chiqiladi (266<sup>3</sup>-m.).

Tarkibida giyohvand moddalar bo'lgan ekinlarni qo'riqlashni ta'minlash choralarini ko'rmaganlik (105-m.). Tarkibida giyohvand moddalar bo'lgan nasha va moyli ko'knor ekinlarini, mazkur ekinlar hosilini saqlash va qayta ishlash joylarini qo'riqlash yuzasidan belgilangan tartibni ta'minlash choralarini ko'rmaganlik, shuningdek, tarkibida giyohvand moddalar bo'lgan shunday ekiniarning ang'izlari va ishlab chiqarish chiqindilarini yo'q qilib tashlash choralarini ko'rmaganlik, — mansabdar shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Mazkur norma tarkibida giyohvand (narkotik) moddalar bo'lgan ekinlarni, shuningdek, narkotik moddalar olish manbalaridan biri bo'lgan qoldiqlar va chiqindilarni qo'riqlashga qaratilgan.

Tarkibida giyohvand moddalar bo'lgan ekinlarga nasha va moyli ko'knor kiradi. Yovvoyi tarzda o'sadigan o'simliklar huquqbazarlik ashyosi hisoblanmaydi.

Mazkur modda bo'yicha javobgarlik tarkibida giyohvand moddalar bo'lgan ekinlarni qo'riqlashning belgilangan tartibini ta'minlash choralarini ko'rmaganlik faktining o'zi uchun boshlanadi.

Ushbu modda bo'yicha ma'muriy huquqbazarlik ham qasddan, ham ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilishi mumkin.

Zimmasiga shunday ekinlarni qo'riqlash, narkotik modda qoldikdari va chiqindilarini yo'q qilish vazifasi yuklangan xo'jaliklar va tashkilotlarning mansabdar shaxslari bunday choralarini ko'rmaganliklari uchun javobgarlikka tortiladilar.

Mazkur moddada nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar (245-modda) tomonidan, 246-moddada ko'rsatib o'tilgan hollarda esa ma'muriy komissiyalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

**It va mushuk boqish qoidalarini buzish (110-m.).** Shaharlar va boshqa aholi punktlarida it va mushuk boqishning qoidalarini buzish, xuddi shuningdek, mansabdar shaxslar tomonidan egasiz hayvonlarni tuttirish choralarini ko'rmaganlik, — fuqarolarga eng kam ish haqining o'ndan bir qismidan ikkidan bir qismigacha, mansabdar shaxslarga esa — ikkidan bir qismidan bir baravarigacha mikdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbazarlik

fuqarolarning sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetishiga olib kelsa, — fuqarolarga eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Huquqbuzarlik obyekti jamoat tartibi, shuningdek, turar joy fondining sanitariya-gigiyena nolatidir. It va mushuk boqish qoidalarining buzilishi uylarda, xiyobonlarda, ko'chalarda va boshqa jamoat joylarida g'ayrisanitariya vaziyatini yaratishi ga olib keladi, shuningdek, bir qator hollarda fuqarolarning sog'lig'i va mol-mulkiga zarar yetkazishga sabab bo'ladi. Daydi itlar va mushuklar quturish kasalligini tarqatish manbai hisoblanadi. It va mushuklarni normal tarzda boqmaslik sanitariya va veterinariya qoidalarining buzilishiga sabab bo'ladi.

Shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish uchun bu hayvonlarni boqishning qanday muayyan qoidasi buzilganligini aniqlab olish lozim. It, mushuk va boshqa hayvonlarni boqish qoidasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 18-yanvardagi 32-sonli qarori bilan tartibga solinadi.

Ko'rsatib o'tilgan qoidalar, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga ham, shuningdek, it va mushuk egalari bo'lgan fuqarolarga ham taalluqlidir.

It va mushukni ayrim xonadonda boqishga sanitariya-gigiyena va veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilish sharti bilan, bir necha oila yashaydigan xonadonlarda esa, istiqomat qiluvchi barcha fuqarolar roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Ko'pchilik foydalananadigan joylarda: turar-joylarda (podyezdlar (zina xonalar), chordeqlar, yerto'la (podval), yo'laklar va hokazoiarda), kommunal xonadonlarda, shuningdek, balkon va peshayvonlarda, qabristonlarda, diqqatga sazovor joylarda it va mushuk boqish hamda ularni sayr qildirishga ruxsat etilmaydi.

Qoidalarda yangi olingan itlarni zoti va jinsidan qat'i nazar, uch oylik vaqtidan boshlab ro'yxatdan o'tkazish nazarda tutilgan. Ro'yxatdan o'tkazish bir hafta ichida amalga oshirilishi lozim. Har yili fuqarolarning yashash joylaridagi veterinariya muassasalarida hayvonlarni qayta ro'yxatdan o'tkazish belgilangan. Veterinariya muassasalari ro'yxatdan o'tilgani haqida guvohnoma va ro'yxat

belgisi beradi, shuningdek, itning egasini uni boqish qoidalari biian tanishtiradi, bu ro'yxatdan o'tish guvohnomasida qayd etiladi. Ro'yxat belgisi it bo'yinbog'iga taqib qo'yiladi.

It va mushuk egalari atrofdagilarning xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rishi, it va mushuklarning xonadoniar, podyezdlar, liftlar, yerto'la(podval)lar va ko'p qavatlari uylardagi umumfoydaianadigan joylarni, hovlilar, yo'laklarni iflos qilishiga yo'l qo'ymasligi, xonalarda osoyishtalik bo'lishini ta'minlashi, it va mushuklarning bolalar maydonchalari, do'konlar, oshxonalar, jamoat transporti va boshqa umum foydalanadigan joylarda bo'lishiga yo'l qo'ymasligi shart.

It va mushuklarni mahalliy hokimiyatlar belgilaganidan ortiq miqdorda boqishga vo'l qo'yilmaydi.

Sayrga chiqqanda it egalari uylardan ularni qisqa tasmada va tumshuqbog'da, bo'ynida raqam belgisi bilan (uch oylikkacha bo'lgan kuchulkardan tashqari) ko'chaga olib chiqishi lozim. Itlarni sayr qildirishga faqat shu maqsad uchun ajratilgan maydonchada ruxsat etiladi. Agar maydoncha atrofi o'rab olingan bo'lsa, u holda itlarni tasmasiz va tumshuqbog'siz sayr qildirishga ruxsat etiladi. Maydonchalar bo'limgan taqdirda hokimiyat belgilagan obod qilinmagan va boshqa joylarda sayr qildirishga ruxsat etilgan. Itlarni ertalab soat 7.00 dan kech soat 23.00 ga qadar sayr qildirishga ruxsat etiladi.

Mazkur huquqbazarlik faqat qasddan sodir etilishi mumkin, chunki it egalari ro'yxatdan o'tkazish vaqtida itlarni boqish qoidalari bilan tanishtirilgan bo'ladi.

Mazkur moddaning 2-qismi takroriylik holatida va basharti qoidani buzish fuqarolarning sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetishiga olib kelgan taqdirda qo'llaniladi. Bunday zarar Kodeksning 38-moddasi tartibida faqat hayvon egalaridan undirib olinadi.

Huquqbazarlik subyektlari it va mushuk egalari bo'lgan fuqarolar hamda tasarrufida hayvonlar bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning mansabdor shaxslari bo'lishi mumkin.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar (245-m.), 246-moddada ko'rsatib o'tilgan holda esa — ma'muriy komissiyalar ham ko'rib chiqadilar.

## **7-§. Transportdagiga, yo'l xəjaligiga və aloqaya sohalaridagi huquqbazarlıqlar uchun ma'muriy javobgarlıq**

Transportdagiga huquqbazarlıqlar uchun javobgarlıq Ma'muriy javobgarlıq to'g'risidagi kodeksning 113—146-moddalarida nazarda tutilgan. Ushbu huquqbazarlıqlarning turdosh obyekti transport sohasida o'matilgan qoidalar.

**Temir yo'l transportida harakat xavfsizligi qoidalarini buzish (113-m.).** Temir yo'l izlariga poyezddar qatnovining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ashylarni qo'yish, shuningdek, temir yo'lni, ihota daraxtlarini va qor to'sish g'ovlarini hamda boshqa yo'l obyektlarini, signal berish va aloqa inshootlari va qurilmalarini shikastlantirish, — eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Temir yo'lidan ot-arava haydab o'tish va chorva moliarini haydab o'tish, chorva mollarini temir yo'l yaqinida boqish qoidalarini buzish, — eng kam ish haqining beshdan bir qismidan ikkidan bir qismigacha miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Temir yo'l transportiga yuk ortish vaqtida belgilangan gabaritlarga riyoxilmaslik, — mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining beshdan bir qismidan ikkidan bir qismigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Temir yo'llarni beigilanmagan joylardan kesib o'tish, — eng kam ish haqining yigirmadan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Transport vositalari haydovchilari tomonidan temir yo'l izini belgilanmagan joydan kesib o'tish, — eng kam ish haqining ikki baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Temir yo'l transportida xavfsiz ishslash mazkur xatti-harakatning obyekti hisobianadi. Ushbu moddada nazarda tutilgan xatti-harakatning obyektiv tomoni yo muayyan harakatlar yoki temir yo'l transportida amal qiluvchi bir qator normativ hujjatlar (qoidalar, yo'rionomalar)ning talablarini buzish tashkil etadi. 1-qismda mazkur xatti-harakatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi muayyan qoidalarning buzilishi sanab o'tilgan. Bular temir yo'l izi ustiga turli narsalarni qo'yishdan iborat bo'lib, ular poyezdlar qatnovining buzilishi, temir yo'llarning shikastla-

nishini, ihota daraxtlarining, qor to'sish g'ovlarining, shuningdek, boshqa obyektiar, signal berish va aloqa inshootlari hamda qurilmalarining shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ko'rsatib o'tilgan harakatlar ehtiyoitsizlik orqasida sodir etiladi.

Moddaning 2-qismini temir yo'lidan ot-arava haydab o'tish, chorva mollarini haydab o'tish, chorva mollarni temir yo'l yaqinida boqish qoidalarini buzish tashkil etadi. Ko'rsatib o'tilgan harakatlar faqat qasddan sodir etilishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan xatti-harakatlarning subyektlari 16 yoshga yetgan har qanday fuqaro bo'lishi mumkin. Moddaning 3-qismida nazarda tutilgan xatti-harakatning obyektiv tomoni temir yo'l transportida amal qilayotgan vagonlarga yuk ortish va tushirish vaqtida belgilangan gabaritlarga rioya qilish qoidalarining buzilishidir.

Subyektiv tomondan mazkur xatti-harakat ham qasddan, ham ehtiyoitsizlik orqasida sodir etilishi mumkin. Xatti-harakat subyekti transport xodimi va har qanday boshqa shaxs bo'lishi mumkin. 113-moddaning 4-qismidagi huquqbazarlikning yana bir tarkibi — temir yo'llarni belgilanmagan joylardan kesib o'tishdan iborat. Bu xatti-harakatning obyektiv tomoni mana shu muayyan harakatda aks etgan, subyektiv tomondan esa bu qasddan qilingan harakatdir. Mazkur xatti-harakatning subyektlari 16 yoshga yetgan har qanday fuqaro bo'lishi mumkin. Moddaning 5-qismida transport vositalari haydovchilarining temir yo'l izini belgilanmagan joydan kesib o'tishi uchun javobgarlik belgilangan. Subyektiv tomoni — g'arazli niyat, subyekt — transport vositasining haydovchisi.

Mazkur xatti-harakatni JKning 260-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlardan farqlash kerak. Bunday chegaralashni obyektiv tomon bo'yicha o'tkazish lozim. Ko'rsatib o'tilgan moddada nazarda tutilgan jinoyatlarning obyektiv tomoni faqat huquqqa zid harakatlarni o'z ichiga olish bilan birga, o'rtacha yoki og'ir tan jarohati yetkazishni, shuningdek, odamning qurban bo'lishini ham qamrab oladi. Ko'rsatib o'tilgan harakatlarni sodir etish jarima solinishiga sabab bo'ladi.

Ushbu huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ichki ishlar organlarining boshliqlari va ularning o'rnbosarlari, shuningdek,

MJTK 250-moddasining 3-qismida ko'rsatib o'tulgan temir yo'l transporti organlarining mansabдор shaxslari ham ko'rib chiqishga haqli. Bu huquqbuzarliklar to'g'risidagi bayonnomani ichki ishlar organlari xodimlari, mahalla posbonlari, temir yo'l transportining vakolatli xodimlari tuzadi.

**Havo kemasida yurish-turish qoidalarini buzish** (117-in.). Havo kemasida bo'lgan shaxslarning kema komandiri farmoyishlarini bajarmasligi — eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladı.

Havo kemasasi bortida turib fotosuratga, kinoga, videoga olish, shuningdek radioaloqa vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish —

foto-kinoplyonka yoki videokassetalar musodara qilinib, eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladı.

Havo kemasida belgilangan tartibni va uchish xavfsizligini ta'minlash maqsadida havo kemasida bo'ladigan barcha shaxslar uchun majburiy maxsus yurish-turish qoidalari belgilangan. Ushbu moddaning 1-qismida nazarda tutilgan xatti-harakatning obyekti havo kemasidagi tartib va parvozlar xavfsizligidir. Obyektiv tomonidan mazkur xatti-harakat keina komandirining farmoyishlarini bajarmaslik bilan bog'liqdir. Bu farmoyishni bajarmaslik odatdagagi harakatsizlik (komandirning farmoyishiga e'tiborsizlik bilan qarash)dan, shuningdek, komandirning kemada biron-bir harakatni (balandlikka ko'tarilish va pasayish vaqtida kema bo'ylab yurish, kema salonida va boshqa joylarda chekish) to'xtatish to'g'risidagi farmoyishiga qaramay. ularni davom etirishdan iborat bo'lishi mumkin. Bunday xatti-harakat yerda ham, shuningdek, uchish vaqtida ham sodir etilishi mumkin.

16 yoshga yetgan shaxslar bu xatti-harakatning subyekti bo'lishi mumkin. Subyektiv tomonidan xatti-harakat to'g'ridan to'g'ri g'arazli niyat bilan bog'liqdir. Mazkur moddaning 2-qismi havo kemasasi bortida turib fotosuratga, kinoga, videoga olish va radioaloqa vositalaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Zero bunday xatti-harakatlar havo transportidagi xavfsizlikni ta'minlash doirasidan chetga chiqadi, chunki kino va videosyomkalar, belgilangan tartibni buzgan holda

fotosuratga olish kabi harakatlar transportdan foydalanish qoidalari buzish obyekti hisoblanadi.

Xatti-harakatlar obyektiv tomoni qoidalarni buzish faktining o'zidir. 16 yoshga yetgan har qanday shaxs 2-qismdag'i xatti-harakatning subyekti bo'lishi mumkin. Subyektiv tomon bevosita yoki bilvosita g'arazli niyat bilan ajralib turadi. Mazkur huquqbazarlik uchun sanksiya jarimadir. Ushbu moddaning 2-qismida nazarda tutilgan xatti-harakatni sodir etish jarima bilan bir qatorda, majburiy tartibda fotoplyonka va videokassetalarini musodara qilishga sabab bo'ladi.

Ko'rsatib o'tilgan huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomanı havo kemasining mansabdor shaxsiari tuzadilar. Ushbu modda da nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar havo transporti organlarining mansabdor shaxslari tomonidan ko'rib chiqiladi (251-m.).

**Transport vositalaridan foydalanish qoidalari buzish! (125-m.).** Haydovchilarning transport vositalarini boshqarish va yo'lovchilar tashishda xavfsizlik kamariidan foydalanish qoidalariiga, xuddi shuningdek mototsikl haydovchilarining motoshlemlardan foydalanish qoidalariiga rioya etmasligi. — eng kam ish haqining o'ndan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Haydovchilarning foydalanish man etiladigan darajada nosozligi bo'lgan transport vositalarini boshqarishi — eng kam ish haqining uchdan bir qismigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Haydovchilarning davlat texnika ko'riganidan o'tmagan yoki belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilмаган yoxud tormoz tizimida yoki rul boshqaruvida yoxud ulovchi qurilmada nosozligi bo'lgan, xuddi shuningdek ishlayotganida tashqariga chiqarayotgan ifloslantiruvchi moddalarning miqdori, shuningdek shovqin darajasi belgilangan normadan ortiq bo'lgan yoxud tegishli ruxsati bo'lmay turib qayta jihozlangan transport vositalarini boshqarishi — eng kam ish haqining ikkidan bir qismigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Foydalanish belgilangan tartibda man etilgan transport vositalarini, xuddi shuningdek davlat raqam belgisi o'zboshimchalik bilan yechib olingen transport vositalarini boshqarish — eng kam

ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ldi.

Davlat raqam belgisi yasama yoki o'zga usullarda o'zgartirilgan transport vositalarini, xuddi shuningdek davlat raqam belgisi ayni shu transport vositasiga tegishli bo'lmagan transport vositasini boshqarish — eng kam ish haqining yetti baravaridan o'n baravrigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ldi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalarini ishdan tashqari vaqtida ulardan foydalanish shartlariga muvofiq keladigan tarzda maxsus jihozlanmagan joyda saqlash — fuqarolarga eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan bir baravrigacha, mansabdor shaxslarga esa — bir baravaridan ikki baravrigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ldi.

Ushbu Kodeksning 125-128, 129-140, 141-moddalarida transport vositalari deyilganda barcha turdag'i avtomobillar va traktorlar, boshqa xil o'ziyurar mashinalar, tramvay va trolleybuslar, shuningdek mototsikllar va boshqa mexanik transport vositalarini tushunmoq kerak.

Haydovchilarining transport vositalaridan foydalanish qoidalari buzishi — yo'l harakati xavfsizligiga va bu vositalardan foydalanishning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi ma'muriy huquqbazarliklar, ya'ni yo'l harakati qatnashchilarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tasdiqlagan yo'l harakati qoidalari va boshqa normativ hujjatlar ularning majburiy ravishda YHXX ro'yxatidan, texnik ko'rikdan o'tkazilishini transport vositalaridan foydalanishga doir bir qator talablarning buzilishi, nazarda tutadi.

Subyektiv tomordan haydovchilarining transport vositalaridan foydalanish qoidalari buzishi qasddan qilingan ayb bilan ajralib turadi. Haydovchi transport vositasi xavfsizlik va foydalanish talablariga javob bermasligini bilgani holda uni boshqarishni istaydi. Huquqbazarlik sababi (ishlab chiqarish zarurati, boshqa shaxslarning iltimosi va shu kabilar) kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Ko'rib chiqilayotgan ma'muriy huquqbazarlik subyekti faqat davlat korxonasiga, muassasasiga, harbiy yoki jamoat tashkilotiga

tegishli transport vositasi yoxud shaxsiy transport vositalarining haydovchisi bo'lishi mumkin. Basharti mazkur huquqbuzarlik transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u holda ular MJKning 135-moddasi bo'yicha javobgar bo'ladi. Mansabdor shaxslar texnikaviy ko'rikdan o'tmagan, nosozligi bo'lgan, shu tufayli ulardan foydalanish taqiqlangan transport vositalarini, ruxsat olmay turib qayta jihozlangan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan transport vositasini yo'lga chiqargani uchun MJKning 139-moddasi bo'yicha ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

125-moddada nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ichki ishlar organlari (militsiya)ning mansabdor shaxslari, YHXX mansabdor shaxslari, shuningdek, voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar ko'rib chiqadilar (247, 248, 256-moddalar).

O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 26-dekabrdagi 73-sonli qonuni bilan Transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefondan foydalanishi (128<sup>1</sup>-m.) uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi. Unga asosan, transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefondan foydalanishi, — eng kam ish haqining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — eng kam ish haqining ikki baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oygacha muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 13-dekabrdagi 125-sonli qonuni bilan transport vositasini boshqarish paytida monitordan (displaydan) tele-, videodasturlarni tomosha qilish uchun foydalanish va transport vositasiga o'zboshimchalik bilan monitor (display) o'rnatish (128<sup>2</sup>-m.) uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi. Transport vositasini boshqarish paytida transport vositasi salomning old qismiga ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan o'rnatilgan monitordan (displaydan) tele-, videodasturlarni tomosha qilish uchun foydalanish — eng kam ish haqining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Transport vositasi

salonining old qismiga o'zboshimchalik bilan monitor (display) o'matish — eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddaning 1 yoki 2-qismlarida nazarda tutilgan huquqbazarliklar ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — eng kam ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidан оlti oydan bir yilgacha muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 21-apreldagi 156-sonli qonuniga asosan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarning talablarini buzganlik (135<sup>1</sup>-m.) uchun ma'muriy javobgarlik o'rnatildi. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polislariда nazarda tutilmagan foydalanish davrida transport vositalarini boshqarish, xuddi shuningdek faqat mazkur sug'urta polislariда ko'rsatilgan haydovchilar ayni shu transport vositalarini boshqarishi to'g'risida mazkur sug'urta polislariда nazarda tutilgan shartlarni buzgan holda transport vositalarini boshqarish, — eng kam ish haqining bir barvari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha qonunda belgilangan majburiyatning transport vositalari egalari tomonidan bajarilmasligi, xuddi shuningdek, agar bunday majburiy sug'urta qilinmaganligi oldindan ayon bo'lsa, transport vositalarini boshqarish, — fuqarolarga eng kam ish haqining bir barvari, mansabdor shaxslarga esa — eng kam ish haqining uch barvari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

### **8-§. Fuqarolarning turar joy huquqlariga taalluqli, kommunal xizmat va obodonlashtirish sohasidagi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik**

Fuqarolarning turarjoy huquqlariga taalluqli kommunal xizmat va obodonlashtirish sohasidagi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi MTKning 157—163-moddalarida nazarda tutilgan.

**Hisobga olish tartibini hamda uylarga va turarjoy binolariga ko'chib kirish muddatlarini buzish** (157-м.). Turarjoy sharoitini yaxshilashga muhtoj fuqarolarni hisobga olish, hisobdan chiqarish va fuqarolarga turarjoy berish tartibini buzish, uylarga va turarjoylarga ko'chib kirishning belgilangan muddatlariga rioxal qilmaslik. — mansabdar shaxslarga eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddada nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarning tajovuz obyekti uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olish, uylar va turarjoy binolariga ko'chib kirish muddatlarini tartibini tashkil etadi. Bu huquqbuzarliklar fuqarolarning Konstitutsivada belgilangan uy-joyga ega bo'lish huquqini poymol qiladi, shuning uchun ham mazkur huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Uy-joy kodeksida turarjoy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olishning, davlat va jamoat turarjoy fondlaridan uy-joy berishning xalq deputatiari mahalliy kengashlari, hokimiyatlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun yagona tartibi belgilangan. Turarjoy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olish va uy-joy berish qoidalari asosida turarjoy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hamda navbatdan tashqari va birinchi navbatda turarjoy clish huquqidan foydalanuvchilarni uy-joy bilan ta'minlash uchun turarjoy ajratish tartibi belgilangan. Bu qoidalari quyidagilarni belgilab beradi: fuqarolarning turarjoy sharoitini yaxshilashga muhtoj deb e'tirof qilish asoslari; ularni hisobga olish tartibi; fuqarolarga turarjoy berishning navbat tartibi; orderlar berish, rasmiylashtirish va topshirish tartibi; yotoqxonalardan yordamchi uy-joy maydoni berish tartibi.

Qoidalarda belgianishicha, xalq deputatlari mahalliy kengashlari, hokimiyatlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning turarjoylarga ko'chib kirish muddati turarjoy binolari davlat komissiyalari tomonidan foydalanish uchun qabul qilib olingandan keyin 30 kundan ortiq bo'lmasi ligi lozim. MTKning mazkur moddasida sanab o'tilgan ma'muriy huquqbuzarlikning tarkibi turarjoy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olish

va turarjoy berish qoidalarini buzishdan, shuningdek, turarjoylarga ko'chib kirish muddatlariga rioya qilmaslikdan iboratdir. Huququzarlik subyektlari turarjoy sharcitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olish, hisobdan chiqarish va fuqarolarga turarjoy berishni amalga oshiradigan mansabdor shaxslar, shuningdek, foydalanish uchun qabul qilib olingan uylarga belgilangan tartibda o'z vaqtida ko'chib kirish uchun javobgar bo'lgan kishilardir.

Subyektiv tomondan ko'rsatib o'tilgan harakatlar yoki harakatsizliklar qasddan yoxud ehtiyoitsizlik orqasida sodir etilishi mumkin. Ushbu moddada nazarda tutilgan ma'muriy huququzarliklar to'g'risidagi ishlar tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalarini tomonidan ko'rib chiqiladi (245-m.).

**Shahariarni va boshqa aholi punktlarini obodonlashtirish qoidalarini buzish (161-m.).** Shahariar va boshqa aholi punktlarining hududlarini obodonlashtirish qoidalarini buzish, shuningdek, tozalik va sanitariya tartibini ta'minlash qoidalariga rioya qilmaslik, — fuqarolarga eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — bir baravaridan ikki baravarigacha mikdorda jarima solishga sabab bo'ladi. MTKga 161-moddarining kiritilishiga sabab shuki, Kodeksning 6-moddasida xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashi va ular hokimlarining qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan dcirada qoidalar belgilash huquqi joriy qilingan bo'lib, ularni buzganlik uchun javobgarlik kelib chiqadi. Shaharlar va aholi yashaydigan punktlarni obodonlashtirish tartibi, belgilangan qoidalari ma'muriy huququzarlikning tajovuz obyekti hisoblanadi, ularni yuqorida ko'rsatib o'tilgan xalq deputatlari kengashlari va ularning hokimlari belgilaydilar, bu qoidalarni buzish aholi punktining qiyofasiga putur yetkazadi, unda yashovchilar uchun noqulayliklar keltirib chiqaradi.

Yuqorida sanab o'tilgan davlat hokimiyyati mahalliy organlari va hokimlarining qarorlari bilan obodonlashtirish, tozalik va tartib masalalari yuzasidan: hududlarni yig'ishtirishni tashkil etish, yer osti inshootlari o'tkazish va qayta tashkil etish ishlarini amalga oshirish, uylar, xonadonlarni raqamlab chiqish tartibi to'g'risida,

belgilarni joylashtirish, uy-joylar, binolar, inshootlar va shu kabilarni qismlarga ajratish va buzish qoidalari joriy qilinadi.

Uy-joylar, ma'muriy va sanoat binolari hamda boshqa obyektlarning saklanishi uchun javobgar bo'lgan tashkilotlarning rahbarlari va mansabdar shaxslar. shuningdek, yer uchastkalari-ning foydalanuvchilari quyidagilarni bajarishlari shart: binolar va inshcotlarning old tomonlarini, to'siqlarni, ekranlar, balkonlar va lodjiyalarni, hovli va ko'cha hududlarining asfalt va boshqa qatlamlarini ta'mirlash va bo'yash ishlari o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash; fuqarolar va tashkilotlarning balkonlar va lodjiyalarni o'zboshimchalik bilan qavta jihozlashiga, hududlarni o'zlaricha kavlashlariga, saroylar, garajlarni, shtaket va boshqa to'siqlarni viloyat ahamiyatiga ega bo'lgan shaharlarning bosh me'morchilik-rejalashtirish boshqarmasi bilan kelishmasdan turib qurishlariga yo'l qo'ymaslik. Uy-joy tashkilotlari va ularning mansabdar shaxslari hamda shaxsiy mulk huquqidagi uy-joylarga egalik qiluvchi fuqarolar shaharlarning hududlarini yig'ishtirishni tashkil etish qoidalariга riosa qilishlari lozim. Vakolatli organlarning maxsus ruxsatiga ega bo'lmay turib, o'zboshimchalik bilan e'lonlar yopishtirish, reklamalar, axborot va ma'lumotnomalar stendlarini, lavhalar, gaz-nurli qurilmalar, afishalar va shu kabilarni joylashtirish taqiqlanadi.

Ko'chalarda yer osti inshootlarini o'tkazish, qayta qurish va ta'mirlashda yer kavlash, yog'ochlar, devorlar, to'siqlar o'rnatish bilan bog'liq barcha turdag'i ishlar vakolatli organlarning ruxsati bilan amalga oshirilishi lozim. Shahar ko'chalarida va maydonlarida chakana savdo obyektlarini joylashtirish amaldagi namunaviy loyihalar asosida va vakolatli organlar bilan kelishilgan joylarda amalga oshirilishi kerak.

Ishlab chiqarish, savdo, kommunal va madaniy-maishiy korxonalarining rahbarlari o'z korxonalarining yo'laklari, sokollari, vitrinalari, lavhalari, reklama va boshqa jihozlarini toza va soz holatda saqlashni, kechqurungi vaqtarda barcha vitrinalarning yoritilishini ta'min etishlari shart.

Tramvay depolari, trolleybus, avtobus va taksomotor parklari, avtobazalar, garajlarning ma'muriyati, barcha turdag'i transport

haydovchilar, shuningdek, shaxsiy mulk huquqida transport vositalariga ega bo'lgan shaxslar mazkur vositalarni shahar ko'chalariga orasta va toza holatda chiqarishlari shart.

Har qanday tuproq va axlatni ana shu maqsadlar uchun ajratilmagan joylarga ag'darish qat'ivan man qilinadi. Ko'chalarda, maydonlarda kichik me'morchiлик shakllaridagi stendlarni o'matish vakolatli organlar bilan kelishilgan joylarda amalidagi namunaviy loyiҳalar asosida amalga oshirilishi lozim.

Bunday huquqbazarlik qasddan va ehtiyyotsizlik bilan sodir etilgan bo'lishi mumkin.

Ularning *subyektlari* fuqarolar va mansabdar shaxslardir.

161-moddada nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari (245-m.), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qoshida tuzilgan ma'muriy komissiyalar (246-m.) va 248-moddaning fuqarolarga taalluqli 4-bandida ko'rsatilgan ichki ishlar organlarining mansabdar shaxslari tomonidan ko'rib chiqiladi.

## **9-§. Savdo, tadbirkorlik va moliya sohasidagi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik**

*Savdo, tadbirkorlik va moliya sohasidagi huquqbazarliklar uchun javobgarlik Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 164—179-moddalarida nazarda tutilgan.*

**Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish (164-m.).** Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish — fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan besh baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini ancha miqdordagi qiymatda buzish — fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda, mansabdar shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Yonilg'i-moylash materiallari bilan, dori-darmon vositalari yoki tibbiy buyumlar bilan qo'lda savdo qilish yoxud shaharlarda belgilanmagan joylarda

qo'lda savdo qilish — sotilayotgan ashyolarni musodara qilib, eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Dori-darmon vositalari yoki tibbiy buyumlar yoxud yonilg'i-moylash materiallari sotish qoidalarini buzish — fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

164-modda bo'yicha huquqbuzarliklar obyekti savdo korxonalarining normal faoliyatini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Huquqbuzarliklar predmeti keyin sotish maqsadi bilan omborlar, bazalar, savdo korxonalariga keltirilgan har qanday tovarlar bo'lishi mumkin. Savdoning asosiy qoidalarida nazarda tutilishicha, tovarlar aholiga faqat do'konning savdo zalida va belgilangan vaqtida, ya'ni xaridorlarning savdo korxonasiga kelish imkonи bo'lgan vaqtida sotilishi lozim. Savdo qilish qoidalari ko'p va xilma-xil bo'lib, quyidagilarga taalluqli: savdo zali (xizmat ko'rsatish zali)ning va yordamchi binolarning tuzilishi, vitrinalarning bezatilishi; tovarlarni sakdash; tovarlarni xaridorlarga olib berish; ular bilan pul hisob-kitobini qilish; tosh-tarozilarni saqlash va ulardan foydalanish; savdo korxonalarining ishlash vaqtini va hokazolar.

Savdo qoidalari (masalan, savdo korxonasining ishlaydigan kunlari, soatlari) davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining, mahalliy hokimiyat organlarining, hokimiyatlarining qonunchilik hujjatlari bilan tasdiqlanadi. Savdo qoidalari savdo korxonalariga tatbiq etiladigan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi qoidalari, yong'inga qarshi va sanitariya qoidalari tatbiq etilmaydi.

*Obyektiv tomondan* huquqbuzarliklarning bunday turi tovarni qonunga xilof ravishda sotish yoki uni xaridorlardan yashirishdan iboratdir. Tovarlarni yashirish (sir saqlash) tovarlar magazinlarga, do'konlarga va shu kabilarga sotish uchun berilgandan keyingina e'tirof qilinishi mumkin. Sotish uchun mo'ljallangan tovarlar butun ish kuni mobaynida to'la hajmda turlari bilan berilishi lozim. Masalan, tovarga «sotilgan» degan lavhaning osib qo'yilishi. saqlash kvitansiyalarini tuzish, tovarni peshtaxta ostida saqlash ham uni yashirish hisoblanadi.

Tovarlarni ombordan (bazadan) savdo korxonasiga yetkazib berish vaqt ham 164-moddaning amal qilishiga sabab bo‘ladi. Masalan: avtomashinalardan turib sotish va hokazo. Tovarlarni yashirish joyi ombor binolari, savdo qilish zalidagi turli qurilmalar, ishlab chiqarish va yordamchi binolar (xonalar), xizmat kabinetlari, yo‘laklar va hokazolardir.

Huquqbuzarlikning mazkur turi bo‘yicha subyektlar faqat savdo xodimlari, ya’ni mansabdor shaxslar va o‘zga shaxslar (direktor, seksiya, bo‘lim, ishlab chiqarish, ombor mudiri, sotuvchi, yordamchi ishchi va shu kabilar), aqli raso va 16 yoshga yetgan shaxslar bo‘lishi mumkin.

Savdo qoidalarining buzilishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri, qasddan sodir etiladi. Tovarlarni savdo qoidasini buzgan holda sotuvchi yoki uni yashiruvchi shaxs bunday harakatlarning ijtimoiy xavfli ekanligini biladi hamda tovarni sotishni yoki uni xaridorlardan yasririshni istaydi. Bundan tashqari, bu yerda xaridorlardan qonunga xilof ravishda haq olish tarzidagi moddiy nafga ega bo‘lishdan iborat g‘arazli manfaatdorlik nazarda tutiladi. G‘ayriqonuniy yo‘l bilan qarindoshlar yoki tanishlarni tovarlar bilan ta’minlashga (yoxud o‘zaro xizmatlarga ega bo‘lish maqsadi bilan) intilishdan iborat shaxsiy manfaatdorlik ham bo‘lishi mumkin. Kodeks 164-moddasining 1-qismi bo‘yicha ishlar davlat soliq organlari tomonidan ko‘rib chiqiladi (264-m.).

Bunday huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi bayonnomalar militsiya xodimlari tomonidan tuziladi. Ishlarni ma’muriy ishlar bo‘yicha sudyalar ko‘rib chiqadi (245-m.).

Moddaning 2-qismidagi *ancha miqdordagi qiymat* deganda eng kam oylik ish haqining o‘ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi qiymat tushuniladi. Huquqbuzarliklar yonilg‘i resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi va birmuncha moddiy talaiotlarga olib kelishi, aniq maqsad uchun yonilg‘ining yetishmasligiga, shuningdek, yonilg‘i-moylash materiallarini g‘ayriqonuniy ravishda sotuvchi shaxslarning mehnatsiz boyishiga sabab bo‘lishi mumkin. Dori-darmon vositalari yoki tibbiy ahamiyatga ega bo‘lgan ashyolarni sotish qoidalarini buzish sun‘iy tanqislik yaratilishiga sabab bo‘ladi.

Yonilg'i-moylash materiallarini sotish uchun mas'ul bo'lgan 16 yoshga yetgan shaxslar javobgarlikka tortiladi. Uiar ham mansabdor shaxslar, ham avtomobil yonilg'i qo'yish stansiyasi va avtomobil yonilg'isini quyish punktining moddiy javobgar xodimlari bo'lishi mumkin. Dori-darmon vositalari yoki tibbiy ahamiyatga ega bo'igan ashyolarni sotish vaqtida — dorixona mudirlari va boshqaiar javobgarlikka tortiladi.

G'ayriqonuniy sotish to'g'ridan-to'g'ri g'arazli niyat bilan sodir etiladi. Shaxs benzin, dori-darmon vositalarini g'ayriqonuniy ravishda (retseptsiz) sotayotganini biladi va buni amalga oshirishni istaydi. Huquqbazarlikning mazkur turiga baho berishda o'g'rilik qilish maqsadining yo'qligini aniqlash zarur.

MJTK 164-moddasining 1 va 3-qismlari bo'yicha ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar davlat soliq organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari tomonidan ko'rib chiqiladi (264-m.).

Ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidasini buzish harakatini sodir etish JKning 189-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

**Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish (165-m.).** Litsenziya olinishi shart bo'lgan faoliyat bilan maxsus ruxsatnoma olmasdan shug'ullanish — fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Amalga oshirilishi uchun litsenziyalari talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxati to'g'risida»gi 2001-yil 12-may qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasida 73 ta faoliyat uchun litsenziya talab qilinadi2. Ushbu faoliyatning uch turi bilan shug'ullanganlik uchun javobgarlik mavjud edi, qolgan 70 ta faoliyat turi bilan litsenziyasiz shug'ullanganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmagan edi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 18-sentabr qonuni bilan javobgarlik belgilandi.

**Valuta boyliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish (170-m.).** Valuta boyliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish, — valuta boyliklarini musodara qilib, eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Mazkur huquqbuzarlik obyekti O'zbekiston Respublikasining valuta monopoliyasiga tajovuz qilishdan iborat bo'lib, davlatning moliyaviy manfaatlariaga zarar yetkazadi. Huquqbuzarlik predmeti valuta boyliklaridir. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuni 3-moddasiga asosan, chet el valutasi, Chet el valutasidagi qimmatli qog'ozlar, chet el valutasidagi to'lov hujatlari va sof quyma oltin valuta boyliklari hisoblanadi. chet el valutasi muomalada bo'lgan hamda xorijiy davlatda qonuniy to'lov vositasi hisoblangan banknotlar, xazina biletlari va tangalar ko'rinishidagi chet el pul belgilari, muomaladan chiqarilgan yoki chiqarilayotgan hamda xuddi shu xorijiy davlatning pul belgilariiga almashtirilishi lozim bo'lgan chet el pul belgilari, shuningdek hisobvaraqlarda va omonatlarda bo'lgan xorijiy davlatlarning pul birliklaridagi hamda xalqaro pul yoki hisob-kitob birliklaridagi mablag'lardir. Chet el valutasidagi qimmatli qog'ozlar O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi qonuni yoki xorijiy davlatlarning qonunchilik hujatlariiga muvofiq qimmatli qog'ozlar jumlasiga kiritilgan, qiymati chet el valutasida ifodalangan pul hujatlardir.

Huquqbuzarlikning *obyektiv tomoni* valuta boyliklarini g'ayriqonuniy ravishda sotib olish yoki sotishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi hududida valuta boyliklarini xarid qilish, sotish yoki ular bilan boshqacha muomala qilishning belgilangan qoidalarini buzgan holda valuta boyliklarini sotib olish yoki sotish, bu harakatni amalga oshirish paytida g'ayriqonuniy deb e'tirof qilinadi.

Valuta boyliklarini g'ayriqonuniy ravishda sotib olish (qo'lga kiritish) turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Ko'pincha u oldi-sotdi shaklida amalga oshiriladi. Valuta boyliklarini sotib olish boshqa shakllarda ham uchraydi (ayirboshlash, ko'rsatilgan xizmatlar uchun yoki qarzni uzish hisobiga olish va hokazo).

Sodish valuta boyliklari bilan g'ayriqonuniy ravishda muomak qilishning mustaqil shakli bo'lib, valuta boyliklarining haqini to'lab realizatsiya qiliishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Aybdor shaxs valuta boyliklarining egasi bo'lib olib yoxud boshqa shaxsnинг topshirig'i bilan shunday harakatlarni sodir etib, muayyan maqsadga — valuta boyliklarini sotishga erishishga intiladi.

Valuta boyliklarini o'tkazish, sotish, ayrboshlash, ularni qarz hisobiga berish va hokazolar shaklida ifodalanadi. Valuta boyliklari bilan bog'liq boshqa barcha bitishuvlar (meros qilib qoldirish, hadya etish, saqlash) ushbu Kodeksning 170-moddasida nazarda tutilgan huquqbazarlik tarkibini hosil qilmaydi.

*Subyekt* — huquqqa zid harakatlar sodir etish paytiga kelib 16 yoshga to'lgan shaxsdir (O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, uning hududida turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardir).

*Subyektiv tomondan*: ushbu moddada nazarda tutilgan huquqbazarlik to'g'ridan-to'g'ri g'arazli niyatni nazarda tutadi, shaxs o'z harakatining huquqqa xilof ekanligini biladi, lekin shunga qaramay, uni sodir etadi.

Valuta boyliklarini g'ayriqonuniy ravishda sotib olish yoki sotish bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, JKning 177-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar ko'rib chiqadi (245-m.).

**Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash** (174-m.). Soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko'rsatish) yoxud soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan qasddan bo'yin tov lash — fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan yeti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbazarlik ancha miqdorda sodir etilgan bo'lsa, — fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etishdan bo‘yin tov lash. deklaratsiyani o‘z vaqtida taqdim etmaslik yoki unda atayin noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim etish — eng kam ish haqining bir baravari dan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Subyektlar korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning man sabdor shaxslari, shuningdek, 16 yoshga to‘lgan fuqarolar bo‘lishi mumkin.

Huquqbazarlik subyektiv tomondan to‘g‘ridan-to‘g‘ri g‘arazli niyat bilan ifodalanadi. Aybdor o‘zi sodir etayotgan harakatning huquqqa xilof ekanligini biladi va uni sodir etishni istaydi.

Daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya topshirishdan qasddan bo‘yin tov lash JKning 184-modcasi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Kodeksning 174-moddasi bo‘vicha ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlar davlat soliq organlari va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadiami legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari tomonidan ko‘rib chiqiladi (264-m.).

## **10-§. Odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun javobgarlik**

Odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun javobgarlik MJTKning 180—182-moddalarida belgilangan.

**Sudga hurmatsizlik qilish (180-m.).** Guvoh, jabrlanuvchi, da‘vogar, javobgar, ishda qatnashuvchi boshqa shaxslarning sudga kelishdan qasddan bo‘yin tov lashida yoki mazkur shaxslarning va boshqa fuqarolarning raislik qiluvchi farmovishiga bo‘ysunmasligida yoxud sud majlisi paytida tartibni buzishda o‘z ifodasini topgan sudga hurmatsizlik, — eng kam ish haqining bir baravari dan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Odil sudlov (sud) organining normal faoliyati ushbu ma’muriy huquqbazarlikning obyekti hisoblanadi.

Guvoh, jabrlanuvchi, da‘vogar, javobgar, ishda qatnashuvchi boshqa shaxslarning sudga kelishdan qasddan bo‘yin tov lashida yoki mazkur shaxslarning va boshqa fuqarolarning raislik qiluvchi

farmoyishiga bo'ysunmasligida yoki sud majlisi paytida tartibni buzishda o'z ifodasini topgan xatti-harakat huquqbazarlikning obyektiv tomoni hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbazarlik amalga oshirilgan paytda qonun cicida javob bera oladigan, 16 yoshga to'lgan shaxs huquqbazarlik subyekti bo'lishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan huquqbazarlikning subyektiv tomoni aybning qasidan qilinganligida ifodaolanadi. Bu o'rinda huquqbuzarning sudga hurmatsizligi, shuningdek, sudni oshkora mensimaslikdan dalolat beruvchi xatti-harakat sodir etgani namoyon bo'ladi.

Moddada ko'zda tutilgan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlari bo'yicha sudyasi va xo'jalik sudlari ko'rib chiqadi (245, 245<sup>1</sup>-m.).

## **11-§. Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik**

Jamoat tartibi ma'naviy, huquqiy normalar bilan hamda axloq, odob, urf-odat qoidalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardan tizimidir. Jamoat tartibi davlat organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar tomonidan muhofaza etiladi. Bu ishda asosiy vazifani ichki ishlari organlari bajaradi.

Jamoat tartibiga zarar yetkazuvchi shaxslar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 183-192-moddalariga asosan ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

**Mayda bezorilik (183-m.).** Mayda bezorilik, ya'ni jamoat joylarida uyatlari so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalari qasddan mensimaslik, — eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Mayda bezorilik jamoat tartibiga qasd qilish obyekti hisoblanadi. Jamoat tartibi jamoat joylarida huquq normalarini saqlashga asoslangan munosabatlardir. Jamoat tartibi faqat huquqiy me'yorlargina

emas, balki boshqa ijtimoiy me'yorlar: axloq, urf-odat, jamoat tashkilotlarining me'yorlari bilan ham mustahkamlanadi.

Huquqiy normalar asosiy rol o'ynaydi, chunki tartibni buzganlik uchun yuridik javobgarlik, jazoning turi va me'yorini shular belgilaydi. Aybdorming xatti-harakati jamiyatning tevarak-atrofdagi fuqarolarning manfaatlarini oshkora mensimaslikdan, madaniy saviyaning pastligidan, axloq va odobning mavjud qoidalarini nazar-pisand qilmasiikdan daloiat beradi.

Fuqarolar osoyishtaligi va jamoat tartibini buzuvchi xatti-harakat huquqbuzarlikning *obyektiv tomonini* tavsiflaydi. Bular: jamoat joylarida uyatli so'zlar biian so'kinish; fuqarolarga haqoratomuz tegajaklik qilish, ya'ni boshqa shaxsning obro'-e'tibori, izzat-nafsi sha'nini haqoratlovchi hamda ularning oromini buzuvchi shilqimlik xatti-harakati bo'lishi mumkin. Bunga, shuningdek, fuqaroni inson qadr-qimmatini verga uruvchi suhbatga zo'r lab tortish, shilqimlik bilan uning qo'lini siltash yoki kuch bilan qo'lidan ushslash, bosh kiyimini yulqib olish; sigaret tutunini uning yuziga puflash va hokazolarni kiritish mumkin.

Mayda bezorilik obyektiv tomonining muhim belgisi vaziyat, makon, vaqt hisoblanadi. Turli sharoitda bir xil xatti-harakat turlicha ahamiyat kasb etadi (masalan, jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish mayda bezorilikka xos voqeа, xuddi shunday xatti-harakat tantanali majlis, bayram va boshqa ommaviy tadbirdorda jinoyat tarzida jazolanuvchi bezorilik sifatida tavsiflanishi mumkin JK 277-moddasi 3-qismining 6-band). Mayda bezorilik ko'pincha jamoat joylarida amalga oshiriladi, ya'ni ommaning qabul qilish idrokiga tayaniladi. Biroq jamoatga yoki inson sha'niga nisbatan mensimaslik munosabati (uyatli so'zlar yozish, maysazor, gulpushta, gulzorlarni buzish va hokazolar) ma'lum bo'lib qolishini e'tiborga olib, huquqbuzarlik yashirinchha bajarilgan bo'lishi mumkin.

Mayda bezorilik *subyektiv tomondan* qasddan va ko'pincha oshkora amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Aybdor qonunga xilof xatti-harakat qilayotganini tushunadi va shuning natijasi yomon oqibatga olib kelishini biladi. jamoat tartibi va fuqarolarning osoyishtaligi buzilishiga yo'l qo'yadi. Mayda bezorilik ayrim holida egri nivat bilan amalga oshiriladi.

16 yosnga to'igan shaxs mayda bezorilik subyekti bo'lishi mumkin. Mayda bezorilik JK 277-moddasida nazarda tutilgan bezorilik xatti- harakatidan farq qiladi.

Mayda bezorilik haqidagi ish ma'muriy ishlar bo'yicha sudya tomonidan (245-m.), agar 247-moddada nazarda tutilgan xatti-harakat bo'lsa, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha komissiya yoki ichki ishlar organlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

**Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish maqsadida saqlash** (184-m.). Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirio yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash — materiallarni hamda ularni tayyorlash va tarqatishning tegishli vositalarini musodara qilib, fuqarolarga eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa —yuz baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Jamoat tartibi, boshqarishning belgilangan tartibi sharhnayotgan hukuqbazarlikning qasd qilish obyekti hisoblanadi.

Jamoat tartibi jamoat joylarida shakllanadigan ijtimoiy munosabatiadir. Ularni shakllantirish odamlarning mehnat faoliyati, turmushi va dam olishi uchun shuningdek, ijtimoiy axloq, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish talablariga rivoja etish uchun osoyishta vaziyat va qulay shart-sharoitni ta'miniaydi. Jamoat xavfsizligi deganda xavf-xatarning, ya'ni kimgadir yoki nimagadir, avvalo, odamlar va ularning mcl-mulkiga xavf solishning yo'qligi tushuniadi. Shu bilan birga, xavf-xatar turli sabablar natijasida, shu jumladan, turli transport vositalaridan foydalanish talablari buzilganda, qurol-yarog', o'q-dori, portlovchi moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalar va shu kabilar bilan muomala qilinganda yuzaga kelishi mumkin.

Jamoat xavfsizligi boshqacha yo'sindagi sharoit yuzaga kelganda ham buzilishi mumkin. Boshqacha yo'sindagi sharoit deganda Respublikaning ma'lum bir qismida aholining bir me'yorda

kechadigan hayoti, davlat organlari, shuningdek, korxona, muassasa, o'quv yurtlari, jamoat tashkilotlarining faoliyati tabiiy ofatlar, guruxiy bezorilik, ommaviy tartibsizlik va boshqacha vaziyatlar oqibatida buzilishi tushuniladi.

Xavfsizlik shartlari ko'p sonli odamlarning o'zaro munosabatlarini tartibga sololmaslik: ommaviy tadbirlar tashkil etishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ko'p sonli odamlarning betartib to'planishi jarayonining oldini olish uchun chora ko'tmaslik yoki kechikib chora ko'rganlik natijasida buzilishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan huquqbuzarlikning obyektiv tomoni xatti-harakatda ifodalanadi. Huquqbuzar siyosiy tusdagi mulohaza va o'zida mavjud e'tiqod hamda qarashlar bilan (varaqlar tarqatish, da'vat etish, vahimani yuzaga keltiruvchi volg'on mish-mishlarni yoyish) harakat qiladi.

16 yoshga to'lgan, qonun oldida javob bera oladigan shaxslar, mansabdar shaxslar huquqbuzarlik subyektlari hisoblanadi. Mansabdar shaxslar g'ayrihuquqiy shart-sharoit yaratib bergani (videoovoz mahsulotlarini namoyish etish, materiallarni ko'paytirish texnikasi uchun binoni berib turgani) uchun huquqbuzar bo'lishlari mumkin.

Huquqbuzarlikning *subyektiv tomoni* to'g'ridan-to'g'ri yoki ehtiyyotsizlik bilan qasd qilishda ifodalanadi. Agar huquqbuzar shu yo'sinda (vahimani yuzaga keltiradigan mish-mish, g'iybat gaplarni tarqatish) hazillashishni mo'ljallab, bunday «hazil»ning zararli oqibatlarini xayoliga keltirmay yanglishgan bo'lsa, qasd ehtiyyotsizlik bilan sodir etilgan hisoblanadi.

Huquqbuzarlikning ushbu ko'rinishi bo'yicha barcha materiallarni ma'muriy ishlari bo'yicha sudyalar (245-m.). 247-moddada ko'rsatilgan hollarda esa voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya ko'rib chiqishi lozim.

Fuqarolarni qirg'in qilish yoki majburan ko'chiriб yuborishga da'vat etish mazmunidagi yoki aholi orasida vahima uyg'otishga qaratilgan yozma, bosma videotovush shakiidagi materiallarni musodara qilish to'g'risidagi qaror sud departamenti sud ijrochilarini tomonidan ijro etiladi (MJTK 337-m. 1-q.).

Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish(184<sup>2</sup>-m.). Diniy

mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish, — materiallarni va ularni tayyorlash hamda tarqatish uchun tegishli vositalarni musodara qilib, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining yigirma baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — ellik baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

**Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish(184<sup>3</sup>-m.).** Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish, — materiallarni va ularni tayyorlash hamda tarqatish uchun tegishli vositalarni musodara qilib, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yuz baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

**Etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish(186<sup>1</sup>-m.).** Etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish — huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

**Jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish (187-m.).** Ko'chalarida, stadionlarda, xiyobonlarda, bog'larda, barcha turdag'i jamoat transportida hamda spirtli ichimliklarni quyib sotishga ruxsat etilgan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan boshqa jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish, — eng kam ish haqining o'ndan bir qismidan uchdan bir qismigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan oo'lsa, — eng kam ish haqining uchdan bir qismidai bir baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish axloq qoidalariga zid bo'lib, bezorilik qilish, haqoratlash uchun sharoit yaratadi.

Huquqbazarlik spirtli ichimliklar yoki ularning bir qismi ichib bo'linganda emas, balki ichimlik iste'mol qilishga tayyorlangan paytda (masalan, spirtli ichimlik stakanlarga quyulganda) tugallangan hisoblanadi.

Ushbu huquqbazarlikda ma'muriy javobgarlikka tortish uchun jamoat joylarida (spirtli ichimliklarni quyib sotishga ijozat berilgan savdo va umumiyligini ovqatlanish korxonalaridan tashqari) spirtli ichimlik ichish faktining o'zi kifoya qiladi, boshqa huquqqa xilof xatti-harakatni amalga oshirish talab etilmaydi.

Agar jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish paytda beadab so'zlar bilan so'kinish, haqorat, shilqimlik sodir qilinsa va jamoat tartibini, fuqarolar osoyishtaligini buzadigan boshqa xatti-harakatlar amalga oshirilsa, huquqbazar MTKning 183-moddasi bo'yicha mayda bezorilik uchun ham ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Spirtli ichimliklar ichish taqiqlangan boshqa jamoat joylari toifasiga yo'laklar, lift maydonchalar, hovlilar, turarjoy liftlari, tomosha muassasalari (kinoteatr, teatr, madaniyat saroylari), suv bo'yidagi cho'milish joylari ham kiradi. Odatda jamoat joylari hisoblanmaydigan, ammo u yerda fuqarolar dam oladigan paytdagi maskanlar, fuqarolar borgan paytdagi dam olish zonalari, daryo, ko'l, hovuz bo'yłari, o'tloqlar va shu kabilar ham mazkur hisobga kiradi.

16 yoshga to'lgan shaxslar huquqbazarlik subyektlari bo'lishi mumkin. Jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish subyektiv tomondan aybdorning qasddan qilgan xatti-harakati sifatida tavsiflanadi.

Ushbu modda bo'yicha ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar 2-qismi bo'yicha ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar (245-m.), fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari huzuridagi ma'muriy komissiya (246-m.) va 1-qismi bo'yicha ichki ishlar organlari tomonidan (248-m.) ko'rib chiqiladi.

**Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (188-m.).** Voyaga yetmagan shaxsni tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyovandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga, irodasiga ta'sir qiladigan

moddalar yoki vositalarni iste'mol etishga jalb qilish — eng kam ish haqining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

**Voyaga yetmagan shaxsni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishga jalb qilish(1881-m.).** Voyaga yetmagan shaxsni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishga jalb qilish — eng kam ish haqining o'n baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'jadi.

**Pornografik mazmundagi materiallarni tarqatish (189-m.).** Pornografik mazmundagi asarlar, bosma nashrlar, ashyolarning tasvirlari, kino-video filmlar, teleradio dasturlar, video va ovoz yozuvli materiallar, kino-foto materiallar va boshqa mahsulotlarni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish — mazkur materiallarni, shuningdek ulami tayyorlash va tarqatish vositalarini musodara qilib, eng kam ish haqining qirq baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu huquqbuzarlikning ijtimoiy zarari jamoat tartibiga qasd qilishi, jamiyatga, ayniqsa, yoshlarga ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi, jinsiy munosabatlar sohasida ideal va axloqiy tamoyillarni yo'qotishga olib keladi. *Pornografiya* deyilganda, odatda, nosog'lom jinsiy hissiyot uyg'otish maqsadida jinsiy hayotni qo'pol naturalistik tarzda beadablik bilan, uyatsizlarcha tasvirlovchi asarlar, nashrlar, materiallar tushuniladi. Bunda uchta vaziyatni hisobga olish lozim:

- pornografik xususiyatiga ko'ra jinsiy hayotni ta'riflash va tasvirlash;
- shakli bo'yicha qo'pol, behayo, nojo'ya ekanligi;
- nosog'lom jinsiy hissiyot uyg'otishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Nasriy yoki she'riy usuldagи asarlar, ko'lyozmalar va ko'paytilgan tasvirlar (kartina, rasm, havkaltaroshlik, fotosurat, kino-filmlar, shuningdek, plastinkalar, magnitofon yozuvlari va hokazolar) pornografiya ashyolari bo'lishi mumkin.

Biroq san'at asarlarini shahvoniy motiv va pornografik mazmundagi mahsulotlardan farklay bilish kerak. San'atdan shahvat-parastlikni chiqarib tashlash faqat noto'g'rigina emas, balki zararli

hisoblanadi, chunki seksual ishqibozlik va shahvoniy hissiyot yomon, yaramas, estetik fazilatlardan xoli degan noto‘g‘ri tasavvurni yuzaga keltiradi. San’atni bunday yerga urish insoniy seksual aloqalar nafosatini his etishni o‘tmashashtirib qo‘yadi. Shuni ham nazarda tutmoq kerakki, shahvoniy san’at, hatto naturalizm unsurlariga ega bo‘lsa ham, hali u pornografiya emas. San’at asarini belgilashda va uni pornografiyadan chegaralashda:

- asarning g‘oyaviy yo‘nalishini;
- ijtimoiy ahamiyati va foydasini;
- shaklning mazmunga mosligini hisobga olish kerak.

Asarning adabiy, tasviriy xususiyatiga baho berishda adabiyot-shunoslik, san’atshunoslik ekspertizasi vordamiga suyaniladi. Pornografik asar sifatida baho berilganida uning bajarilish mahorati va shaklidan qatyi nazar, mazmuniga asosianiladi.

Tarqalish va savdo qilish maqsadida pornografik ashyo tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, saqlash ushbu xuquqbazarlikning obyektiv tomoni hisoblanadi. Tayyorlash pornografik asarni to‘la yoki qisman (matnini tuzish, rasm chizish, pornografik mazmundagi kino va fotosurat asar) yaratish demakdir. Suratga olish, rasm chizishda ma’llum bir vaziyatda turishga ham pornografiyani tayyorlashda qatnashish sifatida qarash kerak. Pornografik rasmlarni fotosuratga tushirishni, pornografik matnlarni ko‘paytiruvchi apparatlarda ko‘paytirishni ham pornografiya tayyorlash toifasiga kiritish lozim. Pornografik ashyolarni reklama qilish boshqa shaxslarga ularni ko‘rsatish. shuningdek, pornografiyani tarqatuvchi shaxs haqidagi, pornografiya bilan tanishish mumkin bo‘lgan joy haqidagi va pornografik ashyolarning mazmuni haqidagi og‘zaki, yozma yoki bosma shakldagi e‘lonlardir. Agar uni tarqatish maqsadida saqlab turilgan bo‘lsa, uni saqlash, deb tan olinadi. Pornografik ashyolar faqat shaxsiy foydalanish uchun saqlab turilsa, javobgarlikka tortilmaydi.

16 yoshga yetgan, qonun oldida javob beradigan shaxs ushbu huquqbazarlikning subyektiidir.

Huquqbazarlikning subyektiv tomoni bevosita casd sifatida tavsiflanadi. Subyekt o‘zi tayyorlagan yoki tarcatgan «asar»lar pornografik xususiyatga ega ekanligini tushunadi va bulami boshqa shaxslarga ko‘rsatishni istaydi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huquqbuzarlik haqidagi ish ma'muriy ishlari bo'yicha sudyalar tomonidan ko'rib chiqiladi (245-m.). Pornografik mazmundagi mahsulotni musodara qilish sud departamentining sud ijrochilari tomonidan amalga oshiriladi (337-m.).

Ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ko'rsatilgan xatti-harakatni amalga oshirish JKning 130-moddasi bo'yicha kvalifikasiya qilinadi.

**Fohishalik bilan shug'ullanish (190-m.).** Fohishalik bilan shug'ullanish, — eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ayolning moddiy mukofot evaziga erkak bilan jinsiy aloqada bo'lishini fohishalik deb tushunish kerak. Fohishalik tushunchasining o'zi erkaklar bilan jinsiy aloqalar orqali moddiy manfaat ko'rishga yo'naltirilgan muntazam xatti-harakatdir. Shuning uchun rag'bat evaziga erkak bilan aloqada bo'lishning alohida, ayrim faktlari ushbu normadagi ayb belgisiga ega emas. Moddiy manfaat ko'rish uchun erkaklar bilan bir necha marta (yil davomida ikki martadan ko'p) jinsiy aloqada bo'lishni muntazamlilik deb tushunish kerak.

Fohishalik bilan kasb sifatida shug'ullanish moddiy manfaat ko'rish uchun erkaklar bilan muntazam jinsiy aloqaga kirishishni, bu rag'bat asosiy yoki qo'shimcha, lekin moddiy manfaat ko'rishning doimiy manbai ekanini ko'zda tutadi. Bunda har bir jinsiy aloqa uchun olinadigan rag'bat miqdori tasnif uchun ahamiyatga ega emas. Moddiy rag'bat sifatida faqat o'zbek va chet el valutasigina emas, balki boshqa turli moddiy ashyolar (buyumlar, qimmatbaho narsalar, spiritli ichimliklar va hokazolar) ham ishlatalishi mumkin.

Ushbu huquqbuzarlik subyektiv tomonidan bevosita qasddan sodir ediladi, ya'ni ayol o'z xatti-harakatining noqonuniy ekanini angiasa ham uni amalga oshirish niyatida bo'ladi. Bundan tashqari, huquqbuzarda aniq ifodalangan maqsad — moddiy manfaat ko'rish xohishi bor. Moddiy manfaat ko'rish fohishalikning amaliy

belgisidir, chunki bu maqsad huquqbuzarda jinsiy aloqaga kirishishdan oldin yuzaga keladi.

16 yoshga yetgan ayol jinsidagi shaxs huquqbazarlikning subyekti hisoblanadi. Fohishalik bilan shug'ullanayotganiga yetarli darajada asos bo'lган shaxslar jamiyat uchun zararli xulq-atvorga yo'l qo'yilmasligi xususida rasmiy ravishda ogoxidantirish va ro'yxatga olib qo'yish uchun militsiyaga chaqirtiriladilar. Bunday shaxslarga nisbatan ichki ishlar organlari (militsiya)ning bunga vakil qilingan mansabdor shaxslari ma'muriy ushlab turish, shaxsan tekshirish va buyumlarni musodara qilish choralarini qo'llashi mumkin. Ushbu huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomma ichki ishlar organlari (militsiya) xodimlari tomonidan tuziladi. Mavjud huquqbazarlik to'g'risida bayonnomma tuzish uchun huquqbazar militsiya xodimlari tomonidan ichki ishlar organlariga (militsiyaga) olib kelinishi mumkin. Huquqbazarlik to'g'isidagi ish ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar tomonidan ko'rib chiqiladi (245-m.).

Fohishalik bilan shug'ullangani uchun ma'muriy jazolangan shaxs tanosil kasalligini aniqlash va davolash maqsadida tibbiy tekshiruv uchun yuborilishi lozim. Huquqbazar uzrli sababsiz tibbiy muassasaga yoki ichki ishlar organi (militsiya)ga borishdan bosh tortgan taqdirda majburiy tartibda ushlab keltiriladi.

**Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar(191-m.).** Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etish, —

ana shu o'yinlar buyumlarini, shuningdek o'yinga tikilgan hamda o'yindagi yutuq bo'lган pullar, ashyolar va boshqa qimmatbaho buyumlarni musodara qilib, eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbazarlikni ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish yoxud voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda ishtirok etishga jalb qilish — ana shu o'yinlar buyumlarini, shuningdek o'yinga tikilgan hamda o'yindagi yutuq bo'lган pullar, ashyolar va boshqa qimmatbaho buyumlarni musodara qilib, eng kam ish haqining besh baravaridan o'n

baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish yoki o'tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'i provayderlari tomonidan xizmatlar ko'rsatish yoki xizmatlar ko'rsatishga ko'maklashish, tegishli dasturiy ta'minotdan nusxa ko'paytirish, uni ko'paytirish, tarqatish — kompyuter va boshqa yordamchi vositalarni, shuningdek o'yinga tikilgan hamda o'yindagi yutuq bo'lgan pullar, ashyolar va boshqa qimmatbaho buyumlarni musodara qilib, fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu huquqbuzarlikning obyekti jamoat tartibi hisoblanadi. Qimor o'ynash deyilganda faqat o'ynovchining mahoratiga yoki tasodifga bog'liq bo'lgan yutuqning o'zagina emas, balki tijorat tusidagi o'yinlar — preferans, vint, shuningdek, pul tikib o'ynaladigan bilyard, domino, loto, nard va hokazolar ham tushuniadi, o'yin asosini pulli yutuq, buyum yoki allaqanday boshqa qimmatli boylik tashkil etadi.

Pul, buyum va boshqa xil qimmatbaho narsalarni tikib qimor o'ynashning obyektiv tomoni shaxsning o'ynashga rozilik berishida; pul yoki boshqa xil qimmatbaho narsalar dovga eo'yliishida, o'yin shartlari amaliy bajarilganda o'z ifodasini topadi.

Bundan tashqari, huquqbuzarlikning obyektiv tomoni, shuningdek, sport va boshqa tomosha musobaqalari (futbol va xokkey o'yinari, yugurish va hokazolar) o'tkazilayotganda pul, buyum va boshqa qimmatbaho ashyolar dov sifatida qabul qilinishida (tikilishida) ham ifodalananadi.

Tashkiliy xususiyatga ega bo'lgan quyidagi xatti-harakat obyektiv tomon tarkibiga kiradi:

- o'yin jihozlari bilan qatnashchilarni ta'minlash;
- o'yinga kishilarning keng doiralarini jalb etish (reklama qilish, targ'ib etish, o'ynashga rozilik bergan o'tkinchilarni yutadigan qilib ko'rsatish);
- o'yin uchun culay sharoit yaratish (raqobatchilarni bartaraf etish, o'yin tashkilotchilarining shaxsii xavfsizligini

ta'minlash, huquqni muhofaza qilish organlarining vakillari paydo bo'lgani haqida o'ynovchilarni o'z vaqtida ogohlantirish va hokazolar).

O'yin qatnashchilari ma'muriy javobgarlikka sazovordirlar. Masalan, «angishvona» o'yinini tashkil etgan o'ynovchining o'ziga emas, balki guruhning boshqa a'zolari — tezlovchilar, chorlovchilar, xazinabonlar, «jangchilar», «jilovdorlar» va barcha guruhning bevosita rahbari ham javobgar bo'lishi lozim.

Kodeksning ushbu moddasi bo'yicha javobgarlikning boshlanishi shartlaridan biri huquqbazarlik sodir etilgan joy, ya'ni ko'cha, xiyobon, o'yingoh, istirohat bog'i, cho'milish joyi, jamoat transportining barcha turlari va boshqa jamoat joylari hisoblanadi. Lekin ta'kidlash joizki, nojo'ya ish amalga oshirilgan joy (jamoat joyi yoki boshqasi bo'lsin) belgili holat hisoblanmaydi.

16 yoshga to'lgan, qonun oldida javob bera oladigan shaxs huquqbazarlik subyekti bo'lishi mumkin.

Huquqbazarlikning faqat qasddan amalga oshirilishi mumkinligi huquqqa xilof harakatning subyektiv tomonidir. Bunda aybdor qilayotgan ishining qonunga xilof ekanini sezadi va ma'lum bir moddiy foyda ko'rishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Ushbu huquqbazarlik sodir bo'lgani haqida ichki ishlar organlari xodimlari bayonnomaga tuzadilar. Unda bu qilmish turini sifatlovchi vazivat ta'kidlanadi. Bunda pul va qimmatbaho narsa tikib o'ynash xususiy shaxslarning sport va boshqa musobaqalarda dov qabul qilishi bilan baravardir. Bayonnomalarni ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalalar ko'rib chiqadi (245-m.).

## **12-§. Boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik**

Boshqaruv sohasida huquqiy normalar yordamida tartibga solingan, vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabatlар boshqaruv tartibi deb ataladi. Boshqaruv tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 193—241-moddalarida qayd etilgan.

Bunday huquqbazarliklarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz. **Militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik (194-m.).** Militsiya xodimining huquqbazarlikni to'xtatish, hujjatlarni tekshirish uchun taqdim etish, militsiyaga borish yoki ko'rsatilgan muddatda militsiyada bo'lishdan iborat qonuniy talablarini uzrli sababiarsiz bajarmaslik, transport vositasini to'xtatish, jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish haqidagi qonuniy talablarini bajarmaslik yoxud militsiya xodimining qonuniy talablariga boshqacha tarzda bo'ysunmaslik, xuddi shuningdek, jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa shaxslarning qonuniy talablarini bajarmaslik, — eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha mikdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbazarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — eng kam ish haqining ikki baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Huquq-tartibotni himoya qilish va qonunni mustahkamlashda ichki ishlar organlari alohida rol o'yaydi. Ichki ishlar organlari xodimlari davlat hokimiyatining vakillari hisoblanadilar, davlatning alohida himoyasida turadilar. Militsiya xodimining qonuniy talabi barcha fuqaro va mansabdor shaxslar tomonidan bajarilishi shart.

Jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash vazifasini amalga oshiruvchi shaxslarga — ixtisoslash-tirilgan ijtimoiy tuzilma a'zolari bo'lmish fuqarolar (mahalla posbonlari), O'zbekiston Respublikasi IIV Qorovul qo'shinlari, Qurolli Kuchlarning oddiy askarlar, serjant va ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar ana shunday shaxslardir. Ular jamoat tartibini saqlash vazifalarini bajarish jarayonida fuqarolarga va tegishli mansabdor shaxslarga majburiy farmoyish berish va huquq tartibotni qo'llab-quvvatlash uchun zaruriy talablar qo'yish huquqiga egadirlar.

Boshqaruv tartibi sohasida ijtimoiy munosabatlar ushbu huquqbazarlikning obyekti hisoblanadi. Davlat hokimiyati, ichki ishlar organi xodimi hamda jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning

huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi vazifalarni amalga oshiruvchi shaxslarning obro'si ichki ishlar organlari (militsiya) xodimining qonuniy talabi bajarilmasligining bevosita obyekti hisoblanadi.

Huquqbazarlikning obyektiv tomoni ichki ishlar organlari xodimi, mahalla posboni, harbiy xizmatchining talabini bajarmaslikka caratilgan harakat yoki harakatsizlik bilan ifodalanadi. Ichki ishlar organlari xodimining talabini bajarmaslik natijasida zararli cqibatning yuzaga kelishi shart emas. Huquqbazarlik tarkibiga bevosita kirmaydigan oqibatlarga faqat harakat yoki harakatsizlikni ifodalovchi belgilar talabini bajarmaslikning obyektiv tomoni qo'shiladi. Tarkibni tasniflash uchun shaxsning qonuniy talablarni bajarmaganligini, ya'ni bo'ysunmaganligini belgilash muhim. Bunda shuni ta'kidlash kerakki, mazkur moddada nazarda tutilgan huquqbazarlik tarkibi talabni bajarmaslik faqat bir necha marta qat'iy qilingan talabni bajarmaslikda yoki jamoat tartibini muhofaza qiladigan shaxslar va organlarga nisbatan yaqqol hurmatsizlik ko'rinishidan dalolat beradigan qo'pol shakldagi bo'ysunmaslikda yuzaga keladi. Ichki ishlar organlari xodimi, mahalla posbonlari yoki harbiy xizmatchining talabi takroriy va qat'iy usulda bo'lishi, tartib buzuvchining buni bajarishdan voz kechishi so'z, imo-ishora, sukul saqlash shaklida namoyon bo'lishi lozim. Bunda aybdor ko'pchilik oldidami yoki ichki ishlar organlari xodimi, mahalla posboni yoki haroiy xizmatchi oldidarni bo'ysunmaslikni namoyon etishining ahamiyati yo'q.

16 yoshga yetgan shaxs ko'nicchi chiqilayotgan huquqbazarlikning saboyecti bo'lishi mumkin. Subyektiv tomoni — huquqbazarlikning qasddan sodir etilganligi.

Agar ichki ishlar organlari xodimi yoki mahalla posboni, shuningdek, harbiy xizmatchining talabi qonuniy, asoslangan va jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarish chog'ida berilgan yoki ko'rsatilgan bo'lsa, aybdor 194-modda bo'yicha javobgarlikka toruladi. Shuning uchun, agar 194-moddada ko'rsatilgan harakat ichki ishlar organlari xodimi, mahalla posboni yoki harbiy xizmatchi jamoat tarticini saqlash oo'yicha o'z vazifasini o'tayotgan paytda emas, balki boshqa qonuniy faoliyat ko'rsatayotganda sodir bo'lsa, unca 194-modda qo'llanilmaydi.

Ichki ishlar organlari xodimi yoki mahalla posboni, shuningdek, harbiy xizmatchining jamoat tartibini saqlashda o'z vazifasini bajarayotganini belgilangan tartibda kiyingani, tegishli ko'krak nishoni borligi yoki xizmat guvohnomasini ko'rsatishi shohidlik beradi.

Agar huquqbuzarlik ichki ishlar organlari xodimi, mahalla posboni yoki harbiy xizmatchi tomonidan jamoat tartibi har qanday tarzda buzilishi yoki axloqqa zidligi ogohlantirilgan yoki oldi olingan bo'lsa, aybdorning mazkur harakati 194-modda bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Ko'pincha ichki ishlar organlari xodimining qonuniy taiabi bajarilmasiagi qonun bo'yicha ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan boshqa jamoat tartibi buzilishini keltirib chiqaradi. Agar bu harakat amalda bitta huquqbuzarlik elementlarini yuzaga keltirsa, aybdor amalga oshirgan qilmish jiddiyroq javobgarlik nazarda tutilgan modda bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Huquqbuzarlik ichki ishlar organlari xodimi, mahalla posboni yoki harbiy xizmatchiga jamoat tartibini saqlashda o'z vazifasini bajarishga to'sqinlik qilgan-qilmaganligidan qat'i nazar, qonuniy talabni bajarmaslikda aybdor hisoblangan paytdan boshlab tan olinadi.

Jamoat tartibini saqlash bo'yicha belgilangan vazifani bajarishida ichki ishlar organlari xodimi yoki mahalla posboniga, xuddi shuningdek, harbiy xizmatchiga qarshilik ko'rsatgan aybdorlar JKnning 219-moddasiga muvofiq jinoiy javobgariikka tortiladilar.

194-modda bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishni ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar amalga oshiradilar (145-m.).

**Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilarining qonuniy talablarini bajarmaslik va ularning qonuniy faoliyatiga qarshilik ko'rsatish(196<sup>1</sup>-m.).** Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilarining O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tish bilan bog'liq harakatlarni to'xtatish, shuningdek zarur hujjatlarni taqdim etish haqidagi qonuniy talablarini bajarmaslik — eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'jadi.

Chegara qo'shirlari harbiy xizmatchilarining qonuniy talablarini bajarmaslikka har qanday ko'rinishda omma oldida da'vat etish, ommaviy ravishda bo'ysunmaslikni keltirib chiqarish maqsadida atayin soxta uydirmalar tarqatish yo'li bilan chegara qo'shirlari harbiy xizmatchilarining o'z qonuniy faoliyatini amalgalashishiga qarshilik ko'rsatish, xuddi shuningdek chegara qo'shirlari harbiy xizmatchilarining huquqbazarliklarni to'xtatish haqidagi qonuniy talablariga bo'ysunmaslik, — eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddaning 1 yoki 2-qismlarida nazarda tutilgan huquqbazarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

**Advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish (1971-m.).** Advokat so'roviga javob taqdim etmaslikda ifodalangan advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish, shuningdek advokatning ishda ishtirok etishiga to'sqinlik qilish yoki ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) manfaatlariga zid bo'lgan vaziyatni majburan egallashiga erishish maqsadida advokatga qanday shaklda bo'lmasin ta'sir o'tkazish - eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

**Pasport tizimi qoidalarini buzish (223-m.).** Pasporti bo'lishi shart bo'lgan fuqaroning pasportsiz yoki haqiqiy bo'Imagan pasport bilan, vaqtincha yoki doimiy propiskasiz yashashi, pasportni qasddan yaroqsizlantirishi, shuningdek, pasportni beparvolik bilan saqlashi va buning oqibatida pasportning yo'qolishi — eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Fuqarolarning yo'qolganligi to'g'risida o'zlarini ariza bergan o'z pasportlaridan, shuningdek, boshqa fuqarolarga tegishli pasportlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishi — eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Pasport tizimi qoidalariiga rioya etish uchun mas'ul bo'lgan shaxslarning fuqarolarning pasportsiz yoki haqiqiy bo'lmagan pasport bilan yoxud vaqtincha yoki doimiy propiskasiz yashashiga yo'l qo'yish, xuddi shuningdek, fuqarolarning o'z turarjoylarida pasportsiz, vaqtincha yoki doimiy propiskasiz shaxslar yashab turishga yo'l qo'yishi — eng kam ish haqining uch baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladı.

Pasportsiz yoki haqiqiy bo'lmagan pasport bilan, xuddi shuningdek, vaqtincha yoki doimiy propiskasiz yashab turgan fuqarolarni ishga qabul qilish, shuningdek, fuqarciardan pasportlarini qonunga xilof ravishda olib qo'yish yoki ularning pasportlarini garovga olish — mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladı.

O'zbekiston Respublikasida pasport tizimi O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi qonunidal, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 1999-yil 26-fevral farmonida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida o'z ifodasini topgan. Ushbu qonunchilik hujjatlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi va uning egasi shaxsini tasdiqlovchi asosiy hujjatdir. O'zbekiston Respublikasining 16 yoshga to'lgan barcha fuqarolarida O'zbekiston Respublikasining pasporti bo'lishi shart. Harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo'mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar va harbiy biletlar harbiy xizmatchi shaxsini tasdiqlovchi hujjatdir. Pasport xorijga jo'nab ketish chog'ida ham amal qiladi. Xorijga jo'nab ketayotgan fuqarolar uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda rasmiylashtiriladi. «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti:

— qonun kuchga kirgan kunda O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan shaxslarga;

— O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga o‘tgan shaxslarga beriladi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari beradi. O‘zbekiston Respublikasining xorijda doimiy yashaydigan fuqarolariga, shuningdek, «O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga o‘tgan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatiya vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi berishi mumkin.

Pasport berishda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tasdiqlagan miqdorda haq olinadi. Xorija chiqish huquqini beruvchi hujjatlami egasiga topshirishda belgilangan tartibda davlat boji olinadi. To‘la davlat ta‘minotida bo‘lgan shaxslar boj to‘lashdan ozod qilinadi.

Fuqaro o‘z pasportini avaylab-asrashi shart. Pasport yo‘qotilgani haqidagi fuqaro ichki ishlar organlariga yoki O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatiya vakolatxonasiga yoxud konsullik muassasasiga darhol xabar qilishga majburdir. Ular esa fuqaroning iltimosiga binoan, unga belgilangan namunadagi ma‘lumotnomasi beradi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko‘zda tutilganidan tashqari fuqaroning pasportini tortib olish, shuningdek, pasportni garov tariqasida qoldirish va garovga olib qolish taqiqlanadi.

Pasportni ataylab buzish — hujjatdan o‘z vazifasida foydalanish mumkin bo‘lmay qolishi natijasida yoki undan foydalanish (hujjatning muhim qismiga siyoh to‘kilgan, hujjatning bir qismi yirtib olingan hamda yo‘qotilgan va hokazo) ancha qiyinlashadigan darajada zarar keltirishdir.

Fuqarolarning o‘z pasportlaridan yoki boshqa fuqarolarga tegishli pasportlardan g‘arazli maqsadda foydalanishi, odatda biror manfaat ko‘rish: garov, qayd etilishi va hokazolarda namoyon bo‘ladi.

Shaxsni pasportsiz yoki haqiqiy bo‘lmagan pasport bilan yashash uchun qo‘yishda uy egalari, odatda g‘arazli maqsadlarni ko‘zlaydilar.

Uch kundan ko‘p muddatga, ta‘tilga, mehmon bo‘lib, dam olishga, xizmat safariga, shuningdek, savdo va boshqa faoliyat

bilan shug‘ullanish uchun shaharga kelgan fuqarolar ro‘yxatdan o‘tishlari lozim. Ro‘yxatdan o‘tish aynan fuqaro yashayotgan joyida: mehmonxonalarda, motellarda, sayyoohlar kempingi va bazalari, dam olish uylari va pansionatlarida, internat, yotoqxona va xususiy manzillarda amalga oshiriladi. Fuqarolarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibiga rioya etish uchun:

— uy-joylardan foydalanish idoralarining boshliqlari, mahalla qo‘mitalari raislari, yotoqxona komendantlari, uy-joy mulkdo‘flari shirkatlari uyushmasining raislari;

— mehmonxona, dam olish uylari, pansionati, sayyoohlar bazasi va kempinglar, yotoqxonalar va boshqalarning direktorlari (mudirlari);

— fuqarolarni turarjoy sektoriga joylashtirish bilan shug‘ullanuvchi xususiy yoki boshqa korxonalar rahbarlari;

— uy va xonodon egalari, shuningdek, ixtiyoroda turarjoy binolari va imoratlari bo‘lgan boshqa shaxslar mas’uldirlar.

Ro‘yxatdan o‘tish uchun fuqaroning yonida pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, shuningdek, kelishdan maqsadini belgilovchi hujjatlar (xizmat safari guvohnomasi, ta’til guvohnomasi, yo‘llanma va boshqalar) bo‘lishi lozim.

Shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bo‘limgan shaxslar ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi. Shaharga kelgan shaxs ma’muriy yoki jinoiy huquqbazarlik sodir etgan taqdirda ro‘yxatdan o‘tganlik bekor qilinadi. Pasportsiz yoki haqiqiy bo‘limgan pasport bilan ishga qabul qilish xodimlarni ishga qabul qilish yoki bo‘shatish huquqiga ega bo‘limgan mansabdar shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqaruvning belgilangan tartibi ushbu huquqbazarlik obyekti hisoblanadi. Obyektiv tomoni ham harakat, ham harakatsizlik shaklida ifodalanadi. Subyekti — fuqarolar va mansabdar shaxslar. Subyektiv tomoni qilmishning qasd yoki ehtiyoitsizlikdan sodir etilganligi bilan belgilanadi.

Ushbu modda bo‘yicha ma’muriy huquqbazarlik ishlari ichki ishlar organlari tomonidan ko‘rib chiqiladi (248-m.).

**O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzish (225-m.).** Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘limgan shaxsning O‘zbekiston

Respublikasida bo'lish qoidalarini buzishi, ya'ni O'zbekistonda yashash huquqini beradigan hujjatlarsiz yoki haqiqiy bo'lmagan hujjatlar bilan yashashi, vaqtincha yoki doimiy propiska, ko'chish yoki turarjoy tanlash yuzasidan belgilangan tartibga rioya etmasligi, bo'lish muddati tugagach chiqib ketishdan bo'yin tovlashi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining hududi orqali tranzit tarzda o'tish tartibiga rioya qilmasligi, — eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqarib yuborishga sabab bo'ladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishi qoidalarida nazarda tutilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni qabul qilish tartibining mansabdor shaxs tomonidan buzilishi, — mansabdor shaxsga eng kam ish haqining yigirma baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni xususiy ish bilan O'zbekiston Respublikasiga taklif qilgan fuqaro tomonidan mazkur fuqarolarning vaqtincha propiskadan e'tishlarini, shuningdek, ular shu yerda bo'lishining belgilangan muddati o'tgach, chiqib ketishlarini ta'minlashga doir choralar ko'rilmasi, shuningdek, uy-joy, transport vositalari berib qo'yilishi yoxsa boshqa xizmatlar ko'rsatilishi, agar bu O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarining buzilishiga olib kelishi oldindan ayon bo'lsa, — eng kam ish haqining o'n baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan respublikada bo'lgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar qonunlarga, jamoat tartibiga rioya qilishlari, hokimiyat vakillarining qonuniy talablarini bajarishlari iozim.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan umumiy asosda (alohida qoidalar faqat tegishli imtiyoz va immunitetidan foydalanuvchi shaxslarga nisbatan ishlatiadi) ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Jamoat tartibini saqlashni ta'minlash, xorijiy fuqarolar uchun O'zbekiston Respublikasida bo'lgan vaqtlarida va respublika hududi orqali o'tayotganlarida normal sharoit yaratib berish maqsadida, xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga muayyan va majburiy qoidalar o'matiladi. «Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalari» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabr qarorida belgilangan1. Xorijiy fuqaro: a) O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarni buzgan taqdirda, ya'ni O'zbekistonda yashash huquqini beruvchi hujjatlarsiz yoki haqiqiy bo'Imagan hujjatlar bo'yicha yashaganda, vaqtinchalik doimiy ro'yxatdan o'tishning, harakat qilish yoki yashash joyini tanlashning belgilangan tartibiga rioya qilmaganda, bo'lish muddati tugagandan keyin chiqib ketishdan bosh tortganda, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit bo'yicha o'tish qoidalariга rioya qilmaganda; b) O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan jinoyat uchun sud tomonidan tayinlangan jazoni ijro etgandan yoki o'tagandan yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingandan keyin, keyinchalik kelish huquqini cheklagan holda O'zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborilishi mumkin.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbazarliklar uchun qanday ma'muriy javobgarlik belgilangan?
2. Aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbazarliklar uchun qanday ma'muriy javobgarlik turlari mayjud?
3. Mulkka tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun belgilanadigan ma'muriy javobgarliklar haqida so'zlab bering.
4. Tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbazarliklar uchun qanday ma'muriy javobgarliklar kelib chiqadi?
5. Sanoatdagi, qurilishdagi va issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi huquqbazarliklar uchun kelib chiqadigan ma'muriy javobgarliklar haqida tushuntiring.

6. Qishloq xo‘jaligidagi, veterinariya-sanitariya qoidalarini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlik belgilanadigan huquqbuzarliklar haqida so‘zlab bering.
7. Transportdagи, yo‘l xo‘jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun qanday ma‘muriy javobgarlik kelib chиqadi?
8. Fuqarolarning turar joy huquqlariga taalluqli, kommunal xizmat va obodonlashtirish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlik haqida so‘zlab bering.
9. Savdo, tadbirkorlik va moliya sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlik asoslari haqida tushuntiring
10. Odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun qanday javobgarlik turlari mavjud?
11. Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlik asoslari nimalarda namoyon bo‘ladi?
12. Boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlikka tortish asoslari haqida so‘zlab bering.

MA'MURIY JARAYON VA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK  
TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISH

*XIV bob*  
MA'MURIY JARAYON

**1-§. Ma'muriy jarayon tushunchasi va xususiyatlari**

Huquqiy jarayonning keng tarqaigan ko'rinishi — ma'muriy jarayondir. Yuridik adabiyotlarda, ma'muriy jarayon, ijro etuvchi hokimiyat organlarining ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan va aniq huquqiy masalalarni hal etishga qaratilgan — hokimiyat faoliyati sifatida ko'rsatib o'tiladi. Bu bиринчи navbatda, ma'muriy jarayonning ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinganligiga asoslanadi.

Ma'muriy jarayon huquqiy jarayonning barcha umumiy xususiyatlarga ega. Lekin shu bilan birga uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud:

*birinchidan*, ma'muriy jarayon — ijro etuvchi organlarning maqsadga muvofiq yo'naltirilgan hokimiyat faoliyatidir;

*ikkinchidan*, ijro etuvchi organlarning hokimiyat faoliyati qo'nunchilik hujjatlariga asoslanib, ularga tegishli bo'lgan anic masalalarni hal etishga qaratilgan;

*uchinchidan*, ma'muriy-huquqiy aktning qabul qilinishi ma'muriy jarayon natijasi bo'lib hisoblanadi;

*to'rtinchidan*, ijro etuvchi organlarning hokimiyat vakolatlari ma'muriy huquq, xusan uning protsessual normalari bilan tartibga solinadi;

*beshinchidan*, ma'muriy jarayon, qoida bo'yicha. sodda-lashtirilgan harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq.

Bundan tashqari, ma'muriy jarayonning o'ziga xos xususiyatlarga — ma'lum bir ishning yozma yoki og'zaki tartibda olib borilishini, sirtdan ko'rib chiqilishini ham kiritish mumkin.

Demak, ma'muriy jarayon — ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan hamda ma'muriy-huquqiy aktlarni qabul qilish va ijro etish orçali ma'lum bir ishni hal etishga qaratilgan iro etuvchi organlarning hokimiyat faoliyatidir.

Yuridik adabiyotlarda, ma'muriy jarayon bilan bir qatorda, «ma'muriy-protsessual faoliyat» tushunchasi ham ko'rsatib o'tilgan. Ma'muriy-protsessual faoliyat quyidagilardan iborat:

a) *ma'muriy huquq yodkorligi jarayoni* — iro etuvchi hokimiyat organlarning ma'muriy-protsessual shaklda o'matilgan tartioda ma'muriy normativ aktlarni qabul qilishga qaratilgan faoliyatidir;

b) *ma'muriy huquqni qo'llash jarayoni* — iro etuvchi hokimiyat organlarning qonunchilik hujjatlarini iro etishga qaratilgan va ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan operativ-farmoyish berish hamda huquqni qo'llash aktlarini qabul qilish va iro etish faoliyatidir;

c) *ma'muriy yurisdiksiyaviy jarayon* — iro etuvchi hokimiyat organlarning turli subyektlar o'rtasidagi nizolarni hal etish, shuningdek, ma'muriy-protsessual shaklda amalga oshiriladigan ma'muriy va intizomiy majburlov choralarini qo'llashga qaratilgan faoliyatidir.

«Ma'muriy jarayon» va «ma'muriy-protsessual faoliyat» bir-biriga yaqin va bog'liq tushunchalardir. Lekin har qanday ma'muriy jarayon faoliyati ma'muriy-protsessual faoliyat hisoblanmaydi.

Yu.M.Kozlovnning ko'rsatishicha, ma'muriy-protsessual faoliyat tushunchasiga ikki xilda yondashish mumkin:

a) ma'muriy jarayon (keng ma'noda) — butun davlat boshqaruvi faoliyatini o'z ichiga oladi;

b) ma'muriy jarayon (tor ma'noda) — moddiy normalar sanksiyalarini qo'llash bo'yicha faoliyatni o'z ichiga oladi.

Yu.M.Kozlov ma'muriy-protsessual faoliyatni, uning yuqorida ko'rinishlaridan kelib chiqqan holda, ikkiga bo'ladi:

1) *ma'muriy ish yuritish*.

Uning mazmurni iro etuvchi hokimiyat organlari (mansabdor shaxslari) tomonidan ma'muriy huquq normalarida belgilangan ish yuritish bo'yicha farmoyish berish harakatlarini amalga oshirish tashkil etadi.

## 2) *ma'muriy yurisdiksiyaviy faoliyat.*

Uning mazmunini ijro etuvchi hokimiyat organlari (mansabdar shaxslari) tomonidan yurisdiksiyaviy harakatlarni amalga oshirish tartibida, huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bajarish tashkil etadi.

Ma'muriy jarayon, odil sudlov (fuqarolik, jinoiy, xo'jalik) singari, hokimiyat organlari tomonidan qanday masalalarning hal etilishiga qarab bir necha turlarga bo'linadi. Hal etilayotgan ishlarning mazmuni — ma'muriy-protsessual shaklga yoki uning ayrim elementlari xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Agar, har qanday jarayon doirasida ma'lum bir ishlar hal etiladigan bo'lsa, unda maxsus protsessual qoidalarning zaruriyati vujudga keladi. Ayran mana shu xususiyatlarga qarab jarayonda, uning o'ziga xos qismi — ish yuritish ajratiladi. Davlat hokimiyati organlari, ma'lum bir ma'muriy jarayon doirasida, turli xii ishlarni hal etishiga to'g'ri keladi. Ularni umumiyl protsessual qoidalari bilan tartibga solish mushkuldir. Shu sababli, ma'muriy faoliyatning o'ziga xos turlari, ya'ni ma'lum bir ishlarni hal etishning maxsus protsessual qoidalari mavjud bo'lib, ularning yig'indisi — ish yuritish faoliyatini tashkil etadi. Masalan, shikoyatlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralarini tayinlash faoliyatları ko'pgina umumiyl xususiyatlarga ega, lekin bu faoliyat turi maxsus qoidalarga ham muhtoj bo'ladi.

Demak, *ma'muriy ish yuritish* — ma'muriy jarayonning bir qismi bo'lib, umumiyl va maxsus protsessual normalar yordamida ma'lum ishlarni hal etishga qaratilgan ma'muriy faoliyatning alohida turi hisoblanadi.

Ma'muriy ish yuritish bir necha ko'rinishlarga ega. Jumladan:

### *Ma'muriy huquq ijodkorligi jarayonida:*

a) Prezident aktlarini qabul qilish; b) hukumat akt'arini qabul qilish; c) markaziy ijro etuvchi hokimiyat organlari aktlarini qabul qilish; d) markaziy ijro etuvchi hokimiyat subyektlarining aktlarini qabul qilish bo'yicha ish yuritish.

Ma'muriy huquqni qo'llash (operativ-farmoyish berish) jarayonida:

a) shaxsiy tarkibni jamlash bo'yicha (masalan, harbiy xizmatga chaqirish, davlat lavozimiga, o'quv yurtiga qabul qilish); b) davlat mulkini xususiylashtirish; d) rag'batlantirish choralarini qo'llash; e) resurslarni (masalan, kvartira, pul mablag'lari, yer uchastkalarini) taqsimlash; f) ruxsat berish bo'yicha (masalan, litsenziya, ruxsatnoma, boshqarish huquqini berish); g) ro'yxatga olish bo'yicha (masalan, transport vositalarini, xorijiy fuqarolarni, ko'chmas mulkni); h) mahsulotlar va xizmatlar sifatini tekshirish; i) nazorat va boshqalar bo'yicha ish yuritish.

### *Ma'muriy yurisdiksiyaviy jarayonda:*

a) fuqarolarning shikoyatlari bo'yicha; b) ma'muriy huquq-buzarliklar bo'yicha; d) intizomiy; e) ijro etish; f) ma'muriy cheklov (ehtiyoj) choralarini qo'llash bo'yicha ish yuritish.

Turli ish yuritish jarayonlari har doim bir xil amalga oshirilmaydi. Ba'zi hollarda ish yuritish aniq va to'liq protsessual shaklga ega bo'ladi. Boshqa hollarda esa, faoliyat to'liq tartibga solinmagan bo'ladi.

Har qanday ish yuritish — ma'muriy huquqning tegishli institutlari moddiy normalari bilan bog'liq bo'ladi. Protsessual normalar esa, mana shu institutlarga xizmat qiladi.

## **2-§. Ma'muriy jarayonning umumiyligi bosqichlari**

*Ma'muriy jarayon* — uzluksiz amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, turli xil ziiddiyatlarga qaramay, ma'lum harakatchanlik xususiyatiga ega. Ma'muriy jarayon — muayyan bosqichlarning ketma-ketligiga, ularning takrorlanib turishiga asoslanadi.

Huquq subyekti o'z oldida turgan maqsadga erishish uchun, belgilangan ketma-ketlikda ma'lum bir harakatlarni amalga oshiradi.

Har qanday jarayon singari, ma'muriy jarayonga ham, *bosqichlilik* xususiyati xosdir. Bosqichlar biridan keyin ikkinchisining kelishini, oldingi bosqichning keyingi bosqichni tayyorlashini nazarda tutadi. Odatda, yangi bosqich undan oldingi bosqichning tugaganidan so'ng vujudga keladi.

**Bosqich** — bu umumiy maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan ma’muriy faoliyatning mustaqil qismidir. Har bir bosqich — o‘ziga xos maqsadga ega bo‘lib, protsessual harakatlarning umumiy maqsadiga erishish yo‘lida xizmat qiladi. Har bir bosqich o‘ziga xos bo‘lgan:

a) subyektlar doirasiga; b) axborotni to‘plash va undan foydalanishga; d) tayyorlanadigan hujjatlarga; e) qabul qilinadigan qarorlarga; f) sodir etiladigan turli harakatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Ko‘pgina ma’muriy jarayonlarda, hokimiyat vakolatlaridan obyektiv, maqsadga muvofiq va qonuniy foydalaniishini ta’minlash uchun turli subyektlarning ishtirok etishi belgilanadi. Masalan, bu yurisdiksiyaviy faoliyatda yaqqol namoyon bo‘ladi: birinchisi subyekt bayonnomaga tuzadi, ikkinchisi qaror qabul qiladi, uchinchisi qaror yuzasidan berilgan shikoyatni ko‘rib chiqadi va hokazo.

Ma’muriy jarayonni umumiy holda tahlil qiladigan bo‘lsak, uning kamida uch bosqichdan iborat ekanligi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin:

birinchisi — *ma’lum bir holatni baholash;*

ikkinchisi — *ma’muriy aktni tayyorlash va qabul qilish;*

uchinchisi — *huquqiy aktni ijro etish.*

Ma’muriy jarayon bosqichlarini yanada aniqlashtirish ham mumkin. Masalan, davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonida davlat organlari o‘z faoliyatlarini quyidagi bosqichlarda:

a) vujudga kelgan yoki hal qilinishi lozim bo‘lgan muammoni aniqlash;

b) mazkur muammoni hal etish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

d) uni atroflicha o‘rganish va obyektiv baho berish;

e) asoslantirilgan qarorlar qabul qilish;

f) qarorni ijro etish yoki ijrosini tashkil etish va ta’minlash;

g) qaror ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish;

h) qaror ijro etilganligi to‘g‘risidagi hisobotni talab qilish bosqichlarida amalga oshiradilar.

*Birinchi bosqich* — turlicha nomlangan bo‘lishi mumkin (masalan, xizmat tekshiruvi, ro‘yxatga olish, berilgan shikoyatlarni

tekshirish va hokazo), lekin barcha holatlarda ham bu bosqich — zarur axborotlarni toplash, ularni rasmiylashtirish va baholashdan iborat bo‘ladi. Ma’muriy faoliyatning bunday boshlang‘ich harakatlarisiz, biron-bir qarorni qabul qilib bo‘imaydi.

Jarayonning birinchi bosqichi — ma’lum bir qaror (masalan, tasdiqlash, rag‘batlantirish, jazo qo’llash) qabul qilishda zarur bo‘lgan harakatlar yig‘indisi hisoblanadi. Bunda — huquqiy tashabbus, ma’lum bir holatlarga baho berish va unga huquqiy ta’sir etish vositalari, qaror loyihasini tayyorlashga qaratilgan harakatlar sodir etiladi.

Birinchi bosqichda ma’lum bir ishlarning holati, muammolar, ularni hal etish yo’llari aniqlanadi. Qaror loyihasini tayyorlash vaqtida muammoni hal etishning ma’muriy-huquqiy tartibga solish vositasini tanlanadi, rasmiylashtinadi, kelishib olinadi va muhokama qilinadi.

*Ikkinci bosqich* — qaror qabul qilish bo‘lib hisoblanadi. Kollegial organlarda qaror muhokama qilinadi va ovozga qo‘yiladi. Ayrim hollarda, qaror — ish jarayoni tartibida, so‘rov o’tkazish orqali qabul qilinadi. Aksariyat qarorlar esa yakka tartibda qabul qilinadi. Bu bosqichning asosiy xususiyati shundaki, tayyorlangan qaror loyihasi o‘rganiб chiqiladi va imzolash orqali qabul qilinadi. Bundan tashqari, qaror loyihasini o‘rganish jarayonida unga o‘zgartirish kiritilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Qaror qabul qilish — bu nimaningdir kelajagini, qandaydir harakatni sodir etishni belgilashdir. Qarorda uning ko’rsatmalarini aniq belgilab o’tish katta ahamiyatga ega.

*Ikkinci bosqich* qarorni rasmiylashtirish orqali tugallanadi.

*Uchinchi bosqich* — ijro etish — qarorni ijrochiga, manfaatdor shaxslarga yetkazishdan boshlanadi. Bu — shaxsan tanishtirish (og‘zaki, jo‘natish, nusxasini topshirish va hokazo) orqali amalgalashiriladi. Agar qaror adresatlari doirasi keng bo‘lsa, qaror bir necha nusxalarda ko‘paytirilishi va yuborilishi yoki ommaviy axborot vositalarida, maxsus to‘plamlarda e’lon qilinishi mumkin.

Ijro etish — eng murakkab bosqichlardan biri. Aynan unda rahbarning ishchanlik, tashkil etish, boshqarish, jamoaning kelishuv asosida faoliyat kc‘rsatishini ta’minalash, ishni oxirigacha yetkazish kabi xislatlari namoyon bo‘ladi.

### 3-§. Ma'muriy-protsessual normalar

Yuridik adabiyotlarda, ma'muriy-protsessual huquq bo'yicha turlicha yondashuvlar mayjud. Masalan, 'ba'zi huquqshunos-olimlar, ma'muriy-protsessual huquqni — huquq tizimining mustaqil tarmog'iga kiritadilar. Boshgalari esa, ma'muriy-protsessual huquq ma'muriy huquqning ichki sohasi hisoblanadi. deb ko'rsatadilar.

D.N.Baxraxning fikricha, ma'muriy-protsessual huquq — ma'muriy huquq tarkibida bo'lgan va hokimiyat faoliyatini tartibga soluvchi keng doiradagi normalardan iborat bo'lib, yagona tizimga keltirilmagandir.

V.D.Sorokin ma'muriy-protsessual huquq muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borib, uni o'zining predmeti, tizimi va tartibga solish uslubiga ega bo'lgan huquq tizimining mustaqil tarmog'i sifatida ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, ma'muriy-protsessual normalar — vakolatli davlat organlari tomonidan o'rnatilgan, ijro etuvchi hokimiyat organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yakka tartibdagi ishlarni hal etish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy qoidalardir.

Ma'muriy ish yuritish faoliyatining turli ko'rinishlarga (huquq ijodkorligi, rag'batlantirish, ruxsat berish, yurisdiksiyaviy va hokazo) ega bo'lganligi sababli, protsessual normalar aksariyat hollarda, ma'muriy huquqning boshqa institutlari protsessual normalari bilan emas. balki tegishli institutlarning moddiy normalari bilan bog'liqdir. Jarayonlashtirishni keng doirada amalga oshirish bilan esa, protsessual normalarni yanada yaqinlashtirish, unifikatsiya qilish va yagona tizimga keltirish mumkin bo'ladi.

D.N.Baxraxning ko'rsatib o'tishicha, ma'muriy-protsessual qonunchilikni alohida tarmoqqa ajratish, amaliyotda foydadan ko'ra, ko'proq zarar keltirishi mumkin. Chunki, bunday ajratish bir butun normalarni ikki bo'lakka, ya'ni moddiy va protsessual normalarning alohidalashuviga olib keladi.

Hozirgi vaqtida ma'muriy-protsessual huquq — ma'muriy huquqning ma'lum bir institutlari doirasida tizimlashtirilgan keng doiradagi protsessual normalar yig'indisi sifatida namoyon bo'jadi.

Sobiq Ittifoq davridagi yuridik adabiyotlarda, ma'muriy-protsessual normalar va uning tasnifi bo'yicha turli fikrlar bildirilgan. Jumladan, XX asrning 50-yillarida S.S. Studenikin tomonidan ma'muriy-protsessual normalarning ikki guruhga bo'linishi ko'rsatib o'tilgan:

a) boshqaruv organlari tomenidan u yoki bu masalani hal etish tartibini belgilab beruvchi normalar;

b) sud organlari tomonidan ijroiya-farmoyish berish faoliyatiga taalluqli bo'lgan masalalarni hal etish tartibini belgilab beruvchi normalar.

Lekin bunday tasnif to'liq bo'lmay, uni yanada aniq ashtirish talab etiadi. Chunki bu tasnifda ma'muriy-protsessual normalar, faqatgina predmet nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda bo'lingan.

70-yillarda esa, N.G. Salimyeva ma'muriy-protsessual normalarga quyidagilami kiritadi:

1) ma'muriy majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ishlarni hal etishning umumiyligi prinsiplarini belgilab beruvchi yoki mustahkamlovchi normalar;

2) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs huquqlarining kafolatlarini belgilab beruvchi normalar;

3) ijro etuvchi va farmoyish beruvchi organlarning protsessual harakatlarini rasmiylashtirishga qaratilgan hujjatlar tayyorlashni belgilab beruvchi normalar;

4) ish olib borishning protsessual tartibi, shuningdek, qarorlar qabul qilish tartibini belgilab beruvchi normalar;

5) qabul qilingan qaror ustidan tegishli boshqaruv organini yoki sudga shikoyat qilish tartibini belgilab beruvchi normalar.

Bu davrda, B.B.Xangeldiyev ma'muriy-protsessual normalarning uch guruhini ajratadi:

a) yuridik tabiatiga ko'ra jinoyat-protsessual normalarga yaqin bo'lgan qoidalar;

b) fuqarolik jarayoniga yaqin bo'lgan qoidalar;

v) boshqa barcha normalar, ya'ni tashkil etish faoliyatini amaliga oshirish jarayonining tartibini belgilab beruvchi normalar\_.

D.N. Baxraxning fikricha, ma'muriy-protsessual huquq normalarini mazmuniga qarab bir necha guruhga bo'lish mumkin:

- a) *ma'muriy huquq ijodkorligini ta'minlovchi* normalar;
- b) *operativ-farmoyish berish, huquqni qo'llash faoliyatini ta'minlovchi* normalar;
- c) *ma'muriy yurisdiksiyaviy faoliyatni ta'minlovchi* normalar;
- e) *ma'muriy jarayonning biron-bir guruhiga kirmaydigan* normalar.

Cxirgi guruh normalalarinig mazmuni shundan iboratki, faoliyatning ma'lum bir tomonlarini protsessual normalar bilan tartibga solish, uning protsessual shakliga ega ekanligini anglatmaydi hamda bu faoliyat - protsessual faoliyat deb atalishi mumkin emas.

V.D.Sorokin, normalarning umumiyl xususiyatlardan kelib chiqgan holda, ma'muriy-protsessual normalarni quyidagilarga bo'ladi:

**Ma'muriy-protsessual normalar *mazmuniga ko'ra*:**

- a) *iqtisodiyot va uning turli sohalarida* vujudga keladigan ma'muriy-prtsessual munosabatlarni tartibga soluvchi normalar;
- b) *ijtimoiy-madaniy sohalarda* vujudga keladigan ma'muriy-protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi normalar;
- c) *ma'muriy-siyosiy sohalarda* vujudga keladigan ma'muriy-protsessual munosabatlarni tarioga soluvchi normalarga do'llinadi.

**Ma'muriy-protsessual normalar *tartibga solish hajmiga ko'ra*:**

- a) davlat boshqaruving barcha sohalarida qo'llaniladigan umumiyl normalar;
- b) yagona soha doirasida qo'llaniladigan maxsus normalarga bo'llinadi.

Ma'muriy-protsessual normalar *yuridik kuchiga ko'ra* turli darajadagi davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan qoidalarga bo'llinadi. Masalan, qonunlarda ko'rsatib o'tilgan ma'muriy-protsessual normalar, ma'lum bir davlat organlarining (vazirlilik, davlat qo'mitasi) normativ hujjatlarida nazarda tutilgan normalarga qaraganda, yuqori yuridik kuchga ega.

**Ma'muriy-protsessual normalar tatbiq etiladigan *huquq subyektlari doirasiga* ko'ra:**

- a) *fugarolarning xulq-atvorini belgilab beruvchi* normalar;
- b) *ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini* tartibga soluvchi normalar;

d) *turli mulk shakliga asoslangan korxona va muossasalar faoliyatini tartibga soluvchi normalar;*

e) *siyosiy va siyosiy bo'lmagan jamoat birlashmalari faoliyatini tartibga soluvchi normalarga bo'linadi.*

Ma'muriy-protsessual normalar *ma'muriy ish yuritishning turlariga qarab:*

a) *ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan normativ hujjalarni qabul qilish bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;*

b) *davlat boshqaruvi sohasida fuqarolarning va tashkilotlarning murojaatlari bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;*

d) *ma'muriy-huquqiy shikoyatlar va nizolar bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;*

e) *rag'botlantirish bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;*

f) *ruxsat berish bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;*

g) *litsenziya berish bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;*

h) *ijro etish bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;*

i) *ma'muriy huquqbazarlik bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar;*

j) *davlat boshqaruvi sohasida intizomiy ishlari bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalarga bo'linadi.*

Ma'muriy-protsessual normalar *dispozitsiyasining mezoniga ko'ra:*

a) *faol shaklda ifodalangan va namunali xulq-atvorda bo'lishga majbur etadigan normalar;*

b) *huquq subyektiga xulq-atvorni tanlash imkoniyatini beruvchi, ya'ni vakolat beruvchi normalar;*

d) *passiv shaklda ifodalangan va ma'lum bir xulq-atvorni taqiqlab qo'yadigan normalarga bo'linadi.*

Ma'muriy-protsessual normalar *makonda (hududda)gi harakatiga ko'ra:*

a) *sohaga taalluqliligidan qat'i nazar, butun hududda harakat qiladigan normalar;*

b) *ma'lum bir hududlarda* harakat qiladigan normalarga bo'linadi.

Ma'muriy-protsessual normalalar vaqt bo'yicha harakatiga ko'ra:

a) amalda bo'lish muddati belgilanmagan, ya'ni tegisnii davlat organi tomonidan bekor qilinmaguncha harakatda bo'ladigan normalalar;

b) ma'lum bir muddatga mo'ljallangan normalarga bo'linadi.

Demak, ***ma'muriy-protsessual normalar*** — bu vakolatli davlat organlari tomonidan o'matilgan, ijro etuvchi hokimiyat organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yakka tartibdagi va aniq ishlarni hal etish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalaridir.

Ma'muriy-protsessual normalarni turli asoslarga ko'ra gutuhlarga bo'lish, ya'ni tasniflash mumkin. Ularning barchasi umumiyl maqsadga — davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonini o'matishga va tartibga solishga qaratilgandir.

#### 4-§. Ma'muriy-protsessual munosabatlar

***Ma'muriy-protsessual munosabatlar*** — jamiyatda vujudga keladigan huquqiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, huquqiy normalardan nazarda tutilgan aniq subyektlar o'rtasidagi yuridik aloqalarni anglatadi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar — unda ishtirok etuvchi subyektlarning belgilangan xulq-atvorda bo'lishini nazarda tutadi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar — hamma vaqt ma'muriy-protsessual normalar asosida vujudga keladi. Albatta, huquqiy normaning mavjud bo'lishi, huquqiy munosabatni vujudga kelishiga yetarli emas. Huquqiy munosabatning vujudga kelishi uchun huqqaq subyekti (huqqaq layoqati va muomala layoqati) va yuridik faktlarning (harakat, harakatsizlik, hodisa) mavjud bo'lishi ham talab qilinadi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlarni amalga oshirish barcha huquqiy munosabatlar singari, davlatning ta'sir choralarini bilan ta'minlanadi. Ular turli-tuman bo'lib, faqatgina majburlov choralarini bilan chegaralanmaydi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari

faoliyatida vujudga keladigan aksariyat ma'muriy-protsessual munosabatlarni amalga oshirishda davlatning majburlov choralarini qo'llash zaruriyatni mavjud emas.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ma'muriy-protsessual munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni huquqiy munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida ifodalashga imkon beradi. Lekin bu xususiyatlar ma'muriy-protsessual munosabatlarning mazmunini to'liq yoritib bera olmaydi. Shu sababli, asosiy e'tiborni, uning alohida xususiyatlarining qisqacha tafsifiga qaratish lozim. Jumladan:

*birinchidan*, ma'muriy-protsessual munosabatlar — davlat boshqaruvi sohasida ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladi hamda moddiy normalar singari aniq ifodalangan boshqaruv xususiyatiga egadir;

*ikkinchidan*, bu munosabatiar protsessual huquqiy munosabatlardir. Agar, ma'muriy-protsessual munosabatlarning birinchi xususiyati ularni moddiy normalarga yaginiňlashtirsa, ikkinchi xususiyati bu ikkala norma o'rtaqidagi aniq chegarani belgilab beradi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar ma'muriy-moddiy munosabatlardan faro qilgan holda, quvidagi xususiyatlarga ega:

a) protsessual munosabatlar moddiy munosabatlardan *vujudga kelishining xususiyatiga qarab* farqlanadi. Masalan, moddiy munosabatlar vujudga kelishi uchun huquq normasi, huquq subyektlligi va yuridik faktning bo'lishi talab qilinadi. Ma'muriy-protsessual munosabatlarning vujudga kelishi uchun esa, yana bir hucuqiy normaning ko'rinishi — protsessual normalar bo'lishi kerak, ya'ni bu munosabatlar — moddiy normalar bilan bir vaqtida protsessual normalar mavjudligida vujudga kelishi mumkin. Moddiy norma bo'limganda ma'muriy-protsessual munosabatlarning predmeti ham bo'lmaydi, protsessual normaning bo'limganligi esa, umuman, bunday munosabatlarning vujudga kelishini inkor etadi;

b) protsessual munosabatlar moddiy munosabatlardan huquqiy normalar orqali *tartibga solinishiga ko'ra* farqlanadi. Masalan, protsessual normalar moddiy normalardan farqli ravishda, subyektiar amalga oshiradigan harakatlarda katta ahemiyatga ega bo'lgan «dinamik» munosabatlarni tartibga soladi. Protsessual munosabatlar ishtirokchilarining harakati qonunda belgilangan tartibda va ketma-ketlikda amalga oshiriladi;

c) protsessual munosabatlar moddiy munosabatlardan o'zining etibariyati olib ham farqlanadi. Ma'muriy-protsessual munosabatlarning asosiy vazifasi — bu tegishli moddiy normalar amalga oshirilishini ta'miniashdan isoratdir;

e) protsessual munosabatlar moddiy munosabatlardan o'zining tuzilishiga ko'ra farqlanadi. Ma'muriy-protsessual munosabatlar murakkab tuzilishga ega. Protsessual munosabatlarda bir necha subyektlar ishtirok eti, karakatlarni ketma-ketiikda amalga oshirish orqali munosabat kengayib, rivojlanib boradi hamda o'zining yuridik mazmunini, tarkolini o'zgartiradi. Shu nuqtai nazoridan kelib chiqqanda, ma'muriy-protsessual munosabatlarni asosiy va ko'maklashuvchi (yordamchi) munosabatlarga ajratish mumkin. Protsessual munosabatlarning ishtirokchilari mazkur munosabatlarda turliha o'rinni egallaydi va ularning huquqiy maqomi o'zgarib turadi;

f) protsessual munosabatlar moddiy munosabatlardan subyektlar doirasiga qarab ham farqlanadi. Protsessual munosabatlarning ishtirokchisi sifatida moddiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari, shuningdek, moddiy munosabatlarda ishtirok etmagan boshqa ishtirokchilar ham namoyon bo'lishi mumkin.

Ma'muriy-protsessual munosabatlarni, normalar singari bir necha asoslarga qarab tasniflash mumkin. Jumladan:

**Ma'muriy-protsessual munosabatlar *mazmuniga ko'ra*:**

a) iqtisodiyot va uning turli sohalarida vujudga keladigan ma'muriy-protsessual munosabatlar;

b) ijtimoiy-madaniy sohalarda vujudga keladigan ma'muriy-protsessual munosabatlar;

c) ma'muriy siyosiy sohalarda vujudga keladigan ma'muriy-protsessual munosabatlarga bo'linadi.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar *ma'muriy ishl yuritish turlariga ko'ra*:

e) ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan normativ hujjalarni qabul qilish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

b) davlat boshqaruv sohasida fuqarolarning va tashkilotlarning murojaatlari bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

d) ma'muriy huquqiy shikoyatlar va nizolar bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;

- e) *rag'batlantirish* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;
- f) *ruxsat berish* bo'yicha vujudga ke'adigan munosabatlar;
- g) *litsenziya berish* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;
- h) *ijro etish* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;
- i) *ma'muriy huquqbuzerlik* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar;
- j) *davlat boshqaruvi sohasida intizomiy isklar* bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar *sohaga taalliqliligiga ko'ra:*

- a) *ma'muriy-huquqiy moddiy munosabatlarni* amalga oshirish maqsadiga ega bo'lgan munosabatlar;
- b) *fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solingan moddiy munosabatlarni* amalga oshirish maqsadiga ega bo'lgan munosabatlar;
- c) *mehnat huquqi normalari bilan tartibga solingan moddiy munosabatlarni* amalga oshirish maqsadiga ega bo'lgan munosabatlar;
- d) *moliya huquqi normalari bilan tartibga solingan moddiy munosabatlarni* amalga oshirish maqsadiga ega bo'lgan munosabatlar;
- e) *oila huquqi normalari bilan tartibga solingan moddiy munosabatlarni* amalga oshirish maqsadiga ega bo'lgan munosabatlar va hokazo.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar *ishtirokchilarini huquqlari va majburiyatlarining o'zaro munosabatiga ko'ra:*

- a) *gorizontal* munosabatlar — bir-biriga bo'ysunmagan va yagona huquqiy darajadagi subyektlar o'rtaida vujudga keladi. Masalan, biron-bir normativ hujjatni tayyorlashda ikki subyekt o'rtaida, kelishuv asosida vujudga keladigan munosabatlar;

*b) vertikal* munosabatlar — bo'ysunuv asosida vujudga keladi. Ma'muriy-protsessual munosabatlarga, moddiy munosabatlar singari, yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga qarab rivojlanishning farqi yo'q;

*c) diagonal* munosabatlar — vertikal munosabatlarga o'xshab ketadi. Lekin undan farqli ravishda, turli organlar tizimiga kiruvchi yuqori va quyi subyektlar o'rtaida vujudga keladi.

*Ma'muriy jarayon ishtirokchilariga* — individual ishtirokchilarni — fuqarolarni (xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslar

ham), ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning tarkibiy bo'linmalar, jamoat birlashmalari davlat xizmatchilari, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan boshqa shaxslarni (masalan, sud) kiritish mumkin.

Demak, **ma'muriy-protsessual munosabatlar** — ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinadigan, ijro etuvchi hokimiyat organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yakka tartiödagi va aniq ishlarni hal etish bo'yicha vujudga keladigan huquqiy munosabatlardir.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar bir necha asoslarga qarab turli guruhlarga ajratilishi mumkin.

Ma'muriy-protsessual munosabatlar - aniq subyektlar va boshqa ma'muriy jarayon ishtirokchilari o'rtaida huquqiy aloqalarning vujudga kelishida ifodalanadi.

### ***Nazorat uchun savol va topshiriqlar***

1. Ma'muriy jarayon deganda nimani tushunasiz?
2. Ma'muriy jarayonning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Ma'muriy-protsessual faoliyat haqidagi so'zlab bering.
4. Ma'muriy ish yuritish tartiblari haqida tushuntiring.
5. Ma'muriy ish yuritish turlari haqida so'zlab bering.
6. Ma'muriy jarayonning qanday umumiy bosqichlari mavjud?
7. Ma'muriy-protsessual normalarni ta'riflang.
8. Ma'muriy-protsessual normalarni tasniflab bering.
9. Ma'muriy-protsessual munosabatlar tushunchasi va xususiyatlari qanday?
10. Ma'muriy-protsessual munosabatlarning turlarini aytib bering.

MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLER BO'YICHA  
ISH YURITISH

**1-§. Ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ish yuritishning vazifalari, prinsiplari va umumiy qoidalari**

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish — ma'muriy protsess tarkibidagi ma'muriy yurisdiksiyaviy faoliyatning alohida turi bo'lib, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarini qo'zg'atish, ish bo'yicha dalillar toplash, protsessual hujjatlar tuzish, ularni ko'rib chiqish hamda ishni tugatishgacha bo'lgan harakatlar majmuidan iborat.

***Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning asosiy vazifalari:***

- 1) har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama, to'la va obyektiv ravishda aniqlash;
- 2) ishlarni qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etish;
- 3) chiqarilgan qaror ijrosini ta'minlash;
- 4) ma'muriy huquqbazarlik sodir etish sabablari va shart sharoitlarini aniqlash;
- 5) huquqbazarlikning oldini olish;
- 6) fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rionya etish ruhida tarbiyalash;
- 7) qonun ustunligini ta'minlash va mustahkamlash.

**Har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama, to'ia va obyektiv ravishda aniqlash vazifasini tahlil qilganda huquqbazarlik ishini to'g'ri ko'rib chiqishda zarur bo'lgan barcha holatlarni aniqlash lozim. Bunday holatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- a) ma'muriy huquqbazarlik sodir etilganligi;
- b) ma'muriy huquqbazarlikni sodir etishda shaxsning aybdorlik darajasi;
- d) ma'muriy huquqbazarlikning ma'muriy javobgarlikni vjudga keltirishi;

- e) mulkiy zarar keltirilganligi;
- f) ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi;
- g) huquqbuzarga oid, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumodlar;
- h) ishni to'hishiga olib keladigan holatlarning mavjudligi va boshqalar.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha har bir holatni o'z vaqtida aniqlash — ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjalariда belgilangan muddatiarga rioya etishni nazarda tutadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish mazmuni nafaqat ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama va to'la aniqlab olishni, balki uning obyektivligi, xolisligini ham talab qildi. Chunki bu tafsidagi ishlarni ko'rib chiqishning asosiy prinsiplaridan biri — obyektivlikdir. Ushbu prinsipdan kelib chiqib, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari va mansabdar shaxslar barcha holatlarni aniqlashlari shart. Obyektivlik ishga nisbatan adolatsizlik, taxminlarga asoslangan holca javobgarlikka tortilayotgan shaxsning manfaatini ko'zlab guvohlik beradigan holatlarni mensimaslikni istisno etadi. Bundan tashqari, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning obyektivligi — ushbu jarayon ishtiroychilariga, ularning shikoyatlari va boshqa murojaatlariga nisbatan hurmat bilan qarashni nazarda tutadi.

Amaliyotda ushou prinsipni amalga osishish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi oilan bir qancha kafolatlar o'matilgan (masalan: nuquqbuzarlikka cic ishlari qayta ko'rib chiqilishi mumkin) ma'lum bir holatda ishni ko'rib chiquvchi davlat organi (mansabdar shaxslar) hujjalarni talab qillo olishi, ekspertiza o'tkazishi va bosqa choralarini ko'rsishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni qonunchilik hujjalariiga binoan hal etish — ma'muriy faoliyatda qonuniylilikni ta'minlashning asosiy qoidalaridan biri hisoblanadi. Mazkir qoidaning mohiyati — C'zbekiston Respublikasi Konstitutsiasining 15 — moddasidan kelib chiqadi, huquqbuzar faqat qonun-

chilik xujjalarda ko'rsatilgan asosiarda va tartibda ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlari bo'yicha chiqarilgan qarorlarni ijob etish ham ish yuritishning asosiy vazifaiidan biri bo'lib, huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Ma'muriy javobgarlikka tortish bo'yicha qarorlarni ijob etmaganlik, hucubuzariiklarga qarshi kurashishning samarasini pasaytitadi, qonuniylik prinsipiiga putur yetkazadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, uning ogohlantirish va bartaraf etish funksiyasi hisoblanadi. Ma'muriy-yurisdiksiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdar shaxslar nafaqat huquqbuzarlik sabablarini aniqlashlari, balki ushbu sabab va sharoitlarni bartaraf etish choralarini ham ko'rishlari lozim. O'zbekiston Respublikasi MJTKning 313-moddasiga binoan, ishni ko'rib chiquvchi organ(mansabdar shaxs) ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlaganda, bu sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf qilish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risidagi taqdimnomani tegishli korxona, muassasa, tashkilot rahbariga kiritadi. Rahbar taqdim kelib tushgan kundan boshlab bir oy ichida uni kiritgan organga (mansabdar shaxsga) ko'rigan chora haqida ma'lumot berishi shart.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha ish yuritish - O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklarning oldini olish, fugarolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioxha etish ruhida tarbiyalash, shuningdek qonuniylikni mustahkamlashni nazarda tutadi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, Oliy Majlisning conunchilik hujjatlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va boshqa qonun va qonun osti hujjatlari bilan belgilanadi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibiga ko'ra ular quvidagi hollarda yuritilishi mumkin emas, qo'zg'atiigan ish esa to'xtatilishi lozim:

- 1) ma'muriy huquqbuzariik nodisasi yoki belgisi yo'q bo'lsa;
- 2) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish paytida shaxs o'n olti yoshga to'limgan bo'lsa;
- 3) g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikni sodir etgan shaxs aqli noraso bo'lsa;
- 4) shaxs harakatni zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat holatida sodir etganda;
- 5) amnistiya aktining chiqishi, agar u ma'muriy jazo chorasi qo'llanilishini bekor qilsa;
- 6) ma'muriy javobgarlikni be'gilovchi hujjat bekor qilingan bo'lsa;
- 7) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish paytida MTKning 36-moddasida nazarda tutilgan muddatiar o'tib ketgan bo'lsa;
- 8) vaklatli organ (mansabdar shaxs) tomonidan ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxsga nisbatan shu fakt yuzasidan ma'muriy jazo berish yoki ishlarni tugatish to'g'risida qaror chiqarilgan bo'lsa, shuningdek mazkur fakt yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa;
- 9) ishni yuritish paytida shu shaxs vafot etgan bo'lsa.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar barcha fuqarolarning kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy ahveli, irqi va millati, jinsi, ma'lumoti, tili, dingga bo'lgan munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyati, yashash joyi va boshqa holatlaridan qat'i nazar, qonun oldida va shu ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdar shaxs) oldida tenglik asosida ko'rib chiqiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish o'zbek tilida, qora-qalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yuritiladi. Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan protsess ishtirokchilariga tarjimon orqali ish materiallari bilan to'liq tanishish va ishning mohiyati bo'yicha ko'rib chiqish chog'ida qatnashish huquqi, shuningdek o'z ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ochiq ko'rildi. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishning tarbiyaviy va ogohlantiruvchi rolini oshirish maqsadida bunday

ishlar huquqbuzarning ish, o'qish joyidagi jamoalarida yoki yashash joyida ko'rib chiqilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbazarlik bo'yicha ish yuritish jarayonida prokuror nazorati o'rnatiladi. Bunda prokuror:

- a) ma'muriy ish co'zg'atish;
- b) ishga oid hujjalalar bilan tanishi b chiqish;
- c) ma'muriy huquqbazarlik be'yicha ish yuritayotgan organ (mansabdar shaxs)ning harakatlari qonuniyligini tekshirish;
- e) ishni ko'rib chiqishda qatnashish;
- f) ishni ko'rib chiqish vaqtida vujudga keigan masalalar xususida xulosalar berish;
- g) ish yuzasidan qabul qilingan darorga va shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga norozilik bildirish;
- h) chiqarilgan qaror ijrosini to'xtatib turish va qonunda belgilangan boshqa harakatlarni emalga oshirish huquqiga ega.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishga oid ma'lumot haqiqiy hisoblanadi. Shu ma'lumotlarga asoslanib tegishli organlar (mansabdar shaxslar) ma'muriy huquqbazarlik hiciati yuz bergan yoki bermaganligini, shaxsning aybdorligini va ishni to'g'ri hal etish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatiarni qonunda belgilangan tartibda aniqlaydilar.

Ma'muriy huquqbazarlik holatini ko'rib chiquvchi organ (mansabdar shaxs) dalillarni baholaydi, ishning barcha holatlarini har tomonlama to'la-to'kis va obyektiv ravishda tekshirib chiqadi.

**Dalillar** — bu ma'muriy huquqbazarlik ishiga oid barcha faktik ma'lumotlar hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlar orqali quyidagilar aniqlanadi:

- ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgani yoki etilmaganligi;
- shaxsning huquqbazarlik sodir etishda aybdoriigi;
- ishni qonuniy ko'rish uchun boshqa barcha holatlar.

Ma'muriy huquqbazarlik ishi quyidagi dalillar orqali belgilanadi:

- 1) ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnoma;
- 2) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirish xatiari;
- 3) jabrianuvchi, guvohlarning ko'rsatuvlari va ularning arizalari hamda tushuntirish xatiari;

- 4) ekspert xulosasi;
- 5) ashyciy dalillar;
- 6) ashyo va hujjatlarni olib qo'yish to'g'risida tuzilgan bayonnomalar va boshqa materiallar;

Ishni ko'rib chiqish paytida organ (mansabdar shaxs) huququzariik holatida jinoyat begilari bor degan xulosaga kelsa, u materialkarni prokurorga, dastlabki tergov yoki surishtiruv organiga topshirishi shart.

Ma'muriy huquqbazarlik bo'yicha ish yuritishning birinchi boscichi ishni co'zg'atishdir. Bunda vakolatli mansabdar shaxs tomonidan ma'muriy huquqbazarlik sodir qilinganligi to'g'risida bayonnomma tuziladi. Huquqbazarlik sodir bo'lган joyda jarima solish ko'zda tutilgan bo'lsa, MTKning 283-moddasiga asosan, fuqaro o'zi sodir etgan huquqbazarlik faktiga e'tiroz bildirmasa va unga joyning o'zida solinadigan jarimaning miqdori eng kam ish haqidan, yo'l harakati qoidabuzarliklari to'g'risidagi ishlar yuzasidan esa — bir baravaridan oshmasa, bayonnomma tuzilmaydi hamda jarima to'langanligi to'g'risida aybdorga belgilangan shakldagi kvitansiya beriladi. Agar fuqaro o'ziga solinadigan jarimaga e'tiroz bildirsa, u holda qonunga asosan bayonnomma tuzishi lozim. Bayonnomma savodli, xatosiz yozilishi, tushunchalar aniq va ravon bayon etilishi zarur. Bayonnomaning tuzilgan vaqt va joyi, tuzuvchining hamda unda tilga olinayotgan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi, manzili, ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan joy, ana shunday huquqbazarlik uchun javobgariikni nazarda tutuvchi normativ hujjat; ishni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lган boshqa ma'lumotlar aniq ko'rsatilishi kerak. Bayonnomaga uni tuzgan shaxs va ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs imzo qo'yadi; guvoh va jabrlanuvchilar bo'l-ganda, ular ham imzo chekadilar.

Huquqbazarlik sodir etgan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda bayonnomaga shu haqda yozib qo'yiladi. U bayonnomaning mazmuni yuzasidan o'z mulohazalarini bildirishga, bayonnomaga imzo qo'ymasligining sabablarini bayon etishga haqli va bu mulohazalar bayonnomaga ilova qilinadi. Bayonnomani tuzish paytida huquqbuzarga MTKning 294-

moddasida nazarda tutilgan uning huquq va burchlari tushuntiriladi va bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

Bayonnomma boshqa hujjatlar va ish bo'yicha ashyoviy dalillar bilan birga huquqbazarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab bir sutkadan kechiktirmay ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ (mansabdar shaxs)ga yuboriladi.

Huquqbazarlik sodir etilgan joyda bayonnomani tuzishning iloji bo'lmasa, ichki ishlar organlari xodimi tomonidan huquqbazar ichki ishlar organlari binosiga yoki miliitsiya tayanch punktiga yoxud o'zini o'zi boshqarish organi binosiga olib kelinishi mumkin.

Transport vositalaridan foydalanish, harakat tartibini va xavfsizlikni saqlash, transportdagи yuklarni but saqlashni ta'minlash, xalq iste'moli mollarini respublikadan olib chiqib ketish, yong'inga qarshi kurash, shuningdek, sanitariya-gigiyena va epidemiologiya qoidalarini buzgan huquqbuzarning kimligini isbotlovchi hujjatlari bo'lmasa va u haqda zatur ma'lumotlarni berishi mumkin bo'lgan guvohlar yo'q bo'lsa, huquqbazar vakolatli shaxs tomonidan ichki ishlar organiga olib kelinishi mumkin.

O'rmon yoki ov qilish, baliq tutish va baliq zaxiralari, hayvonot dunyosini saqlash va undan foydalanish to'g'risidagi boshqa qonunlar buzilib, basharti huquqbuzarning shaxsini hucuq buzilgan joyning o'zida aniqlashning iloji bo'lmasa, o'rmon soqchiligi, davlat va idora xodimlari, shirkat o'rmonlarida esa ushbu o'rmon xo'jaliklarining xodimlari, ov qilish qoidalariga rioxalari ustidan nazorat olib boruvchi organlarning mansabdar shaxslari, shuningdek, ichki ishlar organlari xodimiari, jamoat birlashmalarining nazoratchilari ana shunday huquqbazarlik sodir etgan shaxslarni ichki ishlar yoki mahalliy davlat organlarning binosiga olib kelishlari mumkin.

Qo'riqlanadigan obyektlarga, boshqa xil davlat yoki jamoat mulkiga tajovuz qilish bilan bog'liq huquqbazarlik sodir etilgan taqdirda huquqbazar harbiylashtirilgan soqchilik xodimlari tomonidan harbiylashtirilgan soqchilik xizmati binosiga yoki miliitsiyaga olib kelinishi mumkin.

Huquqbuzami iloji boricha qisqa muddatda olib kelinishi lozim. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni har jihatdan to'la va adolatlari hal etish uchun huquqbazar ma'muriy yo'l bilan ushlab turilishi, ya'ni shaxsan ko'rildan o'tkazilishi, uning kiyim-kechaklari ko'zdan kechirilishi, undan ashyo va hujjatlar olib qo'yilishi mumkin. Bunday hollarda huquqbuzarni ma'muriy yo'l bilan ushlab turilishi to'g'risida bayonnomma tuzilishi kerak. Huquqbuzarning iltimosiga ko'ra ushlab turilgan joy haqida uning qarindoshlariga, ish yoki o'qish joyiga xabar qilinishi lozim. Agar voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgan bo'lsa, uning ota-onasi yoki alar o'mini bosavchi shaxs albatta xabardor qilinishi kerak.

## 2-§. Ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ish yuritishni ta'minlash choralar

Ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ish yuritishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi MJTK va boshqa qonunchilik hujjatari asosida quyidagilar amalga osniriladi:

- dastlab, ma'muriy huquqbazarlikni to'xtatish;
- huquqbuzarning shaxsini aniqlash;
- joyning o'zida jarima undirish maqsadida kvitansiyalarni rasmiylashtirish;
- joyning o'zida jazo qo'llanilmaydigan holatlarda tegishli hujjatiarni rasmiylashtirish;
- hujjatiarni joyning o'zida rasmiyiashirishning imkonini oo'imagan taqdirda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning binolariga ushlab keltirish;
- ma'muriy yo'l bilan ushlab turish bayonnomasini tuzish;
- ma'muriy huquqbazarlik to'g'risida bayonnomma tuzish;
- ishlarning o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini ta'minlash;
- ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida mazkur shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish;
- shaxsni ko'rildan o'tkazish;
- ashyclarini, transport vositalarini ko'zdan kechirish;
- ashyo hamda hujjatarni olib qo'yish.

Shaxsni sodir etgan huquqbuzarligi uchun O'zbekiston Respublikasi MJTK va boshqa qonunlar asosida ma'muriy yo'l bilan ushlab turilishi nazarda tutilgan bo'lsa, huquqbuzarga nisbatan ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risida bayonnomaga tuziladi.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish bayonnomasida quyidagilar bo'lishi lozim:

- bayonnomaga tuzilgan sana va joy;
- bayonnomaga tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi;
- ushlab turilgan shaxs haqidagi ma'lumotlar;
- uni ushlab turish vaqt, joyi va ushslash asoslari;
- bayonnomani tuzgan mansabdar shaxs va ushlab turilgan shaxsning imzolari;
- ushlab turilgan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga shu haqda yozib qo'yish;
- ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko'ra, u ushlab turilgan joy haqida uning qarindosh-urug'lari, advokat, ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyat xabardor qilinganligini yozib qo'yish;
- voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o'mini bosuvchi shaxslar albatta xabardor qilinganligini yozib qo'yish.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 287-moddasiga muvofiq quyidagi organlar (mansabdar shaxslar) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turishga haqli:

Ichki ishlar organlari; chegara qo'shinlari; qo'riqlanadigan obyekt joylashgan yerdagi harbiy soqchilikning katta mansabdar shaxsi; harbiy avtomobil inspeksiyasining mansabdar shaxslari; O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlarining mansabdar shaxslari; bojxona organlari xizmatchilari; harbiy patrul; Davlat soliq organlarining, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalarining mansabdar shaxslari.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish uch soatdan ortiq davom etishi mumkin emas. Ayrim hollarda alohida zarurat tufayli O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjalariда ma'muriy yo'l bilan ushlab turishning boshqacha muddatlari belgilanishi mumkin.

Chegara tartibini yoki O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o'tish punktlaridagi tartibni buzgan shaxslar bayonnomalar uchun uch soatgacha ushlab turilishi mumkin, huquqbuzarning shaxsi va huquqbazarlik holatlarini aniqlash uchun zarur bo'lган hollarda esa — ushlash paytidan boshlab yigirma to'rt soat ichida prokurorga yozma tarzda ma'lum qilib, uch sutkagacha yoki huquqbuzarda o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo'lmasa, prokuorning sanksiyasi bilan o'n sutkagacha ushlab turilishi mumkin.

Ma'muriy ishlari bo'yicha sudya yoki ichki ishlari organi boshlig'i (boshliq o'rinnbosari) tomonidan quyidagi ma'muriy huquqbazarliklarni sodir etgan yoxud o'zining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirgan shaxslarning huquqbazarlik to'g'risidagi ishi ko'rib chiqilgunga qadar, 24 soatgacha ushlab turilishi mumkin:

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati huquqbuzarni bayonnomalar uchun olib kelish paytidan boshlanadi. mast holdagi shaxslar uchun esa — ular hushyor tortgan vaqt dan boshlanadi.

*Shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish O'zbekiston Respublikasi MTKning 289-moddasiga asosan amalga oshiriladi.*

Shaxsni ko'rikdan o'tkazish ichki ishlari organlarining, harbiy soqchilik, havo transportining, bojaxona organlari va chegara qo'shinlarining vakolatli shaxslari, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida bevosita nazarda tutilgan hollarda esa, shunga vakolati bo'lган boshqa organlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsni ko'rikdan o'tkazish ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs bilan bir jinsda bo'lган shaxslar tomonidan va shu jinsdag'i ikkita xolis guvoh ishtirok etgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Ashyolarni ko'zdan kechirib chiqish ichki ishlari organlarining, harbiy soqchilik, havo transportining, bojaxona organlarining, chegara qo'shinlarining, soliq organlarining, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlami legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalarining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari-

ning, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan hollarda esa, tegishli vakolati bo'lgan organlarning boshqa vakolatlari shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

Ashyolarni, ov qilish va baliq tutish qurollarini, qo'lga kiritilgan mahsulotlar va boshqa buyumlarni ko'zdan kechirish, odatda, shu ashyo va buyumlar kimning mulki yoki egaligida bo'lsa, o'sha shaxs ishtirokida amalga oshiriladi. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda, mazkur ashylar, buyumlarni mulkdorsiz (egasisiz) ikki nafar xolis guvoh ishtirokida ham ko'zdan kechirilishi mumkin.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazish va ashylarni ko'zdan kechirish to'g'risida bayonnomada tuziladi yoki ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomaga yoxud ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risidagi bayonnomaga tegishincha yozib qo'yiladi.

Bojxona muassasalarida shaxsiy ko'rikdan o'tkazish va ashylarni ko'zdan kechirish bojxonaga doir qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 290-moddasiga muvofiq ashyo va hujatlarni olib qo'yish, huquqbazarlarni ushlash, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish yoki ashylarini ko'zdan kechirish vaqtida aniqlangan huquqbazarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashylarga kiradigan ashyo va hujatlar, ma'muriy yo'l bilan ushlab turishga vakolatli organlar (mansabdar shaxslar) (MJTK 287-m.) hamda shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashylarni ko'zdan kechirish (MJTK 289-m.) vakolatiga ega bo'lgan organlarning mansabdar shaxslari tomonidan olib qo'yiladi. Olib qo'yilgan ashyo va hujatlar ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilguniga qadar shunday ashyo va hujatlarni olib qo'yish huquqi berilgan organlar (mansabdar shaxslari) tomonidan belgilab beriladigan joylarda saqlanadi, ish ko'rib bo'linganidan keyin esa, uni ko'rib chiqish natijalariga qarab, bu ashyo va hujatlar belgilangan tartibda musodara qilinadi yoki egasiga qaytarib beriladi yoxud yo'q qilib yuboriladi, ashylar haq to'lab olib qo'yilgan taqdirda esa — sotib yuboriladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomani olib qo'yish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, kichik hajmli kemalarni boshqarish huquqini beruvchi guvoh-

nomani va ov qiliish huquqini beruvchi guvohnomani olib qo'yish esa — O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

O'z xizmat burchini bajarish vaqtida huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan uning ashyolarini olib qo'yish, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish juda zarur bo'lgan hollardagina qo'llaniladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 291-moddasiga binoan vakolatli organ tomonidan *transport vositalarini ushlab turish va ko'rikdan o'tkazish* qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan organlar (mansabdar shaxslar) tomonidan ushlab turish sababi bartaraf etilgunga va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ko'rulgunga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Transport vositalarini ushlab turish va ko'rikdan o'tkazish vakolatiga ichki ishlar organlari, Harbiy avtomobil inspeksiyasining mansabdar shaxslari, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlarining mansabdar shaxslari, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining mansabdar shaxslari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalarining mansabdar shaxslari, chegara qo'shinlarining mansabdar shaxslari ega.

O'zbekiston Respublikasi MTKning 292-moddasiga asosan transport vositasini boshqarishdan chetlatish, mastlik holatini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tkaziladi.

Transport vositalarini boshqarayotgan mastlik holatida deb hisoblashga yetarli asoslar bo'lgan shaxs transport vositasini boshqarishdan chetlashtirilishi va mastlik holatini aniqlash uchun belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazilishi kerak.

Mazkur shaxsni tekshirishga yuborish va bu tekshiruvni o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Adliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, shaxsni ko'rikdan o'tkazish, ashyolarni ko'zdan kechirish, transport vositalarini ushlab

turish va ko'zdan kechirish, ashyo va hujjatlarni olib qo'yish, transport vositasini boshqarishdan chetlashtirish ustidan manfaatdor shaxs yuqori organga (mansabдор shaxsga), prokurorga yoki sudga shikoyat berishi mumkin.

### **3-§. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organlar (mansabdor shaxslar) va ishlarning taalluqliligi**

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning XVIII bobi ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarning taalluqlilikiga bag'ishlangan co'lio, unda ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish va ularni ko'rib chiqadigan organlarning (mansabdor shaxsiar) vakolatlari belgilab qo'yilgan. Taalluqlilikni aniqlash organlar o'rta sidagi vakolat doirasini chegaralashdir. Bu tushuncha O'zbekiston Respublikasida har bir davlat muassasasi yoki jamoat tashkiloti o'zingina tegishli bo'lgan masalalarni ko'rib chiqish va hal etishga haqli ekanligini bildiradi.

Taalluqlilikni aniqlash huquq doirasini belgilash usuli hamdir. Huquq coirasiga organlarning (mansabdor shaxslarning) vakolatlari (huquq va burchlari) kiradi. Bunda organ (mansabdor shaxs) qanday choralar qo'llashga haqli ekanligini belgilaydi, taalluqlilik esa vakolatlar doirasini hudud hamda vaqt bo'yicha aniqlab beradi. Masalan, ichki ishlar organlarning boshlig'i ko'pgina g'ayri-qonuniy ishlar bo'yicha jarima solishga haqli (MJTK 248-m.). Ayni paytda, oz miqdordagi tolon-torojlik ishlari unga taalluqli emas. Bu ishlarni ma'muriy huquqbazarlik bo'yicha sudyalar ko'rib chiqadi.

Taalluqlilik qonunchilik hujjatlari bilan mustahkamlanadi. Taalluqlilik normalari tekshiruv bosqichida ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar kim tomonidan tekshirilishini, bayon-nomani tuzishga kim haqli ekanligini belgilaydi. Qarorlarni qayta ko'rib chiqish bosqichida esa, tushgan shikoyatlarni kimga yuborish masalasi normativ tartibga solinadi, ya'ni qarorni qayta ko'rib chiqishga kim haqli ekanligi hal etiladi. Taalluqlilikni aniqlash ishni ko'rib chiqish bosqichida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda ishni

hal etishga, jarima solishga haqli bo‘lgan organlarning ko‘pchiligi, huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarning xilma-xilligi taalluqlilik masalasini aniq hal etish imkonini bermaydi.

*Taalluqlilikni predmetli va hududiy taalluqlilik turlariga ajratish mumkin.*

Predmetli (huquqbazarlik turlari bo‘yicha) taalluqlilik tegishli toifadagi ishlarni ko‘rib chiqish uchun qaysi organga topshirish masalasini qonuniy hal etish demakdir. Yuqorida eslatib o‘tilgan bobning har bir muddasida ishlarning u yoki bu organga taalluqliligi belgilangan. Masalan, 245-modda ma’muriy komissiyalarga, 246-modda ichki ishlar organlariga taalluqli ishlarni belgilaydi.

Predmetli taalluqlilikni aniqlovchi bosh mezon ma’muriy huquqbazarliklar toifasi (turlari)dir. Masalan, qonunda mehnat to‘g‘risidagi qonunlarni buzishga aloqador ishlarni mehnat bo‘yicha huquq nozirlari ko‘rib chiqishi belgilangan. Ishlarning predmetli taalluqliligini aniqlash uchun vakolatli organ tomonidan huquqbazarlik sodir etilgan joy, huquqbuzarlarning yoshi kabi qo‘simcha belgilardan foydalaniladi (*masalan: pasport tizimi qoidalarini buzishga doir ishlarni ichki ishlar organlari, voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbazarliklarga oid ishlarni esa voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyalar ko‘rib chiqadi*).

Ko‘rib chiqiladigan ishlarning turlari bo‘yicha predmetli taalluqlilikning aniq belgilanishi hududiy taalluqlilikni aniqlash uchun dastlabki zaruriy shartdir.

Hududiy taalluqlilik deganda, muayyan ishning qayerda ko‘rilishi kerakligini normativ hal etish tushuniladi. (MJTK 304-m.). Hududiy taalluqlilikning bosh qoidasi ishning huquqbazarlik sodir etilgan joy bo‘yicha ko‘rilihidir (*masalan, viloyatda istiqomat qiluvchi shaxs Toshkent shahrida huquqbazarlik sodir etib, jamoat tartibini saqlash bo‘yicha xizmat o‘tayotgan ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaganligi uchun kerakli hujjatlar tuziladi*). Bunda hujjatlarni ayvalo, predmetli taalluqlilik bo‘yicha (MJTK 245-m.) ma’muriy ishlar bo‘yicha sudya ko‘rib chiqishi belgilangan. So‘ngra ishni hududiy taalluqlilik bo‘yicha Toshkent shahridagi tegishli tuman ma’muriy ishlar

bo'yicha sudyasi ko'rib chiqadi, chunki ma'muriy xatti-harakat shu hududda sodir etilgan.

Ammo ma'muriy xatti-harakatlar to'g'risidagi hamma ishlar ham ular sodir etiladigan joyda ko'rila vermaydi. Bu umumiy qoidalarda qator istisnolar ham bor.

Ma'muriy komissiyalar va voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalarga taalluqli ishlar huquqbazarlik sodir etilgan joy bo'yicha emas, balki javobgarlikka tortilayotgan fuqaroning yashash joyi bo'yicha ko'rib chiqiladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, mansabdar shaxslar tomonidan ularning xizmat faoliyati bilan bog'liq holda sodir etilgan huquqbazarliklar korxona, muassasa va tashkilotlar joylashgan ma'muriy komissiyalar tomonidan, ya'ni mazkur huquqbazarliklar sodir etilgan joyda ko'rib chiqiladi.

Ayrim turdag'i ishlar bo'yicha ikkilamchi (muqobil) hududiy taalluqlilik belgilangan. Fuqarolarga o'tkir xonaki spirtli ichimliklarni sotish, ruxsat etilmagan jamoat joylarida spirtli ichimliklarni ichish to'g'risidagi ishlar huquqbazarlik sodir etilgan joy bo'yicha yoki aybdorning yashash joyi bo'yicha ko'rib chiqiladi.

Haydovchilarning yo'l harakati qoidalari buzganligiga oid ishlar o'sha transport vositasi hisobga olingan joy bo'yicha ham, huquqbazarlik sodir etilgan joy bo'yicha ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Biroq yo'l harakati qoidalari buzishga doir jiddiy ishlar (transport vositasini mast holda boshqarish, yo'l harakati qoidalari qo'pol ravishda buzish), odatda, transport vositasi hisobida turgan joy bo'yicha ko'rib chiqiladi. Bu ishlarni tez va to'g'ri hal etishni ta'minlash maqsadida qilinadi. Chunki xatti-harakat qayerda sodir etilgan bo'lsa, o'sha yerda tezroq ko'rib chiqiladi. Guvohlarni so'roq qilish va dalillarni olish bilan bog'liq boshqa masalalarni ham o'sha joyda tezlik bilan hal etish mumkin.

*Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni quyidagi organlar ko'rib chiqadi:*

— tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi, xo'jalik sudyasi va adliya organlari;

— shaharcha, qishloq, va ovul fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari qoshidagi ma'muriy komissiyalar;

— voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi tuman (shahar) komissiyaiari;

— ichki ishlar (militsiya) organlari, davlat inspeksiya organlari, vakolat berilgan boshqa organlar va ushbu organlarning mansabдор shaxslari.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishda vakolatli organlarning (mansabдор shaxslarning) vakolati cheklab qo‘yilgan.

*O‘zbekiston Respublikasi MTKning 245-moddasiga asosan ma’muriy ishlar bo‘yicha sudyalarining vakolatlariga:* MTKning 40-47, 471, 472, 48, 52, 56-62, 64, 66, 67-moddalarida; 76-moddasida (suv xo‘jaligi inshootlariga zarar yetkazishga oid qismi); 90-moddasining 2-qismida; 94, 99-108, 110-111-moddalarida; 112-moddasida (transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etishga oid qismi); 119-moddaning 2-qismi, 127-moddasining 2-qismi, 128-moddasining 4-qismida; 128<sup>1</sup>-moddasining 2-qismi, 128<sup>2</sup>-moddarining 3-qismi, 129-moddasining 2-qismida; 130-moddasining 2-qismi, 131-moddasining 1-2 va 4-qismlari, 132-134-moddalarida; 136-moddasining 1 va 2-qismlari, 137-moddasi, 142-moddasining 2-qismi, 146-moddasining 3-qismida; 148-moddasida (ajratilgan mintaqalarda va yog‘och ko‘priklardan 100 metrgacha bo‘lgan masofada olov yoqish, taxta to‘shamali ko‘priklarda chekish uchun); 149-150-moddalari. 151-moddasining 2-qismida; 152-moddasining 2 va 3-qismida; 155, 155<sup>1</sup>, 157-161, 163, 163<sup>1</sup>-moddalari, 164-moddasining 2 va 3-qismlarida; 165-167, 169, 170-moddalari, 173, 174<sup>1</sup>-moddasida; 175-moddasining 5-qismi, 175<sup>1</sup>, 175<sup>3</sup>-moddalarida; 176-moddasining 2 va 3-qismlari, 176<sup>3</sup>, 177, 179, 179<sup>2</sup>, 180-184, 184<sup>1</sup>, 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 185-186, 186<sup>1</sup> (aksiz markasi bilan markalanmagan tovarlarni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish hollari bundan mustasno) moddalarida; 187-moddasining 2-qismi, 188, 188<sup>1</sup>-moddalarida; 189-191, 193-196, 196<sup>1</sup>, 197, 197<sup>1</sup>, 198-200, 200<sup>1</sup>, 201-202, 202<sup>1</sup>, 203-210, 215<sup>2</sup>, 216-218, 219<sup>1</sup>-moddalarida; 220-moddasining 1 va 2-qismlari, 222, 224<sup>1</sup>, 224<sup>2</sup>, 226, 227<sup>4</sup>-moddasining 1 va 2-qismlarida; 227<sup>8</sup>, 227<sup>9</sup>, 227<sup>13</sup>, 227<sup>14</sup>-moddalarida; 227<sup>15</sup>-

moddasining 1-qismida; 227<sup>16</sup>, 227<sup>17</sup>, 227<sup>18</sup>, 227<sup>19</sup>, 227<sup>20</sup>, 227<sup>21</sup>, 227<sup>22</sup>, 227<sup>23</sup>, 227<sup>24</sup>, 227<sup>25</sup>, 227<sup>26</sup>, 227<sup>27</sup>-moddalarida; 228-moddasida (muhrlar (plombalar) tabiatni muhofaza etishga oid qonun hujjalari buzilganligi uchun qo'yilgan hollar bundan mustasno); 230-234, 237-239, 239<sup>1</sup>, 240-241, 241<sup>1</sup>-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqli.

Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar, basharti huquqbuzar huquqbuzarlik faktini inkor etsa, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi boshqa ishlarni ham bevosita ko'rib chiqadilar.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 245<sup>1</sup>-moddasiga asosan xo'jalik sudlarining vakolatlariga:* xo'jalik nizolarini hal etish chog'ida ma'muriy huquqbuzarlikni aniqlagan hollarda MJTK 175-moddasining 3-qismida, 176<sup>1</sup>, 180 va 181-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqli.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 245<sup>2</sup>-moddasiga asosan adliya organlariining mansabdar shaxslari:* paxta xaridi bo'yicha kontraktatsiya shartnomalari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi oqibatida xo'jalik yurituvchi subyektga mulkiy zarar yetkazilganligi fakti aniqlangan taqdirda, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnomma tuzadilar. Shuningdek, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomma ko'rib chiqish uchun MJTKning 282-moddasida belgilangan tartibda xo'jalik sudiga yuboriladi.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 245<sup>3</sup>-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti organlariga:* MJTKning 198<sup>1</sup>-modda qarzdorning ijro hujjatini ijro etmasligi va 198<sup>2</sup>-modda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik bo'yicha nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika va moliyaviy jihatidan ta'minlash departamenti nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish hamda ma'muriy jazo qo'llashga Departament organlarining sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari majburiy ijrosini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan mansabdar shaxslari haqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 246-moddasiga asosan tuman markazidan olisda va borish qiyin bo'lgan yerdagi shaharcha, qishloq va ovullardagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qoshida tuzilgan ma'muriy komissiyalar: MJTKning 56, 60, 64-65, 69, 102, 103-108, 110-111-moddalarida, 148-moddasida (ajratilgan mintaqalarda va yog'och ko'priklardan 100 metrgacha bo'lgan masofada olov yoqish, yog'och ko'priklar va taxta to'shamali ko'priklarda chekish uchun), 149, 159, 160-161, 163, 186, 187, 200, 203, 209, 231-232, 234-236, 238-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar.*

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 247-moddasiga asosan voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi tuman (shahar) komissiyalarining ma'muriy yurisdikcion faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-sentabrdagi 360-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risida»gi nizom va O'zbekiston Respublikasi MJTKning 247-moddasida belgilangan. MJTKning 61, 125, 126-138, 183-185, 220-221-moddalarida nazarda tutilgan huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar mazkur ishlar kelib tushgan organ (mansabdar shaxs) ishni shu komissiyalar qarab chiqishi uchun topshirgan hollardagina ko'rib chiqadilar. Shuningdek mazkur organ MJTKning 194-moddasida nazarda tutilganidan tashqari sodir etilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar va MJTKning voyaga yetmaganlarning ota-onalari yoki ular o'rmini bosuvchi shaxslarga taalluqli 47, 188-moddalarida nazarda tutilgan huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ham ko'rib chiqadi.*

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 248-moddasiga asosan ichki ishlar organlariga: MJTK 113-moddasining 1-2,4 va 5-qismlari, 114, 115-moddalarida, 116-moddasining 1, 3 va 4-qismlari, 121-123, 125-128-moddalari, 1281-moddasining 1-qismida; 128<sup>2</sup>-moddaning 1 va 2-qismlarida; 129-135, 1351, 136, 138-142-moddalarida (transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish yoki musodara qilish tarzidagi ma'muriy jazo qo'llash belgilangan huquqbazarliklar bundan mustasno); i44-*

145-moddalar, 146-moddasining 1 va 2-qismlarida; 147, 156, 161, 183-moddalar, 187-moddasining 1-qismi, 192, 204-205-moddalarida; 220-moddasining 3 va 4 qismlari, 221, 223, 224-225-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*Ichki ishlar organlari nomidan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llanishga quyidagi mansabdon shaxslar haqlidirlar:*

1) MJTK 113-moddasining 1-2, 4 va 5 qismlarida; 114-moddasida; 116-moddasining 1, 3 va 4-qismlarida; 121-123, 142, 144, 145-moddalar, 146-moddasining 1 va 2-qismlarida; 156, 183, 191, 204-205-moddalarida; 220-moddasining 3 va 4-qismlarida, 221, 223-225-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar uchun — tuman, shahar, shahardagi tuman va transportdagi ichki ishlar bo'limlari (boshqarmalari boshliqlari yoki ularning o'rindbosarlari, shuningdek ichki ishlar organlari tizimidagi militsiyaning hududiy (transport) bo'linmalari boshliqlari;

2) MJTK 113-moddasining 1-qismi, 114-moddasining 1-qismida; 115-moddasida; 121-moddasining 2-qismida, 122-123, 156, 183-moddalarida; 187-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar uchun — metropolitenni muhofaza qilish bo'yicha ichki ishlar bo'limining boshlig'i yoki uning o'rindbosarlari;

3) MJTKning 225-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar uchun — temir yo'l vokzallari va aeroportlardagi bo'linmalarning, ichki ishlar organlarining chet elga chiqish, kelish va fuqarolik bo'limlari (boshqarmalari)ning boshliqlari va ularning o'rindbosarlari

4) MJTKning 122, 123-moddalar, 127-moddasida (maqsadsiz ovozli signal berish qismida); 161-moddasida (fuqarolarga nisbatan), 187-moddasining 1-qismi, 192, 221-moddalarida; 223-moddasining 1-qismida, 224-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar uchun — profilaktika katta inspektorlari va profilaktika inspektorlari;

5) MJTKning 125, 126-moddalar, 127-moddasining 1-qismida; 128-moddasining 1, 2 va 3-qismlarida; 128<sup>1</sup>-moddasining 1-qismida; 128<sup>2</sup>-moddasining 1 va 2-qismlarida; 129-moddasining

1-qismida; 130-moddasining 1-qismida; 131-moddasining 3-qismida; 135, 135<sup>1</sup>-moddalarida; 136-moddasining 3-qismida; 138-147-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar uchun — yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (bosh boshqarmasi) boshlig'i, uning o'rribbosari, yo'l-patrol xizmatini tashkili etish va muvofiqlashtirish hamda ma'muriy amaliyat bo'limi boshlig'i, uning o'rribbosari, alohida muhim ishlar bo'yicha inspektor (ma'muriy amaliyat bo'yicha inspektor), ma'muriy amaliyat bo'linmasi (bo'limi) boshlig'i, uning o'rribbosari, ma'muriy huquqbazarliklarga doir materiallarni ko'rib chiqish bo'yicha katta inspektor (inspektor), avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalariga va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat bo'limi (bo'linma) boshlig'i, avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalariga va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat guruhining katta inspektori, avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalariga va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat guruhining ma'muriy amaliyat bo'yicha inspektori, ular yo'qligida esa ichki ishlar bo'limi boshlig'i yoki uning o'rribbosari;

6) MJTKning 125, 126-moddalarida; 127-moddasining 1-qismida; 128-moddasining 1, 2 va 3-qismlarida; 128<sup>1</sup>-moddasining 1-qismida; 128<sup>2</sup>-moddasining 1 va 2-qismlarida; 129-moddasining 1-qismida; 130-moddasining 1-qismida; 135-moddasining 1-qismida; 135<sup>1</sup>-moddasida; 138-moddasining 1 va 2-qismlarida; 147-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar uchun — yo'l-patrol xizmati brigadasi (batalyoni, divizioni, otradi, mobil guruhi) komandiri yoki uning o'rribbosari;

7) MJTK 125-moddasining 1, 2 va 3-qismlarida; 126-moddasining 1-qismida; 127-moddasining 1-qismida; 128-moddasining 1-qismida; 128<sup>1</sup>-moddasining 1-qismida; 128<sup>2</sup>-moddasining 1 va 2-qismlarida; 129-moddasining 1-qismida; 135-moddasining 1-qismida; 135<sup>1</sup>-moddasida; 138-moddasining 1 va 2-qismlarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar uchun — yo'l-patrol xizmati katta inspektori (inspektori) va yo'l harakati qoidalariga hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga oid boshqa normativlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi boshqa xodimlar.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 249-moddasiga asosan davlat yong'indan saqlash nazorati organlariga: MJTKning 84,*

124, 211-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Davlat yong'indan saqlash nazorati organlari nomidan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llanishga:

O'zbekiston Respublikasi yong'indan saqlash nazorati bosh davlat inspektori va uning o'rinnbosarlari — fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — o'n baravarigacha miqdorda;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, obyektlar yong'indan saqlash nazorati bosh davlat inspektorlari va O'zbekiston Respublikasi yong'indan saqlash nazorati bosh davlat inspektorining katta yordamchilari — fuqarolarga eng kam ish haqining to'rt baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — sakkiz baravarigacha miqdorda;

O'zbekiston Respublikasi yong'indan saqlash nazorati bosh davlat inspektorining yordamchilari — fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — besh baravarigacha miqdorda;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yong'indan saqlash nazorati bosh davlat inspektorlarining katta yordamchilari — fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — uch baravarigacha miqdorda;

xizmat ko'rsatilayotgan shaharlar, tumanlar va obyektlarning yong'indan saqlash nazorati davlat katta inspektorlari — fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — ikki baravarigacha miqdorda;

xizmat ko'rsatilayotgan shaharlar, tumanlar va obyektlarning yong'indan saqlash nazorati davlat inspektorlari — fuqarolarga eng kam ish haqining ikkidan bir qismigacha, mansabdar shaxslarga esa — bir baravarigacha miqdorda jarima solishga haqlidirlar.

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 249'-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi organlari ning mansabdar shaxslari tomonidan MTKning 204'- moddasida nazarda tutilgan, ya'ni aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini*

bajarmaslik huquqbazarliklari aniqlangan taqdirda ma'muriy huquqbazarlik to'g'risida bayonnomma tuzadilar.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomma ko'rib chiqish uchun MJTKning 282-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboriladi.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 250-moddasiga asosan temir yo'l transporti organlariga:* MJTKning 113, 114-moddalarida, shuningdek 53, 121-124, 142, 144, 145-moddalarida; 146-moddasining 1 va 2-qismlarida (temir yo'l transportida huquqbazarlik sodir etganlik uchun) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Metropoliten organlariga MJTKning 115-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 251-moddasiga asosan havo transporti organlariga:* MJTKning 53, 121-122, 124, 145-moddalarida; 146-moddasining 1 va 2-qismlarida (havo transportidagi huquqbazarlik qismi); 116-moddasida (fuqarolar aviatsiyasi organlari qaramog'idagi aerodromlarda yoki ana shunday aerodromlar joylashgan hududda huquqbazarlik sodir etganlik uchun); 117-moddasi; 142-moddasining 1 va 2 qismlarida; 144-moddasining 3-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 252-moddasiga asosan suv transporti organlariga:* MJTKning 53, 121-122, 124, 145-moddalarida; 146-moddasining 1 va 2-qismlarida (suv transportidagi huquqbazarlik uchun); 118, 120-moddalarida; 142-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 253-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining Davlat kichik hajmdagi kemalar inspeksiysi organlariga:* MJTK 119-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat kichik hajmdagi kemalar inspeksiyasining boshqarmasi (bo'limi) boshlig'i va uning o'rinosi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlarning davlat kichik hajmdagi kemalar inspeksiyalari boshliqlari va ularning o'rinosi, davlat kichik hajmdagi kemalar inspektorlari Davlat kichik hajmdagi kemalar inspeksiysi organlari nomidan ma'muriy

huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llanishga haqlidirlar.

*O'zbekiston Respublikasi MJKning 254-moddasiga asosan shahar va shaharlарaro yo'lovchilar tashiydigan avtomobil transporti va elektr transporti organlariga:* MJKning 121-124, 142-145-moddalarida; 146-moddasining 1 va 2-qismlarida (shahar, shaharlарaro avtomobil transportida va elektr transporti sodir etilgan huquqbuzarliklar qismi) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar.

*O'zbekiston Respublikasi MJKning 255-moddasiga asosan mehnat bo'yicha davlat huquqiy va texnik inspektorlar:* MJKning 49-51, 229-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar.

*O'zbekiston Respublikasi MJKning 256-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi organlariga:* MJKning 125-moddasida, 128-moddasining 1 va 2-qismlarida, 130-moddasida, 131-moddasining 2-qismida, 135, 1351, 136, 138-141-moddalarida (transport vositalarining haydovchilari — harbiy xizmatchilar va yig'inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan), 235-236-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar.

*O'zbekiston Respublikasi MJKning 257-moddasiga asosan davlat sanitariya nazorati organlariga:* MJKning 53-55-moddalarida, 85-moddasida (atmosfera havosiga yo'l qo'yiladigan eng yuqori normativdan ortiq darajada zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatganlik va atmosfera havosiga biologik organizmlar chiqarib tashlaganlik, shuningdek maxsus vakolat berilgan davlat organlarining ruxsatsiz atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatganlik va atmosfera havosiga biologik organizmlar chiqarib tashlaganlik uchun, agar bu huquqbuzarliklar sanitariya-gigiyena qoidalarini buzish bo'lsa); 86, 88, 89, 95-moddalarida (agar atmosfera havosiga fizikaviy ta'sir ko'rsatilan bo'lsa va bu huquqbuzarliklar sanitariya-gigiyena qoidalarini buzsa); 87-moddasida (avtomobillar, samolyotlar, kemalar va boshqa harakatlanuvchi vositalar hamda qurilmalarni ishlatish paytida shovqin darajasi belgilangan normativdan ortib ketganligi uchun); 96-moddasida (sanitariya-ekologik ekspertizasi qismida); 178-moddasida (iste'molchilarining huquqlarini himoya

qilish haqidagi qonun hujatlarini buzganlik qismida) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 258-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmatining sanitariya nazoratini amalg'a oshiruvchi tibbiy xizmatlariga:* MTKning 53-55-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar (shu jumladan sanitariya-gigiyena qoidalarini va atmosfera havosini muhofaza qilish normalarini buzganlik) to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 259-moddasiga asosan davlat veterinariya nazorati organlariga:* MTKning 109-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 260-moddasiga asosan Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi organlariga:* MTKning 55, 70-moddalarida; 71-moddasida (tabiatni muhofaza qilish qoidalari bundan mustasno); 72-moddasida (termal suvlarga doir qismida); 97, 98-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 261-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlariga:* MTKning 63-moddasida; 65-moddasining 2-qismida (qishloq xo'jaligi yerlarini va boshqa yerkarni yaroqsiz holga keltirganlik bundan mustasno); 68-moddasida (shaharlar va posyolkalarning yerlariga, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlash-tirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlarga, suv fondi yerlariga oid qismi); 70-moddasida; 71-moddasida (tabiatni muhofaza qilishga oid qismida); 72-moddasida (termal suvlarga doir qismi bundan mustasno); 73-moddasida; 74-moddasining 1 va 3-qismlarida; 75-moddasida (irrigatsiya tarmoqlaridan olinadigan suvlarni hisobga olish bundan mustasno, shuningdek davlat suv cadastrini yuritishning belgilangan tartibini buzganlik uchun); 77-84-moddalarida; 85-moddasida (sanitariya-gigiyena qoidalarini buzish deb hisoblanuvchi atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatish, biologik organizmlarni atmosfera havosiga chiqarib tashlash bundan mustasno); 86-89-moddalarida (atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatish bundan mustasno); 891-

moddasida; 90-moddasining 1-qismida; 91-93, 95-moddalarida; 96-moddasida (davlat ekologiya ekspertizasi qismida; 148-moddasida (ajratilgan mintaqalarda va yog'och ko'priklardan 100 metrgacha bo'lgan masofada olov yoqqanlik, yog'och ko'priklar va taxta to'shamali ko'priklarda chekkanlik uchun ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bundan mustasno); 162-moddasida; 178-moddasida (iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganiik qismida); 214-moddasida (tabiatni muhofaza qilishga oid qismida); 228-moddasida (tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganda muhrlar (plombalar) qo'yilgan hollar) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 262-moddasiga asosan Bojxona organlariga:* MJTKning 227, 227<sup>1</sup>, 227<sup>2</sup>, 227<sup>3</sup>-moddalarida; 227<sup>4</sup>-moddasining 3-qismida, 227<sup>5</sup>, 227<sup>6</sup>, 227<sup>7</sup>, 227<sup>10</sup>, 227<sup>11</sup>, 227<sup>12</sup>-moddalarida; 227<sup>15</sup>-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 263-moddasiga asosan O'zbekiston aloqa va axborotlashhtirish agentligining davlat inspeksiya organlariga:* MJTK 151-moddasining 1-qismida, 152-moddasining 1-qismida, 153-154, 156-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 264-moddasiga asosan Davlat soliq organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallahshirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylari-dagi bo'linmalariga:* MJTK 164-moddasining 1 va 3-qismlarida, 168, 171-172, 174-moddalarida; 175-moddasining 1, 2, 3 va 4-qismlarida; 175<sup>4</sup>-moddasida; 176-moddasining 1-qismida, 176<sup>2</sup>, 179<sup>1</sup>, 186<sup>1</sup>(aksiz markasi bilan markalanmagan tovarlar qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilgan yoki muomalaga kiritilgan hollarda)-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MJTKning 264<sup>1</sup>-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-tajfis bosh boshqarmasi organlariga:* MJTKning 175<sup>2</sup>-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 265-moddasiga asosan Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi qoidalarga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarga: MTKning 178-moddasida (iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishiga oid qismi); 212, 213-moddalarida; 214-moddasida (tabiatni muhofaza qilishga doir qismi bundan mustasno) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.*

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 266-moddasiga asosan qishloq xo'jaligidagi mashinalar va qurilmalarning texnik holatini nazorat qiluvchi bosh davlat inspeksiyasi organlariga: MTKning 112-moddasida, 139-moddasida (qishloq xo'jalik texnikasiga taalluqli qismi) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.*

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 266<sup>1</sup>-moddasiga asosan yer resurslari davlat qo'mitasining organlariga: MTKning 65-moddasida (yerlarni ishlab chiqarish va boshqa chiqindilar, kimyoiy va radioaktiv moddalar hamda oqava suvlar bilan ifloslantirganlik bundan mustasno); 68-moddasida (shaharlar va posyolkalarning yerlari, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar, suv fondi yerlari bundan mustasno); 69-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.*

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 266<sup>2</sup>-moddasiga asosan «O'zsuvnazorat» respublika suv inspeksiyasi organlariga: MTKning 74-moddasi 2 va 3-qismlarida; 75-moddasida (irrigatsiya tarmoqlaridan olinadigan suv miqdorini hisobga olish, shuningdek davlat suv kadastri yuritishning belgilangan tartibini buzishga oid qismi); 76-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.*

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 266<sup>3</sup>-moddasiga asosan Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini sertifikatsiyalash va ularning sifatini nazorat qilish davlat markazi organlariga: MTKning 104<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.*

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 267-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi organlariga: MTKning 215-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.*

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 268-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qo'mitasining davlat probir palatasi organlariga: MTKning 219-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.*

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 268<sup>1</sup>-moddasiga asosan Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirdorlikni qo'llab-quvvatlash organlariga: MTKning 178, 178<sup>1</sup> va 215<sup>1</sup>-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.*

*O'zbekiston Respublikasi MTKning 268<sup>2</sup>-moddasiga asosan Arxitektura va qurilish organlariga: MTKning 178-moddasida (iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjalari ouzilishiga oid qismi) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.*

Har bir yuridik vakolatga ega organning aynan o'ziga mansub bo'lган va Kodeksning Maxsus qismida qayd etilgan muayyan huquqbuzarlik ishlarini olib borishi ko'rsatilgan ma'muriy ishga tegishlilikning buzilishi mumkin emas. Bundan tashqari har bir yurisdiksion organ o'z vakolati doirasida ma'muriy-huquqiy sohada aynan ular tomonidan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlarga doir sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar ustidan ish yuritishi kerak va qonunda belgilangan vazifa va maqsadni amalga oshirishi shart.

#### **4-§. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslar**

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish yuritishda javobgarlikka tortilayotgan shaxs, jabrlanuvchi, qonuniy vakil, advokat, guvoh, ekspert va tarjimon qatnashadi.

*Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs — ishga oid materiallar bilan tanishib chiqishga, izoh berishga, dalillar*

kekitishga, iltimos qilishga, ishni ko'rib chiqish vaqtida advokatning yuridik yordamidan foydalanishga, ish yuritilayotgan tilni bilmagan taqdirda o'z ona tilida so'zlashga va tarjimonning xizmatlidan foydalanishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berishga haqli. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ishtirokida ko'rib chiqiladi. Mazkur shaxs ishni ko'rib chiqish joyi va vaqtida haqida o'z vaqtida ogohlantiriladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 294-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vaqtida ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning qatnashishi majburiy. Agar huquqbuzarни ichki ishlar organi yoki tuman (shahar) sudyasi chaqirsa-yu, u kelishdan bo'yin tovlasa, ushbu shaxs ichki ishlar organi tomonidan majburan olib kelinishi mumkin.

Mazkur shaxsga ishni ko'rib chiqish joyi va vaqtida xabar qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lgan va undan ishni ko'rib chiqishni kechiktirish xususida hech qanday iltimos tushmagan hollarda ish uning ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin.

*Jabrlanuvchi* — ma'muriy huquqbuzarlik natijasida ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko'rgan shaxs. Jabrlanuvchi ishga oid hamma materiallar bilan tanishib chiqish, iltimoslar qilish, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berish huquqiga ega. Jabrlanuvchi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 282-moddasiga muvofiq guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin.

*Qonuniy vakillar.* Voyaga yetmagan yoki biror shaxs o'zining jismoniy yoxud ruhiy kamchiliklari sababli ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan o'z huquqini o'zi amalga oshira olmasa, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning va jabrlanuvchining manfaatlarini, ularning qonuniy vakiliari (otonalari, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar) himoya qila-

*Advokat.* Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchi advokat ishga oid barcha materiallar bilan

tanishib chiqishga, iltimoslar qilishga, uni taklif qilgan shaxsning topshirig‘iga binoan mazkur shaxs nomidan ishga tegishli qaror ustidan shikoyat berishga haqii. Advokatlarning vakolatlari yuridik maslahatxona tomonidan beriladigan order bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

*Guvoh.* Ma’muriy huquqouzarlik to‘g‘risidagi biror narsani bilgan har qanday shaxs shu ish yuzasidan guvoh sifatida chaqirilishi mumkin. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 298-moddasiga muvofiq ishni ko‘rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs)ning chaqirig‘iga binoan guvoh ko‘rsatilgan vaqtida kelishga, haqqoniy ko‘rsatuvalar berishga, shu ish xususida o‘ziga ma’lum bo‘lgan hamma narsalarni bayon qilishga va qo‘yligan masalalarga aniq javob berishga majburdir.

*Ekspert.* Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan biror narsani aniqlashning zarurivati tug‘ilgan hollarda shu ishni ko‘rib chiqayotgan organ (mansabdor shaxs) tomonidan ekspert tayinlanadi. Ekspert chaqiruv bo‘yicha kelishga va o‘z oldiga qo‘yligan masalalar yuzasidan obyektiv xulosalar berishga majbur. Ekspert ekspertiza predmetiga oid ish materiallari bilan tanishib chiqishga, xulosa berish uchun zarur bo‘lgan materiallarni olishga, javobgarlikka tortilayotgan shaxsga, jabrlanuvchiga, guvohga, ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqayotgan organ (mansabdor shaxs)ning ruxsati bilan ekspertizaga oid savollar berishga, ishni ko‘rib chiqish vaqtida qatnashishga haqli.

*Tarjimon.* Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqayotgan organ (mansabdor shaxs) tomonidan tarjimon tayinlanadi. Tarjimon mazkur organ (mansabdor shaxs)ning chaqirig‘iga binoan hozir bo‘lishga va o‘ziga topshirilgan tarjimani to‘la-to‘kis va aniq bajarishga majbur.

Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar va tarjimonlarning ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiquvchi organ huzuriga kelishi munosabati bilan qilgan xarajatlari, qonunga asosan qoplanadi, bu shaxslarning ish joyidagi maoshi belgilangan tartibda saqlanib qoladi.

## **5-§. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish**

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish uchun tayyozlashda tegishli organ (mansabdar shaxs) quyidagi masalalarini hal etishi lozim.

1) mazkur ishni ko'rib chiqish o'zining vakolat doirasiga kirish kirmasligi;

2) ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomaga va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligi;

3) ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchi shaxslar uni ko'rib chiqish vaqtiga va joyi haqida xabardor qilingan-qilinmaganligi;

4) zarur qo'shimcha materiallar so'rab olingan-olinmaganligi;

5) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs, jabrlanuvchi, qonuniy vakillar, advokat qilgan iltimoslar to'g'risidagi masalalarini hal etadi.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish shunday huquqbazarlik sodir etilgan joyda ko'rib chiqilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi MTK 113-moddasining 5-qismida 119, 125-135, 1351, 136, 139, 140-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar transport vositalari ro'yxatga olingan joyda ko'rib chiqilishi ham mumkin. 187-moddada nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar shunday huquqbazarlik sodir etilgan joyda yoki huquqbazar istiqomat qiladigan joyida ko'rib chiqiladi. Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar esa, ishni huquqbazar istiqomat qiladigan joyda ko'rib chiqadi. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni qonunda nazarda tutilgan hollarda boshqa joyda ko'rib chiqish ham mumkin.

Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida ishlar mazkur ishni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ (mansabdar shaxs) tomonidan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomaga va ishga oid boshqa materiallar olingan kundan boshlab, o'n besh kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi MTKning 170, 180, 181, 183, 184, 187, 194-moddalarida nazarda tutilgan huquqbazarliklar

to‘g‘risidagi ishlar bir sutka mobaynida ko‘rib chiqilishi kerak; 164-moddaning 2-qismida, 201-205-moddalarida nazarda tutilgan ishlar uch sutka mobaynida, 61-moddada nazarda tutilgan ishlar besh kun ichida ko‘rib chiqilishi lozim.

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish tartibi MJTKning 306-moddasiga muvoffaq, shu ishni ko‘ruvchi kollegial organning tarkibini e‘lon qilish yoki mansabdar shaxsniga tanishtirishdan boshlanadi. Ishni ko‘rib chiquvchi kollegial organning majlisida raislik qiluvchi yoki mansabdar shaxs: qanday ish ko‘rib chiqilishi lozimligini; ma‘muriy javobgarlikka kim tortilayotganligini e‘lon qiladi; ishni ko‘rib chiqishda qatnashuvchi shaxslarga ularning huquq va burchlarini tushuntiradi; ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomani o‘qib eshittiradi. Majlisda qatnashuvchi shaxslarning axboroti tinglanadi, ketirilgan daliliar o‘rganiladi va tushgan iltimoslar hal etiladi. Ishni ko‘rib chiqishda prokuror qatnashgan taqdirda uning xulosasi tinglanadi.

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish chog‘ida tegishli organ (mansabdar shaxs): ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilgan-etilmaganligini; mazkur shaxsning o‘zi huquqbuzarlik sodir etishda aybdor — aybdor emasligini; uning ma‘muriy javobgarlikka tortilishi yoki tortilmasligini; javobgarlikni yengillashuvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarning bor-yo‘qligini; mulkiy zarar yetkazilgan-yetkazilmaganligini; shuningdek, ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlab chiqishi lozim (MJTK 307-m.).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining «Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish bo‘yicha sud amaliyoti haqidagi»gi 2000-yil 15-sentabr qaroriga asosan, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda mansabdar shaxs surishtiruv organi va sudyalar MJTKning 307-moddasida sanab o‘tilgan holati bilan birga huquqbuzarning shaxsi va ishni to‘g‘ri hal etishda ahamiyatga molik boshqa holatlarni har tomonlama va sinchkovlik bilan aniqlashlari shart.

Huquqbuzarlikning sodir etilganligi va bunda shaxsning aybdorligi masalasini muhokama qilishda sudva taqdim qilingan hujjatlar bilan chegaralanmasdan zaturatga qarao qo‘srimcha

dalillar talab qilish, huquqbazarlik haqida bayonnomalar tuzgan mansabdor shaxs, jabrlanuvchi va guvohlarni chaqirish, ekspertizalar tayinlash, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish va boshqa harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishning ko'rib chiqilishi haqida tegishli organ tomonidan bayonnomalar tuziladi. Bu bayonnomada:

1) majlis bo'lgan sana va joy; 2) ishni ko'rib chiquvchi organning nomi va tarkibi; 3) ko'rileyotgan ishning mazmuni; 4) ishda qatnashuvchi shaxslarning hozir bo'lgan-bo'lmasligi; 5) ishni ko'rishda qatnashuvchi shaxslarning izohlari, ularning iltimoslari va bu iltimoslarning natijalari; 6) ishni ko'rib chiqish paytida o'rGANIIGAN hujjatlar va ashyoviy dalillar; 7) qabul qilingan qaromi e'lon qilish to'g'risidagi ma'lumotlar va uning ustidan shikoyat berish tartibi va muddatlar tushuntirilganligi ko'rsatiladi. Tegishli organ majlisining bayonnomasi majlisda raislik qiluvchi, kctib va ishni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqkan organ (mansabdor shaxs) shu ish yuzasidan qaror qabul qiladi. Qarorcha quyidagilar ko'rsatiladi: qaror chiqargan organ (mansabdor shaxsning) nomi, ishni ko'rib chiqish vaqt; ishi ko'rib chiqilayotgan shaxs xususidagi ma'lumotlar; ishni ko'rib chiqish chog'ida aniqlangan holatlarning bayoni; sodir qilingan ma'muriy huquqbazarlik uchun javobgarlikni ko'zda tutuvchi normativ hujjat; ish yuzasidan qabul qilingan qaror.

Agar ma'muriy huquqbazarlik uchun MJTK 242-moddasining 1,2,3,4-bandlarida ko'rsatilgan organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan jazo berish to'g'risidagi masalani hal qilish chog'ida aybdordan yetkazilgan mulkiy zararni undirib olish masalasi ham hal qilinadigan bo'lsa, ish yuzasidan chiqarilgan qarorda undirib olinishi lozim bo'lgan shu zararning miqdori, uning undirib olish muddatlar va tartibi ham ko'rsatilishi lozim. Bundan tashqari, ish yuzasidan chiqarilgan qarorda olib qo'yilgan ashyolar va hujjatlar masalasi ham hal qilingan bo'lishi kerak. Kollegial

organning qarori majlisda hozir bo'lgan shu kollegial organ a'zolarining oddiy ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi. Qaror shu ishni ko'rib chiqayotgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi, kollegial organning qarori esa majlisda raislik qiluvchi va kotib tomonidan imzolanadi (MJTK 309-m.).

Qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim hollarda undirib olish chorasi qo'llash to'g'risida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga tegishlicha yozib qo'yiladi yoxud bu qaror belgilangan usulda rasmiylashtiriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqqan organ ma'muriy jazo berish yoki ishni tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi. Ishni tugatish to'g'risidagi qaror og'zaki ogohlartirish e'lon qilinganda, shuningdek MJTKning 271-moddasida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lganda chiqariladi.

Ishni ko'rib chiqilganidan keyin qabul qilingan qaror darho'e'lon qilinishi kerak. Qarorning nusxasi uch kun ichida ustidan shu qaror chiqarilgan shaxsga topshiriladi yoki jo'natiladi, shuningdek, jabrlanuvchining iltimosiga ko'ra unga ham yuboriladi. Qarorning nusxasi tilxat bilan beriladi. Qarorning nusxasi jo'natiqganda, bu haqda ish materialari bo'lgan yig'majildga yezib qo'yiladi.

O'qotar qurollar, shuningdek, o'q-dorilar xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan ishonib topshirilgan yoki korxona, muassasa, tashkilot tomonidan vaqtinchalik foydalanish uchun berilgan shaxslar xususida MJTK 185-moddasi va 220-moddasining 1 va 2-qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarning nusxasi axborot uchun tegishli korxona, muassasa yoki tashkilotga yuboriladi va mazkur shaxsning o'qotar quroidan foydalanishini taqiqlash masalasini ko'rib chiqish uchun MJTK 312-moddasiga ko'ra ichki ishlar organiga yuboriladi.

MJTKning 61, 131, 140, 183, 233, 237-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'ribo chiquvchi organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarga jazo berish to'g'risidagi ma'lumotlar borasida shu huquqbuzarlar ishlab, o'qib yoki yashab turgan joyga xabar ciladi (MJTK 312-m.).

Ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) ma'muriy huquqbazarlik sodir etilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash chog'ida mazkur sabab va shart-sharoitlarni yo'qotish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risidagi takliflarni tegishli korxona, muassasa, tashkilotlar va mansabdor shaxslarga havola etadi. Mazkur tashkilotlar va mansabdor shaxslar shunday taklif tushgan kundan boshlab bir oy mobaynida uni kiritgan organga (mansabdor shaxsga) ko'rilgan choralar haqida ma'lum qilishlari kerak (MJTK 313-m.).

## **6-§. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish va protest bildirish**

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan qarordan huquqbazar, shuningdek, jabrlanuvchi shikoyat berishi mumkin.

Ma'muriy huquqbazarlik ishi bo'yicha chiqarilgan qaror ustidan yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) yoki ma'muriy ishlari bo'yicha sudyaga, sudyaning ma'muriy ishlari bo'yicha qarori ustidan esa tuman (shahar) sudi raisiga yoki yuqori turuvchi sudga shikoyat berilishi mumkin. Xo'jalik sudining ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori ustidan O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik-protsessual kodeksida belgilangan tartibda shikoyat qilinadi, shikoyat ma'muriy huquqbazarlik ishi bo'yicha qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs)ga yuboriadi va bu orada uch sutka ichida shikoyat ko'rib chiqilib, so'ng yig'ma jildi bilan birgalikda qaytariladi. Ma'muriy jazo berish to'g'risidagi qaror bo'yicha shikoyat bergen shaxsdan davlat boji olinmaydi.

Ma'muriy huquqbazarlik ishi bo'yicha chiqarilgan qaror ustidan shu qaror chiqarilgan kundan boshlab o'n kun mobaynida shikoyat berilishi mumkin. Mazkur muddat uzrli sabablar bilan o'tkazib yuborilgan taqdirda ustidan qaror chiqarilgan shaxsning arizasiga muvofiq bu muddat shikoyatni ko'rib chiqish huquqiga

ega bo'lgan organ (mansabdor shaxs) tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishi bo'yicha chiqarilgan qaror yuzasidan prokuror tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi qarori ustidan — tuman (shahar) sudi raisiga yoki yuqori turuvchi sudga; boshqa organ (mansabdor shaxs) qarori ustidan — qaror chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) protest bildirishi mumkin.

Xo'jalik sudining ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori ustidan O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik-protsessual kodeksida belgilangan tartibda protest keltiriladi.

Belgilangan muddat shikovat berish to'g'risidagi qarorning ijrosini shu shikoyat ko'rib chiqilguncha to'xtatib turadi, ma'muriy qamoqqa olish to'g'risidagi qaror, shuningdek, ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilingan joyda undirib olinadigan jarima solish hollari bundan istisno. Prokuratorning e'tirozi bo'yicha qarorning ijrosi shu protest ko'rib chiqilguniga qadar to'xtatib turiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishi bo'yicha chiqarilgan qaror yuzasidan bildirilgan protest va shikoyat agar qonunlarda boshqa hollar belgilangan bo'lmasa, shikoyat va protest tushgan kundan boshlab o'n kun muddat ichida vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan ko'rib chiqilishi, shu qarorning qanchalik qonuniy va asosli ekanligi tekshirilishi lozim.

Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning qarori yuzasidan berilgan shikoyat yoki protest bo'yicha kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi MJTKning bobidagi qoidalar bilan belgilanadi.

Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning qarori yuzasidan berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest bo'yicha ish kassatsiya instansiyasi sudyasi tomonidan sud raisi topshirig'iga binoan ko'rib chiqiladi.

Kassatsiya instansiyasi sudi sudyasining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning qarori yuzasidan berilgan shikoyati yoki bildirilgan protesti bo'yicha hal qiluv qarori qaror shaklida chiqariladi va chiqarilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

Tegishli organ (mansabdar shaxs) shikoyat yoki protestni ko'rib chiqib quyidagi hal qiluvchi qarorlaridan birini qabul qiladi: 1) chiqarilgan qarorni o'zgartirmaydi, shikoyat yoki protestni qanoatlantirmaydi; 2) chiqarilgan qarorni bekor qilib, ishni qayta ko'rib chiqish uchun yuboradi; 3) chiqarilgan qarorni bekor qiladi va ishni ko'rishni to'xtatadi; 4) jazo chorasi o'zgartiradi, lekin bunda jazo chorasi kuchaytirilishi mumkin emas.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qarorni bekor qilish yoki o'zgartirish uchun: organ (mansabdar shaxs) tomonidan ishni to'liq bo'lмагan holda yoki bir tomonlama ko'rib chiqilishi; organ (mansabdar shaxs) hal qiluv qarorining va O'zbekiston Respublikasi MTK Maxsus qismining qo'llanilgan normalari va ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan boshqa normativ hujjatlar ishning faktik holatlariga mos kelmasligi; ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish qoidalarining jiddiy buzilishi; qo'llanilgan ma'muriy jazoningadolatsizligi asos bo'lib hisoblanadi.

Mazkur ishni ko'rib chiqishga vakolati bo'lмагan organ (mansabdar shaxs) tomenidan chiqarilgan qaror bekor qilinadi, ish esa vaklatli organga (mansabdar shaxsga) ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror yuzasidan berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest bo'yicha qabul qilingan hal qiluv qarorida: u chiqarilgan vaqt va joy; shikoyat yoki protestni ko'rib chiqayotgan mansabdar shaxs; prokuror va ishtirok etayotgan boshqa shaxslar; shikoyat bergen shaxs yoki protest bildirgan prokuror; ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan qaroring hamda shikoyat, protestning mohiyati; chiqarilayotgan qaroring asoslanishi; shikoyat yoki protest yuzasidan qaror ko'rsatilishi lozim.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestiga doir hal cilev qarorining nusxasi o'zi haqida ana shu qaror chiqarilgan shaxsga uch kun muddat ichida yuboriladi, jabrlanuv-

chiga esa — uning iltimosiga binoan yuboriladi. Protestni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida prokurorga ma’lum qilinadi.

Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan organ (mansabdar shaxs) chiqargan qaror yuqori turuvchi organ rahbari, prokuorning protesti bo‘yicha esa uni chiqargan organ tomonidan ham O‘zbekiston Respublikasi MJTKning 321-moddasi 2 va 3-qismlarida belgilangan asoslar bo‘yicha bekor qilinishi yoki o‘zgartiriliishi mumkin.

Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan berilgan shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga prokuror protest bildirishi mumkin.

Shikoyat yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga protest mazkur qarorni chiqargan organdan (mansabdar shaxsdan) yuqori turuvchi organga kiritiladi.

Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishni tugatish bilan qarorni bekor qilish, undirib olingan pul summalarini, haqi to‘lab olib qo‘yligan va musodara qilingan narsalarni qaytarib berishga, shuningdek ilgari qabul qilingan qaror bilan bog‘liq boshqa cheklashlarni bekor qilishga sabab bo‘ladi. Narsani qaytarib berish mumkin bo‘lmagan hollarda uning qiymati, basharti bu narsalar tadbirkorlik uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, boy berilgan foydasi ham qoplanadi.

Fuqaroni ma’muriy qamoqqa olish g‘ayriqonuniy ravishda qo‘llanilganligi natijasida yetkazilgan zarar qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda qoplanadi.

## **7-§. Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaroriarni ijro etish**

Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni ijro etish davlat va jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Agar qonunlarda o‘zgacha holat ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan paytdan boshlab ijro etilishi lozim. Bunday qaror ustidan shikoyat yoki

protest bildirilgan taqdirda, bu qaror berilgan shikoyat yoki protest qanoatlantirilmagandan keyin ijro etilishi kerak. Ma'muriy huquq-buzarlik sodir etilgan joyning o'zida jazo chorasi qo'llash to'g'risidagi qaror bundan mustasno. Jarima solish tarzidagi ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror, MJTK 332-moddasining 1-qismida belgilab qo'yilganidek, shu qarorni ixtiyoriy ravishda bajarish muddati o'tib ketgandan keyin majburiy ravishda ijro etiladi. Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror asosan uni chiqargan organ (mansabdor shaxs) tomonidan ijro etiladi. Ma'muriy tartibda qamoqqa olish to'g'risidagi qaror ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi. Bir shaxsga nisbatan ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi bir necha qaror chiqarilgan taqdirda, har bir qaror alohida-alohida ijro etiladi.

Ma'muriy tartibda qamoqqa olish yoki jarima solish (ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan joyning o'zida jarima solish bundan mustasno) tarzidagi ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorni darhol ijro etishning imkonи bo'lmasa, shu qarorni chiqargan organ (mansabdor shaxs) qarorning ijrosini bir oygacha muddatga kechiktirishi mumkin. Mazkur organ (mansabdor shaxs) quyidagi hollarda qarorning ijrosini to'xtatishi mumkin: 1) umumiy afv e'lon qilinib, bunda ma'muriy jazo chorasi qo'llash bekor qilingan bo'lsa; 2) ma'muriy javobgarlikni belgilovchi hujjat bekor qilingan bo'lsa; 3) ustidan qaror chiqarilgan shaxs vafot etgan taqdirda.

Ma'muriy jazo to'g'risida chiqarilgan qaror qabul qilingan kundan boshlab uch oy mobaynida ijro etilmagan bo'lsa, u holda bunday qaror ijro etilmaydi. Qarorning ijrosi to'xtatib turilgan taqdirda, uni ijro etish muddati shikoyat yoki protest ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatiladi. Qarorning ijrosi kechiktirilgan taqdirda uni ijro etish kechiktirish muddati o'tgunga qadar to'xtatib turiladi. Qonunda ma'muriy huquqbazarlikning ayrim turlariga oid ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish uchun uzoqroq muddatlar belgilab qo'yilishi mumkin.

Bojxona kodeksiga muvofiq kontrabanda buyumlari, shuning-dek, davlat chegarasi orqali kontrabanda buyumlarini olib o'tish yoki ularni yashirin keltirish uchun mo'ljallangan tashish vositalari

va boshqa vositalar qachon topilganidan qat'i nazar, musodara qilinishi lozim (MJTK 330-m.).

Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorning ijrosi bilan bog'liq masalalar shu qarorni chiqargan organ (mansabdar shaxs) tomonidan hal qilinadi. Bunday qarorni to'g'ri va o'z vaqtida ijro etilishini nazorat qilish shu qarorni chiqargan organ (mansabdar shaxs) zimmasiga yuklatiladi.

*Ma'muriy jazo choralarining alohida turlarini go'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish tartibi.* Jarima huquqbuzar shaxs tomonidan, unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirilmay, agar bunday qaror yuzasidan shikoyat berilgan yoki protest keltirilgan taqdirda shikoyat yoki protest qondirilmaganligi xususida xabar berilgan kundan boshlab, o'n besh kundan kechiktirmay to'lanishi lozim. Shaxs o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lib, mayda bezorilik qilsa va ish haqi oimasa, jarima uning ota-onasi yoki ular o'mini bcsuvchi shaxslardan undirib olinadi. Jarima huquqbuzar tomonidan tegishli bankka to'lanadi.

Huquqbuzar jarimani belgilangan muddat ichida to'lamasa, jarima solish to'g'risidagi qaror sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan qoidalarga muvofiq uning ish haqi yoki boshqa maoshidan, pensiyasidan yoki stipendiyasidan majburiv tartibda jarima undirib olish uchun yuboriladi. Agar jarima solingan shaxs ishlamayotgan bo'lsa yoki huquqbuzarning ish haqi yoki boshqa maoshidan, pensiya yoki stipendiyasidan ayrim sabablarga ko'ra jarimani undirib olishning iloji bo'lmasa, sud ijrochisi huquqbuzarning mulkidan jarima undirib olish to'g'risida qaror chiqaradi. Qonunlarga muvofiq ijro hujjatlari bo'yicha undirib olinishi mumkin bo'lmagan mol-mulkdan jarima undirib olinmaydi.

Transport vositalarida kontrabanda buyumlari boriigi aniqlansa va egalari respublikada doimiy jeyiga ega bo'lmasa, jarima Bojxona kodeksi qoidalariiga muvofiq undirib olinadi. Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilingan joyda undirib olingan taqdirda, huquqbuzarga belgilangan nusxada kvitansiya beriladi. Jarima solish

to‘g‘risidagi qarorga muvofiq jarima to‘la-to‘kis undirib olingach, uning ijro etilganligi haqida belgi qo‘yilib, shu qarorni chiqargan organ (mansabdar shaxs)ga qaytarib yuboriladi.

«Haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish to‘g‘risidagi qaror asosida olib qo‘yilgan narsalar belgilangan tartibda shartnomavositachilik asosida yoxud auksion shaklidagi kim oshdi savdosiga realizatsiya qilinadi».

Buyumni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish to‘g‘risida chiqarilgan qaror asosida olib qo‘yilgan buyumlar shu qarorni chiqargan organlar (mansabdar shaxs) tomonidan vositachi do‘kon yoki olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan mol-mulk turgan joydagi shunday maqsad uchun maxsus belgilab qo‘yilgan davlat yoki boshqa savdo do‘konlariga sotish uchun topshiriladi. O‘qotar qurollar va o‘q-dorilarning haqini to‘lab olib qo‘yish to‘g‘risidagi qaror ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi. Haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yilgan buyumni sotishdan tushgan pullar, shunday qaror chiqargan organlar (mansabdar shaxslar) tomonidan shu buyumning sobiq egasiga topshirilib, bunda haq to‘lash sharti bilan olib qo‘yilgan buyumni sotish xarajatlari chegirib tashlanadi. Qonunda buyumlarni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yishni ijro etishning boshqacha tartibi ham belgilab qo‘yilishi mumkin (MJTK 326-m.).

Ma‘muriy huquqbazarlik sodir etish quroli hisoblangan narsani yoki bevosita ma‘muriy huquqbazarlik narsasini musodara qilish to‘g‘risidagi qaror ijro etilganidan so‘ng sud ijrochisi ijro ishi yuritishni tamomlash to‘g‘risida qaror chiqaradi va uning bir nusxasi quyidagilarga yuboriladi:

— uni chiqargan ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudyaga;

— O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilayotgan, eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulotlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan, transportirovka (xalqaro tranzit bundan mustasno) qilinayotgan va saqlanayotgan, aksiz markalari qo‘yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogollli ichimliklarni musodara qilish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilgan bojxona organining mansabdar shaxsiga;

— saqlanayotgan, realizatsiya qilinayotgan, yashirin ravishda ishlab chiqarilayotgan, aksiz markalari qo‘yilmagan tamaki mahsu-

lotlari va alkogollı ichimliklarni musodara qilish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilgan soliq organining mansabdon shaxsiga.

Ma‘muriy huquqbozarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday narsa bo‘igan musodara qilingan narsani sotish va yo‘q qilib tashlash belgilangan tartibda amalga oshiriladi (MJTK 337-339-m.).

Maxsus huquqdan mahrum qilish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish O‘zbekiston Respublikasi MJTKning 340-moddasiga asosan amalga oshiriladi. Transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi qaror MJTKning 248-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan ichki ishlar organlarining mansabdon shaxslari tomonidan ijro etiladi.

Kema haydovchilarini kichik hajmli kemalarini boshqarish huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi qaror MJTK 253-moddasining 2-qismida ko‘rsatib o‘tilgan O‘zbekiston Respublikasi kichik hajmli kemalar davlat inspeksiyasi organlarining mansabdon shaxslar tomonidan ijro etiladi. Ov qilish huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi qaror MJTK 261-moddasining 2-qismida ko‘rsatib o‘tilgan ov qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati olib boruvchi organlarning mansabdon shaxslari tomonidan ijro etiladi.

Transport vositalarini va kichik hajmli kemalarini boshqarish huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi qaror, agar haydovchilik guvohnomasi bo‘lgan shaxs hamda kichik kema haydovchisi barcha turdagи transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan bo‘lsa, guvohnomaga qo‘sib beriladigan talonni olib qo‘yish yo‘li bilan ijro etiladi. Agar shaxs transport vositalarini yoki kichik hajmli kemalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan bo‘lsa, bu to‘g‘rida haydovchilik guvohnomasiga va unga qo‘sib beriladigan talonga mazkur shaxs transport vositalarining qaysi turini yoki qanday kichik hajmli kemalarini boshqarish huquqidan mahrum etilganligini ko‘rsatib belgi qo‘yiladi. Transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomalarni olib qo‘yish tartibi Ichki ishlar vazirligi tomonidan, kichik hajmli kemalarini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomalarni olib qo‘yish tartibi esa kichik hajmli kemalar bo‘yicha davlat inspeksiyasi tomonidan belgilanadi. Transport vositalarini boshqarish

huquqidan mahrum etilgan haydovchi o'z guvohnomasini berishdan bosh tortgan taqdirda, uning haydovchilik guvohnomasi belgilangan tartibda ichki ishlar organlari tomonidan olib qo'yiladi.

Ov qilish huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi qaror ovchilik biletini olib qo'yish yo'li bilan ijro etiladi. Ov qilish huquqidan mahrum etilgan shaxs ovchilik biletini topshirishdan bo'yin tovlagan taqdirda, ov qilish qoidalariga riosa etilishi ustidan nazorat olib boruvchi organlar ovchilik biletini belgilangan tartibda olib qo'yadilar (MJTK 341-342-m.).

Muayyan muddatga transportni boshqarishdan yoki ov qilish huquqidan mahrum etilgan shaxs o'z ishiga halol munosabatda bo'lsa va namunali axloqi bilan o'zini ko'rsatsa, jazo muddatining kamida yarmini o'tgach, korxona, muassasa va tashkilot ma'muriyati iltimosi bo'yicha bunday huquqdan mahrum qilish muddatini qisqartirish mumkin. Transport haydovchilari va ov qilish qoidalarini buzgan shaxslar maxsus huquqdan mahrum etish to'g'risida qaror chiqarilgan kundan boshlab shunday huquqdan mahrum etilgan hisoblanadilar. Maxsus huquqdan mahrum qilish muddati o'tgach, shuningdek, bu muddat qisqartirilsa, shunday ma'muriy jazo chorasisiga tortilgan shaxsga undan olib qo'yilgan hujjatlar belgilangan tartibda qaytarib beriladi. Transportni boshqarish huquqidan mahrum etilgan haydovchi o'z haydovchilik guvohnomasini berishdan bosh tortsa, mahrum qilish muddati uning guvohnomasi majburiy olib qo'yilgan kundan boshlanadi, lekin mahrum etish muddati tugashidan kechiktirmasdan hisoblanadi.

Ma'muriy qamoqqa olish to'g'risida qaror chiqarilgach darhol ijro etiladi. Ma'muriy qamoq jazosiga tortilgan shaxslar ichki ishlar organlari belgilab qo'ygan joylarda soqchilik nazoratida saqlanadilar. Ma'muriy qamoqqa olish to'g'risidagi qarorni ijro etish chog'ida qamoqqa olingan shaxs shaxsiy ko'rikdan o'tkaziladi. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati ma'muriy qamoqqa olish muddatiga qo'shib hisoblanadi. Ma'muriy qamoqqa olish muddatini o'tash qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi. MJTKning 180, 183, 184-moddalarida, 187-

moddasining 2-qismida va 194, 201, 204-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzariiklar sodir etgani uchun ma'muriy qamoqqa olingan shaxslar kuchidan jismoniy ishlarda foydalaniladi. Bunday shaxslar mehnatidan foydalanishni tashkil etish hokimliklar zimmasiga yuklatiladi.

Ma'muriy qamoqda olingan shaxslarga qamoqda bo'lgan vaqtida doimiy ish joyidagi ish haqi to'lanmaydi (MJTK 346-m.).

O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarning saqlash xarajatlarini undirish to'g'risida»gi 1995 yil 5 may qonuniga asosan ma'muriy qamoqqa olingan shaxslardan ma'muriy isniar bo'yicha sudyaning qaroriga binoan saqlab turish bilan bog'liq xarajatlar sutkasiga eng kam oylik ish haqining 15 foizi miqdorida undirib olinadi.

Qamaligan shaxs ma'muriy qamoqda bo'lgan vaqtida ishlagan va bu bilan o'zini saqlab turish xarajatlarini qoplagan hollarda, undan bu kaci xarajatlar undirib olinmaydi. Ma'muriy qamoqqa olinganlar mehnatga layoqatsiz bo'lilar, ular nam bu xarajatlarni undirishdan ozod qilinadilar.

Ayrim hoilarda, sudya aniq holatlarni va qamalganning shaxsini hisobga olib, uni mazkur xarajatlarni to'lashdan ozod qilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbazarlik ishi yuzasidan chiqarilgan qaroring mulkiy zararni undirib olish xususidagi qismi qonunlarda belgilangan tartibda ijro etiladi va bu qism ijro etish hujjati hisoblanadi. Mulkiy zarar huquqbazar tomonidan unga qaror topshirilgan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirmay to'lanishi kerak, bunday qaror xususida shikoyat yoki protest berilgan taqdirda shikoyat yoki protest qanoatlantirilmaganligi haqida murojaat qilingan kundan boshlab, o'n besh kundan kechiktirilmay to'lanadi. Agar bu talab ana shu belgilangan muddatda bajarilmasa, bu qaror sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilgan qoidalarga muvofiq jarimani uning ish haqi yoki boshqa maoshidan, nafaqasuan yoki stipendiyasidan majburiy tartibda undirib olish uchun yuboriladi.

## *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ish yuritish deganda nimani tushunasiz?
2. Ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ish yuritish tartiblarini tushuntiring.
3. Ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ish yuritishning qanday prinsiplari mavjud?
4. Ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ish yuritishning umumiy qoidalari tushuntiring.
5. Ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ish yuritishni ta'minlash choralarini deganda nimani tushunasiz?
6. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarning taalluqliligi haqida so'zlab bering.
7. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarning taalluqliligi turlari haqida tushuntiring.
8. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan qanday organlar (mansabdar shaxslar) kiradi?
9. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalarning vakolatlari qanday?
10. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda tuman markazidan olsida va borish qiyin bo'lgan yerdagi shaharcha, qishloq va ovullardagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qoshida tuzilgan ma'muriy komissiyalarining vakolatlari qanday?
11. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi tuman (shahar) komissiyalarining vakolatlari nimalardan iborat?
12. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda ichki ishlar organlarining vakolatlari nimalardan iborat?
13. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslar kimlar?
14. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish tartibini tushuntiring.
15. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish va protest bildirish tartibi haqida so'zlab bering.
16. Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish jaryonini tushuntiring.
17. Ma'muriy jarima va huquqbazarlik sodir etish quroli hisoblangan narsa yoki shunday ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yishga qanday hollarda yo'l qo'yiladi?

*Oltinchi bo‘lim*  
**DAVLAT BOSHQARUVIDA QONUNIYLIK**  
**VA INTIZOM**

---

*XVI bob*  
**DAVLAT BOSHQARUVIDA QONUNIYLIK VA INTIZOMNI**  
**TA’MINLASH**

**1-§. Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni  
ta’milash tushunchasi, mohiyati, usullari**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qoidalaridan kelib chiqib, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish uchun qonun ustuvorligini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Demokratik davlatda qonun yuksak darajaga va nufuzga ega bo‘lmas ekan u ma’nosiz bo‘lib qoladi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: «Qonunchilik va huquq-tartibot tantana qilmas ekan, huquqiy davlat qurishni tasavvur qilib bo‘lmaydi»<sup>1</sup>.

Shunday ekan, qonunning chinakam ustuvorligini amalda ta’minlash uchun nimalar qilish zarur?

Schibqiron bobomiz Amir Temur o‘zining mashhur «Tuzuklari»da - davlatni boshqarish qoidalari haqida shunday bashorat qilgan edi: «Zaruriy tartibot va qonunlarga rivoja qiliш taqdirim va muvaffaqiyatlarimning negizi bo‘ldi».

Huquqiy davlatda qonun ustuvorligiga to‘liq amal qilinadi. Huquqiy kafolatsiz, biz barpo qilishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyatini yaratib bo‘lmaydi. Qonunlarning so‘zsiz amal qilishiga ishonchsizlik joylardagi ijroiya hokimiyatlar va huquqni muhofaza

<sup>1</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишининг ўзига хос иули // Ўзбекистон: миллий истиқол, сиёсат, мағкур. Т. 1. – Т., 1996. – 321-б.

qilish organlariga salbiy ta'sir qilib, ularni huquqiy nochor holatga solib qo'yadi.

Qonuniylik huquqiy voqelik, huquqiy normalar qanday bajarilayotganligi, huquqiy tuzilmaning siyosiy asosiari boshqa ijtimoiy-siyosiy institutlar va siyosiy rejimlar bilan bog'liqligi qay ahvolda ekanligi haqida tasavvur hosil qiladi. Ushbu tushuncha uch qoidani, ya'ni fuqarolarning qonun talablarini albatta bajarishi; jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy hayotning qonuniy tartibi hamda qonuniylik nazariyasini o'z ichiga oladi.

Qonuniylik nazariyasi, avvalambor. huquqiy ongda shakllanadi va huquqiy munosabatlarda qatnashadigan barcha shaxslarning qonun talablariga muvofiq harzkat qilishi va biron-bir g'ayrig'onuniy harakatni amalga oshirmasiuk talabiga bo'ysunishni, shuning-dek subyektiv huquqlarning to'liq ijro etilishini bildiradi.

*Huquq-tartibot* — jamiyatda huquqiy tartibni saqlash uchun davlat organlari, jamoatchilik tomonidan huquqiy normalarni hayotga tatbiq qilish faoliyatidir. Huquq-tartibotni amalga oshirishda hayotdagi mavjud axloq, odob. an'analar muvofiqligi ta'minlanadi. Huquq-tartibot davlat tomonidan ishlab chiqilgan normativ hujjatlar orqali tartibga solinadi.

Ma'lumki, qonuniylik huquq-tartibot bilan uzviy holda amalga oshiriladi. Huquq-tartibot jamoat tartibining bi-qismi bo'lib, faga't huquqiy normalarning amalga oshirilishi natijasida paydo bo'лади va kishilar o'rtaсидаги turli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy vositalar orqali tartibga soladi. Kishilar o'rtaсидаги c'zarо yoki fuqarolar bilan davlat organlari o'rtaсидаги munosabatlar huquq-tartibot, ya'ni huquqiy normalar orqali amalga oshirilib, qonuniylik mustahkamlanadi.

Bundan tashqari davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri - qonunlarga og'ishmay rioxva qiliishi ta'minlashdir. Qonunlarga rioxva etishning hamma uchun majburiyligi, uni buzishga aslo yo'il qo'yib bo'lmasligi huquq-tartibot va aholining huquqiy madaniyat, ongi darajasini yuksaltirish davlat huquq-tartibotni muhofaza etish funksiyasining mazmunini tashkil etadi.

Davlat ushbu funksiyani amalga oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi:

*birinchidan*, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish;

*ikkinchidan*, qonunlar ijrosini ta'minlash va ular ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

*uchinchidan*, fuqarolarni konstitutsiyaviy huquqlar va erkinliklar bilan ta'minlaydigan qonunchilikni yaratish;

*to'rtinchidan*, huquqni muhofaza qilish organlari tizimini shakllantirish;

*beshinchidan*, qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash.

Har qanday davlatning eng asosiy talabi - qonunlarni amalga oshirishga, qonunchilikni ta'minlashga safarbar etilgan kishilarning qonunlarni aniq va og'ishmay ijob etishidir\_\_.

**Qonuniylik va huquqiy-tartibot kafolatlari va ularni ta'minlash usullari.** Jamiyatda kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni qonunlar bilan tartibga solinar ekan, ularni hayotda to'g'ri qo'llash, ya'ni qonuniylik tegishli usullar orqali amalga oshiriladi.

*Davlat boshqaruvida qonuniylik kontrol, nazorat va davlat boshqaruv organlarining g'ayriqonuniy harakatlari ustidan shikoyat berish usullari* yordamida amalga oshiriladi.

Kontrol hamma vaqt yuqori organlar tomonidan ularga bo'y sunuvchi quyi organlarning faoliyatini tekshirish jarayonida qo'llaniladi. Kontrol usulini qo'llash huquqiga ega bo'lgan organlar o'zlariga bo'y sunuvchi obyektlarning moliyaviy, xo'jalik, tashkiliy va boshqa xil faoliyatini o'r ganib chiqib, shu faoliyat davomida ularning qonunlarga qanchalik rivoj etganliklarini aniqlaydi. Agar qonunlar buzilayotgan bo'lsa, mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy choralar qo'llaniladi va ularning chiqargan huquqiy aktlarini bekor qiladi. Nazorat olib boruvchi organlar esa o'zlariga bo'y sunmagan obyektlar ustidan nazorat o'rnatadi. Qonunchilik, o'rnatilgan maxsus tartib buzilgani aniqlansa, nazorat olib boruvchi organlar tartibni buzgan shaxsga nisbatan ma'muriy chora qo'llashlari mumkin, lekin obyektlar tomonidan chiqarilgan g'ayriqonuniy aktlarni bekor qila olmaydi. Nazorat prokuratura va maxsus davlat nazorati organlari tomonidan, kontrol esa barcha yuqori organlar tomonidan olib boriladi.

Qonun va tartib buzilishining oldini olish hamda bunday hollarga chek qo'yish maqsadida nazoratning quvidagi turlari amal qiladi:

**Davlat hokimiyat organlarining nazorati** — Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

**Davlat boshqaruv organlarining nazorati** — MXX, IIV, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq organlari va hokazolar tomonidan olib boriladi;

**Prokuror nazorati:**

- qonunlarga rioxha etilishi ustidan umumiyligida nazorat;
- huquq-tartibot idoralarining ijro etish faoliyati ustidan nazorat;
- dastlabki tergov idoralari faoliyati ustidan nazorat;
- jazoni ijro etish idoralari faoliyati ustidan nazortni tashkil etadi.

**Ma'muriy nazorat:**

- yo'l harakati xavfsizligi xizmatlari;
- yong'in xavfsizligi xizmatlari;
- sanitariya va epidemiologiya idoralari;
- veterinariya idoralari;
- tabiatni muhofaza qilish idoralari va hokazolar tomonidan amalga oshiriladi.

Sud organlarining kontroli - jinoiy, ma'muriy, fuqaroviyligida xo'jalik ishlari bo'yicha amalga oshiriladi;

**Jamoatchilik kontroli:**

- siyosiy partiyalar;
- jamoat tashkilotlari;
- o'zini o'zi boshqarish organlari;
- nodavlat notijorat tashkilotlari;
- kasaba uyushmalari;
- ijodiy uyushmalar;
- faxriylar va yoshlar tashkilotlari;
- olimlar, yozuvchilar va boshqa jamiyatlar va hokazolar tomonidan olib boriladi.

## **2-§. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda fuqarolarning taklif, ariza va shikoyatlarining o'rni va ahamiyati**

Fuqaroning davlat organlariga, jamoat birlashmalariga, mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga murojaat qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi 2002-yil 12-dekabr va «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xattiharakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risidagi» 1995 yil 30 avgust qonunlari bilan belgilangan.

Fuqarolarning murojaatlarni ko'rvuchni davlat organlari va muassasalari doirasi kengdir, ularga Oliy Majlis, uning doimiy qo'mita va komissiyalari, maxsus masala yuzasidan tuzilgan komissiyalari; Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman); Markaziy saylov komissiyalari (okrug va uchastka saylov komissiyalari); O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (Prezident devoni), Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, qo'mitalar va boshqa markaziy muassasalar; Konstitutsiyaviy sud, odil sudlov organlari, xo'jalik sudlari, ularning tarkibiy va tarmoq tuzilmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari; mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, tashkilot va muassasalar; jamoat birlashmalari - ya'ni: siyosiy partiyalar, turli jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari kiradi. Bularning har biri o'z vakolati doirasida fuqarolarning murojaatlarni hal qiladi.

Shuning uchun fuqaro murojaat qilganda qaysi organ yoki tashkilotga murojaat qilishi zarurligini, o'z murojaatini qaysi organ yoki tashkilotda qoniqarli hal qilinishi mumkinligini bilishi muhimdir. Shunda ko'pgina quyi organ yoki tashkilotlarni chetlab o'tib, bir yo'la yuqori organlarga murojaat qilinmaydi. Quyi organlarni chetlab o'tib, yuqori idoralarga murojaat qilish esa ulami o'z asosiy vazifalarini bajarishdan chalg'itishi mumkin.

Qonun fuqarolarning yuqori idora va tashkilotlarga murojaat qilish huquqini amalga oshiruvchi qoidalarni, murojaat qilish tartiblarini va murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini aniq belgilab, fuqarolarga o'z murojaatlari yuzasidan tezlik bilan

malakali, ishonchli javob olishlarini, qo'yilgan talablarning qondirilishini ta'minlaydi.

Fuqarolarning murojaatlarini davlat va jamiyat hayotida, fuqarolarning shaxsiy hayotida tutgan o'mi huquqiy jihatdan aniqlab berilgan. Mazkur moddaning matnida dastlab ko'zga tashlanadigan narsa - fuqarolarning murojaatlariga ularning davlat va jamoat ishlarida ishtirokini ta'minlovchi vosita sifatida qaralishidir.

Demak, murojaatlar faqat alohida shaxsning manfaati bilan cheklanmaydi, ular shaxsning faqat iqtisodiy manfaatlari va buzilgan huquqlarini tiklash vositasi bo'lib qolmay, balki demokratiyaning ham tarkibiy qismidir. Qaysi mamlakatda fuqarolarning murojaatlariga munosabat qandayiigiga qarab, shu mamlakatda demokratiyaning amal qilishi haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Fuqarolarning turli organ va tashkilotlarga murojaat qilish huquqi yangi narsa bo'lib qolmay, u uzoq tarixga taqaladi. Ba'zi davrlarda murojaatlarga faqat shaxslarning haq-huquqlarini himoya qilish vositasi deb qaralgan. Demokratiyaning davlat hayotida keng o'rinn egallashi natijasida murojaatlar yangi xususiyat kasb etdi, ya'ni ular fuqarolarning daviat va jamiyat ishlarida ishtirok etish vositasi darajasiga ko'tarildi. Murojaatlarning ahamiyati ayniqsa huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan mamlakatlarda kuchaydi. Fuqarolar o'z murojaatlari orqali davlat va uning organlari faoliyatiga, qonunchilik, qonuniylik va huquqtartibotni mustahkamlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadilar.

Murojaatlar orqali fuqarolar o'zlariga Konstitutsiya va u asosida qabul qilingan huquqiy hujjatlar orqali berilgan huquq va erkinliklarni ro'yobga chiqaradilar. Davlat organlari va turli tashkilot, korxona, muassasalarga murojaat qilish natijasida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoyalash tegishli organ va idoralarдан, mansabdor shaxslardan talab etiladi. Natijada huquq va manfaat buzilishining oldi olinadi, agar ular buzilgan bo'lsa - tiklanadi.

Fuqarolar faqat o'zlarining manfaatini ko'zlab emas, balki boshqa shaxslarning: oila a'zolari, qarindoshlari, jamoa a'zolari hamda tashkilotlarining manfaatini ham ko'zlab murojaat qilishlari mumkin. Bu qoidaning ayniqsa, yordamga muhtoj, qonun-qoidalarni yaxshi anglamaydigan shaxslarning hucuciy manfaat-

larini himoya qilishda ahamiyati katta. Fuqarolar o'zлari mehnat qilayotgan tashkilotlar manfaatini himoya qilib ham tegishli organlarga murojaat qilishlari mumkin. Chunki shaxsiy manfaat bilan umumiy manfaatda mushtaraklik bo'lgandagina tashkilot ham, xizmatchi ham manfaat ko'rishi mumkin.

Murojaatlar idora va tashkilotlarga yakka tartibda - shaxsan, yoki jamoa (guruh) bo'lib berilishi mumkin. Yakka tartibdagi murojaatlarda asosan shaxsiy manfaat ilgari surilsa (shikoyat va arizalarda), ma'lum guruhlari (jamoa) murojaatlarida ko'pchilik manfaatiga taalluqli, ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan masalalar ilgari suriladi.

Murojaatlarning turlari yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. Ba'zi murojaatlar faqat yozma bo'lishi belgilangan. Masalan, ishga kirish, ishdan bo'shash, ism va familiyani o'zgartirish, fuqarolikka qabul qilish haqidagi va boshqalar. Ayrim murojaatlar esa og'zaki tartibda bo'lib, ular tegishli organlarda shaxsan qabul qilinganda aytildi. Lekin ular mazmuni ham tegishli idoralardagi maxsus qaydnomalarda qayd qilinadi. Fuqarolar murojaatlarini ommaviy axborot vesitalari orqali ham bayon qilishlari mumkin. Qonunga asosan fuqarolar murojaatlarining uch turi mavjud bo'lib, bular: taklif, ariza va shikoyatdir.

O'zbekistonda fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi va «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlari va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonunlar bilan birga, alohida murojaatlarni, ayrim davlat organlarida ko'rish tartibini boshqa qonunchilik hujjatlari ham belgilaydi. Masalan, fuqarolikni qabul qilish haqidagi arizalarni ko'rish tartibi, «Fuqarolik to'g'risida»gi qonunning 33—40-moddalarida belgilangan.

Ayrim masalalar va alohida shaxslarning harakatlari ustidan shikoyat qilish va shikoyatni ko'rib chiqish qoidalari alohida qonunlar bilan tartibga solinadi. Masalan, surishtiruv, tergov organlari ularning harakatlari ustidan, sudning ajrimi, qarori va hukmi ustidan shikoyat qilish va shikoyatni ko'rish taklif, ariza, shikoyatning nimaga qaratilishi, bir-biridan farqi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 194—196, 302—307-moddalarida belgilangan.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari, saylov to‘g‘risidagi qonunlarda saylovchilarning o‘z saylov huquqlarini himoya qilib, shikoyat berish huquqi ko‘rsatilgan. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 32-moddasi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 31-moddasi, «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunning 10-moddasida saylovchilarning saylov ro‘yxatidagi noaniqlik bo‘yicha shikoyat qilish huquqi va uni ko‘rishning alohida tartibi belgilangan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 23-moddasiga binoan «O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta‘minlanadi». Xalqaro huquq normalariga asosan esa fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va chet el fuqarolari ham O‘zbekiston Respublikasida normal hayot kechirishlari uchun zarur bo‘lgan huquqlardan foydalananadilar. Shuning uchun ular o‘z huquqlarini ta‘minlash, ro‘yobga chiqarish uchun tegishli idora va muassasalarga hech qanday moneliksiz murojaat qilishlari mumkin. Amaldagi qonunchilik hujjatlari fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ham murojaat qilish huquqini beradi. Xorijiy mamlakatlar fuqarolarining murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibi xalqaro shartnomaga va bitimlar, ikki tomonlama kelishuvlar asosida belgilanshi ham mumkin. Agar shunday hujjatlari bo‘lmasa, bunday fuqarolarning murojaatlari ham qonunlarda belgilagan tartiblarda ko‘rib hal qilinadi.

Mamlakatimizdagи har bir fuqaroning sudga murojaat qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitutsiyaviy huquqi bo‘lib, shu bilan birga bu huquq va erkinliklarning eng ishonchli va samarali kafolati hamda huquqiy davlatning muhim shartidir.

O‘zbekistonda fuqarolarning sudga shikoyat qilish huquqining belgilanishida BMT tomonidan qabul qilingan, - «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» talablariga to‘la amal qilindi. Ana shu hujjatning 8-moddasida «Har bir inson, mabodo, uning konstitutsiya yoki qonun kafolatlab qo‘ygan asosiy huquqlari buzilgudek bo‘lsa, nufuzli milliy sudlar tomonidan o‘z huquqlarining samarali

tarzda tikanishi, huquqiga egadir» - deb qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida «Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabдор shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi», - deb begilash bilan yuqoridaq xalqaro hujjat qoidasi rivojlantirilib, aniq bir mamlakat doirasida shu qoidaning amal qilishiga huquqiy asos yaratildi. «Sudlar to'g'risidagi» qonunning 4, 8-moddalarida fuqarolar erkinliklari va manfaatlarini har qanday tajovuzdan himoya qilish borasida sud organlarining vazifalari belgilangan. Mazkur qonun esa konstitutsiyaviy va boshqa qonun normalarining amalda o'z o'mini topishiga qaratilgan.

Fuqarolarning sudga shikoyat qilishi uchun davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabдор shaxslar, shuningdek fuqarolarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari yoki qonunga zid qaror va boshqa hujjatlari asos bo'lib xizmat qiladi.

Shikoyat berish uchun shunday xatti-harakatlar yoki qonun-chiliikka zid ravishda qabul qilingan hujjatlar bo'lishi kerak. Ba'zi hollarda qonunga zid xatti-harakat yoki hujjatlar bo'lmasa ham shikoyat qiluvchining haqiqiy ahvolni, qonun-qoidalarni bilmasligi shikoyat qilishga sabab bo'lishi mumkin. Bunday shikoyatlar asossiz hisoblanadi.

Nima uchun aynan sudga shikoyat qilish shaxsning huquq va erkinliklarining kafolati hisoblanadi?

Chunki sud organlari, Konstitutsiyaga asosan boshqa davlat hokimiyati organlaridan, jamoat birlashmalaridan holi, mustaqil harakat qiluvchi va faqat qonunga bo'ysunuvchi organdir. Sud organlari fuqarolarning davlat organlari, mansabдор shaxslar tazyiqidan himoya qilish qobiliyatiga egadir. Ular shikoyatlarni ko'rishda har qanday manfaat, idora manfaatlaridan holi ravishda faoliyat ko'rsatadi. Boshqa davlat organlari (bo'ysunish asosida) ish ko'rganda, ba'zan idora manfaati ta'siridan chetga chiqib keta olmasligi mumkin. Sud organlarida esa bunday ta'sir bo'lmaydi, chunki ular mustaqildir. Shuning uchun bo'ysunish tartibiga asosiangan davlat organlarida shikoyatlarning adolatli hal qilinish imkoniyati ko'proq bo'ladi.

Qonun faqat O'zbekiston fuqarolarini sudga shikoyat qilish huquqinigina emas, balki chet el fuqarolarining hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ham sud organlariga o'z huquqlari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishlari murojaat qilish huquqini belgilagan. Xalqaro shartnomalar yoki bitimlar bilan boshqacha hol, tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, chet el fucarolari ham O'zbekiston fuqarolari kabi sudga murojaat qilishlari mumkin. Demak, shikoyatni sudda ko'rishni rad etish uchun chet el fuqarosi bo'lish yoki fuqarolikka ega bo'lmashlik asos bo'la o'maydi. Chunki ular ham respublikamiz ijtimoiy hayotida bevosita ishtirok etadilar. Shunday ekan, ularning huquq va erkinliklari ham himoya qilinishi zarur. Bu esa insonparvarlik g'oyasining amaliy ifodasicidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, manfaatlarini sud yo'lli bilan himoya qilish chorasi yanada kengaytirish masalasi ko'tarildi. Xususan, fuqarolarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish sohasini imkon qadar kengaytirish darkor. Vahclanki, ayrim tarmoq qonunlarida huquqlari poymol etilgan fuqarolarning shikoyatlarini sudlov yo'lli bilan emas, ma'muriy yo'l bilan ko'riq chiqish tartibi ham uchraydi.

Albatta, bu hol Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga va Konstitutsiyamiz talablariga ziddir. Fuqaro, agar uning qonuniy manfaatlari va haq-huquqlari poymol etilgan taqdirda, har qanday masala bo'yicha himoya uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lmog'i darkor.

Fuqarolarning sudga shikoyat berishiga yoki shikoyatni vujudga keltiruvchi sabablar davlat organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar, jamoat birlashmalari, o'zini o'zi boshqarish organlari hamda mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari hisoblanadi. Bunday xatti-harakat (qaror) mansabdor shaxslar tomonidan o'zboshimchalik bilan yoki kollegial ravishda sodir etilishi mumkin.

Sudga shikoyat qilishda xatti-harakat yakka tartibda sodir etilganmi, kollegial ravishdami, buning farqi yo'q.

Lekin bir narsaga e'tibor berish kerak, faqat vakillik organlari, jumladan, mahalliy xalq deputatlari kengashlarining qarorlari ustidan shikoyat qilinmaydi. O'zbekiston Respublikasining

«Mahalliy davlat hokimiysi to'g'risida»gi 1993 yil 2 sentabr qonunining 28-moddasiga ko'ra faqat hokim qabul qilgan qaror va boshqa hujjatlar ustidan fuqarolarning sudga shikoyat qilish huquqi belgilangan. Vakillik hokimiysi organlari hujjatlarining qonuniyligini tekshirish, qonunsiz hujjatlarni bekor qilish huquqi esa konstitutsiyaviy sudga taalluqlidir.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar yoki mansabdor shaxs-larning xatti-harakati, qarori tufayli qanday oqibat vujudga kelganda sudga shikoyat qilish sabablarini uch guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin:

*Birinchisi* — xatti-harakat (qaror) natijasida fuqaroning huquqlari va erkinliklari buzilgan bo'lsa yoki shikoyat qiluvchi shaxs shunday deb hisoblasa. Masalan, shaxsni ma'muriyat o'z tashabbusi bilan mehnat qonunlari qoidalaridagi tartibga rioya qilmasdan ishdan bo'shatsa yoki hamma asoslar bo'lgan holda shaxsning talabi qondirilmasa va boshqalar shikoyatga asos bo'ladi. Bu harakatlar barcha qonun talablariga javob bo'ladigan tartibda amalga oshirilgan vaqtarda ham shaxs sudga shikoyat qilishi hollari ham uchraydi, biroq, bu shaxsning qonun talablarini bilmasligi natijasi bo'lib, bunday shikoyatlar asossiz hisoblanadi. Lekin ular ham sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilib olinishi va shikoyatga asosli javob berilishi kerak.

*Ikkinchisi* — fuqaroning o'z huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga xatti-harakat (qaror) to'sqinlik qilsa, bu ham shikoyat qilish uchun sabab hisoblanadi. Masalan, saylov vaqtida fuqaro asossiz ravishda saylovchilar ro'yxatiga kiritilmasa (bu uning saylov nuquqini amalga oshirishga monelikdir), so'z, matbuot, fikrlash erkinligi buziisa, bular sudga shikoyat qilishga asos bo'ladi.

*Uchinchisi* — fuqaro zimmasiga qonunda belgilangan tartiblardan tashqari va qonunga zid majburiyatlar yuklansa. Masalan, Konstitutsiyoning 37-moddasida qonunda ko'rsatilgan hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi, degan qoida bor. Ana shunga zid ravishda shaxsga mehnat qilish majburiyati yuklansa, yoki mehnat qonunlariga xilof ravishda voyaga yetmaganlar, ayollar taqiqlangan ishlarga jalb qilinsa, qonunda belgilanmagan to'lovlar to'lashga majbur qilinsa, bunday xatti-harakatlar (qarorlar) sudga

shikoyat qilish uchun asos hisoblanadi. Yuqorida ko'rsatilgan uch turdag'i sudga shikoyat qilishga loyiq xatti-harakatlar (qarorlar) fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Fuqarolar o'z shikoyatlari bilan murojaat qilishlari mumkin bo'lgan obyektlarning (shikoyatlarni hal qiluvchi organ, tashkilotlarning) ikki turini ko'rsatish mumkin.

*Birinchidan*, har qanday huquq va erkinlik buzilishiga sabab bo'lgan xatti-harakatlar ustidan bevosita odil sudlov organlariga shikoyat bilan murojaat qilish mumkin.

*Ikkinchidan* bo'y sunish tartibiga rioya qilgan holda yuqori turuvchi organ, tashkilot yoki mansabdor shaxslarga shikoyat bilan murojaat qilish mumkin.

Mazkur qoida fuqarolarga shikoyat bilan murojaat qilishning muqobil imkoniyatini tug'diradi. Ya'ni, bevosita shikoyat bilan ular sudga murojaat qiladilarmi yoki bo'y sunish tartibi asosida turli davlat organlari, mansabdor shaxslarga murojaat qiladilarmi - bu fuqaroning ixtiyoriga havola, kimga bevosita murojaat qilishni fuqaroning o'zi taniaydi. Shikoyatlarni avval bo'y sunish tartibida yuqori organlarda ko'rib chiqilmaganligi, sudiarga shikoyatni ko'rib chiqishni rad etishga asos bo'lmaydi.

«Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi qonunga asosan, shikoyatlar bir oy ichida ko'rib chiqib hal qilinishi kerak. Uzrli sabablar bilan shikoyatni ko'rish muddati cho'zilishi bundan mustasno. Shikoyat berilgan idoralar, karkonalari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar shikoyatni qanoatlantirishni rad etgan bo'lsa, bu qarorga shikoyat qiluvchi shaxs rozi bo'limasa yoki shikoyat qiluvchi shaxs bir oy muddat ichida shikoyati yuzasida javob olmagan bo'lsa (shikoyatning canoatlantirilgani, rad etilgani yoki ko'rish muddati uzaytirilganligi haqida), bunday holda ham shikoyat bilan sudga murojaat qilishga haqli. Endi bu shikoyat yoki avvalgi holida berilishi yoki unga tegishli idora, mansabdor shaxs shikoyatni qanoatlantirimaganligi yoki vaqtida ko'rmaganligi haqidagi masalalar qo'shilishi mumkin. Bunday shikoyatlarda fuqarolar o'zlarining huquq, erkinlik va manfaatlarning ikki marta buzilganligi haqida shikoyat qiladilar: birinchiisi - ushbu shikoyatni

keltirib chiqargan xatti-harakat (qaror); ikkinchisi - shikovatni qanoatlantirmaganligi yoki muddatida ko'rilmaganligi haqida norozilik.

Sudga faqatgina huquq va erkinliklari buzilgan fuqarolar shaxsan shikoyat bilan murojaat qilmay, balki ular o'miga bunday shaxslarning vakillari ham murojaat qilishlari mumkin.

Qonun fuqaroning qaysi sudga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkinligi masalasida ham muqobillik, ya'ni fuqarolarga tanlov huquqini beradi. Unga asosan fuqaro o'z shikoyati bilan yo o'zi yeshab turgan joydagi sudga yoki xatti-harakati (qarori) ustidan shikoyat qilinayotgan idora, tashkilot, mansabdar shaxs joylashgan sudga murojaat qilishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar ham o'z huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish huquqiga ega. Ularning huquq va erkinliklari harbiy organlar, harbiy boshliqlar tomonidan buzilsa, ularning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan harbiy sudlarga shikoyat bilan murojaat qilishlari mumkin. Harbiy xizmatchilarning yuqori turuvchi mansabdar shaxslariga murojaati, «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi qonunda nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi.

Fuqarolarning yczma murojaatlarida albatta ko'rsatilishi shart bo'lgan ma'lumotlar tuyidagilardan iborat: 1) familiyasi, ismi, otasining ismi; 2) yashash joyi to'g'risida ma'lumot, ya'ni murojaat qiluvchining manzili (viloyat, tuman, shahar, ko'cha, mayzo, uy, xonalar nomi va raçamlari aniq ko'rsatilishi kerak); 3) taklif, ariza va shikoyatning aniq mohiyati bayon qilinishi kerak.

Qonunda ko'rsatilmasa ham murojaatlarning o'z vaqtida ko'rsilishi uchun murojaat ciluvchi shaxs haqiqatan shu kishi ekanligini aniqlashda muhim rol o'ynovchi ayrim qaydlar borki, ularning murojaatlarda albatta bo'lishi maqsadga muvofiqidir (masalan, murojaat berilgan muddatning ko'rsatilishi, murojaat ciluvchining shaxsiy imzosi bo'lishi va hokazo).

Murojaatda shaxsnинг familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joyi haqida aniq ma'lumot bo'lmasa, bunday murojaat anonim hisoblanib, uni qarab chiqmaslik uchun asos bo'ladi. Sobiq ittifoq davrida anonim murojaatlar ham ko'rib chiqilgan. Uni tekshirish

uchun ko'plab davlat idoralari, mas'ul xodimlar, asosiy ishdan chayg'io, murojaatni (aksariyat hollarda buncay muroja'dar asossiz bo'lib, o'ch olish maqsadida, ko'pincha halcl kishilarga tuhmat qilishni nazarda tutgan) tekshirish bilan band bo'lgan. Buning uchun katta mablag'lar sarflanib, asabbuzarliklarga olib kelgan. Shu bois ham bugungi kunda bunday anonim murojaatlar ko'rib chiqilmaydi.

Murojaatlar ularda qo'yilgan masalalarning hal qilish vakoliatiga qarab idoralarga, korxona, tashkilot, muassasalarga, mansabdor shaxslarga va turli vakillik organlariga beriladi. Bunda qaysi idora yoki tashkilot qanday vakolatga egaligini bilish muhimdir. Buning uchun murojaat qiluvchi huquciy masihat olib, keyin murojaat qilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Natijada zaruratsiz bosqqa organlarga murojaat qilishning oldi olinadi va murojaat qiluvchining vaqt tejaladi, u o'z talabiga tez va qoniqarli javob topadi. Murojaatlarning ularda ko'tarilgan masala vakolatiga kirmaydigan idoralarga tushishi, murojaatning hal bo'llishini kechiktiradi va davlat organlari faoliyatiga zarar yetkazadi.

Fuqarolarning o'z murojaatlarini xalq vakillari - deputatlarga yo'llash huquqi mavjud. Shu bilan birga, deputat fuqarolarning murojaatlarini hal qilish uchun tegishli idoralarga yuborgan bo'lsa, ularda murojaatlarni ko'rib hal qilish ahvolini nazorat qilish yoki murojaatlar ko'filayotgan paytda shaxsan ishtiroy etish huquqiga ega.

Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib hal qilishda deputatlarining ishtiroyi ular murojaatlarining to'g'ri hal qilinishi uchun qo'shima-cha kafolatdir.

Fuqarolarning murojaatlari ularda qo'yilgan masalalarni hal qilish vakolatiga ega bo'lmagan idoralarga, jamoat birlashmalariga yoki korxona, tashkilot, muassasa hamda mansabdor shaxslarga yuborilgan so'rsa, bu masala ~~edilg'iz~~ vakolatiniya kirmaydi, degan sabab bilan, murojaat olluvchiga aslo qaytarilmayligi kerak. Qonun bunday hollarda murojaatni qabul qilgan tashkilot uni vakolatli organ va mansabdor shaxslarga yuborishi zarurligini belgilaydi. Murojaat vakolatli organ yoki mansabdor shaxslarga 5 kun muddat ichida yasorlishi va u qaysi organga jo'natilganligi

haqidagi aniq ma'lumot murojaat qiluvchiga albatta yetkakzilishi kerak.

Qonun talablariga rioya qilib berilgan murojaatlar undagi talabni qondirish imkoniyati bor-yo'qligidan qat'i nazar, albatta ko'rib chiqilishi shart. Talabni bajarish imkoniyati yo'q deb, murojaatlarni ko'rmay qaytarish, shuningdek, murojaatlarни tutli sabablar bilan qabul qilishni rad etish mumkin emas.

Fuqarolarning murojaatlarida ularni tegishli organlar yoki mansabdor shaxslarga jo'natish uchun zarur ma'lumotlar aks ettirilmagan bo'lsa, besh kun muddat ichida batafsil va aniq tushuntirishlar bilan u murojaat qiluvchiga qaytariladi. Bu murojaatni ko'rishdan voz kechish emas, uni tegishli organ (tashkilot)larda to'g'ri va tez hal qilishga qaratilgan tadbirdir.

Fuqarolarning murojaat qilish huquqi Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilishining c'ziyoq c'z-o'zidan bu huquqning amalga oshishini to'la ta'minlaydi, degan xulosani keltirib chiqarmasligi kerak. Fuqarolarning murojaat qilish huquqining to'la amalga oshishi uchun qo'shimcha tadbirlar ham belgilangan bo'lib, bunga qonunning shu nomdag'i moddasi misol bo'la oladi. Ya'ni fuqarolarning murojaatlari tegishli idora va tashkilotlarda belgilangan tartibda va muddatda ko'rib hal qilinishi kerak, ular murojaat qilganliklari, undagi tala'o va istaklari, huquq-tartibot, davlat organlaridagi tartibbuzarliklardan xabar bergenliklari uchun o'zлari va oila a'zolari ta'qibga uchramasligi kerak. Agar shunday hej yuz bersa, bunga fuqarolarning huquqlarini qo'poi ravishda buzish deb qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida (144-m.) bunday harakat uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Unga asosan «Fuqaroni davlat organiga, kerxona, muassasa, tashkilot yoki jamoat birlashmasiga murojaat qilganligi yoki murojaatda bayon etilgan tanqid, shuningdek boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun mansabdor shaxs tomonidan ta'qib qilish - eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Fuqaro tegishli idora va mansabdor shaxslarga murojaat qilar ekan, undan

murojaatini himoyalash uchun ma'lum xatti-harakatni qilish talab etilmaydi. Bu vazifa, ya'ni murojaatni hal qilish davlat idoralari va tashkilotlarining vazifasidir.

Sud fuqarolarning shikoyatlarini qabul qilib olgach, shikoyatni ko'rib hal qilish davomida quyidagi ayrim harakatlarni amalga oshiradi:

*Birinchidan*, tegishli organlar va mansabdor shaxslardan shikoyatni xolisona va qonuniy hal qilish uchun zarur bo'lgan turli ma'lumotlarni (hujjatlar, ma'lumotnomalar) talao qilib olaci. Sud shikoyatlarni qonuniy hal qilishga nafi tegadigan har qanday materiallarni talab qilishga haqli va bu talab qondirilishi shart.

*Ikkinchidan*, shikoyat qiluvchilarining iltimosi yoki o'z tashabbuslari bilan shikoyat qilinishiga sabab bo'lgan xatti-harakat (qarorlar) ijrosini amalga oshirishni vaqtincha, ya'ni ish sudda ko'rilib, tegishli qaror qabul qilinguncha to'xtatiq turish masalasini hal qiladi. Masalani hal qiladi, degani, xatti-harakat (qaror) to'xtatib turadi, degani emas. Bu sudning huquqi; lozim topsa to'xtatib turadi, lozim topmasa to'xtatmaydi. Bunda masala har bir shikoyatga alohida yondashuv orqali hal qilinadi. Lekin sudda shikoyat ko'rilib hal qilingunicha, xatti-harakat (qaror) to'xtatib turilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fuqarolar murojaatlarining ma'lum qismini takliflar tashkil etadi. Takliflar fuqarolar murojaatlarining alohida va mustaqil turi bo'lib, u o'z mohiyati, mazmuni va maqsadi bo'yicha murojaatning boshqa turlaridan farq qiladi.

Taklif fuqarolarning asosan ijtimoiy xususiyatga ega murojaatlari bo'lib, unda *birinchidan*, qonunchilikni, huquq-tartibini u yoki bu davlat organlari, korxona, tashkilot, muassasa, jamoat birlashmalarining faoliyatini, tarkibiy tuzilishini takomillashtirish zarurligi haqida mulohazalar bayon qilinsa, *ikkinchidan*, bu borada aniq taklif va tavsiyalar beriladi.

Taklifning asosiy maqsadi qonunchilik, davlat idoralari, jamoat birlashmalarining faoliyatini yaxshilash orqali fuqarolar o'z manfaatlarini himoya qiladilar hamda huquq va erkinliklarining to'laroq amalga oshishiga erishadilar. Demak, taklif ijtimoiy, umumiylar xarakterga ega murojaat bo'lsa-da, ulardagi tavsiyalar,

mulohazalarning amalga oshishi, har bir shaxsnинг manfaatlarini, huquq va erkinliklarini to'la ta'minlashga, huquq buzilishining oldini olishga, buzilgan huquqlarning qayta tiklanishiga imkoniyat yaratadi. Takliflarda mamlakat aholisiga taalluqli ayrim ijtimoiy-iqtisodiy kamchiliklarni bartaraf etish, mamlakat rivojlanishiga faol ta'sir qilish maqsadi aks etadi va bundan fuqarolar ham, davlat ham manfaatdordir.

Takliflarni o'rganish, umumlashtirish natijasida davlat idoralar, jamoat birlashmalari va korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatidagi ayrim kamchiliklar bilan birga ularni keltirib chiqaruvchi sabablar ham aniqlanadi.

Tegishli idoralarning fuqarolarning takliflariga e'tibor bilan qarashi, undagi tavsiyalardan foydalanishi davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxona, tashkilot va muassasalarning faoliyatini yaxshilashga, qonunchilikni takomillashtirishga, huquq-tartibotni mustahkamlashga va pirovard natijada xalqning turmush sharoitini yaxshilashga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolar oldida davlatning obro'si oshishiga, davlat bilan fuqaro o'rtaida yaxshi munosabat o'matilishiga, ishonchning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxona, tashkilot va muassasalarning vazifasi, burchi - har qanday takliflarni sinchiklab, har tomonlama ko'rib chiqishdir. Agar taklifda fuqaro taklif natijasini ma'lum qilishni iltimos qilgan bo'lsa, albatta natija murojaat qiluvchiga xabar qilinishi kerak. Har qanday taklifdagи tavsiyalarni albatta shu vaqtida hayotga tatbiq qilish imkon bo'lavermaydi, ana shunday holda ham taklif kirituvchiga nima uchun taklifni qo'llash imkoniyati bo'limganligi haqida batafsil ma'lumot berish fuqarolar, shaxsga nisbatan e'tibor beigisidir.

Fuqarolik jamiyatini qurish maqsad qilib qo'yilgan respublikamizda fuqarolarning takliflari alohida ahamiyatga ega, chunki bu vosita orqali fuqarolar davlat va jamiyat ishlarida keng va bevosita ishtirot etadilar, boshqaruva faoliyatiga samarali ta'sir ko'rsatadilar.

Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib hal qilishning aniq muddatlari qonun bilan belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki busiz murojaatlarni hal qilish muddati cho'zilib ketishi, fuqarolar o'z iltimos va talablariga zarur paytda javob ololmasligi, huquq

buzilish hollarida esa huquqlarning tiklanishini kechiktirib yuborishi mumkin.

Talab va iltimosiar, takliflar, zudlik bilan hal qilinmasa, o'z ahamiyatini yo'qotadi. Ba'zi iltimos, talab va takliflar uzoq muddatlarda hal qilinishidan murojaat qiluvchilar manfaatdor bo'lmay qo'ladilar. Shuning uchun qonunda murojaatlarni ko'rishning fuqarolar manfaatiga zid kelmaydigan va har qanday murojaatni davlat organlarida atroficha hal qilish imkoniyatini yaratuvchi muddat belgilangan.

Muddat belgilashda murojaat turlarini ham e'tiborga olish kerak. Fuqarolarning har qanday takliflari bir oy ichida hal etilib, natija taklif kiritgan shaxsga ma'lum qilinishi kerak. Agar takliflarni hal qilish uchun co'shimcha hujjatlar talab qilinsa va ularni o'rganish zarurati tug'ilsa, unda taklifni ko'rib chiqish muddati vakolatli shaxs tomonidan uzaytirilishi murakkin. Bu haqda murojaat qiluvchi shaxs albatta xabardor qilinishi lozim.

Ariza va shikoyatlar tegishli idora va tashkilotlarga tushgan vaqtdan boshlab asosan 15 kun ichida hal qiliynadi, ular qo'shimcha o'rganish va tekshirishni talab qilsa, u holda bunday ariza va shikoyatlar tushgan vaqtdan boshlab bir oy ichida hal qilinadi. Ariza va shikoyatlarni hal qilishni 15 kunlik muddatdan bir oylik muddatga o'tib hal qilinishini vakolatli shaxs yoki organ belgilaydi. Bu holda murojaat qiluvchi shaxsni xabardor qilish shart emas.

Agar ariza va shikoyatlardagi masalalar murakkab bo'lsa, uni hal qilish uchun maxsus tekshiruvlar o'tkazish, unga mutaxassis-larni jalb qilish, turli joylardan qo'shimcha hujjatlar, ma'lumotlar olish zarurati, hal qilish uchun bir necha organ, tashkilotlarning ishtiroki kerak bo'lsa, vakolatli shaxs ariza va shikoyatni ko'rib hal qilish muddatini istisno tariqasida uzaytirishi mumkin. Bunday vaqtda ham, shunday qaror haqida ariza yoki shikoyat bergen shaxs xabardor qilinishi, sabablari ko'rsatilishi kerak. Uzaytirilgan muddat bir oydan oshmasligi kerak. Shunday holda ariza va shikoyatni ko'rib hal qilishning umumiy muddati ikki oydan oshmaydi.

Har qanday murojaatni hal qilish muddati uning kelib tushgan kunidan hisobga olinadi, shuning uchun murojaatlar

tushgan vaqt ni o'z vaqtida va aniq qayd etish katta ahamiyatga ega. Bunda davlat idora va tashkilotlarda murojaatlarni qabul qiluvchi xodimlarning mas'uliyati muhim rol o'ynaydi. Rahbarlar murojaatlarni hal qilish bilan birga ularni tezlikda, aniq qayd etilishini ham nazorat qilishlari kerak. Murojaat qiluvchi shaxs murojaatning bir nusxasiga mas'ul xodimning uni olgan vaqtini ko'rsatib imzo chektirib olishi murojaatlarning o'z vaqtida qayd etilishini ta'minlovchi vosita bo'lishi mumkin. Bundan tashqari pochta qaydlari, hujjatlari ham murojaatlarning o'z vaqtida qayd etilishida muhim rol o'ynaydi.

Ko'rinish turibdiki, taklif, ariza va shikoyatlarni ko'rish muddatida farq bor. Shuning uchun ular alohida-alohida qayd etilishi, ularda taklif, ariza va shikoyatning farqi aniq bilinib turishi kerak. Shunda ularni ko'rish muddati buzilmaydi va murojaatlar umumiy tahlil qilinayotganda aniq ma'lumot mavjud bo'ladi.

Tur'i idora va muassasalarda murojaatlar bilan ishslashning ma'lum tartiblari, jarayonlari o'rnatilgan. Ular ichki tartib-qoidalarni belgilovchi hujjatlarda o'z aksini topgan. Aynicrsa, turli idoralarda murojaatlar bilan ishslash sohasiga kompyuterlar va boshqa texnika vositalaridan samarali foydalanish fuqarolar murojaatiari bilan ishslashni yaxshi yo'lga qo'yishga olib ke'moqda.

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlarida ba'zi organlarda murojaatlarni alohida ko'rib hal qilishning boshqacha muddatlari ham belgilangan. C'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi qonunning 32-moddasida («Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonunning 31-moddasida) saylovchilar ro'yxatidagi xato yoki noaniqliklar to'g'risida uchastka saylov komissiyasiga arz qilinganda, bu komissiya arizani 24 soat ichida ko'rib chiqib, ariza bayonini qondirishi yoki rad etishi belgilangan.

«O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to'g'risida»gi sonunning 40-moddasida fuqarolik masalalariga oid arizalarni yoki taqdimnomalarini ko'rib chiqish muddati bir yi'dan esmasligi kerakligi belgilangan. Surishtiruv, tergov organlarida ham murojaatlarni ko'rish muddatiari boshqacha belgilangan.

«Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xattiharakatlar va qaroflar ustidan suziga shikoyat qilish to'g'risida»gi

qonunda ham sudlarda murojaatlarni ko'rishning alohida muddatlar belgilangan. Unga ko'ra fuqarolar yoki ularning vakillari o'z huquq va erkinliklari buzilganligidan xabar topgan kundan boshlab, uch oy ichida sudga shikoyat qilishlari mumkin.

Fuqaro sudga murajaat qilishdan avval tegishli idora va mansabdar shaxslarga shikoyat bilan murojaat qilgan bo'lsa-yu, ulardan o'z shikoyatini qondirishga rad javob olgan bo'lsa, yozma bildirish olgan kundan boshlab bir oy ichida sudga shikoyat qilish huquqiga ega. Bunda yozma xabar haqidagi ma'lumot aniq bo'lishi kerak.

Fuqaro o'z shikoyatiga yozma javob o'magan bo'lsa, tegishli organlarga shikoyat bergandan keyin bir oy o'tgan kundan boshlab, bir oy muddatda sudga shikoyat berishi mumkin.

Har qanday hollar uchun belgilangan muddatlar o'tkazib yuborilganda, sud uzrli deb topsa, muddatlarni tiklashi mumkin. Qanday holatlarni uzri deb topish sud tomonidan hal qilinadi.

**Ariza** - fuqarolarning ularga qonun va boshqa huquqiy hujjatlar bilan berilgan huquq va erkinliklarini amalga oshirilishini iltimos, taiao qiluvchi murojaatdir. Arizalar orqali fuqarolar qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga intiladilar.

Ma'lumki, fuqarolarning qonuniarda belgilangan ayrim huquq va erkinliklari, manfaatlari hech qanday murojaatsiz, fuqaroning tug'ilishi bilan yoki ma'lum yosha yetgaridan so'ng avtomatik tarzda ro'yobga chiqadi, amaiga oshadi. Masalan, shaxsiy huquqlari - yashash huquqi, daxsizlik huquqi, saylov huquqi va boshqalar. Shunday huquqlar ham borki, ularni amalga oshirish uchun qo'shimcha tegishli idoralarga murojaat qilish zarur. Masalan, ishga kirish, ishdan bo'shash, oliv c'quv yurtiga o'qishga kirish va boshqalar. Ana shunday subyektiv huquqlarni ro'yobga chiqarish uchun ariza tafab qilinadi.

Fuqarolar Konstitutsiyaga asosan mehnat qilish huquqiga ega bo'lsa-da, uni amalga oshirish uchun albatta ariza bilan tegishli organ, tashkilot, korxona, muassasaga murojaat qilishlari shart.

Xuddi shuningdek, pensiya olish huquqiga xam fuqarolar shu huquqdan foydalanish uchun ariza bilan murojaat qilishlari kerak.

Ba'zi arizalarda u yoki bu organ, tashkilot, korxona va muassasalarda, jamoat birlashmalarida, ma'lum kamchilik, qonun

buzilishlari haqida xabarlar ham bo'lishi mumkin. Bunda arizaning taklifdan farqi shundaki, arizada qo'yilayotgan masalan hal qilish yo'llari ko'rsatilmaydi, taklif-tavsiyalar bayon qilinmaydi.

Davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxona, tashkilot va muassasalarga tushadigan arizalarning xususiyatiga qarab ularni tegishli guruhiarga bo'lish mumkin. Bular, ariza — talablar, ariza — iltimoslar, ariza - xabarlardir.

**Ariza-talablarda** murojaat qiluvchi o'z huquqini talab qiladi, chunki tegishli davlat idoralari, korxona, muassasa, tashkilotlar shu huquqni amalga oshirishga majbur. Masalan, har bir fuqaro ma'lum yoshga yetgach nafaqa olish huquqiga ega, shu yoshga yetgach, nafaqani rasmiy lashtirishni tegishli idoralardan talab qiladi.

**Ariza-iltimoslar** orqali ham fuqarolar o'z huquqlarini amalga oshirishni so'raydilar, lekin bunday so'rash iltimos shaklida bo'ladi, chunki so'rovlarni qondirish idoralarning huquqi, ular bunda o'z imkoniyati, kelishilgan shartlar nuqtai nazaridan kelib chiqib murojaatni qondirishi yoki rad etishi mumkin. Masalan, fuqaro mehnat qilish huquqiga ega, shu tufayli biror muassasaga ishga qabul qilish haqida murojaat qiladi. Agar xodimning malakasi, ixtisosi to'g'ri kelsa va shunday xizmat joyi bo'lsa, u ishga qabul qilinishi, ya'ni iltimosi qondirilishi mumkin. Agar fuqaro muassasa talablariga javob bermasa yoki xizmat joyi yo'q bo'lsa, uning murojaati rad etilishi mumkin.

**Ariza-xabarlarda** - fuqarolar ba'zi qonunga zid xatti-harakatlar, kamchiliklar haqida murojaat qiladilar. Masalan, korxona, tashkilotlardagi talon-torojlik yoki ayrim fuqarolarning qonun bilan taqiqlangan harakatlarni sodir etayotganligi, noqonuniy daromad asosida yashayotganligi va boshqalar. Arizalar qanday guruhga kirmasin, u qanday hal qilinishidan qat'i nazar, ko'rib chiqilib, natijasi murojaat qiluvchiga bildirilishi shart.

Fuqarolar huquqlarini ro'yobga chiqarishni rad etish, asossiz ravishda huquqlarining amalga oshishiga to'sqinlik qilish, ayniqsa arizalar belgilangan muddatlarda vakolat doirasida vijdonan ko'rib hal qilinmasa, bu haqda arizachiga o'z vaqtida asosli javob berilmasa, pirovard natijada murojaatning boshqa turi, ya'ni shikoyatni keltirib chiqaradi.

Shuning uchun qonunning mazkur moddasida shikoyatlarni hal qiluvchilarining aniç majburiyatlari belgilangan.

Arizalarni ko'rib hal qilish vakolatiga kiruvchi subyektlar har qanday arizani har tomonlama, atroflicha, xolislik bilan va eng muhimmi, o'z vaqtida ko'rib chiqishi kerak. Arizani ko'rib chiquvchilar zarur bo'lsa, maxsus komissiyalar tuzishi, ishga mutaxassislarни jalg qilishi, yashash joylaridan zarur ma'lumot va hujjatlarni so'rab olishlari kerak. Arizani hal qilishga vijdonan yondashish, shaxsiy manfaatni aralashtirmaslik zarur. Arizalar tezlikda, qonunda belgilangan muddatlarda hal qilinishi muhimdir. Aks holda, uning ahamiyati bo'lmaydi. Chunki fuqaro o'z subyektiv huquqining imkoni boricha tezlik bilan hal qilinishidan manfaatdor. Masalan, fuqaro tegishli idoraga moddiy yordam so'rab murojaat qilsa, u shunday yordamga aynan shu vaqtida muhtoj bo'lishi, kechiktirib berilgan yordam uning muammosini hal qilmasligi mumkin.

Arizani ko'rib hal qilishda faqat qonunchilik hujjatlariga amal qilinishi zarur, ariza bo'yicha qabul qilinadigan har qanday qaror qonuniy bo'lishi kerak. Arizalarni ko'rib hal qilish va ular yuzasidan to'g'ri qaror qabul qilish bilan masala tugamaydi. Bu masalaning bir tomoni, uning ikkinchi tomoni qabul qilingan qaror ijrosini ta'minlashdir. Qaror ijrosi to'liq bajarilmaguncha, u nazoratda turishi kerak.

Fuqarolar arizalari bilan ishlashning eng muhim shartlaridan biri - ariza mazmuni qanday hal bo'lishidan qat'i nazar, natijasini asoslangan tarzda, yozma ravishda arizachiga ma'lum qilishdir. Ayniqsa ariza rad etilsa, uning sababi tushunarli va asosli bo'lishi zarur. Fuqaro olingan javobdan qoniqish hosil qilishi kerak. Aks holda, ariza yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan fuqarolar qonunda nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Yuqori turuvchi davlat organining, jamoat birlashmasining, mansabdor shaxsning qarori ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Fuqaro shikoyatini shaxsan berishga yoki bu ishga boshqa shaxsni vakil qilishga haqlidir. Voyaga yetmaganlar va muomalaga layoqatsiz shaxslarning manfaatlarini ko'zlab ularning qonuniy vakillari shikoyat bilan murojaat qiladilar.

Shikoyatga fuqaroning murojaati bo'yicha avval qabul qilingan qaror yoki uning ko'chirmasi, shuningdek shikoyatni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjalarni ilova qilinadi.

Fuqarolarning shikoyatlarini xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat qilinayotgan organlar yoki mansabdon shaxslarning o'ziga jo'natish taqiqlanadi.

*Shikoyat* - fuqarolarning subyektiv huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni himoya qilish maqsadida beriladigan murojaat turidir. Qonunga asosan, shikoyatda subyektiv huquqlarning buzilishi va uni tiklash haqidagi ma'lumotdan tashqari davlat organi, korxona, tashkilot, muassasalar, jamoat birlashmalari, mansabdon shaxs yoki alohi'da fuqaroning xatti-harakatlari tanqid ham qilinadi. Shuning uchun shikoyatga bir tomonidan, subyektiv huquq va qonuniy manfaatlarni tiklash vositasi, ikkinchi tomonidan, davlat organiari, jamoat birlashmalari, korxona, tashkilot, mansabdon shaxsiar, fuqarolar faoliyatidagi ayrim nuqsonlarni, huquq-tartibot sohasidagi kamchiliklarning tanqid qilinishi deb qaralishi kerak.

Shikoyat faqat tegishli idora, mansabdon shaxs. fuqarolarning noconuniy xatti-harakatlari natijasidagina kelib chiqmaydi. Cdatda, shikoyatlarning aksariyatini fuqarolarning qonunchilik va boshqa hujjalarni bumasligi natijasida c'z huquq va manfaatlarni buzildi, deb hisobilashi ham keitirib chiqarishi mumkin. Bunday shikoyatlar asossiz shikoyat hisoblanadi.

Shikoyatlarni qaysi organ va idoralarga berilishi aniq ko'rsatilgan va boshqa turdag'i murojaatlardan farqi bo'lishi lozim.

Davlat organlarining, jamoat birlashmalarining, korxona, tashkilot, muassasalarning, mansabdon shaxslarning qarori yoki xatti-harakati ustidan shikoyatlar tegishli tuzilmalar bo'ysunadigan yuqori tashkilotlarga beriladi. Masalan, tuman ichki ishlari bo'limi faoliyati ustidan viloyat ichki ishlari boshqarmasiga, tuman hokimi faoliyati ustidan viloyat hokimiyatiga va hokazo. Shikoyat qilishda pog'onalarga e'tibor berish, unga amal qilish juda muhim.

Shikoyat beruvchi organ bo'ysunadigan idora bo'la turib, shikoyatni birdaniga yuqori, ya'ni markaziy organlarga berilishi to'g'ri emas. Bu markaziy organlarni asosiy vazifalaridan chalg'i-

tishi, pirovard natijada, davlat organlari faoliyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Agar shikoyat tegishli bo'g'inda qonuniy hal qilinmasa, u holda yanada yuqoriroq tashkilotga shikoyat qilishga to'g'ri keladi.

Qonunga asosan davlat organlarining, jamoat birlashmalari, korxona, tashkilot, muassasa, mansabdar shaxslarning qaror va xatti-harakatlari ustidan, bo'ysunishdan qat'i nazar, sud organlariga shikoyat qilish mumkin. Sud organlariga shikoyat qilish va uni ko'rish tartibi esa qonun bilan tartibga solinadi.

Ariza va takliflar uchun murojaat qilish muddati belgilanmagan bo'lsa, shikoyat tegishli idora va tashkilotlarning xatti-harakat sodir etgan yoki caror qabul qilgan vaqtidan boshlab bir yil ichida berilishi mumkin. Mazkur muddatning o'tib ketishi shikoyat qilish huquqini cheklaydi. Faqat muddat uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilsa (kasallik, uzoq muddat xizmat safarida bo'lish va boshqalar) shikoyatni ko'ruchchi organ bu muddatni tiklaydi. Qanday sabablar uzrli hisoblanishi tegishli organlar tomonidan aniqlanishi mumkin.

Shikoyatlar fuqarolar tomonidan shaxsan yoki ularning manfaatini himoya qiluvchilar, advokatlar, homiylar tomonidan berilishi ham mumkin. Bu qoida shikoyatlarning malakali bo'lishini, voyaga yetmaganlar, qariyalar, nogironlar va boshqalarning huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi. Mazkur qoida muomalaga layoqatsizlar manfaatini ko'zlaydi.

Shikoyatni tezlik bilan tekshirish, u haqida dastlabki va aniq ma'lumotga ega bo'lish nuqtai nazaridan, shikoyat berish vaqtida u bilan birga ba'zi hujjatlarni qo'shib taqdim qilish zarurligi ham qonunda belgilangan. Shikoyat bilan birga avval qabul qilingan qaror yoki uning ko'chirmasi va shikoyat «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonunga binoan ko'rilishini osonlashtiruvchi boshqa hujjatiar albatta taqdim qilinishi kerak.

Shikoyatlar bilan ishlashning muhim shartlaridan biri - shikoyatni hal qilish, uni tekshirish uchun faoliyati ustidan shikoyat cilinayotgan idoralar, mansabdar shaxslarga yubormaslikdir. Eu shikoyatlarni xolisona hal qilish imkoriyatini yaratadi.

Bu qoida buzilsa, qayta va takroriy shikoyatlarga sabab bo'ladi, fuqarolar yanada yuqoriq organ va tashkilotlarga murojaat qilishga majbur bo'ladilar.

Takliflarning ko'payishi *birinchidan*, fuqarolarning sivosiy faolligidan dalolat bersa, *ikkinchidan*, ularning qonun-qoidalarni mukammal bilmasligidan, davlat organ (idora)lari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar faoliyatidagi nuqsonlardan dalolat beradi.

Fuqarolar shikoyat qilish huquqidан foydalanib, tegishli idora va tashkilotlarga murojaat qilganlarida, shu huquqning to'la amalga oshishi uchun ma'lum huquqlarga ega bo'ladilar. Bu, o'z navbatida, tegishli idora va mansabdor shaxslarning majburiyatini vujudga keltiradi.

Fuqaro shikoyat qilgach, shikoyatning natijasini kutib o'tirish bilan cheklanmay, uning hal qilinishida, shu munosabat bilan vujudga keladigan jarayonlarda faol ishtirok etadi. Bundan fuqaro ham, tegishli organlar ham manfaatdor bo'ladilar. Shikoyatlarni ko'rib hal qilishda fuqaroning shaxsan ishtirok etishi shikovatni xolis, adolatli hal qilish imkoniyatini yaratadi. Ya'ni, shikoyatni hal qilish jarayonida fuqaro ishtirok etar ekan, u ushbu jarayonni o'ziga xos ravishda nazorat qiladi.

Shikoyat qilgan shaxs, uni tekshirayotgan shaxs bilan shaxsan uchrashishi, ularga shikoyatdagi talablarni oydinlashtiradigan dalil-isbotlarni, hujjatlarni taqdim qilishi mumkin. Uning ma'lumotlari albatta e'tiborga olinishi kerak.

Shikoyat qiluvchi shaxsga tekshiruvga oid hujjatlar, materiallar bilan tanishish uchun imkoniyat yaratiladi. Shikoyat qiluvchi shikoyatga qo'shimcha hujjat va materiallarni tekshiruvchi shaxsga facat o'zi taqdim qilish bilan cheklanmay, undan tegishli joylardan qo'shimcha hujjat va materiallarni so'rab olishni iltimos qilishga ham haqli.

Turli organ va tashkilotlarga shikoyat kiritgan shaxs shikoyat-dagi talablarning to'liq va qonuniy hal qilinishiga erishish uchun malakali huquqshunoslar, ya'ni advokatlar xizmatidan, mutaxassislar yordamidan foydalanishi mumkin.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish natijasi ularning ko'rlishida shikovatchi qanday shakllarda ishtirok etishidan qat'i nazar, albatta

yozma murojaat etuvchiga ma'lum qilinishi kerak. Shikoyatni ko'nb chioish natijalari haqidagi xabarlar asosli, ishonarli bo'lishi, uning o'z vaqtida shikoyat qilgan shaxsga yetib borishi choralarini ko'rilishi kerak. Shikoyatni ko'rish natijasi haqidagi xabar shu talablarga javob bermasa, takroriy shikoyatlarni keltirib chiqaradi.

Shikoyat qiluvchi shaxsning eng muhim huquqlaridan biri shundaki, shikoyatni keltirib chiqargan holatlar tufayli u moddiy zarar ko'rgan bo'lsa, shikoyat qondirilgandan so'ng shu zararni qonunda belgilangan tartibda qoplanishini talab qilishga haqli.

Demak, shikoyat qondirilgach, fuqaro faqat ma'naviy qoni-qish hosil qilish, adolatning tiklanishiga erishish, buzilgan huquqining tiklanishi bilan chekianmay, iqtisodiy manfaatga ham ega bo'ladi.

Fuqarolarning tegishli idoralar, tashkilotlar va mansabdon shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyati tegishli sudlar tomonidan, fuqarolik sudov ishlarini yuritish qoidalariiga asosan ko'riladi.

Fuqarolik sudov ishlarini yuritish tartibi respublika amaldagi Fuqarolik-protsessual kodeksining tegishli moddalari bilan tartibga solinadi.

Fuqaroning har qanday shikoyatini ko'rib chiqishning oxirgi natijasi sud qarori bilan rasmiylashtiriladi. Ya'ni har qanday shikoyat o'yicha u qanoatlantirilishi yoki rad etilishidan qat'i nazar, sud qarori qabul qilinadi.

Sud shikoyatni atroficha o'rganib, qonunchilik hujjalariiga va talab qilin qilingan ma'lumotlarga asossiz, uni asosli deb topsa, ustidan shikoyat berilgan mansabdon shaxs, idora yoki tashkilotning xatti-harakatini (qarorini) qonunsiz deb topadi. Bunda tegishli xatti-harakat (qaror) sodir etgan organ (idora), tashkilot, mansabdon shaxsga, fuqaroning shikoyatidagi talablarni qondirish majburiyatini yuklaydi yoki uning buzilgan huquq va erkinliklarini o'zgacha yo'l bilan tiklaydi.

Sud shikoyatni tekshirib, undagi talablar asossiz, qilingan xatti-harakat (qaror)ni qonuniy deb topsa, shikoyatni rad etadi. Sud shikoyatni qanoatlantirganda ham, rad etganda ham albatta ularni ishonarii tarzda shikoyatchiga o'z vaqtida yetkazishi kerak.

Shikoyat qiluvchi sudning shikoyat yuzasidan cabul qilgan qaroridan norozi bo'lsa, qonunlarda belgilangan tartibda yugori sudga shikoyat qilishi mumkin. Bunda ham, avval ta'kidlanganidek, shikoyat doirasi kengayib, avvalgi xatti-harakatga (qarorga) sudning harakatidan norozilik ham qo'shiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksining 225-moddasi sud qarorlarining kuchga kirish muddatini belgilagan. Unga asosan sudning qarori cassatsiya tartibida (yuqori sudga) shikoyat qilish muddati turgashi bilan (agar shunday harakat sodin qilingan bo'lsa) kuchga kiradi. Cassatsiya tartibida shikoyat qilingan bo'lsa, unda yuqori sud ishni ko'rib, sudning qarorini kuchda qoldirsa, qaror shu vaqtidan boshlab kuchga kiradi.

Sudning shikoyat yuzasidan qonuniy kuchga kirgan qarori barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fucaro'aming o'zini o'zi beshgarish organlari, mansabdar shaxslar fuqa-rolar uchun majburiydir. Bu «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 3-moddasida ham o'z ifodasini topgan.

Sudning shikoyat yuzasidan chiqargan qarori, xatti-harakati (qarori) ustidan shikoyat berilgan idora, tashkilot va mansabdar shaxsiarga qaror kuchga kirgach, o'n kun ichida yuborilishi shart. Ish shu bilan tugamaydi, ya'ni sud shikoyat yuzasidan faqatgina to'g'ri, qonuniy, adolatii qaror qabul qilish bilangina cheklanmaydi. U qarorlar ijrosini nazorat ham qiladi. Shuning uchun qonunda shikoyat yuzasidan sudning qarori bajarilganligi haqida tegishli idora va mansabdar shaxslarning qaror olingen kundan boshlab bir oy ichida sudga xabar qilish majburiyati belgilab qo'yilgan. Shikoyat yuzasidan qabul qilingan sud qarori bajarilmasa, unda sud qonunlarda belgilangan tartibda ma'lum choratadbirlarni ko'radi.

Sud qarori bajarilishi shart. Qaror ixtiyoriy bajarilimagan taqdirda, uni maiburiy bajarish qoidalari mayyed. Bu masala Fuqarolik-protsessual kodeksning «Sud qarorini ijro etish» deb nomlangan 4-qismidagi moddalar bilan tartibga solinadi.

Sudda shikoyatlarni ko'rish ma'lum saif-xarajatlarni keltirib chiqaradi. Qonunda bunday xarajatlarni qoplashning yo'llari ham

belgilangan. Bular: — shikoyat asossiz bo'lib, sud shikoyatni qanoatlantirmasa (rad etsa), xarajatlar shikoyat qiluvchining zimmasiga yuklanadi. Bu asossiz, bo'lar-bo'lmas masala yuzasidan sudga shikoyat qiliishning oldini oluvchi choradir. Shikoyat qondirilgan taqdirda esa, sarf-xarajat shikoyatni keltirib chiqarishga sabab bo'lgan xatti-harakatni (qarorni) sodir etgan idora, tashkilot, mansabdar shaxs zimmasiga yuklanadi. Bu idoralar, mansabdar shaxslarni har qanday xatti-harakatni (qarorni) faqet qonunchilik huijatlari asosida hal qilishga undovchi muhim vosita hisoblanadi. Sud xarajatlarini qoplash masalasi O'zbekiston Respublikasi Fugarolik-protsessual kodeksining 87—105-moddalarini asosida hal qilinadi.

Fuqarolarning murojaatlari ko'p hollarda fuqarolarning manfaati, huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratiladi. Ularning murojaatlarini ko'rish oqibatida turli harakatlar bilan manfaatlariga zarar yetkazmaslik kerak. Qonun buning uchun turli choralarni belgilagan, jumladan murojaatlar qayerda, kim tomonidan hal qilinishidan qat'i nazar, fuqarolarning rozilgisiz, ularning shaxsiy hayotiga, oilasiga, sog'lig'iga taalluqli ma'lumotlar, davlat siri, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir hisoblangan ma'lumotlar oshkor qilinishi mumkin emas. Agar bu qoidaga rioya qilinmasa, huquq va erkinliklarini talab qilib murojaat qilgan shaxslarning huquqlari, manfaatlarini ro'yobga chiqarish o'miga ular buziladi. Bu esa qo'shimcha murojaatlarni, shikoyatlarni keltirib chiqaradi. Fuqarolarning sir hisoblanuvchi ma'lumotlarining oshkor qilinishi, Konstitutsiyaning 27-moddasida belgilangan «shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish» huquqining buzilishi hisoblanadi.

Murojaatga daxldor bo'lmagan, fuqaroning shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rab-surishtirib bilish ham qonun bilan taqila-nadi. Bunday ma'lumotlar fuqaroning kamsitilishi, obro'sining to'kilishi, uning sha'niga, qadr-qimmatiga putur yetkazishi mumkin. Murojaat qiluvchining iltimosiga binoan ham uning shaxsiga doir har qanday ma'lumotlar oshkor qilinmasligi kerak. Ayniqsa ustidan shikoyat qilingan shaxsga, shikoyatchi haqida ma'lumot berish kerak emas. Tanqid ruhida yozilgan murojaatlar,

jinoiy harakatlar, tayyorlanayotgan jinoyatlar, turli huquq buzilishlar, kamchiliklar haqidagi murojaatlarning mualliflari, ular haqidagi ma'lumotlar sir saqlanishi kerak. Aks holda murojaat qiluvchi shaxsni ta'qib qilish, turli yo'llar bilan o'ch olish hollari vujudga kelishi mumkin. Bunga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Shuning uchun, murojaatdagi ma'lumot va sirlarni oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu esa murojaatlar shikoyat shaklining alohida maqsadi, ijtimciy va davlat hayotidagi rolini hisobga olib, ularni ko'rib chiqishda davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning bu boradagi mas'uliyatini oshiradi. Chunki shikoyatni vujudga keltiruvchi sabab qonuniylik, huquqiy-tartibot va fuqarolarning xavfsizligi, manfaati, huquq va erkinliklarining buzilishi davlat organlari, korxona, tashkilot, muassasalardagi sansalorlik, buyruqbozlik, e'tiborsizlik natijalari bo'ladi. Shuning uchun shikoyatni ko'rib hal qilish vakolatiga ega tuzilmalar, shaxslarning aiohida vazifalari unda belgilangan.

Shikoyatlar katta-kichikligidan qat'i nazar, unda ko'tarilgan masalalar har tomonlama, xolisona va eng muhimi, o'z vaqtida tekshirilishi kerak. Shikoyatni pg to'g'ri va ijobiy hal qilinishida uni sinchiklab tekshirish hal qiluvchi shartdir. Yuzaki tekshirilgan shikoyatlar hech vaqt to'g'ri hal qilinmaydi. Tekshiruv ishlariiga mutaxassislarni jalg qilish katta ahamiyatga ega.

Tegishli idora va muassasalar, mansabdar shaxslar shikoyatga sabab bo'lgan noqonuniy qarorlarni bekor qilishi, xatti-harakatlarni to'xtatishi zarur. Shu bilan cheklanmasdan, g'ayriqonuniy qarorlar qabul qilishga olib kelgan sabab ildizlarini tugatish choralarini ko'rish kerak. Shikoyatlarni o'rganish natijasida u bo'yicha fuqaroning qonuniy manfaatini tiklash bilan birga shikoyatni keltirib chiqargan sharoit va sabablarni albatta aniqlash zarur. Shikoyat asosan buzilgan huquqlarni tiklashga qaratilgan murojaatdir. Shuning uchun shikoyatdagi talablar asosli bo'lsa, tezlik bilan tiklanishi zarur. Buzilgan huquqlarning tiklanishi vakolatli organlarning bu haqda qaror qabul qilishlari bilan amalga oshiriladi. Tegishli idoralar, mansabdar shaxslar buzilgan huquqlarini yoki shikoyatdagi boshqa talablarni qondirishni ko'zlovchi qarorlar qabul qilish

bilan kifoyalanishi kerak emas, bunda eng muhimi, shikoyat yuzasidan qabul qilingan qarorlarni o'z holiga tashlab qo'ymay, uning ijrosini ta'minlash choralarini ko'rishdir. Qaror ijrosining masala oxiriga yetmaguncha nazoratda turishi maqsadga muvofiqdir. To'g'ri qaror qabul qilish bilan bu masalani nazoratdan chiqarmaslik kerak.

Shikoyatlarni ko'rish borasida munosabatlarning boshqa turlari kabi natijani murojaat qiluvchiga albatta yetkazish muhim. Natija albatta yozma tarzda bo'lishi, shikoyat rad etilganda yoki qisman qondirilganda esa uning sabablari atroflicha, tegishli huquqiy hujjalarga ilova qilingan holda, tushunarli tilda bayon qilinishi zarur. Shikoyatni rad etish yoki to'la qondirishning imkonini yo'qligi hollarida bu haqda shikoyatchiga yozma ma'lumotdan tashqari shaxsan tushuntirishlar berish maqsadga muvofiqdir. Bu takroriy shikoyatlar, shu masala yuzasidan yuqori organlarga murojaat qilish kabilarga barham berishi mumkin.

Shikoyatlar bo'yicha kim qaror qabul qilishining qonunda aniq belgilab qo'yilishi ham shikoyatga mas'uliyat bilan qarashni kuchaytiradi. Qonunga asosan, har qanday shikoyat kim tekshirib, qanday xulosa chiqarilganidan qat'i nazar, u yuzasidan qaror davlat organlari, korxona, tashkilotlarning rahbari yoki uning o'rinnbosarlari tomonidan, jamoat birlashmalaridan ko'rilgan shikoyatlar esa jamoat birlashmalarida saylab qo'yiladigan organlar yoki ular vakolat bergen shaxslar tomonidan qabul qilinadi. Qabul qilinadigan qaror va shikoyat bo'yicha javob shikoyat yozilgan tilda bo'lishi zarur, ayrim hollarda bir tilda yozilgan shikoyatga boshqa tilda javob berilishi hollari ham uchrab turadi. Bu esa turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Fuqarolar o'z murojaatlarini tegishli vakolatli organ rahbarlariga hamda deputatlarga shaxsan topshirishlari ham mumkin. Shaxsiy qabul vaqtida murojaat og'zaki yoki yozma bayon qilinadi. Murojaat og'zaki bayon qilingan vaqtida ham u ma'lum tartibda qayd etilishi kerak.

Fuqarolarni vakolatli shaxslar tomonidan qabul qilinishida ham ko'pgina ijobiy tomonlar mayjud. Avvalo ba'zi hollarda shu qabulning o'zida fuqaro o'z iltimosi yoki talabiga javob olishi,

masala tezlik bilan hal qilinishi mumkin, bu ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini oladi. Shaxsan qabul vaqtida murojaatlarni hal qilishga yordam beruvchi qo'shimcha holatlar aniqlanadi. Qisqasi, shaxsan murojaat tufayli vakolatli shaxs jonsiz qog'oz bilan to'qnashmay, jonli shaxs bilan muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega.

Har qanday organ (idora), jamoat birlashmalar, tashkilot, korxona rahbarlarining fuqarolarni shaxsan qabul qilishi qonuniy majburiyatidir. Shuning uchun bu masalaga doimiy e'tibor berish, qonunga binoan qabul kunlari, soatlari ayrim vaqtarda joylari (ya'ni joylarga borib qabul uyuştirilgan vaqtarda) qat'iy belgilab qo'yilishi lozim. Belgilangan kun, vaqt va joyni asossiz ravishda o'zgartirish, boshqa vaqtga qoldirish, murojaatlar, fuqarolarga nisbatan hurmatsizlikdir. Zanuriy xizmat safari, betoblik hollaridan tashqari qabul jadvali o'zgarmasligi zarur.

Qabul vaqtlarini belgilashda murojaat qiluvchilarga eng qulay vaqtlar belgilanishi zarur. Joylarga borib qabul uyuştirish esa fuqarolarga bo'lgan hurmat bo'lib, rahbarlar, davlat organlari obro'sini oshiradi.

Umumiy vakolatli organlarda, jumladan, hokimiyatda bir qancha sohaga taalluqli idora rahbarlarining bir kunda qabul uyuştirishlari ham masalalarni tez va ogilona hal qilish imkonini beradi. Qabul vaqtida jamoatchilik vakillari, mutaxassis va huquqshunoslarning ishtirok etishi ham murojaatga e'tibor hisoblanib, masalalarni ijobiy hal etishga ko'maklashadi.

Qonunda qaysi xodim qachon qabul kunini belgilashi ko'rsatilmagan, buni har bir rahbar o'zi belgilaydi. Bunda qabul vaqtining fuqarolarga qulay, aniq va o'zgarmas vaqtida hamda muntazam bo'lishi, ish hajmi, rahbarlik doirasi hisobga olinadi. Ya'ni qabulga kirmoqchi bo'lgan shaxslar qabulxonada uzoq vaqt kutmasligi kerak. Qabul vaqtida tegishli rahbarlar boshqa ishlar bilan shug'ullanmay, faqat qabul bilan band bo'lishlari lozim. Shularga amal qilinmasa, qo'shimcha shikoyatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Fuqaroni uning davlat organiga, jamoat birlashmasiga, korxona, muassasa, tashkilotga murojaat qilganligi sababli yoxud

murojaatidagi tanqidi uchun ta'qib ostiga olganlik, shuningdek «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi qonunchilik hujjalarnini davlat yoki jamoat manfaatlariga yoxud fuqarolarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqlariga jiddiy zarar yetkazish tarzida buzganlik aybdor shaxslarni qonunchilik hujjalarniga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Fuqarolarning murojaatlarini ko'rish tartibi qonuniy asosga ega bo'lib, ularning buzilishi muayyan javobgarlikni vujudga keltiradi. Bunday javobgarlik intizomiy, ma'muriy va jinoiy bo'lishi mumkin.

Murojaatni ko'rib chiqishni asossiz rad etish, ularni ko'rish muddatlarini sababsiz buzish, murojaatlar yuzasidan asossiz va qonunga zid qarorlar qabul qilish, belgilangan vaqtarda fuqarolarni qabul qilmaslik fuqarolar shaxsiga oid ma'lumotlarni oshkor etish va boshqa vosita hamda tartibda murojaatlar to'g'risidagi hujjalarni buzish belgilangan vaqtarda fuqarolarni qabul qilmaslik qonunchilik hujjalarniga xi洛f hisoblanadi. Agar shunday holatlar sodir etilsa, ular ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'lmasa, mansabdor shaxslar intizomiy javobgarlikka tortiladilar. Bunda ularga ogohlantirilish, hayfsan, qattiq hayfsan kabi jazo choralarini ko'rilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 43-moddasida fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjalarni buzganlik uchun ma'muriy jazo ko'zda tutilgan, unga asosan murojaatlarning ko'rinishini asossiz rad etganlik, murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzganlik, asossiz qonunga zid qaror qabul qilganlik, shuningdek fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklashni, shikoyat munosabati bilan qabul qilingan qarorni aniq bajarishni ta'minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonunni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik ham belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining VII bobi «Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar» deb nomlangan bo'lib, uning 144-moddasi «Fuqaroning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjalarni buzish» deb atalgan. Unga asosan «Murojaat ko'rib

chiqilishini g‘ayriqonuniy rad etish, murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, asossiz, qonunga zid qaror qabul qilish yoxud fuqarolarning shaxsiy hayotiga doir ma‘lumotlarni oshkor etish, shuningdek fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini fuqarolarning huquqlari yoki fuqarolar, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadigan holda buzish - eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi»1.

Ko‘rinib turibdiki, turli javobgarliklarni keltirib chiqaruvchi asoslar, sabablar deyarli bir xil, ya’ni murojaatlarni ko‘rishni asossiz rad etish, shikoyatni ko‘rish muddatlarini sababsiz buzish va boshqalar. Ana shunday hol yuz berganda qanday javobgarlik vujudga kelishi, qonunning buzilish darajasi, undan kelib chiqadigan oqibat, fuqaroning ko‘rgan zarari miqdori, fuqarolarning davlat va jamiyatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga qay darajada, qay miqdorda zarar yetkazilganligini belgilaydi. Bu talab ikki holatga qaratilgan, birinchidan, murojaatning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan g‘ayriqonuniy harakat yoki qaror natijasida fuqaro moddiy zarar ko‘rsa, murojaat asosli deb hisoblanib qondirilganidan so‘ng, noqonuniy xatti-harakat yoki qaror tufayli fuqaroning ko‘rgan zararini qoplash nazarda tutiladi. Masalan, fuqaro asossiz ishdan bo‘shatilgan va muayyan davr ichida ish haqi olmagan taqdirda uning talabi qondirilgudek bo‘lsa, fuqaroning majburiy ish qoldirgan vaqtida ko‘rgan zararini to‘lash chorasi ko‘riladi.

*Ikkinchidan*, fuqaroning shikoyati ko‘rib chiqilishi vaqtida u ishdan qolsa, turli joylarga borish, istiqomat qilish natijasida moddiy zarar ko‘rsa, bu zarar ham shikoyatni keltirib chiqarishga sabab bo‘lgan g‘ayriqonuniy xatti-harakat sodir etgan yoki noqonuniy qaror qabul qilgan idora, mansabdor shaxslar hisobidan qoplanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida bozor munosabatlaridan kelib chiqib, mulkiy zarar va uni qoplash tartiblari mukammal belgilangan. Ushbu Kodeksning 14-moddasida qayd etilishicha, zarar deganda - huquqi buzilgan shaxsning buzilgan

huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi kerak bo‘lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo‘qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o‘z huquqlari buzilmaganda odatdagagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

Fuqarolik kodeksining 15-moddasida esa zararni to‘lash tartibi ko‘rsatilgan bo‘lib, davlat idoralari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki ushbu organlar mansabdon shaxslarning g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizliklari), shu jumladan davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan hujjat chiqarilishi natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar davlat tomonidan yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan to‘lanishi kerak.

Moddiy zarar va xarajatlarni undirish bilan bog‘liq nizolar sud tartibida ko‘rib chiqiladi.

Fuqaroning tuhmat va haqorat ruhidagi yoxud milliy adovat qo‘zg‘atishga va jinoiy jazolanadigan boshqa xatti-harakatlar sodir etishga da‘vat qiluvchi murojaatni bergenligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Konstitutsiya va u asosida qabul qilingan qonunlar fuqarolarga murojaat qilish borasida keng huquqlar berib, ularning samarali kafolatlarini belgilar ekan, murojaatlar boshqalarni, ya’ni davlat organlari, jamoat birlashmalari, tashkilot, korxona, muassasa, mansabdon shaxslar va fuqarolarning qonuniy manfaatiga, sha’niga, qadr-qimmatiga, or-nomusiga, obro‘siga zarar keltirmasligini ham nazarda tutadi.

Murojaatlar tuhmat, haqoratlardan holi, milliy adovat qo‘zg‘atishga qaratilmagan bo‘lishi va ularda jinoiy jazolanadigan turli xatti-harakatlar sodir etishga da‘vatlar bo‘lmasligi kerak. Agar murojaatlarda shunday holatlar bo‘lsa, murojaat qiluvchi qonunga asosan javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 139-moddasida tuhmat qilish, 140-moddasida haqorat qilish; 237-moddada yolg‘on xabar bergenlik uchun jinoiy javobgarliklar belgilangan.

Fuqarolarning har qanday murojaatlari davlat idoralari, jamoat birlashmalari faoliyatiga ma’lum darajada tasir ko‘rsatadi.

Murojaatlarni qabul qilib, qayd etish, uni tegishli rahbarlarga yetkazish, murojaatlarni ularning ko'rsatmasi asosida mohiyati jihatidan hal qilish vakolatlariga ega shaxslarga yetkazish, ular yuzasidan qabul qilingan hujjatlarni qayd etish, murojaat qiluvchiga natijani ma'lum qilish jarayonida bir necha kishilar band bo'ladi, ko'plab vaqt sarflanadi, davlat organlari xodimlarning ortiqcha vaqtini oladi. Davlat organlarining mansabdor shaxslari asosiy vazifalaridan tashqari murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni hal qilish bilan ham shug'ullanadilar. Agar murojaatlarni tekshirishga yana qo'shimcha xodimlar, mutaxassislarni jalb qilish ham qo'shilsa, murojaatlarni joylarga borib tekshirish, qo'shimcha hujjatlar olish uchun qilingan xarajatlarni hisobga olinsa, har bir murojaatni ko'rib hal qilish va uning javobini murojaat qiluvchiga yetkazish uchun ma'lum miqdorda mablag' sarflanadi. Agar murojaatdagi ma'lumotlar, talab, istaklar to'g'ri bo'lib, ularning qondirilishidan fuqarolar manfaatdor bo'lsa, adolat tiklansa, kamchiliklar bartaraf etilsa, sarflangan xarajatlar asosli sarflangan hisoblanadi. Mabodo, murojaatlardagi ma'lumotlar soxta, asossiz bo'lsa, idoralar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalarining murojaatlarini tekshirish jarayonida ko'rgan moddiy zarari qasddan soxta ma'lumotlarni vaj qilgan fuqarolardan undiriladi. Bu qoida soxta murojaatlar, bo'lar-bo'lmas, asossiz shikoyatlar vujudga kelishining oldini oladi.

Murojaatlarni ko'rish jarayonida idora, tashkilot, muassasa, korxona va jamoat birlashmalarining zarari sudning qaroriga binoan undiriladi.

Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarning har bir talab va qoidalariга rioya etilishi ustidan nazoratni qonunda barcha davlat hokimiyati organlari, korxona, tashkilot, muassasalar ta'minlashi nazarda tutilgan. Bu vazifa barcha mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ham taalluqlidir.

Har bir vazirlik, davlat qo'mitasi va markaziy muassasa fuqarolarning murojaatlarini ko'rib hal qilish bilan birga, o'zlariga bo'y sunuvchi tuzilmalarda fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish ahvolini nazorat qiladilar.

Mazkur qonunchilik hujatlari talablarining bajarilishini sud organlari ham nazorat qiladilar.

Murojaatlarni ko'rish to'g'risidagi qonunchilik hujatlarining amal qilishini nazorat qilish borasida mahalliy hokimiyat organlari, xalq deputatlari kengashlari va hokimlar zimmasiga alohida vazifalar yuklangan. Konstitutsiyaning 100-moddasida ularning asosiy vazifasi sifatida «qonuniylik, huquqiy-tartibot va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash» belgilangan bo'lib, bu bevosita qonunlarni, jumladan, fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonunlarga rioxaya etilishini nazorat qilish vazifasini keltirib chiqaradi. Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunning 1, 24, 25-moddalarida ham mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining bu boradagi vazifalariga taalluqli masalalar qonuniy ifodasini topgan.

Konstitutsiyaning 118-moddasi va prokuratura to'g'risidagi qonunning 1-moddasiga asosan respublika hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni respublika Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradilar.

Prokuromning nazorat faoliyati respublikaning barcha vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralar, davlat nazorati organlari, hokimlar, shuningdek bo'ysunishdan va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, harbiy qismlar, jamoat birlashmalari, mansabdar shaxslar va fuqarolar faoliyatiga qaratiladi. Ya'ni, deyarli barcha fuqarolarning murojaatlari bilan to'qnash keluvchi, shikoyatlar bilan ishlovchi organlarning faoliyati prokuror nazorati ostida bo'ladi. Bu esa faqat bir sohadagi, ya'ni fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilik hujatlariiga amal qilish ustidan prokuror nazorati o'rnatilishini alohida mustahkamlagan.

Prokurorlar nazorat faoliyati natijasida fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun talablarining buzilganligi hollari aniqlaganlarida fuqarolarning huquqi buzilgan bo'lsa, uni tiklash, qonuniy manfaatlarni himoya qilish, huquqbuzarlarni javobgarlikka tortish masalasini ko'rib, tegishli chora-tadbirlar belgilaydilar. Prokuratura to'g'risidagi qonunning 7-moddasiga asosan prokuromning talablarini bajarish shart.

Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilik hujatlari ning buzilishi hollari aniqlangan vaqtida prokurorlar o'z vakolatlari

doirasida: tegishli idora, tashkilot va mansabdar shaxslarning noqonuniy qarorlari ustidan protest keltirishlari, zarur bo'lsa, qonunga asosan jinoiy, ma'muriy yoki intizomiy ish qo'zg'atishlari; ularni ko'rib chiqishni jamoatchilik ixtiyoriga topshirishlari, qonunni ochiqdan-ochiq buzilishi hollariga chek qo'yish to'g'risida ammoma berishlari; qonunni buzmaslik to'g'risida mansabdar shaxslarni yozma ravishda ogohlantirishlari; qonun buzilishiga olib kelgan sharoit, sabablarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalarini kiritishlari; fuqarolarning qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini himoya qilish to'g'risida sudlarga murojaat etishlari mumkin.

Fuqarolar o'zlarining ko'pgina murojaatlarni ommaviy axborot vositalariga: gazeta, jurnal, radio va televide niyega yo'llaydilar. Bunday murojaatlar asosan takliflar, fikr-mulohazalar bo'lsa da, ommaviy axborot vositalariga tegishli idora va tashkilotlardan o'z talablariga ishonchli javob ololmagan shaxslar ham yordam so'rab, o'zlarining qonuniy manfaatlarini amalga oshirishga ta'sir ko'rsatishini iltimos qiladilar. Shuning uchun ham ommaviy axborot vositalarini «to'rtinchchi hokimiyat» deb ataladi.

Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan murojaatlar jamoatchilik nazarida bo'lganligi bois ta'siri kuchli. Undagi xabarlar natijasida tegishli idora va tashkilotlardagi kamchiliklar jamoatchilikka ma'lum bo'lib qoladi.

Ommaviy axborot vositalariga yo'llangan murojaatlar, ularda e'lon qilinishi yoki hal etish uchun tegishli tashkilotlarga yuborilib, nazoratga olinishi, kuzatib borilishi ham mumkin. Ayrim hollarda murojaatlardagi faktlarni ommaviy axborot vositalari o'z vakillari orqali tekshirishi ham mumkin.

Ommaviy axborot vositalari murojaatlarni tegishli tashkilot va idoralarga yuborganda, bu haqda fuqarolarni xabardor qiladi. Ular orqali tushgan takliflarni ko'rib hal qilishda idora va tashkilotlarning mas'uliyati yanada oshadi. Ular murojaatlarni ko'rish natijasi haqida ommaviy axborot vositasi hamda murojaat qiluvchi fuqaroga ma'lumot yuborishi taqozo etiladi.

Murojaatlar ommaviy axborot vositalari vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan tushgan bo'lsa, ular ommaviy axborot vositalari tomonidan qonun talablari asosida hal qilinadi.

Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan murojaatlar orqali respublika aholisining davlat, qonunchilik, qonuniylik, huquqtartibot, iqtisodiy va ma'naviy sohalarga taalluqli fikrlarini o'rganish, davlat organlari, jamoat birlashmalari faoliyati, fuqarolarning turmush tarzi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Qonuniylik deganda nimani tushunasiz?
2. Qonuniylik tushunchasi qanday qoidalarni o'z ichiga oladi?
3. Huquq-tartibot deganda nimani tushunasiz?
4. Qonuniylik va huquqiy-tartibotni ta'minlashning qanday usullari mavjud?
5. Davlat hokimiyati organlarining nazorati bilan davlat boshqaruvin organlarining nazoratidagi farqni aytинг.
6. O'zbekiston Respublikasining qaysi qonunlari bilan fuqarolarning murojaat qilishlari tartibga solinadi?
7. Davlat boshqaruvida fuqarolarning murojaatlari qanday ahamiyatga ega?
8. Fuqarolarning murojaatlari qanday turlarga bo'linadi?
9. Fuqarolarning yozma murojaatlariga qanday talablar qo'yiladi?
10. Fuqarolarning murojaatlari qachon «anonim» deb topiladi?
11. Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi buzilganda qanday javobgarliklar belgilanadi?

*XVII bob*  
DAVLAT BOSHQARUVIDA KONTRO

**1-§. Davlat boshqaruvida kontrol<sup>1</sup> tushunchasi,  
turlari va ahamiyati**

Davlat boshqaruving asosiy prinsiplaridan biri qonuniylikdir. Shu sababli davlat, uning barcha organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq ish ko'radilar. Qonun asosida huquqiy tartibni, jamiyat manfaatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qiladilar. Davlat boshqaruvinning huquqiy hujjatlari va amaliy faoliyati qonunlarga muvofiq bo'lib, qonunga mos kelmaydigan yoki fuqarolarning qonuniy manfaatlarini buzadigan hujjatlar belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Davlat boshqaruvida qonuniylik kontrol (ichki nazorat) va nazorat davlat boshqaruvinning g'ayriqonuniy harakatlari ustidan shikoyat berish usullari yordamida amalga oshiriladi.

Kontrol va nazoratning bir-biridan farqi nimada, degan savol tug'ilishi mumkin.

Kontrol hamma vaqt yuqori organlar tomonidan ularga bo'y-sunuvchi quyi organlarning faoliyatini tekshirish jarayonida qo'llaniladi. Kontrol usulini qo'llash huquqiga ega bo'lgan organlar o'zlariga bo'y sunuvchi obyektlarning moliyaviy, xo'jalik, tashkiliy va boshqa xil faoliyatini o'r ganib chiqib, shu faoliyat davomida ularning qonunlarga qanchalik rivoja etganliklarini aniqlaydi. Agar qonunlar buzilayotgan bo'lsa, mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy choralar qo'llaniladi va ularning chiqargan huquqiy hujjatlari bekor qilindi. Nazorat faoliyatini olib borish vakolati ayrim organlar zimmasiga yuklatilgan bo'lib, ular o'zlariga bo'y sunmagan obyektlar ustidan nazorat o'matadilar. Qonun yoki

<sup>1</sup> "Kontrol" fransuzcha so'z bo'lib, tekshirish maqsadidagi «kuzatish» degan ma'noni anglatadi // Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М., 1981. – 397-б.

o'rnatilgan maxsus tartib buzilganligi aniqlansa, nazorat olib boruvchi organlar tartibni buzgan shaxsga nisbatan ma'muriy chora qo'llashlari mumkin, lekin obyektlar tomonidan chiqarilgan g'ayriqonuniy hujjatlarni bekor qila olmaydilar. Nazorat prokuratora va maxsus davlat nazorati organlari tomonidan, kontrol (ichki nazorat) esa barcha yuqori organlar tomonidan olib boriladi.

Qonun va davlat tartibi buzilishining oldini olish hamda bunday hollarga chek kuyish maqsadida davlat ichki nazorati o'rnatiladi. Bunday kontrol: 1) davlat hokimiyat organlarining kontroli; 2) davlat boshqaruvinin organlarining kontroli; 3) sud organlarining kontroliga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan, Oliy Majlis qonunlarining ijrosini nazorat qilib turish uchun deputatlar orasidan qo'mitalar va komissiyalar saylanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushirgan tuman va shahar hokimlarini lavozimidan ozod etadi; respublika boshqaruvinin organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini bekor qiladi.

Mahalliy hokimiyat organlari esa qonuniylikni, huquq-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlaydi hamda shu masalalar bo'yicha o'z hududida joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlarning faoliyatini tekshirib turadi.

Davlat boshqaruvinin organlarining kontroli ikki turda, ya'ni umumiyligi vakolatli va maxsus vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunining 7-moddasiga asosan, Vazirlar Mahkamasi:

— vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va davlat boshqaruvi boshqa organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

— vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining hujjatlari amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan hollarda ularni bekor qilish huquqiga ega.

Ushbu qonunning 11-moddasiga ko'ra:

— viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal etilishi talab qilinadigan masalalarga doir

takliflarini ko'rib chiqadi, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining bajarilish jarayonini nazorat qiladi, ularning amalga oshirilishi yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarini taklif qilish hamda ularning axborotlarini eshitishga;

— viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qonun hujjaliga zid bo'lgan qarordari va farmoyishlari ijrosini to'xtatib qo'yish hamda ulami bekor qilishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan qonun va qarorlarning, Prezidentning farmonlari va xo'jalik qonunlarining, ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarning bajarilishi, davlat va ijro intizomiga rioya etilishini tekshirish — «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Nazorat bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 17-fevral farmoniga asosan tashkil etilgan Nazorat inspeksiyasi va uning organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kontrol — barcha yuqori organlar tomonidan o'zlariga bo'y-sunuvchi quyi organlarning, korxonalarining va tashkilotlarning faoliyatini tekshirishdan iborat.

*Sud organlarining kontroli* Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga yuklangan. Bu sud Konstitutsiyaviy kontrol olib boruvchi sud organidir.

Konstitutsiyaviy sud:

O'zbekiston qonunlarining, Prezident farmonlarining, hukumat va quyi mahalliy davlat organlarining qarorlarini, davlatlararo shartnomalarning va boshqa hujjatlarning Respublika Konstitutsiyasiga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlaydi;

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari O'zbekiston Konstitutsiyasiga va qonunlariga qanchalik mos kelishi to'g'risida xulosa beradi;

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining normalarini talqin etadi;

o'z vakolatiga doir ishlarni ko'rib chiqib tegishli xulosa chiqaradi.

Konstitutsiyaviy Sud chiqargan xulosa hamma davlat, hokimiyat va boshqaruv organlari xamda korxona, muassasa,

tashkilot va jamoat uyushmalari, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi shart.

Oliy sud, viloyat, shahar va tuman sudlariga qonunlarning doimiy va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash yuklatilgan. Ana shu vazifani bajarish vaqtida sud organlari jinoyat va fuqarolik ishlarinigina ko‘rib qolmay, balki davlat boshqaruven organlarning qonunga rioya etishi ustidan nazorat ham olib boradilar. Bunday nazorat asosan, fuqarolarning, mansabdar shaxslarning harakatlari qonunga zid ekanligini yoki ular o‘zlarining vakolatlarini oshirib yuborganliklari to‘g‘risidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish jarayonida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, sudlar ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi vakolatli organlarning qarorlarini fuqarolarning shikoyatlari asosida ko‘rib chiqadilar va ular to‘g‘risida tegishli qaror chiqaradilar.

Sud organlari qonunning bajarilishi ustidan nazoratni jinoyat va fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqayotgan chog‘da ham amalga oshiradilar.

Agar shu ishlarni ko‘rib chiqish chog‘ida davlat organlari yoki ularning mansabdar shaxslari tomonidan qonun buzilganligi aniqlansa, sud organlari alohida ajrim chiqarishlari mumkin. Bunday ajrimda ko‘rsatilgan talablar tegishli organlar va mansabdar shaxslar tomonidan bajarilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Sudlar to‘g‘risida»gi 2000-yil 14-dekabr qonuniga asosan, xo‘jalik sudiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

— odil sudlovni amalga oshirish yo‘li bilan tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish;

— iqtisodiy munosabatlarda qonunlarga rioya etilishiga huquqiy vositalar bilan yordam berish;

— xo‘jalik nizolarini hal etish chog‘ida qonunlarning bir xil va to‘g‘ri qo‘llanishini ta‘minlash.

Xo‘jalik sndlari umuman tadbirkorlik faoliyati jarayonida vujudga keladigan fuqaroviylar munosabatlari (iqtisodiy nizolar)dan yoki boshqaruven sohasidagi huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni hal etishda sud hokimiyatini amalga oshiradilar.

Xo‘jalik sndlari mazkur nizolarni, basharti ular tashkilotlarning, fuqarolarning o‘zaro munosabatlaridan, shuningdek,

tashkilotlar va fuqarolarning davlat organlari va o'zga organlar bilan munosabatlardan kelib chiqadigan bo'lsa, hal etadilar. Bunday nizolarda xorijiy korxonalar, xorijliklar ishtirok etgan korxonalar yoki xorijiy fuqarolar qatnashgan tomonlar o'rtasida bitim bo'lgan taqdirda xo'jalik sudiga berilishi mumkin.

Xo'jalik sudi chiqargan hal qiluv qarorlarining, ajrimlarning O'zbekiston Respublikasi hududida va respublikalararo bitimplarga muvofiq boshqa respublikalarning hududidagi tegishli barcha tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Xo'jalik sudining sudyasi quyidagi huquqlarga ega:

— qonunda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq farmoyishlarning bajarilishini davlat idora (organ)lаридан va boshqa idoralardan, tashkilotlardan, ularning mansabdor shaxslaridan talab qilish;

— tashkilotlarga, davlat idoralari va boshqa idoralarga xususiy ajrimlarni, aniqlangan qonunbuzarlik haqidagi axborotlarni ularni bartaraf etish xususidagi takliflar bilan birgalikda yuborish;

— davlat idoralari va boshqa idoralardan, ilmiy muassasalar va axborot markazlaridan axborotlar so'rab olish huquqiga egadir.

Xo'jalik sudi iqtisodiy munosabatlarda qonunlar buzilishining oldini olish ishlarini olib boradi va shu maqsadda:

1) iqtisodiy munosabatlarda qonun buzilishi sabablaridan darak beruvchi ma'lumotlar va materiallarni izchil tahlil qilib beradi, o'z huquqi doirasida ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

2) ishlarni bevosita tashkilotlarning o'zida hal etadi;

3) tashkilotlarning rahbarlari, davlat idoralariga va boshqa idoralarga xususiy ajrimlar to'g'risidagi, ana shu qonunbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi hamda tegishli chora-tadbirlar ko'rinishini talab qiluvchi holatlar haqida axborot yuboradi. Xususiy ajrim, axborot yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rilmanni to'g'risida xo'jalik sudlariga bir oy muddatdan kechiktirmay javob berilishi kerak;

4) iqtisodiy munosabatlarda yo'l qo'yilayotgan jiddiy qoidabuzarliklar to'g'risida hokimiyyat organlarini xabardor etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy nochorligi va shartnoma majburiyatlarining bajarilishi uchun mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish to'g'risida»gi 1998-yil 4-mart farmonida qator xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlarining mas'uliyatsizligi, tashabbus-sizligi, boqimandaligi, korxonalarining shartnoma majburiyatlarini bajarmasligi, ularni iqtisodiy nochorlik va bankrotlikka olib kelayotganligi, shunga qaramasdan xo'jalik nizolarini ko'rib chiqishda xo'jasizlik va pul mablag'larini behuda sarflash hamda ulardan maqsadsiz foydalanish holatlariga yetarli baho berilmayotganligi qayd etilgan.

Xo'jalik sudlarining iqtisodiy sohadagi qonunlarni mustahkamlash va qonunbuzarliklarning oldini olishdagi rolini oshirish maqsadida uning vakolati qonuniy tartibda kengaytirilgan.

Xo'jalik sudiga xo'jalik nizolarini ko'rish jarayonida mansabdor shaxslarning faoliyatida qonunchilik hujjatlarining buzilganligi aniqlanganda, ularga nisbatan jinoyat ishlari qo'zg'atish, ma'muriy javobgarlik choralarini qo'llash, yetkazilgan mulkiy zararni ular hisobidan qoplash, intizomiy javobgarlikka tortish haqida taqdimnomalar kiritish huquqlari berilgan. Shu sababli, xo'jalik sudlarining e'tibori ularning iqtisodiyot sohasidagi qonunchilikni mustahkamlash va qonunbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan.

Xo'jalik subyektlari mansabdor shaxslarining faoliyatida qonunchilik hujjatlarining buzilishi, pul mablag'lari va boshqa mulklardan maqsadsiz foydalanish, to'lov intizomini buzish, shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslik, korxonalarini bankrotlikka olib kelganlik holatlari aniqlanganda qayd etilgan shaxslarga qonunda nazarda tutilgan qattiq jazo choralarini, hatto jinoiy javobgarlikka tortish choralarini qo'llanilishi kerak.

Xo'jalik nizolarini hal qilishda iqtisodiy nochorlikka va bankrotlikka olib kelishga sabab bo'lgan korxonalar tomonidan shartnoma shartlarining buzilishga oid holatlarni chuqur tekshirish, huquqbuzarlik sodir etilishida aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlashni ta'minlash va aniq holatlardan kelib chiqqan holda, bunday shaxslarga nisbatan Prezidentning 1998-yil 4-martdagi farmonida nazarda tutilgan choralarini qo'llash masalasini hal qilish lozim.

Prezidentning 1998-yil 4-martdagи farmonida nazarda tutilgan xo'jalik sudining mansabdor shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish vakolati O'zbekiston Respublikasi XPKning 152-moddasida ko'rsatilgan tartibida amalga oshiriladi.

Xo'jalik sudining jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi xususiy ajrimi har qanday sud hujjatlari kabi sud majlisida to'liq tekshirilgan holatlar asosida qabul qilinishi lozim. Xususiy ajrimda XPK ning 151-moddasasi talablari bilan bir qatorda xo'jalik sudi tomonidan aniqlangan jinoyat belgilarini nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining moddasasi ko'rsatilishi shart.

Xo'jalik sudining har qanday bosqichi nizoni ko'rish jarayonida aniqlangan jinoyat belgilari bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risida xususiy ajrim chiqarishga haqli.

JK 232-moddasiga binoan sud qarorini ijro etmaganlik uchun sud qarorlarini ijro etishda aniqlangan jinoyat belgilari jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risida xususiy ajrimni keltirib chiqarishi mumkin.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash mobaynida jinoyat belgilari aniqlangan holda sudlar «Prokuratura to'g'risidagi» qonunning 33-moddasiga muvofiq ushbu ishga prokuromi ishtiroy etish uchun jalb qilishlari lozim.

Agar sud muhokamasida jinoyat ishi qo'zg'atish uchun yetarlicha asoslar aniqlanmasa, xo'jalik sudi xususiy ajrim bilan qo'shimcha tekshirish o'tkazilishi lozim bo'lgan aniqlangan ma'lumotlar haqida prokurorga xabar qilishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi xususiy ajrim nusxasi jinoyat ishi qo'zg'atishga asos bo'lgan mavjud hujjatlarga ilova qilingan holda, prokurorga yuboriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarning xo'jalik sndlari jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi xususiy ajrimlarni tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlariga yuboradilar. Oliy xo'jalik sudining xususiy ajrimi O'zbekiston Respublikasi prokururasiga yuboriladi.

Xo'jalik nizolarini ko'rish jarayonida pul mablag'lari va boshqa mulkdan oqilona foydalanmaslik, to'lov intizomini buzganlik, shartnomaga majburiyatlarini bajarmaslik va korxonalarini bankrotlik darajasiga olib kelganlik holatlari aniqlangan taqdirda, rahbarlar

yoki boshqa shaxslarning harakati (harakatsizligi)da jinoyat alomatlari bo'lmasa, sudlar ko'rsatilgan shaxslarni egallab turgan lavozimidan ozod etish yoki intizomiy javobgarlikka tortish haqida xususiy ajrim chiqaradilar.

XPKning 152-moddasiga muvofiq, ko'rsatilgan shaxslarga chiqarilgan xususiy ajrim bu shaxslarning yuqori turuvchi boshqaruv idoralariga yuboriladi.

Birinchi instansiya sudining xususiy ajrimi protest keltirish muddati o'tganidan keyin qonuniy kuchga kiradi. Appelyatsiya protesti berilgan taqdirda, bunday ajrim appelyatsiya instansiyasida ko'rilganidan keyin xususiy ajrim bekor qilinmagan taqdirda kuchga kiradi. Sudlarga, ish appelyatsiya instansiyasida ko'riladigan bo'lsa, xususiy ajrimni qaror qonuniy kuchga kirgandan keyin jo'natish tavsiya qilingan.

Xo'jalik sudlari Prezidentning 1998-yil 4-martdagi farmonida nazarda tutilgan ma'muriy javobgarlik choralarini qo'llash vakolatini xo'jalik nizolarini ko'rish jarayonida huquqbazarliklar aniqlangan taqdirda amalga oshirishlari mumkin.

Ma'muriy tartibda jarima undirib olish huquqbazarlik sodir etilgan kundan boshlab ikki oydan kechiktirmasdan, uzoq davom etgan huquqbazarlik sodir etilganda ham, u aniqlangan kundan boshlab ikki oydan kechiktirmasdan amalga oshirilishi kerak. Uzoq vaqt davom etgan huquqbazarlik deganda, ko'proq yoki kamroq muddat ichida to'xtovsiz sodir etilgan davomli huquqbazarlik tushuniladi (masalan, tovar belgisi egasi huquqining buzilishi).

Uzoq davom etgan nojo'ya xatti-harakat bo'yicha ikki oy davom etgan muddat huquqbazarlikning dastlabki paytdan emas, balki bu huquqbazarlik holati aniqlangan, oshkor bo'lgan paytidan boshlab hisoblanadi.

Davom etayotgan huquqbazarlik tugallanmagan, sudda xo'jalik nizosini ko'rishga qadar ikki oydan kam muddatda tugallangan bo'lsa, bu holat, davom etayotgan huquqbazarlik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Ma'muriy jazo choralarini qo'llashda sudlar huquqbazarlikning xususiyatlarini, huquqbuzarning shaxsini, uning ayb darajasi, mulkiy holati, aybini yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni e'tiborga olishlari zarur.

Ma'muriy javobgarlikka tortish xo'jalik sudining qarori bilan rasmiylashtiriladi. Qarorda sud hujjatlarida ko'rsatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar bilan bir qatorda javobgarlikka tortiluvchi shaxs to'g'risida ma'lumotlar, ushbu ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat ko'rsatilishi lozim.

Ma'muriy jarima undirib olishni qo'llash to'g'risidagi xo'jalik sudining qarori ustidan keltirilgan protest appellatsiya (kassatsiya) tartibida ko'rib chiqiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlikni ko'rib chiqish to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat boji undirilmaydi.

## 2-§. Jamoat kontroli

Davlat boshqaruvi organlarining faoliyatida qonuniylik va huquq-tartibotga rioya qilishni ta'minlashda jamoat kontroiining roli juda katta. Jamoat kontroli jamoat birlashmalari, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalar, ularning huquqlari va faoliyati to'g'risida»gi 1992-yil 2-iyul qonuniga asosan, kasaba uyushmalarini jamoat kontrolini olib borish huquqiga egadirlar. Ana shu maqsadda kasaba uyushmalarini mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid hujjatlarni ishlab chiqishda qatnashadilar. Davlat boshqaruvi va xo'jalik organlari mehnatkashlarning mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari hamda manfaatlariga daxldor normativ hujjatlarni O'zbekiston kasaba uyushmalarini federatsiyasi kengashini kamida bir hafta oldin xabardor etgan holda qabul qilishlari kerak.

Ma'muriyat, mulkdor yoki ular vakil qilgan boshqaruvi organining tashabbusi bilan ish sharoitining yomonlashuviga olib keladigan korxonani va undagi tarkibiy bo'linmalarni tugatish, ishlab chiqarishni to'liq yoki qisman to'xtatib qo'yish tegishli kasaba uyushmalarini kamida uch oy oldin xabardor qilib qo'yilgan va ular bilan mehnat jamoalarining huquqlari hamda manfaatlariga rioya etish yuzasidan muzokara o'tkazilgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin.

Kasaba uyushmalari aholini ish bilan ta'minlashning ahvolini va bu sohadagi qonunlarga rioya etilishini kontrol qilib boradilar. Kasaba uyushmalari ma'muriyat, mulkdor yoki ular vakil qilgan organlar bilan jamoa nomidan muzokaralar olib borishda va jamoa shartnomalari, bitimlari tuzishda ustuvor huquqqa ega bo'lib, ularning bajarilishini kontrol qiladilar.

Kasaba uyushmalarining respublika va hududiy birlashmalari o'z vakolatlari doirasida aholini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan himoya qilish tadbirlarini ishlab chiqishda, turmush darajasining asosiy mezonlarini, narx-navo indeksi o'zgarishiga qarab tovon to'lash miqdorini aniqlashda qatnashadilar; qonunda belgilab qo'yilgan kun kechirishning eng past darajasiga hamda pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdoriga rioya etilishini kontrol qiladilar.

Kasaba uyushmalari ma'muriyat, mulkdor yoki ular vakil qilgan boshqaruvi organi mehnat va kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonunlarga rioya qilinishini kontrol qilib boradilar va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilishga haqlidirlar. Ma'muriyat mehnat va kasaba uyushmalariga oid qonunlar buzilishini bartaraf etish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqib, uning natijalari to'g'risida bir oy muddat ichida kasaba uyushmasiga xabar qilishlari shart.

Kasaba uyushmalari mehnat qiluvchilarning mehnat huquqlarini himoya qilib, da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilishga haqlidirlar. Shu maqsadda, kasaba uyushmalari inspeksiyalar, huquqiy yordam xizmatlari va boshqa zarur idoralarga ega bo'lishi mumkin.

Ma'muriyat jamoa shartnomasi shartlarini buzuvchi qaror qabul qilgan taqdirda, kasaba uyushmalari ana shu qoidabuzarlikni bartaraf etish to'g'risida ma'muriyatga taqdimnomaga kiritishga haqlidir, bu taqdimnomaga bir hafta ichida ko'rib chiqilishi kerak.

Kasaba uyushmalari o'z kontrol huquqlarini asosan, jamoat nazoratchilari, jamoat kontrol komissiyalari orgali amalga oshiradilar.

Kasaba uyushmalari davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini kontrol qilish jarayonida asosan, ularning o'z ishini rejalashtirish, operativ boshqaruvni tashkil etish, kadrlar masalasini hal qilish, ishni tashkil etish va muhofaza qilish, ish haqini to'g'ri aniqlashga qaratadilar. Bundan tashqari, kasaba uyushmalari savdo va umumiy

ovqatlanish korxonalarining, uy-joy shirkatlari va sog‘liqni saqlash hamda madaniyat sohalaridagi muassasalarning ishlarini ham kontrol qilib turadilar. Davlat boshqaruv organlari va xo‘jalik organlari faoliyatini kontrol qilishda jamoat komissiyalarining ahamiyati katta.

Davlat boshqaruv organlarining faoliyati ustidan kontrol yuqorida ko‘rsatilgan jamoat tashkilotlaridan tashqari olimlarning jamiyati, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar tomonidan o‘z sohalari bo‘yicha olib boriladi.

### **3-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida kontrol va uning ahamiyati**

Ichki ishlar organlarida kontrol ushbu tizimdagи yuqori turuvchi organ tomonidan quyи turuvchi organ faoliyatida qonuniylik va intizomni ta‘minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlarida kontrolning asosiy vazifalari quyida-gildan iborat: ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va qonun osti hujjatlarining og‘ishmay bajarilishini ta‘minlash; ichki ishlar organlarida qabul qilinadigan qarorlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash; tashkiliy va operativ xizmat faoliyatining umumiy darajasini ko‘tarish; ishdagi kamchiliklarning oldini olish, ularni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish; ijobjiy tajribani aniqlash va joriy etish; xodimlarning intizomini va mas’uliyatini oshirish; kadrlarni to‘g‘ri baholash va ulardan to‘g‘ri foydalanish (ularni boshqa lavozimlarga o‘tkazish)da ko‘maklashish.

Mazkur vazifalarning xilma-xilligi ichki ishlar organlarida kontrolning bir qancha turlari bo‘lishini tagozo etadi. Ichki ishlar organlari tizimiga kiruvchi subyektlar qo‘llaydigan kontrolning amalda ishlatiladigan turlarini ko‘rib chiqamiz. Ularni bir qator mezonlar bo‘yicha ajratish mumkin.

*Boshqaruv siklidagi o‘rnini bo‘yicha* oldini oluvchi, joriy va keyingi kontrol farq qiladi.

*Oldini oluvchi (preventiv) kontrol* bo‘ysunuvchi organlar yoki xodimlar qaror qabul qilayotgan bosqichda (masalan, ish rejasini tasdiqlayotganda) amalga oshiriladi. U bo‘ysunuvchi xodimlarning yuqori turuvchi subyekt qarorlarini bajarishga yoxud muayyan,

jumladan, favqulodda (ekstremal) sharoitlarda harakatlanishga tayyorligini tekshirish uchun (masalan, organning favqulodda vaziyat sharoitida harakat qilishga tayyorligini tekshirishda) qo'llanishi mumkin.

*Joriy (operativ) kontrolni* subyekt qaror ijrosini ta'minlash jarayonida amalga oshiriladi. Kontrolning ushbu turi tashkiliy ishning elementi hisoblanadi (masalan, organ rahbarining tezkor tadbir o'tkazilishini kontrol qilishi, ushbu tadbirni o'tkazish jarayonida amalga oshiriladi) hamda qarorlarga tuzatishlar kiritish, boshqaruv tizimini tartibga solish imkonini beradi.

*Keyingi kontrol (ijroni tekshirish)* qaror bajarilganidan keyin (masalan, reja, buyruq kabilarning qanday bajarilganligini tekshirganda) amalga oshiriladi. Ta'kidlash joizki, joriy kontroldan farqli ravishda, kontrolning ushbu turiga kamroq darajadagi operativlik xos. U bo'ysunuvchi xodimlarning muayyan qarorni bajarish faoliyatiga aralashish imkonini bermaydi, chunki bu jarayon tugagan bo'ladi (bunda xato va kamchiliklarga yo'l ko'yilgan bo'lishi ham mumkin). Shu bilan birga, keyingi kontrol ichki ishlar organlari faoliyatining umumiy natijalarini (ular ishining ahvolini) aniqlash hamda undagi mavjud umumiy kamchiliklarni tugatish uchun zarur.

*Vazifasi (maqsadi va hajmi) bo'yicha* umumiyligi va maxsus kontrol farq qiladi. Umumiy kontrol kontroldagi organ, bo'linma yoki xodim faoliyatining barcha tomonlarini, *maxsus (maqsadli, tarmoq)* kontrol esa ishning ayrim yo'naliishlarini (masalan, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklarga qarshi kurashni) qamrab oladi.

Kontrolning maqsadlari, tekshiradigan masalalar doirasi va subyektining darajasi bo'yicha nazorat turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Boshqaruv amaliyotida bunday shakllarning ko'pchiligi qo'llaniladi. Kontrol qanchalik xil shakllarda amalga oshirilsa, shunchalik amaliy va samarali bo'ladi.

Ular barchasini muayyan belgilari bo'yicha va ma'lum darajada shartli ravishda ichki ishlar organlarida kontrol qilish shakllarining uchta asosiy guruhiga bo'lish mumkin: ijrochilarining faoliyatibilan joylarda bevosita tanishish; ularning ishini ko'rsatuvchi axborot hujjalarni o'rganish; ijrochilarning o'z ishlari bo'yicha bergen

hisobotlarini tinglash. Birinchi guruhga kiruvchi kontrol shakllariga — tekshirilayotgan obyektlarning faoliyatiga doir axborotni bevosita idrok etish xosdir. Ayni vaqtida kontrol shakllarini ikkinchi va uchinchi guruhga birlashtirish mezonini asosan ushbu faoliyat haqida axborot olish usuli tashkil qiladi.

*Ijrochilarining faoliyati bilan joylarda bevosita tanishish quyidagi yo'llar orqali amalga oshirilishi mumkin:*

— rahbarning ijrochilar ishini bevosita kuzatib turishi (masalan, patrul-post xizmati xodimlarining postlarda xizmat o'tashini, profilaktika inspektorlarining aholini qabul qilishini, jinoyat qidiruv bo'limlari operativ vakillarining jinoyatlarni ochish borasidagi ishlarini hodisa yuz bergan joyda, operativ tadbirlar o'tkazish chog'ida tekshirishi va hokazo);

— bo'ysunuvchi ichki ishlar organlari faoliyatini inspektorlik tekshiruvi (kompleks), kontrol va boshqa tartiblarda tekshirish.

*Inspektorlik tekshiruvi* kontrol shakllaridan biri bo'lib, operativ-xizmat faoliyatini, bo'ysunuvchi mustaqil ichki ishlar organlari ning ishini barcha yo'naliishlar va xizmatlar bo'yicha yalpi tekshirishdan iborat. Inspektorlik tekshiruvini IIV, IIB, shahar, tuman, transportdagi ichki ishlar organlari tarmoq xizmatlari bo'linmalarining faol ishtirokida tashkil qiladilar. Uni maxsus tashkil etiladigan komissiyalar Inspektorlik tekshiruvi dasturi bo'yicha amalga oshiradilar. Mazkur dasturni tashkiliy-inspektorlik bo'linmalari manfaatdor xizmatlar ishtirokida ishlab chiqadilar va tekshiruv o'tkazish haqida qaror qabul qilgan rahbar tasdiqlaydi. Komissiya tarkibiga, tashkiliy-inspektorlik apparatlari va tarmoq xizmatlari xodimlaridan tashqari, O'zbekiston Respublikasi IIV ta'lim, ilmiy tadqiqot muassasalarining xodimlari ham kirishi mumkin.

*Inspektorlik tekshiruvining vazifalari hamda tezkor xizmat faoliyatining tekshirilishi lozim bo'lgan asosiy yo'naliishlari o'z aksini topgan dastur tekshiriluvchi organga tekshiruv boshlanishi dan 10 kun avval yuboriladi. Biroq ayrim hollarda inspektorlik tekshiruvi tekshiriladigan organga oldindan xabar bermay va dastur yubormay turib ham o'tkazilishi mumkin. Inspektorlik tekshiruvlari joylarda ishning ahvolini puxta va to'liq o'rghanish, organ faoliyatini xolisona baholash, ishdagi kamchiliklarning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ishlab*

chiqish, operativ xizmat faoliyatini tashkil qilishda amaliy va metodik yordam ko'rsatish, ilmiy ishlanmalar va ijobiy tajribani joriy qilishga imkon beradi. IIV, IIBda inspektorlik tekshiruvlari odatda besh yilda bir marta; shahar tuman organlari va transportdagi organlarda - uch yilda bir marta, operativ vaziyat keskinlashgan hollarda, favqulodda vaziyatlarda va shu kabi sharoitlarda esa boshqacha davriylik bilan ham o'tkazilishi mumkin.

*Kontrol tekshiruvlari* — inspektorlik tekshiruvlari davomida aniqlangan kamchiliklarning qanday bartaraf etilayotganligini, uning natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan tadbirlarning bajarilishi va samaradorligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Ularni inspektorlik tekshiruvi o'tkazishni tayinlagan rahbarning qarori bo'yicha IIV, IIBning shtab bo'linmalari odatda inspektorlik tekshiruvi tugaganidan so'ng bir yildan keyin tashkil qiladilar. Organda vaziyat ijobiy tomonga o'zgargan taqdirda rejadagi kontrol tekshiruvlari o'tkazilmasligi mumkin, buning o'rniغا kontrolning boshqa shakllari (masalan, hisobotlarni, bildirgi varaqalarini o'rganish kabilalar) qo'llaniladi.

*Obyektiga kompleks chiqishlar* ham faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan yoki murakkab vaziyatlarda ish olib borayotgan ichki ishlar organlarning faoliyatini kompleks tekshirish shakllaridan biridir. Bunday tekshiruvlarni IIV, IIBning turli bo'linmalari va xizmatlari vakillaridan iborat maxsus tuzilgan kompleks guruhlar amalga oshiradilar. Obyektga chiqishlardan ko'zlangan maqsadlarga, amaliy yordam ko'rsatish bilan bir qatorda, kontrol qilinayotgan organ faoliyatining yo'nalishlarini tekshirish, xizmat faoliyatini tashkil qilishga doir hujjatlarni o'rganish kabilalar kiradi. Kompleks guruhlar IIV, IIBga - kamida ikki yilda bir marta; shahar, tuman, yo'nalish organlariga esa yiliga kamida bir marta yuboriladi.

*Tarmoq tekshiruvlarining asosiy maqsadi* ichki ishlar organizining muayyan tarmoq xizmati bo'yicha faoliyatini tekshirish va amaliy yordam ko'rsatishdan iborat.

*Tanlab o'tkaziladigan (maqsadli, predmetli) tekshiruvlar* bir yoki bir necha ichki ishlar organining muayyan boshqaruq qarorini bajarish borasidagi ishini kontrol qilish yoxud u yoki bu ta'dbirni amalga oshirish samaradorligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Ichki ishlar organlaridagi tarmoq tekshiruvlari va tanlab o'tkazila-

digan tekshiruvlar maqsadli (mustaqil) chiqishlar orqali o'tkazili-shi mumkin. Inspektorlik tekshiruvlari, kontrol tekshiruvlari, kompleks va maqsadli (mustaqil) chiqishlar ayni vaqtida yuzaga kelayotgan sharoitdan kelib chiqib, IIV, IIB maxsus guruhalini yoki ayrim xodimlarini ichki ishlar organlariga xizmat safarlariga yuborishning tashkiliy shaklaridan hisoblanadi. Predmetli tekshi-ruvlarning turlaridan birini ko'riklar (masalan, saf ko'riga, texnika ko'rigi) tashkil qiladi.

Kontrolning ushu shakllari yordamida aniqlangan kamchilik-lar asosida nafaqat tekshiruv o'gkazilgan organlar, balki boshqa ichki ishlar organlarida ham bunday kamchiliklarning oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar ko'riladi.

*Ijrochilarining ishini ko'rsatuvchi axborot materiallarini o'rganish* quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— jinoyatchilikning ahvoli hamda bo'ysunuvchi organlar, bo'linmalar, xodimlarning tezkor xizmat faoliyati haqidagi tezkor va statistik ma'lumotlarni muntazam tahlil qilish;

— bo'ysunuvchi organlar, xizmatlar va bo'linmalardan ular ishining natijalari, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish borasida ko'rayotgan choralar haqida yozma hisobot talab qilib olish;

— jinoyat ishlari, tezkor materiallar hamda bo'ysunuvchi xodimlar ishini ifodalaydigan boshqa hujjalarni o'rganish;

— bo'ysunuvchi organlar va xodimlarning ishi haqidagi jamoatchilik fikrini matbuot materiallari, fuqarolarning shikoyatlari va arizalari, boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlarining ma'lumotlari asosida o'rganish;

— bo'ysunuvchi organlar va xodimlar tayyorlagan ish rejalarini va o'zga boshqaruv qarorlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash.

*Ijrochilarining o'z ishlarining ahvoli haqidagi hisobotlarini tinglash* zarur axborotni zudlik bilan olish, unga aniqlik kiritish va uni to'ldirish imkonini beradi. Tekshiruvning bu shakli jamoa bo'lib (majlislar, yig'ilishlar, kengashlar va shu kabilar orqali) ham, yakka tartibda, ya'ni ijrochini rahbar huzuriga chaqirish orqali ham o'tkazilishi mumkin.

Kontrolning samaradorligi uni amalga oshirishning eng maqbul shakli qo'llanilishi bilan bevosita bog'liq. O'z navbatida, bo'ysunuvchi organlar faoliyatini kontrol qilish shakllarining

tanlanishi ko'p jihatdan boshqaruv subyektining darajasiga ham bog'liq. Masalan, IIV, IIB darajasida kontrolning inspektorlik tekshiruvi, kontrol tekshiruvi, kompleks va maqsadli tekshiruvlar, axborot materiallarini o'rghanish kabi shakllari qo'proq qo'llaniladi. Shahar, tuman va transportdagi ichki ishlar organlari darajasida zsa ijrochilarning bilimlarini tekshirish bilan bir vaqtida ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ijrochilarning hisobotlarini tinglash, ularning ish rejalarini ko'rib chiqish va tasdiqlash, harakatlarini bevosita kuzatib turish kabi kontrol shakllarini qo'llagan ma'qul.

Amaliyotning ko'rsatishicha, kontrol maqsadlariga erishishda uning qandaydir bir turi yoki shaklini ustun qo'yish mumkin emas. Shuni inobatga olish lozimki, ularning har biri u yoki bu ustunlikka va kamchiliklarga ega. Shu bois boshqaruv subyektining har xil kontrol turlari va shakllarini mohirlik bilan qo'llashi, ularni yuzaga kelayotgan sharoitga, real imkoniyatlar va vaziyatga mos tarzda tanlashi ichki ishlar organlarida kontrol vazifalarini lozim darajada bajarish imkonini beradi.

**Ichki ishlar organlarida kontrolni amalga oshirishni tashkil qilish va uning usullari.** Boshqaruv subyekti kontrol faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirishga qo'yiladigan muayyan talablarga rivoja etgan taqdirdagina kontroldan ko'zlangan maqsadlarga erishish va vazifalarni muvaffaqiyatlari hal qilishi mumkin. Bunday talablarning asosiyлari quyidagilardan iborat: kontrolning umumiyligi, har tomonlama va chuqurligi, xolisona, oshkora va muntazam ekanligi.

*Kontrolning umumiyligi* uning barcha ichki ishlar organlari, uning bo'linmalari, apparatlari, xizmatlari va har bir xodimiga taalluqli bo'lishi kerakligini bildiradi. Bunda kontroldan chetda qoladigan organlar, bo'linmalar va xodimlar bo'lmasligi kerak, chunki samarali ish yuritayotganlar ham, orqada qolayotganlar ham, tekshiriluvchilar (boshqaruv obyektlari) ham, tekshiruvchilar (boshqaruv subyektiari) ham kontrolga bir xil darajada muhtojdirlar.

*Kontrolning har tomonlamaligi* uning bo'ysunuvchi organlar, bo'linmalar va xodimlar faoliyatining barcha yo'nalishlari va tomonlarini qamrab olishi lozimligini bildiradi.

*Kontrolning chuqurligi* boshqaruv subyektining tekshiriluvchilar faoliyatini bat afsil, puxta va to'liq mazmuni bo'yicha o'rghanishdan iborat.

*Kontrolning xolisligi* uni amalga oshirish natijasida nazorat qilinuvchi obyektdagi haqiqiy ahvolni aks ettiradigan hamda barcha omillarni ularning sabab-oqibat aloqalari bilan birga tahlil qilish asosida tekshiriluvchilarining ishi haqida asoslangan, xolisona xulosalar chiqarishga imkon beruvchi ishonchli ma'lumotlar olinishi kerakligini bildiradi.

Xolislik kontrolni tashkil qilish va amalga oshirish davomida subyektivlik, tarafkashlik (bir yoqlama qarash) va oldindan xulosa chiqarish kabi holatlar bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

*Kontrolning oshkoraliqi* ko'p jihatdan boshqa, ya'ni tekshirilmagan boshqaruv obyektlari ishidagi kamchiliklarning oldini olish va bartaraf etish, ijobiy tajribalarni joriy etish, xodimlar intizomi va mas'uliyatini kuchaytirishni ta'minlaydi.

*Kontrolning muntazamligi* uning vaqtı-vaqtı bilan o'tkazib turilishida namoyon bo'ladi. Ushbu talabning amalga oshirilishi ijrochilar mas'uliyatining ortishiga va tashabbusining kuchayishiga ancha yordam beradi, kontrol faoliyatining sifati va amaliyligini yaxshilaydi, uni amalga oshirishda parallelizm va bir-birini takrorlashga yo'l qo'ymaydi, ilgari o'tkazilgan tekshiruv natijalarining inobatga olinishi va vorisiyligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, kontrolning muntazamligi boshqaruvning turli subyektlari ayni bir masala bo'yicha ayni bir obyektni ko'p marta tekshirishining oldini olishga imkon beradi.

Ichki ishlар organlarida kontrolni oqilona tashkil qilish kontrol subyekti (uni amalga oshiradigan shaxs), obyekti (kontrol qilinadigan shaxs) va predmeti (kontrol qilinadigan faoliyat)ni to'g'ri belgilashni taqozo etadi. Ushbu masalalarning maqbul tarzda hal qilinishi kontrolga qo'yiladigan talablarning, ular oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

*Kontrol subyektini aniqlash.* Ichki ishlар organlaridagi kontrol faoliyatini vakolatlari, faoliyatining asosiy shakl va usullarini O'zbekiston Respublikasi IV normativ hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan turli subyektlar amalga oshiradilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, avvalo, kontrol ichki ishlар organlarining barcha darjalardagi rahbarlari amalga oshiradigan bosh-

karuv faoliyatining ajralmas tarkibiy qismidir. Ushbu rahbarlar kontrolni mustaqil va bevosita amalga oshirish bilan bir qatorda uni tashkil qiladilar, kontrol vazifalari, uni o'tkazish muddatlarini belgilaydilar, inspektorlik va boshqa komissiyalar (guruhlari)ning tarkibini tasdiqlaydilar yoki tegishli xodimlarni tayinlaydilar, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha chora ko'radilar, kontrol faoliyatida to'plangan ijobjiy tajribaning joriy etilishini ta'minlaydilar va hokazo.

Kontrol subyektlari orasida IIV tashkiliy-inspektorlik apparatlari, IIB, shahar, tuman va transportdagи ichki ishlar organlarining shtablari muhim o'rinni tutadi. Ular uchun kontrol asosiy funksiyalardan biridir. Ular kontrolni bevosita (inspektorlik tekshiruvlari va boshqa tekshiruvlar orqali) amalga oshirish bilan bir qatorda uni tashkil qilishda ham ishtirok etadilar, kontrol rejasini ishlab chiqadilar, boshqa subyektlarning kontrol faoliyatini muvofiq lashtiradilar, tegishli takliflar tayyorlaydilar va hokazo.

Tarmoq va funksional bo'linmalar hamda xizmatlarning tarmoq tekshiruvlari va tanlab o'tkaziladigan tekshiruvlarni tashkil qiluvchi hamda amalga oshiruvchi boshqaruv apparatining rahbarlari va inspektorlar tarkibi kontrol subyektlari hisoblanadilar.

**Kontrol obyekti aniqlash.** Ushbu masalani hal qilishning muhimligi shundaki, kontrolning xuddi boshqaruvning o'zi kabi, iyerarxiyaga (bosqichlarga) egaligi, shu bois har bir boshqaruv obyekti odatda bevosita bo'y sunuvchi obyektlar faoliyatini kontrol qilishi kerakligi bilan bog'liq. Masalan, O'zbekiston Respublikasi IIV, IIBni, ular esa o'z navbatida, shahar, tuman va transportdagи ichki ishlar organlarini kontrol qiladilar. Ichki ishlar organining boshlig'i o'z o'rindbosarlarining faoliyatini, ular esa o'zlariga bo'y sunuvchi ijrochilarining ishini kontrol qilishi kerak. Shu bilan birga, kontrol faoliyatining bunday tuzilishi (iyerarxik ekanligi) muayyan sharoitlarda iyerarxiyaning quyiroq bosqichida bo'lgan obyektlarning ham kontrol qilinishi mumkinligini istisno etmaydi.

Masalan, zarur bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi IIV muayyan bir ichki ishlar bo'limining faoliyatini, ichki ishlar bo'limining boshlig'i esa nafaqat o'zining o'rindbosarlari, balki bevosita ijrochilarini ham tekshirishi mumkin. Buning ustiga, bir

qator hollarda (jinoyatlarni ochish bo'yicha operativ qidiruv tadbirlari rejasini tasdiqlashda, patrul-post xizmatining borishini tekshirishda va hokazo.) ichki ishlar organi bo'limining boshlig'i bunday kontrolni amalga oshirishi shart.

**Kontrol predmetini aniqlash.** Eng umumiy ma'noda, kontrol predmetini ilgari qabul qilingan barcha boshqaruv qarorlarini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat tashkil qiladi. Ichki ishlar organlari misolida ushbu qarorlar kontrol qiluvchi yoxud yuqori turuvchi subyektga ham, IIV tizimiga kirmaydigan subyektlarga ham mansub bo'lishi mumkin (qonunlar, farmonlar, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarning ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarining ijrosini kontrol qilish).

Ichki ishlar organining kelgusida (masalan, maxsus tadbirni o'tkazish uchun) yoxud muayyan vaziyatda (masalan, favqulodda holat sharoitidagi harakatlar uchun) qarorlarni bajarishga tayyorlik holati ham kontrol predmetini tashkil qiladi.

Kontrol predmetini aniqlashda subyekt o'zining kontrolida bo'lgan organ, xizmat, bo'linma yoki xodimlarning vazifalari va funksiyalaridan kelib chiqadi. Ichki ishlar organlarida kontrolning eng muhim predmetlariga operativ xizmat faoliyati bosh yo'nalişlarining mazmunini tashkil etuvchi quyidagi jihatlar tashkil qiladi: jangovar-xizmat va safarbarlik uchun tayyorlik holati; jinoyatlarning oldini olish, ulami ochish va tergov qilish borasidagi ishlar; jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash; boshqaruv faoliyati. Kontrolning muhim predmetlariga quyidagilar ham kiradi: yo'llarda harakatlanish xavfsizligini, yong'in xavfsizligini, obyektlarning va fuqarolar xonadonlarining muhofaza qilinishini ta'minlash, xo'jalik ta'minoti, kadrlar bilan ishslash va hokazo.

Kontrol predmeti kontrol subyektining boshqaruv tizimidagi darajasi (IIV, IIB, shahar, tuman va tumandagi shahar IIQ), mavqeい va vazifasi (organ boshlig'i, kotibiyat, tarmoq bo'linmalari ekanligi)ga qarab farqlanadi. Masalan, IIV, IIB uchun ularga bo'ysunadigan organlar faoliyatining eng muhim turlari — jinoyatchilikka qarshi kurash holati, hukumatning ichki ishlar organlari faoliyatiga doir qonunlari va qarorlarining bajarilishi,

boshqaruv faoliyati kabilar kontrol predmeti hisoblanadi. Shahar, tuman va tumandagi shahar IIO rahbarlari uchun ularga bo‘ysunuvchi bo‘lim, bo‘linma va xodimlarning kundalik faoliyatiga oid torroq va juz’iyroq masalalar kontrol predmeti hisoblanadi: IIV, IIB normativ hujjatlari va o‘zga boshqaruv qarorlarini bajarish; bo‘linmalar va xodimlar o‘rtasida hamkorlikning holati; xizmat intizomining ahvoli; kadrlarni tanlash borasidagi ishlar; jinoyatlarga oid ariza va xabarlar bo‘yicha chora ko‘rish kabilar shular jumlasidan.

Kontrolning samaradorligi uni o‘tkazishning oqilona metodi-kasi bilan ta’milnadi. Bunday metodika kontrol faoliyatining muayyan ketma-ketligi, bosqichlarini, shuningdek bunda foydalaniladigan usullarni o‘z ichiga oladi. Kontrol faoliyati, kontrolning qaysi turi, shakli va uni amalga oshirish darajasi qo‘llanishidan qatyi nazar, quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: a) kontrol o‘tkazishga tayyorgarlik; b) kontrolni bevosita amalga oshirish; d) kontrolga yakun yasash.

Kontrol o‘tkazishga tayyorgarlik quyidagilardan iborat: kontrolni amalga oshiradigan shaxslarni aniqlash (inspektorlik va boshqa komissiyalarni, kompleks va maqsadli guruhlarni shakllantirish, ayrim xodimlarni tayinlash); ular o‘rtasida kontrol funksiyalari va aniq topshiriqlarni taqsimlash; ushbu obyekt uchun eng maqbul kontrol shakllarini tanlash; kontrol o‘tkaziladigan obyekt faoliyatining natijalari bilan (zarur bo‘lsa) dastlabki tanishuv; kontrol faoliyatini rejalashtirish (masalan, inspektorlik tekshiruvi dasturini, obyektga maqsadli chiqish rejasini tayyorlash); tekshiruvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish (maslahat berish).

Kontrolni bevosita amalga oshirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tekshirilayotgan masalalar bo‘yicha axborot to‘plash, tartibga solish va tahlil etish; olingan ma’lumotlarni umumlashtirish; kontrol qilinayotgan organlar, bo‘linmalar va xizmatlarga ularning faoliyatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqishda yordam ko‘rsatish; tegishli yakuniy hujjatlarni uchun tekshiruv davomida aniqlangan kamchiliklarni tugatish haqida takliflar tayyorlash.

Kontrolga yakun yasash bosqichi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: yakuniy hujjatlarni (inspektorlik yoki tekshiruv dalolatnomasi,

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish xususida berilgan takliflarni amalga oshirish rejasi, kontrol o'tkazish haqida qaror qabul qilgan rahbar nomiga yozilgan bildirgi varaqalar va hokazo.); tekshiriluvchilar faoliyatini baholash («qoniqarli» yoxud «qoniqarsiz»), ichki ishlar organlari faoliyatining barcha yo'nalişlarini baholash mezonlari va metodikasi O'zbekiston Respublikasi IIVning normativ hujjatlarida batafsil ko'rsatilgan; tekshiruv natijalarini tekshiriluvchilarga (alohida xizmat tekshirilganida esa ichki ishlar organining boshlig'iga) yetkazish. Ushbu bosqichda tekshiruv natijalari muhokama qilinadigan majlislar o'gazilishi mumkin.

Shuni inobatga olish lozimki, kontrolning turli shakl va turlarida har bir bosqichdagi ish hajmi bir xil bo'lmaydi. Ammo kontrolning har qanday shaklida ham boshkaruv jarayoniga, bo'ysunuvchilar faoliyatining natijalariga uning konstruktiv (ijobiyl) ta'sirini ta'minlash uchun unga puxta tayyorlanish zarur. Har qanday holda ham asosli xulosalar chiqarish, tekshiriluvchilar faoliyatini xolisona baholash uning mantiqiy yakuni bo'lishi kerak.

### *Nazorat uchun savol va toshiriqlar*

1. Kontrol va nazoratning fargini aniqlang.
2. Kontrol faoliyatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlarini aniqlang.
3. Davlat boshqaruvida sud organlari kontrol faoliyatining ahamiyatini ayting.
4. Sud organlaridagi kontrolning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Jamoat kontrolining davlat boshqaruvidagi ahamiyati nimalarda ifodalanadi?
6. Kasaba uyushmalari davlat boshqaruvinin faoliyatini kontrol qilish jarayonida qanday masalalarni hal etishga e'tibor qaratadi?
7. Ichki ishlar organlaridagi kontrolning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
8. Ichki ishlar organlari amaliyotida kontrolning qaysi turlaridan foydalilanildi?
9. Ichki ishlar organlarida kontrolni tashkil qilish va amalga oshirishga qanday talablar qo'yiladi?

*XVIII bob*  
DAVLAT BOSHQARUVIDA NAZORAT

**1-§. Davlat boshqaruvida nazorat  
tushunchasi va vazifalari**

Ma'lumki, davlat boshqaruv faoliyatining muhim hisoblangan nazorat natijasida nazorat subyekti mavjud ishlarning haqiqiy ahvoli, qabul qilingan qonunlar, qarorlarning haqiqatan ham to'g'ri bajarilish holati, darajasi to'g'risida aniq axborotga ega bo'ladi. Nazorat obyekti faoliyati jarayonining qabul qilingan boshqaruv qaroriariga muvofiqligini kuzatish va tekshirish, subyektning obyektga ta'siri natijalarini aniqlash tizimidir.

Yuridik adabiyotlarda ma'muriy nazoratni umumiylar maxsus turlarga ajratish e'tirof etilgan. Jumladan, umumiylar ma'muriy nazorat deyilganda davlat boshqaruv organlari, xo'jalik organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunlar bilan o'matilgan maxsus qoidalarning bajarilishi ustidan olib boriladigan nazorat tushuniladi. Bunday nazoratni maxsus vakolatga ega bo'lgan organlar amalga oshiradi. Ushbu organlar qatoriga: yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmati, profilaktika xizmati, yong'in xavfsizligi xizmati, davlat sanitariya organlari, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari kiradi. Mazkur organlar (mansabdor shaxslar)ning umumiylar ma'muriy nazoratni amalga oshirish bo'yicha faoliyati tegishli qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solingan. Ular tomonidan amalga oshiriladigan nazoratning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- tegishli faoliyatni tartibga soluvchi qonun va qonun osti hujjatlariga og'ishmay amal qilish;
- mazkur boshqaruv organlarida qabul qilinadigan qarorlarni o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlash;
- sohaga oid boshqaruv, tashkiliy, amaliy faoliyatning umumiylar darajasini oshirish;

- mavjud kamchiliklarni o‘z vaqtida oldini olish, aniqlashnda bartaraf etish;
- qo‘l ostidagi xodim va xizmatchilarining xizmat intizomini, nas’uliyati va javobgarligini oshirish.

Tegishli vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) umumiy ma’muriy nazoratni amalga oshirish uchun jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash jarayonida jamiyatga zid xatti-harakatlar va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida kishiarning ongiga va xulqiga ruhiy, moddiy yoki jismoniy ta’sir ko‘rsatishning bir qancha ma’muriy ta’sir choralarini qo‘llaydilar.

Davlat boshqaruving asosiy prinsiplaridan biri — qonuniylikdir. Shu sababli qonuniylikni ta’minlashda davlat boshqaruvi organlari tomonidan qo‘llaniladigan bir necha usullar mavjud bo‘lib, ular davlat boshqaruvin organlarining kontrol va nazorat faoliyati hamda fuqarolarning murojaatlardir.

**Nazorat** - maxsus vakolatli organlarning qonuniylik buzilishini aniqlash maqsadida bo‘ysunmagan organlar yoki shaxslar ustidan olib boradigan doimiy, muntazam kuzatuvidir. Ushbu organlar o‘zlariga bo‘ysunmagan obyektlar ustidan nazorat olib borish orqali qonun, o‘rnatilgan maxsus tartib buzilganligi aniqlansa, tartibni buzgan shaxsga nisbatan ma’muriy chora qo‘llashlari mumkin, lekin obyektlar tomonidan chiqarilgan g‘ayriqonuniy hujjatlarni bekor qila olmaydilar. Nazorat prokuratura va maxsus davlat nazorati organlari tomonidan, kontrol esa barcha yuqori turuvchi organlar tomonidan olib boriladi. **Nazorat predmeti** — birinchidan, vakillik va ijro etuvchi organlar, ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunlarning bajarilishi; ikkinchidan, shu organlar chiqarayotgan hujjatlarning amaldagi qonunlarga muvofiqligidan iborat.

**Nazoratning turlari:** prokuratura nazorati (umumiy va maxsus); ma’muriy nazorat (umumiy va maxsus); yong‘in nazorati; bojxona nazorati; sanitariya nazorati; veterinariya nazorati.

**Nazoratning asosiy xususiyati:** nazorat organlari o‘zining funksiyasi va vakolatlarini ularga tashkiliy jihatdan bo‘ysunmagan obyektlarga nisbatan amalga oshiradi.

**Nazoratning tashkiliy shakllari:** birinchidan, organ rahbarlari ning, shuningdek ular tomonidan tuzilgan komissiyalarining

nazorat faoliyati, ular uchun asosiy ish turi hisoblanmaydi, balki organga kelib tushgan ariza, shikoyat, ish yuzasidan tashkil etiladi; ikkinchidan, maxsus idoralar, xizmatlar va organlar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat ular uchun eng muhim yoki bosh funksiya hisoblanadi (masalan, sanitariya-epidemiologiya xizmati tizimi).

## **2-§. Prokuraturaning umumiy nazorati, uning shakllari**

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi 2001-yil 29-avgust (yangi tahrirdagi) qonuniga asosan, prokuror qonunlarga rioya etilishi ustidan umumiy nazorat olib boradi.

**Prokuratura organlarining umumiy nazoratni amalga oshirish-dagi asosiy vazifalari:**

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish; qonun ustuvorligini ta'minlash; qonuniylikni mustahkamlash; fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilish; jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish; huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilish.

**Prokuratura organlarining umumiy nazoratni amalga oshirishda faoliyatining asosiy yo'nalishlari:**

vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

fugaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish; sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbu-zarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoiy-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

**Prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplari** birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir.

Prokuorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, taftish, tekshirishlar o'tkazish, mutaxassis ajratish, prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek qonunga rioya etish to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasida qo'yayot-gan talablarini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiydir.

Prokuratura organlari o'z vazifalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari mazkur organlarning talabiga muvofiq bepul beriladi.

Prokuorning talablari ustidan shikoyat qilinishi ularning ijrosini to'xtatib qo'ymaydi.

**Prokuratura organlari nazorat jarayonida fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqib, quyidagi vazifalarni bajaradilar:**

- ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radilar;
- prokuror fuqarolar va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qiladi;

— prokuror o‘ziga tushgan taklif, ariza va shikoyatlarni tekshirish vazifasini zarur hollarda tegishli davlat boshqaruvi, nazorat va tekshirish organlariga, korxona, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga topshirish hamda ulardan tekshirishga taalluqli barcha materiallar bilan birga tekshirish natijalariga doir yozma axborot berishlarini talab etish huquqiga ega;

— fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha prokuror qaror qabul qiladi, bu qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilishi mumkin;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan fuqaroning ariza va shikoyati yoki yuridik shaxsning murojaati yuzasidan qaror qabul qilinganidan keyin prokuratura organlarida ular bo‘yicha ish yuritish tugatiladi, yangi ochilgan holatlar bundan mustasno.

### **Prokurorning nazorat jarayonida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari majlislarida ishtirok etishi.**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tegishinchcha O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari majlislarida belgilangan tartibda ishtirok etish huquqiga ega.

Viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar davlat hokimiyati va boshqaruvning tegishli va quyi organlari majlislarida belgilangan tartibda ishtirok etishga haqli.

Umumiy nazorat predmetiga quyidagilar kiradi:

— vazirliklar, davlat qo‘mitalari, organlar, davlat nazorat organlari, hokimlar, muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar, harbiy qismlar, jamoat birlashmalari, partiyalar va harakatlar, mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning bajari layotganligi, shuningdek, ular chiqarayotgan hujjatlarning konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligi;

— shaxsning daxlsizligi, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy erkinliklari, ularning sha’ni va qadr-qimmatini

muhofaza qilish (basharti ushbu huquqlarni muhofaza etishning o'zga tartibi ko'zda tutilmagan bo'lsa) to'g'risidagi qonunlarga rioya etilishi;

— iqtisodiy munosabatlarga, atrof-muhitni muhofaza qilish va tashqi iqtisodiy faoliyatga doir qonunlarga rioya etilishi.

Prokuror aralashuvini talab qiladigan qonunbuzarlik hollari haqida arizalar yoki boshqa ma'lumotlar tushganda, shuningdek, yetarli asoslar bo'lganda, o'z tashabbusi bilan ham qonunlar ijrosi bo'yicha tekshiruvlar o'tkaziladi. Prokuorning bevosita xo'jalik va boshqa turdag'i faoliyatga aralashuviga, shuningdek, boshqaruv va nazorat organlari faoliyatini amalga oshirishiga yo'l qo'yilmaydi.

Prokuror o'z vakolati doirasida nazoratni amalga oshirish chog'ida:

— xizmat guvohnomasini ko'rsatib, vazirliklar, davlat qo'mitalari va organlari tobelligidan, kimga qarashli ekanligidan qat'i nazar, tashkilotlar va birlashmalarning, harbiy qismlar, jamoat birlashmalarining hududiga va binolariga moneliksiz kirishga, hujjat va materiallarni olib ko'rishga;

tekshirish uchun zarur bo'ladigan qarorlar, farmoyishlar, yo'riqnomalar, buyruqlar va boshqa hujjatlarni talab qilib olishga, qonuniylikning ahvoli to'g'risida va uni ta'minlashga doir chora-tadbirlar haqida ma'lumot olishga;

davlat organlari, harbiy qismlarning rahbarlari va mansabdor shaxslaridan o'z nazorati ostidagi hamda o'z bo'ysunuvidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini tekshirish va taftish qilishni, tekshirishlar o'tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilishga;

mansabdor shaxslar va fuqarolarni chaqirtirib, ulardan qonunlarning buzilganligiga doir og'zaki, yozma tushuntirishlar talab qilishga haqlidir.

**Prokuror nazorati hujjatlarining turlari:** protest, qaror, taqdimoma, ariza va ogohlantiruvdan iborat.

Qonun buzilgan taqdirda prokuror va uning o'rindbosarlari o'z vakolatlari doirasida:

Birinchidan, vazirliklar, davlat qo'mitalari va organlarining, korxona va tashkilotlar, muassasalar, hokimlar, harbiy qismlar va

jamoat birlashmalari hujjaligiga, shuningdek, mansabdor shaxslarning qarorlari va xatti-harakatlariga nisbatan protestlar keltirishi mumkin. Protest qonunga zid bo'lgan normativ hujjaliga nisbatan ana shu hujjalni chiqargan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiriladi. Mansabdor shaxsning xatti-harakatlariga nisbatan ham xuddi shu tartibda protest keltiriladi. Protest u topshirilgan vaqtidan boshlab ko'pi bilan o'n kun muddat ichida ko'rib chiqilishi shart. Qonuniylik buzilganligiga tezda barham berish talab qilingan favqulodda hollarda prokuror protestni ko'rib chiqishning qisqartirilgan muddatini belgilashga haqlidir. Protestni ko'rib chiqish natijasi haqida prokurorga darhol yozma ravishda ma'lum qilinishi kerak. Protest kollegial organlar tomonidan ko'rib chiqilgan taqdirda majlis bo'ladigan kun prokurorga ma'lum qilinishi kerak, prokuror esa protestni ko'rib chiqishda ishtirok etishga haqlidir.

Protest g'ayriqonuniy hujjalni chiqargan organ yoki yuqori turuvchi organ tomonidan rad etilgan taqdirda, shuningdek, protest qonunda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilmagan taqdirda, prokuror tegishli sudga ana shu hujjalni g'ayriqonuniy deb, ariza bilan murojaat qilishga haqlidir. Sudga protest rad etilganligi to'g'risida ariza axborot berilgan paytdan boshlab, bir kun muddat ichida yoki ko'rib chiqish uchun qonunda belgilangan muddat o'tgandan keyin berilishi mumkin. Prokuroming bergen arizasi sudda ko'rib chiqilguniga qadar u hujjalning amal qilishini to'xtatib qo'yadi.

Ikkinchidan, qonunda belgilangan tartibda jinoyat, intizomiy yoki ma'muriy huquqbazarliklarga doir ishlarni qo'zg'atishga, ko'rib chiqish uchun materiallarni jamoatchilik muhokamasiga topshirishga haqlidir.

Bunday hollarda prokuror ish qo'zg'atish to'g'risida asosli qaror chiqaradi. Intizomiy yoki ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish haqidagi prokuror qarori organ yoki aniq mansabdor shaxs tomonidan bu qaror tushgan kundan boshlab kechi bilan o'n besh kun muddat ichida ko'rib chiqilishi shart. Ko'rib chiqish natijalari to'g'risida prokurorga zudlik bilan yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Uchinchidan, qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik xusuvida mansabdor shaxslar va fuqarolarga yozma ravishda ogohnoma bildirishga haqlidir.

Fuqarolarning qonuniy manfaatlariga, huquq va erkinliklariga, davlat yoki jamoat manfaatlariga zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan g‘ayriqonunniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli ma’lumotlar bo‘lganda huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida mansabdar shaxslar va fuqarolar prokuror tomonidan qonunning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik xususida yozma ravishda ogohlantiriladilar hamda huquqbuzarlik uchun ularning javobgarligi tushuntiriladi. Ogohnoma to‘g‘risida prokuror yuqori turuvchi tashkilotga, shuningdek, ogohnoma chiqarilgan shaxsning ishlash, o‘qish yoki yashash joyi ma’muriyatiga yoxud jamoat birlashmaliga ma’lum qilishga haqlidir.

To‘rtinchidan, fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risida sudlar yoki xo‘jalik sudlariga ariza bilan murojaat etishga haqlidir.

Beshinchidan, davlat idoralari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslar tomonidan qonunbuzarlik hollarini, shuningdek, qonun buzilishining sabablari va bunga yo‘l ochib bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida taqdimnoma kiritishga haqlidirlar. Bunday taqdimnomalar qonun buzilishini bartaraf etish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organiga yoki mansabdar shaxslarga kiritiladi, bu taqdimnoma darhol ko‘rib chiqilishi lozim. Ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida bir oy muddat ichida prokurorga ma’lum qilinishi shart. Taqdimnoma kollegial organ tomonidan ko‘rib chiqilayotganda, prokurorga majlis o‘tkaziladigan kun ma’lum qilinishi kerak, prokuror esa bu majlisda qatnashishga haqlidir.

### **3-§. Ma’muriy nazorat tushunchasi, turlari va xususiyatlari**

Davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat tashkilotlari va ularning mansabdar shaxslari tomonidan qonunlar bilan o‘rnatilgan maxsus qoidalarning bajarilishi ustidan olib boriladigan nazorat ma’muriy nazorat deb ataladi. Ushbu nazoratni maxsus vakolatga

ega bo'lgan organlar amalga oshiradi. Bunday organlar qatoriga: davlat avtomobil nazorati, davlat yong'in xavfsizligi nazorati organlari, shahar texnika nazorati organlari, davlat sanitariya organlari, davlat veterinariya nazorati organlari, tabiatni muhofaza qilish organlari, ichki ishlar organlari va hokazolar kiradi.

Ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash, yo'llarda harakatlanish xavfsizligi qoidalari, pasport tizimi, yong'in xavfsizligi qoidalaring fuqarolar va mansabdar shaxslar tomonidan bajarilishi ustidan nazorat olib boradi.

Bundan tashqari, ular maxsus qoidalarning bajarilishi ustidan ham nazorat o'matadilar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati to'g'risida»gi 1992-yil 9-dekabr qonuniga asosan, jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorat, tarbiyaviy profilaktik ta'sir choralar majmuuni ifodalab, nazorat ostidagilarga nisbatan maxsus cheklashlarni qo'llashni amalga oshiradilar.

*Sanitariya nazorati.* Ushbu nazorat turi O'zbekiston Respublikasining «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi 1992-yil 3-iyul qonuniga asosan amalga oshiriladi.

Davlat sanitariya nazorati bu sanitariya qonunlari buzilishining oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yishga qaratilgan sanitariya-epidemiologiya xizmatining faoliyatidir.

O'zbekiston Respublikasining davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati qaysi organga bo'ysunishidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar sanitariya normalari va gigiyena normativlariga rivoja etishlari ustidan davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi.

Sanitariya-epidemiologiya stansiyasi tibbiy-profilaktik muassasa hisoblanib, sanitariyaga doir va epidemiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarining majburan uyuştirilishi va o'tkazilishini ta'minlaydi hamda davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi.

Davlat sanitariya nazoratini tashkil etish va amalga oshirish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi va

uning o'rribosarlari, viloyatlar, tumanlar Bosh davlat sanitariya vrachlari va ularning o'rribosarlari zimmasiga yuklatilgan.

Davlat sanitariya nazorati quyidagi qoidalarning buzilmasligini ta'minlaydi:

1) tuproqni, atmosfera havosini, oziq-ovqat mahsulotlarini, ish olib boriladigan joy havosini, ochiq va yer osti suv bilan ta'minlash manbalarini, aholi tomonidan madaniy-maishiy maqsadda foydalaniadigan suv havzalari va suv omborlarining qirg'oqlarini kamyoviy, fizikaviy, biologik va boshqacha tarzda ifloslantirmaslikni;

2) sanitariya normalari, qoidalariiga rioya etish va gigiyena normativlarini hisobga olish, aholining salomatligini muhofaza qilishda sanitariya-epidemiologiya masalalariga, aholining radiatsiya xavfsizligini ta'minlashga doir normativ-texnikaviy hujatlarni ishlab chiqilishi ustidan;

3) yangi xomashyo turlari, texnologiya uskunalarini, asboblarini, oziq-ovqat mahsulotlari hamda oziq-ovqat xomashyosi, sanoat buyumlari, binokorlik materiallarini, ion hosil qiluvchi nurlanish manbalarini, kamyoviy moddalar va mahsulotlarni, biologiya vositalari, oziq-ovqat xomashyosi, oziq-ovqat mollari va dori-darmonlar bevosita tegib turadigan idishlar hamda boshqa materiallarni, bu materiallardan tayyorlanadigan buyumlarni, atir-upa va pardoz mahsulotlari hamda boshqa xalq iste'moli mollarini, tibbiyot va immunobiologiya dori-darmonlarini ishlab chiqarish va qo'llashga doir normativ-texnik hujatlarni ishlab chiqish ustidan va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi 1992-yil 9-dekabr qonuniga asosan ekologik nazoratni amalga oshiradi1. Ekologik nazorat oldiga: atrof tabiiy muhit holatini hamda xo'jalik yuritish va boshqa faoliyat ta'siri ostida unda bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatib borish; atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalaniish, atrof tabiiy muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlar talablari va atrof tabiiy muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlar bajarilishini tekshirish vazifasi qo'yilgan.

**Ekologik nazorat tizimi davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat, idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazoratidan iborat.**

***Nazorat uchun savol va topshiriqlar***

1. Davlat boshqaruvida nazorat faoliyatining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Davlat boshqaruvida nazorat faoliyatining turlari nimalardan iborat?
3. Prokuror nazorati predmetining mohiyati haqida so‘zlab bering.
4. Prokuror nazoratining qanday shakllari mavjud?
5. Ma’muriy nazorat qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?
6. Umumiy ma’muriy nazoratni qaysi organlar amalga oshiradi?

## **MAXSUS QISM**

- **Boshqaruvning ayrim sohalarini ma'muriy-huquqiy tartibga solish**

**BOSHQARUVNING AYRIM SOHALARINI MA’MURIY-  
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

---

*XIX bob*

**IQTISODIYOT SOHASINI MA’MURIY-HUQUQIY  
TARTIBGA SOLISH**

**1-§. Sohani boshqarishning mazmuni**

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq mamlakatimiz bozor munosabatlariiga asoslangan demokratik huquqiy jamiyat qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Prezidentimiz J.A.Karimov tomonidan belgilab berilgan bozor munosabatlariiga o‘tishning beshta tamoyili dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Ana shu tamoyillardan biri – bozor munosabatlariiga o‘tishda davlatning bosh islohotchi ekanligidir. Darhaqiqat, o‘tish davrida davlatning islohotlarni amalga oshirish-dagi roli katta ahamiyatga ega. Chunonchi, birinchidan, hozirgi sharoitda davlatning roli mohiyatan iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan; ikkinchidan, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sohalardagi ahamiyati xorijiy davlat-larning tarixiy tajribasida ham o‘z isbotini topgan.

O‘tkazilayotgan islohotlar doirasida bugungi kunda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining vazifalari va tarkibini qayta ko‘rib chiqish ishlari jadal olib borilmoqda. Bunda boshqaruv tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshirish, qabul qilinayotgan qarorlar sifatini yaxshilash hamda boshqaruv apparatiga şarflanayotgan asossiz xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan qat’iy faoliyatga alohida ahamiyat berilmoqda.

Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, markazda tashkil etilgan har qanday boshqaruv organi odatda, viloyatlar va tumanlarda o‘zining hisob beruvchi bo‘linmasiga ega bo‘ladi, bu esa boshqaruv apparati va texnik xodimlarning ko‘payib ketishiga olib keladi. Oqibatda, qo‘shimcha nazorat organlari paydo bo‘lishini, xarajatlar ko‘la-

mining ortishini, turli xil shartnomalar va ortiqcha qog'ozbozliklarni keltirib chiqaradi. Bular davlat boshqaruvining ayrim organlari faoliyati samaradorligining keskin pasayishiga sabab bo'ladi.

Islohotlar asosini tashkil etuvchi iqtisodiyotni boshqaruvning yangi konsepsiysi vertikal ma'muriy tuzilmalarni aniq vazifalarni bajaruvchi mustaqil tashkilotlarning gorizontal tarmog'i bilan muvofiqlashtirilishini taqozo etadi. Bunda shartnoma asosida boshqarish, ichki va tashqi audit kabi mexanizmlar yaratiladi. Davlat siyosatini shakllantirish masalalari vazirliklar va davlat qo'mitalarida jamlanadi, ularning ijrosini ta'minlash va nazorat qilish agentlik, qo'mita, inspeksiya kabi davlat boshqaruvi organlari zimmasiga yuklanadi.

Davlat sektori faoliyatiga xorijda tajribadan o'tkazilgan, xususiy kompaniyalarda qo'llaniladigan davlat menejment usullari tobora kengroq joriy etilmoqda. Bunda asosiy e'tibor davlat tuzilmalarining tahliliy, amaliy va baholash vazifalarini rivojlantirishga, eng muhimmi, qarorlar qabul qilish, avvalo, markaziy boshqaruv organlarida qabul qilinayotgan qarolarning sifati va ularning tayyorlanishini yaxshilashga qaratiladi.

Boshqaruv tarkibini takomillashtirishga nisbatan bunday yondashuvga misol tariqasida Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining ikki mustaqil davlat boshqaruv organiga – Iqtisodiyot vazirligi va Statistika davlat qo'mitasiga aylantirilganini, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, «O'zbekneftgaz» xolding kompaniyasidagi va boshqa davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlaridagi tashkiliy o'zgarishlarni keltirish mumkin.

Shuningdek, tumanlar boshqaruv tarkibini optimallashtirish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalgalashirilmoqda. Oliy Majlis va respublika hukumati qarorlariga ko'ra 2003 – 2004-yillarning o'zida 8 ta ma'muriy tuman hokimligi va ular quyi tashkilotlari tugatildi. Ushbu ma'muriy tumanlarning birlashtirilishi, ortiqcha hududiy boshqaruv tizimlari va ularning quyi tashkilotlarning tugatilishi yarim milliard so'mni tejash, bu mablag'ni mazkur tumanlarning ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga sarflash imkonini berdi.

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy erkinligini ta'minlash va ularga keng huquqiy kafolatlar berishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, xo'jalik subyektlarini tekshirishlarni tartibga solish va nazorat organlari sonini muntazam qisqartirish bo'yicha doimiy ish olib borilmoqda. Jumladan, hukumatning qator maxsus qarorlari bugungi kunda iqtisodiy faoliyat subyektlari xo'jalik ishlariغا davlat organlarining aralashuvini sezilarli darajada chekladi, natijada xo'jalik subyektlarini davlat nazorat organlari tomonidan tekshirishlar bir necha barobar kamaydi.

Iqtisodiyotni bozor islohotlariga va ma'muriy boshqaruvin islohotlariga tayyorlash ma'lum darajada korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish hamda yangi xususiy sektorni tashkil etishga bog'liq edi. Davlat iqtisodiyotini xususiylashtirish dasturi o'tgan asming to'qsoninchi yillaridan boshlandi va ulgurji hamda chakana savdo, moddiy-texnik ta'minot, umumiyligini ovqatlanish, maishiy xizmat sohasi, shuningdek, mahalliy ahamiyatga ega sanoat korxonalarini ishlab chiqargan mahsulotlarni taqsimlash hamda almashish bilan bog'liq butun sektorni qamrab oldi.

Shundan so'ng har yili tasdiqlanadigan xususiylashtirish dasturi iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha ko'plab elekrotexnika, mebel korxonalarini, farmatsevtika sanoati, umumiyligini mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish, ko'plab yo'lovchi va yuk tashuvchi avtomobil turlarining deyarli butun sektorini xususiylashtirish imkonini berdi. 2003-yilda keng ko'larda korxonalarini xususiylashtirish va aksiyalashtirish tufayli iqtisodiyot boshqaruvida yo'qotishlarga yo'l qo'ymasdan korxonalar ma'muriy boshqaruvining saqlanib qolgan elementlarini boshqaruvning yangi korporativ uslublari bilan almashtirish uchun yetarli shart-sharoit yaratildi. 2004-yil boshida O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida nodavlat sektorining ulushi 74,5 foiz, sanoatda – 73,9 foiz, qurilish ishlariда 88,8 foizni tashkil etdi. Iqtisodiyot sohasida ishlayotgan kishilarning 77,2 foizi xususiy sektorda band bo'ldi.

XXI asr boshiga kelib O'zbekiston MDH mamlakatlari o'rtaida birinchi bo'lib iqtisodiy tanazzulni yengib o'ta oldi va 1997-yil sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha, 2001-yilda yalpi ichki mahsulot borasida islohotgacha bo'lgan darajaga yetib oldi. Ayni

paytda bozor iqtisodiyotining qonunchilik va institutsiyaviy asoslari yaratilgan bo'lib, u xususiy mulkchilik keng rivojlangan holatda barcha mulkchilik shakllari tengligi, yangi bank tizimini shakllantirish, tovar, moliya bozorlarini erkinlashtirish, shuningdek, bozor munosabatlari jarayonlarini amalgalashga qodir yangi davlat institutlarini ta'sis etish kabi tayanch asoslarni yaratishni o'z ichiga oladi.

2003-yil oxirida joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha milliy valutani erkin konvertatsiyalashga o'tish iqtisodiy islohotlarda tub burilish yasadi.

Shu bilan birga jamiyat hayotini har tomonlama erkinlashtirish bo'yicha islohotlar mantiqi va ehtiyoji davlat vazifalarini mikromiqyosda, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlar va hududlarni rivojlantirish darajasida ancha qisqartirishni qat'iy talab etmoqda. Bu shu narsa bilan bog'liqki, bozor sharoitlariga ko'nikish holatida davlat organlarining korxonalar va aholining qonuniy faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi biznes va umuman iqtisodiy taraqqiyot uchun tobora katta to'siq bo'lib qolmoqda.

Masalan, sobiq tarmoq vazirliklari negizida qayta tuzilgan xo'jalik birlashmalari, ayniqsa, kadrlar siyosati, tanqis xom ashyo turlarini taqsimlash borasida bir qator ma'muriy vazifalarini o'zlarida saqlab qolgan bo'lib, shu dastaklar orqali korxonalarning xo'jalik faoliyatiga ko'p aralashar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003-yil 24-yanvar farmoni haqiqiy bozor uslublari foydasiga korxonalarni boshqarishda davlatning ma'muriy resurslardan foydalanishdan voz kechishi masalasida burilish davri bo'ldi.

Davlat boshqaruvi vazifalarini ko'plab tarmoq uyushmalari, konsern, xolding va kompaniyalarning xo'jalik faoliyati vazifalarini bilan qo'shib yuborish ham dolzarb muammolardan biridir. U bozorming barcha ishtirokchilariga xo'jalik yuritish uchun teng shart-sharoit yaratish, iqtisodni monopoliyadan chiqarishga yordam bermadi. Ko'pgina xo'jalik birlashmalari xo'jalik vazifalarini bilan bir qatorda davlat boshqaruvining ayrim vazifalarini ham bajardilar. Xususan, korxonalarning qonunchilikka rioya qilishga

oid faoliyatini inspeksiyaviy nazorat qilish, faoliyat yuritish uchun litsenziya va boshqa turli ruxsatnomalar berish shular jumlasidan. Bularning bari toqat qilib bo'lmas darajaga yetib, iqtisodiy islohotlarning xo'jalik yurituvchi subyektlar va korxonalar egalarining tashabbuslari va tadbirkorligi yo'liga g'ov bo'layotgan edi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy borada muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan hoki-miyatning ayrim bo'g'inlari o'rtasidagi vakolatlarni cheklashga, markaziy organlarning mahalliy boshqaruvi organlari bilan o'zaro munosabatlari xususiyatiga bog'liq. Boshqaruvi apparati a'zolarining haddan ziyod ko'pligi, vazifalarning takrorlanishi, boshqaruvning yaxshi tashkil qilinmaganligi, jamoatchilik nazoratining yetishmasligi davlat boshqaruvi organlari byurokratizmining kuchayishiga, tadbirkorlikning rivojlanishi yo'lida turli xil to'siqlarning ko'payishiga asos bo'ladi.

Aynan shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekistonda mamlakat Prezidentining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan **ma'muriy islohot yo'nalishlaridan biri — davlat boshqaruvi tizimida vazifalarни aniq belgilab olish va nomarkazlashtirish sanaladi**.

Bu ustuvor yo'nalish bo'lib, **davlat boshqaruvi vazifalarini nomarkazlashtirish:**

Birinchidan, hukumatning umumdavlat ahamiyatiga molik strategik masalalarga e'tibor qaratishga imkon beradi. Bu davlatni boshqarish va strategik rejalashtirish samaradorligini oshirishga ko'maklashadi, markaziy boshqaruvi organlari tuzilmasi va sonini optimallashtirish uchun sharoit yaratadi, ularning xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga joriy aralashuvidan xalos qiladi.

Ikkinchidan, davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar (ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, ta'lim, obodonlashtirish va hokazo sohalarda) uchun mahalliy hokimiyat organlarining mas'uliyatini oshiradi, ushbu xizmatlar turlarini ko'rsatuvchi institatlarni foydalanuvchilarga yaqinlashtiradi. Bu esa, o'z navbatida, xizmat turlaridan foydalanish darajasini, davlat boshqaruvi tizimining sifati, ochiq-oydinligi va samaradorligi oshirishga yordam beradi.

Uchinchidan, mahalliy hokimiyat organlariga mahalliy shartsharoit va ehtiyojlarni hisobga olgan holda ustuvor yo‘nalishlarni mustaqil belgilash hamda resurslarni taqsimlash bo‘yicha vakolat berish orqali ularning demokratik rolini oshiradi.

To‘rtinchidan, o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat nohukumat tashkilotlariga davlat nazoratining ko‘plab vazifalarini jamoatchilik nazorati sifatida berishni amalga oshiradi.

Beshinchidan, mamlakatda fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

Davlat boshqaruvi organlari vazifalarini nomarkazlashtirish mazmuni, shakli, uslubi va ko‘lamidagi farqlarga qaramay dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Jamiyatga iqtisodiyotni boshqarishning demokratik tamoyillarini allaqachor joriy etgan, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda nomarkazlashtirishdan maqsad – davlat boshqaruvi tuzilmasi va uning vazifalarini optimallashtirish, davlat organlari ishini jamoatchilik nazoratiga olish mexanizmini yaratish, vazifalarni hukumatning quyi bo‘g‘inlariga, o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, xususiy sektorga berish orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishdir.

Jahon amaliyotida mustaqillik darajasiga ko‘ra nomarkazlashtirishning quyidagi asosiy turlari farqlanadi:

**Gorizontal nomarkazlashtirish.** Bunda hukumat vazifalar vazirliliklar va idoralarga o‘tadi. Ularga parlament va markaziy hukumat tomonidan belgilangan strategiya, standart va budgetga muvofiq davlat xizmatini ko‘rsatish masalasini hal etishda erkinlik beriladi.

**Vertikal nomarkazlashtirish.** Mazkur uslubda vazifalar markaziy ijroiya hokimiyatdan davlat hokimiyatining mustaqil organlariga va joylardagi mustaqil boshqaruv organlariga o‘tkaziladi. Bunda joylardagi mustaqil boshqaruv organlari qonunchilikka muvofiq tegishli xizmat turlarini ko‘rsatish va moliyalash masalasini hal etish hamda strategiyasini belgilashda to‘liq yoki qisman mustaqillikka ega bo‘lishi mumkin.

**Markaziy boshqaruv organlarining (vazirliliklar va idoralar) vazifalarini vertikal dekonsentratsiyalash.** Bu ayrim vazifalarni egishli hududiy bo‘linmalarga berish orqali amalga oshiriladi. Bunda

markaziy vazirliklar va idoralarning hududi boshqaruv organlari o‘z faoliyatini markaziy hukumat va tegishli idoralar belgilaydigan strategiya doirasida amalga oshiradi hamda odatda, davlat budgetidan moliyalashtiriladi.

Davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida **vazifalarini nodavlat tashkilotlariga o‘tkazish**.

O‘zbekistonda ma’muriy islohot doirasida davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish davlatning boshqaruv darajalari o‘rtasida vakolatlarni aniq belgilab olish va davlat vakolatining o‘sib kelayotgan qismini bosqichma-bosqich o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

**Nomarkazlashtirish va vakolatlarni cheklashning asosiy tamoyillari quyidagicha:**

— respublika davlat boshqaruv organlarida davlatning siyosiy, strategik, tartibga soluvchi va huquqni belgilovchi vazifalarini markazlashtirish;

— joriy davlat boshqaruvi ijroiya faoliyatining asosiy qismini hududiy (viloyat, tuman, shahar) darajaga o‘tkazish;

— siyosiy, strategik, tartibga soluvchi vazifalarini bajarish talab etilmaydigan sohalarda davlat boshqaruvining mustaqil bo‘lgan viloyat tuzilmalarining (respublika organlari tasarrufida bo‘lmasan) faoliyat yuritishi;

— davlat kundalik vazifalarini bajarish davomida aholi yoki xo‘jalik yurituvchi subyekt bilan mustahkam aloqa o‘rnatish zarur bo‘lganda yoki bu faoliyat faqat idoraga qarashli hududdagi aholi manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsa (masalan, uy-joy kommunal xo‘jaligining ishonchli faoliyat yuritishini ta’minlash, obodonlashtirish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, kichik biznesni rivojlantirish sohalaridagi siyosatni amalga oshirish), respublika organlarining viloyat bo‘g‘inlari ishlab turishi;

— aholiga va xo‘jalik yurituvchi subyektlarga davlat xizmati ko‘rsatish bilan bog‘liq joriy ijroiya faoliyat ko‘lami keng bo‘lgan hollarda respublika (viloyat) organlarining tuman (shahar) bo‘g‘inlari faoliyat yuritishi;

— davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarni aholiga, tadbirkorlik subyektlariga, iste’molchilarga imkon qadar yaqin-

lashtirish (masalan, viloyat darajasida ijtimoiy va transport infrazilmasi qurilishi, ro'yxatdan o'tkazish taomillari, soliqlarni to'lashni shahar va tuman darajasiga yaqinlashtirish).

***Respublikada davlat boshqaruvi vazifalarini cheklash va vazifalarni nomarkazlashtirish bir necha yo'naliшlar bo'yicha amalga oshiriladi.***

***Birinchi yo'naliш – bir paytning o'zida tarmoq boshqaruvidan funksional boshqaruvga o'tishni nazarda tutuvchi gorizontal nomarkazlashtirish.***

Mustaqillik yillarda vazirliklar, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri davlat boshqaruvi vazifalarini amalga oshiruvchi tarmoq idoralari soni keskin qisqardi. Respublika miqyosidagi 50 dan ortiq vazirlik va idoralar qayta tashkil etildi. Ma'muriy islohotlar sharoitida hukumat qaroriga muvofiq iqtisodiyotning turli sohalarida davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini amalga oshiruvchi 20 dan ortiq tuzilma tugatildi va qayta tashkil etildi.

Davlat iqtisodiy boshqaruvining asosiy negizlari Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlan-tirish davlat qo'mitasi, Davlat mulk qo'mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligining ish faoliyati umummilliy davlat manfaatlari nuqtai nazaridan strategik vazifalarni hal etishga yo'naltirildi.

Davlat boshqaruv organlarini isloh qilish jarayonida saqlanib qolgan vazirliklar va qo'mitalar Nizomini tasdiqlash davomida davlat boshqaruvining muhim bo'lgan huquqni o'rnatish va huquqni ijro etish vazifalari o'zgaradi. Agentliklarga asosan, egalik qilish va ijro etish vazifalari inspeksiyalarga - qonunchilik ijrosi yuzasidan kuzatish va nazorat qilish vazifalari yuklatiladi.

***Ikkinchi yo'naliш davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarining bo'linishi.*** 1997-yildan boshlangan islohotlar davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish xo'jalik va davlat boshqaruvi vazifalarini bo'lish jarayonini tugallashga qaratilgan. Shunday qilib, bosqichma-bosqich tarzda tegishli xo'jalik birlashmalari nazorat ishlaridan ozod qilindi. Bu barcha nazorat-taftishga oid boshqaruv idoralarini tugatish (ular o'rнига mustaqil auditorlik kompaniyalari rivojlanib ketdi), «O'ztemiryo'nazorat», «Avianazorat», «Davlat avtomobil va daryo

transporti agentligi» kabi maxsus inspeksiyalarni tuzish orqali amalga oshirildi.

**Uchinchi yo‘nalish vertikal tarmoq dekonsentratsiyasi.** Bu jarayon respublika organlari vazifalarining bir qismini quyi tuzilmalarga, jumladan, xususiy sektorga berish orqali amalga oshiriladi. Hukumat markaziy apparati tarmoqlar va korxonalarning joriy muammolarini hal etish bilan band. Bu hol strategik boshqaruv masalalarini sifatli ishlab chiqish, xo‘jalik subyektlari mustaqilligini oshirish, davlat boshqaruvi va korxonalarning quyi bo‘g‘inlaridagi rahbarlarda boqimandalik kayfiyatini butunlay yo‘qotishga yordam bermaydi.

Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish jarayonida quyi davlat organlariga davlat mulkini boshqarish va tartibga solish ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish va nazorat qilish vazifalari beriladi. Masalan, o‘z davrida tugatilgan Kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi vazifalarining bir qismi «O‘zkommunxizmat» agentligiga berilgan. Tugatilgan vazirlikning ko‘pgina vazifalari mahalliy hokimiyat organlariga, xususan, xususiy sektorga olib berilgan. «O‘zbaliq», «O‘zparrandasanoat», «O‘ztransqurilish», «O‘zmashsanoat», «O‘zqog‘ozsanoat» kabi tugatilgan uyushmalar tizimiga kirgan korxonalarni bugungi kunda aksiyadorlarning o‘zları boshqarmoqda.

**To‘rtinchchi yo‘nalish resurslarning markazlashtirilgan taqsimotini tugatish.** Mayjud taqsimlash tizimini bekor qilmasdan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining korxonalar faoliyatiga aralashuvini nomarkazlashtirib va qisqartirib bo‘lmaydi. Garchi, O‘zbekistondagi markazlashgan taqsimlash tizimi asosan, iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichlarida o‘zgartirilgan bo‘lsa-da, biroq, resurslarning alohida strategik turlari (paxta tolasi, yonilg‘i-moylash materiallari, mineral o‘g‘itlar, rangli metallarning ayrim turlari, kabel-o‘tkazgich mahsulotlari, oziq-ovqat tovarlari) bo‘yicha eskicha taqsimot mexanizmi amal qilaverdi, taqsimlash organlariga bozor tizimiga xos bo‘lмаган hukmonlik vakolatini berdi va korrupsiya uchun zamin yaratdi.

Aynan shuning uchun Respublika Prezidenti I.Karimovning tashabbusi bilan taqsimot tizimidan butunlay voz kechish va

mahsulotlarni sotishning bozor mexanizmini joriy etish ma'muriy islohotlarning muhim yo'nalishi deb belgilandi. 2003-yil kuzida paxta tolasini sotishning taqsimlash tizimi o'miga birja savdosi tizimi yuzaga keldi. Hozirgi kunda tadbirkorlar birja va yarmarka savdo tarmog'i orqali bir-biri bilan teng sharoitlarda raqobatlashgan holda ko'pgina xom ashyo va mineral resurslarni, jumladan, neft mahsulotlari, mineral o'g'it, qora va rangli metall, o'simlik yog'i, bug'doy, un, shakar va hokazolarni sotib olishlari mumkin.

**Beshinchi yo'nalish vazifalarining bir qismini respublika markazidan joylardagi davlat boshqaruvi organlariga o'tkazish.** Hozirgi kunda ko'pgina davlatlar mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining tobora faol subyektlariga aylanib bormoqda. Mahalliy miqyosda ilgari o'z yechimini topmagan va faqat markazda topgan katta va jiddiy masalalar ham hal etilmoqda.

Joylardagi davlat hokimiyati organlari o'z faoliyatini yanada ko'proq quyidagi asosiy vazifalarini bajarishga qaratmoqdalar:

a) ijtimoiy siyosatni, jumladan, ta'lim, sog'lioni saqlash, aholini ijtimoiy himoyalash sohalarida amalga oshirish;

b) uy-joy-kommunal xo'jaligining ishonchli va samarali ishslashini hamda idoralarga qarashli aholi punktlari obodonchiliginin ta'minlash;

d) xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhit, aholi bandligini kengaytirish va barqaror daromad manbaini shakllantirish uchun zarur sharoit yaratish;

e) yer-suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash;

f) bevosita xo'jalik subyektlarining joylashgan o'mni va aholining yashash joyiga ko'ra biznesga oid tartib-qoidalarni amalga oshirish;

g) fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvi organlari hamda fuqarolik jamiyatni tuzilmasining samarali faoliyat yuritishiga ko'maklashish.

Ayni paytda davlat boshqaruvi vazifalarining bir qismini markazdan mintaqalarga o'tkazish joylarda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni mustaqil hal eta oladigan davlat xizmatchilarining malakali tarkibini shakllantirishni talab qiladi.

Shuningdek, hokimlarning o'zlariga ishonib topshirilgan hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan

yillik va o‘rtal muddatli dasturlarning amalga oshirilishi yuzasidan aholi oldida, xususan ommaviy axborot vositalari orqali doimiy hisobot berib borishlari juda muhimdir.

**Oltinchi yo‘nalish davlat hokimiyyati vazifalarini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga berish.** Mahalliy hokimiyyat organlarining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari (mahalla, fuqarolar yig‘ini) bilan o‘zaro munosabatlari yangicha ahamiyat kasb etmoqda. O‘zini o‘zi boshqarish organlarining an‘anaviy shakli bo‘lgan va davlat boshqaruvi tizimiga kirmaydigan mahallalar tobora ko‘proq vakolatlarga ega bo‘lib borayapti.

Ular an‘anaviy vazifalarni bajarish bilan bir qatorda kam ta‘minlangan va ko‘p bolali oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda ijtimoiy nafaqa berishni amalga oshiradi, shuningdek, kommunal va boshqa to‘lovlarni yig‘ish, hududning sanitariya holatini saqlash va obodonchiliginu ta‘minlashda tegishli xizmat idoralariga ko‘maklashadi.

**Yettinchi yo‘nalish — vazifalarni davlat boshqaruvi organalardan nodavlat notijorat tashkilotlariga o‘tkazish.**

O‘zbekistonda nohukumat tashkilotlar tez o‘sib kelayotgan ijtimoiy sektor hisoblanadi. Yaqin istiqbolda ularni muhim ijtimoiy-siyosiy vazifalarni hal etishda, jumladan, jamiyat salohiyatini oshirish va qo‘llab-quvvatlash borasida mahalliy hokimiyyatning teng huquqli hamkor sifatida ko‘rish mumkin.

Masalan, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlar, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari, buxgalterlar uyushmalari kabi nohukumat tashkilotlarning faoliyati bunga misol bo‘la oladi. Davlat hozirgi kunda ilgari turli davlat tuzilmalari bajargan muhim vazifalarni ularga o‘tkazgan.

Shunday qilib, iqtisodiyotni erkinlashtirish islohotlarning hozirgi bosqichida davlat boshqaruvi samaradorligini va oshkoraligni oshirishga yordam beradigan hokimiyyatni nomarkazlashtirish jarayonini faollashtirishni talab qiladi. Aynan shu bois, mamlakatimiz Prezidenti mazkur ma’muriy islohotlarning tashabbuskori va g‘oyaviy rahbari sifatida kun tartibiga o‘ta muhim masalani qo‘ydi. Unga ko‘ra, bozor islohotlari jarayoni davlat hokimiyyatining xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir

ko'rsatishning ma'muriy dastaklarini tuzatish, qarorlar qabul qilishda joylardagi ijroiya va vakillik organlarining vakolatlarini oshirish, davlat tomonidan berilgan vazifalarni amalga oshirish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini kadrlar bilan ta'minlash, fuqarolarning siyosiy faolligini va tashabbuskorligini oshirish bilan o'tkazilishi lozim.

## 2-§. Iqtisodiyot sohasini boshqarish

Iqtisodiyot mamlakat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. «Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoiti yaratib berish borasida o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarimiz hamda mintaqqa va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni shart qilib qo'ymoqda. Bu borada ustuvor vazifa avvalgidek – bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishdan iborat. Bu yo'nalishda ko'p ishlar qilindi, ammo yaqin vaqt ichida hal qilishimiz lozim bo'lgan masalalar ham oz emas. Ya'ni, eski ma'muriy taqsimot tizimi qoliplaridan butunlay voz kechish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini yanada cheklash, erkin tadbirdorlik faoliyati uchun amaliy kafolatlarni ta'minlash, iqtisodiyot va biznesni barqaror rivojlantirish, to'laqonli bozor infratuzilmasini shakllantirish yo'lidagi mavjud g'ov-to'siqlarni bartaraf etishimiz zarur»<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 24-dekabrda qabul qilingan farmoniga2 ko'ra iqtisodiyotga bozor mexanizmi va uslublarini joriy qilishni davom ettirish, jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish talablariga muvofiq iqtisodiyot va statistika organlarining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tashkil qilindi hamda mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбек халки ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т. 2005. – 209-б.

strategiyasi hamda kompleks dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, quyidagi g'oyat muhim vazifalarni hal etishga qaratilgan chuqur o'ylangan va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi zimmasiga yuklandi.

Iqtisodiyot vazirligi quyidagi muhim vazifalarni hal etishga qaratilgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi:

— makroiqtisodiy barqarorlikka, iqtisodiyotni mutanosib va tez sur'atlarda o'sishiga erishish;

— ko'p ukladli va samarali faoliyat ko'rsatuvchi iqtisodiyotni shakllantirish, xususiy mulkchilikning yetakchi rolini ta'minlash, bozor infratuzilmasini rivojlantirish;

— boy tabiiy va mineral xom ashyo resurslaridan yaratilgan ishlab chiqarish va ilmiy-texnik salohiyatdan samarali va oqilona foydalanishga yo'naltirilgan aniq maqsadli tarkibiy siyosatni amalga oshirish, eksport imkoniyatini rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimiga keng integratsiyalashuviga erishish;

— yangi ish o'rnlari yaratish, mehnat resurslarini ish bilan oqilona ta'minlash muammolarini hal etish, aholini aniq tarzda ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, aholi turmush darajasini barqaror, izchil o'stirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;

— mamlakat mintaqalari iqtisodiyotining mutanosib va kompleks rivojlanishi, ishlab chiqarish kuchlaridan maqbul va samarali foydalanish hamda respublika hududlari bo'yicha joylashtirilishini ta'minlash.

Iqtisodiyot vazirligi o'ziga yuklangan vazifalarni mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning qisqa va o'rtal muddatli bashoratlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiqtisodiyot kompleksiga kiruvchi vazirliklar va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish yo'li bilan ro'yobga chiqaradi.

*Quyidagilar Iqtisodiyot vazirligining asosiy vazifalari hisoblanadi:*

— jamiyatni rivojlantirish va demokratik qayta o'zgarishlarning maqsadi va ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va isloh qilishning, iqtisodiyotni boshqa-

rishning bozor metodlari va mexanizmlarini joriy etishning puxta o'ylangan strategiyasi ishlab chiqilishini tashkil etish va muvofiq-lashtirish;

— asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, respublikaning, mintaqalarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi darajasini kompleks ravishda izchil tahlil qilish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish, iqtisodiyotdagi mavjud nomutanosibliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini asoslash;

— iqtisodiyotni rivojlantirishning ko'p variantli ssenariylarini, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning mintaqalar, tarmoqlar va iqtisodiyot sektorlari bo'yicha qisqa va o'rta muddatli bashoratlari va dasturlarini ishlab chiqish;

— muhim qiymat, moddiy va mehnat balanslarini ishlab chiqishni tashkil etish;

— asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning pul-kredit agregat-lari, davlat budgeti parametrlari, tashqi savdo, to'lov balanslari va tarmoqlararo balanslar bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi ta'sirchan mexanizmni shakllantirish;

— budjet-soliq, pul-kredit, valuta va monopoliyaga qarshi siyosatning umumiy yo'nalishlari, tabiiy monopoliyalar mahsulotlari, tovarlari va xizmatlariga narxlar va tariflarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish, to'lov, moliya va moddiy balanslarni shakllantirish va ularning amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha takliflar tayyorlashda qatnashish va boshqalar.

Iqtisodiyot vazirligi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarini bajaradi:

— bozor metodlari va vositalari asosida iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqadi;

— respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli darajasini, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qiladi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tendensiyalarini belgilaydi, iqtisodiyotdagi nomutanosibliklarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo'llarini asoslaydi, respublika iqtisodiyoti rivojlanishining ahvoli to'g'risida yillik va choraklik ma'ruzalar tayyorlaydi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan iqtisodiyotni

rivojlantirish va isloh qilish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning bajarilishini nazorat qiladi;

— muhim qiymat, moddiy va mehnat resurslari balanslarini ishlab chiqadi, iqtisodiyotni barqaror, dinamik va mutanosib rivojlantirishni ta'minlash yo'llarini asoslab beradi va metodlarini ishlab chiqadi va boshqalar.

*Vazirlik faoliyatini tashkil etish.* Iqtisodiyot vazirligiga Vazir rahbarlik qiladi. Vazirni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot vazirining bir nafar birinchi o'rribbosari va bosh boshqarmalar boshliqlari hisoblanadigan uch nafar o'rribbosari bo'ladi. Vazirning birinchi o'rribbosari maqomiga ko'ra vazirga, vazir o'rribbosarlari — bosh boshqarmalar boshliqlari vazirning birinchi o'rribbosariga tenglashtiriladi.

Iqtisodiyot vazirligi o'z huzuridagi:

— samarali iqtisodiy siyosat markazi;  
— tovar bozorlari konyunkturasini o'rganish hamda investitsiya loyihalari va dasturlarini ekspertizadan o'tkazish respublika markazi;

— vazirlik ma'muriy binosidan foydalanish boshqarmasi;

«O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnali tahririyyati faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Iqtisodiyot bosh boshqarmalari, shuningdek respublika shaharlari va tumanlaridagi iqtisodiyot bo'limlari tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar, shaharlар va tumanlar hokimliklariga hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga qarashli bo'ladi.

Ularning faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish va muvofiqlash-tirishni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi amalga oshiradi.

Iqtisodiyot vazirligida 9 kishidan iborat Hay'at tuziladi, uning shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Hay'at o'zining muntazam o'tkazib turiladigan majlislarida mamlakatni, tarmoqlarni va hududlarni ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlantirishning muhim muammolarini, bashorat qilish metodologiyasini va uni tashkil etishni yaxshilash, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish masalalarini ko'rib chiqadi. Hay'at qarorlari Iqtisodiyot vazirining buyruqlari bilan hayotga tatbiq etiladi.

### 3-§. Sanoat sohasini boshqarish

Sanoat har qaysi mamlakat iqtisodiyotining asosi, yuragi hisoblanadi. Ko'pincha sanoatning qay darajada rivojlanganligiga qarab, davlatning iqtisodiy qudratiga baho beriladi. Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tish jarayoni barcha sohalarda bo'lgani kabi sanoat sohasida ham tub burilishlar yasadi. Prezidentimiz I.A. Karimov aytganlaridek, — nafaqat iqtisodda, umuman respublikada o'tkazilayotgan barcha islohotlar — bu, avvalambor, institutsion islohotlar, ya'ni, eski, mustabid iqtisodning qotib qolgan, g'oyat markazlashtirilgan tizimini yangi, erkin boshqaruvga ko'chirish, rag'batlantirish va jonlantiruvchi tizimga aylantirish poydevori hisoblanadi.

Sanoat sohasini boshqarish o'z ichiga metallurgiya sanoati, mashinasozlik sanoati, avtomobilsozlik sanoati, rangli metallarni qazib chiqarish sanoati, yengil sanoat va boshqa sanoat sohalaridagi korxonalarni boshqarishni qamrab oladi. Bular sanoatning ustuvor sohalari hisoblanib, ularni boshqarish uchun tegishli davlat boshqaruv organlari tashkil etilgandir.

***Yengil sanoat.*** O'zbekiston Respublikasi yengil sanoatida yagona davlat siyosati ***O'zbekiston Yengil sanoat mollari ishlab chiqarish davlat-aksiyadorlik kompaniyasi (O'zbekyengilsanoat)*** tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur kompaniya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 1-iyuldagи «Respublika yengil sanoatini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni\_ bilan respublika to'qimachilik, trikotaj, tikuvchilik va chinni sanoati tarmoqlarini yanada rivojlantirish hamda ularni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, paxta tolasini chuqur qayta ishlash hisobiga yengil sanoat mollari ishlab

chiqarishni ko'paytirish va eksport salohiyatini oshirish maqsadida sobiq O'zbekiston Yengil sanoat mollari ishlab chiqarish uyushmasi o'mida tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 2-iyuldagagi qaroriga binoan «O'zbekengilsanoat» («Ozbekyengilsanoat») yengil sanoat tovarlari ishlab chiqarish davlat-aksiyadorlik kompaniyasi «O'zbekengilsanoat» uyushmasining huquq va majburiyatlar bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 25-martdagagi «O'zbekengilsanoat» Davlat aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvtuzilmasini takomillashtirish va respublika yengil sanoatini yanada rivojlantirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi-qaroriga binoan quyidagilar «O'zbekengilsanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

— tarmoqni barqaror rivojlantirishning istiqbolli strategiyasini belgilash;

— tashqi va ichki bozordarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, bunda ip yigirishdan tayyor buyumlar ishlab chiqarish-gacha barcha texnologik jarayonlarda mahsulotlar sifati oshirilishi va qiymati pasaytirilishini nazarda tutish;

— xorijiy sheriklar bilan uncha katta bo'limgan, ixcham qo'shma korxonalar tashkil etish, shuningdek yengil sanoat korxonalarini xususiylashtirish va xususiy mulk etib berish masalalariga butun choralar bilan ko'maklashish, bunda yirik hamda bozor sharoitlariga moslashmagan ulkan korxonalar tashkil etilishiga yo'l qo'ymaslik;

— faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish, bunda ularda zamonaviy ilg'or asbob-uskunalar va texnologiyalar joriy etilishini nazarda tutish;

— yengil sanoat sohasida jahon bozorida yetakchi mavqeni egallagan mamlakatlardagi tajribasini chuqur o'rganish va marketing tadqiqotlarini tashkil etish, bunda tarmoqning eksport salohiyatini rivojlantirishga va tovarlarni tashqi bozordarga kiritishga alohida e'tibor qaratish;

— kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Respublika yengil sanoati to‘qimachilik, trikotaj, tikuvchilik va chinni sanoati tarmoqlaridan iborat bo‘lib, kompaniya ushbu tarmoqda yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

**Kompaniya faoliyatini tashkil etish.** Kompaniya boshqaruvi to‘qqiz kishidan, shu jumladan rais va uning uch nafar o‘rnbosaridan iborat bo‘ladi, o‘rnbosarlaridan biri birinchi o‘rnbosar hisoblanadi. Kompaniya boshqaruv raisi maqomi, maishiy ta’milot, tibbiy va transport xizmati ko‘rsatish sharoitlari bo‘yicha vazirga, raisning birinchi o‘rnbosari vazirning birinchi o‘rnbosariga, rais o‘rnbosarlar esa vazirning o‘rnbosarlariga tenglashtirilgan.

Kompaniya o‘z faoliyatini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirib, boshqaruvchi organlari kompaniya kengashi va kompaniya rayosati hisoblanadi. Kompaniya kengashi tarkibiga kompaniya tarkibidagi bir qancha konsern, korxona, tashkilotlar rahbarlari kiradi. Kengashning yig‘ilishlari kengash raisining tashabbusi bilan, lekin yiliga ikki martadan kam bo‘lmagan muddatda chaqiriladi. Navbatdan tashqari kengash yig‘ilishlari kompaniyaning uchdan bir qismidan kam bo‘lmagan a’zolari tomonidan chaqirilishi mumkin. Kengashning qarorlari kengash yig‘ilishida a’zolarning ochiq ovoz berish yo‘li qabul qilinib, har bir a’zo bir ovozga egadir. Agar berilgan ovozlar teng bo‘lib qolsa, kengash raisining ovozi hal qiluvchi bo‘lib hisoblanadi.

Kompaniya raisi va uning o‘rnbosarlari kompaniya kengashi tomonidan besh yil muddatga saylanadi va tegishli tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Kompaniyada kompaniya funksiyalarini amalga oshirish va kompaniya kengashi hamda kompaniya rayosati faoliyatini ta’minalash maqsadida ishchi apparat tashkil qilinadi.

**Neft va gaz sanoati** — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 11-dekabr farmoni bilan neft va gaz qazib chiqarish hajmini ko‘paytirish, yangi neft va gaz konlari o‘zlashtirilishini jadallashtirish, neft va gazni qayta ishslash hamda tashish samardorligini oshirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish borasidagi ishlarni faollashtirish, respublikaning neft va gaz sanoatida bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda neft-gaz tarmog‘ini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish maqsadida «O‘zbekneft-

gaz» Milliy korporatsiyasi «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasiga aylantirildi hamda ushbu Farmon bilan quyidagilar «*O'zbekneftgaz*» xolding kompaniyasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib belgilandi:

— joriy va uzoq muddatli bashoratlarni, gaz, neft va neftni qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning, tabiiy resurslardan va mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishning aniq maqsadli ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarini ishlab chiqish;

— respublika iqtisodiyoti hamda aholisining neft mahsulotlari va gazga bo'lgan talab-ehtiyojlarini to'la-to'kis ta'minlash;

— neft va gaz sohasidagi geologiya-qidiruv ishlarining strategik hamda ustuvor yo'nalishlarini belgilash va muvofiqlashtirish, neft va gaz konlarini qazishning samarali tizimi va usullarini joriy etish;

— xorijiy mamlakatlar va kompaniyalar bilan iqtisodiy, texnikaviy, texnologik va investitsiya sohasidagi hamkorlikni har tomonlama kengaytirish;

— neft, gaz va neft mahsulotlari respublika hamda jahon bozori konyunkturasini o'rghanish negizida sarmoyalarni jalb etish, gaz ta'minoti va neft mahsulotlari bilan ta'minlash tizimining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

— tarmoq korxonalarida yangi texnologiyalarni va ilg'or menejment usullarini joriy qilish.

**Energetika** – 2004-yil 21-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra «*O'zbek-energo*» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

— respublika iqtisodiyoti va aholisini elektr energiyasi va ko'mir bilan barqaror ta'minlash, respublika energiya tizimi ish rejimlarini tartibga solish va muvofiqlashtirish;

— elektr energetikasini va ko'mir sanoatini rivojlantirishning qisqa muddatli va uzoq muddatli bashoratlarini hamda maqsadli dasturlarini ishlab chiqish, elektr energiyasi hamda ko'mir ishlab chiqarish hamda iste'mol qilish balanslarini shakllantirishda qatnashish;

— zamonaviy asbob-uskunalar va ilg'or texnologiyalar negizida, shu jumladan xorijiy investitsiyalar hisobiga ishlab

chiqarish quvvatlari va elektr tarmoqlarini, ko'mir sanoati korxonalarini rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirishni amalga oshirish;

— ko'mir tarmog'ida geologiya-qidiruv ishlarini muvofiqlash-tirish, ko'mir konlarini ochish va qazib olishning samarali tizimlari va metodlarini joriy etish, uni ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda undan elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda ustun darajada foydalanish, energiyaning tiklanayotgan, shu jumladan noan'aniyi manbalarini rivojlantirish va joriy etish;

— respublika korxonalarini va tashkilotlari bilan birlgilikda elektr energiyasi va ko'mirni tejash, ulardan oqilonan foydalanish hamda ularning isrof bo'lishini kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish;

— marketing tadqiqotlarini tashkil etish, tarmoq korxonalariga ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning raqobatga bardoshli yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirishda, ularning jahon bozoriga chiqishida ko'maklashish;

— kompaniyaning tashkiliy tuzilmasiga kiradigan korxonalar va tashkilotlarga axborot xizmatlari ko'rsatish;

— elektr energetikasi va ko'mir sanoati uchun kadrlar tayyor-lash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish.

**Sanoat sohasida davlat nazorati.** 2004-yil 9-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan sanoatda, gaz ta'minoti hamda kon nazorati sohasida boshqaruva tuzilmasini yanada takomillashtirish va ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish samaradorligini ta'minlash maqsadida Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi O'zbekiston Respublikasi Sanoatda konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi («Sanoatkontexnazorat» davlat inspeksiyasi)ga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi («Sanoatkontexnazorat» davlat inspeksiyasi) respublika hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarning sanoatda ishlarni bextar olib borish, yer osti boyliklaridan

foydanish va ularni muhofaza qilishga doir qonunchilik hujjalari hamda normativ-texnik hujjatlar talablariga riosa qilishlari ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va u o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Davlat inspeksiyasi, uning hududiy inspeksiyalari va unga idoraviy mansub tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining sanoatda xavfsizlik sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining yagona tizimini tashkil etadi. Mintaqaviy inspeksiyalar mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil hisoblanadi va bevosita Davlat inspeksiyasiga bo‘ysunadi. Davlat inspeksiyasi o‘z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi hamda xalqaro bitimlar asosida boshqa davlatlarning davlat nazorat organlari bilan o‘zaro aloqa va hamkorlik qiladi.

*Quyidagilar Davlat inspeksiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:*

— yuridik va jismoniy shaxslarning sanoatda va gaz ta’minotida ishlarni bexatar olib borishga, yer osti boyliklaridan foydanish va ularni muhofaza qilishga, mineral xom ashyoni qayta ishlash va metallurgiya jihatidan saralashga, shuningdek kon ishlarini geologiya-marksheyderlik xizmati bilan ta’minalashga oid qonunchilik hujjatlari va normativ-texnik hujjatlar talablariga riosa qilishlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

— sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini ta’minalash sohasida oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

— gaz xo‘jaligi tizimida va ko‘p xonali turar joylar va respublikaning kommunal-maishiy obyektlarining gaz ta’minotida xavfsizlik ta’minalishini nazorat qilish;

— texnik xavfsizlik va yer osti boyliklarini muhofaza qilish masalalari bo‘yicha ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqishda qatnashish;

— iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida ishlarning bexatar olib borilishini ta’minalash tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi harbiylashtirilgan kon-qutqarish qismlariga tezkor va metodik rahbarlik qilish; o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha normativ-huquqiy va texnik hujjatlarni ishlab chiqish va belgilangan tartibda qabul qilish.

**Neft va gaz sohasida davlat nazorati.** O'zbekiston Respublikasida neft mahsulotlari va gaz sotish hamda ulardan foydalanish bo'yicha qonunchilik hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi neft mahsulotlari va gazdan foydalanish, ularni sotish, shuningdek neft, gaz va gaz kondensati qazib olish, ularni qayta ishlash, uzatish, saqlash obyektlarini (qurilmalarini) montaj qilish va ulardan foydalanishda texnologiya talablariga rivoja qilinishi ustidan davlat nazorati sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 13-iyulda qabul qilingan qarori bilan neft mahsulotlari va gazni qazib olish, ishlab chiqarish, sotish va ulardan foydalanishda belgilangan tartibga va texnologiya talablariga rivoja etilishini nazorat qilish darajasini oshirish maqsadida quyidagilar «O'zdavneftgazinspeksiya»ning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- neft mahsulotlari va gaz sotish hamda ulardan foydalanish bo'yicha qonunchilik hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilishini nazorat qilish;

- energiyani tejovchi davlat dasturlarini, neft, gaz, gaz kondensati va ularni qayta ishlash mahsulotlaridan foydalanish masalalari bo'yicha loyihalar va tadbirlarni amalga oshirish;

- neft, gaz va gaz kondensatini qazib olish, qayta ishlash, uzatish, saqlash obyektlarini (qurilmalarini) montaj qilish va ulardan foydalanishda texnologiya talablariga rivoja etilishini nazorat qilish;

- neft mahsulotlari va gazdan foydalanish, ularni sotish, shuningdek neft, gaz va gaz kondensatini qazib olish, qayta ishlash, uzatish, saqlash obyektlarini (qurilmalarini) montaj qilish va ulardan foydalanish bo'yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish.

«O'zdavneftgazinspeksiya» o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. Inspeksiya tizimiga yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy bo'limlar, shuningdek Toshkent nazorat-kimyo laboratoriyasi kiradi.

«O'zdavneftgazinspeksiya»ga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq boshchilik qiladi. Boshliqning qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan ikki nafar o'rinnbosari bo'ladi. «O'zdavneftgazinspeksiya» boshlig'i maqomiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi vazirining birinchi o'rinnbosariga, boshliq o'rinnbosarlari - O'zbekiston Respublikasi vaziri o'rinnbosarlariga tenglashtiriladi.

«O'zdavneftgazinspeksiya» xodimlari maqomiga ko'ra «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi xodimlarining tegishli toifalariga tenglashtiriladi.

***Elektr energetikada davlat nazorati.*** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-martdag'i 96-sonli qarori bilan Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat agentligi Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi («O'zdavenergonazorat» inspeksiyasi)ga aylantirildi. Inspeksiya elektr energiyasi, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, iste'mol qilish va ko'mirdan foydalanish sohasida normalar va qoidalarga rioxat etilishini nazorat qiluvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Yuqoridagi qaror bilan quyidagilar inspeksiyaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

— elektr energiyasi, issiqlik energiyasi oqilona va samarali ishlab chiqarilishi, uzatilishi, iste'mol qilinishi va ko'mirdan foydalanishni nazorat qilish;

— elektr energiyasi, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, iste'mol qilishda va ko'mirdan foydalanishda xavfsizlik ta'minlanishiga yo'naltirilgan oldini olish chora-tadbirlari amalga oshirilishini nazorat qilish;

— elektr energiyasi, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, iste'mol qilish va ko'mirdan foydalanish sohasida zarur normativ hujjatlar va qoidalarni ishlab chiqish;

— energetika tekshiruvlari va ekspertizalari o'tkazish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash.

Inspeksiya tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasidagi, O'zbekiston Respublikasining Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo Toshkent, Farg'on, Xorazm viloyatlaridagi hududiy bo'limlar va Toshkent shahar bo'limi kiradi. Hududiy bo'limlar mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita «O'zdavenergonazorat» inspeksiyasiga hisobot beradi.

«O'zdavenergonazorat» inspeksiyasining elektr, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish, uzatish, sotish va iste'mol qilish hamda ko'mirdan foydalanish masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Inspeksiya zarur hollarda, boshqa vazirlilar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birgalikda qo'shma qarorlar va boshqa hujjatlari chiqarishga haqlidir.

«O'zdavenergonazorat» inspeksiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

«O'zdavenergonazorat» inspeksiyasiga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan boshliq boshchilik qiladi.

Boshliq maqomiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi vazirining birinchi o'rinnbosariga, boshliqning o'rinnbosarlari vazirning o'rinnbosariga tenglashtiriladi. Boshliq lavozimiga ko'ra bir vaqtning o'zida Elektr va issiqlik energiyasidan foydalanishi ustidan nazorat qilish bo'yicha bosh davlat inspektori, uning o'rinnbosarlari esa - Elektr va issiqlik energiyasidan foydalanishi ustidan nazorat qilish bo'yicha bosh davlat inspektorining o'rinnbosarlari hisoblanadi. «O'zdavenergonazorat» inspeksiyasi hududiy bo'limlarining bosh inspektorlari elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish ustidan nazorat qilish bo'yicha katta davlat inspektorlari hisoblanadi.

## 4-§. Qishloq va suv xo‘jaligini boshqarish

Mamlakatimiz iqtisodiyotini qishloq xo‘jaligi sohasisiz tasavvur qilish qiyin. Qishloq xo‘jaligi respublikamiz iqtisodiyotining boshqa real sektorlari kabi uning izchil rivojini ta‘minlovchi muhim tarmoqlaridan biridir.

Qishloq xo‘jaligi sohasini boshqarish: yerlardan unumli foydalanish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tayyorlash va qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni yaxshi yo‘lga qo‘yish; ishlab chiqarishning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash va boshqa faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu sohani boshqarish *O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi* tomonidan amalga oshiriladi.

Vazirlik qishloq xo‘jaligi sohasini boshqarishni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va farmoyishlari hamda vazirdik to‘g‘risidagi Nizom asosida o‘zining hududiy organlari orqali amalga oshiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, viloyat qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmalari hamda tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limlari, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Magistral kanallar (tizimlar), irrigatsiya tizimlari boshqarmalari Vazirlikning hududiy organlari hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, viloyat qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmalari hamda tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limlari tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va tumanlar hokimliklariga hamda Vazirlikka bo‘ysunadilar va hisob beradilar.

*Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:*

- qishloq xo‘jaligini zamонавиylashtirish va barqaror rivojlanishiga qaratilgan yagona agrotexnika siyosatini amalga oshirish;
- zamонавиy agrotexnologiyalarni takomillashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlariga joriy etish;
- qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga bozor prinsiplari va mexanizmlari asosida xizmat ko‘rsatayotgan tarmoqlar, bo‘g‘inlar va tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;

- agrar sektorda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ijara munosabatlarini, oila pudratini, fermer xo‘jaliklarini keng rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtirish;
  - qishloq xo‘jaligini yuritishni va qishloq xo‘jaligi ekinlarini navlar bo‘yicha joylashtirishni takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish;
  - seleksiya, urug‘chilik, naslchilik ishlari, veterinariya, o‘simliklar karantini sohasida davlat siyosatini olib borish hamda chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash;
  - irrigatsiya tizimlarini havzalar bo‘yicha boshqarish prinsiplari asosida yer usti suv resurslarining davlat boshqaruvini amalga oshirish va barcha darajalarda suvdan foydalanishning bozor prinsiplerini joriy etish;
  - davlat suv xo‘jaligi tizimidan foydalanilishini va uning zamonaviylashtirilishini ta’minlash;
  - ilgaridan sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangi yerlarni o‘zlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
  - qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligida investitsiya siyosatini ishlab chiqishda qatnashish;
  - yer va suv resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash;
  - o‘rmon xo‘jaligidan foydalanish, uni qo‘riqlash, himoya qilish va rivojlantirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va boshqalar.
- O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi boshqaruvi markaziy apparati tuzilmasida:
- paxtachilikni rivojlantirish;
  - g‘allachilikni rivojlantirish;
  - sabzavot-poliz ekinlari, meva va uzumchilikni rivojlantirish hamda ularni kompleks qayta ishslash;
  - chorvachilikni rivojlantirish;
  - yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, irrigatsiyani rivojlantirish va yerlar unumdorligini oshirish;
  - qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va kimyolashtirish muammolarini hal etish bo‘yicha Kengashlar tuziladi.

Kengashlarning tarkibiga, egallab turgan lavozimlari va ilmiy unvonlaridan qat'i nazar, fan va amaliyotning tegishli sohalarida obro' qozongan yetakchi mutaxassislar va olimlar jamoatchilik asosida kiradilar. Kengashlarning barcha tavsiyalari Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hay'ati majlislarida muhokama qilinadi, uning qarorlarining bajarilishi majburiyidir. Kengashlarning ishchi organlari funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tegishli boshqarmalari va bo'limlariga yuklanadi.

**Vazirlik faoliyatini tashkil etish.** Vazirlikka belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan vazir boshchilik qiladi. Vazirning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan uch nafar o'rribbosari, shu jumladan ikki nafar birinchi o'rribbosari bo'ladi.

Vazirning suv xo'jaligi masalalari bilan shug'ullanuvchi birinchi o'rribbosari ayni vaqtida Suv xo'jaligi bosh boshqarmasining boshlig'i hisoblanadi. O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazining bosh direktori lavozimiga ko'ra vazir o'rribbosari hisoblanadi. O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimiga ko'ra vazir o'rribbosari hisoblanadi. Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi boshlig'inining o'rribbosarlari ijtimoiy va maishiy xizmat ko'rsatish darajasi bo'yicha vazir o'rribbosariga tenglash-tiriladi.

#### Vazir:

- vazirlik faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda vazirlikka yuklangan vazifalar va majburiyatlar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;
- vazir o'rribbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

- vazirlik markaziy apparatining shtat jadvalini belgilangan tartibda tasdiqlaydi va zarurat bo'lganda xodimlarning shtatda belgilangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida vazirlik markaziy apparatining va o'ziga qarashli budget tashkilotlafining tasdiqlangan tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega;

- vazirlik markaziy apparati xodimlarini, uning hududiy organlari rahbarlarini, shuningdek tasarrufidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarining rahbarlarini belgilangan ta'tibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

- vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari to'g'-risidagi nizomlarni, qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini

rivojlantirish muammolari bo'yicha Kengashlar to'g'risidagi nizomlarni, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Magistral kanallar (tizimlar) va irrigatsiya tizimlari boshqarmalari to'g'risidagi nizomlarni, shuningdek tasarrufidagi budget tashkilotlari to'g'risidagi nizomlarni (ustavlarni) tasdiqlaydi;

— vazirlikning, uning hududiy organlarining, tasarrufidagi tashkilotlarning xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar va yo'riqnomalar chiqaradi, ularning ijrosi ustidan nazoratni tashkil qiladi;

— hududiy organlar va tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujatlari buzilgan holda qabul qilingan qarorlarni (ko'rsatmalarni) bekor qiladi;

— qonunchilik hujatlarda belgilangan vakolatlar doirasida boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Vazirlikda 15 kishidan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Uning tarkibiga Vazir (hay'at raisi), uning o'rinosarlari, qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish muammolarini hal etish bo'yicha Kengashlar raislari, ayrim bo'linmalar, agrosanoat kompleksi tizimi vazirliklari va idoralari rahbarlari, shuningdek vazirlik markaziy apparatining boshqa rahbar xodimlari kiradi. Hay'atning shaxsiy tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Hay'at qarorlari vazirning buyruqlari bilan hayotga joriy etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vaziri O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqorg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi. Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari rahbarlari viloyatlar hokimlari taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi. Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari boshliqlari tuman hokimlari taqdimnomasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vaziri hamda viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligida uning tarkibiy bulinmasi sifatida Suv xo'jaligi Bosh boshqarmasi

tashkil qilingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-iyuldagagi qarori bilan) bo'lib, Bosh boshqarmaga yuza suvlarni muhofaza qilish, ulardan foydalanishni tartibga solish hamda respublika qishloq xo'jaligi tarmoqlarini va aholisini suv bilan ta'minlashga doir zarur tadbirlarni amalga oshirish yuklangan.

**O'rmon xo'jaligini boshqarish.** Mamlakatimizda o'rmon xo'jaligi sohasi ham muhim o'rinni tutadi. O'rmonlardan foydalanish, ularni ko'paytirish, muhofaza va himoya qilish borasida Hukumatimiz tomonidan keng islohotlar amalga oshirilmokda. 2000-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan o'rmon xo'jaligi sohasida boshqarish tuzilmasini takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish va o'rmon fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat o'rmon qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasiga aylantirildi.

Bosh boshqarma respublika o'rmon xo'jaligini davlat tomonidan boshqarish organi funksiyalarini amalga oshiradi, o'rmonlarning saqlanishi, qayta barpo etilishi, muhofaza qilinishi hamda o'rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish uchun javob beradi, respublika boshqa idoralarining foydalanilmaydigan yerlarda tabiatni muhofaza etuvchi va dalalarini ihota qiluvchi daraxtzorlar barpo etish hamda ulardan foydalanish bo'yicha faoliyatni tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi.

## 5-§. Qurilish sohasini boshqarish

Kapital qurilish sohasi mamlakat ishlab chiqarishining möddiy asosi bo'lib hisoblanadi. Ushbu soha orqali yangi ishlab chiqarish obyektlari, turar joy, madaniy — maishiy va ma'muriy binolar quriladi yoki mavjud obyektlar ta'mirlanadi.

**Shaharsozlik faoliyati** — davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning hududlarni, aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish, yer uchastkalaridan foydalanish turlarini belgilash, binokorlik materiallari va buyumlarini ishlab

chiqarish, binolar, inshootlar hamda boshqa obyektlarning fuqarolar manfaatlari, jamiyat va davlat manfaatlari, shuningdek mazkur hududlar hamda aholi punktlarining milliy, tarixiy-madaniy, ekologik, tabiiy xususiyatlari inobatga olingan holda loyihalashtirilishi, qurilishi va rekonstruksiya qilish sohasidagi faoliyati.

O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga binoan har bir fuqaro qulay yashash va faoliyat ko'rsatish muhiti bilan ta'minlanish huquqiga ega.

*Shaharsozlik faoliyatining alohida tartibga solinadigan obyektlari jumlasiga quyidagi aholi punktlari kiritilishi ham mumkin:*

- O'zbekiston Respublikasi poytaxti - Toshkent shahri;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti - Nukus shahri;
- viloyatlarning ma'muriy markazi bo'lgan shaharlar;
- hududida madaniy meros obyektlari bo'lgan shaharlar;
- kurort-shaharlar;
- qo'riqxona-shaharlar;

— yashash va faoliyat ko'rsatishning alohida rejimi belgilangan aholi punktlari (harbiy shaharchalar va o'zga rejimli hududlar, davlat qo'riqxonalaridagi, milliy bog'lar va boshqa alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi aholi punktlari).

O'tgan yillar mobaynida hukumatimiz tomonidan kapital qurilish sohasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 18-noyabrda qabul qilingan «Kapital qurilishda boshqaruva tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga ko'ra Qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning 1998-2000-yillarga mo'ljallangan dasturiga muvofiq, shuningdek, kapital qurilishda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, qurilish sohasidagi boshqarish tuzilmalarini monopoliyadan chiqarish va ixchamlashtirish, pudrat ishlari bozorini shakllantirish maqsadida O'zbekiston sanoat va xo'jalik qurilishi – «O'zsanoatxo'jalikqurilish» davlat korporatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika ishlab chiqarish davlat-kooperativ qurilish birlashmasi – «O'zdehqonchilikqurilish», O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi koopera-

tiv va aksiyadorlik qurilishi korxonalarini uyushmasi – «O'zjamoat-qurilish» tugatilib, tugatilgan «O'zsanoatxo'jalikqurilish» korporatsiyasi, «O'zdehqonchilikqurilish» birlashmasi va «O'zjamoat-qurilish» uyushmasi tarkibiga kiruvchi pudrat qurilish trestlari, boshqarmalar, birlashmalar, sanoat va transport korxonalarini hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar mustaqil yuridik shaxs sifatida saqlanib qoldi.

Qurilish, arxitektura, shaharsozlik, sohasidagi faoliyatni, qurilish materiallari ishlab chiqarishni O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda muvofiqlashtirish va funksional boshqarish O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi (*«Davarxitektqurilish»*) tomonidan amalga oshiriladi.

#### «Davarxitektqurilish» qo'mitasi:

- shaharsozlik va shaharsozlik faoliyati sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi hisoblanadi;
- o'z faoliyatini davlat boshqaruvi boshqa organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi;
- o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

#### «Davarxitektqurilish» qo'mitasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi arxitektura va qurilish qo'mitasi;
- viloyatlari va Toshkent shahar arxitektura va qurilish bosh boshqarmalari;
- shaharlar va tumanlar arxitektura va qurilish boshqarmalari (bo'limlari);
- davlat ekspertizasi hududiy boshqarmalari;
- davlat arxitektura-qurilish nazorati hududiy inspeksiyalari;
- qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazlari;
- qurilishda standartlashtirish va sertifikatlash respublika markazi;
- kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish markazi;

— «AQATM» axborot-joriy etish markazi.

*Quyidagilar «Davarxitektqurilish» qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:*

— shaharsozlik va shaharsozlik faoliyati sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, zamonaviy arxitektura va shaharsozlik talablari texnologiyalarini hisobga olgan holda hududlarni joylashtirish, rejalashtirish va qurishning ilmiy asoslangan sxemalarini ta'minlash;

— loyihalashtirish va qurilish-montaj ishlari sifati, shahar va qishloq aholi yashash punktlarini rejalashtirish va qurishda shaharsozlikka oid qonunchilik hujatlari, shaharsozlik normalari, qoidalari va standartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

— shaharsozlik faoliyati sohasida yagona ilmiy va texnika siyosatini amalga oshirish, tegishli axborot bazasini yaratish;

— kapital qurilishda islohotlarning borishini muvofiqlashtirish va uning monitoringini olib borish, kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarning borishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish, kapital qurilishda islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

— kapital qurilishni yanada isloh qilish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujatlarni ishlab chiqish va ularning monitoringini olib borish, tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazishning belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qilish, shartnoma munosabatlarining rolini oshirish, qurilishda narxlarni shakllantirish tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

— loyihalashtirish va pudrat ishlari, qurilish materiallari bozorlarida raqobat muhitini yanada shakllantirishga ko'maklashish;

— xususiy lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishda, xususiy va qo'shma korxonalar, injiniring, konsalting, sug'urta tashkilotlari va bozor infratuzilmasining boshqa tashkilotlarini tashkil etishda, shaharsozlik faoliyati sohasida kichik va o'rtalbiznesni rivojlantirishda ko'maklashish;

— tanlov savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomalar majburiyatlarini bajarilishi monitoringini olib borish, obyektlar

qurilishi sifati va muddatlari ustidan nazorat qilish, markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtirilayotgan obyektlarni qurish sifati va muddatlarini nazorat qilish va boshqalar.

***Qo'mita faoliyatini tashkil etish.*** «Davarxitektqurilish» qo'mitasiga belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan rais boshchilik qiladi. Raisning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan uch nafar o'rinnbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinnbosari bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi arxitektura va qurilish davlat qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxitektura va qurilish bosh boshqarmalari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish to'g'risidagi qaror tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisi tomonidan qabul qilinadi.

Boshqa tarkibiy bo'linmalar rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish to'g'risidagi qarorni O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi raisi qabul qiladi.

Qo'mitada tarkibiga rais (hay'at raisi) va rais o'rinnbosarlari, shuningdek «Davarxitektqurilish» qo'mitasi va uning tarkibiy bo'linmalarining boshqa xodimlari kiruvchi 9 kishidan iborat hay'at tuziladi. Hay'at a'zolari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

***Davlat arxitektura-qurilish nazorati.*** O'zbekiston Respublikasi hududida arxitektura-qurilish sohasida davlat standartlariga, shaharsozlik normalari va qoidalariiga rioya etilishini O'zbekiston Respublikasi «Davarxitektqurilish» qo'mitasi tizimiga kiruvchi ***davlat arxitektura-qurilish nazorati hududiy inspeksiyasi*** ta'minlaydi. Inspeksiya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi «Davarxitektqurilish» qo'mitasiga hisob beradi.

Quyidagilar Inspeksianing asosiy vazifalari hisoblanadi:  
yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik hujatlari, belgilangan shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

obyektlar qurilishini moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar, qurilishning barcha bosqichlarida loyihalashtirish va qurilish-montaj ishlari sifatiga, davlat standartlariga, qurilish normalari va qoidalariiga, ishlarni amalga oshirish texnologiyasiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish; moliyalashtirish manbalaridan va buyurtmachining mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yakka tartibdag'i uy-joy qurilishidan tashqari, barcha qurilish obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish, qurilish-montaj ishlarini boshlashga ruxsatnomalar berish; bajarilayotgan qurilish-montaj ishlarining, qo'llanayotgan qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarining davlat standartlari talablariga va texnik shartlarga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshirish; qurilish industriyasi korxonalarida qurilish materiallari, konstruksiyalari, buyumlarini ishlab chiqarish shart-sharoitlarining davlat standartlariga, normativ-texnik va loyiha hujjalariiga muvofiqligini nazarat qilish; qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiyalar ishlarida majburiy ravishda qatnashish kabilar.

## **6-§. Xo'jalik-xizmat ko'rsatish kompleksini boshqarish**

*Transport sohasi* — iqtisodiyotning yirik tarmoqlaridan biri bo'lib, yuklar va yo'lovchilarni to'liq va o'z vaqtida tashishni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi transport tizimi havo transporti, temir yo'l transporti, suv (daryo) transporti va avtomobil transportidan iboratdir.

Rivojlangan transport kommunikatsiyalari tizimi mavjudligi O'zbekistonning jo'g'rofiy-strategik mavqeini jozibador qiluvchi muhim omildir. Hozirgi vaqtida mamlakatning transport tizimi mamlakat ichida yuk tashish ehtiyojlarini amalda qanoatlantirmoqda. Respublikadagi temir yo'l va avtomobil yo'llari tarmog'i Markaziy Osiyoda eng zinch hisoblanadi. Temir yo'l va avtomobil transport kommunikatsiyalari tarmog'i respublikaning eng olis tumanlari va aholi manzilgohlarini o'zaro bog'lab turadi, xalqaro transport tizimlariga ulanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga ular boy o'l kamizning asosiy tabiiy va mineral xom-ashyo zahiralari manbalariga bemalol kirib borishni ta'minlaydi.

O'zbekiston xalqaro aviatsiya kommunikatsiyalarini rivojlantirish jihatidan ham qulay o'rinda joylashgan. «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi ICAO a'zosi bo'lib, uning tarkibida Toshkent aeroportidan tashqari yana 12 ta mintaqaviy aeroport mavjud.

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, qo'shni davlatlar va Jahon okeaniga chiqishni ta'minlaydigan eng qisqa ishonchli transport yo'llarini barpo etish maqsadida transport aloqalarining xalqaro tizimlariga alohida e'tibor berilmoqda<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi transport tizimi ushbu sohani tartibga soluvchi qonunlar, Hukumat qarorlari va boshqa huquqiy hujatlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston qonunchiligi asosining transport munosabatlarini tartibga soluvchi qismini umum e'tirof etilgan xalqaro norma va qoidalarga yaqinlashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Masalan, avtomobilda yuk tashish borasida MDH guvohnomasini qo'llagan holda xalqaro yuk tashish to'g'risidagi Bojxona Konvensiyasi, Xalqaro yuk tashish to'g'risidagi konvensiya, Yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi konvensiya va Yo'l harakati to'g'risidagi konvensiya ratifikatsiya qilindi.

Fuqaro aviatsiyasi sohasida Havo kemalarini qonunsiz egallab olishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya, Havo kemasi bortida ro'y beradigan jinoyatlar va ba'zi xatti-harakatlar to'g'risidagi konvensiya, Havo kemalarida xalqaro yuk tashishga doir ba'zi qoidalarni uyg'unlashtirish uchun konvensiya ratifikatsiya qilindi.

Temir yo'l transporti (temir yo'l) – umumiy foydalanishdagi transport turlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarish va ijtimoiy yo'nalishdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni o'z tarkibiga olgan, boshqa davlatlarning temir yo'llari va transportning boshqa turlari bilan o'zaro hamkorlikda tashish ehtiyojlarini ta'minlovchi yagona ishlab chiqarish-texnologiya majmuidan iboratdir. Tashish jarayonining uzluksizligi, harakat xavfsizligi va avariya-tiklash ishlari o'tkazilishini bevosita ta'minlovchi temir yo'l transporti

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳавфсикликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – 270-272-6.

korxonalari, umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va temir yo'l transportining boshqa mol-mulki mutlaq davlat mulkidir. Tashish jarayonida bevosita ishtirok etmaydigan temir yo'l transporti mol-mulki qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda xususiy-lashtirilishi mumkin.

Temir yo'l transporti yerlari jumlasiga davlat tomonidan temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga temir yo'l transporti inshootlari, qurilmalari va boshqa obyektlaridan foydalanish, ularni saqlash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, takomillashtirish va rivojlantirish sohasida ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun doimiy foydalanishga berilgan yerlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasida temir yo'l transporti sohasidagi munosabatlarni O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-aprelda qabul qilingan «Temir yo'l transporti to'g'risida»gi qonuniga binoan tartibga solinadi. Shuningdek, temir yo'l transporti xizmatlaridan foydalanish chog'ida temir yo'l transporti korxonalari bilan yuk jo'natuvchilar, yukni oluvchilar, yo'lovchilar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar o'rtaqidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan Temir yo'l ustavi bilan ham belgilanadi. Temir yo'l transportida yuklar, yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajini tashishni tashkil etish tartibi davlat temir yo'l transportini boshqarish organi tomonidan tasdiqlanadigan yuklar, yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajini tashish qoidalari, shuningdek boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 2-martdagи Farmoni bilan quyidagilar **temir yo'l transporti sohasidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:**

- mononpoliyadan chiqarish chora-tadbirlarini izchil amalga oshirish va temir yo'l transporti xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish;

- yo'lovchilar tashish, harakatdagi tarkibni, refrijerator va konteyner xo'jaligini ta'mirlash korxonalarini bosqichma-bosqich aksiyalashtirish;

- ijtimoiy infratuzilma, yuk va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish obyektlarini, ta'mirlash-qurilish, savdo va ta'minot tashkilotlarini

davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni jadallashtirish, ular negizida mulkchilikning nodavlat shakllaridagi korxonalar shu jumladan xususiy korxonalar tashkil etish;

— boshqaruv tizimiga va tashish jarayoni qatnashchilari o'rtasidagi xo'jalik aloqalariga bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish;

— temir yo'l kompleksini rekonstruksiya qilish, yangilash va zamonaviylashtirishga chet el investitsiyalarini keng jalb qilish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish;

— mamlakat iqtisodiyotining samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlashda temir yo'l transportining ahamiyatini kuchaytirish, temir yo'l transporti kommunikatsiyalarini rivojlantirish.

«Temir yo'l transporti to'g'risida»gi qonunning 8-moddasiga binoan, **Temir yo'l qatnovlari quyidagi turlarga bo'linadi:**

— ichki qatnovlar - yuklar, yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajini O'zbekiston Respublikasi doirasida tashish;

— xalqaro qatnovlar-yuklar, yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajini O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o'rtasida tashish;

— to'g'ri aralash qatnovlar - yuklarni yagona transport hujjati bo'yicha transportning har xil turlarida tashish. To'g'ri aralash qatnovlar ham ichki, ham xalqaro bo'lishi mumkin.

Alovida muhim davlat ehtiyojlarini, shu jumladan mudofaa ehtiyojlarini qondirish uchun yuklarning maxsus turlari tashilishi ta'minlovchi tashishlar maxsus tashishlar jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 7-noyabrdagi farmoni bilan tuzilgan «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aksionerlik kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston temir yo'llari» davlat aksiyadorlik kompaniyasini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 2004-yil 3-avgust qaroriga ko'ra «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aksionerlik kompaniyasi:

— yuklarni hamda yo'lovchilarni tashish hajmlarini xalq xo'jaligi va respublika aholisining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda,

davlat buyurtmalari shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan shartnomalar va kontraktlar asosida mustaqil ravishda belgilaydi va amalga oshiradi;

— to‘la tijorat hisob-kitobi va o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash sharoitlarida ishlaydi, ishlab chiqarish-xo‘jalik va moliyaviy faoliyatga oid masalalarni mustaqil ravishda hal qiladi, sug‘urta, zahira va boshqa fondlarni tashkil etadi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan temir yo‘l bo‘limlari, birlashmalar, korxonalar va tashkilotlarga oid ilgari tuzilgan shartnomalar va majburiyatlar bo‘yicha O‘rta Osiyo temir yo‘lining huquqiy vorisi hisoblanadi;

— xalqaro temir yo‘llarda va aralash temir yo‘l aloqalarida yo‘lovchilar hamda yuklarni tashishni tashkil etishda xorijiy temir yo‘llar oldida «O‘zbekiston temir yo‘llari» deb nomlangan yuridik shaxs sifatida ish yuritadi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

«O‘zbekiston temir yo‘llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvi rais va uning 5 nafar o‘rinbosaridan, shu jumladan 1 nafar bosh menejer-bosh muhandisdan va raisning 1 nafar birinchi o‘rinbosaridan iborat bo‘ladi. Rais va uning o‘rinbosarlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Tarkibda 11 kishidan iborat bo‘lgan Kompaniya kengashi «O‘zbekiston temir yo‘llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

Davlat nazorati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 2-martdagi farmoniga binoan kompaniya tarkibidagi poyezdlar harakati xavfsizligi bo‘yicha bosh taftishchi apparat kompaniya tarkibidan chiqarilib, uning negizida mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi («O‘zdavtemiryo‘lnazorat») tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi davlat nazoratini amalga oshirish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi, u poyezdlar harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasida chora-tadbirlar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va muvofiqlashtirish hamda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlashga oid belgilangan qoidalar va

normalarga tegishli vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar tomonidan rioya etilishini, shuningdek «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi va transport qurilishi korxonalarida qozonxonalar va ko'tarish inshootlaridan xavf-xatarsiz foydalanishini nazorat qiluvchi O'zbekiston Respublikasining temir yo'l ma'muriyati funksiyalarini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 2-martda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi chora-tadbirlari» to'g'risidagi qaroril bilan inspeksiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportida yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligi ta'minlanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

- temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ularning bajarilishini nazorat qilish;

- temir yo'l transporti sohasidagi faoliyatni litsenziyalash;

O'zbekiston Respublikasi temir yo'llaridan foydalanish bo'yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va ularning bajarilishini nazorat qilish;

loyihalarni ekspertizadan o'tkazishda va temir yo'l transporti obyektlarini, mahsulotlarini va texnologiyalarini ularning belgilangan talablarga muvofiqligi jihatidan doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga qabul qilish ishlarida qatnashish.

Uning tizimiga hududiy filiallar Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Orol bo'yvi va Qashqadaryo filiallari hamda Atrof muhit muhofazasi bo'yicha temir yo'l ilmiy ishlab chiqarish markazi kiradi.

Inspeksiya o'z faoliyatini davlat boshqaruvi boshqa organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikda olib boradi hamda o'z vakolatlariga tegishli masalalar bo'yicha qabul qilgan qarorlari vazirliklar, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, temir yo'l transporti xizmatlari ko'rsatuvchi yoki ulardan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

«O'zdavtemiryo'lnazorat» inspeksiyasiga qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi. Boshliqning ikki nafar o'rinnbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinnbosari bo'ladi. inspeksiya boshlig'i maqomiga ko'ra vazirning birinchi o'rinnbosariga, «O'zdavtemiryo'lnazorat» inspeksiyasi boshlig'ining birinchi o'rinnbosari va o'rinnbosari tegishli ravishda vazir o'rinnbosarlariga tenglashtiriladi.

«O'zdavtemiryo'lnazorat» inspeksiyasining hududiy filiallari bevosita «O'zdavtemiryo'lnazorat» inspeksiyasi boshlig'iga bo'y-sunadi.

Avtomobil va suv transportini boshqarish – *O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to'g'risida»gi 1998-yil 29-avgustdagи qonuniga binoan avtomobil transporti faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sertifikatlash, litsenziyalash, soliq solish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tashishlar uchun tariflarni shakllantirish, yagona ilmiy texnika siyosatini o'tkazish yo'lli bilan, shuningdek qonunchilik hujjalarda nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.*

2001-yil 4-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish to'g'risida»gi farmonida avtomobil va daryo transporti sohasida boshqaruvni takomillashtirish va monopoliyadan chiqarishni chuqurlashtirishning quyidagi asosiy yo'naliishlari belgilab berildi:

— avtotransportda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitini yanada rivojlantirish, avtomobil transporti tashkilotlari va korxonalarini keng xususiylashtirish, xususiy avtomobil tashuvchilar faoliyati sohasini kengaytirish, transport xizmatlari bozorida mulkchilikning barcha shakllaridagi avtomobilda tashuvchilar uchun teng shart-sharoitlar yaratish;

— avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashishni boshqarishning ortiqcha bo'g'inlarini tugatish, boshqaruvning bir va ikki bo'g'inli tizimiga o'tish;

— avtomobil transportida boshqarishni markazlashtirishdan chiqarish va avtomobilda yo'lovchilar tashuvchi, yuklarni viloyat

ichida tashuvchi, transport-foydalanish va axborot xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini muvofiglashtirish, avtomobilda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida kadrlarni qayta tayyorlash funksiyalarini bevosita Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ixtiyoriga berish. Shuningdek ushbu Farmonga binoan 1993-yil 8-yanvarda tashkil etilgan O'zbekiston avtomobil transporti davlat-aksionerlik korporatsiyasi («O'zavtotrans») tugatilib, uning tarkibiga kiruvchi hududiy davlat aksionerlik konsernlari va birlashmalar avtomobilda tashuvchilarining hududiy uyushmalariga aylantirildi hamda ushbu uyushmalar Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari ixtiyoriga berildi.

O'zbekiston Respublikasida avtomobil va daryo transporti sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Agentlik Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 11-iyulda qarori bilan Respublika «O'zavtolitsenziya» boshqarmasi bazasida avtomobil va daryo transportini boshqarishni tashkil etish darajasini oshirish va bu faoliyat ustidan nazoratni kuchaytirish, avtotransport xizmatlari ko'rsatish bozorida raqobatni rivojlantirish, harakat xavfsizligi va ekologik talablarni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tarkibiy va institutsional o'zgartirish masalalarini hal qilish, xizmatlar bozorini shakllantirish va rivojlantirishga hamda avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashish uchun maxsus vakolat berilgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Agentlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

Agentlik tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari, Avtomobil va daryo transportini rivojlantirishni normativ-texnik ta'minlash respublika markazi, «Avtodaryotrans-ilm» kasb malakasini oshirish davlat ilmiy-metodik markazi, «O'zbekiston avtomobilchisi» gazetasi tahririysi kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martda qabul qilingan «O'zbekiston avtomobil va daryo

transporti agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori bilan quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- avtomobil va daryo transportida yuk va yo‘lovchilar tashishni tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy baza shakllantirilishini ta‘minlash;
- iqtisodiyot tarmoqlari va aholining yuk va yo‘lovchilar tashishga ehtiyojlarini hisobga olgan holda avtomobil va daryo transportini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga os-hirish;
- avtomobil va daryo transporti xizmatlari bozorida bozor munosabatlarini va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta‘minlash;
- avtomobil va daryo transporti sohasida yagona texnika siyosatini shakllantirish va o‘tkazish;
- avtomobil va daryo transportida yuk va yo‘lovchilar tashishni litsenziyalashni tashkil etish;
- avtomobil va daryo transportida kadrlarni o‘qitish va ularning malakasini oshirishni tashkil etish.

Agentlikka qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq boshchilik qiladi. Boshliqning ikki nafar o‘rinnbosari bo‘ladi. Agentlik boshlig‘i maqomiga ko‘ra vazirga, boshliq o‘rinnbosarlari vazir o‘rinnbosarlariga tenglashtiriladi.

Agentlikda tarkibiga agentlik boshlig‘i (hay‘at raisi), boshliq o‘rinnbosarlari (lavozimiga ko‘ra) va agentlik tizimi boshqa rahbar xodimlari kiradigan 5 kishidan iborat hay‘at tashkil etiladi. Hay‘atning shaxsiy tarkibi agentlik boshlig‘ining taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

***Shahar yo‘lovchilar transporti*** — Shahar yo‘lovchilar transporti O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-aprelda qabul qilin-gan «Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida»gi qonuni\_ bilan tartibga solinadi. Shahar yo‘lovchilar transporti deganda O‘zbekiston Respublikasi hududida ro‘yxatga olingan, shahar doirasida yo‘lovchilar hamda bagaj tashishga mo‘ljallangan avtomobil va elektr

transporti tushuniladi. Shahar yo'lovchilar transporti ommaviy yoki xususiy mulk asosida ishlashi mumkin.

2004-yil 11-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Toshkent shahrida yo'lovchilar tashish bilan band bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Toshkent shahar yo'lovchilar tashish transporti davlat uyushmasi «Toshshaharo'lovchitrans» aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirildi va quyidagilar *«Toshshaharo'lovchitrans» aksiyadorlik kompaniyasining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgildi*:

- shahar yo'lovchilar tashish transportini rivojlantirishning istiqbolli strategiyasini belgilash, Toshkent shahar hokimligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda yo'lovchilar tashish transportini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'rta muddatli va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- marketing tadqiqotlarini tashkil etish va shahar transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish;
- Toshkent shahar aholisining shahar yo'lovchilar tashish transporti xizmatlariga ehtiyojini qondirish, shahar yo'lovchilar tashish transportining iqtisodiy foydali va ekologiya jihatidan toza turlarini kompleks rivojlantirish;
- yo'lovchilar tashish transportida yo'l harakati xavfsizligining yuqori darajasini ta'minlash;
- kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish.

**Havo transporti.** O'zbekiston Respublikasi hududida havo transporti sohasidagi siyosatni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish *«O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi* tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu aviakompaniya 1992-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan O'zbekiston Fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi negizida tuzilgan va uning vorisi hisoblanadi.

Aviakompaniya yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan yangi tarkibiy bo'linmalar tuzish, mavjud korxonalarни tugatish va qayta tashkil qilish masalalari bo'yicha aviakompaniyaning amaldagi

tuzilmasiga aviakompaniya Kengashining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida tasdiqlangan qarori bilangina o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

Aviakompaniyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— O'zbekiston Respublikasi hududida havo transporti sohasidagi siyosatni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish;

— respublika, davlatlararo va xalqaro aviayo'llarda aviatsiashuvlarga, shu bilan bog'liq xizmatlarga, xalq xo'jaligida aviatsiyadan foydalanib ishlashga va fuqaro aviatsiyasi sohasidagi faoliyatning boshqa turlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish;

O'zbekiston Respublikasi hududida tuzilma birliklari, ajralib chiqqan korxonalar tomonidan aviatsiya ishlarini bajarishda va havo kemalaridan foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash ustidan nazorat o'rnatish;

Aviakompaniya faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashishning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish, ulami O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari bilan hamjihatlikda amalga oshirish.

Aviakompaniya yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan yangi tarkibiy bo'linmalar tuzish, mavjud korxonalarni tugatish va qayta tashkil qilish masalalari bo'yicha aviakompaniyaning amaldagi tuzilmasiga aviakompaniya Kengashining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan qarori bilangina o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

Aviakompaniyaning yuqori rahbar organi uning Kengashi hisoblanadi. Kengashga Aviakompaniya Kengashi raisi boshchilik qiladi. Aviakompaniya faoliyatini boshqarishni O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tayinlanadigan Aviakompaniyaning bosh direktori amalga oshiradi.

Aviakompaniyaning bosh direktori lavozimi bo'yicha Aviakompaniya Kengashining raisi hisoblanadi.

Aviakompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyatini kompleks tafish qilish, shuningdek, uning faoliyati ayrim jihatlarini tekshirish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda unga vakil qilingan organlar hamda Aviakompaniya taftish komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

**Avtomobil yo'li** – transport vositalari harakatlanishi uchun mo'ljallangan, ularning belgilangan tezlikda, og'irlilikda, o'lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydigan muhandislik inshootlari majmuasi, shuningdek ushbu majmuani joylashtirish uchun berilgan yer uchastkalari va majmua ustidagi belgilangan doiradagi bo'shiqdirdi.

Ushbu sohani boshqarish O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 3-oktabrdan kuchga kirgan «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi qonuniga va boshqa qonunchilik hujjalariغا muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu Qonunning maqsadi avtomobil yo'llarini loyi-halash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, saqlash va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

### **O'zbekiston Respublikasida avtomobil yo'llari quyidagicha tasniflanadi:**

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari;
- shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalari;
- xo'jalik avtomobil yo'llari.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari davlat mulki bo'lib, avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilar uchun ochiqdir. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari aholi ehtiyojlarini, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va mudofaa ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shaharlar hamda boshqa aholi punktlari o'rtaida yuklar va yo'lovchilar tashishni ta'minlaydi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llariga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq xalqaro avtomobil yo'llari tarmog'iga kiradigan yo'llar xalqaro ahamiyatga molik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va tumanlarining ma'muriy markazlari, viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar, madaniyat hamda sanoat markazlari o'rtaida transport qatnovini ta'minlaydigan, mazkur markazlarni esa xalqaro ahamiyatga molik yo'llar bilan, aeroportlar, temir yo'l stansiyalari, portlar va kema to'xtash joylari, shuningdek qo'shni davlatlar bilan bog'laydigan yo'llar davlat ahamiyatiga molik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi.

Tumanlarning ma'muriy markazlarini shaharchalar, qishloqlar va ovullar bilan, shuningdek davlat ahamiyatiga molik yo'llar

bilan bog'laydigan yo'llar mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari maxsus vakolatli organ ixtiyorida bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari ro'yxati belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalar shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar doirasida o'tadi, mazkur ko'chalarning O'zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari ro'yxatiga belgilangan tartibda kiritilgan uchastkalari bundan mustasno. Shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalar davlat mulki bo'lib, mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo'ladi.

Xo'jalik avtomobil yo'llari davlat yoki yuridik va jismoniy shaxslarning mulkidir. Texnologik maqsadlarga xizmat qiladigan yo'llar, shoxobcha, xizmat, patrul va boshqa shunga o'xshash avtomobil yo'llari xo'jalik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llari sohasida davlat boshqaruvi *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari sohasidagi maxsus vakolatli organ — Avtomobil yo'llari qurish va foydalanish Davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari* tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 19-avgustda qabul qilingan «Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llari qurish va ular dan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni bilan O'zbekiston avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat aksiyadorlik konserni *Avtomobil yo'llari qurish va foydalanish Davlat-aksiyadorlik kompaniyasi* («O'zavtoyo'l» DAK) etib qayta tashkil etildi.

«O'zavtoyo'l» davlat aksiyadorlik kompaniyasi:

— umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- avtomobil yo'llari tarmoqlarini rivojlantirish va takomillash-tirish istiqbollarini belgilaydi;
- avtomobil yo'llari sohasida yagona texnika siyosatini olib boradi;
- umumi foydalanishdagi avtomobil yo'llarini loyihalash sohasidagi normalar va standartlarga rioya etilishini ta'minlaydi;
- umumi foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash sifati ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- umumi foydalanishdagi avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritadi;

O'zbekiston Respublikasining umumi foydalanishdagi avtomobil yo'llari ro'yxati bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va ularni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

- avtomobil yo'llari sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini amalga oshiradi;
- qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Yuqoridagi Farmon bilan umumi foydalaniladigan avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish hududiy yo'l-ekspluatatsiya tashkilotlari zimmasiga, avtomobil yo'llari va yo'l infratuzilmasiga kompleks xizmat ko'rsatish hamda ularning texnik holati ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish esa - tuman yo'l xo'jaligi pudrat ta'mirlash-ekspluatatsiya korxonalarini zimmasiga yuklandi.

«O'zavtoyo'l» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi shartnomalar va majburiyatlar bo'yicha «O'zavtoyo'l» davlat aksionerlik konsernining huquqiy vorisi hisoblanadi. Kompaniyani boshqarishning yuqori organi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan Kompaniya kengashi hisoblanadi. «O'zavtoyo'l» DAK raisi va uning o'rinosarlari lavozimga Kompaniya kengashining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi Farmoni bilan shuningdek, yo'l xo'jaligini boshqarish tuzilmasidagi Respublika, viloyat va mahalliy yo'l jamg'armalari tugatilib,

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida O'zbekiston Respublikasi yo'l jamg'armasi tuzildi. Ushbu jamg'arma umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini qurish, ta'mirlash va saqlash uchun maqsadli moliyaviy resurslarni jamlovchi davlat organi hisoblanadi. Jamg'arma:

- Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari tushishi va sarflanishing har yillik va choraklik balanslarini shakllantirish;
- investitsiya loyihamining texnik-iqtisodiy asoslanishini hamda umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash bo'yicha tender jujjatlarini ekspertizadan o'tkazish;
- yo'l xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlashning aniq ro'yxatlarini belgilangan tartibda kelishish;
- umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni saqlash bo'yicha xarajatlar smetalarini ro'yxatdan o'tkazish;
- umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlashni tasdiqlangan xarajatlarga muvofiq moliyalashtirish, Jamg'arma mablag'laridan qonuniy va maqsadli foydalanishni nazorat qilish kabi asosiy vazifalarni amalga oshiradi.

Jamg'arma mablag'lari umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini qurish, ta'mirlash, saqlash va ulardan foydalanish uchun, Jamg'arma ijro etuvchi direksiyasi uchun sarflanadi.

Jamg'armaga mablag'larni yig'ish va tushumlarning to'liqligini nazorat qilish vazifalari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Mablag'lardan qonuniy va maqsadli foydalanishni nazorat qilish esa Respublika yo'l jamg'armasini boshqarish kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Jamg'armani boshqarish kengashi jamg'armani boshqarishning yuqori organi hisoblanadi.

Respublika yo'l jamg'armasiga ajratiladigan majburiy ajratmalar va yig'imlar davlat soliqlari va yig'implariga tenglashtirilgan bo'lib, ularning miqdori har yili Davlat budgeti tasdiqlanishi bilan bir vaqtda belgilanadi.

Jamg‘armaning ijro etuvchi direktori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda moddiy ta’mnotinot, ijtimoiy va transport xizmati ko‘rsatish shart-sharoitlari bo‘yicha vazir o‘rinbosariga tenglashtiriladi.

**Aloqa sohasini boshqarish.** O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik va ijtimoiy infrastrukturasining tarkibiy qismi bo‘lib, aholining, xo‘jalik subyektlarining, davlat idoralarining pochta, telefon, telegraf, radio va axborotning o‘zga turlarini uzatish va qabul qilish hamda aloqa tarmog‘i orqali jo‘natilayotgan ashyolarni yetkazib berishga bo‘lgan ehtiyojlari qondirilishini ta’minalaydi.

O‘zbekiston Respublikasida aloqa sohasini boshqarish O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 13-yanvarda qabul qilingan «Aloqa to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq amalga oshirilib, ushbu qonun aloqa tarmoqlarini tashkil qilishning umumiy huquqiy, iqtisodiy asoslarini, aloqa shohobchalarini barpo etish va ulardan foydalanishda, aloqa xizmati ko‘rsatishda mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning va fuqarolarning aloqa vositalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish va boshqarish sohasidagi huquqlari va vazifalarini, shuningdek berilgan huquqlarni buzganlik va vazifalarни bajarmaganlik uchun javobgarlik choralarini belgilaydi.

Mazkur Qonunning 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining aloqa sohasidagi vakolatlari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra Oliy Majlis aloqa sohasidagi qonunlarni qabul qiladi; aloqa sohasidagi davlat siyosatining asosiy qoidalarini belgilaydi; xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qiladi; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Aloqa sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, shuningdek u vakolat bergen idora — **O‘zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi**.

Agentlik aloqa, axborotlashtirish va radiochastota spektridan foydalanish sohasidagi vazifalarni hal qilish va davlat siyosatini o‘tkazish uchun vakolat berilgan muvofiqlashtiruvchi boshqaruvi

organi, shuningdek elektron raqamli imzodan foydalanish hamda O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy ommaviy axborot vositalarining teleradiomahsulotlarini tarqatish sohasida maxsus vakolatlari organ hisoblanadi. Agentlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Agentlik Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengashning ishchi organi funksiyasini bajaradi.

Agentlik tizimiga quyidagilar kiradi:

— aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasida ustuvor va ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan loyiylarni, ilmiy tadqiqot ishlarini mablag' bilan ta'minlash masalalari bo'yicha - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi;

— pochta aloqasi va telekommunikatsiya tizimlari hamda axborot tizimlari va vositalari, texnik vositalarni sertifikatlash sohasida tadqiqotlar, marketing va monitoringni tashkil etish bo'yicha - Ilmiy-texnika va marketing tadqiqotlari markazi;

O'zbekiston Respublikasida pochta va telekommunikatsiyalar sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati bo'yicha - Davlat aloqa inspeksiyasi;

O'zbekiston Respublikasining radiochastota spektridan foydalishni tartibga solish sohasidagi ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi radiochastotalar bo'yicha Davlat komissiyasi (idoralararo kollegial organ);

— aloqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, elektron tijorat, axborot xavfsizligi, iqtisodiyot va menejment sohasida mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek aloqa va axborotlashtirish sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti;

— davlat hokimiyyati va boshqaruvi yuqori organlarining xat-xabarlarini hamda diplomatik xat-xabarlarni qabul qilish, yetkazib berish bo'yicha - Davlat feldyegerlik xizmati;

— respublika muassasalari, tashkilotlari va korxonalarining maxsus xat-xabarlari va jo'natmalarini qabul qilish, yetkazib berish bo'yicha - Respublika maxsus aloqa uzeli;

— telekommunikatsiyalar tarmoqlarini boshqarish, ularning samarali faoliyatini ta'minlash, telekommunikatsiyalar resurslari dan oqilona foydalanish va ularni rivojlantirish, telekommunikatsiyalar xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni yanada to'liq qondirish uchun telekommunikatsiyalar turli operatorlari, idoraviy tarmoqlar egalari tarmoqlarini muvofiqlashtirgan holda boshqarish tizimini yaratish, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mudofaa va milliy xavfsizligi manfaatlari yo'lida tarmoqlardan ustuvor foydalanishni ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish - O'zbekiston telekommunikatsiyalari tarmoqlarini boshqarish respublika markazi;

O'zbekiston Respublikasining butun hududida teleradiodasturlarni tarqatish va translatsiya qilish, radiokanallar borasida radio aloqasi xizmatlari ko'rsatish bo'yicha - Radio aloqasi, radioeshitirish va televide niye markazi;

— radiochastota organi funksiyalarini bajarish, shu jumladan radiochastotalardan foydalanishga ruxsatnomalar berish, elektromagnit moslashuvni va radiochastota spektri monitoringini ta'minlash bo'yicha - Elektromagnit moslashuv markazi;

— axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, axborot, servis va keng ko'lamda konsalting xizmatlari ko'rsatish sohasida dasturlar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha - Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda joriy etish markazi;

— tinchlik davrida va alohida davrda O'zbekiston Respublikasi aloqa obyektlarida va telekommunikatsiya tarmoqlarida avariya-tiklash ishlarni bajarish, alohida muhim va toifalangan obyektlarda harbiylashtirilgan qo'riqlashni ta'minlash bo'yicha - Maxsus avariya-tiklash boshqarmasi (harbiy tuzilmasi);

— qonunchilik va normativ hujjatlar, davlat va tarmoq standartlari talablariga, ommaviy kommunikatsiyalar sohasida, jumladan zamонавиј axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy yo'ldosh tizimi, Internetning global tarmoqlari, axborotlarni, shuningdek matbaa mahsulotlarini yetkazib berish va tarqatishning boshqa elektron vositalari sohasida faoliyatni amalga oshiradigan yuridik va jismoniy shaxslar litsenziyalari shartlariga rioya etilishi

yuzasidan monitoringni amalga oshirish bo'yicha - Ommaviy kommunikatsiyalar sohasida monitoring markazi;

— radiotexnika, radio aloqasi, telekommunikatsiyani boshqarish tizimini, hisoblash texnikasini loyihalash, rekonstruksiya qilish, o'matish, sozlash, foydalanishga topshirish, shu jumladan maxsus maqsaddagi obyektlar uchun vositalar va alohida buyumlar tayyorlash bo'yicha — «Granit» ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi;

Respublika axborot-kutubxona markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot-kutubxona markazlari - axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish va ularni rivojlantirish, universal axborot resurslarini, milliy va xorijiy nashrlar (bosma, audiovizual, elektron va boshqalar) fondini shakllantirish, saqlash va ularni berish, shuningdek axborot-resurs markazlarining axborotlashtirish va joylarda kutubxona ishi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va tashkiliy-metodik jihatdan ta'minlash.

Agentlik Xalqaro elektr aloqasi uyushmasida, Jahon pochta uyushmasida hamda aloqa va axborotlashtirish sohasidagi boshqa xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini ifodalovchi vakolatli organ hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 7-maydag'i qarori bilan quyidagilar *O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining asosiy vazifalari* etib belgilandi:

— telekommunikatsiyalar, ma'lumotlar uzatish, pochta aloqasi, matbuot tarqatish tarmoqlarini rivojlantirish, shuningdek zamonaviy talablar va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasiga muvofiq axborotlashtirish sohasida strategik ustuvorliklarni shakllantirish va amalga oshirish;

— aloqa va axborotlashtirish tarmoq va hududiy organlari hamda xizmatlari ishlarini, shuningdek standartlashtirish, sertifikatlash va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini litsenziyalashni ta'minlash, aloqa va axborotlashtirish sohasida, shu jumladan ma'lumotlar uzatishning zamonaviy vositalari, IP — texnologiyalar sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish masalalarini muvofiqlashtirish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va axborot tizimlari hamda resurslari bozorini rivojlantirish sohasida raqobat muhitini

shakllantirish, shuningdek davlat boshqaruvi, fan va ta'lim, biznes, sog'liqni saqlash sohasida va faoliyatning boshqa sohalarida axborot ayirboshlashning elektron shakllariga o'tish dasturlarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish;

— telekommunikatsiyalar, pochta aloqasi tarmoqlarida, teleradioefilda, axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash, zamonaviy talablar va standartlarni hisobga olgan holda axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilishning samarali vositalari va usullarini joriy etish;

— axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari, kompyuter va telekommunikatsiya texnikasini ishlab chiqish sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkil etish;

— axborot tizimlarini, telekommunikatsiya va ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun xorijiy investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jaib etish va ulardan samarali foydalanish va boshqalar.

Agentlikka qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan bosh direktor boshchilik qiladi.

Bosh direktoring o'rribosarlari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rribosari bo'ladi, ularning sonini belgilash va ularni lavozimga tayinlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Bosh direktor maqomiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi vaziriga, bosh direktoring birinchi o'rribosari va o'rribosarlari - tegishli ravishda vazirning birinchi o'rribosari va o'rribosarlariga tenglashtiriladi.

Agentlikning bosh direktori bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi radiochastotalar bo'yicha Davlat komissiyasining raisi hisoblanadi.

Agentlikda tarkibiga bosh direktor - (rais), bosh direktor o'rribosarlari (lavozimiga ko'ra) hamda Agentlik tizimidagi boshqa rahbar xodimlar kiradigan 11 kishidan iborat hay'at tashkil etiladi. Agentlik hay'ati: Agentlik faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib

chiqadi; Agentlik bo'limlari, hududiy boshqarmalar, Agentlikka qarashli tashkilotlar, korxonalar va muassasalar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi; Agentlikning muhim buyruqlari va boshqa hujjatlari loyihalarini, shuningdek aloqa va axborotlashtirish tizimini rivojlantirish, ilmiy-texnika yutuqlaridan keng ko'lamda foydalananish, idoralararo va davlatlararo aloqalarni rivojlantirish masalalarini muhokama qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 30-iyunda qabul qilingan «O'zbektelekom» aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida» gi qaroriga binoan, «O'zbektelekom» aksiyadorlik kompaniyasi bosh direktori lavozimga kompaniya aksiyadorlari umumiyligiga ilishi tomonidan O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi bilan kelishilgan holda tayinlanadi.

**Kommunal xizmat ko'rsatish.** Keyingi yillarda aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini bozor munosabatlariiga o'tkazishga doir ancha ishlar amalga oshirildi. Zarur qonunchilik va normativ-huquqiy baza yaratildi – Uy-joy kodeksi, «Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida», «Uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida»gi qonunlar va boshqalar qabul qilindi.

Aholiga communal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiysi hamda bozor mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan tegishli mintaqaviy kompleks dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Uy-joy mulkdorlari shirkatlari va o'zini o'zi boshqarish jamoatchilik organlari uy-joy egalari kengashlari shakllantirilmoqda.

Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida boshqarish tizimini isloh qilish, monopoliyadan chiqarish va xususiylashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Jumladan, kommunal xizmat tizimida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, aholini ichimlik suvi, tabiiy gaz va kommunal xizmatlar bilan barqaror ta'minlash, aholiga kommunal xizmat ko'rsatish masalalarida mahalliy davlat boshqaruvi hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ahamiyati va mas'uliyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 19-dekabrda qabul qilingan «Kommunal xizmatni boshqarish tizimini yanada isloh qilish

to‘g‘risida»gi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tugatilib, uning negizida *O‘zbekiston «O‘zkommunxizmat» agentligi* tashkil qilindi hamda hududiy kommunal-foydalanish birlashmalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining bevosita qaramog‘iga topshirildi.

O‘zbekiston «O‘zkommunxizmat» agentligi communal xizmat ko‘rsatish sohasidagi vazifalarni bajarish uchun maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Agentlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

Agentlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qarorlari va boshqa hujjalalariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga amal qiladi.

Agentlik o‘z faoliyatini davlat boshqaruvi boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-avgust-dagi farmoniga ko‘ra O‘zbekiston «O‘zkommunxizmat» agentligi faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va uning samardorligini oshirish, communal xizmat ko‘rsatish korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirishni ta‘minlash, communal xizmatlar uchun tariflarning asossiz o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida quyidagilar *Agentlikning asosiy vazifalari etib belgilandi*:

— communal xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, zamonaviy talablarga javob beradigan qonunchilik va normativ-huquqiy bazani shakllantirish bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholiga communal xizmat ko‘rsatish sohasida raqobat muhitini yaratishga ko‘maklashish;

— communal xizmat ko‘rsatish sohasida yagona texnikaviy siyosatni o‘tkazish, communal tarmoqlar va korxonalarini rivojlanish, texnik qayta jihozlash va modernizatsiyalashga investitsiyalarni, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko‘maklashish, ilg‘or zamonaviy texnologiyalar, mashina va uskunalarini

tatbiq etish, suv va issiqlik energiyasini sotish hamda iste'mol qilish bo'yicha hisoblagichlar va nazorat asbob-uskunalar bilan jihozlash;

— mintaqalararo suv quvurlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ulardan samarali foydalanish, ishonchli va barqaror ishlashini ta'minlash, kommunal xo'jalik tizimida tarmoqlar hamda asbob-uskunalarni kapital va joriy ta'mirlashni tashkil etish;

— kommunal xizmat ko'rsatish korxonalar uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Sanoatda davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi haqida ma'lumot bering.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
3. Davlat arxitektura-qurilish nazoratining mohiyati nimalardan tashkil topgan?
4. O'zbekiston Respublikasida temir yo'l transportini boshqarishning huquqiy asoslari va «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aksionerlik kompaniyasi to'g'risida ma'lumot bering.
5. Mamlakatimizda temir yo'l transporti sohasida davlat nazorati qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi va uning vazifalari qanday taqsimlangan?
6. O'zbekiston Respublikasida avtomobil transporti faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qanday shakllarda amalga oshiriladi?
7. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining asosiy vazifa va funksiyalari nimalardan iborat?
8. O'zbekiston Respublikasida qanday turdag'i avtomobil yo'llari mavjud va umumiyy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini moliyalashtirish qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?
9. «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi to'g'risida ma'lumot bering.
10. O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligining tizimi haqida tushuntiring.
11. Keyingi yillarda aholiga communal xizmat ko'rsatish sohasida mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar to'g'risida ma'lumot bering.

### **1-§. Ta'lim sohasini boshqarish tushunchasi, mazmuni va xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi 1997-yil 29-avgust qonuni, O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagи «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standaptlapini ishlab chiqish va jopiy etish to'g'pisida»gi 1998-yil 5-yanvar qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi hamda «O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1998-yil 13-may qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 2001-yil 16-avgust qarori, shuningdek, boshqa ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari bilan, Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lim sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta'lim to'g'risidagi qonun chilik hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomaga qoidalari qo'llaniladi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzuksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;

- o'rtalik maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'naliшини: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlatda ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Har kimning jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeい, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, bilim olishda teng huquqlari kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek, ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;
- barcha turdag'i ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;
- oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'limgan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

Tegishli ma'lumotga, kasb tayyorgarligi va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshifiladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta’lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ta’lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasasi yuridik shaxs bo‘lib, qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta’lim muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida belgilangan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

Ta’lim muassasasi qonunchilik hujjalari muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Ta’lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya majmui hamda o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.

Ta’lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug‘ullanishga haqli.

Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rtta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta’lim standartlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

Ta’lim muassasalarida ta’lim berish tilidan foydalanish tartibi «Davlat tili haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

— davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;

— ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’milash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

— ta’lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lif tizimi yagona va uzlusizdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lif quyidagi turlarda amalgalashiriladi:

- maktabgacha ta'lif;
- umumiy o'rta ta'lif;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lif;
- oliy c'quv yurtidan keyingi ta'lif;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lif.

Maktabgacha ta'lif bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lif olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lif muassasalarida olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lif bosqichlari quyidagicha:

- boshlang'ich ta'lif (I-IV sinflar);
- umumiy o'rta ta'lif (I-IX sinflar).

Boshlang'ich ta'lif umumiy o'rta ta'lif olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lif bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'lifning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lif asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishslash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'lifning navbatdagi bosqichda davom o'tirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqlashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblari bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

Oliy ta'lif yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar va oliy mакtabning boshqa ta'lif muassasalarida) maxsus, o'quv kasb-hunar ta'lifi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lif ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lif yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'lmdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lmdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shart-noma asosida olishga haqlidirlar.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif jamiyatning yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot masalalarida (aspirantura, ad'yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonunchilik hujjatlarida belgilanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdag'i ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqt'i va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'naliishlarda mактабдан ташқари та'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Mактабдан ташқари та'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Mактабдан ташқари та'lim muassasalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonunchilik hujjalardan belgilab qo'yiladi.

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada o'qitilishi va mustaqil ta'lim olishi tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy jihatdan, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

Akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya qilingan ta'lim dasturlari bo'yicha ekstern tartibda imtihonlar topshirgan shaxslarga ham beriladi, davlat ta'lim muassasasida o'qitilishi shart bo'lgan va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan mutaxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, ularning hajmlari va fanlarga qo'yilgan baholar yozilgan varaqi ilova qilinadi.

Dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta'lim standartlariga mos kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning hukumatlari o'rtaSIDA ikki

tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma'lumot to'g'risidagi hujjatlari belgilangan tartibda o'zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirish bo'yicha ishslash huquqini beradi.

Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar qonunchilik hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiyalar va yotoqxonada joy bilan ta'minlanadi.

Ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haq to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli.

Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o'smirlarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik, tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quvchilari qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'ladi.

Alohiba sharoitlarda tarbiyalanish va o'qishga muhtoj bolalar va o'smirlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning ta'lim olishi va mustaqil

bilim olishi uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratiladi.

Ta'lim sohasini boshqarish organlari tizimiga quyidagilar kiradi:

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimiga kiruvchi (Oliy ta'lim muassasalari), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga bo'yunsunuvchi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi (O'MKHTM) va Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazlari;*

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 1990-yil 7- yanvardagi Prezident farmoni bilan tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq kadrlarni sifatli o'qitish va tarbiyalashni tashkil etish maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 9-dekabrdagi farmonini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 2004-yil 20-iyulda 341-sonli qarori bilan vazirlikning nizomi tasdiqlandi va mazkur Qarorga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 2-oktabrdagi 207-sonli qaroriga muvofiq o'zgartishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi respublikada oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Vazirlik tizimiga O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, kab-hunar ta'limini rivojlantirish markazi, idoraviy mansub oliy o'quv yurtlari kiradi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmo-

yishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, vazirlik Nizomiga amal qiladi.

Vazirlik o'z faoliyatini davlat boshqaruving boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

*O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lifi vazirligi* Oliy Sovet Rayosatining 1990-yil 27-yanvar farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'lifi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida» 1990-yil 27-yanvar qarori bilan tashkil etildi.

Uzluksiz ta'lif tizimining muhim bo'g'ini - maktabgacha va o'rta umumiy ta'limni to'la ko'lamli rivojlantirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, 2004-2009-yillarda mакtab ta'lmini rivojlantirishning Davlat umummilliy dasturi o'z vaqtida va sifatlari amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 9-dekabrdagi farmonini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Xalq ta'lifi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida bir nechta qarorlar qabul qildi. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 2004-yil 5-avgust qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligining Nizomi tasdiqlangan. Bundan tashqari mazkur Qarorga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 29-avgust va 2006-yil 2-oktabr qarorlariga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga va boshqa hujjalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga, shuningdek vazirlik Nizomiga amal qiladi.

Vazirlilik tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'lifi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta'lifi boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) xalq ta'lifi bo'limlari hamda idoraviy mansub boshqa muassasalar, korxonalar va tashkilotlar kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'lifi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta'lifi boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) xalq ta'lifi bo'limlari ikki tomonlama bo'ysunishda bo'ladilar va Vazirlilikka hamda tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga hisob beradilar.

Vazirlik o'z faoliyatini davlat boshqaruvi boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lif sohasidagi vakolatiga quyidagilar kiradi:*

— ta'lif sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;  
— ta'lif sohasidai davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;  
— ta'lifni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

— ta'lif muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;

— ta'lif muassasalarini akkreditatsiya qilish, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;

— boshqa davlatlarning ta'lif muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lif faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

— qonunchilik hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lif to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;

— davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash;

— davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumotlar to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;

— davlat grantlari miqdorini va ta'lif muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;

- davlat oliy ta’lim muassasasining rektorlarini tayinlash;
- ta’lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta’lim muassasalaridan boshqasiga o’tkazish tartibini belgilash;
- qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

*Ta’limni boshqarish bo'yicha vakolatlari davlat organlarining huquqlari doirasiga quyidagilar kirdi:*

- ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish;
- ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;
- davlat ta’lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo‘lgan talablar bajarilishini ta’minalash;
- o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangicha ta’limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish;
- o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil qilish;
- ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;
- davlat oliy ta’lim muassasalarining rektorini tayinlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;
- pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish;
- qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

*Mahalliy davlat hokimiyyati organlari:*

Ta’lim muassasalari faoliyatining mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta’minalaydilar;

— ta’lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo‘lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro‘yxatga oladilar;

— o‘z hududlaridagi ta’lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarini belgilaydilar;

— ta’lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo‘lgan davlat talablariga rioya etilishini ta’minalaydilar;

— qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlari ham amalga oshiradilar.

Ta'limga muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'limga muassasalarida qonunchilik hujjalari muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

Ta'limga sohasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta'limga muassasalarida ta'limga to'g'risidagi qonunchilik hujjalari muvofiq faoliyatini nazorat qiladi.

Nodavlat ta'limga muassasalari ta'limga to'g'risidagi qonunchilik hujjalari buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonunchilik hujjalari muvofiq to'xtatib qo'yishga haqli.

Nodavlat ta'limga muassasalariga qabul davlat o'quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqi va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasiga, mакtabgacha, umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar.

Ta'limga oluvchilarini o'qitish vaqtin hisobidan ta'limga jarayoni bilan bog'liq bo'limgan ishga jalb etish taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ta'limga oluvchilarining vazifalari: O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, axloq va odob qoidalariga, ta'limga muassasasining ustavi va ichki tartib-qoidalariga rivoj etish; o'z bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kasb mahoratlarini muntazam ravishda oshirib borishdan iboratdir. Ta'limga oluvchilarining boshqa huquq va majburiyatlar O'zbekiston Respublikasining qonunlari, ta'limga muassasalari to'g'risidagi nizomlar hamda ularning ustavlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida»gi 1998-yil 24-fevral qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida» 2003-yil 9-dekabr farmonini bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi

faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida 2004-yil 20-iyul qarori hamda Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi huzuridagi idoraviy metrologik nazorat xizmatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 2006-yil 14-dekabr qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar asosida Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni ro‘yobga chiqarish, shuningdek, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish, ularning faoliyatini yo‘lga kuyish va muvofiqlashtirish, ularda barkamol, chuqur bilimlarga ega bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tashkil etilib, takomillashtirildi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari Markaz rahbari lavozimi joriy etilgan. Koraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hududiy boshqarmalari tashkil etilgan.

O‘rta maxsus va kasbga yo‘naltirilgan hunar-texnika ta’limining, faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim muassasalarining hamda ular negizida tashkil qilinayotgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyatiga tashkiliy, o‘quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, o‘quv dasturlarini unifikatsiyalash, pedagog kadrlar tayyorlash O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi zimmasiga yuklangan.

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Davlat test markazi* O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzurida Davlat test markazi tashkil etish to‘g‘risida»gi 1994-yil 14-may qarori bilan tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining tarkibi to‘g‘risida» 2003-yil 30-oktabr qarori bilan bir nechta o‘zgartirishlar kiritilgan. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2003-yil 9-dekabr farmonini bajarish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Davlat test

markazining faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 2004-yil 24-iyun qaroriga asosan o'zgartishlar kiritildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi to'g'risida nizom tasdiqlandi.

Bundan tashqari yuqorida ko'rsatilgan qarorlar asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat test markazi tarkibida Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lif muassasalari attestatsiyasi boshqarmasini tashkil etish to'g'risida»gi 1998-yil 11-mart qaroriga ham bir necha o'zgartirishlar kiritildi

Yuqorida ko'rsatilgan qarorlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi hamda o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. U o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga va boshqa hujjalariiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek Davlat test markazi to'g'risidagi nizomga amal qiladi.

*Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:*

- respublika ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishda test sinovi orqali tanlab olish, kadrlar tayyorlash sifati va o'quv jarayoni samaradorligi xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;
- abituriyentlar, o'quvchilar, talabalar bilimlarining O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lif standartlariga va davlat talablariga muvofiqligini tahlil qilish;
- qobiliyatli yoshlarni izlash va tanlash tizimini tak— omilllashtirish;
- murakkablik darajasi ta'lif dasturlariga muvofiq bo'lgan test materiallarini ishlab chiqish hamda ular asosida ta'lif muassasalariga kirayotgan abituriyentlarni test sinovlaridan o'tkazish;

- test sinovi natijalarining xolisonaligi, ishonchliligi va adolatliligini ta'minlash;
  - ta'lim va o'qitish sifatini, test baholari va reyting ballarining xolisonaligini tekshirishni tashkil etish va nazorat qilishni ta'minlash;
  - uzlusiz ta'lim tizimida band bo'lgan pedagoglar, professor-o'qituvchilar tarkibi va rahbar xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish;
  - idoraviy mansubligi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish, ta'lim muassasalari reytingini aniqlash;
  - pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ta'lim tizimi rahbar organlari va mahalliy hokimliklar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;
- Vazirlar Mahkamasining Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasining ishchi organi funksiyalarini bajarish;
- Vazirlar Mahkamasining Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasining ishchi organi sifatida nodavlat ta'lim muassasalariga litsenziyalarni rasmiylashtirish;
- pedagoglar, professor-o'qituvchilar tarkibi va rahbar kadrlarni, shuningdek ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish uchun talablar va mezonlarni ishlab chiqish va takomillashtirish;
  - xorijiy mamlakatlarda berilgan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni e'tirof etish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini aniqlash) tartibi amalga oshirilishini tashkil etish va ta'minlash;
  - davlat ta'lim standartlari va davlat talablarini, shuningdek ular asosida ta'limning barcha turlari bo'yicha o'quv rejalarini va dasturlarini ularni belgilangan tartibda tasdiqlash uchun eksperitzadan o'tkazish;
  - kadrlar tayyorlash sifati monitoringi tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish va boshqalar.

## **2-§. Sog‘liqni saqlash sohasini boshqarishning mazmuni**

Sog‘liqni saqlash sohasini boshqaruva organlari O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi 1996-yil 29-avgust qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlarga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining qaror va ko‘rsatmalariga asosan o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to‘g‘risida»gi 1998-yil 10-noyabr farmonini bajarish yuzasidan hamda aholi sog‘lig‘i ustidan davlat nazoratini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Vazirlik faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi 1999-yil 14-yanvar qarori qabul qilindi.

Davlat sog‘liqni saqlash tizimiga O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari, ularning shahar va tuman bo‘linmalari kiradi. Davlat sog‘liqni saqlash tizimiga davlat mulki bo‘lgan va davlat sog‘liqni saqlash tizimining boshqaruva organlariga bo‘ysunuvchi davolash-profilaktika va ilmiy tadqiqot muassasalari, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari tayyorlaydigan hamda ularni qayta tayyorgarlikdan o‘tkazadigan o‘quv yurtlari, farmatsevtika korxonalari va tashkilotlari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sudtibbiy ekspertiza muassasalari, tibbiy dori-darmonlar va tibbiyot texnikasi ishlab chiqaradigan korxonalar hamda asosiy faoliyati fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash bilan bog‘liq boshqa korxona, muassasa va tashkilotlar kiradi. Ilmiy tadqiqot institutlarining klinikalari, vazirliklar, idoralar, davlat korxonalari, muassasa va tashkilotlari barpo etadigan davolash-profilaktika va dorixona muassasalari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash sohasini boshqarish Sog‘liqni saqlash vazirligiga yuklatilgan. O‘zbekiston Respublikasi

Sog'liqni saqlash vazirligi va uning joylardagi organlarining *asosiy vazifalari* quyidagilar hisoblanadi:

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturiga muvofiq sog'liqni saqlash sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

aholiga bepul tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning davlat tomonidan kafolatlangan darajasi va sifatini ta'minlash;

boshqarishning barcha darajalarida aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini tashkil etish va mustahkamlash;

sog'liqni saqlash tizimini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, shu jumladan davolash-profilaktika muassasalarining bosqichma-bosqich pulli xizmatlar ko'rsatishga o'tkazilishini ta'minlash;

jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy klinikalarni, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jaib etgan holda barpo etish.

### **3-§. Fan sohasini boshqarish**

O'zbekiston — ilm-fan va madaniyat qadimdan taraqqiy etgan mamlakatlardan biridir. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida, ayniqsa, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, to'qimachilik, me'morchilik, ma'danshunoslik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik rivojlangan. O'zbekiston olimlari ota-bobolari yaratib ketgan ilmiy merosni o'rgandilar va boyitdilar. O'zbekistonda hozir ham yuqorida sanab o'tilgan sohalar rivojlantirilmoqda, ularning qatoriga yangilari qo'shilmoqda.

O'zbekiston olimlari o'z ilmiy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo'shdilar. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Nukus va Samarqandda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining bo'limlari, Buxoroda ilmiy markazi, Urganchda Xorazm Ma'mun akademiyasi ochilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatadigan ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy markazlar, shuningdek, universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida ham olib boriladi. Ilmiy kadrlar Fanlar akademiyasi tizimida, shuningdek, oliy o'quv yurtlari, xalq ta'limi tizimida tayyorlanadi.

Ilmiy tadqiqot muassasalari tarmog'i va ilmiy kadrlar sonining jadal o'sishi, olimlar oldiga yangi-yangi vazifalarning qo'yilishi ilmiy tadqiqot ishlariiga rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirish ishlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Mamlakatimizda 1932-yilda Fan qo'mitasi ta'sis etildi. 1940-yilda Fan qo'mitasi negizida Ittifoq Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali O'zFan tuzildi. Shu davrda O'zFan O'zbekistonning ilmiy tadqiqot markaziga aylandi. 1943-yilda O'zFan asosida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil qilindi. O'sha paytda uning tarkibida o'nta ilmiy tadqiqot instituti faoliyat ko'rsatgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, ilmiy tadqiqot muassasalarini bazaviy ta'minlash tizimidan ilmiy-texnik vazifalarni hal qilishga qaratilgan maqsadli loyihalarni moliyalashga o'tish ilmiy jamoalarning ijodiy faolligini rag'batlantirish, ularning sa'yi-harakatlarini real yakuniy natijalarga erishishga safarbar qilish, fan va texnika taraqqiyotining dolzarb masalalarini hal etishni, ularning ishlab chiqarishga joriy etilishini ta'minladi. Ilmiy-texnika sohasida xalqaro aloqalar jadal rivojlanib bordi.

O'zbekiston Respublikasida fan va texnika sohalarini boshqarish bo'yicha mustaqilligimizning ilk davrlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan 1992-yil 18-fevralda O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat komiteti (O'zbekiston Respublika FTDK) keyinchalik, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi 2002-yil 20-fevral farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ilmiy-texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi hamda uning ijroiya organi sifatida Fan va texnologiyalar markazi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2002-yil 4-mart qarori, shundan keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006-yil 7-avgust qaroriga asosan Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tashkil etilib, nizomi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasida fanni rivojlantirishda avvalo Fanlar akademiyasining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur

muassasaga tabiiy, texnikaga oid va ijtimoiy fanlar bo'yicha ilmiy tekshirish ishlari olib borish vazifasi yuklatilgan. Fanlar akademiyasi o'ziga bo'ysungan ilmiy tadqiqot muassasalariga va institutlariga rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2004-yil 7-sentabr qarori qabul qilindi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fanning rolini kuchaytirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti boshqaruvini erkinlash-tirish, ilmiy tadqiqotlar, texnologik va konstrukturlik ishlanmalari darajasi, sifati va dolzarbligini oshirish, ulardan samarali foydalanishga sharoit yaratish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Qo'mitaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish vazifalari, zamonaliv fan yutuqlari hisobga olingan holda Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar bilan birga fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

vazirliklar va idoralarning ilmiy tadqiqot institutlari va muassasalari, loyiha-konstrukturlik tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari, Fanlar akademiyasining fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash;

ilmiy-texnika dasturlari amalga oshirilishini, shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlari natijalari iqtisod, ishlab chiqarish, ta'limning turli sohalarida qo'llanilishini samarali monitoring qilishni tashkil etish;

ilmiy-texnika sohasida o'zaro foydali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, mamlakat ilm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, respublika ilmiy tashkilotlari, olimlari va mutaxassislarining xalqaro dasturlar va ilmiy loyihalar tanlovlariда qatnashishi uchun ko'maklashish.

Qo'mita raisining o'rribbosari — ijro etuvchi apparati rahbari maqomi, moddiy va maishiy ta'minot sharoitlari bo'yicha vazir o'rribbosariga tenglashtirilgan.

Qo‘mita tomonidan fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi va boshqa vazirlik va idoralarning ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlari tomonidan fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ishlab chiqilgan ilmiy-texnika dasturlari asosida olib boriladi;

davlat budjeti mablag‘lari, budjetdan tashqari fondlar, homiylardan tushgan mablag‘lar va xo‘jalik subyektlari bilan ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan shartnomalardan tushgan mablag‘lar moliyalash manbalari hisoblanadi;

davlat budjeti mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, yetakchi tadqiqot markazlariga, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik muassasalariga ega bo‘lgan boshqa vazirliklar, idoralar va tashkilotlarga ajratiladi;

Innovatsiya, fan-texnika faoliyatini moliyalashtirish jamg‘armasini shakllantirish uchun mablag‘ vazirliklar, idoralar, xo‘jalik hisobidagi tuzilmalardan kelib tushadigan mablag‘lar, xalqaro grantlar, tijorat banklari va xorijiy moliya institutlarining maqsadli imtiyozli kreditlari bilan bir qatorda Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi orqali O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan davlat budjetidan ajratiladi;

Fanlar akademiyasi vazirliklar va idoralar tadqiqot va innovatsiya ishlari uchun ajratiladigan budget mablag‘larini ilmiy tadqiqot, ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek, amalga oshiriladigan ilmiy-texnika loyihalariga ilmiy-texnika loyihalari ekspertizalari natijalariga qarab tanlov asosida mustaqil taqsimlaydi.

Har yili aspirantura, doktoranturaga qabul qilinadigan shaxslar soni Moliya vazirligi tomonidan maxsus ajratiladigan mablag‘lar doirasida o‘rnatalgan tartibda ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni amalga oshiradigan Fanlar akademiyasi, vazirliklar, idoralar tomonidan aniqlanadi.

Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Fanlar akade-

miyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan hamkorlikda ikki oy muddatda ilmiy tadqiqot, ta’lim muassasalari, tajriba-konstrukturlik tashkilotlariga ega vazirliklar va idoralarda bajariladigan Fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlarining ilmiy-texnika dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy taraqqiyotining ustuvor muammolarini hal qilishga yo‘naltirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni ekspertiza qilishni ta’minalash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida *Oliy attestatsiya komissiyasi* ham (O‘zbekiston Respublikasi OAK) tashkil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi o‘z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlar Fanlar akademiyasi, tarmoq akademiyalari, vazirliklari, idoralar, o‘quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va muassasalar kimga bo‘ysunishidan qat’i nazar, ular uchun majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (O‘zbekiston Respublikasi OAK) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 1992-yil 31-martda tashkil etilgan. Ushbu Farmon ijrosini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi faoliyatini tashkil etish masalalari haqida»gi 1992-yil 9-sentabr qarori qabul qilindi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi to‘g‘risida nizom tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (O‘zbekiston Respublikasi OAK) fan, texnika, ta’lim va madaniyat yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy, ilmiy-pedagog xodimlarga ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar beruvchi davlat organi hisoblanadi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi idora huquqlaridan foydalanadi va respublikada ilmiy, ilmiy-pedagog xodimlarni davlat yo‘li bilan attestatsiyadan o‘tkazishning ahvoli va tizimini takomillashtirish uchun mas’uldir.

*OAKning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:*

yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishga rahbarlik qilish hamda ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarga qo'yiladigan talablarning yagonaligini ta'minlash;

ixtisoslashtirilgan kengashlar ishi va dissertatsiya ishlari sifatini, ularning ilmiy va amaliy qiymatini nazorat qilib borish;

ilmiy unvonlar va ilmiy darajalarga qo'yiladigan malaka talablarini xalqaro andazalarga muvofiq holga keltirish.

OAK raisi, uning o'rinnbosarlari, bosh ilmiy kotib va OAK ilmiy Kengashi boshqa a'zolaridan iborat Rayosat OAKning rahbarlik qiluvchi ijro etuvchi organi hisoblanadi. Rayosatning tarkibiy soni va shaxsiy tarkibini Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

OAK Rayosati ixtisoslashtirilgan kengashlarni tashkil qilish tartibini ishlab chiqadi, ixtisoslashtirilgan kengashlarni tashkil etish uchun ruxsat beradi, ularning shaxsiy tarkibini tasdiqlaydi, ularga tegishli ixtisoslar bo'yicha dissertatsiya ishlarini ko'rib chiqish huquqini beradi; ekspertlar kengashini tuzish haqida qarorlar kiritadi va o'z ishida ularga tayanadi, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish haqida qarorlar qabul qiladi. ixtisoslashtirilgan kengashlar va ilmiy unvonlar beruvchi kengashlar raislarining ishi to'g'risidagi hisobotlarni, davlat inspeksiyasi bo'limi axborotlarini vaqtiga vaqtiga bilan eshitib turadi, OAK plenumi ko'rib chiqishi uchun kiritilgai hujjatlar loyihamalarini muhokama qiladi, OAK ixtiyoridagi boshqa masalalarni hal etadi.

OAK faoliyatiga oid kundalik masalalarni ko'rib chiqish va hal etish, OAK bo'limlari, bo'linmalari ishiga tezkor rahbarlik qilish va ularni nazorat qilib borish, qabul qilingan qarolarning ijrosini tekshirish, OAK apparati xodimlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish uchun OAK raisi, uning muovinlari, bosh ilmiy kotib hamda davlat bosh inspektordidan iborat OAK hay'ati tuziladi.

Ilmiy kengash Rayosati, hay'ati ishiga OAK raisi rahbarlik qiladi.

Ilmiy kengash, Rayosat, uning hay'ati qarorlari ochiq ovoz berish orqali majlis ishtiroychilarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Taqdim etilgan dissertatsiyalarni ilmiy ekspertizadan o'tkazish, shuningdek, ilmiy unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnomalarni

ko'rib chiqish uchun OAK fan tarmoqlari bo'yicha xalq xo'jaligi va madaniyatning yetakchi mutaxassis olimlaridan iborat ekspertlar kengashlari tuzadi. Ekspertlar kengashlarining shaxsiy tarkibi oliy o'quv yurtlari ilmiy tadqiqot institutlari va muassasalarining, fanlar akademiyalari, shuningdek, manfaatdor vazirliliklar va idoralarning tavsiyalari hisobga olingan holda belgilanadi va keyinchalik kengashning kamida uchdan bir qismini yangilash sharti bilan, OAK Rayosati tomonidan 3 yil muddatga tasdiqlanadi.

OAK apparati tuzilmasi va shtatdagi xodimlari soni Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. OAK apparatining xodimlari ro'yxati, shuningdek, bo'lmlar, ekspertlar kengashlari to'g'risidagi nizomlar OAK Rayosati tomonidan tasdiqlanadi. OAKning ishdan ozod etilmagan a'zolarining, ekspertlar kengashlarining, shuningdek, opponentlar va taqrizchilarning, jalb etilgan mutaxassislamning mehnatiga belgilangan tartibda haq to'lanadi.

#### **4-§. Madaniyat va sport sohasida boshqaruvni tashkil etish**

O'zbekiston Respublikasida madaniyat sohasini boshqaruvchi organlar tizimida: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, «O'zbekkino» milliy agentligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligi, «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi hamda ularga bo'y sunuvchi korxona va tashkilotlar faoliyat yuritadi.

Madaniyat va sport sohasida boshqaruvni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi 2000-yil 26-may qonuni, «Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida»gi 1998-yil 29-avgust qonuni, «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi 2001-yil 30-avgust qonunlari hamda boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari madaniyat va sport sohasida boshqaruvni amalga oshiruvchi organlar O'zbekiston Respublikasining «Arxivlar to'g'risida»gi 1999-yil 15-aprel qonuni, «Turizm to'g'risida»gi 1999-yil 20-avgust qonurlarining ijrosini ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi 2004-yil 27-sentabr farmoni bilan madaniyat va sportni rivojlantirish muammolarini kompleks hal etish, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan boy va barkamol shaxslarni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish, sog'lom turmush tarzi va sportga muhabbat tuyg'usini singdirish, aholining madaniy va estetik talab-ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish uchun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 2005-yil 5-aprel qaroriga binoan vazirlikning nizomi tasdiqlandi.

Mazkur Nizomga muvofiq vazirlikning quyidagi asosiy vazifalari belgilab berilgan:

- madaniyat va ommaviy sport sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- xalqning boy madaniy merosini qayta tiklash;
- xalqning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyatini, xalq an'analari va urf-odatlarini har tomonlama rivojlantirish;
- jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan boy va uyg'un kamol topgan shaxslarni tarbiyalash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- milliy istiqlol g'oyasidan, O'zbekiston xalqining madaniy va ma'naviy-axloqiy an'analardan kelib chiqqan holda aholi o'rtaida madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va ommaviy sport ishlarini amalga oshirish;
- odamlarning madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish;
- teatr, musiqa, xoreografiya, tasviriy san'at, sirk, xalq amaliy va estrada san'atini yanada rivojlantirish va boshqalar.

Vazirlikka qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan vazir boshchilik qiladi.

Vazirning to'rt nafar o'rinnbosari, shu jumladan, *madaniyat ishlari bo'yicha va sport ishlari bo'yicha* ikki nafar birinchi o'rinnbosari bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimiga kiruvchi tashkilotlar va muassasalar quyidagilar:

*I. Madaniyat muassasalari*

«O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi;

«O'beknavo» estrada birlashmasi;

«Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalining bosh direksiyasi;

Akademik, xalq va badiiy jamoalar direksiyasi;

Orkestrlar (simfonik orkestr, kamer orkestri, xalq cholg'u asboblari orkestri);

«O'zbekraqs» milliy raqs birlashmasi va bulardan tashqari 17 ta muassasalar.

*II. Sport muassasalari:*

Badiiy jamoalar ijodiy birlashmasi;

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti;

Olimpiya zahiralari respublika kolleji, Toshkent shahri;

Sport turlari bo'yicha respublika oliy sport mahorati maktablari;

«Sertifikatlash va kompyuterlashtirish markazi» davlat korxonasi;

«Sport» gazetasi tahririysi;

Olimpiya shon-shuhratni muzeyi;

Futbol bo'yicha trenerlar va hakamlar respublika maktabi.

Respublikada madaniyat va san'atni rivojlantirish muammlarini har tomonlama hal qilish, jamiyatning ma'naviy-axloqiy mavqeini oshirish, aholining madaniy va estetik talab ehtiyojlarini to'la-to'kis qondirish, shuningdek, madaniyat va kinematografiya sohasidagi respublika va hududiy organlar faoliyatining samadarligini ta'minlash, kino va video mahsulotlari ishlab chiqarish, ko'paytirish hamda namoyish etish tizimining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kinematografiya sohasida boshqarishni takomillashtirish to'g'risida»gi 2004-yil 16-mart fatmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekkino» Milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 2004-yil 17-mart qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan «O'zbekkino» davlat aksiyadorlik kompaniyasi «O'zbekkino» Milliy agentligiga aylantirildi va agentlikning nizomi tasdiqlandi.

Ushbu nizomga muvofiq agentlikning quyidagi vazifalari belgilab berildi:

- kino san'atining milliy madaniyatini rivojlantirish;
  - jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyatini hisobga olgan holda milliy qadriyatlar uyg'unligi asosida taraqqiy ettirishning ustuvor yo'nalişlarini ishlab chiqish;
  - kino san'atida, kino-videofaoliyat sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;
  - milliy kino san'atining eng yaxshi an'analarini izchil davom ettirish;
  - iqtidorli yosh kinematografchilarni tarbiyalash, ularning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat filmlar fondi faoliyatini bungungi kun talablari negizida tashkil etish;
- kinofilmlar yaratish va ularni namoyish etish tizimini tanlovlardan tashkil etish orqali takomillashtirish va hokazo.

Agentlikni qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan bosh direktor boshqaradi.

Bosh direktoring ikki nafar o'rribbosari, shu jumladan, bir nafar birinchi o'rribbosari bo'ladi.

Bosh direktor o'z maqomiga ko'ra vazirga, bosh direktoring birinchi o'rribbosari va o'rribbosari tegishli ravishda vazirning birinchi o'rribbosari va o'rribbosariga tenglashtiriladi.

O'zbekkino» Milliy agentligi kino san'ati, kino-videofaoliyatni amalga oshirish sohalaridagi vazifalarni hal etishga vakolatli bo'lgan davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Agentlik o'z faoliyatida Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

Televideeniye va radioeshittirishni boshqarish O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasiga yuklatilgan.

Mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalash, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirishda mustaqil ommaviy axborot vositalarini, eng avvalo, alohida ahamiyatga ega bo'lgan teleradioeshittirish faoliyatini rivojlantirish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muhim yo'naliishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mustaqil teleradio kanallarni isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2005-yil 8-noyabr farmoni bilan O'zbekiston teleradiokompaniyasi O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi etib qayta tashkil etildi va uning nizomi tasdiqlandi.

Quyidagilar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

— aholini, shuningdek chet el jamoatchiligin O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan, huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirish;

— mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, aholini inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan demokratik o'zgarishlar to'g'risida keng xabardor qilish;

— aholining ta'lif va madaniy saviyasini oshirish;

— milliy an'analarni, tarixiy va ma'naviy merosni saqlab qolish, fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirish;

— yoshlar va o'sib kelayotgan avlodni vatanparvarlik, Vatanga muhabbat va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan tele- va radiodasturlar sifatini, professional va badiiy darajasini ta'minlash;

— O'zbekiston MTRK teleradiokanallari, tarkibiy bo'linmalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

— zamonaviy talablar hamda standartlarga muvofiq texnika bazasini yanada rivojlantirish va hokazo.

— O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

— «O'zbekiston» telekanali va «O'zbekiston» radiokanali negizida tashkil qilinadigan «O'zbekiston» teleradiokanali» davlat unitar korxonasi;

— «Sport» telekanali va «Mash'al» radiokanali negizida tashkil qilinadigan «Sport» teleradiokanali» davlat unitar korxonasi;

— «Toshkent» telekanali va «Do'stlik» radiokanali negizida tashkil qilinadigan «Toshkent» teleradiokanali» davlat unitar korxonasi;

— «Respublika telemarkazi», «Respublika radio va ovoz yozish uyi», «Nukus teleradiomarkazi» korxonalari negizida tashkil qilinadigan «Respublika teleradiomarkazi» davlat unitar korxonasi;

- «O'zbektelefilm» studiyasi negizida tashkil qilinadigan «O'zbektelefilm» davlat unitar korxonasi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat teleradiokompaniyalari, shuningdek boshqa ijodiy, ishlab chiqarish-texnika bo'linmalari.

## **5-§. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish va mehnat sohasini boshqarish**

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2007-yil 6-aprel qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 8-maydag'i 95-sonli qaroridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi to'g'risida nizomi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi mehnat, bandlik, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ijtimoiy ta'minlash sohasidagi siyosatni amalga oshiruvchi respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'y-sunadi.

Vazirlik tizimiga quyidagilar kiradi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi;

viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari;

bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazlari;

tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari;

hududiy reabilitatsiya markazlari;

nogironlar va qariyalar uchun «Muruvvat» va «Saxovat» uylari;

urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriy va pansionatlar;

Toshkent shahrida ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv markazi;

Nogironlarni tibbiy-ijtimoiy ekspertiza va reabilitatsiya qilish Respublika inspeksiyasi;

tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari;

Nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi;

Toshkent va Farg'ona shaharlarida nogironlar uchun ixtisoslashtirilgan respublika kasb-hunar kollejlari;

2-son yuridik kolleji;

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimi xodimlari malakasini oshirish Respublika kurslari;

Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi;

fuqarolarni chet ellarda ishga joylashtirish bo'yicha xo'jalik hisobidagi mintaqaviy byurolar;

Jo'nab ketishdan oldingi moslashuv va o'qitish markazi;

Axborot-kompyuter markazi;

Respublika aholi bandligi, mehnatni muhofaza qilish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish ilmiy markazi.

Vazirlikning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarining davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tashkilotlar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek hududiy bo'linmalari, tasarrufidagi boshqa tashkilotlar orqali hal qiladi.

Vazirlik o'z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

Vazirlik va uning bo'linmalarining moddiy-texnik ta'minoti, shuningdek vazirlik tizimi xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun ajratiladigan mablag'lar doirasida davlat budgeti mablag'lari hisobidan hamda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari xodimlarining mehnatini rag'batlantirish va moddiy-texnika bazasini mustah-kamlash jamg'armasi mablag'lari, shuningdek qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Vazirlik yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, bank muassasalarida depozit va boshqa hisob raqamlariga, shu jumladan

valuta va maxsus hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga, shuningdek tegishli muhr va shtamplarga ega bo'ladi.

*Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:*

— mintaqalar bo'yicha mehnat bozorini shakllantirishda samarali siyosatni amalga oshirish, demografik omillarni, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va tarkibiy qayta tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda bandlikning yangi shakllarini keng tatbiq etish hisobiga aholi bandligining o'sishini ta'minlash;

— demografik o'zgarishlar va kadrlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq o'zgarib borayotgan talablarni hisobga olgan holda mehnat, ish bilan bandlik va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

— ishga joylashishga muhtoj, ish bilan band bo'lмаган aholiga kasbiy qayta tayyorlash va ishga joylashtirish bo'yicha sifatli xizmatlar ko'rsatish;

— aholining ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash, kamxarj oilalar, nogironlar va yolg'iz keksalarga yordam ko'rsatishda tabaqaqlashtirilgan tarzda va aniq yondashuvni kuchaytirish;

— mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan qattiq nazorat o'matish, amalga oshirish, mehnat munosabatlarini, moddiy rag'batlantirish va mehnatni muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Mehnat bozorini shakllantirish va aholini ish bilan ta'minlash sohasida:

Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda respublika va hududlarning demografik rivojlanishi borasida bashoratlarni amalga oshiradi, aholini ish bilan samarali ta'minlash chora-tadbirlari kompleksini asoslagan holda mehnat resurslarining bashorat balanslarini ishlab chiqadi;

respublika va hududlarning mehnat resurslari soni va tarkibini o'rganadi hamda uni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqadi;

aholining ish bilan bandlik darajasi va tarkibini eng to'liq va xolisona baholashni ta'minlash, ishga joylashishga muhtoj shaxslarni aniqlash maqsadida mehnat bozori ahvolining monitoringini tashkil etadi;

hududlarning demografik rivojlanish bashoratlari asosida aholini ish bilan ta'minlash yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

migratsiya jarayonlarini tahlil qiladi, tashqi mehnat migratsiyasini va xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi mehnat faoliyatini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

ishsizlarni hisobga olishni tashkil qiladi;

manfaatdor vazirlıklar va idoralar bilan birligida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishini tadqiq etadi hamda ularning natijalari asosida ishchi kadrlar va o'quv yurtlarida mutaxassislarning kasb tayyorgarligi yo'nalishlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi va hokazo.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligida 9 kishi — Vazir (hay'at raisi), vazir o'rinnbosarlari (lavozimiga ko'ra), shuningdek vazirlik va uning tizimi boshqa rahbar xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi.

Hay'at a'zolari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi, vazir va uning o'rinnbosarlari bundan mustasno.

Vazirlik hay'ati o'zining muntazam ravishda o'tkaziladigan majlislarida vazirlik faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqadi, vazirlikning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, o'ziga qarashli boshqa organlar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi, Vazirlikning muhim buyruqlari va boshqa hujjalari loyihamarini muhokama qiladi.

Hay'at qarorlari vazimining buyruqlari bilan amalga oshiriladi.

Vazir bilan hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'lganda u bu to'g'rida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-

masiga axborot bergen holda, mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini Vazirlar Mahkamasiga ma'lum qilishlari mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hududiy bosh boshqarmalari, shuningdek tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari hamda bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazlari tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklariga hamda Vazirlikka bo'ysunadilar va hisobot beradilar.

Viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari rahbarlarini tayinlash tegishli ravishda viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vaziri tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqorida aytib o'tilgan sohalarda ichki ishlar organlarining ham o'rni beqiyosdir. Ular mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan shaxslar hamda jazoni ijob etish joylaridan bo'shatilgan shaxslarni ishga joylashtirish choralarini ko'radilar. Jazoni ijob etish muassasalaridan bo'shatilganlarni mehnatga jalb qilish bo'yicha hokimiyatlar huzuridagi maxsus komissiyalar va ijtimoiy moslashuv markazlari orqali tegishli choralar ko'rinishini tashkil etadilar.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Ta'lim sohasini boshqarish qanday tartibda amalga oshiriladi?
2. Ta'lim sohasini boshqarish organlari tizimi va huquqiy holati qanday?
3. Sog'liqni saqlash sohasini boshqarish haqida so'zlab bering.
4. Sog'liqni saqlash sohasini boshqarish organlari va huquqiy holati haqida tushuntirib bering.
5. Madaniyat va sport sohasini boshqarish organlari va ularning huquqiy holati nimalardan iborat?
6. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza etish sohasini boshqarish organlari, huquqiy holati haqida so'zlab bering.

MA'MURIY-SIYOSIY FAOLIYAT SOHASINI  
BOSHQARISHNI MA'MURIY-HUQUQIY  
TARTIBGA SOLISH

### **1-§. Mudofaa sohasini boshqarish**

Mudofaa sohasini boshqarish O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi 1991-yil 31-avgust qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi to'g'risida»gi 1995-yil 30-avgust qarori, O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi) 2001-yil 11-may qonuni va «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi) 2002-yil 12-dekabr qonunlariga asosan amalga oshiriladi.

«Ma'lumki, davlatning mudofaa qobiliyati uning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy va ma'naviy imkoniyatlaridan tarkib topadi. Bu sohada biz yuritadigan siyosatning asosi Oliy Majlis tomonidan jamiyatimiz barcha qatlamlarining keng va har tomonlama muhokamasidan so'ng qabul qilingan harbiy doktrinada mustahkamlab qo'yilgan. Xalqimiz uning mudofaa xususiyatini hamda unga asos bo'lgan qoidalarni ma'qulladi. Bu eng avvalo, kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish, mudofaa qobiliyatini oqilona darajada saqlab turish, xalqaro huquq qoidalari va normalariga og'ishmay rioya etish majburiyatlarini qabul qilish, xalqaro bitimlar bo'yicha o'z zimmamizga olgan majburiyatlarni bajarish va shu kabilardir»<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi O'zbekiston Respublikasi mudofaa siyosatining negizini tashkil etadi va milliy xavfsizlik umum davlat konsepsiyasining tarkibiy qismi bo'lib,

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – 162-163-б.

tashqi siyosat, davlatlararo munosabat masalalariga, urush va tinchlik muammolariga mutlaqo yangicha yondashuvlarga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasida: davlatimizning o'z mustaqilligini e'lon qilib, o'zining ma'naviy hamda intellektual qadriyatlarini tiklash, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda tub o'zgarishlarni amalga oshirishi; uning huquqiy, demokratik va dunyoviy jamiyat qurish yo'lidan borayotganligi; o'tkazilayotgan demokratik islohotlarni amalda ro'yobga chiqarishda jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash va davlat xavfsizligini puxta ta'minlashning O'zbekiston uchun hayotiy zarurligi; O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlatlar va xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida o'zi mudofaa siyosatida barcha mamlakatlarning tinch-totuv yashashi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning mustaqilligi hamda davlatlararo tarkib topgan chegaralarning buzilmasligi va o'zgarmasligini hurmat qilish prinsiplariga asoslanishi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa to'g'risida»gi qonunining asosiy vazifasi — mudofaani tashkil etishning hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini boshqarishning huquqiy asoslarini belgilaydi, mamlakat mudofaasini ta'minlashda davlat organlarining vakolatlarini, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar ishtirokini aniqlab beradi.

Mudofaa deganda - O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligi, aholining tinch, osoyishta hayoti va xavfsizligini himoya qilishni ta'minlashning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborot, tashkiliy va boshqa tadbirlari majmui tushuniladi.

Mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- boshqa davlatga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, tajovuzning oldini olish va uni daf etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tegishli shartnomalar bilan bog'langan davlatlarga yordam ko'r-satish hollari bundan mustasno;

- xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda kollektiv xavfsizlik tizimlarida ishtirok etish;

- harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik;
  - harbiy qurilishning zamonaviy urushlar va qurolli mojarolarning xususiyatiga monand bo‘lishi;
  - yadroviy va boshqa turdag'i yalpi qirg‘in qurollarini ishlab chiqarishni, qayta ishlashni, olishni, saqlashni, tarqatishni va joylashtirishni rad etish;
  - Qurolli Kuchlarning, iqtisodiyotning, aholining, hududning tajovuzni daf etishga doim shay turishi;
  - mudofaaning yetarli darajada bo‘lishi;
  - harbiy xizmat sharaflı ekanligini ta'minlash.
- Mudofaani tashkil etish quyidagilarni o‘z ichiga:
- tajovuzning oldini olish va qaytarishga, O‘zbekiston Respublikasiga qaratilgan har qanday tajovuzlardan uyushgan holda qurolli himoyalanishga doir zarur sharoitlar yaratish;
  - mudofaa sohasida yagona davlat siyosatini amalgalashirish, davlat harbiy tuzilishini zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish;
  - mudofaa vazifalarini hal etish uchun kerakli barcha kuchlar va vositalarning muvofiqlashtirib borilishini va hamkorlikda harakat qilishini ta'minlash;
  - harbiy-siyosiy vaziyat, milliy xavfsizlikka bo‘lgan aniq va potensial tahdidlar monitoringini yuritish;
  - O‘zbekiston Respublikasi urushga va qurolli mojarolarga tortilishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborot, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar ko‘rish;
  - Qurolli Kuchlarning qurilishi, tayyorgarligi, doim shay holda saqlab turilishi, ularning soni, tuzilishi va tarkibining maqbullashtirilishi;
  - Qurolli Kuchlarni tegishli ravishda zamonaviy qurolyarog‘lar, harbiy texnika, harbiy-texnikaviy va ashyoviy molmulklar, oziq-ovqat, boshqa moddiy-texnik vositalar, energetika va boshqa resurslar bilan ta'minlash, ularning zaxiralarini vujudga keltirish;
  - Qurolli Kuchlar qo‘llanilishini rejalshtirish;
  - mudofaa vazifalarini hal etish uchun tashqi siyosiy yo‘nalishdagi chora-tadbirlarni ko‘rish;

- aholini va hududni mudofaaga tayyorlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasining qo‘riqlanishi va himoyalanishini ta’minlash;
- aholini, iqtisodiyot va hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan obyektlarni yalpi qirg‘in qurollaridan muhofaza qilishga doir tadbirlarni o‘tkazish;
- Qurolli Kuchlarning, mamlakat iqtisodiyotining, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, shuningdek aholining safarbarlik tayyorgarligi;
- davlat va safarbarlik zaxiralari uchun moddiy boyliklar zaxiralarini vujudga keltirish;
- mudofaaning ilmiy, ilmiy-texnikaviy, ma’rifiy, harbiy-sanoat, iqtisodiy, axborot va qonunchilik bazasini takomillashtirish;
- aholini ma’naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibini davlatni himoya qilishga axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorlash;
- mamlakat mudofaasini tashkil etishga doir boshqa tadbirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari — urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo‘silmalar va qismalarni, shuningdek boshqa harbiy tuzilmalarni o‘z ichiga oladi.

Qurolli Kuchlar o‘z faoliyatini qonun ustunligi, markazlashgan rahbarlik va yakkaboshchilik, jangovar va safarbarlik borasida doimiy shaylik hamda harbiy intizomga rioya etish asosida quradi va amalga oshiradi.

Harbiy obyektlar, binolar va inshootlar, qurol-yarog‘, harbiy texnikaning barcha turlari, boshqa harbiy mol-mulklar davlat mulki hisoblanadi va Qurolli Kuchlar tasarrufida bo‘ladi.

Qurolli Kuchlarning komplektlanishi qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa to‘g‘risida»gi (yangi

tahrirdagi) qonunining 7-moddasiga asosan mudofaaga va Qurolli Kuchlarga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni amalga oshiradi.

Urush davrida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri bir paytning o'zida Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni o'rinnbosari hisoblanadi.

Qurolli Kuchlarning kundalik faoliyatiga rahbarlikni o'z bo'ysunuvida Qurolli Kuchlarning tarkibiga kiradigan harbiy tuzilmalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rahbarlari amalga oshiradilar.

Qurolli Kuchlar oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ularga tezkor rahbarlikni Qurolli Kuchlar Birlashgan shtabining boshlig'i amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mudofaa sohasida quyidagi vakolatlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi mudofaa siyosati va harbiy qurilishining asosiy yo'naliшlarini belgilaydi;
- davlat boshqaruv organlarining mudofaa sohasidagi faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati ta'minlanishi, uning suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligi muhofaza etilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;
- Qurolli Kuchlarni qurish, qo'llash va rivojlantirish rejalarini, shuningdek mudofaani tashkil etish yuzasidan davlatning boshqa reja va dasturlarini tasdiqlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy tuzilmalarining tinchlik va urush davriga mo'ljallangan tuzilishi, tarkibi va joylashuvini tasdiqlaydi;
- harbiy harakatlar olib borish to'g'risida, shu jumladan xalqaro tinchlikparvarlik tadbirlarida qatnashish hamda Qurolli Kuchlarni o'zlariga bevosita taalluqli bo'limgan vazifalarni bajarishga jalg etish to'g'risida qaror qabul qiladi va Qurolli Kuchlarga buyruq beradi;

— O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan tartibda: O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnomasi

majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati, umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qiladi hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi;

— Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi;

— harbiy va muqobil xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sonini, ularning harbiy va muqobil xizmatni o'tash tartibini, harbiy xizmatga majburlarni va chaqiriluvchilarni harbiy hisobga olish ishining yuritilish tartibini, mudofaa va Qurolli Kuchlar ehtiyojlari uchun qurol-yarog'-lar, harbiy texnika, harbiy-texnikaviy va ashyoviy mol-mulklar, oziq-ovqat hamda boshqa moddiy-texnika vositalarining normalari hamda hajmini belgilaydi;

— O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini muddatli harbiy xizmatga chaqirish, muddatli xizmat harbiy xizmatchilarini zaxiraga bo'shatish to'g'risida, shuningdek harbiy xizmatga majburlarni chaqiruv rezervini harbiy yig'inlarga chaqirish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, fuqarolarni safarbarlik bo'yicha va urush davrida harbiy xizmatga chaqirish, safarbarlikdan bo'shatish to'g'risida farmonlar chiqaradi;

— mamlakat iqtisodiyotining safarbarlik tayyorgarligi, shuningdek safarbarlik va strategik davlat zaxiralalarini shakllantirish hamda ulardan foydalanish rejalarini tasdiqlaydi;

— harbiy oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini, oliy ta'lim muassasalari qoshidagi harbiy ta'lim fakultetlarini, shuningdek harbiy tayyorgarlik o'quv markazlarini (harbiy kafedralar yoki sikllarni) tashkil etadi, qayta tashkil etadi hamda tugatadi va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risida»gi 1991-yil 6-sentabr farmoni va «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini O'zbekiston Respublikasining Mudofaa vazirligiga aylantirish to'g'risida»gi 1992-yil 3-iyul farmonlariga asosan tashkil etilgan bo'lib, vazirlik nizomi va tuzilmasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabr

garori bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 29-sentabr farmoni bilan Mudofaa vazirligining tuzilmasi va nizomlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan.

Mudofaa vazirligi o'z tasarrufidagi qo'shinlarga boshqaruvni amalga oshiradi, mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi davlat siyosati yuritilishini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarining zamonaviy qurol-yarog'lar, harbiy texnika va moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishini, harbiy hamkorlik kengayti-rilishini, chaqiruvning va Qurolli Kuchlar kadrlari tayyorlashning tashkil etilishini ta'minlaydi va hokazo.

Mudofaa vazirligi — Qurolli Kuchlarda mudofaa sohasidagi va harbiy qurilish jabhasidagi davlat siyosati o'tkazishni ta'minlaydi; mudofaa, Qurolli Kuchlarni tuzish va rivojlantirish rejalarini va konsepsiyalarining, qurol-yarog'lar va harbiy texnikani rivojlantirish rejalarini va konsepsiyalarining, qurol-yarog'lar va harbiy texnikani rivojlantirish davlat dasturi loyihamalarini, mudofaa ehtiyojlariga pul ajratishga doir takliflarni ishlab chiqadi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muhokamasiga kiritadi; vazirlik harbiy qurilish sohasida ilmiy tadqiqotlarni yo'lga qo'yadi va olib boradi; harbiy texnika va boshqa harbiy ashyolar yaratish, ishlab chiqarish va sozlashga oid davlat buyurtmalarining bajarilishini nazorat qiladi; Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi bilan harbiy, huquqiy, axloqiy tarbiya, shuningdek, ma'naviy-psixologik tayyorgarlik, harbiy kadrlarni joy-joyiga qo'yish ishlarini olib boradi; harbiy xizmatdan bo'shatilganlarga pensiyalar to'lanishini, harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining shaxsiy huquq va erkinliklari himoyasini amaldagi qonunlarga muvofiq ta'minlaydi; aholining safarbarlik darajasida tayyorgartligini tashkil etishda ishtirok etadi.

Mudofaa vazirligi o'z asosiy vazifalarini bajarish uchun:

- respublika hududida qo'shin safarbarligini o'tkazishga tayyorgarlikni, respublika mudofaasi manfaatlari yo'lida iqtisodiyot sohasidagi resurslarini hisobga olishni, respublika iqtisodiyot sohasi uchun kadrlarni band qilishni ta'minlaydi;

- Qurolli Kuchlarni komplektlaydi, uni o'qitishni va jangovar tayyorgarlikni ta'minlashni tashkil etadi;

- tinchlik va urush davrida respublikada fuqaro mudofaasi bo'yicha bashorat loyihamalarini ishlab chiqadi, fuqaro mudofaasi

moddiy-texnika bazasining ko‘payishi va rivojlanishini, tinchlik va urush davrida favqulodda holatlarda fuqaro mudofaaasining harakatga tayyor holda turishini ta’minlaydi;

— harbiy bilim yurtlarini komplektlash bilan shug‘ullanadi, oliv o‘quv yurtlari harbiy kafedralarining, harbiy tayyorgarlik kuchaytirilgan maktablarning faoliyatini yo‘naltirib boradi;

— muqobil xizmatni tashkil etish masalalarini hal qiladi;

— urush qatnashchilariga, Qurolli Kuchlar faxriylariga, baynalmilalchi jangchilarga imtiyozlar berish ustidan nazorat olib boradi;

— respublikaning harbiy qismlari, harbiy idoralari va muassasalari faoliyatini nazorat qiladi;

— respublikada joylashadigan harbiy qismlardagi shaxsiy tarkibning xizmat va jangovar tayyorgarligining hamda intizomining yuksak darajada bo‘lishini ta’minlashda ishtirok etadi;

— chaqiriqni rejalahtiradi hamda chaqiriluvchilarni qo‘sish turlari va xillari bo‘yicha taqsimlaydi;

— Qurolli Kuchlar saflariga fuqarolarni chaqirishni tashkil etishda chaqiruv komissiyalariga yordam beradi va nazoratni amalga oshiradi;

— harbiy xizmatchilarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni, ularga va ularning oila a‘zolariga imtiyozlar berish ustidan nazoratni ta’minlaydi;

— Qurolli Kuchlar uchun maxsus kishilarni tayyorlash bo‘yicha ishlarni yo‘naltirib boradi;

— harbiy ta’lim olgan xizmatchilar, resurslarining to‘plani shini, harbiy xizmatga majbur zaxiradagilarni, chaqiruv rezervini o‘qitishni va qayta tayyorlashni tashkil etadi;

— respublika o‘quv yurtlarida yoshlarni boshlang‘ich harbiy tayyorlashga rahbarlik qiladi;

— aholini, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

— harbiy qismlardagi hodisalar to‘g‘risidagi xabarlar va ma‘lumotlarni joylarda ko‘rib chiqishda bevosita qatnashadi va boshqa funksiyalarini amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti tayinlaydigan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadigan vazir boshchilik qiladi.

Vazir o'rribosarlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida xizmatni o'tovchi soldatlar, serjantlar, ofitserlar va generallar Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining barcha huquqlari va imtiyozlaridan foydalanadilar.

Mudofaa vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida mudofaa ishlari boshqarmalari, tumanlarda mudofaa ishlari bo'limlari faoliyat ko'rsatadi.

Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi — O'zbekiston Respublikasining suvereniteti va hududiy yaxlitligini qurolli himoya qilish sohasidagi qarorlarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi yagona qo'mondonlik organi hisoblanadi.

Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi:

- milliy harbiy strategiya, Qurolli Kuchlar qurilishi va rivojlantirilishining konseptual asoslarini ishlab chiqish uchun mas'ul bo'лади;

- Qurolli Kuchlarni, harbiy okruglarni, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy tuzilmalarini tezkor-strategik boshqarishning bosh organi vazifasini bajaradi;

- qo'shnarning jangovar harakatlari strategik jihatdan va tezkor rejalashtirilishini hamda ularga rahbarlikni amalga oshiradi;

- qo'shnarning tezkor va jangovar tayyorgarligi, qo'shnarning qo'llash shakl va usullariga ko'nikma hosil qilishi, ularning tashkiliy-shtat tuzilishiga doir tadbir-choralar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

- o'z vakolatlari doirasida barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan, Qurolli Kuchlar qo'shnarning shakl va turi, birlashmalari, qo'shilmalari va bo'linmalarining qo'mondonlari tomonidan ijro etilishi majburiy bo'lgan direktivalar va buyruqlar chiqaradi va hokazo.

Harbiy okrug — operatsion yo'nalishlarda O'zbekiston Respublikasining xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlovchi

**asosiy harbiy-ma'muriy birlik hamda umumqo'shin tezkor-strategik hududiy birlashmasidir.**

Harbiy okruglar zimmalariga yuklangan vazifalarni bajaradilar hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq qarorlar qabul qiladilar.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar qonun hujjatlariga muvofiq mamlakat mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarning jangovar va safarbarlik tayyorgarligini, shuningdek jangovar qibiliyatini ta'minlashda qatnashadilar hamda zimmalariga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun mas'ul hisoblanadilar.

Harbiy okruglar harbiy buyurtmalarni bajaruvchi vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar mudofaa ehtiyojlariga zarur bo'lgan mahsulotlar yetkazib berilishi, tarmoqning safarbarlik tayyorgarligi uchun mas'uldirlar, ular safarbarlik tayyorgarligi rejasiga muvofiq tarmoqning urush davrida barqaror ishlashini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasida beshta Harbiy okrug bo'lib, ular:

Shimoliy-g'arbiy Harbiy okrugi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati hududlari), okrug shtabi Nukus shahrida;

Janubiy-g'arbiy maxsus Harbiy okrugi (Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining hududlari), okrug shtabi Qarshi shahrida;

Markaziy Harbiy okrug (Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining hududlari), okrug shtabi Jizzax shahrida;

Toshkent Harbiy okrugi (Toshkent shahar va Toshkent viloyati hududlari), okrug shtabi Toshkent shahrida;

Sharqiylar Harbiy okrug (Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining hududlari), okrug shtabi Marg'ilon shahrida joylashgan.

O'zbekiston Respublikasining «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunining maqsadi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiyligi harbiy majburiyatni bajarishi va harbiy xizmatni o'tashi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Umumiyligi harbiy majburiyatning mazmuni — O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini O'zbekiston Respublikasini himoya qilish uchun majburiy harbiy tayyorgarlikdan o'tkazishdan iborat bo'lib,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflarini to'ldirish va ularning rezervini tayyorlashni ta'minlash maqsadida joriy etiladi.

«Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining quyidagi fuqarolari, xususan:

— harbiy xizmatga chaqiriladigan va tuman (shahar) chaqiruv uchastkalarida qayd etilgan shaxslar — chaqiriluvchilar;

— haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar — harbiy xizmatchilar;

Qurolli Kuchlarning rezervi yoki zaxirasidagi shaxslar — harbiy xizmatga majburlar;

— turli sabablarga ko'ra harbiy ro'yxatga olinmagan yoki harbiy ro'yxatdan chiqarilgan, shu jumladan iste'fodagi shaxslar — harbiy xizmatga majbur bo'lмаган shaxslar deb ataladi.

Haqiqiy harbiy xizmat — chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmatdir.

Umumiy harbiy majburiyat O'zbekiston Respublikasi huddida doimiy yoki vaqtinchalik yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган shaxslarga tatbiq etilmaydi.

Harbiy xizmatga birinchi marta chaqirilgan yoki ixtiyoriy ravishda (kontrakt bo'yicha) kirgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqi va Prezidentiga sodiqlik to'g'risida Harbiy qasamyod qabul qiladilar.

Muqaddam Harbiy qasamyod qabul qilmagan harbiy xizmatga majbur fuqarolar harbiy yig'lnlarga jalb etilganlarida yoki safarbarlik bo'yicha chaqirilganlarida Harbiy qasamyod qabul qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shu kabi boshqa organlariga xizmatga kirish taqiqlanadi.

Harbiy xizmat - O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etiladi:

— muddatli harbiy xizmat;

— safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;

— kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;

— O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o‘tagan safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati.

Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o‘n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo‘lgan, salomatligiga ko‘ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar.

*Muddatli harbiy xizmat* — harbiy xizmatga chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek muqaddam harbiy xizmatni o‘tamagan ofitserlarning qonunchilik hujjalarda belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir.

Muddatli harbiy xizmat muddatlari kalendar hisobida:

— muddatli harbiy xizmatni oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida o‘tayotgan harbiy xizmatchilar uchun — o‘n ikki oy (oliy ma’lumotli shaxslar uchun — to‘qqiz oy);

— muddatli harbiy xizmatni chaqiruv bo‘yicha ofitserlar tarkibi lavozimlarida o‘tayotgan ofitserlar uchun — to‘qqiz oy qilib belgilanadi.

*Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat*. Muddatli harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo‘lмаган, бироқ Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinadilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat hududiy prinsip asosida oylik yig‘inlar tarzida tashkil etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining maxsus hisobvarag‘iga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga shaxslar yigirma yetti yoshta to‘lgunga qadar olinadilar va har yilgi harbiy yig‘inlarga jalb etilishlari mumkin, favqulodda vaziyatlar yoki O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz ro‘y bergen taqdirda esa haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tagan fuqarolar yigirma yetti yoshta to‘lganlardan keyin Qurolli Kuchlar rezervi tarkibiga o‘tkaziladilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni tashkil etish va o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tash tartibi to'g'risida»gi nizom bilan belgilanadi.

Fuqarolarning muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 18 va 19-moddalariga o'zgartishlar kiritish haqida»gi 2008-yil 11-dekabr qonuniga asosan fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirish uchun qayd etish tuman (shahar) mudofaa ishlari organlari huzurida tashkil etiladigan chaqiruv uchastkalarida amalga oshiriladi va ro'yxatga olinayotganlarning turar-joylarida o'tkaziladi. Fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish ular o'n olti yoshga to'lgan yili aprel — iyun oylarida amalga oshiriladi.

Fuqarolarning muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan yiliga bir marta — fevral-mart oylarida o'tkaziladi.

Tinchlik davrida muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishdan quyidagilar ozod etiladilar:

1) salomatligiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilgan chaqiriluvchilar;

2) yaqin qarindoshlaridan biri (aka-ukasi, opa-singlisi) harbiy xizmatni o'tash vaqtida halok bo'lgan yoki vafot etgan chaqiriluvchilar;

3) ro'yxatdan o'tgan diniy tashkilotlardan birida diniy rutba egasi bo'lgan chaqiriluvchilar.

Yaqin qarindoshlaridan biri (aka-ukasi, opa-singlisi) harbiy xizmatni o'tash vaqtida halok bo'lgan yoki vafot etgan chaqiriluvchilar o'z roziliklari bilan harbiy xizmatga chaqirilishlari mumkin.

Jinoiy javobgarlikka tortilgan, shuningdek sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar harbiy xizmatga chaqirilmaydilar.

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat — Qurolli Kuchlar safidagi haqiqiy harbiy xizmatga ixtiyorilik asosida, harbiy xizmat nazarda

tutilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar orqali davlat bilan tuziladigan kontraktga binoan kirgan fuqarolar bajaradigan harbiy xizmat turidir.

Harbiy xizmatni kasb tariqasida tanlagan fuqarolar kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'taydilar.

Harbiy xizmatni o'tash muddatlari va asosiy shartlari kontrakt-da belgilanadi.

Harbiy xizmat talablariga javob beruvchi quyidagi fuqarolar ixtiyoriy ravishda kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kiramilar:

o'ttiz yoshgacha bo'lgan, harbiy hisobdag'i ixtisoslik bo'yicha tegishli kasbiy tayyorgarlik ko'rmagan harbiy xizmatga majburlar va ayollar — oddiy askarlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;

muqaddam kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tagan oddiy askarlar va serjantlar tarkibidagi qirq yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan va harbiy hisobdag'i ixtisoslik bo'yicha tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega o'ttiz yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatga majburlar — oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;

o'ttiz yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatga majbur ayollar — oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga;

o'n yetti yoshdan yigirma bir yoshgacha bo'lgan fuqarolar, shu jumladan o'qishga qabul qilingan yili o'n yetti yoshga to'ladigan fuqarolar, shuningdek harbiy ta'lim muassasalarida o'qish istagini bildirgan, ofitserlar tarkibi harbiy unvonlariga ega bo'limgan, o'n sakkiz yoshdan yigirma besh yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar — harbiy-ta'lim muassasalarining kursantlari tariqasida harbiy xizmatga;

qirq yoshgacha bo'lgan rezervdag'i va zaxiradagi ofitserlar — ofitserlar tarkibi lavozimlariga harbiy xizmatga kiramilar.

Ayni paytda dastlabki kontrakt xizmatni oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida o'tash bo'yicha uch yil, ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'tash bo'yicha besh yil muddatga tuziladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari bilan o'qish davri uchun kelgusida ularning ofitserlar tarkibi lavozimlarida

harbiy xizmatni kamida besh yil majburiy o'tash sharti bilan kontrakt tuziladi.

Harbiy xizmatning kontraktda nazarda tutilgan muddati tugaganidan keyin taraflarning kelishuvi bilan bu muddat yangi kontrakt tuzish orqali uzaytirilishi mumkin.

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirayotgan fuqarolar majburiy tibbiy ko'rikdan o'tadilar.

Fuqarolar harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirlik, davlat qo'mitasi va idora bilan harbiy xizmatni o'tash to'g'risida kontrakt tuzadilar.

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tash tartibi, muddatlari va kontraktlar tuzish hamda oliv harbiy-ta'lim muassasalarining kursantlari bilan kontraktlar tuzish «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida»gi nizom bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat - O'zbekiston Respublikasining «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi) qonuni va O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida»gi 2003 yil 25 aprel qonunlari asosida belgilanadi.

Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati — haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek safarbarlik chaqirushi rezervidagi xizmatni o'tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar jumlasidan bo'lgan harbiy xizmatga majburlar uchun Qurolli Kuchlarning qo'shilimalari, qismlari va bo'linmalari safini urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to'ldirish, shuningdek urush davri taqozo etadigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiylar harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turidir.

Harbiy yig'inlarni o'tash muddatlari O'zbekiston Respublikasi «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuning 32-moddasida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Muqobil xizmatni tashkil etish va

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining uni o'tashi tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi\_ 2003-yil 11-mart qarorlari bilan muqobil xizmatni o'tash tartibi belgilangan.

Muqobil xizmat fuqarolarning umumiy harbiy majburiyatni bajarishining chaqiruv bo'yicha harbiy xizmat o'rniiga iqtisodiyot, ijtimoiy sohaning turli tarmoqlarida kam malaka talab etiladigan (yordamchi) ishlarni, shuningdek falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan alohida turidir.

O'n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo'lgan, harbiy ro'yxatda turuvchi va xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan fuqarolar, agar ular diniy ta'limoti qurol-yarog'dan foydalanish va Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga yo'l qo'ymaydigan, ro'yxatga olingan diniy tashkilotlar hisobida tursalar, muqobil xizmat huquqiga ega.

Muqobil xizmatning muddati yigirma to'rt oyni, oliv ma'lumotli fuqarolar uchun esa o'n sakkiz oyni tashkil etadi.

Fuqarolarning muqobil xizmatga chaqirilishi muddatli harbiy xizmatga chaqiriladiganlar uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi, chaqiruvni tashkil etish va o'tkazish esa tuman (shahar) chaqiruv komissiyalari va hokimliklari zimmasiga yuklatiladi.

Fuqarolar muqobil xizmatni turar joylaridagi yoki mamlakatning boshqa mintaqalaridagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda o'taydilar. Bunday korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro'yxati, shuningdek muqobil xizmatdagи xizmatchilar shug'ullanishi mumkin bo'lgan ishlar va kasblarning turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolarga ish haqining sakson foizi to'lanadi.

Muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolarning ish haqidan ushlab qolinayotgan summalar respublika budgetiga o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi muqobil xizmat tuzilmalariga rahbarlikni mudofaa ishlari organlari amalga oshiradi.

Muqobil xizmatni tashkil etish va o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Muqobil xizmatdagи xizmatchilar harbiy tayyorgarlik yig'inlariga (mashg'ulotlariga) jalb etiladilar, ular shu asnoda quro-

yarog'dan foydalanish, ularni qo'llanish bilan bog'liq bo'limgan harbiy hisobdagagi ixtisoslikni egallaydilar va Harbiy qasamyod qabul qiliadilar. Harbiy tayyorgarlik dasturi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi.

*Ichki ishlari organlari mudofaa sohasi boshqaruvi organlari bilan o'zaro munosabailarida:*

— chaqiriluvchilarga pasportlar berishni, harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarning harbiy-hisob hujatlarida ular harbiy ro'yxatga olinganligi yoki undan chiqarilganligi to'g'risida mudofaa ishlari organlarining belgisi bo'lgan taqdirda ularni turar joylari bo'yicha qayd etish va ro'yxatdan chiqarishni amalga oshirishlari;

— o'smirlarni harbiy ro'yxatga olishda, fuqarolarning harbiy xizmatga (yig'inlarga) chaqiruvini o'tkazishda, harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarning harbiy ro'yxat qoidalariga rioya etishlari ustidan nazorat qilishda hamda harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar orasidan harbiy ro'yxatning belgilangan qoidalarini buzayotgan shaxslarni aniqlashda mudofaa ishlari organlariga yordam ko'rsatishlari va ko'maklashishlari;

— umumiy harbiy majburiyatni bajarishdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni qidirib topish, ushslash va mudofaa ishlari organlariga olib borishni tashkil etishlari shart.

Surishtiruv va dastlabki tergov organlari surishtiruv va dastlabki tergov olib borilayotgan ishga daxldor chaqiriluvchilar va harbiy xizmatga majburlar to'g'risida, sudlar esa chaqiriluvchilar va harbiy xizmatga majburlarga daxldor o'zлari ko'rayotgan jinoyat ishlari va qonuniy kuchga kirgan hukmlar to'g'risida tuman (shahar) mudofaa ishlari organlariga yetti kun ichida ma'lum qilishlari shart.

## **2-§. Milliy xavfsizlik sohasini boshqarish**

O'zbekiston Respublikasining suverenitetini, xavfsizligini, hududiy yaxlitligini va davlat chegaralarini muhofaza etish — milliy xavfsizlik demakdir.

«Milliy xavfsizlikka mamlakat ichida tug'ilayotgan tahdid demokratik nodavlat, fuqarolik tuzilmalarini mustahkamlash yo'li bilan ancha samarali barham toptiriladi. Bu tuzilmalarda aholining

fuqarolik faolligi yuzaga chiqadi va ularning jo'shqin faoliyati orqali yashirin siyosiy ekstremizm xavfi bartaraf etiladi.

Davlat milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Bu hol davlat hokimiyati organlarini isloh qilish muammolariga e'tiborni kuchaytirishni zarur qilib qo'yadi. Bunda hokimiyatning markazidan joylarga o'tish jarayoni mintaqaviy separatizmga olib kelmasligi kerak. Jamiat hayotini demokratiyalash esa turli shiorlar ostida siyosiy ekstremizmning avj olishi uchun asos bo'lmasligi lozim. Shu sababli yangi bosqichda gap ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarida davlatning roli pasayishi haqida emas, balki yanada aniqroq yuzaga chiqishi, strategik yo'nalishlar belgilanishi va ularda yaqin kelajakda davlatning yetakchi roli saqlanib qolishi to'g'risida boradi.

Milliy xavfsizlik, mamlakatning suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta'minlashga hozirgi bosqichda birinchi galda tashqi kuchlar ko'proq tahdid solmoqda»<sup>1</sup>.

Milliy xavfsizlik sohasi va davlat chegaralarini himoya qilish tizimlaridagi boshqaruv Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Milliy xavfsizlik xizmati «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi\_ 1991-yil 31-avgust qonuni; O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati (MXX) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 25-avgust farmoni va 1991-yil 26-sentabr farmonlariga asosan tashkil etilgan. MXXning nizomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Milliy xavfsizlik xizmati to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 1991-yil 25-oktabr qarori bilan qabul qilingan.

Respublikamiz milliy xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati organlariga yuklatilgan. Qoraqalpog'istonda respublika milliy xavfsizlik xizmati; viloyatlarda – milliy xavfsizlik xizmati boshqarmalari; shaharlar va tumanlarda – milliy xavfsizlik xizmati bo'linmalari tashkil etilgan. Barcha xavfsizlik xizmati organlari pastdan yuqoriga, ya'ni tuman

<sup>1</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бусағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – 161-162-б.

bo'linmasi viloyat boshqarmasiga, viloyat boshqarmasi respublika Milliy xavfsizlik xizmatiga bo'y sunadi.

Milliy xavfsizlik xizmati (MXX) va uning joylardagi organlari xorijiy davlatlar va xorijiy tashkilotlar maxsus xizmatlarining O'zbekistonga qarshi qaratilgan razvedka-qo'poruvchilik faoliyatiga qarshi kurash olib boradilar, O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini, konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va mudofaa qudratini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi MXX respublika qo'mitasining huquqlari bilan ta'minlanadi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'y sunadi. MXX O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruven organlarining barqaror ishlashini ta'minlash va mamlakatimizni nodo'stona kayfiyatdag'i davlatlar maxsus xizmatlarining razvedka-qo'poruvchilik va boshqa xil jinoiy tajovuzlardan samarali himoya qilish uchun javobgardir va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Oliy Majlisning oldida muntazam hisob berib turadi.

Milliy xavfsizlik xizmati va uning joylardagi organlari o'zlarining amaliy faoliyatida fuqarolar bilan yaqindan aloqada bo'lishga, doimo ularning yordamiga suyanishga majburdirlar.

MXXga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tayinlanadigan va keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadigan Rais boshchilik qiladi.

MXX Raisining birinchi o'rinnbosari va o'rinnbosarlari O'zbekiston Respublikasi MXX Raisining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tayinlanadilar.

Milliy xavfsizlik xizmatining Raisi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan respublika vazirligiga berilgan huquqlardan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi MXX amaldagi buyruqlar va ko'rsatmalarga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lмаган operativ-qidiruv va boshqa xil xizmat faoliyatlarini amalga oshiradi.

MXX Raisi va uning o'rribbosarlari o'z huquqlari doirasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, amaldagi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida hamda ularni bajarish maqsadida buyruqlar, ko'rsatmalar va yo'riqnomalar chiqaradilar.

Milliy xavfsizlik xizmati organlari ishini tashkil etish masalalarini hal etish uchun tarkibida Xizmat raisi — Kengash raisi, uning o'rribbosarlari va Xizmatning boshqa rahbar xodimlari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati kengashi tuziladi.

Kengash a'zolarining shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Xizmat raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Milliy xavfsizlik xizmatining asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasi manfaatlari yo'lida razvedka va kontrrazvedka faoliyati bilan shug'ullanish va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati organlari:

- razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshiradilar; davlat xavfsizligi manfaatlariiga tajovuz qiladigan terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash olib boradilar; O'zbekiston Konstitutsiyasi mustaqilligini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlaydilar; chet ellarda O'zbekiston Respublikasining diplomatiya, savdo va boshqa rasmiy vakillarining xavfsizligini ta'minlaydilar, zarur hollarda, Respublika fuqarolarining chet elga jo'nab ketishida va u yerda bo'lishida ularning xavfsizligini ta'minlashni tashkil etadilar;

- O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan chegara qo'shnlari bo'linmalari bilan hamkorlikda xizmat qilish uchun respublika davlat chegarasining daxsizligini ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radilar;

- O'zbekiston Prezidentini, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarini xavfsizlik manfaatlariiga daxldor bo'lgan masalalar yuzasidan xabardor qilib turadilar; O'zbekiston Prezidentini, davlat hokimiyyati va boshqaruving yuqori organlari xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy, mudofaa qurilishi va fan-texnika taraqqiyoti, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq vazifalarni hal etish uchun

ularni zarur bo‘lgan axborot bilan ta’minlash maqsadida axborot berish-tahlil qilish ishlarini amalga oshiradilar; xavfsizlik manfaatlariga daxldor bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarni va muammolarni tadqiq qiladilar va oldindan aytib beradilar; iqtisodiyot sohasi va boshqa obyektlarda davlat sirlarini saqlashga oid choralar ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashadilar; tijorat sirlarini saqlashda korxonalarga, muassasalarga va tashkilotlarga yordam ko‘rsatadilar;

— xavfsizlik organlari ixtiyoriga o‘tkazilgan jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv va dastlabki tergov ishlarini olib boradilar; bunday jinoyatlarni sodir etgan yoki sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni qidirishni amalga oshiradilar; jinoyat sodir qilgan shaxslarning hisobini yuritadilar;

— iqtisodiyot sohasi va boshqa obyektlarda xavfsizlikni ta’minlaydilar;

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston davlat hokimiyati va yuqori boshqaruв organlarining qarori bo‘yicha ichki ishlar organlari bilan birgalikda fuqarolarni himoya qilishda, transport va aloqa, aholi hayotini ta’minlash obyektlarini, muhim iqtisodiyot sohasi va harbiy obyektlarni qo‘riqlashda; qonuniylikni va huquq-tartibotni tiklashda; ommaviy tartibsizliklarni, millatlararo nizolarning oldini olishda; atom energetikasi obyektlaridagi, neft va gaz mahsulotlari quvurlaridagi, transportdagi, sanoatning mudofaa tarmoqlari obyektlaridagi va boshqa muhim xo‘jalik obyektlaridagi yirik avariyalarning, xalokatlarning va boshqa favqulodda hodisalarning oldini olishga oid tadbirlarni amalga oshirishda, tabiiy ofatlar, epidemiyalar, epizootik kasalliliklar, ekologik halokatlar va boshqa favqulodda hodisalarning oqibatlarini tugatishda; maxsus yuklarni tashishning xavfsizligini ta’minlash yuzasidan choralar ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqa davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlikda ishtirok etishda; urush davrida milliy xavfsizlik organlarining safarbarlik tadbirlarini ta’minlashda; davlat sirlarini saqlashga, bojxona qoidalariga, quroл va o‘q-dorilar sotib olish va saqlashga tegishli masalalarni hal etishda O‘zbekiston Respublikasi xavfsizligini ta’minlash yuzasidan umum davlat tadbirlarini ishlab chiqishda qatnashadilar;

— davlat organlarining so‘rovlari bo‘yicha davlat sirlaridan iborat ma’lumotlarni yaxshi bilgan shaxslar to‘g‘risida, ularning chet elga jo‘nab ketayotganliklari va fuqarolikdan chiqishlari haqidagi iltimosnomalari munosabati bilan axborotlar taqdim etadilar;

— milliy xavfsizlik organlarining moddiy-texnika bazalarini rivojlantirish rejalarini, kadrlar bilan ishlash bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqadilar va ularni amalga oshiradilar; o‘z xavfsizliklarini ta’minalashga oid tadbirlarni amalga oshiradilar.

Milliy xavfsizlik organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni davlat kafolatlaydi.

Milliy xavfsizlik xizmati organlari O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti mablag‘lari hisobidan ta’milanadilar.

Davlat chegaralarini himoya qilishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga asosan hamda Respublika Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mitani tashkil qilish to‘g‘risida»gi 1999-yil 13-yanvarda qabul qilingan farmoniga muvofiq Chegara qo‘sishlari Bosh shtabi negizida Davlat chegaralarini himoya qilish qo‘mitasi tashkil etilib, uning chegarani himoya qilish sohasida asosiy vazifalari belgilanib, Chegara qo‘sishlari esa, MXX tarkibidan chiqarilgan edi. Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil fevraldagi farmoni va O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-aprel qonunlariga asosan Davlat chegaralarini himoya qilish qo‘mitasi MXX tarkibiga kiritildi. Endilikda davlat chegarasini belgilash, o‘zgartirish, himoya qilish va qo‘riqlash sohasidagi munosabatlarni nazorat qilish hamda respublika chegarasiga doir siyosat MXX chegara qo‘sishlari tomonidan amalga oshiriladi.

MXX chegara qo‘sishlarining faoliyati O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida»gi 1999-yil 20-avgust qonuni bilan tartibga solinadi.

Ushbu qonuning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasini belgilash, o‘zgartirish, himoya qilish va qo‘riqlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi - O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo‘shlig‘ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal satididan iborat.

## Davlat chegarasi rejimi:

- davlat chegarasini jihozlash va uni asrash ustidan nazorat qilish;
- davlat chegarasining shaxslar va transport vositalari tomonidan kesib o'tilishi;
- davlat chegarasi orqali tovarlar, boshqa mol-mulk va hayvonlarni olib o'tish;
- davlat chegarasi orqali shaxslar, transport vositalari, tovarlar, boshqa mol-mulk va hayvonlarni o'tkazish;
- davlat chegarasida yoki uning yaqinida xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyat yuritish tartibini belgilovchi qoidalar majmuidan iborat.

Davlat chegarasi rejimi O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to'g'risida»gi qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi qonunining 33-moddasiga binoan Ichki ishlar vazirligi: davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlash sohasida davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlashga doir tadbirlarni amalga oshirishda chegara qo'shinlariga ko'maklashadi; chegara oldi zonasida chegara oldi rejimiga rioya etilishi ustidan hamda davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlariga tutash hududlarda huquq-tartibotga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining ishtirokini ta'minlaydi; chegara oldi hududlarida huquq-tartibotning holati to'g'risida chegara qo'shinlariga axborot beradi; davlat chegarasini himoya qilishda Ichki ishlar vazirligining harbiy tuzilmalari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etishini ta'minlaydi; chegara qo'shinlarining taqdimnomasiga binoan chegara oldi qidiruv ishlari va operatsiyalari o'tkazilayotgan paytda, shuningdek harbiy xurujni qaytarish yoki davlat chegarasi orqali noqonuniy ommaviy o'tishlarning oldini olish chog'ida davlat chegarasiga yaqin ayrim uchastkalar yoki obyektlarga fuqarolarning o'tishini vaqtincha cheklash yoki man etishni ta'minlaydi.

### **3-§. Ichki ishlar sohasini boshqarish**

Ichki ishlar sohasini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga yuklatilgan<sup>1</sup>. Ichki ishlar vazirligi to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida»gi 1991-yil 25-oktabrda qabul qilingan 270-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Shuningdek, Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati Vazirlar Mahkamasining «Ichki ishlar organlarida xizmat o'tashning Vaqtinchalik nizomini tasdiqlash to'g'risida» 1993-yil 8-yanvardagi 16-sonli qarori va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning joylardagi xizmatlari huquqni muhofaza qilish idoralari tizimiga kiradi.

Ichki ishlar vazirligi «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida»gi Nizomga asosan hamda Konstitutsiya va Mustaqillik deklaratsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining davlat bosliqaruvi organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar sohasi boshqaruvini yoritishdan avval uning tarixiy rivojlanishini qisqacha ko'rib chiqishni lozim topdik.

Sobiq Ittifoqning yuqori davlat organlari tomonidan ichki ishlar organlari faoliyatiga doir ko'plab qonunlar va qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo'lib, jumladan, 1919-yil 26-iyunda Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissariatining «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasidagi Sovet ishchi-dehqon militsiyasi to'g'risidagi Nizom», o'sha yilning iyul oyida qabul qilingan «Turkiston ASSRda jinoiy qidiruvni tashkil etish to'g'risidagi Nizom», 1948-yilda qabul qilingan «Militsiya postlari va patrul xizmatining Nizomi», 1953-yil 20-iyuldaggi O'zbekiston SSR Ministrlar saveti «O'zbekiston SSRda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish va jamoat tartibini saqlash choralarini to'g'risida»gi qarori, sobiq SSSR Oliy soveti Rayosatining 1962-yil 26-sentabridagi «Har yili 10-noyabrni «Militsiya kuni» deb belgilab,

---

ИТТИФОҚНИНГ ЮҚОРИ ДАВЛАТ ОРГАНЛАРИННИҢ ВАЗИФАЛАРИННИҢ «ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИННИҢ МА’МУРИЙ ФАОЛИЯТИ» ФАНИДА БАТАФСИЛ ЙОРИТИЛГАН.

uni nishonlash to‘g‘risida»gi farmoni, ichki ishlar idoralarida dastlabki tergov yuritish huquqini bergan sobiq Ittifoq Oliy soveti Rayosatining 1963-yil 6-apreldagi «Jamoat tartibini saqlash idoralariga dastlabki tergovni olib borish huquqini berish to‘g‘risida»gi farmonlari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgandan so‘ng, barcha huquqni muhofaza qilish idoralari qatori ichki ishlar idoralari faoliyatida ham ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Respublikamiz Hukumati tomonidan fuqarolarining huquq va erkinliklarini himoya qilishni kuchaytirish, jinoyat-chilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlashni kuchaytirish hamda miliitsiya xodimlari xavfsizligini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoyalash maqsadida 1990-yil 31-oktabrda O‘zbekiston Respublikasining «Miliitsiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to‘g‘risida»gi qonunining qabul qilinishi davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ichki ishlar idoralari tizimida ijobiy islohotlarni amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Respublikamiz mustaqilligining keyingi davrlarida ichki ishlar sohasini takomillashtirish bo‘yicha uch bosqichli islohotlar amalga oshirildi.

*Birinchi bosqich*, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlash Konsepsiysi to‘g‘risida»gi qarori respublikada tinchlik va osoyishtalikni saqlash, mustaqilligimizni asrash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash tizimida tub islohotlami amalga oshirishni taqozo etdi. Shuning uchun, yuqorida ko‘rsatilgan Konsepsiya asosida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan jamiyatda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta‘minlovchi yangi tizimni shakllantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi.

*Ikkinci bosqich*, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2001-yil 27-mart farmoni va uning ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 21-aprelda «Kriminal, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm na narkotrafikka qarshi kurashni kuchaytirish to‘g‘risida»gi, 2001-yil 7-mayda «Jinoyatchilikka qarshi kurashda II Vning tergov xizmatlari rolini kuchaytirish haqida»gi, 2001-yil 15-maydagи «Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash choralari to‘g‘risida»gi, 2001-yil 31-mayda «O‘zbekiston Respublikasida patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash faoliyatini takomillashtirish choralari to‘g‘risida»gi, 2001-yil 6-iyunda «Jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktika xizmati rolini kuchaytirish choralari to‘g‘risida»gi, 2001-yil 25-iyunda «O‘zbekiston Respublikasida yong‘in xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari shular jumlasidandir<sup>1</sup>.

Xususan, o‘tkazilgan islohotlar natijasida Vazirlikning Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash, tergov, jamoat tartibini saqlash, Yo‘l harakati xavfsizligi, huquqbuzarliklarning oldini olish, hamda Yong‘in xavfsizligi boshqarmalariga Bosh boshqarma maqomi berildi, ularning vakolatlari va vazifalari kengaytirilib, joylardagi bo‘limlari boshqarmalarga aylantirildi. Xususan, Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash bosh boshqarmasi, Tergov bosh boshqarmasi, Post-patrul xizmati va Jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklarning oldini olish bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Yong‘in xavfsizligi bosh boshqarmasi, Xorija chiqish, kirish va fuqarolik boshqarmasi, Respublika «Qo‘riqlash» birlashmasi va ko‘plab boshqarmalar, xizmatlar shular jumlasidandir.

*Uchinchi bosqich*, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlар idoralari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2004-yil 19-iyul farmoni Respublikamizda jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil qilishda ijobiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 19-iyuldagi farmonida ichki ishlар organlari faoliyatini yanada takomillashtirish zaruriyati belgilab berildi. Mazkur Farmon asosida ichki ishlар organlari tizimida kadrlar tayyorlash hamda ushbu tizimda xizmat

<sup>1</sup> Пулатов Ю.С. С чего начинается реформирование органов внутренних дел? // Хукук-Право-Law. – 2004. – № 4. – С. 80-84.

qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ichki ishlar idoralarida mutaxassislar tayyorlovini takomillashtirish choralari to'g'risida»gi 2004-yil 23-sentabr qarori hamda «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»dagi 2004-yil 4-oktabr qarorlari qabul qilindi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjalarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ichki ishlar organlari uchun «jinoyatlarning oldini olish faoliyati», «operativ qidiruv faoliyati», «tergov faoliyati», «ekspert-kriminalistik faoliyat» bo'yicha ofitserlar va bir necha mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha serjantlar tarkibini tayyorlash vazifalari belgilab berildi.

Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan 2005-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi IIV organlarining safdorlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi maxsus unvonlari bo'yicha oylik ish haqi va O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlariga daraja kvalifikatsiyasi uchun oylik pul mukofotlari va boshqalar belgilandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida» 1991-yil 25- oktabrdagi 270-sonli qarori bilan Ichki ishlar vazirligining nizomi va tuzilmasi tasdiqlangan kun munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar idoralari xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi 2006-yil 29-noyabr qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning 1-moddasida — 25-oktabrni Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni etib belgilaishi ta'kidlandi. Bu esa, albatta, davlatimiz suvereniteti va xavfsizligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlashda ichki ishlar organlari oldida turgan vazifalarni amalga oshirishga vijdonan, sidqidildan va yanada mas'uliyat bilan yondashishga undaydi.

Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalariga konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish; jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash; fuqarolar hamda korxona, muassasa, tashkilotlarning mulkini, huquq va erkinliklarini har xil jinoiy tajovuzlar va boshqa huquqbazarliklardan himoya qilish; jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurash hamda sodir etilgan jinoyatlarni qisqa fursatda to'liq ochilishini ta'minlash; jinoyat sodir etish sabablarini aniqlab, ularni bartaraf etish, sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish; pasport tizimi faoliyatini ta'minlash (fuqarolarga pasport berilishi, ularni ro'yxatdan o'tkazish va ro'yxatdan chiqarishni, xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish); yo'l harakati xavfsizligini, ma'muriy javobgarlik va jinoiy jazolarning ijrosini ta'minlash; yong'in xavfsizligini ta'minlash; voyaga yetmaganlar bilan ishslash; fuqarolar tomonidan o'q-otar qurollar sotib olish, saqlash va olib yurish tartibini nazorat qilish va rasmiylashtirish kabi ko'plab vazifalar kiradi.

Vazirlik o'z huquqi doirasida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamoat tartibini, jamoat xavfsizligini muhofaza qilishni va jinoyatchilikka qarshi kurashni ta'minlaydi.

Vazirlik o'ziga yuklatilgan vazifalarni Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, viloyatlar IIB va Toshkent shahar IIIB, transportdagi IIB, tuman va shahar IIBlari bilan bevosita amalga oshiradi.

Vazirlik Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari va Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, transportdagi ichki ishlar boshqarmalari bilan o'zaro hamkorlikda respublika ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlariga oid ishlarni olib boradi.

Vazirlik o'z faoliyatini siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlaridan mustaqil amalga oshiradi.

Vazirlik chet davlatlarning ichki ishlar organlari, davlat va jamoatchilik institutlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama va ko'p temonlama hamkorlikni bitimlar asosida amalga oshiradi.

Vazirlik faoliyatining huquqiy asoslatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarorlari, Respublika davlat hokimiyati va boshqaruvin organlari bilan ichki ishlar organlarining faoliyati sohasidagi o'zaro hamkorlik haqidagi bitimlar, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining idoraviy normativ hujjatlari tashkil qiladi.

Vazirlik xodimlari O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida xizmat vazifalarini bajarayotganda o'z huquqlari doirasida harakat qiladilar va tegishli chet davlatlar qonuniga muvofiq javobgardirlar.

Vazirlik o'z huquqi doirasida ko'rsatilgan huquqiy hujjat asosida va ularni bajarish uchun buyruqlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar chiqaradi va qoidalar o'matadi.

Vazirlik vakolatiga kiritilgan masalalarga oid normativ hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ichki ishlar organlari tomonidan bajarilishi majburiydir.

Zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda normativ hujjatlar chiqaradi.

Vazirlik davlat organlari, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, aholi va ommaviy axborot vositalarini respublikadagi huquqiy tartibning ahvoldidan hamda ichki ishlar organlarining uni mustahkamlashga, shuningdek, vazirlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga oid faoliyatidan xabardor qilib turadi.

Vazirlik davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mansabdar shaxslar va fuqarolardan vazirlik vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotlarni talab qilib olishga haqlidir.

Vazirlik o'z faoliyatini respublikaning boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish va muvofiqlashtirish asosida amalga oshiradi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va Hukumatiga bo'y sunadi.

Vazirlikkha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadigan Vazir boshchilik qiladi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tuziladi va tugatiladi so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o'rinnbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Vazifalarning taqsimlanishiga muvofiq vazir o'rinnbosarlari vazirlik faoliyatining muayyan yo'nalishlari bo'yicha rahbarlikni amalga oshiradilar.

Vazirning topshirig'iga ko'ra uning o'rinnbosari o'z huquqi doirasida buyruqlar va ko'rsatmalar chiqaradi.

Vazifalarni kelishilgan holda hal etish va funksiyalarni amalga oshirish uchun vazirlikda hay'at tuziladi.

Vazirlik hay'ati boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qarorlar qabul qilishi mumkin. Bunday hollarda qabul qilingan qarorlar, odatda, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri va tegishli vazirliklar hamda idoralar rahbarlarining buyruqlariga ko'ra hayotga tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hay'atining reglamenti O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi.

Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, ularni ilmiy, ijtimoiy va moddiy-texnik rivojlantirish, kadrlar bilan ta'minlash, boshqaruv qarorlari va tavsiyalarini kelishilgan holda ishlab chiqish masalalarini kompleks hal etish uchun Vazirlikda kengashlar va komissiyalar tuziladi.

Kengashlar va komissiyalarning a'zoligiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining, viloyat hokimiyati ichki ishlar boshqarmalarining, Transport ichki ishlar boshqarmalarining, hokimiyat va boshqaruv organlarining, davlat va jamoat tashkilotlari va birlashmalarining vakillari tayinlanishi mumkin.

Kengashlar va komissiyalarning tarkibi, shuningdek, ular haqidagi nizomlar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining markaziy apparati va ichki ishlar organlari xodimlarining soni, shuningdek, ularni saqlashga ajratilgan mablag'lar miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlik markaziy apparatining tuzilmasi, shtatlari, xodimlarining moddiy-texnik va ijtimoiy-maishiy ta'minoti, shuningdek, ichki ishlar organlarining tuzilmasi va shtatlari O'zbekiston Res-

publikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan, ularning soni va ularni saqlashga ajratilgan mablag'lar doirasida belgilanadi. Ichki ishlar organlarining moddiy-texnik va ijtimoiy-maishiy ahvoli Ichki ishlar vaziri tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Mehnatga haq to'lash shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Vazirlikning markaziy apparati va ichki ishlar organlari boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar hamda o'zining shaxsiy, ma'naviy va kasb fazilatlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga qodir xizmatchilar bilan to'ldiriladi.

Vazirlik markaziy apparati ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatni o'tash tartibi va shartlari ichki ishlar organlari oddiy va boshliqlar tarkibining xizmatni o'tash haqidagi tasdiqlangan nizom bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvini modernizatsiyalash va yangilash, qolaversa respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida ichki ishlar organlari boshqaruvida ham muayyan islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, vazirlik sohaviy xizmatlarini yuqorida qayd etilgan uch bosqichli islohotlar asosida hamda 2008-yil 17-apreldagi O'zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Inson huquqlari Umumjahon deklaratiyasining 60 yilligini nishonlash to'g'risida»gi 2008-yil 1-may farmonlari talablari asosida Vazirlilik tizimida Inson huquqlari va yuridik ta'minlash xizmati, Odam savdosiga qarshi kurashish tuzilmalari tashkil etildi.

#### **4-§. Favqulodda vaziyatlar sohasini boshqarish**

Favqulodda vaziyatlar sohasidagi davlat boshqaruvni O'zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi 1996-yil 4-mart farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi

Mudofaa vazirligining Fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilgan. Vazirlik nizomi va tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 1996-yil 11-aprel qarori bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi — fuqaro muhofazasi, avariylar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi ishlarga rahbarlikni hamda ularni muvofiqlashtirib borish ishlarini amalga oshiruvchi markaziy davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Vazirlikning faoliyati O'zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi 1999-yil 20-avgust qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida»gi 1998-yil 7-oktabr qarori bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunining maqsadi aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishdan iborat.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi — O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligidir.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

— favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bunday vaziyatlarda aholi hayoti va sog'lig'ini, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish, shuningdek favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararini kamaytirish yuzasidan choralar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

— aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishini tashkil etadi;

— o‘z vakolati doirasida vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi;

— boshqaruvinin organlarining, aholini va hududlarni muhofaza qilish kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyor bo‘lishini tashkil etadi;

— favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari boshqaruvinini amalga oshiradi, boshqaruvin punktlari, xabar berish va aloqa tizimlarini tuzadi;

— favqulodda vaziyatlar sharoitida avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlar o‘tkazilishini tashkil etadi;

— aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

— ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlar bo‘yicha loyihamar va qarorlar yuzasidan davlat ekspertizasi o‘tkazilishida ishtirok etadi;

— qonunchilik hujjalariغا muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan keyinchalik Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanadigan Vazir boshqaradi.

Vazirning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri o‘ziga yuklangan faoliyat sohasiga rahbarlikni yakkaboshchilik asosida amalga oshiradi va Vazirlikka yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi. U lavozimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig‘i hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida belgilangan tartibda viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmalari, toifalangan shahar va tumanlarda esa favqulodda vaziyatlar bo‘limlari tashkil etiladi va faoliyat ko‘rsatadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimini ta'minlash uchun sarf-xarajatlar davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

## 5-§. Adliya sohasini boshqarish

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi — qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi, shuningdek insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 1992-yil 8-yanvar farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish masalalari to'g'risida»gi 1992-yil 12-noyabr qarorlari bilan tashkil etilib, Vazirlik nizomi va tuzilmalari tasdiqlangan.

Keyinchalik Adliya vazirligi va uning tuzilmalari to'g'risidagi nizomlariga: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi sudyalarini, prokuratura va adliya organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish to'g'risida»gi 1993-yil 9-iyul qarori; «O'zbekiston Respublikasi Adliya organlapi va sudlapi faoliyatini tashkil etish masalalapi to'g'pisida»gi 1994-yil 19- yanvar, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazipligi mapkaziy appapati tapkibida iqtisodiy islohot bo'yicha qonunchilik va nöpmativ hujjalap loyihalapini tayyoplash va huquqiy ekspeptiza qilish boshqapmasini tashkil etish to'g'pisida»gi 1994-yil 24-yanvar, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi apparati tuzilmasini takomillashtirishning ba'zi masalalari to'g'risida»gi 1994-yil 13-may, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish va uning apparati tuzilmasidagi o'zgartirishlar to'g'risida»gi 1995-yil 27-aprel, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining ekspertiza xizmatini rivojlantirish to'g'risida»gi 1995-yil 22-iyun, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida fuqarolarning qonunchilik buzilishi yuzasidan shikoyat va arizalari ni ko'rib chiqish boshqarmasini tuzish to'g'risida»gi 1997-yil

10-iyul, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshida yuristlar malakasini oshirish markazini tashkil etish to'g'risida»gi 1997-yil 21-iyul, «Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar me'yoriy hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1997-yil 9-oktabr qarorlari; O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi 2001-yil 29-avgust qonuni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi\_ 2003-yil 27-avgust qarori; «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining huquqiy ma'rifat sohasidagi faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003-yil 21-noyabr, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi nizomga qo'shimchalar kiritish haqida»gi\_ 2004-yil 20-iyul qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi\_ 2006-yil 31-avgust, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud departamentining sud qarorlarini ijro etish, moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2007-yil 1-noyabr qarorlari va O'zbekiston Respublikasining «Ijro ishi yuritish takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2009-yil 14-yanvar qonunlari bilan o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, qayta tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri o'z maqomiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi.

Vazirlik tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti, boshqa adliya organlari va muassasalari kiradi,

Adliya organlari va muassasalari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita Vazirlikka bo'ysunadi.

Vazirlig o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjalariiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida»gi nizomga amal qiladi.

Adliya organlari va muassasalarini moddiy-texnik jihatdan ta’minalash, shuningdek adliya tizimining xodimlari mehnatiga haq to‘lash Vazirlikka ajratiladigan mablag‘ doirasida davlat budgetidan, Sudlar, adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, shuningdek qonunchilik hujjalarda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

— qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minalash;

— Konstitutsiya va qonunlar bilan mustahkamlangan insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta’minalash, fuqarolik jamiyati institutlarini har tomonlama rivojlantirish, ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash;

— jamiyatda huquqiy ong, huquqiy madaniyatni oshirishga va qonuniylikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan huquqiy targ‘ibot bo‘yicha davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

— sudsiz moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta’minalash bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirish, ularning haqiqiy mustaqilligini ta’minalash, sud hujjalari va davlat organlari boshqa hujjalari ijrosini ta’minalashning samarali mexanizmini yaratish;

— notariat, advokatura, FHDYO organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va ularning samaradorligini oshirish;

— tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish, tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari, xorijiy investorlar va chet el investitsiyalari jalb qilingan korxonalarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minalash;

— xo‘jalik yurituvchi subyektlarga xo‘jalik shartnomalarini tuzish va ularni bajarishda huquqiy yordam ko‘rsatish hamda shartnoma intizomini mustahkamlash;

— yuridik shaxslar, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazishda qonunchilikka rioya qilinishini ta’minlash;

— tegishli davlat organlari bilan birgalikda xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi manfaatlari samarali huquqiy himoya qilinishini ta’minlash;

— zamonaviy talablar va standartlarni hisobga olgan holda huquqshunos kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

— adliya organlari va muassasalari tizimiga rahbarlikni amalgalash.

Vazirlikka O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziri boshchilik qiladi.

Vazir o‘z o‘rinbosarlariga, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosariga ega bo‘ladi.

Vazir:

— yakkaboshchilik asosida Vazirlik faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalgalash oshiradi va unga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

— o‘z o‘rinbosarlari vakolatlarini belgilaydi, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi, vazirlik tizimidagi boshqa mansabdor shaxslarning vakolatlarini, vazirlik faoliyatining alohida qismlari hamda unga bo‘ysunuvchi organlar va muassasalarning ishi uchun o‘z o‘rinbosarlarining va boshqa mansabdor shaxslarning javobgarligi darajasini belgilaydi;

— Vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini imzolaydi;

— Vazirlik tarkibiy va hududiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni, shuningdek, vazirlik tizimiga kiruvchi boshqa o‘ziga qarashli organlar va muassasalarning nizom (ustav)larini tasdiqlaydi;

— xodimlar belgilangan umumiy soni doirasida yazirlik markaziy apparati tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritadi, shtat jadvalini tasdiqlaydi va boshqalar.

Adliya organlari va muassasalarining, shu jumladan vazirlik tizimidagi ilmiy muassasalar va o‘quv yurtlari xodimlariga egallab turgan lavozimiga va ish stajiga muvofiq maxsus darajali unvonlar hamda martaba darajalari beriladi va belgilangan xizmat muddati uchun ustama haqi to‘lab boriladi.

Martaba darajalari berish va undan mahrum etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Nizom bilan tartibga solinadi.

Vazirlikda Vazir (rais), vazir o‘rinbosarlari (lavozimi bo‘yicha) va vazirlikning boshqa rahbar xodimlaridan iborat 11 kishidan iborat hay’at tashkil etiladi. Hay’atning shaxsiy tarkibi Adliya vazirining taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlik hay’ati: Vazirlik faoliyatining asosiy masalalarini ko‘rib chiqadi; Vazirlik tarkibiy va hududiy bo‘linmalari, o‘ziga qarashli organlar va muassasalar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi; kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, o‘qitish va tarbiyalash, ijro nazorati masalalarini, Vazirlikning muhim buyruqlari va boshqa hujjatlarining loyihalarini, shuningdek tekshirish natijalarini muhokama qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta’minalash departamentining faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta’minalash departamenti to‘g‘risida»gi nizom bilan tartibga solinadi.

Sud departamenti Adliya vazirligining idoraviy bo‘ysunuvida bo‘lib, o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziriga hisobot beradi.

Sud departamenti sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta’minalash bo‘yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

Sud departamenti tizimiga joylardagi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) hududiy boshqarmalar hamda sud ijrochilari tuman (shahar) bo‘limlari kiradi.

Quyidagilar Sud departamentining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining so‘zsiz ijro etilishini ta’minlash;
- sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta’minlash hamda uni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;
- sud ijrochilari kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish hamda ularning malakasini oshirish;
- sud ijrochilarining samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkil etish;
- sudlar uchun binolar qurish va ularni ta’mirlashga ajratilgan kapital mablag‘larni samarali o‘zlashtirish hamda sudlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini ko‘rish;
- sudyalar va sud apparati xodimlarining mehnat shart-sharoitlari, moddiy va ijtimoiy ta’minotini yaxshilash yuzasidan takliflar ishlab chiqish va ularni tegishli organlarga kiritish;
- sudyalar va sud protsesslarining xavfsizligini ta’minlash ishlarini tashkil etish.

Sud departamentiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan Adliya vazirining o‘rinbosari — Departament direktori boshchilik qiladi.

Sud departamentining direktori O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan o‘rinbosarlariga ega bo‘ladi.

## 6-§. Tashqi ishlar sohasini boshqarish

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlari uning tashqi siyosatiga, davlatlarning suveren tengligiga, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslikka, chegaralarning daxlsizligiga, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishga, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi,

hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Konstitut-siyasining 17-moddasi.).

Davlatning tashqi ishlar funksiyasini amalga oshirish ana shu sohani boshqarish demakdir. Bu sohada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи:

1) respublika tashqi siyosatining asosiy yo'nalişlarini belgilaydi va davlat strategik dasturlarini qabul qiladi;

2) xalqaro shartnomalarni va bitimlarni ratifikatsiya (tasdiqlaydi) va denonsatsiya (barvaqt to'xtatadi) qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti esa:

1) xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

2) muzokaralar olib boradi, shartnoma va bitimlarni imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

3) o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

4) respublikaning chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

5) xalqaro ahvol xususida respublika Oliy Majlisiga har yili ma'lumotnoma taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi respublikaning xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilini tayinlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi, ularni bajarish chora-tadbirlarini ko'radi.

Vazirlar Mahkamasining majlislarida davlatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolash to'g'risidagi masalalar yuzasidan o'z takliflarini beradi.

Bosh vazir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiring'iga binoan xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi hamda hukumatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tizimiga kiruvchi va O'zbekiston

Respublikasining Konstitutsiyasida, shuningdek, xalqaro-huquqiy normalarda belgilangan prinsiplardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organidir.

Vazirlik o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bevosita rahbarligida amalga oshiradi.

Tashqi ishlar vazirligining huquqiy maqomi asosan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardiagi diplomatiya vakolatxonalarini boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasining Diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya daraja marta-balari belgilash to'g'risida»gi 1992-yil 3-iyul qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 1994-yil 25-fevral farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida Tashqi ishlar vazirligining faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish masalalari to'g'risi»dagi 1994-yil 16-mart qarorlari bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, Tashqi ishlar vazirligi tarkibidagi ayrim tuzilmalar va undagi xizmatchilar faoliyatini tartibga solish hamda vazirlik tarkibida boshqa tuzilmalarni tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining bir necha qonunlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari e'lon qilingan bo'lib, jumladan O'zbekiston Respublikasining «Konsullik ustavini tasdiqlash to'g'risida»gi 1996-yil 29-avgust qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida Axborot agentligi tashkil etish to'g'risida»gi 1995-yil 8-noyabr qarori, «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida madaniyat, fan va turizm sohasida xalqaro hamkorlik boshqarmasini tashkil etish to'g'risida»gi 1996-yil 25-sentabr va «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati tuzilmasida axborot-tahlil boshqarmasini tashkil etish to'g'risida»gi 2000-yil 27-yanvar qarorlari shular jumlasidandir.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, o'zining

nizomiga amal qiladi. Vazirlik o‘z faoliyatini xalqaro huquq normalaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tuzgan shartnomalar va bitimlarga muvofiq amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti prinsiplarini hayotga tatbiq etish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashqi siyosiy yo‘lini amalda ro‘yobga chiqarish, xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarda, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O‘zbekistonning davlat manfaatlarini va uning fuqarolari huquqlarini himoya qilish vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Vazirlik o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq:

— O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati strategiyasi, uning tashqi siyosiy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish, shuningdek, davlatning xalqaro faoliyatiga doir umumiy muammolar bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini xalqaro siyosat masalalari bo‘yicha zarur axborot bilan ta’minlaydi;

— o‘z vakolatlari doirasida vazirliklar, idoralar, muassasalarining xalqaro aloqalarini rivojlantirish bo‘yicha ishini muvofiq lashtiradi;

— respublika organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining milliy-davlat manfaatlarini, shuningdek, uning xorijdagi fuqaroligining huquqlarini himoya qilishni ta’minlaydi;

— tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga, boshqa tashkilotlar bilan xalqaro moliyaviy, iqtisodiy aloqalar o‘matilishiga va bu aloqalarning kengayishiga ko‘maklashadi;

— belgilangan tartibda va o‘z vakolatlari doirasida boshqa mamlakatlarning tegishli davlat organlari va tashqi siyosiy muassasalar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan muzokaralar olib boradi hamda shartnomalar va bitimlar tuzadi;

— O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomalarini va bitimlarini ishlab chiqishda qatnashadi va tuzilishini ta’minlaydi hamda bu shartnomalar va bitimlar asl matnlarining depozitari hisoblanadi;

— O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, ijro etish va denonsatsiya qilish to‘g‘risidagi takliflarni

belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiiga taqdim etadi;

— boshqa davlatlarning tegishli tashqi siyosiy organlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan ishlarni muvofiqlashtirish to'g'risida shartnomalar hamda bitimlar tuzadi va boshqalar.

Vazirlik tizimiga quyidagilar kiradi: markaziy apparat, elchixonha, missiyalar, bosh konsulliklar va konsulliklar, xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalar, diplomatik servis xizmati, xo'jalik hisobidagi tuzilmalar.

Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadigan Vazir boshchilik qiladi.

Vazir o'rindbosarlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi. Ular o'tasidagi vazifalarni vazir taqsimlaydi.

Vazir o'rindbosarlari vazirlikka qarashli bo'linmalarning zarur tartibda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydilar, hududiy bo'limlar o'zları mutasaddi bo'lgan mamlakatlar, mintaqalar va ularga doir muammolar majmuini to'liq hajmda hal etish chora-tadbirlarini ko'radilar.

Alovida topshiriqlar bo'yicha elchilar vazirning taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tayinlanadilar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Tashqi ishlar vazirining maxsus topshiriqlarini bajaradilar. Diplomatik vakolatxonalar vazirlik rahbarligida ishlaydi.

Xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalar O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radilar hamda uning manfaatlarini, respublika yuridik shaxslari va fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qiladilar.

Missiya yoki vakolatxonaning boshlig'i tegishli vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda vazirlikning taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Xorijiy vakolatxonalar soni va ular xodimlarining soni o'matilgan diplomatik munosabatlarga va ushbu masalalar bo'yicha erishilgan bitimlarga muvofiq belgilanadi.

Vazirlik tizimiga ishga qabul qilish kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Vazirlik markaziy apparati va uning muassasalari xodimlari soni, shuningdek ularning xarajatlari uchun ajratiladigan mablag' miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

## 7-§. Soliq sohasini boshqarish

O'zbekiston Respublikasining soliq sohasi va davlat soliq xizmati organlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 1997-yil 29-avgust qonuniga asosan tartibga solinadi.

Davlat soliq xizmati organlari soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlarining to'liq va o'z vaqtida budgetga tushishini ta'minlash maqsadlarida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpoq'iston Respublikasi hamda Toshkent shahar davlat soliq bosh boshqarmalari, viloyatlar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlarning davlat soliq inspeksiyalari davlat soliq xizmati organlariga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ilk bor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston SSR davlat soliq organlari haqida»gi 1991-yil 12-avgust qaroriga asosan tashkil etilgan bo'lib, keyinchalik o'z kuchini yo'qotdi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasining davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi 1994-yil 18-yanvar farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tashkil etildi hamda qo'mitaning nizomi va tuzilmalari tasdiqlandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 1997-yil 29-avgust qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 1998-yil 12-yanvar qarori, «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi 2000-yil

13-mart qarori va «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2000-yil 5-may qarorlari bilan qo‘mita nizomi va tuzilmalari qayta tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi soliqqa oid qonunchilik xujjalariiga rioxal qilinishini ta‘minlash, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasida nazaratni amalga oshiruvchi davlat soliq xizmatining markaziy organi hisoblanadi.

Quyidagilar Davlat soliq qo‘mitasining vazifalari hisoblanadi:

— O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga va amaldagi boshqa qonunchilik hujjalari muvofiq soliq to‘lovchilardan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar undirish yo‘li bilan davlat budgetiga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga va Respublika yo‘l jamg‘armasiga daromadlar to‘liq hajmda tushishini ta‘minlash;

— soliq to‘lovchilar tomonidan soliqqa oid qonunlarga rioxal etilishi, soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘ri hisoblab chiqilishi, ularning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan davlat nazaratini amalga oshirish;

— soliq solish subyektlari va obyektlari to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta‘minlash, soliq to‘lovchilarni to‘liq qamrab olish va hisobga olish mexanizmini takomillashtirish;

— soliq solish bazasini kengaytirish, soliq sohasida huquq buzilishlarini aniqlash, ularga barham berish va ularning oldini olish bo‘yicha kompleks tadbirlar o‘tkazish yo‘li bilan soliqlar yig‘ilishini ko‘paytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

— davlat hokimiyati va boshqaruvining oliv organlari tomonidan belgilanadigan soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita qatnashish;

— soliq haqidagi qonunchilik hujjalariaga rioxal etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlash, soliqlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishda soliq to‘lovchilarga yordam ko‘rsatish;

— soliq to‘lovchilar bo‘yicha alohida-alohida hisoblab chiqilgan va amalda tushgan soliqlarning hisobini ma’lumotlarning yagona kompyuter tizimida yuritish, Soliq to‘lovchilarning yagona reyest-rini yuritish;

— soliq organlarida kadrlarni tanlash, ularni o'qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash, tarbiyalash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlanadigan Rais boshchilik qiladi.

Davlat soliq qo'mitasi raisining birinchi o'rinnbosari, rais o'rinnbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadilar.

Davlat soliq qo'mitasining tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

— Nazorat-taftish bosh boshqarmasi;

— Rejim va kadrlar bosh boshqarmasi;

— Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari;

— tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari;

— Davlat soliq qo'mitasining maxsus o'quv yurtlari.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalariga va davlat soliq inspeksiyalariga tegishli ravishda Vazirlar Mahkamasi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi tomonidan tayinlanadigan boshliqlar boshchilik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va unga qarashli muassasalar mansabdor shaxslarining huquqlari, majburiyatlarini va javobgarligi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida»gi nizom, shuningdek, «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarida xizmatni o'tash to'g'risida»gi nizom bilan tartibga solinadi.

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatlarda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonunga va boshqa qonunchilik hujjalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladilar.

Davlat soliq xizmati organlarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

«O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida»gi nizom — O‘zbekiston Respublikasi soliq organlarida xizmatga qabul qilish tartibini va mansabdor shaxslar tomonidan davlat xizmatini o‘tash shart-sharoitlarini, ularning mas’uliyatini, shuningdek, ularga maxsus unvonlar berish va ulardan mahrum qilish tartibini belgilaydi.

Soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliq organlarida shtatdagi lavozimlarni egallab turgan shaxslar kiradi va ularga egallab turgan lavozimlariga hamda uzoq muddat ishlaganligiga muvofiq ravishda quyidagi maxsus unvonlar beriladi:

- soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi;
- soliq xizmatining I darajali davlat maslahatchisi;
- soliq xizmatining II darajali davlat maslahatchisi;
- soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi;
- soliq xizmatining I darajali maslahatchisi;
- soliq xizmatining II darajali maslahatchisi;
- soliq xizmatining III darajali maslahatchisi;
- soliq xizmatining I darajali inspektori;
- soliq xizmatining II darajali inspektori;
- soliq xizmatining III darajali inspektori;
- soliq xizmatining inspektori.

Davlat soliq xizmatining mansabdor shaxslariga:

bosh davlat maslahatchisi, soliq xizmatining I, II, III darajali davlat maslahatchisi unvonlari — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

soliq xizmatining I, II, III darajali maslahatchisi, soliq xizmatining 1 darajali inspektori unvonlari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisi tomonidan;

soliq xizmatining II va III darajali inspektori, soliq xizmatining inspektori unvonlari — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq bosh boshqarmalari boshliqlari tomonidan beriladi.

Davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qaytadan qabul qilingan shaxslarda ilgari berilgan maxsus unvonlar saqlanadi.

Bunda, agar egallab turilgan lavozim yanada yuqoriroq unvonni taqozo etsa, u holda ushbu unvon sinov muddati tugagach beriladi va u ilgarigi maxsusunvondan ko'pi bilan ikki daraja yuqori bo'lishi kerak.

Agar egallab turilgan lavozim pastroq maxsusunvondan taqozo etsa, u holda xizmatga qaytadan qabul qilingan shaxslarda ularning ilgari berilgan maxsusunvoni saqlanib qoladi.

Soliq organlarining mansabдор shaxslari maxsusunvondan:

xodim o'z nomiga isnod keltiruvchi qilmishlari uchun davlat soliq organlaridan bo'shatilganda;

jinoyat sodir etganlik uchun — sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga binoan mahrum etilishi mumkin.

Davlat soliq organlarida shtatdagi lavozimga tayinlashda quyidagi talablarga rivoja qilinadi:

— soliq organlarining mansabдор shaxsi vazifani asosiy yoki turdosh ixtisos bo'yicha olingan ma'lumotga muvofiq yoxud mavjud ish tajribasiga muvofiq bajarishi kerak. Boshqa ixtisoslik bo'yicha vazifalarni bajarish zarurati bo'lganda ular qayta tayyorlash va tajriba orttirishdan o'tadilar;

— mansabдор shaxslar yanada yuqori rahbarlik lavozimiga tasdiqlanguncha ushbu lavozimni bajaruvchi etib tayinlanishlari mumkin, bunda ularning vazifalarni bajarib turish uzluksiz muddati uch oydan oshmasligi kerak;

yaqin qarindosh yoki yaqin qarindoshligi bo'lgan (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'llar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) soliq organlari mansabдор shaxslarining, agar ularning xizmati bir-biriga bevosita bo'ysunish yoki nazoratda bo'lish bilan bog'liq bo'lsa, aynan bir soliq organida xizmatni o'tashiga ruxsat etilmaydi.

Iqtisodiyot va soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliya-iqtisodiy, soliq sohasidagi jinoyatlarga, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallah-tirishga qarshi kurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'ri-

sida»gi 2006-yil 21-aprel qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Iqtisodiyot va soliq sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi\_ 2001-yil 6-iyul qarorlari bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Soliq sohasidagi qonun buzilishlariga qarshi tezkor kurashish bosh boshqarmasi bazasida va uning mavjud shtatdagi xodimlari doirasida «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti» va uning joylardagi bo'linmalari tashkil etilgan. Mazkur qarorlar bilan Departamentning nizomi va tashkiliy tuzilmalari tasdiqlangan.

Quyidagilar Departamentning asosiy vazifalari hisoblanadi:

— soliq, valutaga oid jinoyatlarda huquq buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari bajarilishini nazorat qilish;

— davlat soliq siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq to'lovchilarni qamrab olinishi va hisobining to'liqligini ta'minlash, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, uni chetlab o'tish mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini, «xufiyona» iqtisodiyotning shakllanishi yo'llarini, korrupsiya holatlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

— valuta operatsiyalari bo'yicha hisobga olish va hisobotlarning to'liqligi va xolisonaligini nazorat qilish; xorijiy valuta mablag'laring qonunga xilof ravishda chetga chiqib ketishi, olib kirilishi va olib chiqilishi, ularning noqonuniy muomalada bo'lishi, valutayirboshlash operatsiyalari bilan bog'liq boshqa qonun buzilishlarining oldini olish va bartaraf etish;

— moliyaviy razvedkaning zamонавиy тизимини юратиш; jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini aniqlashga yo'naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalar monitoringini tashkil etish va olib borish; aniqlangan huquq buzilishlari to'g'risida tegishli huquqni muhofaza qilish organlari bo'linmalariga

jinoiy ta'qibni tashkil etish, ma'muriy ta'sir choralarini qo'llash uchun o'z vaqtida axborot taqdim etish va boshqalar.

Departamentga maqomiga ko'ra Bosh prokuror o'rribbosariga tenglashtirilgan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan Departament boshlig'i rahbarlik qiladi.

Departament boshlig'i uch nafar o'rribbosarga, shu jumladan bir nafar birinchi o'rribbosarga ega. Birinchi o'rribbosar ayni vaqtida Yig'ma axborot-tahlil boshqarmasining boshlig'i hisoblanadi. Uning asosiy funksiyalari qilib Departament faoliyatining asosiy yo'naliishlari bo'yicha rejalar ishlab chiqish; ularning ijrosi ustidan tezkor nazoratni amalga oshirish; Departament rahbarlariga hisobot berish uchun yakuniy hujjatlarni umumlashtirish belgilanadi.

Departament boshlig'ining o'rribbosarlari o'z lavozimlariga Departament boshlig'i taqdimnomasiga binoan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi.

Departamentning hududiy boshqarmalari boshliqlari va ularning o'rribbosarlari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari tegishli lavozimlarga Departament boshlig'ining taqdimnomasiga binoan Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi.

Boshliq boshchiligidagi Departament yagona markazlashtirilgan tizimni tashkil etadi hamda quyi organlarning yuqori turuvchi organlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga to'liq bo'ysunishi va hisobot berishi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Departament berilgan vakolatlarga muvofiq o'z hududiy bo'linmalarining barcha turdag'i faoliyati ustidan tezkor nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 7-moddasiga muvofiq hamda «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti to'g'risida»gi nizomga asosan Davlat soliq xizmati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, moliya organlari, banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari o'zaro kelishib belgilangan tartibda soliqlar bo'yicha huquqbazarliklarga oid mavjud materiallar va huquqbazarliklarning oldini olish yuzasidan ko'rildi chora-

tadbirlar, o'tkazilayotgan tekshiruvlar to'g'risida bir-birlarini xabardor qiladilar, shuningdek zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa axborotlarni almashib turadilar.

Davlat soliq xizmati organlari ichki ishlar organlari bilan birgalikda tezkor axborot almashish, soliq to'lashdan bo'yin tovlagan hamda soliq va valuta, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgan shaxslarni qidirish va ushslash tadbirlarini amalga oshiradilar.

## **8-§. Bojxona sohasini boshqarish**

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi hisoblanuvchi yagona bojxona siyosati amalga oshiriladi.

Bojxona siyosatining asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida samarali bojxona nazoratini hamda tovar ayirboshlashni tartibga solishni ta'minlashdan, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirishdan, ichki bozorni himoyalashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Bojxona komite-tini tashkil etish to'g'risida»gi 1991-yil 25-oktabr (o'z kuchini yo'qotgan) farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining Davlat bojxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi 1992-yil 10-avgust (o'z kuchini yo'qotgan) farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil qilish to'g'risida»gi 1997-yil 8-iyul farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 1997-yil 30-iyul qarori, O'zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi\_ 1997-yil 27 avgust qonunlari bilan tashkil etilgan va qo'mita nizomi hamda tuzilmalari tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi 1997-yil 27-avgust qonuniga asosan,

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi va bojxona organlari O'zbekiston Respublikasining yagona bojxona siyosatini amalgalashirish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari bojxona organlaridir.

Davlat bojxona qo'mitasi organlarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va belgilangan vakolatlar doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
- respublika boj siyosati ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida qatnashish;
- boj qonunlariga rioya qilinishi ustidan nazorat o'rnatish;
- boj ishlarini amalga oshirishda fuqarolarning, shuningdek yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishiga ko'maklashish;
- xorijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalardan kelib chiquvchi bojxona ishiga oid majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash;
- boj poshlinalari, soliqlar va boshqa boj to'lovlarini undirish;
- respublikaning boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, valuta-moliyaviy munosabatlarini boj-tarif tartibga solish vositalarini ishlab chiqish va samarali qo'llash;
- O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tadigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona tekshiruvini ta'minlash;
- respublikaning bojxona chegarasi orqali tovar oboroti o'tishini jadallashtirishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlar yaratish;

— kontrabandaga, bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi kurashish, respublikaning bojxona chegarasi orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog‘, valuta boyliklari, milliy boylik hisoblangan badiiy, madaniy-tarixiy va arxeologik meros buyumlari, intellektual mulk obyektlari g‘ayri-qonuniy olib o‘tilishining oldini olish;

— bojxona statistikasi va maxsus bojxona tizimini yuritish, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatini, manfaatdor vazirliklar va idoralarni bojxona ishiga tegishli masalalar bo‘yicha axborot bilan ta‘minlash;

— bojxona ishi sohasidagi faoliyat to‘g‘risida axborot to‘plash va uni ishlashning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish, joriy etish va boshqalar.

Davlat bojxona qo‘mitasiga O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlanadigan Rais boshchilik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi raisining o‘rribbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari va ixtisoslashtirilgan bojxona majmualari boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Rais o‘rribbosarlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlash Davlat bojxona qo‘mitasi raisi tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona organlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi qonunga, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjalari va xalqaro shartnomalariga amal qiladilar.

Bojxona organlari qonunchilik hujjalariغا muvofiq o‘z faoliyatlarini davlat hokimiyati mahalliy organlaridan mustaqil tarzda amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasining quruqlikdagi hududi, hududiy va ichki suvlari hamda ular ustidagi havo bo‘shlig‘i bojxona hududini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bo‘lishi mumkin, ularning hududlari, agar

qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi bojaxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi.

Bojaxona hududi sarhadlari, shuningdek erkin bojaxona zonalari va erkin omborlarning atroflari O'zbekiston Respublikasining bojaxona chegarasi hisoblanadi.

*Bojaxona nazorati* O'zbekiston Respublikasining bojaxona ishi sohasidagi qonunchilik hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojaxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmuidan iborat.

*Bojaxona nazorati shakllari*. Bojaxona nazorati bojaxona organlarning mansabдор shaxslari tomonidan quyidagi yo'llar bilan o'tkaziladi:

- bojaxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish;
- jismoniy va mansabдор shaxslarni og'zaki so'rabsurish-tirish;
- bojaxona ko'rigidan o'tkazish;
- tovarlar, transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojaxona tomonidan qiyoslash;
- tovarlar va transport vositalarini hisobga olish;
- hisobga olish va hisobot tizimini tekshirish;
- bojaxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan yoxud nazorat qilish bojaxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyat amalga oshirilayotgan hududlar, binolar va boshqa joylarni tekshirish;
- qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Bojaxona nazorati o'tkazilayotganida inson, hayvonot va o'simliklar hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz bo'lgan hamda tovarlar va transport vositalariga ziyon yetkazmaydigan texnikaviy va boshqa vositalar qo'llanilishi mumkin.

*Bojaxona rejimi* O'zbekiston Respublikasining bojaxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining maqomini bojaxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui.

Tovarlar va transport vositalarini bojaxona chegarasi orqali olib o'tish ularning bojaxona rejimlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Shaxs, agar qonunchilik hujatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlar va transport vositalarining xususiyati, miqdori, qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgani yoki qaysi maqsadga mo'ljallanganligidan qat'i nazar, istalgan rejimni tanlashga yoki uni boshqasiga o'zgartirishga haqli.

Rejimlarning qo'llanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojaxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Bojaxona organlarining mansabдор shaxslariga ular egallab turgan lavozimlarga hamda necha yil ishlaganliklariga qarab, quyidagi maxsus unvonlar beriladi:

— kichik tarkib — bojaxona xizmatining kichik serjanti, bojaxona xizmatining serjanti, bojaxona xizmatining katta serjanti;

— o'rta boshliqlar tarkibi — bojaxona xizmatining leytenantı, bojaxona xizmatining katta leytenantı, bojaxona xizmatining kapitani;

— katta boshliqlar tarkibi — bojaxona xizmatining mayori, bojaxona xizmatining podpolkovnigi, bojaxona xizmatining polkovnigi;

— oliv boshliqlar tarkibi — bojaxona xizmatining general-mayori, bojaxona xizmatining general-leytenantı, bojaxona xizmatining general-polkovnigi.

Oliy boshliqlar tarkibiga maxsus unvonlar berish va ulardan mahrum etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Bojaxona organlari o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni davlat boshqaruvining boshqa organlari va davlat hokimiyati mahalliy organlari bilan hamkorlikda bajaradilar. Mazkur organlar bojaxona nazoratini amalga oshirish hamda bojaxona haqidagi qonunchilik hujatlarining buzilishiga qarshi kurashda bojaxona organlariga ko'maklashishlari shart.

Bojaxona organlari o'z vakolatlari doirasida chiqaradigan hamma uchun majburiy tusdagi normativ hujatlar tegishli vazirliklar, idoralar bilan kelishilishi va qonunchilik hujatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojaxona qo'mitasi O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujatlariga va xalqaro shartnomalariga muvofiq bojaxona ishi, kontrabandaga, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning g'ayriqonuniy muomalasiga

qarshi kurash masalalari hamda o‘z vakolati doirasidagi boshqa masalalar bo‘yicha xorijiy davlatlarning bojxona va boshqa organlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Bojxona organlari qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda o‘z vakolatlariga kiradigan ayrim harakatlarning boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan bajarilishiga yo‘l qo‘yadilar.

Bojxona organlari Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari bilan o‘zaro hamkorlikda qonunchilikda belgilangan tartibda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiradilar.

### ***Nazorat uchun savol va topshiriqlar***

1. O‘zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati qanday normativ hujjalarda mustahkamlab qo‘yilgan?
2. Mudofaa sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibi haqida so‘zlab bering.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qanday vakolatlarga ega?
4. Mudofaa sohasida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi va Harbiy okruglarning vazifalari hamda fuqarolarning majburiyatlariga nimalar kiradi?
5. Mudofaa sohasida davlat boshqaruvi organlarining ichki ishlar organlari bilan o‘zaro hamkorligi haqida tushuntirib bering.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini belgilash va o‘zgartirishda qanday prinsiplarga amal qilinadi?
8. Davlat chegarasini himoya qilish va qo‘riqlash sohasida boshqa vazirliklar hamda idoralar faoliyatining ahamiyati haqida so‘zlab bering.
9. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari va Ichki ishlar vazirligining vakolatlari nimalardan iborat?
10. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qanday vakolatlarga ega?
12. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalari va Vazirlik tizimiga qanday tuzilmalar kiradi?

13. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimi va uning asosiy vazifalari haqida so'zlab bering.
14. Respublika tashqi ishlar sohasida O'zbekiston Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qanday vakolatlarga ega?
15. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalari va tuzilmalari haqida tushuntiring.
16. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
17. Bojxona nazorati va bojxona rejimining farqini aytib bering.

*XXII bob*  
TARMOQLARARO BOSHQA SOHALARNI MA'MURIY-  
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

### 1-§. Statistika sohasini boshqarish

Statistika *deganda* jamiyat hayotidagi hodisalar va jarayonlar to'g'risida yalpi axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil va e'lon qilish bilan bog'liq amaliy faoliyat sohasi tushuniladi. Statistika amaliyotining boshlanishi *davlatning* paydo bo'lishi davriga to'g'ri keladi. Qadimgi davrlardayoq xo'jalik va harbiy ehtiyojlar, aholi, yer, mol-mulk hisobi bo'yicha statistika ishlari amalga oshirilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Fan sifatida statistikaga XVII asrning oxirida ingliz iqtisodchisi *U. Petti* asos solgan.

O'zbekiston Respublikasida statistika sohasini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga yuklatilgan. Davlat statistika qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida»gi 2002-yil 24-dekabr farmoniga asosan tashkil etilgan. Qo'mita to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 8-yanvar qarori bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi statistika sohasida rivojlanishning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy metodologiyaga, xalqaro standartlar va qoidalarga asoslangan yaxlit ilg'or statistika axboroti tizimini yaratishga va uning faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan yagona siyosatni amalga oshiruvchi, davlat hokimiyyati va boshqaruvin organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolar va tashkilotlarning rasmiy statistika axborotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi davlat hokimiyyati ijro etuvchi organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to'g'-risida»gi 2002-yil 12-dekabr qonuniga muvofiq Davlat statistikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar hamda ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil etish va e’lon qilish;

— xalqaro standartlarga mos keluvchi yagona statistika uslu-biyatini ta’minlash;

— davlat organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, yuridik shaxslar, davlat muassasalari va xalqaro tashkilot-larni, shuningdek jamoatchilikni belgilangan tartibda statistika ma’lumotlari bilan ta’minlash;

— statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan iqtiso-diy-statistika tasniflagichlar tizimini hamda korxonalar va tashkilot-larning yagona davlat registrini yuritish.

Davlat statistikasi vakolatli organi hamda uning Qoraqal-pog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi, tuman-lar va shaharlardagi organlari davlat statistikasi organlari hisoblanadi. Davlat statistikasi vakolatli organining rahbari O‘zbekiston Res-publikasi Prezidenti tomonidan uch yil muddatga tayinlanadi.

Davlat statistikasi organlari ma’lumotlar manbalarini, statistika usullarini, statistika ma’lumotlarining mazmuni, shakli, vaqt va tarqatilishini tanlashda mustaqildir. Davlat statistikasi organlaring faoliyatiga davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari aralashishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Davlat statistikasi organlarini moliyalashtirish hamda moddiy-texnika jihatidan ta’minlash Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Davlat statistika ishlari dasturiga kiritilmagan statistika ishlariga haq to‘lash buyurtmachi tomonidan shartnomaga asosida amalga oshiriladi.

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mi-tasining *asosiy vazifalari* hisoblanadi:

statistika sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, statistikani tashkil etishning zamonaviy xalqaro statistika standartlariga javob beradigan samarali tizimini ta’minlash;

ilmiy asoslangan, bozor iqtisodiyoti asosiy prinsiplariga javob beradigan yagona statistika metodologiyasini hamda milliy hisob raqamlarini tuzishni ta’minlovchi va xalqaro statistika standartlariga muvofiq bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va’joriy etish;

jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan jarayonlarni har tomonlama tavsiflovchi statistika va hisobot ko'rsatkichlarining tezkorligi, ishonchliligi, xolisligi va izchilligini ta'minlash;

statistik axborotning qulayligi, aniqligi va oshkoraligini kengaytirish ishlarini amalga oshirish;

statistika ishlarini tashkil etishning statistika axborotini yig'ish, ayta ishslash va umumlashtirish tartibiga xar qanday aralashishni istisno qiluvchi tizimni yaratish;

ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar to'g'risida statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishslash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilishni amalga oshirish;

statistika ishlari davlat buyurtmasini tayyorlash va uning bajarilishini ta'minlash, davlat hokimiyyati va boshqaruv organlari ehtiyojlari, foydalanuvchilarning statistika axborotlariga bo'lgan talabini o'rganish asosida Davlat statistika ishlari dasturlarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini tashkil etish va hokazo.

## 2-§. Davlat mulkini boshqarish

O'zbekiston Respublikasida davlat mulkini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasiga1 yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2006-yil 26-aprel qarori bilan qo'mita faoliyati qayta tashkil etildi. Ushbu qarorga muvofiq qo'mita nizomi tasdiqlandi.

Davlat mulki qo'mitasi davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish qo'mita faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Davlat mulki qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

Davlat mulki qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, Oliy Majlis qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmon-

yishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga hamda Davlat mulki qo'mitasi nizomiga amal qiladi.

Davlat mulki qo'mitasi o'z faoliyatini bevosita, shuningdek o'zining hududiy organlari orqali davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari vazirliklar, idoralar, mahalliy ijroiya hokimiyat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir.

*Quyidagilar Davlat mulki qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:*

respublika iqtisodiyotida xususiy sektoming o'mni va ahamiyatini tubdan oshirish hamda mazkur tarmoqda davlat ulushini yanada kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

vazirliklar, idoralar va tashkilotlarda, davlat korxonalari va tashkilotlarining, shu jumladan davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan davlat korxonalari va tashkilotlari, shuningdek ustav fondlarida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining davlat mulki hisobini va reyestrini yuritishni ta'minlash;

boshqaruvchi kompaniyalar va davlat ishonchli vakillarining davlat ixtiyoridagi, shu jumladan chet ellardagi mulkini samarali boshqarish yuzasidan faoliyati samaradorligi monitoringini olib borish;

Davlat mulki (ulushlari) mavjud bo'lgan korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan ularda zamonaviy menejmentni joriy etish, marketingni rivojlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish;

bozor mexanizmlarini rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish va xususiy mulk ortishini rag'batlantiruvchi davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

korxonalarni keyinchalik xususiy mulk sifatida sotish uchun ularni xususiylashtirishdan keyin va sotishdan oldin samarali tayyorlashni joriy etish;

davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish jarayonlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investorlar o'rtasida respublikamizda ular uchun berilgan imtiyozlar va kafolatlar to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish.

Davlat mulki qo'mitasi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, davlat mulkini boshqarish bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qiladi hamda mulkiy va korporativ munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni takomillashtirishga doir takliflarni shakllantiradi;

manfaatdor vazirliklar, idoralar hamda xo'jalik birlashmalarini jalb etgan holda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish davlat dasturlari loyihalarini ishlab chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

o'z vakolatlari doirasida tegishli davlat dasturlariga kiritilmagan davlat mulki obyektlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, hisobini yuritish va boshqarishni tashkil etish sohalarida uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi;

Davlat mulki qo'mitasi hamda uning tasarrufidagi tuzilmalarining kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni ta'minlaydi, ular rahbarlari va mutaxassislarini attestatsiyadan o'tkazishni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy boshqarmalari Davlat mulki qo'mitasining tizimini tashkil qiladi.

### **3—§. Tabiatni muhofaza qilish sohasini boshqarish**

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi ilk bor Oliy Sovet Prezidiumining 1988-yil 15-apreldagi farmoni bilan tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasining nizomi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «O'zbekiston Respublikasi Tabiatni

muhofaza qilish Davlat qo'mitasining Nizomini tasdiqlash to'g'risida»gi 1996-yil 26-aprel qarori bilan tasdiqlangan\_. Qo'mita o'z faoliyatini ushbu Nizom va O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi 1992-yil 9-dekabr qonuni asosida olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga bo'ysunadi hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek ayrim shaxslar tomonidan yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmon, hayvonot va o'simlik dunyosidan, atmosfera havosidan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishga doir qonunlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalgaga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdiqlaydigan nizom bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlar davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar uchun majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiat resurslaridan foydalanish va ularni qayta tiklash ustidan davlat nazoratini amalgaga oshirish;

tabiatni muhofaza qilish faoliyatini tarmoqlararo kompleks boshqarish;

tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalgaga oshirish;

atrof tabiiy muhitning ekologik holati qulay bo'lishini ta'minlash, ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish.

atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan foydalanishning iqtisodiy usullarini keng qo'llash.

Qo'mitaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisni Senati tomonidan tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Rais rahbarlik qiladi (O'zbekiston Konstitutsiya 80-moddaning 5-bandi).

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining o'rinosarlaridan biri ayni vaqtida Bosh davlat ekologik ekspertizasining boshlig'i hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi 2000 yil 25 may qonuniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi davlat ekologik ekspertizasini tashkil etadi va o'tkazadi hamda ekologik nazoratni amalga oshiradi.

#### **4-§. Moliya va kredit sohasini boshqarish**

O'zbekiston Respublikasida moliya sohasini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatilgan. Vazirlik to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-noyabrdagi 553-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O'zbekiston Respublikasining moliyaviy narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika budgetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi.

Moliya vazirligi respublika budgetining ham daromadlar, ham xarajatlar bo'yicha ijro etilishi uchun, moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etishga javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo'limlari, davlat sug'urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi.

Moliya vazirligi o‘z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki o‘zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi.

Moliya vazirligining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

moliya tizimining, soliq va narx-navo siyosatining O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga faol ta’sir ko‘rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, milliy daromadning, korxonalar va tashkilotlar daromadlarining va boshqa moliyaviy resurslarning o‘sishini ta’minlash;

moliya-kredit vositalarining xo‘jalik mexanizmi boshqa elementlari bilan aloqalarini mustahkamlash;

respublikaning moliyaviy resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga jamlash, ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirish, ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan yaxlit xalq xo‘jaligi dasturlarini mablag‘ bilan ta’minlash, zarur moliya, valuta rezervlarini tashkil etish;

moliya, budget, valuta va soliqni rejalashtirish va mablag‘ bilan ta’minlash usullarini takomillashtirish;

auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya bitimlarida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlariga rioya etishni nazorat qilish;

korxonalar, vazirliliklar, idoralar, banklar va davlat sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va takomillashtirish, xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini joriy etish sohasida mahalliy moliya organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdiqlaydigan Vazir boshchilik qiladi.

Moliya vaziri Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan o‘rinbosarlariga ega bo‘ladi. O‘rinbosarlar o‘rtasidagi vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan taqsimланади.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat budgetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2007-yil 28-fevral qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibida G‘aznachilik organi tashkil

etilgan. Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 20-mart qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachilikiga to'g'risidagi nizom tasdiqlangan. G'aznachilik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda o'z faoliyatiga tegishli bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

G'aznachilik o'z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bevosita va o'zining hududiy bo'limmalari orqali amalgalashadi.

G'aznachilik, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar g'aznachilik boshqarmalari hamda tuman (shahar) g'aznachilik bo'limlariga ega bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri g'aznachilik boshqarmalari yuridik shaxs hisoblanadilar.

G'aznachilikning asosiy vazifalari quyidigilar hisoblanadi:

Davlat budgetinining kassa ijrosi, jumladan tushadigan daromadlarni turli darajadagi budgetlar o'rtaida taqsimlash, budgetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat budgeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

Davlat budgeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqami, shuningdek tegishli budgetlar daromadlari va xarajatlari o'rtaida kassa uzelishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

budget tashkilotlarining tovar yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat budgeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish

orqali budjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarining oldini olish; budjet tashkilotlarini, shu jumladan mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan budjet mablag‘laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalar sifatining ta’milanishi, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda qoidaga ko‘ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

xarajatlar smetasi va ro‘yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat’iy summalar doirasida tovar yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko‘rsatuvchilar)ning bevosita hisob raqamlariga budgetdan mablag‘ oluvchilar nomidan va ularning topshirig‘i bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish orqali to‘lov intizomiga so‘zsiz rivoj etilishi ustidan ta’sirchan nazoratni ta’minalash va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetining ijrosi, davlat aktivlari va pasivlarining holati hamda harakati, qimmatbaho metallar va toshlar bilan operatsiyalar amalga oshirilishi, oltin-valuta zaxiralarini boshqarish, xorijiy kapitalni respublika iqtisodiyotiga jalb etish va undan samarali foydalanish, davlatning tashqi qarzi o‘z vaqtida qaytarilishi doimiy monitoringi va nazoratini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2002-yil 27-iyun farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi tashkil etilgan1.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining topshiriqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining ijrosi, uning asosiy ko‘rsatkichlari va eng muhim moddalarining bajarilishi, shuningdek davlat tuzilmalari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ajratiladigan budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish, mamlakatda va uning tashqarisida davlat aktivlari va passivlarining holati hamda harakati monitoringini ta’minalash; qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni nazorat qilish; mamlakatning oltin-valuta zaxiralarini boshqarish va tasarruf etishni nazorat qilish Hisob palatasining asosiy vazifalariga kiradi.

O'zbekiston Respublikasida kredit tizimi «O'zbekiston Respublikasining «Markaziy bank to'g'risida»gi 1995-yil 21-dekabr va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi 1996-yil 25-aprel qonunlariga asosan tashkil etilgan.

«O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunga muvofiq, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat. Asosiy vazifalari monetar siyosatni hamda valutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasida hisob-kitobning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash, banklar faoliyatini tartibga solish va ularni nazorat qilish, O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valuta zaxiralarini, shu jumladan kelishuv bo'yicha hukumat zaxiralarini saqlash va tasarruf etish, davlat budgetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iborat. Markaziy bank moliyaviy yordam ko'rsatish, tijorat faoliyatini bilan shug'ullanishga, Markaziy bank faoliyatini ta'minlovchi korxonalar va tashkilotlarni tuzishda ishtirok etishini istisno etganda, banklar va boshqa yuridik shaxslar kapitalida qatnashishga haqli emas.

Markaziy bankning oliy organi uning boshqaruvidir. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, bankni boshqaradi. Boshqaruv o'n bir kishidan iborat bo'ladi. Boshqaruv tarkibiga Markaziy bank raisi, uning o'rinnbosarlari, shuningdek, bankning asosiy bo'limlari rahbarlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuniga asosan banklar Markaziy bankda ro'yxatga olingan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladilar.

Markaziy bank quyidagilarga asoslanib bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berishni rad etishi mumkin:

- bankni ro'yxatga olish uchun zarur bo'lgan hujjalarning topshirilmaganligi;
- ta'sis hujjalarning qonunchilik hujjalari nomuvofiqligi;
- bir yoki bir necha muassisning moliyaviy ahvoli qoni-qarsizligi;
- muassislarning moliyaviy ahvoli va mablag'larining manbalari e'lon qilinmaganligi;

— bankni ro'yxatga olish paytigacha eng kam ustav kapitalining to'lanmaganligi;

— bank rahbari va bosh buxgalteri lavozimlariga nomzodlarning bu kasbga nomuvofiqligi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, bank kengashi va bosh-qaruvi bankning boshqaruv organlaridir. Bankka operativ rahbarlik qiluvchi va uning faoliyati uchun javob beruvchi bank boshqaruvi bankning ijroiya organi hisoblanib, u bank kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi oldida hisobdordir.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki hukumatning xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi siyosatini amalga oshiruvchi tashqi iqtisodiy faoliyatiga xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi va valuta mablag'larini jamlovchi ixtisoslashtirilgan bankdir.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki respublika Markaziy banki va hukumatining topshirig'iga binoan eksport tovarlari ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish uchun chet el valutasida kreditlar beradi, O'zbekiston Respublikasiga chet el valutasida yetkazib berayotgan va respublika chet el valutasida olayotgan davlat zayomlari va kreditlariga xizmat ko'rsatadi, xalqaro valuta-kredit bozorlarida operatsiyalar bajaradi, kontrakt (shartnoma) shartlarini bajarish vaqtida chet el banklari, konsernlari, firmalari va boshqa sheriklarning aybi bilan olinmay qolgan mablag'larni undirishga ko'maklashadi, hukumatlararo bitimlarni, to'lov shartlarini ishlab chiqishda qatnashadi va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlanadigan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ro'yxatga olinadigan o'z ustavi asosida amal qiladi.

Tijorat (aksiya, pay asosida va xususiy) banklar yuridik va jismoniy shaxslarga Qonunda nazarda tutilgan operatsiyalarni bajarish va xizmat ko'rsatish orqali shartnoma asoslarida kredit, hisob-kitob va o'zga xil bank xizmati ko'rsatadilar.

Respublika, mintqa dasturlari va o'zga dasturlarni pul bilan ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartib va sharoitlarda maxsus tijorat banklari

tashkil etilishi mumkin. Bunday banklar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan tegishli ruxsatnoma olganidan keyin chet el valutasida operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

## **5-§. Tarmoqlararo boshqa sohalarni boshqarish**

O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligiga («O'zstandart» agentligi) yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Ppyezidentining «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'pisida» 2003-yil 9-dekabr fapmonini bajarish yuzasidan hamda standartlashtirish, metrologiya va mahsulotlar hamda xizmatlarni sertifikatlashtirish tizimini yanada takomillashtirish, uning zamonaviy xalqaro normalar va talablarga muvofiqligini ta'minlash, shuningdek xalqaro standartlardan foydalanish asosida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshlilagini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 2004-yil 5-avgust qarori qabul qilindi. Agentlik o'z faoliyatini ushbu Nizom va O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi, «Metrologiya to'g'risida»gi, «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonunlar asosida olib boradi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi vazifalarni hal qilish uchun maxsus vakolat berilgan O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvining organi hisoblanadi.

«O'zstandart» agentligi O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy organi hisoblanadi hamda o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonuniga muvofiq standartlashtirishning asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

mahsulotlar, jarayonlar, ishlar va xizmatlarning aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga, atrof tabiiy muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilish;

mahsulotlarning o'zaro almashinuvchanligini va bir-biriga mos kelishini ta'minlash;

fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek aholining hamda xalq xo'jaligi ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini hamda raqobat qilish imkonini oshirish;

barcha turdag'i resurslarning tejalishiga ko'maklashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash;

ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;

tabiiy va texnogen falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavf-xatarini hisobga olgan holda xalq xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini ta'minlash;

iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi hamda sifati to'g'risida to'liq va ishonchli axborot bilan ta'minlash;

mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini hamda o'chovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga soluvchi quyidagi davlat standartlashtirish tizimi faoliyat ko'rsatadi va Respublikada *standartlashtirish* ishlarini tashkil etish, muvofiq-lashtirish va ta'minlashni:

xalq xo'jaligi tarmoqlarida - O'zbekiston Davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi;

qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalashda - O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi;

tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof tabiiy muhitni ifloslanishdan va boshqa zarari ta'sirdardan muhofaza

qilish sohasida - O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi;

tibbiy maqsadlardagi mahsulotlar, tibbiy-texnika ashyolari, dori-darmonlar sohasida hamda respublika sanoati ishlab chiqarayotgan, shuningdek import bo'yicha respublikaga yetkazib berilayotgan mahsulotlarda inson uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalarida - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amalga oshiradi.

«Standartlashtirish to'g'risida»gi qonunga muvofiq davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida standartlar va texnik shartlarni, shuningdek ushbu Qonunni qo'llashga doir yo'rino-malar va izohlarni ishlab chiqadilar, tasdiqlaydilar, nashr etadilar.

*Metrologiya sohasida «O'zstandart» agentligi vakolatiga:*

metrologiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, metrologiyaga oid faoliyatni mintaqalararo va tarmoqlararo muvo-fiqlashtirish;

milliy etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo'llab-quvvatlash hamda ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta'minlash qoidalarini belgilash;

o'lchov vositalari, usullari va natijalariga qo'yiladigan umumiy metrologik talablarni aniqlash;

davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish;

metrologiya masalalari bo'yicha normativ hujjatlarni, shu jumladan davlatning boshqa boshqaruv organlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan normativ hujjatlarni qabul qilish;

metrologiya sohasida ilmiy va muhandis-texnik kadrlar tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasining metrologiya sohasidagi xalqaro shartnomalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

metrologiya masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyatida qatnashish;

O'zbekiston Respublikasida o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash tizimi faoliyat olib borishi va rivojlanishini hamda uning xalqaro o'lchov tizimi va boshqa mamlakatlarning o'lchovlar tizimi bilan uyg'unlashuvini ta'minlashga doir choratadbirlarni amalga oshirish kiradi.

Mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangan taqdirda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikati beradi, tayyorlovchi ana shu sertifikat asosida muvofiqlik belgisini ishlatish huquqiga ega bo'ladi.

*Sertifikatlashtirish tizimida* foydalaniladigan muvofiqlik sertifikatlarining, akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalarining namunalari, milliy muvofiqlik belgisining shakllari va hajmlari «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyaning (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalarini «O'zstandart» agentligi tomonidan belgilangan tartibda Davlat reyestridan o'tkazilishi shart.

Davlat reyestrida ro'yxatdan o'tkazilmagan muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyaning (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalarini haqiqiy emas.

Muvofiqlik sertifikatidan, muvofiqlik belgisidan foydalanish huquqini hamda sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyaning (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalarini arizachi boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga berishi man etiladi.

Quyidagi «O'zstandart» agentligining asosiy vazifalari hisoblanadi:

«Standartlashtirish to'g'risida», «Metrologiya to'g'risida», «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari amalda ro'yobga chiqarilishini ta'minlash;

standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, xalqaro standartlarni, shu jumladan sifatni boshqarish tizimi bo'yicha xalqaro standartlarni qo'llash asosida mahsulotlar sifatini va ularning raqobatbardoshliligini oshirish sohasida yagona davlat siyosatini qo'llash;

standartlashtirish, o'chovlar yagonaligi, sertifikatlashtirish tizimlari faoliyat ko'rsatishini va rivojlantirilishini, ushbu sohalar-dagi ilmiy-texnika axborotini akkreditatsiya qilish va tarqatishni,

shuningdek ularning xalqaro, davlatlararo tizimlar va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg'unlashtirilishini ta'minlash;

mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi va sifati, o'lchovlar ishonchsiz natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilish talablariga rioya etilishi yuzasidan iste'molchilar huquqlari himoya qilinishini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tashkil etish.

«O'zstandart» agentligi o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

«Standartlashtirish to'g'risida», «Metrologiya to'g'risida», «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari hamda standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlarning amalda ro'yobga chiqarilishini ta'minlash borasida:

davlat, tarmoq, ma'muriy-hududiy standartlarni va ularga o'zgartirishlarni, korxonalarning mahsulotlarga bo'lgan texnik shartlarini, standartlarini va ularga o'zgartirishlarni, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish bo'yicha amal qiladigan hujjatlarni, shuningdek norma va qoidalarni davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

bir turdag'i mahsulotlar uchun normativ hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha tarmoq tuzilmalarini tashkil etishga ko'maklashadi, ularga ilmiy-metodik rahbarlikni ta'minlaydi;

sertifikatlashtirish va yuklash-tushirishdan oldin inspeksiya o'tkazish sohasidagi yuridik shaxslarni belgilangan tartibda akkreditatsiya qiladi, yuridik va jismoniy shaxslarning sinov, o'lchov, tahliliy, kalibrash va tekshirish laboratoriylarini attestatsiyadan o'tkazadi va akkreditatsiya qiladi;

o'lchov vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish va ijaraga berish bo'yicha faoliyatni belgilangan tartibda litsenziyalaydi, litsenziatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qiladi, shuningdek litsenziyalar reyestrini yuritadi;

xalqaro va davlatlararo ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantiradi.

Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, xalqaro standartlarni, shu jumladan sifatni boshqarish tizimi bo'yicha xalqaro standartlarni qo'llash asosida mahsulotlar sifatini va raqobatbardoshlilagini oshirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida:

standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, akkreditatsiya qilish va mahsulotlar sifatini boshqarish tizimini joriy etish masalalari bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga o'z vakolatlari doirasida rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiq lashtiradi;

yangi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshiradi;

standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'naliishlarni, konsepsiyalarni, istiqbolli dasturlarni ishlab chiqadi;

O'zbekiston Respublikasining milliy etalon bazasini shakllantiradi va rivojlantiradi, milliy etalonlarni xalqaro etalonlar bilan solishtiradi.

Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish tizimlari faoliyat ko'rsatishini va rivojlantirilishini, ushbu sohalardagi ilmiy-texnika axborotini akkreditatsiya qilish va tarqatishni, shuningdek ularning xalqaro, davlatlararo va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg'unlashtirilishini ta'minlash borasida:

respublikada ishlab chiqariladigan va import bo'yicha olib kelinayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish, chet mamlakatlarning sertifikatlashtirish bo'yicha ishlari natijalarini e'tirof etish ishlarini tashkil etadi;

o'z vakolatlari doirasida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va akkreditatsiya qilish sohasida normativ hujjatlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va ro'yxatdan o'tkazadi;

shtrixli kodlashtirishni joriy etish siyosatini amalga oshiradi va O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan tovarlarning Davlat reyestirini yuritadi.

«O'zstandart» agentligi tizimiga quyidagilar kirdi:  
hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalari;  
Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi hamda uning  
hududiy sinov va sertifikatlashtirish markazlari:

Metrologiya xizmatlari ko'rsatish markazi;  
Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy  
tadqiqot instituti;

Milliy etalonlar markazi;

Shtrixli kodlashtirish markazi;

Axborot-ma'lumotlar markazi.

Hududiy boshqarmalar ikki tomonlama bo'yusunadilar hamda  
Agentlikka va tegishli mahalliy davlat hokimiyati organiga hisob  
beradilar.

«O'zstandart» agentligini maqomiga ko'ra vazirning bиринчи  
o'rindbosariga tenglashtiriladigan Bosh direktor boshqaradi.

Bosh direktor o'rindbosarlari maqomiga ko'ra vazir o'rindbosar-  
lariga tenglashtiriladi.

«O'zstandart» agentligining Bosh direktori va uning o'rindbosar-  
lari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan  
lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Bosh direktor va o'rindbosarlari ayni vaqtida lavozimiga ko'ra  
tegishli ravishda Standartlar va o'chovlarning yagonaligi ta'min-  
lanishini nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi davlat  
bosh inspektori va davlat bosh inspektorining o'rindbosarlari  
hisoblanadilar.

«O'zstandart» agentligida tarkibida Bosh direktor, uning o'rindbosar-  
lari (lavozimiga ko'ra) va «O'zstandart» agentligining boshqa  
xodimlaridan iborat tarkibi 7 kishi bo'lgan hay'at tuziladi.

Hay'atning shaxsiy tarkibi Bosh direktor taqdimnomasiga  
ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan  
tasdiqlanadi.

Gidrometeorologiya sohasini boshqarish. Gidrometeorologiya  
sohasini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markaziga yuklatilgan.  
«O'zgidromet» markazi O'zbekiston Respublikasida gidrome-  
teorologiya sohasidagi vazifalarni hal etish uchun maxsus vakil

qilingan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Markaz to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 14-aprel qarori bilan tasdiqlangan.

«O‘zgidromet» markazi tizimiga gidrometeorologiya bo‘yicha hududiy boshqarmalar, Gidrometeorologiya ilmiy-tekshirish instituti, Toshkent gidrometeorologiya kolleji, «O‘zgidrometpribor» ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi kirdi.

«O‘zgidromet» markazi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjalaliga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, gidrometeorologiya sohasidagi xalqaro shartnomalarga hamda o‘zining nizomiga amal qiladi.

Quyidagilar «O‘zgidromet» markazining asosiy vazifalari hisoblanadi:

gidrometeorologiya kuzatishlari davlat tizimini, respublika iqtisodiyoti tarmoqlari, aholisi va Qurolli Kuchlarini gidrometeorologik ta‘minlashni rivojlantirish va takomillashtirish;

respublika davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarini, korxonalar, muassasalar va fuqarolarni amaldagi va kutilayotgan gidrometeorologiya shart-sharoitlari va iqlimning o‘zgarishi, tabiiy muhitning ifloslanishi darajasi to‘g‘risidagi axborot, xavfli va ofat keltiruvchi gidrometeorologiya hodisalari paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi tezkor ma’lumotlar bilan ta‘minlash;

ma’lumotlarning davlat gidrometeorologiya fondini va atrof tabiiy muhit ifloslanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning davlat fondini shakllantirish va yuritish;

«Yuza suvlari» bo‘limi bo‘yicha suvlarning davlat hisobini belgilangan tartibda yuritish, davlat suv kadastrini tashkil etish va yuritish bo‘yicha barcha ishlarni muvofiqlashtirish, yo‘naltirish va birlashtirish;

qishloq xo‘jalik ekinlari va yaylov o‘simgiklarining holati, ofat keltiruvchi gidrometeorologiya hodisalari paydo bo‘lishi va rivojlanishi, atmosfera havosi, tuproq va yuza suvlarning ifloslanishi ustidan muntazam kuzatuvlarni tashkil etish va olib borish;

gidrometeorologiya tavsiflari uchun kuzatishlar olib borish, ob-havoni, daryolarning suvliligini, iqlimning o'zgarishini qisqa va uzoq muddatli prognozlashtirishni yaxshilash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish.

«O'zgidromet» markaziga qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Bosh direktor boshchilik qiladi.

Bosh direktor uch nafar o'rinnbosarga, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinnbosarga ega bo'ladi.

«O'zgidromet» markazi Bosh direktorining o'rinnbosarlari qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

«O'zgidromet» markazi Bosh direktori maqomiga ko'ra vazirga, Bosh direktorning birinchi o'rinnbosari - vazirning birinchi o'rinnbosariga, Bosh direktorning o'rinnbosarlari - vazirning o'rinnbosarlariga tenglashtiriladi.

Insonhuquqlarivaerkinliklarinin muhofazaqilish sohasini bosh-qarish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'-risida»gi 1996-yil 31-dekabr farmoniga asosan, inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirchan vositasini barpo etish, xalqaro huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida, BMTning inson huquqlari va boshqaruva tizimini demokratiyalash, qo'llab-quvvatlash dasturlariga muvofiq Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tuzilgan.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi davlatga qarashli, tahlil, maslahat, idoralararo va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining asosiy vazifalari quyidagilar:

— milliy harakat rejasini, shuningdek, Konstitutsiya, qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish;

— inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish;

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan ilmiy ma'ruzalar tayyorlash;

— davlat hokimiyati va boshqaruva organlariga, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha jamoat birlashmalariga maslahatlar berish;

— davlat organlarining inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilish sohasida tahsil berish, targ'ibot, o'quv-uslubiy adabiyotlarni nashr etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

— O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini amalgaloshirish va rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlarning axborot bazasini barpo etish;

— davlat organlarining inson huquqlariga rioya etish va bu huquqlarni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ularga tavsiyalar tayyorlash;

— inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilishning turli jihatlari yuzasidan tadqiqotlar uyushtirish va o'tkazish.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi yuridik shaxs bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan tayinlanadigan direktor boshchilik qildi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktorining o'rinnbosari bu lavozimga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining faoliyati moliyaviy jihatdan respublika budgetidan davlat hokimiyati va boshqaruva organlarini saqlab turish uchun ajratilgan xarajatlardan, shuningdek, turli xayriya badallari hisobidan ta'minlanadi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasining materiallari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning normativ hujatlari va yo'riqnomalari yuborilishi shart bo'lgan tashkilotlar ro'yxatiga kiritilgan.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markaziga o'zbek, rus va ingliz tillarida «O'zbekistonda

demokratiyalash va inson huquqlari» maxsus jurnalini nashr etishga ruxsat berilgan.

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining so'roviga muvofiq respublikada inson huquqlarini rag'batlantirish, amalga oshirish va muhofaza qilish masalalari bo'yicha zarur axborotni taqdim etishlari kerak.

O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi, Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, Davlat teleradiokompaniyasi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markaziga xalqaro aloqalarni amalga oshirish, xorijdagi turdosh tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish, xalqaro tashkilotlar bilan inson huquqlari sohasida bitimlar tuzishda yordam ko'rsatadilar.

*Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo sohasini boshqarish.* O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish sohasida O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni keng rivojlantirish va chuqurlash-tirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish va xorijiy sarmoyadorlar uchun ishonchli kafolatlarni ta'minlash, tashqi savdoni yanada erkinlashtirish, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari bilan chet el firmalari o'rtaсидаги узоқ муддатли баргарор sheriklik munosabatlarini shakllantirish maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalar, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2005-yil 21-iyul farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 2005-yil 27-iyul qarori va «O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2008-yil 27-mart qarorlariga asosan «O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi» negizida «O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi» etib qayta tashkil qilindi va vazirlik nizomi va tuzilmalari tasdiqlandi.

Endilikda, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi farmoni va qarorlariga asosan faoliyat ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari vazirlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» 2000-yil 26-may qonuni (yangi tahriri) bilan belgilab berilgan. Ushbu Qonunga asosan, Tashqi iqtisodiy faoliyat deb, O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalar o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining hududida doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va yakka tartibdagи tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga haqlidir. O'zbekiston Respublikasining davlat organlari, agar qonunchilik hujatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishlari mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari:

- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining tengligi;
- savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamstishlarga yo'q qo'yilmasligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o'zaro manfaatdorlik;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarining davlat tomonidan himoya qilinishi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
- tashqi savdo faoliyati;
- chet el investitsiyalarini jalb qilish;

O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati.

Vazirlik tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, viloyatlar va Toshkent

shahar tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo boshqarmalari, ixtisoslashtirilgan xo'jalik hisobidagi tashkilotlar, xorijiy davlatlardagi Vazirlikka idoraviy mansub tashkilotlar hisoblana-digan xo'jalik hisobidagi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, savdo va iqtisodiy vakolatxonalar kiradi.

Hududiy bo'linmalar ikki tomonlama bo'y sunadilar hamda Vazirlikka va tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga hisob beradilar.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ hujjatlariga, shuningdek o'zining nizomiga amal qiladi.

Vazirlik o'z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tasdiqlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Vazir boshchilik qiladi.

Vazirning to'rt nafar o'rinosari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinosari bo'ladi,

Vazir:

- vazirlik faoliyatiga yakkaboshchilik asosida umumiylar rahbarlikni amalga oshiradi hamda Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarining bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

- vazirlik markaziy apparati xodimlarining belgilangan umumiylar soni doirasida markaziy apparat tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritadi, uning shtatlar jadvalini, shuningdek xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;

- Vazirlik markaziy apparati, hududiy bo'linmalar xodimlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

—Vazirlik markaziy apparati bo‘linmalari, viloyatlar va Toshkent shahar tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo boshqarmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi to‘g‘risidagi nizomlarni belgilangan tartibda tasdiqlaydi.

### *Nazorat uchun savol va topshiriqlar*

1. Statistika sohasini boshqarishning huquqiy asoslari nimalardan iborat?
2. Davlat statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish tartibi qanday?
3. Moliya sohasini boshqarish tushunchasi va vazifalari haqida so‘zlab bering.
4. Kredit sohasini boshqarish qanday tashkil etilgan?
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomi haqida tushuntiring.
6. Hisob palatasining asosiy vazifalari to‘g‘risida so‘zlab bering.
7. Gidrometeorologiya sohasidagi boshqaruvi qanday tashkil etilgan?
8. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasini boshqarishning huquqiy asoslari nimalardan tashkil topgan?
9. «O‘zstandart» agentligining vazifalari nimalardan iborat?
10. Inson huquqlari va erkinliklari sohasida boshqaruvni tashkil etish qanday huquqiy asoslardan tashkil topgan?
11. Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida boshqaruvni tashkil etish haqida so‘zlab bering.

# M U N D A R I J A

## SO'Z BOSHI

### UMUMIY QISM

*Birinchi bo'lim*

#### MA'MURIY HUQUQ – HUQUQ TARMOG'I SIFATIDA

*I bob*

##### MA'MURIY HUQUQ FANINING TUSHUNCHASI, PREDMETI VA TIZIMI

1-§. Davlat boshqaruvi tushunchasi, funksiyalari va prinsiplari.....	6
2-§. Davlat boshqaruvi prinsiplari.....	14
3-§. Ma'muriy huquq tushunchasi, predmeti, uslubi va manbalari.....	19
4-§. Ma'muriy huquqning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o'mi.....	30

*II bob*

##### MA'MURIY-HUQUQIY NORMALALAR VA ULARNING TURLARI

1-§. Ma'muriy-huquqiy norma tushunchasi va xususiyatlari.....	35
2-§. Ma'muriy-huquqiy normalarning turlari, ularning funksiyalari va tuzilishi.....	38
3-§. Ma'muriy-huquqiy normalarni amalga oshirish.....	45
4-§. Ma'muriy huquq manbalari.....	47

### *III bob*

#### MA'MURIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR

1-§. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning mazmuni.....	53
2-§. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning turlari.....	59
3-§. Ma'muriy huquq sohasidagi yuridik faktlar.....	62

### *Ikkinchchi bo'lim*

#### MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTLARI

### *IV bob*

#### IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT ORGANLARI

1-§. Ijro etuvchi hokimiyat organlari tushunchasi va xususiyatlari.....	64
2-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomi.....	68
3-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi.....	73
4-§. Markaziy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ularning maqomi.....	85
5-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomi.....	90

### *V bob*

#### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XIZMATI

1-§. Davlat xizmatining mazmuni va asosiy prinsiplari.....	94
2-§. Davlat xizmatchisi tushunchasi, xususiyatlari va turlari.....	100
3-§. Davlat xizmatchisining huquqiy maqomi.....	108
4-§. Davlat xizmatchilarini rag'batlantirish va javobgarlikka tortish asoslari.....	116

### *VI bob*

#### NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI

1-§. Nodavlat notijorat tashkilotlari – ma'muriy huquq subyekti sifatida.....	119
---	-----

**2-§. Nodavlat notijorat tashkilotlarining turlari va  
huquqiy maqomi.....**

122

*VII bob*

**FUQAROLAR – MA’MURIY HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA**

<b>1-§. O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining ma’muriy- huquqiy maqomi.....</b>	145
<b>2-§. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo’lмаган shaxslarning huquqiy holati.....</b>	152

*Uchinchi bo’lim*

**DAVLAT BOSHQARUVI FAOLIYATINING  
SHAKLLARI VA USULLARI**

*VIII bob*

**DAVLAT BOSHQARUVI FAOLIYATINING SHAKLLARI**

<b>1-§. Davlat boshqaruvi faoliyatining shakllari tushunchasi va turlari.....</b>	159
<b>2-§. Davlat boshqaruvi aktlarining mazmuni va xususiyatlari.....</b>	163
<b>3-§. Davlat boshqaruvi faoliyatining boshqa shakllari.....</b>	169

*IX bob*

**DAVLAT BOSHQARUVI FAOLIYATINING USULLARI**

<b>1-§. Davlat boshqaruvi faoliyatining usullari tushunchasi va turlari.....</b>	175
<b>2-§. Ishontirish – davlat boshqaruv faoliyatining usuli sifatida.....</b>	183
<b>3-§. Davlat boshqaruvida ma’muriy majburlash va uning xususiyatlari.....</b>	184
<b>4-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida ma’muriy majburlov.....</b>	190

*To'rtinchi bo'lim*  
**MA'MURIY HUQUQBUZARLIK VA MA'MURIY  
JAVOBGARLIK**

*X bob*  
**MA'MURIY HUQUQBUZARLIK**

1-§. Ma'muriy huquqbazarlik tushiunchasi va yuridik xususiyatlari.....	198
2-§. Ma'muriy huquqbazarlikning tarkibi.....	208

*XI bob*  
**MA'MURIY JAVOBGARLIK**

1-§. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi, subyektlari.....	220
2-§. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjalari va uning prinsiplari.....	228
3-§. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlikni liberallashtirish.....	231

*XII bob*  
**MA'MURIY JAZO**

1-§. Ma'muriy jazo maqsadi va vazifalari.....	234
2-§. Ma'muriy jazoni qo'llash asoslari.....	237
3-§. Ma'muriy jazo choralar.....	243

*XIII bob*  
**AYRIM TURDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN  
MA'MURIY JAVOBGARLIK**

1-§. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik.....	258
2-§. Aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik.....	264
3-§. Mulkka tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarliklar.....	268
4-§. Tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik.....	271

5-§. Sanoatdagi, qurilishdagi va issiqlik hamda elektr ener-	
giyasidan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar	282
uchun ma'muriy javobgarlik.....	
6-§. Qishloq xo'jaligidagi huquqbuzarlik, veterinariya-sani-	
tariya qoidalari buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik.....	285
7-§. Transportdagi, yo'l xo'jaligi va aloqa sohalaridagi	
huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik.....	291
8-§. Fuqarolarning turar joy huquqlariga taalluqli, kommu-	
nal xizmat va obodonlashtirish sohasidagi huquqbuzar-	
liklar uchun ma'muriy javobgarlik.....	297
9-§. Savdo, tadbirkorlik va moliya sohasidagi huquqbuzarlik-	
lar uchun ma'muriy javobgarlik.....	301
10-§. Odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar	
uchun javobgarlik.....	307
11-§. Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar	
uchun ma'muriy javobgarlik.....	308
12-§. Boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi	
huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik.....	319

*Beshinch bo'lim*

**MA'MURIY JARAYON VA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK  
TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISH**

*XIV bob*  
**MA'MURIY JARAYON**

1-§. Ma'muriy jarayon tushunchasi va xususiyatlari.....	330
2-§. Ma'muriy jarayonning umumiy bosqichlari.....	333
3-§. Ma'muriy-protsessual normalar.....	336
4-§. Ma'muriy-protsessual munosabatlar.....	340.

*XV bob*  
**MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR BO'YICHA  
ISH YURITISH**

1-§. Ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritishning	
vazifalari, prinsiplari va umumiy qoidalari.....	345

2-§. Ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ish yuritishni ta'minlash choralari.....	352
3-§. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organlar (mansabdar shaxslar) va ishlarning taalluqliligi.....	357
4-§. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslar.....	371
5-§. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish.....	374
6-§. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish va protest bildirish.....	378
7-§. Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarirlarni ijro etish.....	381

*Oltinchi bo'lim*

**DAVLAT BOSHQARUVIDA QONUNIYLIK VA INTIZOM**

*XVII bob*

**DAVLAT BOSHQARUVIDA QONUNIYLIK VA INTIZOMNI TA'MINLASH**

1-§. Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlash tushunchasi, mohiyati, usullari.....	389
2-§. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda fuqarolarning taklif, ariza va shikoyatlarining o'mni va ahamiyati....	393

*XVII bob*

**DAVLAT BOSHQARUVIDA KONTROL**

1-§. Davlat boshqaruvida kontrol tushunchasi, turlari va ahamiyati.....	427
2-§. Jamoat kontroli.....	435
3-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida kontrol va uning ahamiyati.....	437

*XVIII bob*

**DAVLAT BOSHQARUVIDA NAZORAT**

1-§. Davlat boshqaruvida nazorat tushunchasi va vazifalari.....	448
2-§. Prokuraturaning umumiy nazorati, uning shakllari.....	450
3-§. Ma'muriy nazorat tushunchasi, turlari va xususiyatlari.....	455

## MAXSUS QISM

*Yettinchi bo‘lim*

### BOSHQARUVNING AYRIM SOHALARINI MA’MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

*XIX bob*

#### IQTISODIYOT SOHASINI MA’MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

1-§. Sohani boshqarishning mazmuni.....	460
2-§. Iqtisodiyot sohasini boshqarish.....	471
3-§. Sanoat sohasini boshqarish.....	475
4-§. Qishloq va suv xo‘jaligini boshqarish.....	484
5-§. Qurilish sohasini boshqarish.....	488
6-§. Xo‘jalik-xizmat ko‘rsatish kompleksini boshqarish.....	493

*XX bob*

#### IJTIMOIY-MADANIY SOHANI MA’MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

1-§. Ta’lim sohasini boshqarish tushunchasi, mazmuni va xususiyatlari.....	516
2-§. Sog‘liqni saqlash sohasini boshqarishning mazmuni.....	531
3-§. Fan sohasini boshqarish.....	532
4-§. Madaniyat va sport sohasida boshqaruvni tashkil etish.....	538
5-§. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish va mehnat sohasini boshqarish.....	543

*XXI bob*

#### MA’MURIY-SIYOSIY FAOLIYAT SOHASINI BOSHQARISHNI MA’MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

1-§. Mudofaa sohasini boshqarish.....	548
2-§. Milliy xavfsizlik sohasini boshqarish.....	564
3-§. Ichki ishlar sohasini boshqarish.....	571
4-§. Favqulodda vaziyatlar sohasini boshqarish.....	578

5-§. Adliya sohasini boshqarish.....	581
6-§. Tashqi ishlar sohasini boshqarish.....	586
7-§. Soliq sohasini boshqarish.....	591
8-§. Bojxona sohasini boshqarish.....	598

*XXII bob*

TARMOQLARARO BOSHQA SOHALARNI MA'MURIY-  
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

1-§. Statistika sohasini boshqarish.....	605
2-§. Davlat mulkini boshqarish.....	607
3-§. Tabiatni muhofaza qilish sohasini boshqarish.....	609
4-§. Moliya va kredit sohasini boshqarish.....	611
5-§. Tarmoqlararo boshqa sohalarni boshqarish.....	617

**M – 39**

**Ma'muriy huquq:** Darslik / H.T. Odilqoriyev, I.Ismailov, N.T. Ismailov va boshq.; prof. X.T. Odilqoriyev va B. E. Qosimovning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. — 640 b.

Ushbu darslikda ma'muriy huquq fanining hozirgi zamon sud-huquq islohotlari sharoitida, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida tutgan o'mi, ma'muriy huquq nazariyasi va ma'muriy-huquqiy munosabatlarning mazmuni ichki ishlar organlari faoliyatini bilan bog'liq ravishda yoritib berilgan. So'nggi yillarda davlat boshqaruvi sohasida o'tkazilgan huquqiy islohotlar sharoitida respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish borasida qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ma'muriy qonunchilikda 2010-yilning 1-yanvarigacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar hisobga olingan.

Yuridik oliy o'quv yurtlarining o'qituvchilari va talabalariga, IIV Akademiyasining professor-o'qituvchilari, tinglovchi va kursantlari hamda ma'muriy huquq masalalari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljalangan.

**BBK 67.99(5Y)1x73**

# **MA'MURIY HUQUQ**

*Darslik*

Muharrir *I. I. Huvaytov*  
Texnik muharrir *D. X. Xamidullayev*

---

Bosishga ruxsat etildi 20. 01. 2010-y. Nashriyot hisob tabag'i  
Buyurtma № 64. Adadi 1000 nusxa.

---

Akademiya noshirlik markazi“ davlat unitar korxonasi  
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 100197,  
Toshkent shahri, Intizor ko'chasi, 68

MA' MURK HUOU

